


# *“O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI DAVRIDA TARBIYA KLASTERLARINI YARATISH MASALALARI”*

***mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman***

***MATERIALLAR TO‘PLAMI***

# *«ВОПРОСЫ СОЗДАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО КЛАСТЕРА В НОВОМ ПЕРИОДЕ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА»*

***Республиканская научно-практическая конференция по теме***

***СБОР МАТЕРИАЛОВ***

# *"ISSUES OF EDUCATIONAL CLUSTER CREATION IN THE NEW PERIOD OF DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN"*

***Republican scientific-practical conference on the subject***

***COLLECTION OF MATERIALS***

**Namangan – 2024-yil, 20-sentabr**

***Bosh muharrir*:** **B. E. Xusanov**
Namangan davlat pedagogika instituti rektori

***Mas’ul muharrir*:** **M. R. Qodirxonov**
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor

***Mas’ul muharrir o‘rinbosari:*** **S. M. Botirova**
Gumanitar fanlar kafedrasi mudiri

**TAHRIR HAY’ATI:**

**Xaydarov Z. U. –** Tarix fanlari nomzodi, dotsent;

**Abdullayev A. N. –** Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;

**Yuldashev J. A. –** Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;

**Qambarov A. B. –** Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, katta o‘qituvchi;

**Zaynobiddinova N.** – Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, katta o‘qituvchi;

**Ataxanov B. T. –** Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, katta o‘qituvchi;

**Ismoilov T. I.** – Pedagogika fanlari doktori, dotsent;

**Texnik muharrir: R. M. Akbarov**

Mazkur “O’zbekiston taraqqiyotining yangi davrida tarbiya klasterlarini yaratish masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-yanvardagi 16-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2024-yilda o‘tkaziladigan respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi”dan o‘rin olgan bo‘lib, anjuman materiallari Namangan davlat pedagogika instituti Ilmiy-texnik kengashining 2024-yil 10-oktabrdagi 2-sonli yig‘ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan. (Bayonnoma. №.2)

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

**NAMANGAN – 2024**

# SO’Z BOSHI

Jahonda globallashuv sur’atlarining ortishi, ta’lim va tarbiya makonida xalqaro raqobatning kuchayishi, axborot texnologiyalari jadal rivojlanishi hamda fanlar integratsiyalashib borayotgan hozirgi sharoitda ta’lim-tarbiya jarayonlarini rivojlantirish tendensiyalarini o‘rganishni talab etmoqda. Ayniqsa, hozirda tarbiya inson, jamiyat va davlatga har doimgidan ham ko‘ra ko‘proq kerak ekanligi ayon bo‘lib bormoqda. Chunki, fan va texnika taraqqiyoti insonlarda dunyoqarashni boyitishga bo‘lgan ehtiyojning turkumlari, shakl va vositalar ko‘lami kengayishiga olib keladi. Bu jarayon esa jahonda umuminsoniy qadriyatlarni ro‘yobga chiqarish va uni tadqiq etishni hamda yangi yondashuvning dolzarbligini keltirib chiqaradi.

Dunyoda tarbiyani isloh qilish, madaniy hayotning o‘zgarishi natijasida yuzaga kelayotgan estetik bo‘shliqlarni rasional va irrasional, nazariy va amaliy, aksiologik va praksiologik yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Olamning estetik mazmuniga integratsiya, axborotlashuv va raqamli texnologiyalarning sezilarli ta’siri inson taraqqiyoti konsepsiyasiga zamonaviy yondoshuvni talab etadi. Bu jarayon o‘z navbatida, estetik bilimlarni takomillashtirish, estetik tarbiyani rivojlantiruvchi metodologiyani yaratish hamda estetik dunyoqarashni boyitishga xizmat qiluvchi omil, vosita va usullarni falsafiy jihatdan ilmiy tadqiq qilish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

O‘zbekistonda kadrlar tayyorlash tizimi, uzluksiz ma’naviy tarbiya hamda pedagogik ta’limni rivojlantirish va shu asosda estetik tarbiyani takomillashtirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Yangi O‘zbekiston jamiyatida so‘nggi yillarda estetik tarbiya tizimini takomillashtirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2019 yilda yoshlarni ma’naviy-ma’rifiy va badiiy-estetik dunyoqarashini boyitish maqsadida maktabgacha, maktab va oliy ta’lim muassasalarida “Besh tashabbus Markazi” tashkil etildi. Mamlakatimizda “5 tashabbus olimpiadasi”, “Talabalar ligasi”, san’at, badiiy ijod va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha tanlovlarini o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi.

O’ylaymanki, ushbu ilmiy anjumanda muhokama qilingan muhim ilmiy maqola va tezislar jamiyatda tarbiya klasterlarini takomillashtirish ta’lim bilan tarbiyaning uzviyligini ta’minlashga qaratilgan yaqin istiqbolning dolzarb masalasiga aylanishi shubhasiz.

**XUSANOV BAXODIR ERGASHEVICH**

**Namangan davlat pedagogika instituti rektori**

**Falsafa fanlari nomzodi, dotsent.**

# 1-SHO’BA: MILLIY TARBIYA TARAQQIYOTINING MA’NAVIY TAMOYILLARI

## MILLIY TARBIYA VA INSON QADRI INTEGRATSIYASI

Botirova Sevara Mamurovna
NamDPI Gumanitar fanlar kafedrasi mudiri
Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori

**Annotatsiya:** Bu maqola ijtimoiy davlatda har bir inson uchun ijtimoiy tenglik, adolat asosida munosib yashash sharoitlari, insonning qadr-qimmati, yoshlarda ma'naviy-axloqiy va mehnat tarbiyasi, ularning mohiyati va vazifalari ma'naviy-axloqiy tarbiyasi haqida ilmiy tushuncha berish, davlatlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, moliya, investitsiya, ishchi kuchi erkin harakatlanadigan iqtisodiy kenglikni tashkil qilish maqsadi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy davlat, tenglik, inson qadri, integratsiya, estetik tarbiya.

**Аннотация:** В данной статье дано научное понимание социального равенства, достойных условий жизни, основанных на справедливости для каждого человека в социальном государстве, человеческого достоинства, духовно-нравственного воспитания молодежи, их сущности и задач, духовно-нравственного воспитания, блага между государствами, цели. особое внимание уделяется созданию экономического пространства, в котором услуги, финансы, инвестиции и рабочая сила могут свободно перемещаться.

**Ключевые слова:** социальное государство, равенство, человеческие ценности, интеграция, эстетическое воспитание.

**Abstract:** This article provides a scientific understanding of social equality, decent living conditions based on justice for every person in a social state, human dignity, spiritual and moral education of young people, their essence and tasks, spiritual and moral

education, goods between states the goal of creating an economic space in which services, finance, investment, and labor can move freely is highlighted.

**Keywords:** social state, equality, human value, integration, aesthetic education.

**Kirish:**

"Estetik tarbiya" mavzusi, jamiyat va inson qadri integratsiyasida muhim ahamiyatga ega. Estetik tarbiya, insonning estetik his-tuyg'ularini rivojlantirish, go'zallikni anglash va qadrlash, ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan jarayondir. Bu jarayon ijtimoiy, madaniy va individual jihatdan muhim rol o'ynaydi. Umuman olganda, estetik tarbiya ijtimoiy davlatning asoslarini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, inson qadri hamda jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

**Tahlillar va natijalar:**

Ijtimoiy davlat har bir fuqaro uchun ijtimoiy tenglik, adolat, ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish, bandlikni taminlash, yashash uchun zarur bo‘lgan iste'mol tovarlarining eng kam miqdorini belgilab qo‘yish, xavfsiz mehnat sharoitini yaratishni talab qiladi. Ijtimoiy davlatda insonlarni ish bilan ta`minlash himoya qilish, kambag`alchilikni qisqartirish choralarini ko`radi.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 1-moddasida O‘zbekiston ijtimoiy davlat ekani belgilangan. Shunga muvofiq, 2023-yil 1-iyunda aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish bo‘yicha Prezident Farmoni qabul qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilgan.[1]

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Konstitutsiyamizda "O‘zbekiston-ijtimoiy davalat degan tamoyilni mustahkamlash g‘oyasini ilgari surgan edi.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida bu g‘oya yanada mustahkamlanib, ijtimoiy davlatni batpo etishining ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi.Davlatimiz rahbari bu xususda to‘xtalib "Biz Yangi O‘zbekistonni "ijtimoiy davlat"tamoyili asosida qurishni

maqsad qilyapmiz. Buni Konstitutsiyada mustahkamlashimiz kerak" deya ta'kidlagan edi [2]

"Ijtimoiy davlat" bilan "inson qadri" bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Ijtimoiy davlatda inson qadr-qimmati, urf-odatlari,an'analari uluĝlanadi. Inson qadri ulug‘. Inson qadri ulug‘langan yurt albatta mustahkam, doim taraqqiy etadi.Xalqi hamjihatlikda mehr muruvvatda yashaydi.

Davlatimiz rahbari "Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda,biz avvalo,har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini,uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz.Inson qadri deganda,biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni,malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish,sifatli ta'lim,ijtimoiy himoya tizimi,sog‘lomekologik miluhit yaratib berishni tushunamiz" deya ta'kidladi[3]. Integratsiya (lotincha integratia-tiklash, to`ldirish,integar-butun so`zidan) - bu suveren davlatlar o`rtasida tovarlar, xizmatlar, moliya, investitsiya, ishchi kuchi erkin harakatlanadigan iqtisodiy kenglikni tashkil qilish maqsadida birlashish jarayoni hisoblanadi.

Estetik tarbiya ko‘chada, tanishlar oldida mahallada, oilada muhim ahamiyatga ega. Bu tarbiya orqali insonni, voqeylikni go'zallik orqali idrok etishni, inson amaliy faoliyatining hamma sohalarida go'zallik va nafosat tuyg'ularini, badiy ijodning umumiy qonuniyatlarini o'rganish orqali ularda nozik did, go'zallikni yaratish va anglash, undan zavqlanish his-tuyg'ulari shakllantiriladi.[4] Estetika haqidagi tushuncha, qarash va nazariyalar ma'lum tizim sifatida qadimgi Misr, Bobil (Vavilon), Hindiston, Yunonistonda, Sharq va Osiyo mamlakatlarida paydo bo‘lgan. Juda qadim zamonlardan buyon dunyo donishmandlari, faylasuf va rassomlari badiiy faoliyatning mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlarini bilib olishga intilganlar. Lekin estetik faoliyatning barcha sohalari, san'atning hamma turlariga xos estetik ong va estetik faoliyat qonuniyatlarini umumlashtiruvchi, tartibga soluvchi fan zarur ekanligini ancha keyin.

«Estetika» atamasining tub ma'nosi yunoncha «estezis» so‘zi bilan aloqador bo‘1ib, «sezish», «his qilish qobiliyati» ma nosini bildiradi. «Estetika» so‘zini birinchi bor fanga atama sifatida olmon ma'rifatchisi, faylasufi Aleksandr Baumgarten (1714— 1782) o'zining «Poetik asarning ba'zi bir masalalari to‘g‘risidagi falsafiy mulohazalar» asarida kiritganBugungi kunda estetika turmushimizning barcha sohalariga kirib bordi, desak yanglishmaymiz. Estetika va ishlab chiqarish, texnika estetikasi va dizayn, tabiat estetikasi, mehnat va nafosat, turmush estetikasi tushunchalari shular jumlasidandir. Go‘zallik va xunuklik, ulug‘vorlik va tubanlik, fojiaviylik va kulgililik estetikaning asosiy kategoriyalaridir. San'atning estetik mohiyati, hayot bilan aloqasi, san’at turlarining vujudga kelishi, hozirgi zamon san'atining asosiy turlari va ularning o'zaro aloqalarida estetika o‘z aksini topmoqda. Go‘zallik hamisha insonga, jamiyat taraqqiyotiga ma'naviy foyda keltiradi. Estetik tarbiyada shaxsestetik madaniyati shakllanishining tashqi va ichki omillari uyg‘unligidan, tarbiyaviy faoliyatning o'ziga xos usullaridan foydalanilgandagina mo‘ljaldagi samaralar va muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.

Estetik tarbiya — o‘quvchining estetik faoliyati orqali amalga oshiriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni, estetik hissiyot, qiziqish, estetik ehtiyoj, estetik did va mulohazalami tarhiyalashini o‘z ichiga oladi.Bular o‘yin, mehnat jarayonida, maishiy faoliyatda, ijtimoiy va tabiat voqealari bilan tanishtirish orqali, san'at asarlari (badiiy tarbiya) vositasida estetik tarbiya berishdan iborat.

Estetik tarbiyaning asosiy vositalari quyidagilardir:

— badiiy adabiyot, tabiat, mehnat

— insonlarni o‘rab turgan muhit, turmush estetikasi;

— tabiat manzaralaridan olingan taassurotlar;

— san'at asarlari;

— o'quvchilarning tasviriy faoliyatlari;

— bayramlar, ko‘ngilochar tadbirlar, urf-odatlar, an’analar;

— ma'lum maqsadga qaratilgan va rejali ravishda amalga oshiriladigan tadbirlar.

Bunday ta'lim-tarbiya va go‘zallik muhiti insonlarning har tomonlama kamol topishiga, estetik didlarining tarbiyalanishiga yordam beradi.Estetik tarbiyaning asosiy maqsadi — jamiyat a'zolarining har tomonlama mukammal rivojlanishlari uchun go'zallikni to‘laqonli his etishga ko'maklashishdan iboratdir zamonlardan buyon dunyo donishmandlari, faylasuf va rassomlari badiiy faoliyatning mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlarini bilib olishga intilganlar. Lekin estetik faoliyatning barcha sohalari, san'atning hamma turlariga xos estetik ong va estetik faoliyat qonuniyatlarini umumlashtiruvchi, tartibga soluvchi fan zarur ekanligini ancha keyin tushunganlar.[5]

## Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir inson ijtimoiy davlatda yashar ekan o`z erkinligi qadr- qimmati,huquq burchlari,urf-odat an`analariga amal qilgan holda yashaydilar. Yuqoridagi gaplardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki yuksalib borayotgan siyosiy davlatda yashar ekanmiz unga munosib yoshlarni tarbiyalashga o`z hissamizni qo`shish burchimiz ekanini unutmaslik lozim.

## Foydalanilgan adabiyotlar:


1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O`zbekiston xalqiga murojaatnomasi.-Toshkent:"O`zbekiston" NMIU,2022. – B. 9
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O`zbekiston xalqiga murojaatnomasi. - Toshkent:"O`zbekiston" NMIU,2022.- B. 10
3. Yangi O`zbekiston sayti. https://yuz.uz
4. Islom Karimov "Yuksak Manaviyat yengilmas kuch" - "Manaviyat-marifat va huquq" E.Umarov.R.Karimov, M.Mirsaidova,G. Oyxo`jayeva
5. Estetika_asoslari. Cho`lpon nomidagi nashriyot Toshkent - 2013

# YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA TARBIYA KLASTERI MAQOMI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Ismoilov Muhammadixon Isroilovich
Namangan muhandislik qurilish instituti
professori, falsafa fanlari doktori
Hoshimov Muzaffarbek Obiljon o'g'li
Namangan muhandislik-qurilish instituti
"Iqtisodiyot va boshqaruv" fakulteti 3-bosqich talabasi

Hozirgi XXI asrimizda materiya, modda, energiya, axborot almashinuvining o'ta jadallashuvi – jahon miqyosida globallashuv jarayonlari, xamda ular bilan bog'liq ziddiyatli masalalarni kun tartibiga qo'ymoqda. Internetdagi tahlikali tahdidlar, unga to'siq qo'yishning murakkabligi, hozirgi yoshlarimizning ayrim qatlamlari uning iskanjasiga tushib qolgani, ta'lim va tarbiya ishlarimizdagi ayrim muammolarning o'z vaqtida hal etilmayotganligi - jamiyatimiz havfsizligi va barqarorligiga tahdid solmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Hozirgi globallashuv davrida, inson ongi va qalbi uchun kurash kuchaygan bir paytda turli g'oyaviy tahdid va hurujlar jamiyatimizning ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatishning kuchli quroli sifatida namoyon bo'lmoqda" [1], - deb ta'kidlashlari biz fikr yuritmoqchi bo'lgan muammoni hal etish har qachongiga nisbatan ham dolzarb ahamiyatga ega ekanligini yaqqol ifodalamoqda.

Ayniqsa Yangi O'zbekiston taraqqiyotida – ma'naviy hayotimizda o'ziga hos sifat o'zgarishlarni ta'minlashda ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan tarbiya klasterlarini yaratish, ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lishi strategik harakterga ega bo'lgan masala sifatida gavdalanmoqda.

Fikr yuritilayotgan muammolarni hozirgi xozirgi zamon talablari darajasida yechish uchun – birinchi navbatda ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan muammolarni aniqlab olish talab etiladi.

Bizning fikrlashimizcha bu muammolar asosan quyidagilardan iborat:

**Birinchidan,** ta’lim va tarbiya orasidagi dialektik munosabatning me’yor darajasida emasligi;

**Ikkinchidan** amaliy falsafa, inson falsafasi, ijtimoiy antropologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogika fanlaridagi – nazariyot va amaliyotning yaxlitligi tamoyillarining me’yor darajasida ishlab chiqilmaganligi;

**Uchinchidan** uzluksiz ta’limning muhim bosqichlari bo‘lgan oila - mahalla - maktabgacha ta’lim, oliy ta’lim orasidagi amaldagi integratsiyaning talab darajasida emasligi;

**To‘rtinchidan,** prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev asoslab bergan quyidagi fikrlar: ya’ni, “Bugun aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi murakkab tuzilgani, ularda nazariy bilimlar amaliyot bilan bog‘lanmagani, o‘quv dasturlarida uzviylik yo‘qligi, darsliklarning mazmuni va sifati qoniqarsiz ekani haqli e’tirozlarga sabab bo‘lmoqda. Amaldagi ta’lim standartlari hamda o‘quv dasturlari, asosan, o‘quvchini ta’limning navbatdagi bosqichiga tayyorlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularni erkin fikrlash va mustaqil hayotga tayyorlash masalasi e’tibordan chetda qolmoqda”.[2] Ayniqsa, yuqoridagi ustuvor muammolardan biri – mustaqil hayotga tayyorlash, o‘ta dolzarb muammo bo‘lib hisoblanadi.

Hech kimga sir emas, bizdan ayrim ta’lim maskanlari – jumladan, ayrim maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi – yoshlarni fikrlashga emas, yodlashga yo‘naltirilgan kasallikdan to‘la halos bo‘linganicha yo‘q.

**Beshinchidan,** ta’limning barcha bo‘g‘inlarida – yoshlarimizda kreativ madaniyat yoki faoliyat, falsafiy madaniyat va dunyoqarash, o‘ziga hos falsafiy-metodologik tamoyillarni chuqur egallash darajasi me’yorida emasligini tan olmoq lozim.

Xo‘sh, qo‘yilgan muammolarni falsafiy-metodologik ma’noda hal etish uchun nimalar qilmoq kerak ?

Dastavval, tarbiya klasterlarini yaratish lozim. Ularning tarkibini o‘z mutaxassisligini zamon talabi darajasida biladigan, ularni ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan integratsiyasini ta’minlay oladigan, katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan,

intuitiv fikrlarni oʻzida mujassamlashtiruvchi, noan'anaviy fikrlovchi kadrlar bilan toʻldirmasdan turib, mavjud qoʻyilgan muammoni yechish oʻta mushkuldir. Buning uchun falsafa, mantiq, etika va estetika, ilmiy ijod metodologiyasi va psixologiyasi kabi fanlar soatini koʻpaytirish, amaliy faoliyatlarda, fan va ta'lim integratsiyani yuqori bosqichga koʻtarish shart.

Bundan tashqari yaratilajak tarbiya klasterlari diqqat markazini yoshlarimiz faoliyatidagi mustaqil fikrlash madaniyatini zamon darajasida egallashni ta'minlash lozim.

Oʻquv mashgʻulotlarida fan va hayot masalalari bilan bogʻliq dolzarb muammolarni koʻra bilib, ularni optimal darajada hal etishni yoshlarning oʻziga havola etilsa maqsadga muvofiq boʻladi. Bu jarayonlarda falsafaning tamoyillari boʻlgan birlik, oʻzaro aloqdorlik va bogʻlanish, rivojlanish va taraqqiyot metodologik instrument funksiyasini bajaradi.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, shakllanadigan tarbiya klasterlarida analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analogiya, modellashtirish, tizimli yondashuv kabi ilmiy bilish metodlaridan keng koʻlamda foydalana bilish – maqsadga erishuvning muhim vositasi hisoblanib, ta'lim va tarbiya orasidagi uzluksiz faoliyatni yanada chuqurlashtira boradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toʻldirilgan ikkinchi nashri. – T.: Oʻzbekiston, 2022. –B.440.
2. Ismoilov M.I. Amaliy falsafa: muammo va yechimlar // Hozirgi zamon falsafasi: holati va taraqqiyotining istiqbollari. Akademik J.T.Tulenovning 80 yilligigiga bagʻishlangan xalqaro va ilmiy-nazariy anjuman nateriallari. T., 2008. –B.242-244.
3. Ismoilov M.I. Innovatsion ta'limning falsafiy masalalari. Oʻsha joyda. 348-350 betlar.

# TARIH DARSLARI ORQALI O'QUVCHI YOSHLARDA MILLIY QADRYATLAR VA ANANALARGA HURMAT RUHIDA TARBIYALASH METODIKASI BO'YICHA EKSPERIMENT ISHLARINI TASHKIL ETISH.

**Isokov Ravshanbek Ulug'bek O'g'li**
**Namangan Davlat Universiteti tadqiqotchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tarix darslari orqali o'quvchilarda milliy qadriyat va an'analarga hurmat tuyg'usini singdirish usullarini ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish yo'lga qo'yilgan. Unda o'quvchilar o'rtasida milliy merosni chuqurroq anglash uchun madaniy ta'limni tarix o'quv dasturiga kiritish muhimligi ta'kidlangan. Maqolada eksperimental ishlarni rejalashtirish, bajarish va baholash muhokama qilinadi, foydalanilgan strategiyalar va metodologiyalar haqida tushuncha beriladi.

**Kalit so'zlar.** An'analar, tarix ta'limi, madaniy meros, eksperimental ish, interfaol usullari, tanqidiy fikrlash.

**Аннотация**. В данной статье планируется организовать эксперименты, направленные на разработку и внедрение методов воспитания у учащихся чувства уважения к национальным ценностям и традициям посредством уроков истории. Он подчеркнул важность включения культурного образования в учебную программу по истории для более глубокого понимания национального наследия среди учащихся. В статье обсуждается планирование, выполнение и оценка экспериментальной работы, а также дается представление об используемых стратегиях и методологиях.

**Ключевые слова**. Традиции, историческое образование, культурное наследие, экспериментальная работа, интерактивные методы, критическое мышление.

**Abstract.** In this article, it is planned to organize experiments aimed at the development and implementation of methods of inculcating the sense of respect for

national values and traditions in students through history lessons. It emphasized the importance of including cultural education in the history curriculum for a deeper understanding of national heritage among students. The article discusses the planning, execution and evaluation of experimental work, and provides insight into the strategies and methodologies used.

**Keywords.** Traditions, history education, cultural heritage, experimental work, interactive methods, critical thinking.

**Kirish.** Globallashib borayotgan dunyoda ta’lim tizimi o‘quvchilarda milliy qadriyatlar va an’analarga hurmat tuyg‘usini tarbiyalashi muhim ahamiyatga ega. Tarix darslari bu maqsad uchun ideal platforma bo'lib xizmat qiladi, chunki ular madaniy merosni o'rganish va qadrlash imkoniyatini beradi. Ushbu maqolada tarix ta’limi orqali o‘quvchilarni milliy qadriyat va an’analarga hurmat ruhida tarbiyalashning samarali usullarini ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish haqida batafsil ma’lumot berilgan.[1]

**Eksperimental ishlarni rejalashtirish**

Maqsadlar: Tajriba ishining asosiy maqsadi tarix darslarida milliy qadriyat va an’analarni samarali singdiruvchi metodlarni ishlab chiqish va sinab ko‘rishdan iborat edi. Muayyan maqsadlarga quyidagilar kiradi:

- Talabalarning madaniy merosini tushunish va qadrlashni kuchaytirish.
- Milliy qadriyat va an’analarga hurmatni targ‘ib qilish.

Zamonaviy jamiyatda ushbu qadriyatlarning dolzarbligi haqida tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish.[2]

Ishtirokchilar: Eksperimental ish usullarining samaradorligini har tomonlama tushunishni ta'minlash uchun turli xil muhitdagi talabalar guruhini jalb qildi. Amalga oshirish jarayoni bo'yicha turli nuqtai nazarlarni to'plash uchun tarix ta'limi bo'yicha turli darajadagi tajribaga ega o'qituvchilar ham kiritildi.

Metodologiya: Eksperimental ish uch bosqichda tashkil etildi: rejalashtirish, amalga oshirish va baholash.

***Rejalashtirish bosqichi***

O‘quv dasturini ishlab chiqish: Milliy qadriyatlar va an’analarni tarix darslariga singdirish maqsadida maxsus o‘quv dasturi ishlab chiqilgan. Bu tegishli tarixiy voqealar, shaxslar va madaniy amaliyotlarni tanlashni o'z ichiga olgan.

O'qituvchilarni tayyorlash: O'qituvchilar yangi o'quv dasturi va o'qitish usullari bo'yicha o'qitildi. Ularni eksperimental ishning maqsadi va usullari bilan tanishtirish maqsadida amaliy mashg‘ulotlar va seminarlar o‘tkazildi.

Materiallarni tayyorlash: Yangi o'quv dasturini qo'llab-quvvatlash uchun o'quv materiallari, jumladan, darsliklar, audiovizual vositalar va interfaol tadbirlar tayyorlandi.

***Amalga oshirish bosqichi***

Tajribaviy test: Yangi o'quv rejasi va usullari dastlab bir nechta tanlangan sinflarda dastlabki fikr-mulohazalarni yig'ish va kerakli tuzatishlar kiritish uchun sinovdan o'tkazildi.

To'liq miqyosda amalga oshirish: tajriba sinovlari asosida usullarni takomillashtirishdan so'ng, o'quv dasturi barcha ishtirok etuvchi sinflarga tarqatildi. O‘qituvchilar tarix darslarida yangi metodlarni qo‘llagan holda, o‘quvchilarni milliy qadriyat va an’analarga singdirishga e’tibor qaratdilar.

***Baholash bosqichi***

Rivojlanish monitoringi: Amalga oshirish jarayoni sinfda kuzatishlar, o'qituvchilarning fikr-mulohazalari va o'quvchilarni baholash orqali yaqindan kuzatib borildi.[3]

Natijalarni baholash: Yangi usullarning samaradorligi turli ko'rsatkichlar, jumladan, talabalarning faolligi, madaniy merosni tushunish va milliy qadriyatlarni hurmat qilish orqali baholandi.

Teskari aloqa va qayta ko‘rib chiqish: Baholash natijalariga ko‘ra, ularning samaradorligini oshirish uchun o‘quv rejasi va o‘qitish usullariga qo‘shimcha tuzatishlar kiritildi.

***Samarali amalga oshirish uchun strategiyalar***

Interaktiv ta'lim: Tarix darslarini yanada qiziqarli va ta’sirchan qilish uchun guruh muhokamalari, rolli o‘yinlar va madaniy sahna ko‘rinishlari kabi interfaol ta’lim usullari qo‘llanildi.[4] Bu tadbirlar o‘quvchilarning o‘quv jarayonida faol ishtirok etishi va o‘z madaniy merosi bilan chuqurroq aloqadorligini rivojlantirish imkonini berdi.

Tanqidiy fikrlash: O‘quvchilarni o‘rgangan milliy qadriyat va an’analar haqida tanqidiy fikr yuritishga chorlandi. Bu qadriyatlarning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati va ularni qanday saqlash va targ'ib qilish bo'yicha munozaralarni o'z ichiga oldi.

***Qiyinchiliklar va yechimlar***

An'ana va zamonaviylikni muvozanatlash: Asosiy muammolardan biri an'anaviy qadriyatlarni zamonaviy ta'lim talablari bilan muvozanatlash edi. Ushbu muammoni hal qilish uchun o'quv dasturi zamonaviy dunyoda an'anaviy qadriyatlarning dolzarbligini ta'kidlash, talabalarni zamonaviy istiqbollarni o'z ichiga olgan holda ularning madaniy merosini qadrlashga undash uchun ishlab chiqilgan.

Inklyuzivlik: Inklyuzivlikni ta'minlash yana bir qiyinchilik edi, chunki milliy kontekstda turli madaniy rivoyatlarni ifodalash muhim edi. O‘quv dasturi millatning madaniy xilma-xilligini aks ettiruvchi va milliy qadriyatlarni har tomonlama tushunishni targ‘ib qiluvchi inklyuziv bo‘lishi uchun ishlab chiqilgan.

**Xulosa.** Tarix darslari orqali o‘quvchilarni milliy qadriyat va an’analarga hurmat ruhida tarbiyalash metodikasi bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari qimmatli tashabbus bo‘ldi. Madaniy merosni tarix fani o‘quv dasturiga kiritish orqali o‘quvchilarda o‘z milliy qadriyat va an’analarini chuqurroq anglash, g‘urur va daxldorlik tuyg‘ularini uyg‘otdi. Bu metodning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o‘quvchilarning axloqiy-axloqiy rivojlanishini shakllantirishda madaniy tarbiyaning ahamiyatini ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Dilnaz B. PEDAGOGIKA FANINING ILMIY TADQIQOT METODLARI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 14. – №. 3. – С. 3-7.
2. Zieleniecová P., UK M. F. F. Pedagogika //Téma podle sylabu: Obsah vzdělávání. – 2018. – Т. 3.
3. Sharofutdinov I. PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK FANLARNING BO 'LAJAK PEDAGOGLARNING AKMEOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDAGI O 'RNI //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 17-24.
4. Akbarali O'g'li S. F. ORGANIZATION OF EXPERIMENTAL WORK AND ANALYSIS OF RESULTS ON THE IMPROVEMENT OF TECHNOLOGIES FOR IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF LEGAL EDUCATION AND TRAINING OF SCHOOLCHILDREN //Frontline Social Sciences and History Journal. – 2023. – Т. 3. – №. 04. – С. 54-61.


## TARIXIY TARAQQIYOTDA TARBIYA INSON RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILI


*Namangan davlat pedagogika instituti magistranti*

*Aliyeva Mexrigul Murodilla qizi*

*Namangan davlat universiteti katta o'qituvchi*

*v.b.dotsent Sh.Tursunova*


**Annotatsiya:** Tarbiyaning asosiy maqsadi — har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish. Bu jarayon davomida inson o'z qobiliyatlari, qiziqishlari va axloqiy qadriyatlari bilan tanishadi.

**Tayanch so'z iboralar**: Tarbiya, ta'lim.shaxsiy rivojlanish, axloqiy qadriyatlar, Ijtimoiy va madaniy kontekst.

**Аннотация:** Основная цель образования – формирование всесторонне развитой личности. В ходе этого процесса человек узнает свои способности, интересы и моральные ценности.

**Ключевые слова и фразы:** Образование, воспитание, развитие личности, моральные ценности, Социальный и культурный контекст.

**Abstract:** The main goal of education is to form a comprehensively developed person. During this process, a person gets to know his abilities, interests and moral values.

**Key words and phrases:** Education, education, personal development, moral values, Social and cultural context

Tarbiya — har bir insonning hayotida muhim o‘rin tutuvchi jarayon bo‘lib, u shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishning poydevorini tashkil etadi. Tarbiya orqali inson o‘zining axloqiy, ma'naviy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantiradi, jamiyatda o‘z o‘rnini topadi.

Tarbiyaning asosiy maqsadi — har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish. Bu jarayon davomida inson o‘z qobiliyatlari, qiziqishlari va axloqiy qadriyatlari bilan tanishadi. Tarbiya, shuningdek, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi, boshqalar bilan o‘zaro munosabatlar o‘rnatishga yordam beradi.

**Tarbiyaviy jarayonning tarkibiy qismlari**

1. **O‘qitish**: Bilim berish jarayoni, o‘quvchilarni yangi ma'lumotlar bilan tanishtirish.
2. **Tarbiyalash**: Axloqiy qadriyatlar va ma'naviy tamoyillarni o‘rgatish.
3. **Rivojlantirish**: Shaxsiy rivojlanish va o‘z-o‘zini anglashga ko‘mak berish.

Tarbiyachilar, o‘qituvchilar va ota-onalar tarbiya jarayonining asosiy ishtirokchilari hisoblanadi. Ular bolalarga nafaqat bilim berish, balki ularga o‘zlariga xos yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish va ularga namuna bo‘lish orqali ham

tarbiyalashadi. Tarbiyachilar o‘z bilimlari, tajribalari va ko‘nikmalari bilan bolalar uchun ishonchli rahbar bo‘lishlari kerak.

**Axloqiy qadriyatlar** Tarbiya jarayonida axloqiy qadriyatlar muhim ahamiyatga ega. Insonlarni hurmat, adolat, sabr-toqat va hamjihatlik kabi qadriyatlar bilan tanishtirish, ularni jamiyatga foydali bo‘lishga undaydi. Axloqiy tarbiya orqali bolalarda o‘zaro hurmat va tushunish hissi shakllanadi, bu esa jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlaydi.

**Ijtimoiy va madaniy kontekst** Tarbiya jarayoni ijtimoiy va madaniy kontekstga mos ravishda amalga oshiriladi. Har bir jamiyat o‘zining madaniy an'analari, diniy qadriyatlari va tarixi bilan tarbiyaga ta'sir qiladi. Shu sababli, tarbiyada mahalliy va global madaniyatlarni hisobga olish muhimdir.

Tarixiy taraqqiyotda inson tarbiyasiga oid masalalar juda muhim ahamiyatga ega. Inson tarbiyasi jamiyatning rivojlanishida, madaniyat va axloqiy qadriyatlarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Quyidagi jihatlar tarbiyaning tarixiy kontekstida alohida e'tiborga loyiq:

**Madaniyat va an'analar**: Har bir davrda tarbiya madaniy an'analar asosida amalga oshirilgan. Masalan, qadimgi yunonlar va rimliklar falsafa va sportga katta e'tibor berishgan. Ular yosh avlodni ilm-fan, san'at va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga undashgan.

Madaniyat va an'analar inson tarbiyasida va jamiyatning rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Ular quyidagi jihatlardan iborat:

**Madaniyatning ta'rifi.** Madaniyat – bu biror jamiyat yoki guruhning o'ziga xos qadriyatlari, urf-odatlari, til, san'at, diniy e'tiqodlari va kundalik hayot tarzidir. Madaniyat insonlarning fikrlash tarziga, ijtimoiy munosabatlariga va tarbiyasiga bevosita ta'sir qiladi.

**An'analar** An'analar – bu avloddan-avlodga o'tib kelayotgan urf-odatlar, rasm-rusumlar va xulq-atvor qoidalari. Ular ijtimoiy birlikni mustahkamlashga, qadriyatlarni saqlab qolishga xizmat qiladi. Misol uchun, nikoh, tug'ilish va o'lim kabi marosimlar an'anaviy qadriyatlar orqali o'tkaziladi.

**Tarbiyadagi roli:**

**Axloqiy qadriyatlar**: Madaniyat va an'analar tarbiyada axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Har bir madaniyat o'zining axloqiy me'yorlarini o'rnatadi.

**Ijtimoiy identitet**: Madaniyat va an'analar insonlarning o'zligini, o'ziga xosligini va guruhga tegishliligini his qilishlariga yordam beradi. Bu ijtimoiy birlik va barqarorlikni ta'minlaydi.

**O'qitish uslublari**: Har bir madaniyat o'zining o'qitish uslublariga ega. Misol uchun, sharq madaniyatida hurmat va kamtarlik, g'arb madaniyatida esa erkinlik va mustaqillik ko'proq e'tibor qaratiladi.

**Madaniy o'zgarishlar** Zamonaviy dunyoda madaniyat va an'analar tez o'zgarib boradi. Globalizatsiya jarayoni mahalliy madaniyatlarga ta'sir ko'rsatadi, bu esa tarbiya jarayonini yanada murakkablashtiradi. Yosh avlodni global va mahalliy qadriyatlarni muvozanatlashishga undash muhim ahamiyatga ega.

**Muvaffaqiyatli tarbiya** Muvaffaqiyatli tarbiya madaniyat va an'analarni hisobga olishni talab etadi. Yosh avlodni tarbiyalashda mahalliy madaniyatni hurmat qilish va o'zaro aloqalarni rivojlantirish muhimdir. Madaniyat va an'analar inson tarbiyasida nafaqat ilmiy bilimlar, balki axloqiy va estetik qadriyatlarni ham o'z ichiga olgan holda tarbiyani yanada boyitadi.

**Diniy ta'sirlar**: Tarbiyada dinning roli ham katta bo'lgan. Turli dinlar tarbiya jarayonida axloqiy qadriyatlarni o'rgatgan, shuningdek, jamiyatda o'zaro hurmat va sabr-toqatni shakllantirishga yordam bergan.

Ha, dinning tarbiyadagi roli juda muhim. Diniy ta'sirlar axloqiy qadriyatlar, adolat, sabr-toqat, o'zaro hurmat kabi asosiy prinsiplarni shakllantirishda yordam beradi. Har bir din o'ziga xos ta'limotlari orqali insonlarni yaxshilikka, ijtimoiy adolatga va hamjihatlikka undaydi.Bundan tashqari, diniy qoidalar va an'analar oilaviy tarbiyada ham muhim o'rin tutadi. Masalan, ko'p dinlarda bolalarga axloqiy normalarni o'rgatish, ularni tarbiyalashda diniy marosimlar va an'analarni qo'llash keng tarqalgan. Bu esa, bolalarda jamiyatga foydali bo'lish, boshqalar bilan birga

yashash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.Dinning ta'siri shuningdek, shaxsning ichki dunyosini, ruhiy holatini ham yaxshilaydi. Bu orqali insonlar o'z hayotlarida ma'noni topishga, qiyinchiliklarga sabr bilan yondashishga va boshqalarga yordam berishga tayyor bo'ladilar. Shunday qilib, din tarbiyada ham biror saboqlik, ham ijtimoiy muhitda o'zaro aloqalar va hamjihatlikni mustahkamlovchi asosiy omil bo'lib qoladi.

**Ta'lim tizimlari**: Tarix davomida turli ta'lim tizimlari, masalan, madrasalar, universitetlar va maktablar shakllangan. Bu tizimlar inson tarbiyasini yanada rivojlantirishga, bilim va ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan.

**Siyosiy ta'sirlar**: Tarbiya siyosiy rejimlar va ijtimoiy tuzilmalar bilan ham bog'liq. Masalan, totalitar rejimlar ko'pincha tarbiyaga o'z ideologiyasini singdirishga harakat qilishadi, bu esa yosh avlodning fikr va qarashlariga ta'sir qiladi.

**Ijtimoiy o'zgarishlar**: Jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlar tarbiyani ham ta'sir qiladi. Industrializatsiya, urbanizatsiya va globalizatsiya kabi jarayonlar inson tarbiyasida yangi talablar va imkoniyatlarni keltirib chiqaradi.

**Inson huquqlari va tenglik**: Inson tarbiyasida inson huquqlari, xususan, tenglik, erkinlik va adolat tamoyillari muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'lim va tarbiya dasturlari bu qadriyatlarni o'z ichiga olgan.

Bu jihatlar inson tarbiyasining tarixiy taraqqiyotda qanchalik muhim ekanini ko'rsatadi va kelajakda ham bu masalalar dolzarbligini saqlab qoladi.

**Xulosa**

Tarbiya — inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, u nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Tarbiya jarayoni axloqiy qadriyatlarni, ijtimoiy ko‘nikmalarni va ma'naviy tamoyillarni shakllantirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega. Tarbiya orqali biz kelajak avlodlarga yaxshilik, sabr-toqat va o‘zaro hurmat kabi qadriyatlarni o‘rgatishimiz kerak. Bu esa jamiyatimizning farovonligi va taraqqiyoti uchun muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1."Pedagogika" A.A. Shonov, N.A. Qodirov. T.2017 yil

2."Bolalar Psixologiyasi" A. Abdurakhmonov**,** T. Xo'jaeva

3."Axloqiy Tarbiya" A. Qodirov T. Abdurazakov

4."Tarbiyaviy jarayon" A. Qodirov T. Abdurazakov

5."Oila va Tarbiya" A. Abdurakhmonov **,** N. Qodirov

# TARIXIY TARQQIYOTDA INSON TARBIYASIGA OID MASALALAR

Botirjonov Muhammadzoxid Muxammadmansur o‘g‘li

NamDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya**: Ushbu maqola "Tarixiy taraqqiyotda inson tarbiyasiga oid masalalar" mavzusini o‘rganadi. Tarbiya tushunchasining evolyutsiyasi, falsafiy va pedagogik yondashuvlar, tarbiya metodlari, insonning ijtimoiy tarbiya jarayonida shakllanishi va zamonaviy pedagogika kabi masalalar tahlil qilinadi. Maqola tarbiya tushunchasining tarixiy rivojlanishi, falsafiy ta'sirlari va zamonaviy metodlarining o‘zgarishini ko‘rsatadi. Shuningdek, oila, maktab, tengdoshlar, va madaniyatning tarbiya jarayonidagi rolini, hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarni o‘rganadi.

**Kalit So‘zlar**: Tarbiya tushunchasining evolyutsiyasi, falsafiy yondashuvlar, pedagogik yondashuvlar, tarbiya metodlari, qadimgi davr tarbiyasi, o‘rta asr tarbiyasi, yangi davr tarbiyasi, Zamonaviy pedagogika, ijtimoiy tarbiya, madaniyat va tarbiya, texnologiyalar va ta'lim, emotsional rivojlanish, jamoaviy ish va hamkorlik.

**Аннотация:** Настоящая статья посвящена теме "Вопросы воспитания человека в историческом развитии". В ней анализируются эволюция понятия воспитания, философские и педагогические подходы, методы воспитания, формирование человека в процессе социального воспитания и современные педагогические практики. Статья демонстрирует историческое развитие

понятия воспитания, философские влияния и изменения в современных методах. Также рассматриваются роль семьи, школы, сверстников и культуры в процессе воспитания, а также современные педагогические подходы и технологии.

**Ключевые слова:** Эволюция понятия воспитания, философские подходы, педагогические подходы, методы воспитания, воспитание в древности, воспитание в средние века, воспитание нового времени, современная педагогика, социальное воспитание, культура и воспитание, технологии и образование, эмоциональное развитие, командная работа и сотрудничество.

**Abstract:** This article explores the topic of "Issues of Human Upbringing in Historical Development." It analyzes the evolution of the concept of upbringing, philosophical and pedagogical approaches, upbringing methods, the process of social upbringing, and modern pedagogical practices. The article demonstrates the historical development of the concept of upbringing, philosophical influences, and changes in contemporary methods. Additionally, it examines the role of family, school, peers, and culture in the upbringing process, as well as modern pedagogical approaches and technologies.

**Keywords:** Evolution of the concept of upbringing, philosophical approaches, pedagogical approaches, upbringing methods, ancient upbringing, medieval upbringing, modern upbringing, contemporary pedagogy, social upbringing, culture and upbringing, technologies and education, emotional development, teamwork and collaboration.

Inson tarbiyasi jamiyatlarning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Tarixiy davrlardan tortib zamonaviy davrgacha bo‘lgan jarayonda tarbiya tushunchasi va metodlari sezilarli darajada o‘zgarib borgan. Ushbu maqolada tarbiya tushunchasining evolyutsiyasi, falsafiy va pedagogik yondashuvlar, turli davrlardagi tarbiya metodlari, insonning ijtimoiy tarbiya jarayonida shakllanishi,

va zamonaviy pedagogika va tarbiya masalalari ilmiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi.

Qadimiy jamiyatlarda tarbiya asosan axloqiy va diniy qadriyatlarni o‘rgatishga qaratilgan. Misr, Yunoniston, va Rimda tarbiya davlatga xizmat qilish va axloqiy idealarga erishish maqsadida amalga oshirilgan. Platon va Aristotelning falsafiy qarashlari tarbiyaga bo‘lgan yondashuvni shakllantirgan.

O‘rta asrlarda Yevropada va Islom madaniyatida diniy ta'lim asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Islom madaniyatida madrasa tizimi va diniy ilm-fanlarning tarbiya jarayonidagi o‘rni kattadir. O‘rta asrlarda Yevropada  tarbiya asosan diniy qadriyatlar va axloqiy me'yorlarga asoslangan.

Yangi davrlarda, ayniqsa Uyg‘onish davri va ma'rifatparvarlikda, tarbiya falsafasi va metodlari yangilandi. Rousseau, Kant, va boshqa mutafakkirlar tarbiyadagi yangi yondashuvlarni, masalan, tabiiy rivojlanish va axloqiy tarbiyani ilgari surdilar.

Bugungi kunda tarbiya tushunchasi shaxsiylashtirilgan, differensiyalangan, va faoliyatga asoslangan metodlarga asoslanadi. Zamonaviy pedagogikada texnologiyalar va ijtimoiy-emotsional rivojlanish muhim rol o‘ynaydi.

Sokratning savol-javob usuli orqali bilish va tafakkur rivojlantiriladi. Bu yondashuv o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va mustaqil o‘rganishni rivojlantiradi.

Platonning ideal davlat modeli tarbiya orqali davlat uchun ideal fuqaro yaratishga qaratilgan. Platon tarbiyaga ahloqiy va intellektual rivojlanishni asosiy maqsad sifatida qaragan.

Rousseau tarbiya jarayonida tabiiy rivojlanishni va bolalarning ehtiyojlarini hisobga olishni ta'kidladi. U tarbiyani bolaning o‘z-o‘zini anglash va tabiiy rivojlanishiga moslashtirish kerakligini ko‘rsatdi.

Kant axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va shaxsiyatni rivojlantirishga e'tibor qaratdi. Uning nazariyasi axloqiy tarbiya va shaxsiyat rivojlanishini asosiy maqsad sifatida ko‘rsatadi.

Dyuining pragmatik yondashuvi tajribaga asoslangan o'rganish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishni ta'kidlaydi. Bu yondashuv o'quvchilarning real hayotdagi tajribalarini va amaliyotlarini hisobga olishni nazarda tutadi.

Qadimgi Yunoniston va Rimda tarbiya metodlari asosan falsafiy va axloqiy ta'limga asoslangan edi. Sokratik metod savol-javob usuli orqali bilim olishga qaratilgan.

Yevropada o'rta asrlarda diniy ta'lim va madrasalarda ta'lim metodlari hukmron bo'ldi. Diniy qadriyatlar va axloqiy me'yorlar tarbiya jarayonida asosiy rol o'ynadi.

Yangi davrlarda tarbiya metodlari proyekt asosidagi o'rganish va shaxsiylashtirilgan ta'limga asoslangan. Bu davrda tarbiya metodlari amaliy tajribalar va shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirildi.

Zamonaviy pedagogikada "blended learning" (aralash ta'lim), raqamli ta'lim vositalari, va faoliyatga asoslangan o'rganish metodlari keng qo'llaniladi. Bu metodlar o'quvchilarga fleksibil va samarali ta'lim olish imkoniyatini beradi.

Oila orqali bolalar ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar, va axloqiy normalarni o'rganadi. Oila tarbiya jarayonining birinchi bosqichi bo'lib, bolaning ijtimoiy shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Maktab, ta'lim muassasalari ijtimoiy rollarni o'rgatish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, va shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi.

Tengdoshlar bilan muloqot orqali bolalar ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi va o'zlarini sinab ko'radi. Do'stlar bilan o'zaro ta'sirlar ijtimoiy rollarni o'zlashtirishda yordam beradi.

Madaniyat ijtimoiy rollar, qadriyatlar, va ijtimoiy me'yorlarni shakllantiradi. Madaniy an'analar va urf-odatlar tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy pedagogika individual ehtiyojlarni hisobga olish va shaxsiylashtirilgan ta'limga asoslanadi. O'quvchilarning qobiliyatlari va qiziqishlariga moslashtirilgan ta'lim dasturlari ishlab chiqiladi.

Raqamli ta'lim vositalari va blended learning metodlari zamonaviy ta'lim jarayonida keng qo‘llaniladi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘rganish va o‘z-o‘zini baholash imkoniyatlarini beradi.

Proyekt asosidagi o‘rganish va amaliy mashg‘ulotlar orqali bilim olish jarayoni faoliyatga asoslangan ta'lim sifatida qo‘llaniladi. Bu metod o‘quvchilarning ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ijtimoiy-emotsional rivojlanishga e'tibor qaratiladi. Emotsional intellekt, o‘z-o‘zini anglash, va boshqalar bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Guruh ishlari va hamkorlik asosidagi ta'lim metodlari o‘quvchilarga jamoada ishlash, mas'uliyatli bo‘lish va hamkorlik qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

**Xulosa**

Ushbu maqola tarbiya tushunchasining tarixiy taraqqiyotini, falsafiy va pedagogik yondashuvlarni, turli davrlardagi tarbiya metodlarini, insonning ijtimoiy tarbiya jarayonida shakllanishini, va zamonaviy pedagogika asoslarini tahlil qiladi. Tarbiya tushunchasi vaqt o‘tishi bilan sezilarli o‘zgarishlarga uchragan va zamonaviy pedagogikada shaxsiylashtirilgan, differensiyalangan yondashuvlar qo‘llaniladi. Tarbiya jarayoni oila, maktab, tengdoshlar va madaniyat kabi turli omillar bilan chambarchas bog‘liq. Zamonaviy pedagogikada texnologiyalar, emotsional rivojlanish va jamoaviy ish kabi yondashuvlar tarbiyaga yangi ko‘rinishlar va imkoniyatlar olib keldi. Maqola tarbiya jarayonidagi bu o‘zgarishlarni keng qamrovli tahlil qilish orqali tarbiya tushunchasining rivojlanishini va zamonaviy pedagogikaning ahamiyatini yoritadi.

**Foydalanilgan Adabiyotlar Ro‘yxati**

1. **Aristotel.** (1994). *Nikomax axloqiyati*. Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti. (Aristotle. (1994). *Nicomachean Ethics*. Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti.)
2. **Kant, I.** (2002). *Axloqiy falsafa*. Moskva: Nauchna kniga. (Kant, I. (2002). *Groundwork of the Metaphysics of Morals*. Moscow: Nauchna kniga.)
3. **Platon.** (1996). *Davlat*. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Nashriyoti. (Plato. (1996). *The Republic*. Tashkent: Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.)
4. **Rousseau, J.-J.** (2005). *Emil, yoki tarbiya*. London: Penguin Books. (Rousseau, J.-J. (2005). *Emile, or On Education*. London: Penguin Books.)
5. **Dyu, J.** (2010). *Pragmatik ta'lim*. New York: Routledge. (Dewey, J. (2010). *Pragmatic Education*. New York: Routledge.)

# "TEMUR TUZUKLARI"DA AXLOQ VA TARBIYA MASALASI"

**Botirova Sevara Mamurovana** Namangan davlat pedagogika instituti, Gumanitar fanlar kafedrasi mudiri Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

**Ma'rufova Jasmina Xabibillo qizi** Namangan Davlat Pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

**Annotatsiya:**Ushbu maqolada dunyoga mashhur sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning biz uchun meros qilib qoldirgan "Temur tuzuklari" asarida odob-axloq va ta'lim-tarbiya masalasi hamda Temurning o'z davrida shu masalalarga ,jumladan,ma'naviyat va ma'rifatga katta e'tibor qaratgani haqidagi ma'lumotlar yoritilgan**.**

**Kalit so‘zlar:**saltanat, "Temur tuzuklari",olim-u ulamolar,ilm-fan,odob-axloq,ta'lim-tarbiya,ma'naviyat,ma'rifat,adolatlilik,do‘stlik.

**Annotation**:In this article, the world-famous general and statesman Amir Temur embodies ethics and education in his work " Temur's Laws", which he left as a legacy for us and the information that Temur paid great attention to these issues, including spirituality and enlightenment in his time,is covered.

**Keywords:** kingdom, "Temur's Laws", scientists and scholars, science, manners, education, spirituality, enlightenment, justice, friendship.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается вопрос этики и воспитания в произведении всемирно известного полководца и государственного деятеля Амира Темура "Законы Темура" и освещены сведения о том,что Темур в свое время уделял большое внимание этим вопросом,в том числе духовности и просвещению.

**Ключевые слова:** царство, «Законы Темура», учёные, наука, нравы, образование, духовность, просвещение, справедливость, дружба.

**KIRISH:**

Amir Temur yaratgan imperiya jahondagi buyuk imperiyalar orasida alohida o‘rin tutadi. U yaratgan imperiyaning buyukligi va qudrati, eng avvalo, uning g‘ayritabiiy shaxsiy fazilatlari va iste'dodi bilan belgilanadi.

Buyuk Sohibqironning murakkab va sharafli hayot yo‘li, serqirra faoliyati zamondosh va keyingi avlod tarixchilari tomonidan bir qator manbalar asosida keng o‘rganildi.

Mazkur asarlarda uning el-yurt va fuqaroning tashvishi, raiyatparvarlik, to‘g‘rilik, mehr-muruvvat, xalq qayg‘usi bilan bandlik, adolatlilik, donishmandlik, dushmanga shafqatsizlik, qat’iyatlilik, din-u diyonatga chorlash, qo‘shnichilik qoidlariga rioya qilish va boshqa insoniy jihatlari haqida ko‘plab ma’lumotlar mavjud.

Buyuk bobokalonimiz, Sohibqiron Amir Temur odob-axloq, iymon, e’tiqod, ta’limtarbiya sohasida o‘zi yuksaklikka erishgan siymolardan biri ekanligiga

ishonch hosil qilish uchun bobomiz tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid o‘gitlarga, pand-nasihatlarga hamda Sohibqiron haqidagi tarixiy asarlarga, jumladan “Temur tuzuklari” asariga ko‘z tashlash kifoya. «Temur tuzuklari» mashhur asarlardan biri bo‘lib, bu asarda ibratli, hayotiy pand-nasihatlar va o‘gitlar mazmunliligi, kuchliligi, teranligi, ta’sirchanligi, umuminsoniy qadriyatlar asosida yozilganligi bilan ajralib turadi. Amir Temurning o‘z davrida ma’naviyat va ma’rifat masalariga katta e’tibor qaratgani ham aynan shu asar orqali isbot etsa bo‘ladi.

“Amir Temur zamonida yozilgan asarlarni qunt bilan mutolaa qilsak, uning ko‘p yaxshi sifatlari bilan tanishamiz. «Temur tuzuklari»i bu ulug‘ insonning ichki olamini, dunyoqarashini, hayotdan olgan saboqlarini qanday talqin etganini, muhim qaror va xulosalarga kelishdan oldin u yoki bu muammoning eng to‘g‘ri yechimiga olib boruvchi omillarni to‘g‘ri belgilash qobiliyatini yaqqol namoyon etadi. Unda Amir Temurning ibratli pand-nasihatlari va o‘gitlari orqali uning el-yurt va fuqarolar g‘ami bilan yashaganligi, doimo xalq ahvolidan boxabar bo‘lganligi, uning yaxshi yashashi uchun barcha sharoitlarni yaratishga davlat rahbari sifatida bel bog‘laganligini anglash mumkin.”[1]

Amir Temur o‘zining siyosatini amalga oshirishda,davlatni boshqarishda ulamolar,ilm-fan ahllari va yuqoridagi tabaqalar vakillariga qattiq tayangan.Buni o‘zining olim-u ulamolar bilan suhbatlaridan birida so‘zlagan nutqidan ham ko‘rishimiz mumkin:"Fan va dinning mashhur kishilari o‘z maslahatlari bilan podsholarga yordam berib kelganlar.Sizlar esa menga nisbatan bunday qilmayapsizlar.Mening maqsadim mamlakatda adolat o‘rnatish,tartib va tinchlikni mustahkamlash,fuqaroning turmushini yaxshilash,yurtimizda qurilishni kuchaytirish,davlatimizni rivojlantirishdir". [2]

Mamalakat rivoji uchun tartib – qoidalarni davlat siyosati tarzida amalga oshirdi. Soliq tizimi, mulkchilikda davlat va jamiyat manfaatlariga asoslanish, ilm – fan, ma’naviyat va ma’rifatga g‘amxo‘rlik qilish, tashqi siyosatda tadbirkorlik va

qat’iyatlikka tayanishda ham o‘z zamonasi uchun ko‘plab yangiliklar yaratdi va o‘zbek davlatchiligi tarixida o‘chmas iz qoldirdi.

Amir Temur donishmandlar nasihatiga amal qilib, davlat boshqaruvida katta tajribaga ega bo‘lib, tashabbuskor insonlarni juda qadrlagan. U shunday deb ta’kidlaydi: “Mening tajribam shuni ko‘rsatdiki, tashabbuskor, loqayd odamlardan qat’iyatlilik, tadbirkorlik, hushyorlik, jangovar, mard, qo‘rqmaslik kabi fazilatlarga ega shaxs afzalroqdir. Tajribali odam minglab odamlarga ish beradi, u o‘z tajribasidan bilib oldi: Qodir Allohning yordami va bandasining tashabbusi bilan g‘olib bo‘lish mumkin".A.Temurning bu so‘zlari bugungi kunimizda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. “Temur tuzuklari” hikmatlar omboridir. Uning har bir sahifasida haqiqatning o‘zi jaranglaydi, uning har bir satri chuqur ma’no-mazmun bilan sug‘oriladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Amir Temurning ibratli,hayotiy pand-nasihatlari va o‘gitlarining har biri ma’no-mazmun kengligi, mantiqning kuchliligi,teranligi,ta’siri,umuminsoniy qadriyatlar asosiga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi va ularni bitmas-tuganmas xazina, odob-axloqqa oid dasturlar deya olamiz. Bu o‘gitlar sohibqironning juda mashaqqatli va sertashvish,goh muvaffaqqiyatli, goh muvaffiqqiyatsiz, goh quvonchli,goho anduhli umrining ijodiy mevasi hamda xalqni bir maqsad yo‘lida birlashtirgan, jipslashtirgan sehrli va tarbiyaviy kuchga ega bo‘lgan durdona merosdir.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘rozova R. "Amir Temur o‘gitlari bizning davrimizda ham dolzarbdir".
2.M.Sherov,B.Xaitov.Amir Temur tuzuklariga harbiy-siyosiy sharh (Monografiya),-Chirchiq,2021

# O`ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA TARBIYA KLASTERINI YARATISH ISTIQBOLLARI: MUAMMO VA YECHIMLARI

Muxammadova Sevaraxon Nazirjon qizi
Farg’ona davlat universiteti 3-bosqich talabasi
E-mail: sevaakhan1999@gmail.com
Telefon: 94 130 02 01

**Annotatsiya:** Maqolada taraqqiyotning yangi bosqichida tarbiya klasterini yaratish bo`yicha sa’y-harakatlar, tarbiya klasterini yaratish istiqbollari va uni amaliyotga joriy qilish, klasterni yaratishda vujudga keladigan muammo va ularning o`ziga xos yechimlari, milliy tarbiyaning bugungi globallashuv davridagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** Yangi O`zbekiston, taraqqiyot strategiyasi, Uchinchi Renessans, tarbiya,innovatsion klaster, pedagogik klaster, xorijiy tajriba, modernizatsiya

**Kirish**

Yangi O`zbekistonda Uchinchi Renessans poydevori qurilayotgan, ta’lim sohasida islohotlar amalaga oshirilib, ta’lim tizimi tubdan modernizatsiya qilinayotgan bir davrda har bir soha mutaxassislarini tayyorlash, Uchinchi Renessansning poydevori bo`lmish tarbiya klasterini yaratish va uni amaliyotga joriy qilish bugungi kunning dolzarb muammosi bo`lib turibdi.

Hozirgi kunda dunyoning ko`plab mamlakatlarining turli tarmoqlarida klasterlar faoliyati yo`lga qo`yilgan. Rivojlangan mamlakatlarda innovatsion iqtisodiyot, fan va ta’lim sohalarini shakllantirish va boshqarishda klasterlardan foydalanish bo`yicha ma’lum tajriba to`plangan. Yevropa mamlakatlari va AQSHda esa bu strategiya keng qo`llanilmoqda. Buyuk Britaniya, Gollandiya, Germaniya, AQSH, Daniya, Fransiya, Italiya, Finlandiya, Shvetsiya sanoatini klasterlar to`la egallagan. Klaster tuzilmalari Shvetsariya, Avstriya, Italiya, Daniya, Hindiston, Koreya, Pokiston, Xitoy va Turkiya davalatlari yengil sanoatida,

Germaniyada kimyo va mashinasozlik, Fransiyada oziq-ovqatlar va kosmetika sanoatlarida muvaffaqqiyatli ishlamoqda. Klasterlarni shakllantirish jarayoni Janubi-Sharqiy Osiyo, Xitoy, Singapur, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda faollashib bormoqda.

Fan va ta’limning ishlab chiqarish bilan uyg`unligi barcha sohalarda taraqqiyotni ta’minlaydi. Bu borada tabiiyki, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning integratsiyasi muhim vazifa. Bu esa o`z-o`zidan innovatsion klasterga yo`l ochadi. Ta’lim-tarbiya sohasidagi klaster shaxsni kamol topishi va yetuk kadr bo`lishiga qaratilgan bo`lib, uning bog`liqligi maktabgacha ta’lim, umumiy o`rta ta’lim, o`rta maxsus ta’lim, oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi jarayonlarni o`z ichiga qamrab oluvchi ta’lim zanjirini bir-biriga bog`lash hisoblanadi. Pedagogik texnologiyada klaster puxta o`ylangan strategiya bo`lib, undan ta`lim oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg`ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Klaster ilgari surilgan g`oyalarni umumlashtirish va ular o`rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

O`zbekistonning 2030-yilgacha bo`lgan klaster siyosati konsepsiyasida “Klaster-bu ma’lum bir hududda jamlangan, ma’lum bir hududa Tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish jarayonida funksional bog`liqlik bilan bog`liq bo`lgan o`zaro bog`liq va bir-birini to`ldiruvchi xo`jalik yurituvchi subyektlar, ilmiy-tadqiqot va ta`lim tashkilotlari guruhidir” deyilgan.

Tarbiya klasteri- bu bir xil hududda joylashgan, gorizantal va vertikal aloqalar bilan bog`langan, tegishli huquqiy shaklga ega bo`lgan kasb-hunar ta’limi sohasida faoliyat yuritadigan ta’lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar, xo`jalik yurituvchi subyektlar, hokimiyat organlari majmui, individual ishtirokchilarning maqsadlari asosida yagona maqsadga erishish uchun ishlab chiqilgan sinergetik ta’sir chorasi.

**Muhokama va Natijalar**

Mamlakatimizda pedagogik ta’lim klasteri va uni amaliyotga tadbiq etish muammosi alohida tadqiqot obyekti sifatida keyingi yillarda keng o`rganilmoqda. Klaster yondashuvi asosida ta`lim-tarbiya jarayonini boshqarishda mavjud

muammolarning ilmiy yechimini topish ularning yechimini o`zaro hamkorlida hal etish imkonini yaratadi.

Uzluksiz ta’lim tizimining hozirgi holatidan kelib chiqib, ilg`or xorijiy tajribalarga asoslangan klaster yondashuvini ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarishga tadbiq etishning asosiy yo`nalishlari, klaster yondashuviga asoslangan o`qitish texnologiyalarini amaliyotga joriy etishning zaruriyatidan kelib chiqqan holda aniqlashtirish lozim. Bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimidagi mavjud muammolarni hal etishda klaster yondashuviga asoslangan hamkorlik, innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga tadbiq etish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun klaster yondashuvi fan va ta’lim -tarbiyani, amaliyotda jamiyatni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni izlash va amalga oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston sharoitida uzluksiz ta’lim tizimida shunday yangi mexanizm yaratilishi hayotiy zaruratga aylandiki, unda ta’lim turlari o‘rtasida o‘zaro nazorat yo‘lga qo‘yilishi, sog‘lom raqobat ta’minlanishi, manfaatlarning sifatli qondirilishiga erishish talab etiladi. Oliy pedagogik ta’limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda ta’lim, fan va ishlab chiqarish tarmoqlari o‘rtasidagi tarqoqlik uzluksiz pedagogik ta’limni klaster rivojlanish modeliga o‘tkazish zaruratini taqozo etmoqda.

Tadqiqotlarimiz natijasida bugungi kunda klasterning tizimdan farqli jihatlarini aniqlashtirdik. Ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, tizim elementlarining har biri alohida vazifani bajarsa-da, ammo ular muhimlik darajasiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Klaster tarkibidagi elementlar esa teng huquqli komponentlardan tashkil topadi.

Ikkinchidan, tizim tarkibidagi elementlardan birining ishlamasligi butun tizimning nuqsonli ishlashiga yoki ishlamasligiga sabab bo‘ladi. Klaster tarkibidagi elementlardan birining ishlamasligi samaradorlikni pasaytirishi mumkin, biroq qolgan elementlarning faoliyatini to‘xtatib qo‘ymaydi.

Uchinchidan, tizimni mexanik aloqadorlik asosida ham tashkil qilish mumkin, ammo klaster tarkibidagi elementlar ongli, tabiiy va maqsadli aloqadorlikka asoslanadi.

To‘rtinchidan, tizimni tashkil qiluvchi elementlarda har doim ham xususiy manfaatdorlik talab qilinmaydi, ammo klasterda xususiy manfaatdorliksiz sub’yektlar ishlamaydi.

Beshinchidan, tizimda yagona maqsad mavjud va har bir element o‘sha maqsadga bo‘ysundirilgan bo‘ladi. Klasterda esa yagona maqsaddan (umumiy maqsaddan) tashqari har bir elementning xususiy maqsadi ham bo‘ladi. Sub’yektlarning xususiy maqsadlari umumiy maqsaddan kam ahamiyatga ega emas.

Oltinchidan, tizimni alohida qismlardan iborat butunlik, klasterni esa alohida butunliklardan iborat butunlik, deyish mumkin.

Tarbiya klasteri o‘zida nafaqat ta’lim turlari o‘rtasidagi, balki fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyalashuv jarayonlarini, shuningdek, ta’limni boshqarish, ta’lim vositalari va shakllari bilan bog‘liq sohalarni ham jamlaydi. Klaster yondashuvi ta’lim berish, o‘quv adabiyotlarini yaratish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta’lim va tarbiya uzviyligi bilan bog‘liq umumiy yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi. Bu esa muammoning umumiy metodologik xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. Ayni paytda bu umumiy yo‘nalishlar ta’limni boshqarish va tashkillashtirish, ta’lim turlari va yo‘nalishlari, uzviylik va integratsiyani ta’minlash, o‘qitish metodlari va vositalari kabi yo‘nalishlarda xususiy metodologik xarakter kasb etadi. Bu esa muammoning yechimiga nisbatan deduktiv (umumiylikdan xususiylikka kelish) usulda yondashish maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda sodir bo‘layotgan fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi tadrijini kuzatish bizga uning mazmunini zamon talablariga muvofiq takomillashtirish zaruratini paydo qilmoqda. Bu uchala sohaning o‘zaro integratsiyasini ta’minlash va u orqali ta’limning fanga, fanning ishlab chiqarishga

“xizmat qilishi”ga erishish, darhaqiqat, muhim. Ammo yillar davomida mazkur uchlikni o‘zaro uzviy bog‘laydigan, ularning hamkorligini ta’minlaydigan va integratsiyasini qaror toptiradigan samarali mexanizm ishlab chiqilmadi. Bizningcha, buning sababi, bu uchlikning har biri alohida tizim sifatida o‘zida bir qancha sub’yektlarni birlashtirishida ko‘zga tashlanadi. Birgina ta’lim tizimini olib qaraydigan bo‘lsak, unda ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi hamkorlik, munosabat masalalari, ta’lim mazmuniga qo‘yilayotgan talablar, vositalarni zamonaviylashtirish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish bilan bog‘liq juda ko‘plab masalalar mavjudki, ularni yo‘lga qo‘ymasdan turib uchlik integratsiyasini ta’minlash qiyin. Ta’limdagi vertikal integratsiyalarni ta’minlamasdan ta’lim, fan va ishlab chiqarishga asoslangan gorizontal integratsiyani qaror toptirish mumkin emas. Demak, ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi bu uchlikning har birida mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirishni talab qiladi. Birgina misol, oliy ta’lim muassasalari va umumiy o‘rta ta’lim maktablari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari va mahalla, ta’lim muassasalari va mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlik qilishning aniq mexanizmlari ishlab chiqilmagan. Pedagogik ta’lim klasteri mazkur bo‘shliqlarni to‘ldirishga, ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlashga yordam beruvchi model sifatida taklif qilinmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim siyosatining tamoyillari va mavjud shart-sharoitdan kelib chiqqan holda pedagogik ta’lim klasterining tamoyillari takomillashtirildi. Ularning ayrimlari ta’lim tizimida yondashuv, shakl yoki mazmun hodisasi sifatida mavjud. Chunki pedagogik ta’lim innovasion klasteri mamlakatimizda amalda bo‘lgan ta’lim tizimiga muqobil yangi ta’lim modeli emas. Ushbu modelni mavjud tizimni takomillashtirishga qaratilgan yangicha yondashuv sifatida tushunish maqsadga muvofiq bo‘ladi va bu biz taklif qilayotgan tamoyillarni tushunishga, amalda qo‘llashga yordam beradi.

Pedagogik ta’lim klasterining tamoyillari quyidagilardan iborat:

Tabiiy aloqadorlik tamoyili: klaster sub’yektlari o‘rtasidagi hamkorlik, aloqadorlik masalasining tabiiyligi, ya’ni bog‘liqlik masalasining hududiy, sohaviy yoki vazifaviy jihatdan ob’yektivligidir.

Uzviylik va uzluksizlik tamoyili: klaster sub’yektlarining o‘zaro bog‘liqlikda zanjir hosil qilishi, zanjirni hosil qiluvchi har bir bo‘g‘in o‘zining aniq vazifalariga ega ekanligi, uzluksizlik zanjirida bo‘shliqlarga yo‘l qo‘yilmasligidir.

Izchillik tamoyili: klaster sub’yektlarining vertikal yagona chiziq bo‘ylab joylashuvi, bunda quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich harakatlanish tendensiyasiga amal qilinishidir.

Vorisiylik tamoyili: klasterning avlodlar almashinuvidagi roli, tyutorlik faoliyati, pedagogik ta’limni klasterlashtirish natijasida sub’yektlarning malakali pedagog xodimlarga bo‘lgan ehtiyojining muntazam qondirilishiga erishishdir.

Yo‘naltirilganlik tamoyili: klaster doirasida amalga oshirilayotgan har bir faoliyat turining aniq maqsadga yo‘naltirilgani, kutilayotgan natijalarning oldindan chamalash va baholash imkoniyatining mavjudligidir.

Zamonaviylik tamoyili: sohaga oid zamonaviy ilm-fan yutuqlarini tizimga joriy qilish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish, axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish.

Maqsadning umumiyligi tamoyili: klaster sub’yektlarining xususiy maqsadlaridan tashqari global aspektdagi yagona maqsad atrofida birlashuvi.

Manfaatlarning xususiyligi tamoyili: pedagogik ta’lim klasteri modelida har bir sub’yektning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan manfaatdor bo‘lishi.

O‘zaro nazorat tamoyili: klaster modeli doirasida birlashgan ta’lim sub’yektlarining o‘zaro yagona tizimni hosil qilishi va bu tizimning nuqsonsiz ishlashidan har bir sub’yektning manfaatdor ekanligi, ma’lum sub’yektda yo‘l qo‘yilgan xato yoki kamchilik boshqa sub’yektlarning faoliyat samaradorligiga ta’sir ko‘rsatishi, sub’yektlar faoliyatini o‘zaro baholash tizimining yo‘lga qo‘yilishidan iborat.

Klaster yondashuvi asosida “ustoz-shogird” an’analariga tayanib tarbiyalashning ilg`or usullarini ishlab chiqish va o`quv jarayoniga tadbiq etish ta’lim sifat ko`rsatkichi darajasiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

**Xulosa**

Xulosa o`rnida shuni aytish joizki, tarbiya jarayonini boshqarishda klaster yondashuvini qaror toptirish va o`qitish texnologiyalarini joriy etish o`qituvchining pedagogik ijodkorligini faollashtirish va ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish shartlarini yanada aniqlashtiradi, oliy ta’limda yagona ijodkorlik muhitini yaratish, talabalardagi o`ziga nisbatan ishonch, ma’suliyatni his qilgan holda mustaqil harakat qilish ko`nikmalarini tarbiyalash, fanlararo integratsiyani amalga oshirish, o`qituvchining kasbiy mahoratini oshirish mexanizmlari, usullari, texnologiyalarini amaliyotga tadbiq etish uchun qulay ta`limiy muhitni yuzaga keltiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo`yicha qo`chimcha chora-tadbirlari to`g`risida”gi PF-5987-son Farmoni: Toshkent. 2020-y 29-aprel
2. Mirqosimova M. THE POETIC MASTERY OF MUHAMMAD YUSUF. INTERNATIONAL JOURNAL OF PHILOSOPCIAL STUDIES AND SOCIAL SCIENCES Vol1, Issue 4, 2021.
3. Mirqosimova M. Principles of innovative pedagogy. Los Angelas, California USA October 2021
4. “Yangi O`zbekiston” gazetasi, Toshkent. 2024-y 27-fevral.

# “AVESTO” DA TABIATNING ULUG‘LANISHI, YER, TUPROQ, SUV, HAVONING MUQADDASLASHTIRILISHI

**Valiyeva Nafisa** Namangan davlat pedagogika instituti, Gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Muxtorova Muqaddas Olimxon qizi** Namangan davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabasi

***Tel:*** *+998 95 868 16 06*

***E-mail:****Muqaddasmuxtorova2006@gmail.com*

**Annotatsiya**. Mazkur maqola „Avesto“ da tabiatning ulug‘lanishi va uning suv asoslari, havo va tuproqning yer, muqaddas hayoti haqida so‘z boradi. Zardushtiylik diniy ta‘limotida bu tabiiy mahsulot hayotning asosi sifatida qabul va ularni himoya qilish insonning ma‘naviy burchi sifatida e‘tirof qilinadi. Yer ona sifatida ulug‘lanadi, suv poklikramzi hisoblanadi, havo va tuproq esa inson mavjudot uchun hayotiy manba sifatida e‘tirof etiladi. Maqolada tabiat va uni saqlab qolish qadimiy davrlarda muhim bo‘lib, bu jarayonda bugungi kundagi vaziyatlarni hal etishda ham muqaddaslashtiriladi.

**Abstract.** This article discusses the glorification of nature in the “Avesta,” focusing on the sacredness of its elements: water, air, and soil. In Zoroastrian teachings, these natural products are recognized as the foundation of life, and protecting them is acknowledged as a moral duty of humanity. The earth is revered as a mother, water is considered a symbol of purity, and air and soil are recognized as vital sources for living beings. The importance of preserving nature has been significant since ancient times, and this process is seen as sacred in addressing today‘s issues.

**Kalit so‘zlar:** Avesto, Zardushtiylik, tuproq, suv, tabiat, diniy e‘tiqodlar.

**Keywords:** Avesta, Zoroastrianism, soil, water, nature, religious beliefs.

Zardushtiylik, qadimgi O‘rta Sharq dinlaridan biri bo‘lib, uning asosiy manbasi “Avesto” dir. Bu kitobda tabiatning har bir elementi – yer, tuproq, suv va havo ulug‘lanadi va ularning muqaddasligi ta‘kidlanadi. Zardushtiylik dinining mohiyati va g‘oyalari, tabiatni himoya qilish va hurmat qilish orqali hayot va ma‘naviy o‘sishni ta‘minlashga qaratilgan. Ushbu maqolada “Avesto” da tabiatning ulug‘lanishi, uning elementlarining ahamiyati va zamonaviy hayotdagi o‘rni muhokama qilinadi.

Yer va tuproq “Avesto” da juda muhim rol o‘ynaydi. Tuproq hayotning asosiy manbai sifatida qabul qilinadi. Zardushtiylikda yerni ona sifatida tasvirlashadi, chunki u hayot beryapti, oziq-ovqat ishlab chiqaradi va barcha tirik mavjudotlarga qo‘llab-quvvatlaydi. “Avesto” da yerning pokligi va uning muqaddasligi haqida ko‘plab oyatlar mavjud. Bu yer, inson hayoti uchun zarur bo‘lgan barcha narsalarni o‘z ichiga oladi va uning muqaddasligini buzish gunoh deb hisoblanadi [1].

Yerning ifloslanishi va unga zarar yetkazish zardushtiylar tomonidan qattiq qoidalar bilan nazorat qilinadi. Zardushtiylar tuproqni muhofaza qilish uchun to‘g‘ri ishlov berish, o‘g‘itlar va pestitsidlardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish, yerga ifloslantiruvchi narsalarni tashlamaslik kabi amaliyotlarni o‘z ichiga olgan qoidalar belgilaganlar. Bu esa tabiatni saqlab qolish va uning muqaddasligini hurmat qilishga yordam beradi.

“Suv” zardushtiylikda muhim o‘rin tutadi. “Avesto” da suv har doim poklik, tozalikka va hayotga bog‘langan. Suv, odatda, poklik ramzi sifatida ko‘riladi, chunki u hayot manbai hisoblanadi. Har bir inson va hayvon suvga muhtojdir, va zardushtiylar suvni muhofaza qilishni o‘zlarining diniy burchlari deb bilganlar.

Suvni ifloslantirish, zardushtiylikda eng yomon gunoh sifatida qaraladi. Ular daryolar, ko‘llar va buloqlarni toza saqlash, ularga chiqindilarni tashlamaslik va har qanday ifloslantiruvchi moddalarni suvga solmaslikka chaqirganlar. Suvni tozalash va uning muqaddasligini saqlash maqsadida zardushtiylik diniy

marosimlar o‘tkazilgan. Suvning har doim pok bo‘lishi, insonlarning ichki pokligi va ma‘naviy holatiga bevosita ta‘sir qiladi [2].

Havo, shuningdek, “Avesto” da ulug‘lanadi. Zardushtiylikda havo, hayotiy energiya manbai sifatida e‘tirof etiladi. Insonlar va boshqa tirik mavjudotlar nafas olish orqali hayotiy energiya olishadi, bu esa ularning ruhiy holatiga ta‘sir qiladi. Havoning pokligi va tozaligi, insonlarning sog‘lig‘iga bevosita ta‘sir qiladi.

Zardushtiylar havoni ifloslantirishni taqiqlagan va uni toza saqlash uchun qat‘iy qoidalar belgilagan. Ular havoni himoya qilishni o‘zlarining ma‘naviy vazifalari deb bilishgan va bu borada qattiq e‘tiqodga ega edilar. Odatda, zardushtiylar ibodat marosimlarini ochiq havoda o‘tkazganlar, chunki bu ularning diniy amallarini yanada toza va pok saqlashga yordam bergan. [3]

Tuproq “Avesto” da ajralmas ahamiyatga ega. U nafaqat yerning muhim qismi, balki hosildorlik manbai sifatida ham e‘tirof etiladi. Zardushtiylikda tuproq, o‘simliklar va hayvonlar bilan birgalikda tabiatning bir butun qismi sifatida ko‘riladi. Ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi, chunki ular bir-birini to‘ldiradi va hayotiy jarayonlarni ta‘minlaydi.

Zardushtiylikda tuproqni ishlatishda ehtiyotkorlik va mas‘uliyat muhimdir. Tuproqni ifloslantirish va uni noto‘g‘ri ishlatish, nafaqat uning hosildorligini pasaytiradi, balki insonning ma‘naviy holatini ham buzadi. Bu esa zardushtiylar uchun muhim masala hisoblangan. Ular o‘zlarining amaliyotlarida tuproqni ehtiyotkorlik bilan ishlatganlar va undan oqilona foydalanish muhimligini ta‘kidlaganlar.

“Avesto” da tabiatni ulug‘lash g‘oyalari bugungi kunning ekologik tushunchalari bilan uyg‘un keladi. Zardushtiylikning asrlar davomida tabiatni hurmat qilish va uni himoya qilishni ta‘kidlagani, zamonaviy ekologik muammolarni hal qilishda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. O‘sha davrda tabiat resurslarini o‘rinsiz sarflash va ifloslantirishga qarshi qoidalar, hozirgi kunda atrof-muhitni muhofaza qilishga oid qoidalarga o‘xshash edi.

Zardushtiylar tabiat elementlarini himoya qilishni o‘zlarining diniy va ma‘naviy burchi deb bilganlar. Ular tabiatning barcha elementlarini muqaddas deb hisoblab, ularni ehtiyot qilish va ularning sof va pokligini saqlashni hayotiy vazifa sifatida qabul qilganlar. Zardushtiylikda tabiatni hurmat qilish va uni ifloslantirmaslik insonlarning ma‘naviy holatiga bevosita bog‘liq bo‘lgan.

"Avesto"da yer, tuproq, suv va havoning muqaddaslashtirilishi Zardushtiylikda tabiatni hurmat qilishning qanchalik muhimligini ko‘rsatadi. Ushbu qadimiy e‘tiqodda tabiatning har bir elementi hayot va inson ma‘naviy hayotining ajralmas qismi sifatida qaralgan. Zardushtiylar tabiatni faqat material boylik emas, balki insonning ma‘naviy o‘sishi uchun zarur bo‘lgan muqaddas unsur sifatida qabul qilganlar.

Tabiatni muhofaza qilish va unga bo‘lgan hurmat bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Insoniyatning ekologik inqirozlari qarshisida qadimiy zardushtiylik g‘oyalari atrof-muhitni himoya qilish va qayta tiklashda ilhom manbai bo‘lishi mumkin. Yer, suv, havo va tuproqni muhofaza qilish nafaqat tabiiy resurslarni saqlab qolish, balki insoniyatning ma‘naviy va jismoniy farovonligini ham ta‘minlashga yordam beradi. Shu sababli, “Avesto” ning qadimiy g‘oyalari zamonaviy jamiyat uchun ham qimmatli saboqlarni o‘z ichiga oladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar va Internet sahifalar

[1]. Boymatov, S. "O‘zbek xalqining ma’naviy merosi: Avesto." Toshkent: Fan nashriyoti, 2006.

[2]. Gafurov, B. G. "Zardushtiylik: qadimgi din va madaniyat." Toshkent: Sharq nashriyoti, 2003.

[3]. Rahmonov, S. "Zardushtiylik ta’limoti va Avesto merosi." Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.

[4]. Dhalla, M. N. "Zoroastrian Civilization." Oxford University Press, 1963.

[5]. https://www.britannica.com/topic/Zoroastrianism

# TARIXIY OBIDALARNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O‘RNI.

Ataxonov Baxtiyor Turaboyevich NamDPi Ijtimoiy-fanlar fakulteti, tarix fani dotsenti, PhD.
Raximjonova Adolat Botirjon qizi NamDPI Ijtimoiy-fanlar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti 1-bosqich talabasi.
botirdadaboeb@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yoshlarning tarbiyasida tarixiy yodgorliklarning katta rol óynashi, ularning hayotida estetik ruhni kashf etishi, milliy ózlik va qadriyatlarni his qilishi va madaniy meros haqida tasavvur hosil qilishi tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yodgorliklar, tarixiy shaxslar, milliy ğurur,allomalar,Prezident, xalq, taraqqiyot,milliy ta'lim, meros.

**Abstract:** The article analyzes the role of historical monuments in the education of young people,the discovery of aesthetic spirit in their lives,the feeling of national identify and values and creation of an image of cultural heritage.

**Key words:** Monuments, historical figure, national pride, scienststs,President, people development, national education, heritage.

**Аннотация:** В статье анализируется рол исторических памя тников в воспитании молодёжи раскрытии эстетисчего духа в ее жизни, ощущении национальной идентичности и ценностей, создании образа культурного наследия.

**Ключевые:** слова:памятники,исторические личности национальный гордость,учение, Президент,народ,развитие, национальнойе образование, наследие .

O'zbekiston o'z qadimiy madaniyatiga, qadriyatlariga ega davlat. Yurtimizda qadimiy yodgorliklarni o'rganish, asrash, milliy qadriyatlarimizni tiklash, ularni dunyo hamjamiyatiga tanishtirish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Ma'lumki, insonlar go'zallikka intilib yashaydi unga talpinadi.O'tgan necha ming yillardan buyon insonlar aqlga sig'mas darajada go'zal va nafis asarlar yaratib, uni asrab kelmoqda.

Ajdodlardan-avlodlarga juda ko'p qadimiy va ma'naviy-madaniy boy meros qolgan.Ana shu meroslar dunyo hamjamiyatini yurtimizga yanada ko'proq qiziqishi ortishiga sabab bo'lmoqda.Bu borada Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek: “Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an’analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi”. [1]

Shuni aytib o'tish ham kerakki, o'lkamiz hududidagi yoshi Rim va Bobilga tengdosh Buxoro, Samarqand, Toshkent, Shahrisabz, Xiva kabi shaharlarimiz va ularda bugungi kungacha saqlanib kelinayotgan tarixiy-madaniy yodgorliklarimiz borligidan g'ururlansak arziydi.Bugungi yosh avlodni ya'ni bizni ma'naviy yetuk, ma'nan sog'lom qilib tarbiyalashda mana shu obidalarning o'rni beqiyosdir. Sharq va g'arbni tutashtirib turuvchi «Buyuk Ipak Yo'li»ning o'rtasida joylashgan O'zbekiston hududidagi turli darvrlar va svilizatsiyaga oid ko'plab tarixiy va madaniy meroslar mavjud va ular butunjahon hamjamiyat madaniy merosi sifatida YUNESKOning ro'yxatiga olingan.

Hozirgi kunda zamonaviy yoshlar hayotida madaniyatlar, turli xildagi g'oyalar to’qnashuvi bo’lmoqda.Har qanday millatning taraqqiyoti jamiyatdagi yoshlarning milliy qadriyatlar va milliy g'oyaga munosabati yoshlar qalbi va ongi va ichki dunyosiga qanday ta'sir etayotganligiga hamda amaliy faoliyatlariga qanday tarzda tayanishlariga bevosita bog’liq.Shunday ekan yoshlarning zamonaviy hayotida milliy g’oyani anglashi ,e'tiqodi va ishonchiga aylanishi milliylikni saqlab qolgan holda yangi qadryatlar shakillanishiga asos bo’ladi.

Milliy g'oyaning yoshlar ongiga nechog'li ta'siri, buyuk kelajak sari safarbar etuvchilik, chorlovchilik,buyuk maqsadlarga erishish yo'lida ilhomlantiruvchilik sohasidagi axamiyati, ta'lim va tarbiyadagi muhum roli va o'rni uning hayotda va xalq turmushiga qanchalik muvofiq va mosligiga qarab belgilanadi.

«Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli,bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o 'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqibqolishimiz mumkin.»[2]

Darhaqiqat, inson yashashi, o'zligini tanishi, boshqalardan o'zini farqalay olishi uchun u o'z tarixini bilishi, avlodlarining hayotini o'rganishi, o'z tarixiy obidalaridan ma'naviy ozuqa olishi kerak. Ma'naviy ozuqa olsagina uninh ma'naviy tarbiyasi shakllanadi. Bu hech shubhasiz tarixga, tarixiy obidalarga borib taqaladi.

O'zbekistondagi tarixiy obidalarni o'rganish bo'yicha ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tadqiqotlar olib borgan. Ularning ishlari O'zbekiston madaniy merosi va tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Quyida ba'zi muhim olimlar va ularning tadqiqotlari haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

Mahalliy olimlar

1.Yahyo G'ulomov – O'zbek arxeologi va tarixchisi bo'lib, Samarqand, Xiva, Buxoro va Toshkent hududlaridagi arxeologik qazishmalar olib borgan. U O'zbekistonning qadimgi shahar va madaniyatlarini o'rganishga katta hissa qo'shgan.

2.Edvard Rtveladze – Arxeologiya va tarix bo'yicha mashhur mutaxassis, O'zbekistonning qadimgi tarixi, jumladan, Afrosiyob (Samarqand), Maroqand va

boshqa joylarda tadqiqot olib borgan. U qadimgi manbalar asosida O'rta Osiyodagi ko'plab tarixiy obidalar va madaniy yodgorliklar haqida yangi bilimlar kashf etgan.

3.Ahmadali Asqarov – O'zbek arxeologi va tarixchisi bo'lib, Farg'ona vodiysi va Surxondaryo viloyatlaridagi tarixiy obidalar, qadimgi yodgorliklar ustida tadqiqot olib borgan. U Qadimgi Baqtriya, Sugdiyona madaniyatlarini o'rganishda katta hissa qo'shgan.

4.Ibrohim Muminov – Tarix va madaniyatshunos olim, Buxoro va Xiva kabi qadimiy shaharlardagi madaniy obidalar haqida tadqiqotlar olib borgan. U madaniy obidalarni saqlash va tiklash masalalarida ko'plab asarlar yozgan.

Xorijiy olimlar

1.Sergey Pavlovich Tolstov – Rus arxeologi va antropologi bo'lib, Amudaryo deltasida qadimgi Xorazm madaniyatini o'rganish bilan shug'ullangan. U Xorazm ekspeditsiyasini boshqarib, Ko'yqirilganqal'a, Topraq qal'a va boshqa qadimiy shaharlarni kashf qilgan va tadqiq qilgan.

2.Jozef P. Strebey – Polshalik arxeolog va san'atshunos bo'lib, O'zbekistondagi islomiy me'morchilik va san'atni o'rganishga qiziqqan. Uning ishlarida Samarqand va Buxorodagi masjid va madrasalarning me'moriy uslublariga alohida e'tibor qaratilgan.

3.Vladimir Masson – Rus arxeologi bo'lib, Surxondaryo viloyatida qadimgi shahar va qal'alarni, xususan, Qadimgi Termiz va Dalvarzintepa yodgorliklarini o'rgangan. Uning izlanishlari Baqtriya madaniyatiga oid ko'plab ma'lumotlarni ochib bergan.

Bu olimlar O'zbekistondagi tarixiy obidalarni o'rganish va ularning madaniy ahamiyatini tushunish uchun muhim izlanishlar olib borganlar. Ular amalga oshirgan tadqiqotlar asosida O'zbekistonda joylashgan qadimiy shaharlar, madaniy obidalar va me'moriy yodgorliklar haqida qimmatli ma'lumotlar saqlanib qolgan.

O'zbekistondagi tarixiy obidalarni o'rganishda olib borilayotgan tadqiqotlar arxeologiya, me'morchilik, tarix, san'at tarixi va restavratsiya kabi sohalarni qamrab oladi. Ushbu tadqiqotlar O'zbekistonning boy madaniy merosini saqlash,

tiklash va o‘rganish uchun muhim ahamiyatga ega. Quyida asosiy tadqiqot yo‘nalishlari va faoliyatlar keltirilgan:

1.Arxeologik tadqiqotlar va qazishmalar

O‘zbekistonning Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, va Xorazm kabi hududlarida arxeologik qazishmalar olib borilmoqda. Bu tadqiqotlar qadimgi shaharlardagi yodgorliklarni va ularning tarixiy ahamiyatini o‘rganishga yordam beradi. So‘nggi yillarda Dalvarzintepa, Afrosiyob (Samarqand), Ko‘yqirilganqal’a va Topraq qal’a kabi joylarda keng miqyosli qazishmalar amalga oshirildi.

2.Restavratsiya va konservatsiya ishlari

Tarixiy obidalarni saqlab qolish va ularni kelgusi avlodlarga yetkazish uchun restavratsiya va konservatsiya ishlari muhim rol o‘ynaydi. Xususan, O‘zbekiston hukumati va xalqaro tashkilotlar hamkorligida qadimiy masjidlar, madrasalar va qal’alar ta’mirlanmoqda. Samarqand va Buxoro shaharlaridagi obidalar, jumladan Registon majmuasi, Shohi Zinda majmuasi va Ark qal’asi kabi yodgorliklar restavratsiya qilinmoqda.

3.Me’morchilik va san’at tarixi bo‘yicha tadqiqotlar

Islomiy san’at va me’morchilik uslublarini o‘rganish ham muhim yo‘nalishlardan biri. Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlardagi masjid, madrasa va maqbaralardagi naqshlar, koshinkorlik san’ati va me’moriy uslublar tadqiqot mavzusiga aylanmoqda. Bunday tadqiqotlar O‘zbekistondagi tarixiy obidalarning noyob me’moriy uslublarini o‘rganishga yordam beradi.

4.Xalqaro hamkorlikdagi ilmiy ekspeditsiyalar

O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, UNESCO, ISESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar hamkorligida olib borilayotgan tadqiqotlar ko‘plab yangi ma’lumotlarni kashf etishga imkon bermoqda. Xorijiy olimlar va mahalliy tadqiqotchilar qo‘shma ekspeditsiyalar uyushtirib, yangi ma’lumotlar to‘plashmoqda. Xususan, Yaponiyaning Tokio universiteti olimlari bilan birgalikda Afrosiyobdagi Budda san’ati izlari o‘rganildi.

5.Raqamli hujjatlashtirish va virtual tiklash

O'zbekiston madaniy meros obidalarini raqamli texnologiyalar yordamida hujjatlashtirish va saqlash bo'yicha ham tadqiqotlar olib borilmoqda. 3D skanerlash texnologiyalari yordamida ko'plab obidalar raqamli formatda saqlanmoqda. Masalan, Ichan-Qal'a majmuasi va Registon maydonining 3D modellarini yaratish ishlari davom etmoqda. Bu usul kelajakda obidalarni virtual ravishda tiklash va ilmiy tadqiqotlar olib borishga imkon beradi.

6.Madaniy merosni saqlash bo'yicha qonunchilik tadqiqotlari

O'zbekiston hukumati tarixiy obidalarni himoya qilish va ularni saqlash bo'yicha qonunchilikni kuchaytirmoqda. Bu borada tadqiqotchilar madaniy merosni himoya qilish bilan bog'liq qonunlar va xalqaro standartlarni o'rganish bilan shug'ullanmoqda. Mazkur tadqiqotlar tarixiy yodgorliklarni yanada yaxshi himoya qilishga imkon beradi.

Ushbu tadqiqotlar O'zbekistonning boy madaniy merosini kelgusi avlodlarga yetkazish va uni butun dunyo bilan bo'lishish uchun muhimdir.

O'zbekiston obidalarini o'rganishdagi bir necha bosqichda ishlar olib borilgan va ko'plab olimlar o'z fikrlarini bildirib o'tishgan.

1Arxeologik qazishmalar va qadimiy sivilizatsiyalarni o'rganish.

Edvard Rtveladze va Ahmadali Asqarov kabi taniqli o'zbek arxeologlari Afrosiyob, Maroqand (Samarqand) va Dalvarzintepa kabi obidalarda arxeologik qazishmalar olib borib, Samarqand va Baqtriya tarixini o'rganishgan. Ular qadimgi Sugdiyona va Baqtriya madaniyatlarining o'zaro aloqalari va ularning O'rta Osiyo tarixiga ta'siri borasida turli xil fikrlarni ilgari surganlar. Bahslar asosan Samarqanddagi Budda san'ati va uning qadimgi sivilizatsiyaga ta'siri borasida olib borilgan.

2. Islomiy me'morchilik va san'at tarixi bo'yicha tadqiqotlar

Vasiliy Bartold va keyinchalik o'zbek olimi Ibrohim Muminov Buxoro, Samarqand va Xivadagi islomiy me'morchilik va san'at tarixi haqida tadqiqotlar olib borishgan. Ular orasida asosan arab, fors va turk madaniyati ta'sirining darajasi va lokal uslublarning shakllanishi bo'yicha munozaralar bo'lgan.

Samarqand va Buxorodagi madrasalar, masjidlar va maqbaralar o'ziga xos uslublarga ega bo'lib, bu o'zaro fikr almashinuvlar uchun asos bo'ldi.

3. Xorazm va qadimgi shahar madaniyati bo'yicha tadqiqotlar

Sergey Tolstov Xorazmdagi qadimgi qal'alarni, xususan, Topraq qal'a va Ko'yqirilgan qal'a kabi joylarni o'rgangan. U va boshqa olimlar Xorazm madaniyatining O'zbekiston tarixida o'ziga xos o'rni borasida bahslashgan. Tolstovning Xorazm madaniyatining mustaqil rivojlanishi haqidagi fikrlari keyinchalik boshqa tadqiqotchilar tomonidan qo'llab-quvvatlangan, lekin ayrim jihatlarida bahs-munozaralarga sabab bo'lgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. I.A.Karimov.»Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch». Toshkent.2010

## JADIDLARNING INSON TARBIYASIGA OID QARASHLARI

**Sadirova Mehrigiyo Dilshod qizi**

Namangan davlat pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarbiyaning ahamiyati va XIX asrda vujudga kelgan jadidchilik harakati namoyondalarining xalqni ma'rifatli va tarbiyali qilish yo'lida olib borgan say-harakatlari hamda ularning yozgan asarlari va inson tarbiyasiga oid qarashlari haqida so'z boradi.

**Аннотация:** В данной статье говорится о значении образования и усилиях представителей джадидистского движения, возникшего в XIX веке, по просвещению и просвещению народа, а также об их письменных произведениях и взглядах на образование человека.

**Abstract:** This article talks about the importance of education and the efforts of representatives of the Jadidist movement that emerged in the 19th century to enlighten and educate the people, as well as their written works and views on human education.

**Kalit so‘zlar:** Tarbiya, Abdulla Avloniyning tarbiyaga oid qarashlari, Fikr tarbiyasi, Badan tarbiyasi, Axloq tarbiyasi, Abdurauf Fitratning tarbiyaga oid asarlari.

**Ключевые слова**: Образование, Взгляды Абдуллы Авлани на образование, Образование мышления, Образование тела, Нравственное воспитание, Работы Абдурауфа Фитрата по образованию.

**Key words**: Education, Abdulla Awlani's views on education, Thought education, Body education, Moral education, Abdurauf Fitrat's works on education.

Tarbiya inson dunyoga kelgan kunidan to umrining oxirigacha davom etadiga uzluksiz jarayondir. Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon hisoblanadi. Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o‘tadi. Tarbiya shaxsni muayyan yo‘nalishda shakllantirish, kamol toptirish maqsadida turli odamlarning bir-biriga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy munosabatdir. Inson tarbiyasi azaliy tushuncha bo'lib, bu bilan qadimdan faylasuflar yohud jamiyatlarning ilg'or qatlamlari bo'lgan kishilar fikr yuritib kelishgan. Ayniqsa, Qadimgi Yunonistonda Arastu, Aflotun, Geraklit, Demokrit, Fales, Epikur va boshqa shu kabi faylasuflar tarbiya mavzusiga alohida to‘xtalib o‘tishgan. Milloddan avvalgi IV asrda yashagan Aristotel tarbiya zamirida axloqiy va ruhiy qarashlar yotadi deb ta’riflagan va uni jismoniy tarbiya, axloqiy tarbiya va ruhiy tarbiya uch jihatga ajratadi. Bular ruhning uch turiga muvofiq keladi, ya’ni kamolotga erishishning harakatlantiruvchi kuchlari tabiiy qobiliyat, ko‘nikma va aql-idrokdan iborat hamda tarbiya ishi ayni shu kuchlarga asoslanishi zarur deb ta’kidlagan.[1] Demokrit esa tarbiya haqida shunday deydi: Insonni inson qilib yetishtiruvchi

narsa bu – tarbiyadir.[2] Ya’ni inson kamolotga yetishi uchun unga tarbiya zarur deb hisoblagan.

Dunyoda mavjud bo'lgan barcha jamiyatlar diniy e'tiqodi, tili, urf odatlari, geografik joylashuvi va boshqa omillardan qat'iy nazar o'ziga xos axloq me'yorlariga ega hisoblanadi. Zero, har qanday jamiyatda yashayotgan odamda tarbiya bo'lmas ekan, u yerda tartib-intizom, tinchlik va hotirjamlik bo'lmaydi. Muqaddas islom dinimizda ham inson tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor berilgan. Yurtimizdan yetishib chiqqan Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshbandiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Xo'ja Ahror Valiy, So'fi Olloyor, Boborahim Mashrab singari ko'plab olimu fuzalolar ham inson tarbiyasi va kamoloti haqida ko'plab qimmatli asarlar yaratganlar.

Xususan, XIX asr oxri XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati namoyondalari ham tarbiya masalasidan chetda qolmaganlar. Jadidlar o‘zlari ochgan maktablarini tarbiya maskani deb hisoblashgan va o‘quvchilarning tarbiyasiga ham alohida ahamiyat berganlar. Ular o‘zlari ishlab chiqqan dasturlarda ham tarbiya masalasiga keng o‘rin berishadi. Ularning asarlarida ilgari surilgan ta’lim-tarbiyaga oid g’oyalar milliy ma’naviyatimizning rivojlanishida qimmatli manbalar sanaladi. Ularning asarlari biz uchun va bugungi kun yoshlari uchun ibrat desak adashmaymiz. Jadid nomoyondalari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat Abdulhamid Cho‘lpon kabi jadidlar tarbiya masalasiga oid turli fikrlar va asarlar yozib qoldirishgan. Ayniqsa Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” hamda Abdurauf Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarlarida inson tarbiyasiga keng o’rin berilgan.

Birinchi o‘zbek pedagogi Abdulla Avloniyning o‘zining faoliyati davomida tarbiya masalasiga keng ta’rif beradi. Abdulla Avloniyning axloq va tarbiyaga asoslangan “Turkiy guliston yohud axloq” asarida keltirilgan “Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir” degan fikrlari o‘zining jadidchilik faoliyatida tarbiya masalalari nechog’lik ahamiyatli ekanidan dalolat beradi. O‘zining bu asarida tarbiya qiluvchilarni tabibga

qiyoslaganlar ya’ni tarbiya qiluvchi tabib kabidirki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi, tarbiya bolaning vujudidagi nodonlik kasaliga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, poklik degan davoni ustidan berib, ulg’aytirmoq lozimdir [3]. deya ta’kidlaganlar. Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda 4 bo‘limga ajratadi:

1) Tarbiyaning zamoni;

2) Badan tarbiyasi;

3) Fikr tarbiyasi;

4) Axloq tarbiyasi;

Tarbiyaning zamoni bo‘limida tarbiya bolaga yoshlikdan berilishi kerakligini yozadi va buni ham ikki yo‘nalishga bo‘ladi. Birinchisi - uy tarbiyasi, bu ona vazifasidir. Ikkinchisi - maktab va madrasa tarbiyasi, bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir deb yozganlar.[3:6] Badan tarbiyasi bo‘limida badanning salomat va quvvatli bo‘lmog’i insonga eng kerakli narsa ekanligi, chunki o‘qimoq, o‘qitmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimligi, sog’ badanga ega bo‘lmagan insonlar amallarida, ishlarida, ibodatlarida kamchilik qilishi mumkinligi haqida aytiladi. Fikr tarbiyasi bo‘limida esa fikr tarbiyasi hamma narsadan ham kerakligi, fikr insonning sharofatli, g’ayratli bo‘lishiga sabab bo‘lishi haqida so‘z boradi. Yana bu bo‘limda shunday jumla keladi:

*Fikr agar yaxshi tarbiya topsa,*
*Xanjar, olmosdan bo‘lur o‘tkur.*
*Fikrning oyinasi olursa zang,*
*Ruhi ravshan zamir o‘lur benur.*[3. B.9]

Ya’ni inson yahshi fikr tarbiyasiga ega bo‘lsa uning so‘zlari xanjardan ham o‘tkir bo‘lishi, agarda inson fikrining tarbiyasi xira tortsa ruhining zamiri xira tortishi mumkinligi haqida so‘z boradi. Oxrigi bo‘lim esa axloq tarbiyasi bu bo‘limda Axloq tarbiyasi: insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi deb keltiriladi. Bu bo‘limda axloq tarbiyasi shunday tushuntiriladi:

Tarbiya qiluvchi muallim shogirdlariga o‘tayotgan darslarini amali bilan ko‘rsatsa ularning diliga tez ta’sir qilib mulloyi boamal bo‘lishadi. Agar tarbiya qiluvchi muallim o‘zi olim bo‘lib amalsiz bo‘lsa, buning ham shogirdlarning axloqiga yomon ta’siri qiladi. “Domlaning o‘zi falon joyda falon ishni qildi. Ammo bizlarga qilmanglar, haromdir, deb va’z etdi”, deb fikr va xayollariga shak va shubha tushub qoladi deb aytiladi.

O'rta Osiyo jadidlarining otasi Mahmudxo‘ja Behbudiy ulamo tarbiyaxonasi maktab va madrasalardir agarda o‘sha maktab va madrasa muallim va mudarrislari olim bo‘lsa va shogirdlariga ko‘ngil ila ta’lim bersa, albatta, ilm hosil qiladi. Agarda muallimni o‘zi kam ilm bo‘lsa, yoki ilmi bo‘la turub, usuli tahsildan xabarsiz bo‘lsa ularning shogirdlari nodon qolur deb bola tarbiyasiga shunday ta’rif beradi [4].

Jadidlarning yana bir yorqin vakili Abdurauf Fitrat taniqli tilshunos va adabiyotshunos olim hamda ta’lim-tarbiya masalalariga bag‘ishlangan odob axloq qoidalari haqidagi asarlarning muallifi hisoblanadi. Tarbiya masalasida biz uning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarini olishimiz mumkin. Adib bu asarida ta’lim va tarbiyaning bola hayotida muhum o‘ringa egaligi, ta’lim va tarbiya doim bir-birini to‘ldirib turushi, bularning hammasi bir-biriga chambarchas bog’liqligi haqida fikrlar keltiradi. Fitrat o’zining bu asarida olimlar tarbiyani uch qisimga bo’lganligi, bular:

1) Badan tarbiyasi;

2) Axloqiy tarbiya;

3) Aqliy tarbiya;[5]

Bu uch qismni bir - biridan ajratib bo’lmasligi, bular bir – birlariga shunday bog’liq va shunday yaqinki biriga zarar tegsa boshqalarida ham nuqson paydo bo’lishini aytadi.Yana bu asarida ota-onaning vazifasi o‘z bolalarini yetuk kishilar qilib tarbiyalashlari zarurligini uqtiradi - bunda:

1) jismoniy tarbiya –salomatlik;

2) aqliy tarbiya -sog‘lom fikrlilik;

3) axloqiy tarbiya -axloqi sano;

Ya'ni axloqiy, aqliy, jismoniy tarbiyaga e’tibor berish kerakligi ta’kidlanadi.

Bola tarbiyasida faqatgina maktab emas balki avvalo oila va jamoatchilik shug‘ullanishi to‘g‘risida va oilada axloq tarbiyasi doirasida ota-onaning o‘rni beqiyos ekanligi shuningdek, Fitratning fikri bo‘yicha axloqi buzuq kishilarni maktabda muallimlik vazifasiga emas, balki maktab qorovulligiga ham yaqinlashtirmasliklarini juda to‘g‘iri harakat deb hisoblaydi. Chunki o‘zi ta’kidlaganidek har qanday axloqida nuqsonlari bor inson o‘z-o‘zidan bola psixikasiga o‘z ta’sirini o‘tkazishi mumkinligi, shuning uchun iloji boricha unday insonlarni ta’lim dargohidan uzoqroqda saqlashni ma’qul deb hisoblaganlar [5. B.92].

Jadidlar tomonidan yozilgan pyesalar va qo‘yilgan sahna asarlari ham o‘sha zamonda tarbiya mavzusini asosiy o‘ringa qo‘ygan. Bunga misol qilib Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” pyesasini olishimiz mumkin. “Padarkush” pyesasi birinchi o‘zbek drama asari sifatida dramaturgiyaning keyingi rivoji uchun eshik ochadi. Asarning bosh qahramoni davrining befarq: “Bizlarni xonavayron bevatan va bandi qilgan tarbiyasizlik va jaholatdir, bevatanlik, darbadarlik, jasorat, faqirlik, zarurat va xo‘rliklar hammasi ilimsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir”[6], degan mavzuda ochib beriladi. Shunday ekan bolaga yoshlikdan eng avvalo oiladan ta’lim tarbiya berilmas ekan “padarkush”ga o‘xshagan farzandlar jaholat botqog‘iga tortilib boraveradilar degan qarashlar ochib beriladi. Yana o‘sha davrda Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Zaharli hayot yohud ishq qurbonlari” hamda Nusratilla Qudratilla qalamiga mansub “To‘y” asari oilaviy va shahsiy fojialar sababchisiga aylanganserchiqim ba’zi urf-odatlar tanqid ostiga olinadi. Shu kabi tarbiyaviy ahamiyatga ega, ma’naviy boy adabiyot xalq ongini uyg’otuvchi eng muhim vositalardan biri bo‘ldi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta’kidlash lozimki XIX asrda vujudga kelgan jadidchilik harakati, xalqni tarbiyali va ma’rifatli qilish uchun

yagona yo‘lni tanlamaganlar. Ular xalqning ichiga kirib borishlari uchun turli yo‘llardan borganlar tarbiya maskani deb atalgan yani usul maktablari, turli pyesa va teatr truppalari va nashriyotlar orqali o‘zlarining oldiga qo‘ygan maqsadlarini xalqqa yetkazish uchun harakat qilganlar. Ular yaratgan tarbiya asrlari bugungi kun yoshlari uchun eng kerakli va qimmatli ma’lumotlar desak mubolag’a bo‘lmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Xayrullaev M. Arastu. // https://uz.wikipedia.org/wiki/Arastu [Murojat qilingan sana: 24.08.2024]
2. https://hikmatlar.uz/quote/2362 [Murojat qilingan sana: 25.08.2024]
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq: ibratli hikoyalar. - T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2004. - B. 5.
4. Karimov B. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – T.: Yoshlar nashiryot uyi, 2022. – B.142
5. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – T.: Ma’naviyat nashiryoti, 2000. – B. 62.
6. G’oipnazarova D. “Padarkush” dramasining g’oyaviy ahamyati xususida./ Filologiya ufqlari jurnali. 5-son. Jizzax, 2021. – B.25

## O’ZBEGIM NIKOH MAROSIMLARI: XORAZM VA FARG’ONA VODIYSI MISOLIDA QIYOSIY TAHLIL

Umida ZARIPBOYEVA,

Namangan davlat universiteti, Tarix yo’nalishi talabasi

umidazaripboyeva629@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada milliy urf-odat va qadriyatlarimiz, avloddan-avlodga o’tib kelayotgan an’nalarimiz nikoh marosimlari misolida Farg’ona vodiysi va Xorazm viloyati misolida o’rganilgan, qiyosiy tahlil qilingan.

**Kalit so’zlar:** Farg’ona vodiysi, Xorazm, fetishizm, totemizm, tabiat e’tiqodi, olov va o’choq ibodati, “toy”, “qurultoy”, sovchi, “uy ko’rdi”, qalin.

Dunyodagi boshqa xalqlar qatori oʻzbek xalqining ham madaniy qadriyatlari, maʼnaviy merosi ming yillar mobaynida Sharqning maʼnaviy oʻchoqlaridan biri boʻlib xizmat qilgan. Bundan tashqari, biz yashab turgan hudud gʻoyat xilma-xil diniy eʼtiqodlar, dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan mintaqa hisoblanadi. Bir soʻz bilan aytganda, Oʻzbekiston hududi nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biridir. Zamonaviy, har tomonlama rivojlanayotgan va takomillashayotgan shaharlardan va u yerda yashayotgan aholi vakillaridan farqli oʻlaroq, koʻhna qadriyat va urf odatlar yurtimizni turli goʻshalarida, qishloq va ovullarida saqlanib qolgan.

O'zbek xalqi qadimiy rasm-rusumlari, ishonch-e'tiqodlari, turmush tarzi va falsafiy qarashlari, asrlar bo'yi jamlangan hayotiy tajribalari va turmush ko'nikmalarini o'zida mujassamlashtirgan eng jozibali marosimlardan biri – nikoh to'yidir. Xalqimizning qadimiy e'tiqodlari, madaniyat tarixi, orzu-umidlari, hayotga munosabatini o'rganishda nikoh to'yi bilan bog'liq marosimlar muhim ahamiyatga egadir. O'zbek tantanalari orasida nikoh to'ylari o'zining yurli marosimlari, irim-sirimlarga boyligi, etnografik manbalarning rang-barangligi bilan alohida ajralib turadi.

Tarixiy manbalarda saqlanib qolgan maʼlumotlarga qaraganda "to'y" atamasi turkiy so'z bo'lib, "toy" yoki "qurultoy" shaklida mo'g'ullar va chig'atoy xonlari davrida ham keng qo'llanilgan. XIV asrda Movarounnahr hududiga sayohat qilgan arab sayyohi Ibn Batuta esdaliklaridan maʼlumki, "toy" – bu har yili o'tkaziladigan yig'in (qurultoy) bo'lib, unda Chingizxon avlodlari, amirlar va turkey beklar, obro'li ayollar va lashkarboshi ishtirok etgan. Yakunlangan muddati 1864-yil 5-may bo'lgan "Tavorixi xorazmshohiya" tarixiy asarida uchraydigan maʼlumotga ko'ra, vazir Xasan-Murod qushbeginig o'g'li Muhammad Yusufbek xonning qiziga uylangan bo'lib, ziyofat-toy (to'y) bir necha kun davom etgan. Tadqiq etilgan aksariyat maʼlumotlar asosida, "to'y" – qadim zamonlardan beri, doimo

katta jamoa, yuqori martabali zadogonlar, katta hajmdagi yig'in, cheklanmagan miqdordagi ziyofat va dabdaba bilan uzviy bog'liq bo'lgan odatligi aniqlandi[1].

Nikoh to'yi tantanalarini boshlab beruvchi dastlabki marosim sovchilik hisoblanadi. Sovchilik to'g'risidagi ilk ma'lumotlar VII – VIII asrlarga oid UrxunYenisey bitiklarida uchraydi. To'nyuquq bitiktoshida "sov", "sab" kilimasi so'z, ran ma'nosida ishlatiladi. "Irq bitigi" ("Fol kitobi")da esa "sab" – suz, "sabchi" – xabarchi, so'z keltiruvchi ma'nosida qo'llanilgan. Bu haqida Mahmud Qoshg'ariy (1029-1101) "sovchi – kelin va kuyov orasida bir-biriga xabar eltuvchi", deb qayd etgan[2].

Sovchilik va to'y udumlarining juda qadimga borib taqalishi hatto dostonlarimizda ham o'z ifodasini topgan. Bu haqida "Alpomish" dostonida ham ma'lumotlar bordir. Bir osh pishgunga qadar qiz va yigit tomon shu tarzda "og`iz iskash" savol-javobini qilib olishgan. Bunda javobning ijobiy yoki salbiy bo'lishidan qat'iy nazar, tashrif buyurgan mehmonlar quruq jo'natilmagan. Shu ma'noda, garchi Barchinning onasi Qorajon tomonidan kelgan sovchilarga norozilik bildirgan, qizining boshi bog`liqligini aytgan esa-da, ularni quruq qaytarmaydi. Osh suzib, mehmon qiladi[3].

Kuyov tomon, odatda, sovchilikdan qaytganlarni "Bo'rimi, tulki?" deya kutib olishi an'anaga aylangan. Agar sovchilarning ishi bitgan bo'lsa "bo'ri" deb, qiz tomon rozi bo'lmagan taqdirda "tulki" deb javob berishadi. Ana shu azaliy odat ham "Alpomish" dostonida o'z talqinini topgan. Jumladan, sovchilikka ketgan onasini Murodtepada kutib turgan Qorajonning ruhiy kechinmalari bu jihatdan shunday ifoda etilgan: "Qorajon yo'lga qarab yotibdi. Qarasa, enasi kelayapti, enasini ko'rib Qorajon: – Qalay, qalay, ena? Bo'ri bo'lib kelayapsanmi, tulki bo'lib kelayapsanmi? – dedi"[4].

Uzoq yillik an'analarga ko'ra, Farg'ona vodiysi qipchoqlarida sovchilik qiluvchi shaxs oq va qizil ot mingan holda qiz yashaydigan xonadonga borgan.

[1] Saydullayeva Xadicha, Ochilov Akrom. O'ZBEKISTONDA TO'Y AN'ANALARI TARIXI VA BUGUNI. // ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. 2021. VOLUME 2 | ISSUE 3 |. 1236 – 1241.
[2] Sovchilik / https://uz.wikipedia.org/wiki/Sovchilik
[3] Саримсоқов Б. Ўзбек фолклори очерклари. Уч томлик. 1-том. – Т.: Фан, 1988. – Б. 144-145.
[4] Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004. – Б. 120.

Sovchilar bu ezgu maqsadda hech qachon qora otdan foydalanmaganlar. Chunki, qora otda borish ish bitmasligiga sabab bo'ladi deb hisoblangan. Sovchilar ishni bitirib kelganlarida, bo'lg'usi kuyovga *"ish bitdi, endi kelinga sirg'a olib kel"* – deyishgan[5].

An'anaviy tarzda, sovchilar tashrifi haftaning payshanba yoki juma kunlariga belgilanadi. Xorazmda sovchilikka dastlab erkaklar borgan. Chunki, Xorazmda, "Erkak ochgan eshik hosiyatli bo'ladi" degan qarsh mavjud. O'zbekistonning boshqa viloyatlarida asosan sovchilikka ayollar boradi. Ikkala tomon roziligi olingandan keyin to'y marosimlari boshlanadi. Xorazm o'zbeklarida yigitning onasi, katta va kichik yaqinlaridan tashkil topgan sovchilar qizning uyiga 9 ta moylangan patir solingan oq rangli dasturxon olib borgan. Qiz tomondan ikkita ayol yigitning uyini ko'rish uchun kelgan. Ushbu udum "uyko'rdi" deb nomlangan. To'ydan bir kun oldin "nonyopar" marosimi o'tkaziladi[6].

Farg'ona vodiysi o'zbeklari nikoh to'ylari oilaviy turmush va ma'naviy mohiyatining tarkibiy qismi bo'lib, uning ishtirokchilari tomonidan murakkab urf-odatlar va udumlar bajarilgan. Nikoh to'yi bilan bog'liq marosimlarda ko'plab qadimiy e'tiqodlar – fetishizm, totemizm, tabiat e'tiqodi , olov va o'choq ibodati, ajdodlar ruhiga sig'inish, shomonlik va boshqa bir qator demonologik ko'rinishlar izlarini uchratish mumkin.

Nikoh. Bu shu qadar nozik, masalaki, hatto ayrim qishloqlarda qiz bolani uzoq hududlarga uzatish ta'qiqlanadi. Masalan, Xorazm viloyati Gurlan tumanida Besho'y qishlog'ida asosan, faqat shu qishloqning o'zidan qiz olib, qiz berilishi urfga aylangan. Xorazm aholisi o'rtasida "Yaxshi qiz mahalladan chiqmaydi" deyiladi. Aksar hollarda ushbu qoidaga qat'iy amal qilingan. To'y marosimlari asosan, bir qishloq yoki unga tutash qishloq doirasida o'tkazilgan. Chunki, bir qishloqnig urf-odati boshqa qishloqnikiga to'g'ri kelmaydi. Xorazm viloyatining o'zida har bir tumanning udumi turli xil.

---

[5] Ashirov Adxamjon. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – B. 88.

[6] Абдалов Умидбек. Хоразм воҳасининг қадимий диний эътиқод ва маросимлари. – Т.:, "Yosh avlod", 2021. – Б. 104-105.

Tadqiqotlarga ko’ra, oilada yangi kelin uy sharoitiga ko’nikishi uchun 15 yil vaqt ketar ekan. Xorazm viloyatida shu vaqt oralig’ida kelinga kuyovning qarindoshlaridan eng yoshi katta erkak “burunduruq” ya’ni ikkinchi ota, kuyovning onasi esa “burunduruq ona” yoki qaynona – ikkinchi ona sifatida pand-nasihat qilib turgan[7].

Xalqimiz orasida ikki yoshni nikoh marosimini o’tkazish uchun, kelinning ota-onasiga qalin to‘lash odati ham saqlanib qolgan. O‘zbek, tojik, qirg‘iz, qozoq, turkman, uyg‘ur, qoraqalpoq va boshqa mahalliy etnik jamoalarda qalin mohiyat jihatidan bir xil umumiylik kasb qiladi. Faqat, etnosning xo‘jaligini yo‘nalishi, uning turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy mavqeidan kelib chiqib hamda turli tarixiy-etnografik hududlarda qalin to‘lash o‘ziga xos va lokal xususiyatlari bilan farqlanadi[8].

Qalin – nikoh tuzilishining asosiy sharti sifatida patriarxal munosabatlar sharoitida rivojlangan. U taraqqiy etgan mulkchilik munosabatlari zamirida mavjud bo’lib, ayollar pul va mulkka tenglashtiriladi va almashtiriladi. Qalin masalasi o’zining dastlabki taraqqiyot bosqichlarida umumjamoaga (urug’, qabila) tegishli bo’lgan. Ya’ni uni to’lash va qabul qilishda urug’ yoki qabilaning barcha a’zolari ishtirok qilganlar. “Kuyovning qarindosh urug’lari moddiy yordam ko’rsatib, qalin to’lash uchun bir necha bor yig’ilganlar” deb yozgan edi, bu haqida etnograf olim I.D. Starinkevich. Qalinni keyingi transformatsion jarayonida esa bu masala oila va yaqin qarindoshlar doirasidagina xal qilinadigan bo’lgan. Qalinning tarkibi etnos xo’jaligining shakli ya’ni uning qanday mahsulot ishlab chiqarayotganligiga ko’p jihatdan bog’liq bo’lgan. Chorvador xalqlar tomonidan qalin uchun to’lov chorva bilan, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug’ullanayotgan aholida esa asosan pul va boshqa dehqonchilik mahsulotlari bilan to’langan.

Mavjud iqtisodiy-ijtimoiy sharoit va o’troq aholi ta’siri ostida farg’onalik qirg’iz, qipchoq, qurama, turk, ming, yuz kabi etnik jamoalarda qalinga munosabat, uning tarkibi va miqdori o’zgarib borgan. Endi mazkur etnoslar kelin

[7] Dala yozuvlari. Umid Bekmuhammad axboroti. Xorazm viloyati Gurlan va Yangibozor tumanlari. 2017-yil.
[8] Абдуллаев У. Ўрта Осиё халқларининг оила-никоҳ муносабатлари тарихидан. // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. –№ 3. – 2022. – Б.20.

uchun qalinni nafaqat chorva bilan balki pul va dehqonchilik mahsulotlari bilan ham to'laydigan bo'ldilar. Uning miqdori ham asta-sekin kamayib borgan.

Umuman, aholi orasida natural xo'jalikni inqirozi, pul-tovar munosabatlarining rivojlanib borishi patriarxal munosabatlarni yemirilishiga, patriarxal katta oilalarni bo'linib ketishiga va qolaversa oila-nikoh munosabatlarida bir qator jiddiy o'zgarishlarni yuz berishiga olib keldi. Bunday sharoitda qalin ham mohiyat jihatidan o'zgardi. Biroq, chuqur tarixiy ildizga va hali batamom barham topmagan natural xo'jalik yuritish usullarining qoldiqlariga asoslangan holda, qalin vodiy aholisi orasida XX asrning birinchi yarmiga qadar ham saqlanib qolgan. Ayni vaqtda vodiy aholisi o'rtasidagi qalin ko'p jihatlari bilan (ya'ni miqdori, tarkibi va hatto shartlik darajasi bilan) boshqa mintaqalardagidan jiddiy farq qilar edi.

Hozir ham qalin miqdori O'zbekistonning turli viloyatlarida bir-biridan farq qiladi. Masalan, Xorazm o'zbeklari orasida boshqa viloyatlarga qaraganda, "qalin puli" orasidagi tafovut ancha farqlidir. Bu farq ayniqsa, "kuyov sovg'asi", "sut haqi", "mahr puli"da yaqqol bilinadi. Qalin puli miqdori 15 milliondan – 30 milliongacha boradi. Xorazmda qalin puli tomonlar kelishuvi orqali amalga oshiriladi. O'zbekistonning ayrim viloyatlarida qalin puli olinmaydi. Masalan, Namangan, Farg'ona, Andijon viloyatlarining ayrim hududlarida qalin puli olinmaydi[9].

Etnograf G.P.Snesarov o'z ekspeditsiyalarida, Xorazmdagi to'ylar haqida quyidagilarni yozib qoldirgan: "Olomon hayajonalanardi: to'y poyezdi yaqinlashardi. Uyning yoniga birinchi bo'lib quloqni qomatga keltirib motosikllarda kuyov jo'ralar yetib kelishdi. Eski to'y marosimlariga binoan, ular otlarda go'shangani himoya qilib kelishlari kerak edi. Uzoqdan, odamlar to'lqini orasidan sekin kelayotgan "Volga" ko'rindi. Kampirlar saksovul va kerosin olib ko'chaning o'rtasida gulxan yoqish uchun chiqishdi. "Volga" olov ustidan o'tdi, olovning barcha yovuz ruhlarning tozalashi bilan bog'liq qadimiy marosim

[9] https://chapaevaaygerim.blogspot.com/?m=1

bajariladi”[10]. G.P.Snesarov, ushbu udumni O’rta Osiyo xalqlarining olov bilan poklanish marosimi asosida kelib chiqqan, deb qayd etgan edi.

Qo’shko’pir tumanida uyning ostonasiga yaqinlashgan kelinning oyog’i ostida kichik qog’oz bo’lagi yoqiladi va kelin uning ustidan o’tadi. Yangibozor tumanida bu odat kelin farzandli bo’lganidan keyin amalga oshiriladi[11].

Namangan viloyati aholisi uchun ham nikoh to’yi judayam muhim marosim hisoblanadi. Shu sababli ham, to’y oldi va to’ydan keyin o’tkaziladigan tantanalarga alohida e’tibor bilan tayyorgarlik ko’riladi. Viloyatdagi milliy urf-odatlariga ko’ra, kuyov va kelinning ota-onasi to’yga rozilik bildirganidan so’ng, fotiha to’yi o’tkaziladi. Kuyov kelin tomonga, kelin esa kuyov tomonga sovg’alar yuborib, ikki yosh unashtiriladi.

Nikoh to’yi kuni kuyov tomonidan saharda to’y oshi tarqatilib, osh kelinning uyiga ham yuboriladi. Kuyov, o’z navkarlari bilan kelinning uyiga borib, kelin ota-onasining duosini oladi. Kelinning uydan olib ketilishi, kelinning ota-onasi bilan xayrlashish marosimi hisoblanadi. Namanganda nikoh to’yida sodir bo’ladigan yana bir o’ziga xoslik bu – kuyov navkar kelganda, kelin tomonni maqtab yaxshi so’zlar aytiladi, masalan bitta do’ppi ko’rsatiladi-da, “Bu do’ppini kelinposhsha kechalari uhlamay, bo’lg’usi umr yo’ldoshi uchun tikkan ekanlar, bahosi falon ming so’m” deb kattagina narx qo’yiladi. Keyin shunday qizni voyaga yetkazgani uchun xonadon egalariga barcha birgalikda rahmat deb, kuyov jo’ralari “bizga ham buyursin” deya niyat qilishadi. Namanganning ayrim hududlarida, kuyov uyiga kelgan kelinni avto-mashinadan qaynonasi ko’tarib tushiradi. Viloyatning aksariyat hududlarida, kuyov tomonni qiynamaslik maqsadida, qiz uchun qalin puli olinmaydi. Kuyov-navkarlar dasturxoniga qaynatilgan tuxum tortiladi. Ayollar ular o’tirgan xonaga isiriq tutatishadi. Qiz tomon kuyovning har bir jo’rasidan “isiriq puli” undiradi[12].

---

[10] Хоразм археологик - этнографик экспедицияси натижалари (Г. П. Снесаров фаолияти мисолида). / Маткаримова Садоқат Мақсудовна, Бекимметов Умидбек. – Хива, 2023. – Б. 174.
[11] Dala yozuvlari. Xorazm viloyati. Xazorasp tumani. Muxomon qishlog’i. 2020-yil.
[12] Sharipova Munira. Farg'ona vodiysi nikoh to'ylarida milliylik va o'ziga xoslik. // JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS. Volume – 15. Issue – 2. October – 2022 – B. 121.

Xorazmda qadimdan xonadonga kelin bo’lib tushgan oila a’zosi, bir yil davomida o’z qaynonasi bilan o’g’iz ochib gaplashmaydi. O’g’il o’stirganning xizmatini qiladi, topshiriqlarini bajaradi, buyruqlarini quloq qoqmay ado etadi, ammo churq etib og’iz ochmaydi. Kelin birinchi farzandni dunyoga keltirib, uni beshikka belaganidan keyin qaynona – oyisi bilan gaplashish huquqiga ega bo’ladi[13].

To‘y marosimlarining shartlari hayotning o‘tishi bilan o‘zgarib turadi. Masalan, uzoq qadimgi zamonlarda, kuyov boimish yigit uylanajak qizni jismoniy jihatdan yengishi lozim bo'lgan. Keyinchalik, bu shart qizga talab chiqayotgan yigitlar o‘rtasidagi kurashga ko‘chgan. Yana ham keyinroq, bu shartlar ham o‘zgargan. Har bir harakatda so‘z ishtirokidagi udumlar bo‘lgan. Hozir bu udumlar ko‘proq sovchilaming so‘zga ustagi bilan kelin tarafni ko‘ndirish, kuyov do‘stlariga sarpolar berish, qiz kuyovnikiga kelganida, yangalaring qizni kuyov tarafga topshirish lavhalarida saqlanib qolgan. Ayrim hududlarda yor-yor, kelin salom odatlaridan tashqari o’lan aytishadi[14].

Xulosa sifatida, yurtimizdagi har bir hududning, viloyatning o’ziga xos udumlari, an’analari va ming yillikka borib taqaladigan odatlari bor. Biz hech qachon bir hudud urf-odatlari haqida ijobiy yoki salbiy fikr yurita olmaymiz. Hoh u Farg’ona vodiysi, xoh Xorazm vohasi bo’lsin. Udum va an’analar o’tmishdan hozirga qadar insonlar qoniga singgan. Darhaqiqat, to’y deb ataluvchi so’z anglatgan marosimlar hamma vaqt hamma joyda kishilarning talabi, ehtiyoji bilan o’tkazilar ekan, ushbu hayotiy hodisaning turli elatlar va xalqlar va millatlardagi vujudga kelish tarixi, shakllari, tarixiy jihatdan kasb etgan xususiyatlarini o’rganish, uning tarkibida saqlanib qolgan umuminsoniy , milliy va mahalliy ijobiy an’analarni saqlab qolish: qoloq, davr talablariga mos kelmaydigan jihatlarni isloh etish, kamxarajatli, ixcham to’ylar qilishga xalqimizni odatlantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

---

[13] Mahmud Sattor. O'zbek udumlari – T.: Cho’lpon, 2007. – B. 105.
[14] Madayev Omonulla. O’zbek xalq og’zaki ijodi. – Toshkent: “Mumtoz so’z”, 2010. – B. 220.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Saydullayeva Xadicha, Ochilov Akrom. O'zbekistonda to'y an'analari tarixi va buguni. // ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. 2021. VOLUME 2 | ISSUE 3 |. 1236 – 1241.

2. Sovchilik / https://uz.wikipedia.org/wiki/Sovchilik

3. Саримсоқов Б. Ўзбек фольклори очерклари. Уч томлик. 1-том. – Т.: Фан, 1988.

4. Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004.

5. Ashirov Adxamjon. O’zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.

6. Абдалов Умидбек. Хоразм воҳасининг қадимий диний эътиқод ва маросимлари. – Т.: “Yosh avlod”, 2021.

7. Dala yozuvlari. Umid Bekmuhammad axboroti. Xorazm viloyati Gurlan va Yangibozor tumanlari. 2017-yil.

8. Абдуллаев У. Ўрта Осиё халқларининг оила - никоҳ муносабатлари тарихидан. // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. –№ 3. – 2022. – Б. 20.

9. https://chapaevaaygerim.blogspot.com/?m=1

10. Хоразм археологик - этнографик экспедицияси натижалари. (Г. П. Снесаров фаолияти мисолида). / Маткаримова Садоқат Мақсудовна. Бекимметов Умидбек. – Хива, 2023.

11. Dala yozuvlari. Xorazm viloyati. Xazorasp tumani. Muxomon qishlog’i. 2020-yil.

12. Sharipova Munira. Farg'ona vodiysi nikoh to'ylarida milliylik va o'ziga xoslik. // JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS. Volume – 15. Issue – 2. October – 2022.

13. Mahmud Sattor. O'zbek udumlari. – T.: Cho’lpon, 2007.

14. Madayev Omonulla. O’zbek xalq og’zaki ijodi. – Toshkent: “Mumtoz so’z”, 2010.

# TARIXIY TARAQQIYOTDA TA’LIM VA TARBIYAGA OID MASALALAR

Tillayev Bobomurod Abduvoxobovich
Gumanitar fanlar kafedrasi katta o`qituvchisi
Yo‘ldosheva Umida Xusniddin qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

**Annontatsiya:** Tarbiya avlodlardan avlodlarga otib keladigan va insonni komillika yetaklashga xizmat qiladigan muhim vosita xisoblanadi. Tarbiya inson hayotida turli bosqichlarda oz shakllarini namoyon qilgan. Shu o`rinda Taniqli ma`rifatparvar Abdulla Avloniyning tarbiya xaqida “ Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot , yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan chuqur ma`noli so`zlarini korib o`tishimiz mumkin bo`ladi.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim, madaniyat, elitistik, universitet, Jan-Jak Russo, Jon Lokk, sanoatlashtirish, Uyg'onish davri, onlayn platforma, sun’iy intellekt, texnologiya.

**Ключевые слова:** образование, культура, элитарность, университет, Жан-Жак Руссо, Джон Локк, индустриализация, Ренессанс, онлайн-платформа, искусственный интеллект, технологии.

**Key words:** education, culture, elitist, university, Jean-Jacques Rousseau, John Locke, industrialization, Renaissance, online platform, artificial intelligence, technology.

Ta'lim, ijtimoiy hodisa sifatida, bilimlarni avloddan avlodga o'tkazishning eng oddiy shakllaridan boshlab va zamonaviy jamiyatlarda murakkab ta'lim tizimlari bilan yakunlangan uzoq evolyutsiya yo'lini bosib o'tdi. Ta'limning tarixiy rivojlanishi insoniyatning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq. Ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan asosiy bosqichlar va tendensiyalarni ko'rib chiqamiz.

Jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida ta'lim uyushgan shaklda mavjud emas edi. O'rganish tabiiy ravishda sodir bo'ldi: qabilaning yosh a'zolari hayotiy jarayonlarni kuzatish va ishtirok etish orqali ajdodlardan o'rgandilar. O'tkazilgan asosiy bilimlar ovchilik, dehqonchilik, pazandalik, qurilish va boshqa amaliy ko'nikmalar edi. Ushbu bosqichdagi ta'limning asosiy xususiyatlari uning amaliy tabiati va kollektivligi edi. Bilimlar og'zaki ravishda uzatiladi va ta'lim jarayoni norasmiy, lekin kundalik hayotga integratsiyalashgan.

Qadimgi yunon va rim madaniyatlarida nafaqat amaliy, balki intellektual fanlarni ham o'z ichiga olgan ta'limning birinchi tashkil etilgan shakllari paydo bo'ldi. Qadimgi Yunonistonda o'rganish shaxsni tarbiyalash va axloqiy va axloqiy fazilatlarni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq edi. Aflotun va Aristotel ta'lim falsafasiga asos solgan, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Aflotun o'z asarlarida ruh va tananing uyg'un rivojlanishi muhimligini ta'kidlagan va Arastu ta'limning maqsadi ezgulik va baxtga erishish bo'lishi kerak, deb hisoblagan.

Qadimgi Rimda asosiy e'tibor fuqarolarni ijtimoiy hayotda ishtirok etishga tayyorlashga qaratilgan. Ta'lim ritorika, huquq, falsafa va harbiy ishlarni o'rganishni o'z ichiga olgan. Rimliklar bilimning amaliy afzalliklarini yuqori baholagan va bu ularning ta'lim tizimlarida o'z izini qoldirgan.

Ta'lim elitistik bo'lib, faqat cheklangan miqdordagi odamlar, asosan ruhoniylar va zodagonlar uchun ochiq edi. Biroq, bu davrda allaqachon Boloniya universiteti (1088 yilda tashkil etilgan) va keyinchalik Evropada intellektual hayot markazlariga aylangan Parij universiteti kabi universitetlarning shakllanishi boshlandi. Uyg'onish davri (Uyg'onish) ta'limga yangi nuqtai nazarni olib keldi. Insonparvarlik ta'lim sohasidagi islohotlarning harakatlantiruvchi kuchiga aylandi, san'at, adabiyot, falsafa, matematika va fanlarni o'rganish birinchi o'ringa chiqdi. O'rta asrlardagi diniy yo'nalishdan farqli o'laroq, Uyg'onish davri ta'limi shaxsning qadr-qimmati va uning o'zini o'zi takomillashtirish qobiliyatini ta'kidladi.

Kopernik, Galiley va Nyutonning ishlari kabi ilmiy kashfiyotlar bilimga bo'lgan munosabatni o'zgartirdi, bu esa empirik tadqiqotlar va oqilona fikrlash

natijasi sifatida ko'rindi. Bu kashfiyotlar ilmiy inqilobga va tabiiy va aniq fanlar sohasidagi keyingi taraqqiyotga asos soldi.

XVIII asr ma’rifatparvarlik davri ta’lim taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Jan-Jak Russo, Jon Lokk va Iogann Xerder kabi davr mutafakkirlari har bir inson uchun bepul va keng qamrovli ta’lim olish tarafdori edilar. Ularning ta'kidlashicha, ta'lim har bir insonning ajralmas huquqi, bir necha kishining imtiyozi emas. Bu davrda xalq ta’limi tizimlarini yaratishga birinchi urinishlar boshlangan, xalq maktablari ochilgan , ularda turli tabaqadagi bolalar o‘qiygan. Muhim g'oya fuqarolarni demokratik jamiyatda ishtirok etishga o'rgatish edi. Sanoatlashtirishning rivojlanishi bilan ishlab chiqarish va ilm-fanning yangi tarmoqlari uchun mutaxassislar tayyorlash zaruriyati vujudga keldi. Ushbu muammoga javoban ta'lim tizimlari moslasha boshladi: texnik maktablar yaratildi va sanoat jamiyati ehtiyojlarini qondirish uchun standartlashtirilgan o'quv dasturlari joriy etildi.

XIX asrda ta’lim jarayonini tashkil etish va tartibga solishda davlatning roli ham ortdi. Davlat maktablari paydo bo'ldi, universitetlar mutaxassislar tayyorlashda markaziy rol o'ynay boshladi va ta'lim olish imkoniyati asta-sekin kengaydi.

XX asr ommaviy ta’lim davriga aylandi. Dunyoning yetakchi mamlakatlarida majburiy maktab ta’limi joriy etildi, ta’lim aholining deyarli barcha qatlamlari uchun ochiq bo‘ldi. Bu davrning muhim yutug'i o'quvchiga individual yondashuv g'oyalarini joriy etish, ijodiy qobiliyatlarni va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish edi.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti axborot texnologiyalari, genetika va biotexnologiya kabi yangi o‘quv fanlarining paydo bo‘lishiga yordam berdi. Jamiyatda demokratik qadriyatlarning rivojlanishi ta'lim tizimlarida ham o'z aksini topdi, bu yerda imkoniyatlar tengligi va inklyuzivlikka urg'u berildi.

Zamonaviy ta'lim oldida yangi vazifalar turibdi. Globallashuv va raqamli texnologiyalar ta’limga yondashuvlarni tubdan o‘zgartirmoqda. Internet va onlayn kurslar butun dunyo bo'ylab odamlarga bilim olish imkoniyatini ochib berdi, bu esa

ta'lim jarayonini markazsizlashtirishga olib keldi. Zamonaviy ta'limning asosiy tendensiyalari - xalqarolashtirish, o'qitishni shaxsiylashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Zamonaviy maktab va universitetlar ta'lim sifatini oshirish uchun onlayn platformalar, sun'iy intellekt va boshqa raqamli vositalardan foydalanadi.

**Xulosa.** Ta'limning tarixiy rivojlanishi shuni ko'rsatadiki, u doimo jamiyatning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashgan. Bilimlarni og'zaki uzatishning qadimiy shakllaridan zamonaviy texnologiyaga qadar ta'lim shaxs va jamiyat taraqqiyotining asosiy omili bo'lib qolmoqda. Ta'lim masalalari o'z dolzarbligini yo'qotmaydi va bu sohaning kelajagi ta'lim tizimlarining yangi davr chaqiriqlariga javob bera olish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Dadaboyeva, Madina Aziz qizi. "SHARQ MUTAFAKKIRLARINING AXLOQIY QARASHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 2.16 SPECIAL (2023): 833-841.

2. Nawirzovich, Sagindikov DJubatxan. "YOSH AVLODNI TARBIYALSHDA RUHIY VA MA'NAVIY ONGNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY MOHIYATLARI." *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI* 4.2 (2024): 469-473.

3. Elbekovna, Davronova Nigina. "SHARQ MUTAFFAKIRLARINING TA'LIM-TARBIYAGA OID QARASHLARI." *International Journal of Education, Social Science & Humanities* 12.3 (2024): 764-768.

4. Otto, Mark, and Jacob Thornton. "FANLARARO BOG'LANISHLAR ASOSIDA TALABALARNI BILIM VA KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH." *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* 9 (2023): 187-192.

5. Sherzodbek, Sharobiddinov. "MA'NAVIYAT TUSHUNCHASIGA VORISLIK

# TARIXIY TARAQQIYOTDA INSON TARBIYASIGA OID MASALALAR

Qambarov Abdujabbor NamDPI Gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti
Yuldashaliyeva Sarvinoz Ismoiljon qizi
Namangan NamDPI Maxsus pedagogika yo’nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Siz ushbu maqola orqali inson tarbiyasiga oid masalalar,tarbiya haqida tushuncha ,tarbiya to’g’risida olimlar,allomalar fikri hamda bugungi kunda dolzarb mavzuga aylanishga ulgurgan kompyuter ,internet,umuman olganda’’axborot portlashi’’haqida ma’lumotga ega bo’lasiz.

**Abstract:** Through this article,you will get information about issues related to human education,the opinion of scientist and scholars about education ,as well as the ‘’information exsplosion’’of the computer and the internet ,which has become an actual topic today.

**Kalit so’zlar**: tarbiya,internet,axborot ,mafkuraviy,ibtidoiy.

**Key words**: education,internet,information,ideological,primitive.

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan ekan ,buning negizida kelajagimiz bunyodkori bo’lgan yoshlar har tomonlama yetuk,sog’lom va barkamol inson qilib voyaga yetkazish bilan bir qatorda ularni turli xil yot g’oyalar va tajovuzlardan asrab qolish maqsadi ham mujassam .Zotan ,O’zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek,’’…yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo’lib kelgan .Ammo biz yashayotgan XXI asr bu masalaga haqiqattan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda.[1]

“Hech bir ota o’z farzandiga go’zal odobidan ham ortiqroq hayda bera olmaydi “[Termiziy rivoyati]

Hozirgi kundagi zamonaviy ta’limning vazifasi kasbiy ,huquqiy ,milliy ,ma’naviy –ma’rifiy ,mafkuraviy va madaniy jihatdan talabalarning kompanentliligini rivojlanish masalasi bilan bog’liqdir.Xalqaro ta’lim andozalariga moslikning ta’minlanishi ta’lim mazmuniga g’oyaviy – mafkuraviy ,ma’naviy-ma’rifiy jihatlar ham kiritilishi talab qilinadi.Chunki

ijtimoiy –iqtisodiy rivojlanishining bundan keyngi bosqichlari jamiyatga global miqiyosda fikrlay oladigan ,turli xil ijtimoiy,iqtisodiy va siyosiy vaziyatlarda o’z yo’nalishini topa oladigan,taraqqiyparvar g’oyalar va mafkura bilan qurollangan yetuk shaxslar yetkazib berilishini taqozo etadi.[2]

Ulug’ mutafakkir Abdulla Avloniy ‘’Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot ,yo najot yo halokat ,yo saodat yo falokat masalasidir’3 –degan hikmati har bir davr ,har bir jamiyat va har bir oila uchun hamisha dolzarb va zaruriy ko’rsatmadir.

Inson tarbiyasi takomili,ma’naviyati go’daklikdan shakllanadi.Sharqiy,islomiy ta’limot farzand tarbiyasini uning onasini tanlashdan boshlashi kerakligini uqtiradi . Oqila, dono, o’qimishli, e’tiqodli, taqvodor ayol farzandlari tarbiyasiga o’ta talabchan bo’ladi, tarbiya jarayonini to’g’ri tashkil qila oladi. Abdulla Avloniy bu haqida shunday deydi;Endi ochiq ma’lim bo’ldiki ,tarbiyani tug’ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlandurmak, fikrimizni nurlandurmak, axloqimizni go’zallandurmak, zehnimizni ravshanlandurmak lozim ekan’’.

Farobiy ta’lim-tarbiyaga birinchi marta ta’rif bergan mutafakkir sanaladi. Ta’lim degan so’z insonga o’qitish , tushuntirish asosida nazariy bilim berish, tarbiya-insoniy fazilatni hamda ma’lim hunarni egallash uchun zarur bo’lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o’rgatishdir ‘’degan olim.

Yoshlar tarbiyasi haqida fikr yuritilar ekan respublikamiz va jahon hamjamiyati olimlari tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalarni ko’rishimiz mumkin.

M.Inamovaning ta’kidlab aytganidek’’milliy axloq ,milliy tarbiya natijasida tarkib topadi.Milliy tarbiya negizida oilaviy tarbiya yotadi ‘’[4] deb ta’kidlaydi.

Falsafa fanlari doktori ,professor A.Ochildievning fikriga ko’ra’’mafkuraviy himoya ta’lim-tarbiya va targ’ibot –tashviqot tizimi orqali amalga oshiriladi .Sog’lom mafkura xalq ongi va qalbiga singdirishga xizmat qiladigan

ijtimoiy tuzilmalar,oila ,maktab,mahalla,davlat va jamoat tashkilotlari ham bu jarayonda o’z o’rniga ega ‘’[5]

O’rta Osiyo mutafakkirlari Farobiy va Abu Ali ibn Sinolar ham inson tarbiyasiga ta’sir etuvchi omillar ahamiyatiga e’tibor berib kelganlar.Farobiy inson kamolotida ta’lim va tarbiyaning muhimligini ta’kidlab’’Munosib inson’’bo’lish uchun ikki imkoniyat ;ta’lim va tarbiya olish imkoniyati bor.Ta’lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi,tarbiya esa kishilar bilan mulaqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo’ldir…’’deydi.

Bir tomondan ‘’Axborot portlashi’’yuz berdi. Inson huquqlari , so’z,e’tiqod erkinligi,axborot olish huquqi,erkin tanlash huquqi va shu kabilar jahon miqiyosida katta ahamiyat kasb etadi.Lekin AKT rivojlanishi jarayonida kompyuter,internet,ijtimoiy tarmoqlar,electron OAV yordamida yaratilayotgan virtual voqelik tufayli inson tobora ularning bandiga aylanib bormoqda.Mumtoz insoniy xislatlardan mahrum bo’lmoqda.6

Xulosa qilib aytganda, inson tarbiyasi har vaqt dolzarb mavzulardan biri bo’lib kelgan. Inson tarbiyasi avvalo oiladan boshlanadi.Oila muhiti ham tarbiyaga katta ta’sir ko’rsatadi . Yuqorida allomalarimiz,olimlarimiz o’z fikrlarida ta’kidlagani kabi tarbiyani tug’ilgan kundan boshlamoq kerak. Asrlar davomida shakllangan ma’naviy qadriyatlar ,komillik haqidagi inson orzu havasi va intilishlari biroz susaysa-da , barham topmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati;**

1. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko’taramiz Toshkent O’zbekiston 504-505]
2. O’zbekiston Respublikasining sonli ‘’Ta’lim to’g’risidagi ‘’qonun. 2020-yil 23-sentabr O’RQ-637-
3. A.Avloniy Toshkent tongi –Toshkent G’.G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti 246-bet.
4. Inamova.M.O Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari mustaqil hayot

bo’sag’asidagi yoshlar]Pedagogika fanlari doktori ….dis/Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika unversiteti .279-bet.

5. Ochildiev.A Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar .Toshkent ;Muharrir 2009-yil. 95-bet.
6. A.Erkayev Ma’naviyatshunoslik 2018-yil,5-bet.

## AMIR TEMUR-BUYUK DAVLAT ARBOBI.

Zuhraxon Akramjonova Shavkatjon qizi.

Namangan davlat pedagogika insitituti talabasi

**Annotasiya**.Ushbu maqolada Amir Temur hayoti,shaxsiyatiga alohida to’xtalib o’tilgan, bundan tashqari Amir Temur harbiy mo’jizalari va g’alabalari, davlar boshqaruvlari va targ’ibotlari, madaniyat va ilm-fanga e’tibori va Amir Temur haqida mashhur asarlar haqida qisqacha ma’lumotlar berib o’tilgan.

**Аннотация:** В данной статье подробно рассматриваются жизнь и личность Амира Темура. Кроме того, освещены его военные достижения и победы, управление и реформы, вклад в культуру и науку, а также краткий обзор известных произведений о нем.

**Abstract.** This article provides an in-depth look into the life and personality of Amir Temur. Additionally, it covers his military achievements and victories, his governance and reforms, his contributions to culture and science, and includes a brief overview of famous works about him.

**Kalit so'zlar**. Amir Temur, Buyuk davlat arbobi, Temuriylar imperiyasi, Harbiy strategiya va g‘alabalar, “Davlat boshqaruvi va qonunlar”, “Temur tuzuklari”, Madaniyat va ilm-fan, Amir Temur hayoti va shaxsiyati, “Zafarnoma”, Amir Temur merosi.

**Ключевые слова**. Амир Темур, “Великий государственный деятель”, Империя Темуридов, Военная стратегия и победы, Управление и законы, “Кодекс Темура” (Темур Тузуклари), Культура и наука, Жизнь и личность Амира Темура, “Зафарнаме”, Наследие Амира Темура.

**Keywords.** Amir Temur, “Great statesman”, Timurid Empire, Military strategy and victories, Governance and laws, “Temur's Code” (Temur Tuzuklari), Culture and science, Life and personality of Amir Temur, “Zafarnama”, Legacy of Amir Temur.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Amir Temur shaxsi haqida ko‘p bor ehtirom bilan fikr bildirgan. Amir Temurga bo‘lgan hurmat va uning tarixiy ahamiyati davlatimiz rahbarining nutqlari va islohotlarida ko‘p bora ta’kidlangan. Prezident Mirziyoyev Amir Temurni nafaqat buyuk sarkarda, balki adolatli davlat arbobi sifatida yuqori baholaydi va uning qadriyatlari bugungi O‘zbekiston jamiyati uchun ham dolzarb ekanini eslatib keladi. Adolat va kuchli boshqaruv timsoli sifatida – Shavkat Mirziyoyev Amir Temurni adolat va qat’iy boshqaruvning timsoli sifatida tasvirlaydi. Prezidentning so‘zlariga ko‘ra, Amir Temur "Temur tuzuklari"asarida belgilab bergan boshqaruv tamoyillari bugungi kunda ham dolzarb va ibratli. Amir Temurning odil va kuchli davlat yaratishdagi sa’y-harakatlari O‘zbekistonni rivojlantirishda muhim tamoyil sifatida qabul qilinadi.

Amir Temur (to‘liq ismi Amir Temur ibn Tarag‘ay Barlas) o‘rta asr Markaziy Osiyoning eng qudratli davlat arbobi, buyuk sarkarda va strateg hisoblanadi. U 1336-yilda Kesh (Shahrisabz) shahri yaqinida tug‘ilib, o‘zining zakovatli siyosati, harbiy iqtidori va mahorati bilan o‘sha davrning ko‘plab davlatlarini birlashtirgan va katta saltanat barpo etgan. Amir Temurning davlat boshqaruvi va harbiy yutuqlari o‘z davri uchun, balki keyingi avlodlar uchun ham ulkan namuna bo‘la oladi

Amir Temur yoshligidan harbiy va siyosiy bilimlarga juda qiziqadi va ularni mukammal egallashga harakat qiladi.U 1360-yillarda Barlos qabilasiga bosh bo’lib,dastla Xuroson,Movarounnahr va boshqa hududlarda o’z hokimiyatinio’rnatishga intilgan.

Amir Temur o‘z davlati hududlarini kengaytirish va Markaziy Osiyoda yagona qudratli davlat barpo etish maqsadida bir qator yirik harbiy yurishlarni

amalga oshirgan. Bu yutuqlar ichida Eron, Iroq, Kavkaz, Hindiston va Oltin O‘rda hududlarining zabt etilishi  va bu joylarda barqarorlikni ta’minlash borasidagi faoliyati alohida e’tiborga loyiq. Temur o‘zining harbiy yurishlari davomida kuchli strategiya va diplomatik mahora bilan ko’plab kelishuvlar,suluhlar tuzishga erishgan va uzoq muddatli rejalar asosida harakat qilgan.

Temur markazlashgan davlat tuzilishini joriy etib, Movarounnahrda kuchli iqtisodiy va ijtimoiy tizim yaratgan. U davlatni boshqarishda qat’iy qonunlar asosida faoliyat yuritgan va bu orqali barqarorlikka erishgan. "Temur tuzuklari" deb atalgan hujjatlarda davlat boshqaruvi va adolatli siyosat tamoyillari bayon qilingan bo‘lib, bu nafaqat uning davrida, balki keyingi asrlarda ham o‘rnak bo‘lib xizmat qilgan.

Amir Temur o‘z davlati taraqqiyoti uchun ilm-fan va madaniyatga alohida e’tibor qaratgan. U Samarqandni ilm va madaniyat markaziga aylantirishga intilgan va bu shaharda ko‘plab ilmiy va madaniy obidalarni bunyod etgan. Uning himoyasida ko‘plab olimlar, shoirlar va san’atkorlar ijod qilgan, bu esa uning davrida Markaziy Osiyoni ilm-fan markazlaridan biriga aylantirgan.

1405-yilda Xitoyga uyushtirilgan yurish paytida vafot etgan Amir Temurning merosi bugungi kunga qadar saqlanib kelmoqda. U yaratgan davlat va "Temur tuzuklari" boshqaruv tizimi ko‘plab mamlakatlarning davlat boshqaruvida o‘z aksini topgan. Amir Temur shaxsiyatiga xos strategik fikrlash va adolatga intilish tamoyillari unga tarixda buyuk davlat arbobi va sarkarda sifatida obro‘ qozongan.

Amir Temur shaxsiyati, faoliyati va merosi haqidagi asarlar uning tarixdagi o‘rnini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Mana, ba’zi muhim asarlar:

"Zafarnoma" – Sharafiddin Ali Yazdi tomonidan yozilgan bu asar Amir Temur hayoti va yutuqlari haqida eng mashhur manbalardan biridir. Asarda Temurning harbiy yurishlari, boshqaruv uslubi va o‘z davridagi siyosiy faoliyati haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan. "Zafarnoma" nafaqat tarixiy manba, balki Amir Temur davri madaniyatini ham yoritib beruvchi qimmatli asardir.

"Temur tuzuklari" – Amir Temurning o‘zi tomonidan tuzilgan ushbu asar davlat boshqaruvi, harbiy strategiya va adolat tamoyillarini o‘zida aks ettiradi. "Temur tuzuklari" Amir Temurning siyosiy va harbiy nazariyalarini yoritib beradi va keyinchalik ko‘plab davlat arboblariga ilhom manbai bo‘lgan.

Amir Temur haqida chet ellik olimlar, tarixchilar va yozuvchilar ham ko‘plab asarlar yaratgan, ularning asarlari Temurning jahon tarixidagi o‘rnini va uning ko‘plab mamlakatlarga ko‘rsatgan ta’sirini yoritadi. Quyida chet ellik shaxslar tomonidan yozilgan muhim asarlar haqida ma’lumot keltirilgan:

"Timur va uning avlodlari" (Timur and His Descendants) – E. H. Parker tomonidan yozilgan bu asarda Amir Temurning Xitoy bilan bo‘lgan aloqalari va Osiyo hududidagi ta’siri yoritiladi. Parker o‘z tadqiqotlarida Amir Temurning Xitoy tarixiga ta’sirini o‘rganib, uning Osiyoning keng hududidagi siyosiy va madaniy o‘rnini ta’kidlaydi.

"Timur: The Lame Conqueror of Central Asia" – amerikalik tarixchi Marzia Alekseyevna tomonidan yozilgan bu asar Amir Temurning harbiy yutuqlari va uning markaziy Osiyodagi ta’sirini o‘rganadi. Marzia Amir Temurning Movarounnahr va Hindiston hududidagi muvaffaqiyatlarini tahlil qiladi.

"Amir Temur tarixi" (History of Timur) – frantsuz tarixchisi Lui Busse (Louis Boussenard) tomonidan yozilgan bu asarda Amir Temurning harbiy yurishlari, strategik iste’dodi va boshqaruv usullari haqida batafsil ma’lumot beriladi. Busse Amir Temurning Evropa va Osiyo siyosatidagi o‘rnini ham chuqur tahlil qilib, uning ta’sirini qayd etadi.

Bu asarlar orqali Amir Temur Yevropa va Amerika tarixchilari, yozuvchilari va sharqshunoslari tomonidan ham yuqori baholangan va ko‘plab yirik tadqiqotlarga ilhom manbai bo‘lib xizmat qilgan. Uning shaxsiyati va yutuqlari nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun dunyo miqyosida ham hurmat bilan tilga olinadi..

Amir Temur — nafaqat o‘z davrining buyuk sarkardasi va davlat arbobi, balki bugungi kunda ham xalqimiz uchun ibrat manbai bo‘lib qolmoqda. U yaratgan

davlat boshqaruvi tizimi, adolatli siyosati va "Temur tuzuklari" orqali belgilab bergan tamoyillar hozirgi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Amir Temur shaxsiyatiga bergan yuksak bahosi xalqimizning o‘z tarixiga, o‘z qadriyatlariga bo‘lgan hurmatini yanada oshiradi. Amir Temurning madaniyat, ilm-fan va san’atga qaratgan e’tibori esa yosh avlodni ulkan maqsadlar sari ilhomlantiradi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. "Zafarnoma" Sharafiddin Ali Yazdiy
2. "Temur tuzuklari" Amir Temur
3. https://scholar.google.com/

# II-SHO'BA MILLIY TARBIYA KLASTERLARIDA ESTETIK TA'LIMNING O'RNI

## TURKISTON MUHTORIYATI UCHUN KURASH:MUAMMO VA ZIDDIYATLAR

Valiyeva Nafisa Abdumajitovna
Namangan davlat pedagogka instituti
Gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti
Abdulazizova Farida Azamjon qizi
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi
faridaabdulazizova9@gmail.com

**Annotatsiya**: 1917-yilgi fevral inqilobidan so'ng Rossiya paydo bo'lgan beqaror siyosiy vaziyat Turkistonda mustaqillikka intilgan bir qator harakatlarga sabab bo'ldi. Turkistonda xalqning milliy uyg'onishi va o'z taqdirini tashkil topishga olib keldi. Ushbu maqolada muhtoriyatning tashkil topishi, asosiy qiyinchiliklari va sovet hokimiyati bilan ziddiyatlari tahlil qilinadi.

**Abstract:** The unstable political situation in Russia after the February Revolution of 1917 caused a number of movements seeking independence in Turkestan. It led to the national awakening of the people of Turkestan and the establishment of their own destiny. This article analyzes the main difficulties of the establishment of autonomy and its conflicts with the Soviet authorities.

**Kalit so'zlar:** Turkiston muhtoriyati, urush inqilob "Ulug'Turkiston" gazetasi, hukumat, Rossiya, sovet hukumati, mustamlakachilik.

**Key words:** Turkestan, war, revolution, "Great Turkestan" newspaper, the government, Russia, Soviet government, colonialism.

Turkiston muhtoriyati uchun olib borilayotgan kurashda duch kelgan asosiy muammolarni va ularni hal etishdagi to'siqlarni yoritishga qaratilgan. Bunda mustamlakachilikka qarshi kurash, milliy birlik masalasi, harbiy iqtisodiy

qiyinchiliklar, shuningdek, ichki siyosiy ziddiyatlar va tajriba yetishmasligi kabi muhim jihatlar tahlil qilinadi. Mazkur muammolarni o'rganish orqali Turkiston muhtoriyati uchun kurash qanday kechganligi va uning zamonaviy Markaziy Osiyo uchun qanday saboqlar berganligini anglash mumkin. Turkiston muhtoriyati uchun kurash o'tgan asr boshida Markaziy Osiyodagi mustamlakachilikka qarshi harakatning eng yorqin sahifalaridan biridir. Bu davrda Turkiston ziyolilari mustamlakachilik zulmiga qarshi kurashda o'z milliy o'zligini saqlab qolish va siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritish yo'lida birlashtirishga harakat qilganlar. Jadidchilik harakatining yetakchilari, ta'lim ziyolilari va turli sohadagi milliy faollar xalqni erkinlik va tenglik uchun kurashga chorlashadi. Ammo bu yo'lda muhtoriyat uchun kurash bir qator murakkab muammo va ziddiyatlarga duch keladi. Turkiston muhtoriyati bilan Sovet hokimiyati o'rtasida doimiy qarama-qarshilik mavjud edi. Sovet hokimiyati Turkistonning mustaqillik harakatlarini kuch bilan bostiradi[1].

Turkiston muhtoriyati dasturi va maqsadi xalqni mustamlakachilik zulmidan ozod qilish, madaniy va iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlat barpo etish edi. Bu muhtoriyatning rahbarlari, jumladan, Mustafo Cho'qay, Abdulla Avloniy, Fayzulla Xo'jayev kabi ziyolilar milliy, qadriyatlar, din, madaniyat va tilni himoya qilishni birlamchi vazifa sifatida belgilagan lar. Shuningdek, ular ijtimoiy adolat, erkin ta'lim, milliy o'zlikni anglash va xalqning siyosiy faolligini oshirishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan edilar.

XIX asrning birinchi yarmida boshlab Markaziy Osiyo hududlari asta-sekinlik bilan Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olina boshlagandi. Avvalga Qozoq xonligi yiqitiladi va uning xududi imperiya tarkibiga qo'shib olinadi. Asosiy sabablar orasida ichki notinchlik, yetarli Quvvatga ega bo'lmagan milliy armiya, iqtisodiy qiyinchiliklar va Sovet ittifoqining harbiy bosimlar bor edi[2].Shuningdek,Turkiston o'lkasida hokimiyat Turkiston muhtoriyati muvaqqat kengashi va Turkiston muhtoriyati xalq majlisiga o'tishi haqida qaror qabul qilindi.

"Ulug' Turkiston" Rossiyada yuzaga kelgan siyosiy-ijtimoiy vaziyatni

sinchiklab kuzatib borar ekan, milliy zulim ostida ezilib kelgan Rossiya musulmonlariga o'z mustaqilligini qo'lga kiritish imkoniyatlari yuzaga kelayotganini qayta-qayta ta'kidlab turadi. Turkistonda bolsheviklar xokimiyatga kelgandan so'ng ham gazeta o'z maslagini o'zgartirmaslikka intiladi[3].

Turkiston muhtoriyati uzoq davom etmagan bo'lsada, uning uchun olib borilgan kurash mintaqaning keyingi ozodlik va mustaqillik harakatlariga kuchli ilhom manba bo'ladi. Bu harakat xalq orasida milliy o'zlikni anglash, adolat va ozodlik uchun kurashish ruhini tarbiyalaydi. Turkiston muhtoriyati liderlari, jumladan, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Munavvarqori va boshqalar, Turkistonni mustaqil davlat sifatida shakllantirishga intilishgan. Ular rus mustamlakachiligiga qarshi turgan[4].Shu bilan birga Turkiston muhtoriyati mustamlakachilikka qarshi kurashda birlik, bilim va ijtimoiy faollikning qanchalik zarur ekanligini ko'rsatgan.

Mustamlakachilik siyosati va mustaqillik uchun qarashlilik Rossiya imperiyasi Turkiston hududini o'z tarkibida ushlab qolishni istagan va mintaqadagi tabiiy resurslarni boyitishda davom etishni maqsad qilgan. Turkiston muhtoriyati qulashining asosiy sabablariga ichki notinchlik, kuchli milliy armiyaning yo'g'i, iqtisodiy qiyinchiliklar va Sovet hokimiyatining kuchli bosimlari kiradi. Shuningdek, ichki siyosiy ziddiyatlar ham muhtoriyatning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Turkiston muhtoriyati kurashi xalqning o'z mustaqilligini saqlab qolish va milliy o'zlikni mustahkamlashga qaratilgan harakat qilgan edi. Bu jarayon tarixda o'z o'rniga ega bo'lib, bugungi kun uchun ham milliy ong va milliy o'zlik tushinchalarining ahamiyatini ko'rsatib beradi. Turkiston muhtoriyati ko'plab muammolar va ziddiyatlarga duch kelganiga qaramasdan, uning intilishlari o'z milliy davlatchiligining shakllantirishga bo'lgan qattiq intilishning ifodasi sifatida tarixda abadiy qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. Karimov A. Turkistonning mustaqillik harakati va uning yo'q qilinishi. (Bu kitob

Sovet hokimiyatining siyosatini tushintiradi.)
2. Norqobilov S. O'tmishdan saboq. (Mustaqillikning ichki va tashqi ziddiyatlariga e'tibor qaratilgan.)
3. "Ulug' Turkiston" gazetasi. 1918-yil 160-soni.
4. Vohidov M. Milliy liderlar va Turkiston muhtoriyati.(Ushbu asar rahnamolar haqida batafsil ma'lumot beradi.)

## TURKISTON JADIDLARINING MILLIY ISTIQLOLCHILIK G‘OYASI VA MAFKURASI

Valiyeva Nafisa Abdumajitovna
Namangan davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti.
Abdumannonova Mohlaroyim Elmurod qizi Namangan davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.
abdumannonoverkin1@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Turkiston jadidlarining milliy istiqlolchilik g‘oyasi va mafkurasini tahlil qiladi.Jadidlar o‘z millatini uyg‘otish va zamonaviy bilimlar orqali mustaqillikka erishishni maqsad qilib qo‘ygan.Ular ta’lim va milliy ongni yuksaltirish orqali xalqni ozodlikka undab, Turkiston mustaqilligi yo‘lida ijtimoiy-siyosiy kurash olib borgan.

**Kalit so‘zlar:** Turkiston jadidlari,milliy istiqlol, jadidchilik harakati,milliy mafkura, uyg‘onish,milliy o‘zlik,ozodlik,islohot, mustaqillik kurashi.

**Annotatsion:** The article analyzes the national independence idea and ideology of Turkestan moderns.Jadids aimed to awaken their nation and achieve independence through modern knowledge. They led the socio-political struggle for the independence of Turkestan by encouraging the people to freedom through education and raising national consciousness.

**Keywords:** Turkestan modernism,national independence,modernism movement,national ideology,awakening,national identity,freedom,reform, independence struggle.

**Аннотация:** В данной статье анализируются идея национальной независимости и идеология Туркестанских джадидов,целью котрых является пробуждение своёй нации и достижение независимости посредством современных знаний.Они возглавили общественно-политическую борьбу за независимость Туркестана, поощряя народ к свободе посредством образования и повышения национального самосознания.

**Ключевые слова:** Туркестанские джадиды, национальная, независимость, джадидское, движение, национальная, идеология, пробуждение, национальная идентичность, свобода, реформы, борьба за независимость.

## KIRISH:

Turkiston xalqlari tarixida katta o'rin egallagan jadidchilik harakati murakkab va tarixiy jihatdan serqirra yo'lni bosib o'tdi. Jadidlar turli mamlakatlar tajribasiga tayangan holda islohotlarni milliy asosda qayta ishlashga intilishdi. Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g'oyasi ana shu yo'nalishda shakllanib yetildi.

XX asr tongida millat ziyolilari o'zbek adabiy tilining qanday rivojlanmog'i kerakligi,buning uchun qanday yo'llarni bosib o'tish lozimligini keng muhokama qilgan edilar.Bu borada eng to'g'ri yo'l sifatida xalqning jonli tili imkoniyatlaridan foydalanish,o'zbek tilini boshqa tillar ta'siriga tushib qolishdan muhofaza qilish masalasini kun tartibiga qo'ydi.

Jadidlar maktab va madrasalar darsliklari tili va matbuotda chop etilayotgan maqolalarning sof o'zbek tilida bo'lishi uchun kurash olib bordi. Til masalasiga oid bunday tanqidiy maqolalar vaqtli matbuotda muntazam ravishda e'lon qilib borildi. Jumladan, "Al-Isloh", "Oyna", "Sadoi Farg'ona", "Sadoi Turkiston" nashrlari shular jumlasidandir.Ibrohim Tohiriyning "Al-Isloh"da chop qilingan

"Matbuot va Isloh" sarlavhali maqolasi bu jihatdan harakterli hisoblanadi. Muallif Turkistonda nashr qilinayotgan asarlar va gazeta,jurnallar tili haqida so'z yuritadi.

Jadidlarning millatimiz oldidagi eng oliy xizmatlaridan biri shuki, ular Turkiston xalqlari va millatlarning qonun oldida tengligi g'oyasini ilgari surishidir. Ularning fikriga ko'ra Turkiston fuqarolari jamiyat hayotining barcha iqtisodiy-siyosiy, huquqiy va madaniy jabhalarida teng huquqqa ega bo'lishlari lozimdir. Jadidlar Ta'sis majlisidan o'rin olish uchun juda ko'p urindilar,bu jarayonda taraqqiyparvarlar tomonidan tuzilgan "Sahroi Islomiya" va jadidlarning konservativ qismidan tashkil topgan "Ulamo" jamiyati kabi tashkilotlarga bo'linish yuz berganligiga qaramasdan, birlashish yo'lidan bordilar.

Jadidlar harakat dasturining tobora kuchayib borishining va siyosiy tus olganligining bir qator sabablari bor.Shulardan biri, jadidchilik harakatiga xorijda o'qib, chet eldagi milliy taraqqiyparvar harakatlar tajribasini o'rganib qaytgan yoshlar kelib qo'shildi. Ular xalqni madaniylashtirish doirasida cheklanib qolmay,aniq siyosiy vazifalar qo'yishni talab qildilar. Soliqlarni kamaytirish, ayrim amaldorlar zulmini cheklash, dehqonlar hayotini yaxshilash-shu talablar jumlasidan edi. Jadidlar Turkiston yoshlari zamondan xabardor bo'lish, fan-texnika yutuqlarini o'rganishi uchun til bilishi, yomon illatlardan qutulishi,buning uchun islom dinining mohiyatini to'g'ri anglay bila olishi kerakligiga katta e'tibor qaratdilar. Yoshlarni millatning taraqqiyoti uchun kurashishga chaqirdilar. Turkistonning taraqqiyoti va ravnaqi zamonaviy ta'lim-tarbiya beradigan maktab va oliy ta'limlarda tahsil olish,islohotlarni amalga oshirish g'ayratli yoshlarning harakati, ma'rifatparvarligi, shijoati orqali vujudga keladi deb qaraydi. Bu esa hayotdagi mushkul ishlarda yolg'iz yoshlarning ilmiy salohiyatidan foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Jadidlar Turkiston xalqlarining o'zligini anglash va o'z milliy madaniyatini qayta tiklash tarafdori edilar.Ular Turkistonni Rossiya imperiyasining mustamlakasidan ozod qilish uchun milliy istiqlolchilik g'oyasini ilgari surdilar. Bu g'oya orqali jadidlar mustamlaka zulmi ostida qolayotgan xalqlarni birlashtirib,

ularning mustaqillikka intilishlarini doim qo‘llab-quvvatlashga harakat qildilar. Shunday qilib, jadidlar milliy til, madaniyat va tarixni rivojlantirish orqali millatni uyg‘otish va milliy birdamlikni mustahkamlash yo‘lida faoliyat olib bordilar.

Jadidchilikning asosiy g‘oyalari va maqsadlari Turkistonni o‘rta asrlar qoloqligi va diniy xurofotdan ozod qilish, shariatni isloh qilish, xalqni ma’rifatli qilish, Turkistonda muxtoriyat hokimiyatini o‘rnatish uchun kurashish, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish barqaror milliy valyutani muomalaga kiritish, milliy armiya qurish edi. Keyinchalik Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand va Xivada erkin fikrli, ilg‘or fikrli kishilarning ma’lum guruhlar tomonidan ochilgan madaniy-ma’rifiy jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.

Jadidlar dunyoning ilg‘or davlatlaridan ko‘p jihatdan ortda qolgan Turkiston xalqlarini bo‘lajak fojialardan ogoh etish, jamiyat hayotini inqilobiy-zo‘rlik yo‘li bilan emas,balki tadrijiy-ma’rifiy yo‘l bilan ijobiy tomonga o‘zgartirish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi,kurash usuli edi.Milliy istiqbolini o‘ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari-hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg‘otish siyosiy-ma’rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o‘ziga qulay zamin topdi.

Hozirgi davrga kelib, birinchidan, jadidchilik ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida e’tirof etildi, uning xizmatlari tan olindi. Ikkinchidan, jadid adabiyoti milliy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida baholanib, o‘nlab kitoblar, turli asarlar nashr etilmoqda. Ko‘plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Uchinchidan, keyingi yillarda asrlar davomida orzu qilingan, jadidlar ham intilib kelgan ezgu g‘oyalar amalga oshmoqda, yurtimizda yangi O‘zbekistonni bunyod etish imkoni paydo bo‘ldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Avvalgi musulmonlardagi madaniyat.// "oyna" jurnali / A.Obloqulov tabdili. -Samarqand viloyat "Zarafshon" gazetasi,1997, 15-iyul.
2. Jadid ma’rifatparvarlik harakatining g‘oyaviy asoslari.Respublika Ilmiy-amaliy anjumani materiallari.-T.,2016.-B.87.
3. Ibrohim Tohuriy.Matbuot va Isloh. " Al-Isloh" jurnali,1915-yil 5-6- sonlar.

## AQLI ZAIF BOLALARNI O‘RGANISH VA ULARGA YORDAMNI TASHKIL ETISH

Namangan davlat Pedagogika instituti Umumiy psixologiya kofedrasi dotsenti Orifbayeva Dilafruz Dadamirzayeva

Abdurazzoqova Mushtariy Sherzod qizi Namangan davlat pedagogika instituti maxsus pedagogika logopediya yo’nalishi

Tel: +998930536569

**Annotatsiya:** Bu maqolada aqli zaif bolalarni o'rganish va ularga yordam berish, malakali pedagoglarni yonlash, maxsus sharoit yaratish, kerakli jixozlar bilan ta'minlash va kasalliklarni nomi va ularni yorqin bayon etish ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy integratsiya, oolossefal, mikrosefaliya, maxsus ta'lim dasturlari, psixologik yordam, emotsiya, ko'nikma, gidrosefaliya, individual darslar, maxsus ta'lim dasturlari, inkluziv ta'lim, koxlear apparat, integratsiya, IQ daraja, interaktsiya, intellekt.

**Аннотация:** В данной статье описывается изучение и поддержка умственно отсталых детей, подбор квалифицированных педагогов, создание

специальных условий, обеспечение необходимым оборудованием, а также наименование заболеваний и их наглядное описание.

**Ключевые слова:** социальная интеграция, оолоцефалия, микроцефалия, специальные образовательные программы, психологическая поддержка, эмоции, навыки, гидроцефалия, индивидуальные занятия, специальные образовательные программы, инклюзивное образование, кохлеарный аппарат, интеграция, уровень IQ, взаимодействие, интеллект.

**Abstract:** This article describes the study and support of mentally retarded children, the selection of qualified pedagogues, the creation of special conditions, the provision of necessary equipment, and the naming of diseases and their vivid description.

**Key words:** social integration, oolocephalus, microcephaly, special education programs, psychological support, emotion, skills, hydrocephalus, individual classes, special education programs, inclusive education, cochlear apparatus, integration, IQ level , interaction, intelligence.

Aqli zaif bolalarni o'rganish va ularga yordam berish muhim vazifalardandir. Buning uchun quyidagi yo'nalishlar asosida ish olib borish mumkin:

1. Individual yondashuv: Har bir bola o'ziga xos, shuning uchun individual dasturlar ishlab chiqish zarur. Bu ularga mos o'quv rejalarini tuzishni talab qiladi. 2. Psixologik yordam: Bolalarga psixologik yordam ko'rsatish, ularning ruhiy holatini yaxshilash va o'ziga ishonchni oshirishda muhim rol o'ynaydi. 3. Maxsus o'quv dasturlari: Aqli zaif bolalar uchun maxsus o'quv materiallari va o'yinlar tayyorlash orqali o'quv jarayonini qiziqarli va saYordamchi maktablar, yoki maxsus maktablar, aqli zaif bolalarning ta'lim va rivojlanishiga mo'ljallangan o'quv muassasalaridir. Ular quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Maxsus ta'lim dasturlari: O'quv rejalari bolalarning ehtiyojlariga moslashtiriladi. O'qituvchilar maxsus metodlarni qo'llashadi.

2. Psixologik va ijtimoiy yordam: Yordamchi maktablarda bolalarga psixologik qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar mavjud.

3. Kichik sinflar: O'qituvchilar soni ko'proq, shuning uchun bolalarga individual e'tibor berish imkoniyati mavjud.

4. Maxsus resurslar: Maktablarda maxsus ta'lim materiallari, o'yinlar va boshqa resurslar mavjud bo'ladi.

5. Oila bilan hamkorlik: Ota-onalar bilan muntazam aloqa va hamkorlik o'rnatiladi, bu bolalarning rivojlanishiga yordam beradi.[15]

Yordamchi maktablar aqli zaif bolalarning o'z potensialini amalga oshirishlariga yordam berish va ularga ijtimoiy hayotga integratsiyalashishga ko'maklashish uchun muhimdir.marali qilish mumkin.

4. Oila va jamiyat ishtiroki: Oila va jamiyat vakillari bilan hamkorlik qilish, bolalarni qo'llab-quvvatlashda muhimdir. Ota-onalar va o'qituvchilar birgalikda ishlashi zarur.

5. Treninglar va seminarlar: O'qituvchilar va ota-onalar uchun treninglar tashkil etish, ularga aqli zaif bolalar bilan qanday ishlashni o'rgatish.

6. Ijtimoiy integratsiya: Bolalarni ijtimoiy faoliyatlarga jalb etish, ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish.[16]

Bu yo'nalishlar orqali aqli zaif bolalarning ta'lim olishlari va hayot Aqli zaif bolalarga yordam berish uchun bir necha muhim yo'nalishlarni ko'rib chiqish mumkin:

1. Ta'lim va rivojlanish: Ular uchun maxsus ta'lim dasturlari va metodikalar ishlab chiqish. O'qituvchilar va psixologlar bilan hamkorlik qilish.

2. Emotsional qo'llab-quvvatlash: Oila va atrof-muhitda ijobiy muhit yaratish, hissiy yordam ko'rsatish.

---

[15] M. Po'latova "Maxsus pedagogika"

[16] https://www.ma'lumotlar.uz

3. Sog'liqni saqlash: Meditsina yordamiga ehtiyoj bo'lsa, tegishli mutaxassislar bilan aloqada bo'lish.

4. Ijtimoiy integratsiya: Ularni jamiyatga moslashishiga yordam berish uchun guruhlarda ishtirok etish va ijtimoiy faoliyatlarda qatnashishga rag'batlantirish.

5. Ota-onalar va oilalar bilan ish: Ota-onalarga maslahat berish va ularga qo'shimcha yordam ko'rsatish.

Har bir bolaning ehtiyojlari individualdir, shuning uchun individual yondashuv muhimdir. Nuqsonlarni bartaraf etish yo'llari quyidagilar:

1. Ta'lim va o'qitish: Maxsus dasturlar orqali bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish.

2. Psixologik yordam: Psixolog yoki psixiatr bilan maslahatlashish, emotsional qo'llab-quvvatlash.

3. Individual yondashuv: Har bir bolaning ehtiyojlariga mos ravishda strategiyalar ishlab chiqish.

4. Ijtimoiy ko'mak: Guruhlarda faoliyat olib borish va ijtimoiy integratsiyani ta'minlash.

5. Ota-onalar bilan hamkorlik: Ota-onalarga maslahatlar berish va ularni qo'llab-quvvatlash.

6. Sog'liqni saqlash xizmatlari: Zarur tibbiy yordam va reabilitatsiya xizmatlarini taqdim etish.[17]

Ushbu yo'nalishlar nuqsonlarni bartaraf etishda samarali bo'lishi Yakka tartibdagi ta'lim turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Individual darslar: O'quvchining ehtiyojlariga mos ravishda o'qituvchi bilan birga olib boriladigan darslar.

2. Mentorlik: Tajribali shaxsning o'quvchiga o'z bilim va ko'nikmalarini o'rgatishi.

3. Online ta'lim: Video darslar yoki virtual platformalarda individual ravishda o'qish.

---

[17] Mirrahimova Xonzodabegim "Yuvinel bolalarda revmatoid artrid"

4. Psixologik maslahat: O'quvchining hissiy va psixologik ehtiyojlariga javob berish.

5. Amaliy mashg'ulotlar: O'quvchining qiziqishlariga asoslangan individual amaliy tajribalar.[18]

Bu turlar har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim olish imkoniyatini ta'minlaydi. Aqli zaiflikning darajalari quyidagilarga bo'linadi:

1. Yengil daraja: O'qish va yozishda kichik qiyinchiliklar, mustaqil yashashga yaqin.

2. O'rtacha daraja: Asosiy ma'lumotlarni olishda qiyinchiliklar, lekin oddiy ishlarni bajarishga qodir.

Bu darajalar har bir insonning imkoniyatlari va ehtiyojlariga qarab farq qiladi. Aqli zaiflik, yoki intelektual nogironlik, shaxsning kognitiv rivojlanishida va aqliy faoliyatida sezilarli cheklovlar mavjudligini anglatadi. Bu holat, asosan, quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Intelektual qobiliyatlarning pasayishi: Aqli zaif shaxslar o'rtacha yoki past IQ darajasiga ega bo'lishi mumkin.

2. O'z-o'zini parvarish qilishdagi qiyinchiliklar: Ular kundalik hayotda muhim vazifalarni bajarishda yordamga muhtoj bo'lishadi.

3. Ijtimoiy interaktsiya: Ijtimoiy ko'nikmalarni o'zlashtirishda qiyinchiliklar bo'lishi mumkin.

4. Ta'limga ehtiyoj: Maxsus ta'lim dasturlari va qo'llab-quvvatlash xizmatlari talab qilinadi.

Aqli zaiflik turli sabablarga ko'ra, genetik, biologik yoki atrof-muhit omillari natijasida yuzaga kelishi mumkin. Bu holatga murojaat qilish va yordam ko'rsatish muhimdir.mumkin.sifatlarini oshirish mumkin. Aqli zaif bolalarni rivojlantirish bo'yicha quyidagi qarorlar amalga oshirilishi mumkin:

1. Maxsus ta'lim dasturlari: Bolalarning ehtiyojlariga mos ravishda individual ta'lim rejalarini ishlab chiqish.

---

[18] https://www.aim.uz

2. Psixologik yordam: Psixolog va psixoterapevtlar bilan hamkorlikda emotsional va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish.

3. Ota-onalar va o'qituvchilarni tayyorlash: Ota-onalar va pedagoglarni maxsus metodikalar bilan tanishtirish va ularga yordam berish.

Ushbu qarorlar bolalarning qobiliyatlarini oshirish va ijtimoiy hayotga integratsiyasini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Mikrosefaliya — bu boshning o'lchami normaldan kichik bo'lishi bilan tavsiflanadigan holat. Bu kasallik turli sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin:

1. Genetik omillar: Ba'zi genetik kasalliklar boshning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

2. Atrof-muhit omillari: Homiladorlik davrida infektsiyalar (masalan, rubella yoki zika virusi) yoki zarur vitamin va mineral yetishmovchiligi.

3. Rivojlanish muammolari: Asab tizimining rivojlanishida bo'ladigan muammolar.

Mikrosefaliya bolaning intelektual va jismoniy rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun, bu holatni erta aniqlash va kerakli yordam ko'rsatish muhimdir. O'zaro maslahatlar, maxsus ta'lim dasturlari va reabilitatsiya yordamida bolalarning qobiliyatlarini oshirishga harakat qilish lozim. Aqli zaif bolalarni o'rganish va ularga yordamni tashkil etish Aqli zaif bolalarni o'rganish ularga yordam tashkil etish masalalari, aqli zaif bolalarni o'qitish va milliy istiqlol ruhida tarbiyalashda ijtimoiy- pedagogik omillar haqida, aqli zaif bolalar tasnifi hamda uning aqli zaif bolalar uchun maxsus muassasalarni differensiyalashdagi ahamiyati hamda yordamchi maktab o'quvchilarning pedagogik tasnifi borasida ma'lumotlar berishni ko'zda tutadi. Aqli zaiflikning yengil darajalarida bu nuqson tashqaridan qaraganda uncha ko'zga tashlanmaydi. Butun dunyo sog'lomlashtirish jamiyati tomonidan intellekt koyffitsiyentini belgilashga oid shartli belgilar qabul qilingan. Bular: yengil darajadagi aqli zaiflik (IQ=F-70), ( Oligofreniya diagnizi), o'rta darajadagi intellektning pasayishi (IQ=71) (imbetsil darajasidagi aqli zaiflik) chuqur aqli zaiflik (IQ=72), (idiot darajasidagi aqli zaiflik). Bunday bolalarda

odatdagi nuqsonni tengqurlaridan ajratib olish ham ko'p hollarda, qiyinchilik tug'diradi. Ba'zi hollarda tegishli ta'lim- tarbiya amalga oshirilmasa, bunday bolalar pedagogik qarovsiz bolalar safiga kirib qoladilar. Ko'p hollarda yengil darajadagi aqli zaiflik hollari ilk yoshlarda aniqlab olinmasligi natijasida rivojlanishi orqada qolgan, sustlashgan bolalarga aralashtirib yuboriladi. Nuqsonli bolalarni diagnostika qilish ishlaridagi xatoliklar ba'zi hollarda ko'ngilsiz natijalarga olib kelishi mumkin. Masalan, ommaviy maktabga tushib qolgan aqli zaif bola nuqsonsiz tengqurlari singari ular bilan birga o'quv materiallarini o'zlashrira olmaydi. O'z vaqtida malakali yordam olmagandan keyin borgan sari bunday bolalarning bilim saviyasi pasayib, surunkali o'zlashtirmovchilar qatoriga kirib qoladilar. Xuddi shu tarzda aqli zaiflar qatoriga kirib qoladilar. [19]

Olossefal — bu boshning o'lchami normal darajadan ancha kichik bo'lgan holat, va bu asosan neuroloji rivojlanish muammolari bilan bog'liq. Olossefalik holatda, bolalar ko'pincha aqliy rivojlanishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Bu kasallik quyidagi sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin:

1. Genetik omillar: Olossefalik holatlar ba'zan irsiy bo'lishi mumkin.

2. Rivojlanish jarayonida muammolar: Homiladorlik davrida asab tizimining noto'g'ri rivojlanishi.[20]

3. Atrof-muhit omillari: Homiladorlikda infeksiyalar yoki toksinlarga duchor bo'lish.

Olossefalik bolalarning rivojlanishida muhim qo'llab-quvvatlash, maxsus ta'lim va reabilitatsiya xizmatlari zarur. Agar sizda bu haqda qo'shimcha savollar bo'lsa, so'rashingiz mumkin. Nuqsonli bolalarga yordam berish uchun bir nechta usullar mavjud:

1. Tibbiy yordam: Mutaxassislar tomonidan kerakli tibbiy yordam va reabilitatsiya dasturlariga yo'naltirish.

2. Ta'lim: Maxsus ta'lim dasturlarini tashkil etish yoki o'zlashtirish, ular bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

---

[19] L. Ayupova" Logolediya"
[20] https://www.ziyonet.uz

3. Emotsional qo'llab-quvvatlash: Ularning hissiy holatini yaxshilash uchun psixologik yordam ko'rsatish.

4. Ijtimoiy integratsiya: Bolalarning jamiyatga integratsiyasini ta'minlash va ijtimoiy faoliyatlarda ishtirok etishiga yordam berish.

5. Oila qo'llab-quvvatlash: Ota-onalarga yordam berish va ularni ham o'qitish muhim.[21]

Bularning barchasi bolalarning salomatligi va rivojlanishi uchun muhimdir. Aqli zaif bolalarga yordam berish uchun tibbiy va reabilitatsiya xizmatlari, maxsus ta'lim dasturlari, psixologik qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy integratsiya va oila qo'llab-quvvatlash muhimdir. Bu yondashuvlar bolalarning rivojlanishi va hayot sifatini yaxshilaydi. Hayot faoliyatini yaxshilash uchun quyidagi usullarni qo'llash mumkin:

1. Ta'lim va o'qitish: Maxsus ta'lim dasturlari orqali bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish.

2. Sog'lom turmush tarzi: To'g'ri ovqatlanish, jismoniy faoliyat va uyquni yaxshilash.

3. Emotsional qo'llab-quvvatlash: Psixologik xizmatlar va emotsional salomatlikka e'tibor berish.

4. Ijtimoiy faoliyat: Jamiyatga integratsiya qilish va do'stlik aloqalarini rivojlantirish.

5. Resurslarga kirish: Oila va jamoatchilikdan yordam olish imkoniyatlarini yaratish.

Bu chora-tadbirlar bolalarning hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Xulosa o'rnida aytib o'tmoqchimanki: sifatli ta'lim, pedagogik yordam, ota-ona qamrovi, psixolog nazorati va har kunlik olib borilayotgan tashxis va natijali metodlar, atrofimizdagi insonlarni mehrli so'zlari va munosabatlari har qanday nuqsonni bartaraf etadi va halos etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**:

1. M. Po'latova "Maxsus pedagogika"

[21] L. Ayupova" Logolediya"

2. Mirrahimova Xonzodabegim "Yuvinel bolalarda revmatoid artrid"
3. L. Ayupova" Logolediya"
4. Arxiv. Uz
5. httppts. ma'lumotlar. Uz.

## TA’LIMNING JAMIYATDA TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

Axmadjanova Muazzam Islomjanovna
Namangan davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi.
Ahmadjonova Dilafruz Zokirjon qizi NamDPI Maxsus pedagogika:logopediya 1-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ta'lim jamiyatni rivojlantiradi. Inson o‘z yo‘lini ilm nuri bilan yoritmasa, zulmat va jaholat ko‘chasida qoladi. Inson qalbining nuri ilm va ma’rifat bilan mustahkamlanadi. Insoniyatning qadr-qimmatini bilim yaratadi. Ilm-fandan hali hech kim zarar ko'rmagan. Bilim olish - bu san'at.

**Kalit so‘zlar:** Ta’lim, FLEX, Jamiyat, til, o‘z-o‘zini mustaqillik, milliy daraja, dastur, axborot, taraqqiyot, ahamiyat, o‘qitish, ta’lim tizimi, hayot.

**Abstract:** Education develops society. If a person does not illuminate his path with the light of knowledge, he will remain in the street of darkness and ignorance. The light of a person’s heart is strengthened by knowledge and enlightenment. The value of humanity is created by knowledge. No one has yet been harmed by science. Acquiring knowledge is an art. Key words: Education, FLEX, Society, language, self-independence, national level, program, information, progress, importance, teaching, education system, life.

**Kirish:** Ta’lim-bilim berish, malaka va ko’nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta’lim jarayonida ma’lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta’lim tor

ma’noda o’qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u turli xil turdagi o’quv muassasalarida emas balki oila va boshqa sohalarda ham ma’lumot berish jarayonini ham bildiradi. “Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug’ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog’liq” - Shavkat Mirziyoyev. Ta’lim har bir millatning ko’zgusidir. Inson hayoti davomida doimo bilim olishga intiladi. Bilim olish mobaynida turli xil to’siqlarga, qiyinchiliklarga duch keladi. Lekin zamonaviylashib borayotgan turmush tarzimizda bilim olish uchun barcha sharoitlar mujassam.

O’tmishda ta’lim sohasida bugungi kungidek imkoniyatlar mavjud bo’lmagan ajdodlarimiz ta’lim olishni uddalaganlar. Abu Nasr Farobiy1 - o’rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman Yaqin va O’rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyparvar ilmiyfalsafiy tafakkur rivoji uning nomi bilan bog’liq. Ayrim manbalarga ko’ra u 70 dan ortiq tilni bilgan. O’sha davr uchun bu juda ham katta natija. “Ta’lim dunyoni o’zgartirmaydi, balki dunyoni o'zgartirmoqchi bo'lgan odamlarni o'zgartirad” degan edi Paulo Freire.

Ta'limsiz kelajak yo'q, hamma uchun yaxshiroq, barqaror, qo'llabquvvatlovchi va adolatli dunyo umidi, bu ularning olgan bilimlariga bog'liq. Bugunning bolalari ertangi kunning yetakchilari bo'lishadi va xatolarni o'rnini bosish uchun ulardan saboq olishdan yaxshiroq yo'l yo'q. Ta`lim va tarbiya uyg`un bo`lishi kerak. Bundan ming yil muqaddam buyuk mutafakkir Mahmud Qoshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” asarida tarbiya, axloq masalalariga to‘xtalib, “Zamon butunlay ozdi. Ilm, hikmat, poklik kamaydi. Tuban, yomonlar ko‘paydi, fazilat egalari yo‘qolayotir”,deya yozgan ekan. Turli davrlarda yashagan donishmandlarning bu singari qarashlarini dunyodagi ko‘plab xalqlar tarixida kuzatish mumkin. Ammo

zamon, jamiyat taraqqiyotiga ko'ra yoshlar tarbiyasi masalasida yangi muammolar tug'ilgan hamda tarbiyachilar, ustozlarning oldida vazifalar ko'payib borgan. Odamlar yaxlit, bir butun holda yaxshi yoki yomonga bo'linmaydi. Agar shunday bo'lganda edi, tarbiya masalasi osonlikcha hal bo'lardi. Yaxshi fazilatlar va yomon odatlarning, turli g'oyalarning bir odamning qalbi va ongini egallash uchun kurashi — tarbiya masalasining naqadar murakkab ekanini anglatadi. "Tarbiya" so'zining ma'nolari ko'p bo'lsa-da, milliy an'analardan kelib chiqsak, tasavvurda avvalo uning "axloqiy" sifati uyg'onadi. Boisi, ota-bobolarimiz bola axloq-odobini tarbiyaning boshqa turlariga nisbatan ustun qo'yishgan. Fitrat ta'lim olishni ham tarbiya sirasiga qo'shib, uni "aqliy tarbiya" deb ataydi. Shuningdek, farzandni sog'lom voyaga yetkazish, ya'ni "jismoniy tarbiya"siga ham jiddiy e'tibor qaratib, tarbiyaning ushbu uch turiga xulosa berar ekan, zamonaviy til bilan aytganda, "shaxsning ijtimoiylashuvi"ni sodda ifodalaydi: "...bolalarning tarbiyasi bu farzandni jismonan, fikran va axloqan tarbiya qilib, kamolga yetishtirish demakdir. Ya'ni ularni urinish va tirishish sahrosiga, ya'ni hayot-mamot maydoniga kuchli badan, sog'lom fikr va yaxshi axloq bilan qurollantirib yuborish demakdir". Shu o'rinda "ta'lim" va "tarbiya" so'zlarining lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

Shu o'rinda "ta'lim" va "tarbiya" so'zlarining lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Milliy tarbiya tarixining atoqli namoyandalari Fitrat va Abdulla Avloniy qarashlarida "tarbiya" so'zining ma'no qamrovi "ta'lim"ga qaraganda birmuncha kengligini ta'kidladik, hatto "ta'lim" mazmun-mohiyati jihatidan "fikr tarbiyasi" yoki "aql tarbiyasi" sifatida tarbiyaning tarkibiy qismi sanaladi. Umuman, tarbiya so'zida yoshlarni (ham jismonan, ham axloqan, ham aqlan) barkamol avlod sifatida tarbiyalash tushuniladi. Ya'ni sodda qilib aytganda, "tarbiyali bola" barkamol avlod demakdir. O'zbek tilining izohli lug'atida tarbiya so'zi

arabcha so‘z bo‘lib, “rivojlantirish, parvarish qilish, o‘stirish; o‘rgatish; ilm berish” singari bir qator ma’nolarni anglatishi yozilgan. Izohli lug‘atni sinchiklab o‘rganganimizda “ta’lim” so‘zidan ko‘ra “tahsil” so‘zi ham kengroq ma’noni ifodalaydi. Aqliy va axloqiy tarbiya mushtarakligiga xalqimiz azaldan o‘ta zukkolik bilan yondashgan.Ta`lim tizimi jamiyatni rivojlantiradi.Ta`lim olish jarayonining eng muhim bosqichi bu tarbiya hisoblanadi.Abdulla Avloniy aytganidek: ,, Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot,yo najot-yo halokat,yo saodat-yo falokat masalasidir’’. Tarbiyaning maqsadmohiyati davrlar o‘tishi bilan o‘zgarmaydi, barcha millat uchun ham bir darajada ahamiyatli. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, an’analar tarbiya mazmun-mohiyatini belgilaydi. Bugun nemis, rus yoki ingliz maktabida ham, o‘zbek maktabida ham ta’lim muassasasining tarbiyaviy vazifalarini kuchaytirish, ta’limning “tarbiyalovchi” faoliyatidan qoniqmaslik holatlari olimlar tomonidan e’tirof etilmoqda. Tarbiyaga asoslangan maktablar, o‘quvchini hayotga tayyorlashni, ijtimoiylashuvini asosiy maqsad bilayotgan ta’lim muassasalari tajribalarini o‘rganishga ehtiyoj tug‘ilayotganini ta’kidlash joiz. Ta’lim berish yuksak darajada tashkil qilingan yapon yoki koreys maktablari bitiruvchilari o‘z xalqining milliy qadriyatlari asosida tarbiya topganini bir qarashda, ularning oddiygina salomidan sezamiz. Demak, ta’lim sohasida dunyo mamlakatlarining ilm-fan yutuqlarini o‘qib o‘rganish mumkin, ammo tarbiyada milliy qadriyatlar, urf-odatlardan chekinish yoki ularni ikkinchi darajaga tushirib qo‘yish mumkin emas. Tarbiyaning ibratga, namunali amaliy faoliyatga asoslanganini ham unutmaslik joiz. Ya’ni aqliy tarbiya (ta’lim) aniq dastur va rejalar asosida oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borsa, tarbiyada (axloqiy tarbiya) jamiyatda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan yoshlarda o‘z vaqtida tegishli munosabat uyg‘otish, aniq maqsad va natijaga yo‘naltirilgan reja va dasturlar ijrosiga qo‘shimcha ravishda ijodiy yondashuv, ijtimoiy muhitni sinchiklab o‘rganish taqozo etiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi(OzME).Birinchi jild.Toshkent,2000

2. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasi

3. Jaloliddin Rumiy “Hikmatlar”

4. O`zbekiston tarixi 7-sinf darslik (94-95 betlar)Toshkent,2017

5. Kholmatov, S., & Yuldosheva, M. (2022). DIFFERENCES BETWEEN PUN AND DOUBLE ENTENDRE. Involta Scientific Journal, 1(7), 174-177.

# O‘ZBEK MILLIY CHOLG‘ULARINI BOLALARGA O‘RGATISH ORQALI MA’NAVIY-AHLOQIY ONGINI RIVOJLANTIRISH

***(dutor cholg‘usi misolida)***

G‘aybullayeva Zuhra Xayrullo qizi

Namangan davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

***Annotatsiya:*** mazkur maqolada o‘zbek milliy cholg‘ularini, xususan, dutor cholg‘usini bolalarga o‘rgatish orqali ularning ma'naviy-ahloqiy ongini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Milliy musiqiy merosni o‘rgatish nafaqat bolalarning san'atga qiziqishini oshiradi, balki ularning o‘zligini anglash, qadriyatlar va urf-odatlarni qadrlash, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Dutor ijrochiligi orqali bolalarda musiqiy didni rivojlantirish bilan birga, ularning sabr-toqat, ijodkorlik va mehnatsevarlik kabi sifatlari ham mustahkamlanadi. Maqolada bolalarga milliy cholg‘u o‘rgatish jarayonida pedagogik yondashuvlar, metodlar va tarbiyaviy omillar ko‘rib chiqiladi.

***Kalit so‘zlar:*** o‘zbek milliy cholg‘ulari, dutor, ma’naviy tarbiya, ahloqiy rivojlanish, bolalar tarbiyasi, musiqa ta’limi, milliy qadriyatlar, musiqiy madaniyat, pedagogik metodlar, o‘zbek xalq musiqasi.

***Аннотация:*** в данной статье анализируются вопросы развития духовно-нравственного сознания детей путем обучения узбекским национальным инструментам, в частности, дутору. Преподавание национального музыкального наследия не только повышает интерес детей к искусству, но и служит развитию у них чувства идентичности, признания ценностей и традиций, формирования патриотических чувств. Наряду с развитием музыкального вкуса посредством дуторского исполнительства закрепляются и такие качества детей, как терпение, креативность и трудолюбие. В статье рассматриваются педагогические подходы, методы и воспитательные факторы в процессе обучения детей национальным музыкальным инструментам.

***Ключевые слова:*** узбекские национальные инструменты, дутор, духовное воспитание, нравственное развитие, воспитание детей, музыкальное воспитание, национальные ценности, музыкальная культура, педагогические методы, узбекская народная музыка.

***Abstract:*** this article analyzes the issues of developing the spiritual and moral consciousness of children by teaching Uzbek national instruments, in particular, the dutor instrument. Teaching the national musical heritage not only increases children's interest in art, but also serves to develop their sense of identity, appreciation of values and traditions, and formation of patriotic feelings. Along with the development of musical taste, children's qualities such as patience, creativity and hard work are also strengthened through dutor performance. Pedagogical approaches, methods and educational factors in the process of teaching national musical instruments to children are considered in the article.

***Key words:*** Uzbek national instruments, dutor, spiritual education, moral development, children's education, music education, national values, musical culture, pedagogical methods, Uzbek folk music.

**Kirish.**

O‘zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, an’anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo‘llari, shuningdek, folklor - havaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko‘rinishlari bir-birini to‘ldirib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunimizda ham ma’naviy madaniyatimizning bir bo‘lagi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

***Musiqa*** - bu odamlarni kechinmalari, hissiy tuyg‘ularini san’at bilan birlashtiradigan san'at turi. Bu ular orasidagi aloqa vositasiga aylanadi. Musiqa tovush chayqalishlari orqali fikr va his-tuyg‘ularni aks ettiradi. Musiqaning inson ruhiyatiga ta’sirining cheksiz imkoniyatlari haqida azaldan mutafakkirlar, olimlar, musiqashunoslar gapirib keladilar. Faylasuflar, psixologlar, pedagoglar, jamoat arboblari ham san’at doirasida musiqa san’atining shaxsning shaxs sifatida shakllanishiga ta’sir etuvchi xususiyatlarini aniqlashga harakat qilganlar. Musiqa, uning ritmi va ohangning inson ruhiyatiga ta’siri azaldan insonning ichki dunyosini o‘zgartiradi, deyiladi. Darhaqiqat, ohang odamlarni o‘ziga tortadigan sehrli kuchga ega.

Hozirgi kunda musiqaning jozibador ko‘lami, mavqei kengayib, jamiyatdagi o‘rni mustahkamlanmoqdi. Mamlakatimizda musiqa katta ta’lim salohiyatiga ega mustaqil sohaga aylandi.

O‘zbek milliy cholg‘ulari, masalan, dutor, rubob, gijjak kabi asboblar bilan tanishish, ularni chalishni o‘rganish bolalarga milliy merosni his qilishga, tarix va madaniyatimiz bilan yanada yaqinroq bo‘lishga yordam beradi. Shu bilan birga, bu jarayon bolalarda diqqat-e’tiborni rivojlantiradi, chidamlilik, intizom va ijodkorlik sifatlarini oshiradi.

Bundan tashqari, musiqa bolaning ruhiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Milliy musiqa madaniyatini o‘rganish jarayonida ularning ma’naviy olami boyiydi, ahloqiy qadriyatlar, masalan, hurmat, sabr-toqat, hamkorlik kabi sifatlar mustahkamlanadi. Bu esa bolalarning kelajakda yetuk shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

O'zbek milliy cholg'ularidan biri bo'lgan dutorni bolalarga o'rgatish orqali ularning ma'naviy-ahloqiy ongini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Dutor – xalqning ruhiyati va tarixi bilan bog'liq bo'lgan cholg'u asbobi bo'lib, uning o'ziga xosligi bolalar tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Dutorni o'rganish bolalarga musiqa orqali nafaqat estetik didni, balki ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi.

***1. Milliy o'zlik va g'ururni rivojlantirish***

Dutor o'zbek xalqining madaniy merosi va milliy o'zligini aks ettiruvchi asboblardan biri hisoblanadi. Uni chalishni o'rganish orqali bolalar o'z milliy ildizlariga yaqinlashadi va milliy qadriyatlar bilan tanishadi. Dutorning tovushi va u orqali ifodalanadigan musiqiy asarlar xalqning tarixini, madaniyatini, urf-odatlarini, hayot falsafasini anglashga yordam beradi. Bu jarayon milliy g'ururni oshiradi va bolalarda o'z xalqiga hurmat hissini tarbiyalaydi.

***2. Estetik did va ma'naviy zavq***

Dutorning nafis ovozi va maftunkor kuylarini o'rganish bolalarda estetik did va musiqiy sezgirlikni rivojlantiradi. Dutor orqali ijro etiladigan kuylar ko'pincha ma'naviy va ruhiy qoniqish keltiradi. Bolalar bu asbobni o'rganish orqali musiqa san'atining chuqur ma'nolarini tushuna boshlaydilar va ularning badiiy dunyoqarashi kengayadi. O'zbek xalq kuylari, ayniqsa maqom va xalq qo'shiqlari, insoniy tuyg'ular va hayotiy haqiqatlarni o'zida aks ettirgani uchun, ularni ijro qilish yoki tinglash bolalarda ruhiy boylikni oshiradi.

***3. Axloqiy qadriyatlar va sabr-toqatni shakllantirish***

Dutorni o'rganish jarayoni bolalarga sabr-toqat, mehnatsevarlik va diqqatni jamlashni o'rgatadi. Bu cholg'u asbobini chalish mahorat talab qiladi, va bolalar uni egallash jarayonida tartib-intizom, qat'iyat va doimiy mehnat qilishning zarurligini o'rganadilar. Dutor o'rgatish orqali bolalarda halollik, sabr va mas'uliyat hissi rivojlanadi, chunki har bir qo'shiq yoki kuyni o'zlashtirish ancha mehnat va e'tibor talab qiladi.

***4. Insoniy tuyg'ular va mehr-oqibatni tarbiyalash***

Dutor orqali ijro etiladigan ko‘plab asarlar sevgi, sadoqat, do‘stlik va mehr-muhabbat kabi insoniy tuyg‘ularni ifodalaydi. Bolalar bu tuyg‘ularni musiqiy asarlar orqali anglab, ularni hayotda ham qadrlashga o‘rganadilar. Dutor kuylaridagi chuqur tuyg‘ular va falsafiy ma’nolar yoshlarning axloqiy tushunchalarini kengaytiradi va ular o‘zlarining hayotiy munosabatlarida mehr-oqibat va tushunishni ustuvor qo‘yadilar.

***5. Madaniy merosni saqlash va davom ettirish***

Dutorni o‘rgatish orqali bolalar xalqning boy madaniy merosini saqlash va kelajak avlodga yetkazishga hissa qo‘shadilar. Bu jarayon orqali ular nafaqat musiqa san’atiga, balki milliy qadriyatlarga ham e’tibor qaratib, o‘z madaniyatiga hurmatni kuchaytiradilar. Bu esa yosh avlodni milliy ongli, ma’naviy boy va axloqiy barkamol shaxslar sifatida tarbiyalaydi.

Xulosa qilib aytganda, dutorni bolalarga o‘rgatish orqali nafaqat musiqa san’ati o‘zlashtiriladi, balki yosh avlodning ma’naviy va axloqiy rivojlanishi ham ta’minlanadi. Dutor o‘rgatish milliy o‘zlikni anglash, axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va estetik didni rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu orqali bolalar milliy merosga e’tiborli, ruhiy va axloqiy jihatdan boy shaxslar sifatida shakllanadi.

***Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:***

1. M.Ziyayeva. Dutor. T., 2008.
2. I.Toshpo‘ltova. An’anaviy cholg‘u ijrochiligi (dutor). T., 2018.
3. Zokirjon Oripov. Sharq manbashunosligi (X-XI asrlar) T., 2008y.
4. Toshmatova R.A. “San’at tarixi” T., 2011

## KONFUTSIYLIK VA MILLIY MAFKURA

Abdullayev Akmal Nasriddinovich
NamDPI Gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti
Islomjonova Ma’rifat Shuxratjon qizi
NamDPI Maxsus pedagogika (logopediya) yo`nalishi talabasi

**Annotatsiya**: Ushbu maqolani o`qish, davomida Konfutsiylik va milliy mafkura to`risidagi ma`lumot hamda bilimga ega bo`lasiz.

**Kalit so`zlar**: milliy, daosizm, mafkura, konfutsiylik, buddizm.

**Аннотация**: Прочитав эту статью, вы получите информацию и знания о конфуцианстве и национальной идеологии.

**Ключевые слова**: национальный, даосизм, идеология, конфуцианство, буддизм.

**Abstrakct**: while reading this article , you will get information and knowledge about Confucianism and national ideology.

**Key words**: national, Taoism, ideology, Confucianism, Buddhism.

**Kirish:**

Bugungi kunda Konfutsiy va uning maktabi ilm-fan taraqiyotida Xitoy Respublikasida muhim ahamiyatga ega. Xitoy falsafasi tarixida tutgan o`rnini Suqrotning yunon falsafasi tarixidagi o`rniga o`xshatish mumkin. Butun dunyoga mashhur bo`lgan nomi «kun» va «futszi» so`zlari asosida yasalgan «Kun» hozirgi vaqtda familiyani anlatuvchi so`z bo`lsa, «fu» faylasuf, «szi» o`qituvchi ma`nolarini ifodalovchi so`zlardir. Konfutsiy yashagan davrdan «To`rt asos» va «Besh asos» degan ulkan yozma yodgorliklar saqlanib qolgan. «Besh asos» Konfutsiyga qadar yaratilgan, lekin konfutsiylik ta’limoti asosida qayta ishlangan va Konfutsiy ta’limotining mohiyatini ochishga hizmat qilgan. Konfutsiy ta’limoti markazida «muruvatli zot» turadi. Konfutsiy ta’limoti yordamida o`zida jamiyat farovonligini ta’minlaydigan va ma’naviy asoslarini ifodalay oladigan oliyjanob fazilatlarni shakllantirib kelgan. Shuning uchun uning o`gitlari, pand-u nasihatlari Xitoyda hanuzga qadar e’zozlanadi. Milliy mafkura umumbashariy qadriyatlarni e’tirof etadi va ulardan oziqlanadi, jumladan; qonun ustuvorligi; diniy bag`rikenglik; dunyoviy bilimlarga intilish; o`zga xalqlarning ilg`or talabasi va madaniyatni o`rganish kabilardir.

Asosiy qism Konfutsiylik yoki konfutsiychilik – Xitoydagi eng ta’sirli 3 asosiy falsafiy-diniy oqimdan biri [daosizm va buddizm bilan birga, Konfutsiy

asos solgan. Konfutsiy ta'limotida insonparvarlik [jen], odob qoidalari [li], fazilat [de] tushunchasi muhim o`rin tutadi. Insonparvarlik tuahunchasiga ko`ra, yoshi ulug`, mavqei baland kishilarni xurmat qilishlari, podshohga sadoqatli bo`lishlari lozim. Konfutsiyning ilk davomchilari Men-szi [milloddan avvalgi 371-289], Xan Fey-szi [milloddan avvalgi 233-yil], Ven-szi [milloddan avvalgi VI asr], keyinchaklik Fan Chjen [VI asr], Xan Yuy [768-824] va boshqalar. «Buyuk ta'limot» va «O`rtalik haqida ta'limot» degan asarni Konfutsiy yozgan deb tahmin qilingan. Bu kitoblarga ko`ra, odamlarning birgalikda oqilona yashashi tartibining muhim shartini 5 ta oddiy va buyuk fazilatlar tashkil qiladi; donolik; insonparvarlik; sadoqat; kattalarni hurmat qilish va jasorat. Fazilatlar o`ziga va boshqalarga halollikni, chuqur hurmatni anglatadi. Bunday fazilatlarga barcha insonlar ham ega emas, faqat mumtoz va komil Insonlargina bunday fazilatga ega bo`ladi. Konfutsiyning ta'limoti» Syao» bo`lib unda inson o`z ota-onasiga munosib bo`lishi haqidagi g`oyani mujassam qilgan. Konfutsiy fikriga ko`ra inson uchun Syaodan muhimroq narsa yo`q. U «Syao va Di» -insoniylikning asosidir deb takidlagan, yani ukaning akaga, kichiklarning kattalarga bo`lgan hurmati. Syaoning asosiy

ma'nosi-farzandlik xizmati qanday bo`lishi kerak, bu savolga Konfutsiy shunday javob beradi: «Aqlli va ota-onangni boqishga yaroqli bo`lishingdir. Konfutsiychilik ta'limotida o`g`il ota-onasi oldida quyidagi vazifalarni bajarishi shart:

1. Ota-onani doimo hurmat qilish;
2. Ular uchun eng suyuklik taomni olib kelish;
3. Ota-ona betob bo`lib qolganida chuqur qayg`urish;
4. Ular vafot etishsa yurak-yurakdan achinish;
5. Ular xotirasi uchun tantanali ravishda qurbonliklar qilish.

Konfutsiylik va daosizm Xitoyda miloddan avvalgi birinchi ming yillikning o`rtalarida deyarli bir vaqtda paydo bo`ladi. Bu ta'limot dastavval mavhum xarakterga ega bo`lgan va din bilan hech qanday aloqasi bo`lmagan. [1]

Konfutsiyda aytilishicha, qonun inson manfaatlariga xizmat qilishi kerak. Qonun o`zgarishi bilan manfaatdorlik va manfaatsizlik tushunchalari ham boshqacha ma’no kasb etadi, inson faoliyatida tub o`zgarish ro`y beradi. O`tmishda o`rnatilgan tartibga sajda qilish yangi qonunlar ruhiga ziddir. Konfutsiyda jamiyatni boshqarishga katta e’tibor berilib, keragidan ortiq oddiy qonunlar bilan to`ldirib yubormaslik lozim. Xitoyda asrlar mobaynida Konfutsiyni turli maktablari bo`lgan. Ular o`rtasida keskin kurash borgan. Konfutsiy va uning shogirtlari merosidan Xitoy xalqini birlashtirish uchun foydalanishga harakat qildilar, lekin uning ta’limotini milliy g`oya sifatida ilgari surmadilar, davlat qurish uchun asos sifatida foydalanish imkonini boyberdilar. Zamonaviy davrda Xitoyda konfutsiychilikning tanazzulga uchrashining eng past nuqtasini madaniy inqilob davri deb hisoblash mumkin. Konfutsiychilikning hozirgi holati biroz yaxshiroq, bu hokimiyatning unga nisbatan yumshoroq siyosati bilan bog`liq. Konfutsiy milodiy I asrda davlat ta’limotiga aylanadi, IX asrda buddizm, XI asrda daosizm ustidan to`la g`alaba qozondi. Bunga Sun davrida [960-1279] da neokonfutsiychilik rivojlanib ketganligi tufayli erishildi. [2] Milliy mafkura - millatning etnoijtimoit birlik sifatida mavjud bo`lishi va rivojlanishini aosolab beruvchi g`oya va qarashlardir. Milliy mafkurani bitta millat yoki xalqning mafkurasi deb tushunilmaydi, u muayyan davlat yoki jamiyatning umumiy mafkurasini ham bildiradi Milliy sifati «millat» so`zidan kelib chiqqan bo`lib, faqat muayyan etnik birlikni emas, balki davlat ma’nosini ifodalashi ham mumkin . Milliy mafkura o`ligimizni, muqaddas an’analarimizni anglash tuyg`ularini, ko`p asrlar mobaynida shakllangan ezgu orzularni, jamiyat oldiga qo`ygan oliy maqsad va vazifalarini ifoda etadi. Miiliy mafkura har qanday millatchilikdan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish va qarashlaridan xolidir. Milliy mafkura haqida gapirganda yana shuni ham aytish kerakki, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida pyuralizm, fikr va qarashlar erkinligini to`liq ta’minlaydi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida «Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o`rnatilishi mumkin emas», deb yozilgan. [3]

Mafkura - arabcha tildan olingan bo`lib fikrlar majmui degan ma’noni anglatadi, yani muayyan millat, jamiat, davlatning manfaatlari, maqsadlari ifodalangan qarashlar va ularni amalga oshirish tizimi hisoblanadi. Mafkura mohiyati va ta’sir kuchiga ko`ra, jamiyatni bir-biriga birlashtirishi yoki aksincha qarama-qarshi tomonlarga bo`lib yuborishi, butun xalqni yuksaklikka ko`tarishi yoki tanazzulga duchor etishi mumkin. Islom Karimov mafkuraga shunday ta’rif berganlar: «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyo qarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko`zlagan va uning dunyodagi o`rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kuni o`rtasida o`ziga xos ko`prik bo`lishiga qodir g`oyani men jamiat mafkurasi, deb bilaman». [4]

Xulosa. Konfutsiylikda xalqning hokimiyatga bo`lgan chuqur hurmati va hokimiyatning o`z odamlarini insonparvar va munosib boshqarishga intilishining mustahkamlanishi hisoblanib, buddizm nuqtai nazardan u kuchli hokimiyatning ramzi deb ataldi va ko`lab davlatlarni siyosatiga u yoki bu darajada ta’sir ko`rsatmoqda. Milliy mafkurada bo`shliqqa yo`l qo`ymaslik lozim, Milliy mafkurani xalqning ongiga singdirish zamon talabi hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

1. Konfutsiy. Xitoy falsafasi (http://www.confucianism.ru/)
2. Yigirma uch tildagi Konfutsiy asarlari (http:wwwconfucius.org/index.html)(Confucius Publishing Co)
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/uz/docs/-6445145

## ILMIY MAKTAB, METOD VA METODIOLOGIK YONDASHUVLAR

Namangan davlat Pedagogika instituti Gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti
Yoldoshev Javohir

Islomova Mehribon Ikromjon qizi
Namangan Davlat pedagogika instuti
Mahsus pedagogika logopediya yònalishi

**Annotatsiya:**Ushbu maqolani òqish,davomida ilmiy maktab metod va metodiologik yondoshuvlar haqida ma'lumotga va bilimlarga ega bòlasz.

**Abstract:** After reading this article, you will get information and knowledge about the method and methodological approaches of the scientific school.

**Аннотация:** Прочитав эту статью, вы получите информацию и знания о методе и методологических подходах научной школы.

**Kalit sòzlar:**ilmiy maktab,metod ,tajriba,olim,metodika

**Key words:** scientific school, method, experience, scientist, methodology

**Ключевые слова:** научная школа, метод, опыт, учёный, методология.

Kirish:Hozirgi kunda ilmiy maktablar o‘zida muayyan shaxs, olimning ilmiy faoliyati yo‘nalishini o‘rganish natijasida shakllangan kasb egalari, olimlar kogortasi bo‘lib, unda muayyan ilmiy g‘oya, nazariya doirasida hamjihatlikda faoliyat olib boriladi. Ilmiy maktab tushunchasi metod tushunchasidan kengroqdir.

Ilmiy maktablar fan taraqqiyotida vorisiylikni ta’minlaydi, ya’ni fandagi tizimli rivojlanishni o‘zida namoyon qiladi.Metod bilish predmeti va harakatni sun’iy ravishda bog‘lamaydi, balki ularning xususiyatlari o‘zgarishi bilan o‘zgarib boradi. Ilmiy tadqiqot predmetga daxldor dalil va boshqa belgilarni jiddiy bilishni talab qiladi. U ma’lum materialning harakati, uning xususiyatlari, rivojlanish shakllari va h.k.larda namoyon bo‘ladi. Demak, metodning haqiqiyligi, eng avvalo, tadqiqot (ob’ekt) predmetining mazmuni bilan bog‘liq.

Asosiy qism:. Ilmiy maktablar o‘zida muayyan shaxs, olimning ilmiy faoliyati yo‘nalishini o‘rganish natijasida shakllangan kasb egalari, olimlar kogortasi bo‘lib, unda muayyan ilmiy g‘oya, nazariya doirasida hamjihatlikda faoliyat olib boriladi. Ilmiy maktab tushunchasi metod tushunchasidan kengroqdir.

Ilmiy maktablar fan taraqqiyotida vorisiylikni ta'minlaydi, ya'ni fandagi tizimli rivojlanishni o'zida namoyon qiladi.

Ilmiy maktablar fan taraqqiyotida vorisiylikni ta'minlaydi, ya'ni fandagi tizimli rivojlanishni o'zida namoyon qiladi. Ilmiy maktablarning paradigmal va lokal darajalari farqlanadi. I.Nyuton, A,Eynshteyn, N.Bor, I.Prigojin ilmiy maktablari paradigmal darajani namoyon qilsa, mamlakat, alohida oliy ta'lim muassasalari yoki ilmiy tadqiqot institutlarida faoliyat olib boradigan ilmiy maktablar lokal darajani aks ettiradi. Ilmiy maktabning paradigmal darajasi o'z navbatida o'z etakchilariga ega bo'lgan lokal darajadagi ilmiy maktablarning majmuini tashkil qiladi. Ilmiy maktablarda bir yoki undan ortiq etakchilar bo'lishi mumkin. Ilmiy maktabda o'ziga xos ilmiy innovasion mexanizmlar amal qiladi, ularning paydo bo'lishi doimo yangi g'oyalarni amaliyotga joriy qilishda shu g'oyaga aks g'oyani ilgari suruvchi opponentlar bilan kurashida shakllanadi.Ilmiy bilishda nafaqat ilmiy natija (bilimlar majmui) va predmetning mohiyatini anglash, balki unga eltuvchi yo'l, ya'ni metod ham haqiqiy bo'lmog'i lozim. SHunga ko'ra, predmet va metodni bir-biridan ayri holda tushunish mumkin emas. Har qanday metod u yoki bu darajada real hayotiy jarayonlarda shakllanadi va yana unga qaytadi. Metod har qanday tadqiqot boshlanishida to'la holda namoyon bo'lmasa-da, ma'lum darajada predmetning sifat o'zgarishi bilan har safar yangidan shakllanadBa'zi olimlarning fikriga ko'ra yangi g'oyalar ilgaridan qotib qolgan eski g'oyalardan amaliy ahamiyati bilan ustivorlik qiladi, ilmiy maktab vakillarining shu g'oyani himoya qilishi uning amaliyotga joriy qilinishining garovidir. Ilmiy maktabda ustozning rahbarlik mahorati va ilmiy salohiyati, olimlik mas'uliyati muhim ahamiyatga ega. Ilmiy maktablar nazariy konsepsiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy g'oyalar majmui shaklida namoyon bo'ladi. Ilmiy maktablar ilgari surilgan g'oyalarning masshtabi, ularning ahamiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Ilmiy maktablarning o'ziga xos xususiyati g'oyalarni umumlashtirish xossasiga egaligidir. Ilmiy maktablarda individual ilmiy tadqiqot olib borish metodi shakllanadi.

Metod (yunon. metods — usul) keng ma’noda yo‘l, ijodiy faoliyatning har qanday shakli kabi ma’nolarni anglatadi. Metod u yoki bu shaklda ma’lum qoida, tartib, usul, harakat va bilim mezonlarining yig‘indisi hamdir. U tamoyillar, talablar tizimi bo‘lib, sub’ektni aniq vazifani bajarishga, faoliyatning shu sohasida ma’lum natijalarga erishish sari yo‘naltiradi. U haqiqatni izlashda vaqt, kuchni tejaydi, maqsadga eng yaqin va oson yo‘l bilan etishishga yordam beradi.

Metod sub’ekt bilan chambarchas bog‘liqdir. Boshqacha qilib aytgan-da, "inson umum metodologiyaning markazidir" (Feyerbax). Ikkinchidan, har qanday metod y yoki bu darajada boshqaruv quroli vazifasini bajaradi.

Metod sub’ekt va ob’ektning murakkab dialektikasi acosida rivojlanadi va bunda oxirgisi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. SHu ma’noda, har qanday metod, eng avvalo, ob’ektiv, mazmunli va konkret bo‘lsada, ayni paytda, sub’ektiv hamdir. Biroq u faqat mavjud qoidalar tizimi emas, balki ob’ektiv ilmiylikning davomi sifatida namoyon bo‘ladi.Metod bilish predmeti va harakatni sun’iy ravishda bog‘lamaydi, balki ularning xususiyatlari o‘zgarishi bilan o‘zgarib boradi. Ilmiy tadqiqot predmetga daxldor dalil va boshqa belgilarni jiddiy bilishni talab qiladi. U ma’lum materialning harakati, uning xususiyatlari, rivojlanish shakllari va h.k.larda namoyon bo‘ladi. Demak, metodning haqiqiyligi, eng avvalo, tadqiqot (ob’ekt) predmetining mazmuni bilan bog‘liq.

Metodologiya faqat metodlarni emas, balki tadqiqotni ta’minlovchi boshqa vositalarni ham o‘rganadi. Tamoyil, qoida va ko‘rsatmalar, shuningdek, kategoriya hamda tushunchalar mana shunday vositalar jumlasiga kiradi. Nomuvoziy, beqaror dunyo sharoitlarida voqelikni metodologik o‘zlashtirishning o‘ziga xos vositalarini ajratish fan rivojlanishining «postnoklassik», deb nomlangan hozirgi bosqichida ancha dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Fan metodologiyasi uning strukturasi, taraqqiyoti, ilmiy tadqiqot vositalari va usullari, uning natijalarini asoslash yo‘llari, bilimni tajribaga tatbiq qilish mexanizmlari va shakllarini o‘rganadi. Xullas, metodologiya metodlar yig‘indisi va faoliyat turi haqidagi ta’limotdir.

Xulosa:Yuqoridagi fikr va mulohazalarni umumlashtirgan holda shuni aytishim kerakkiFan tarixida metodlar yangi nazariyalarni yaratish jarayonida shakllanadi. Yangilik yaratish san’ati yangiliklar jarayonida kamol topadi. Dastlabki tadqiqot tajribada shakllanar ekan, metod tadqiqotning boshlang’ich nuqtasi, amaliyot bilan nazariyani bog’lovchi vosita sifatida namoyon bo’ladi.

Fanda, ko’p hollarda tanlangan metod tadqiqotning taqdirini hal qiladi. Aynan bir daliliy materialni turli metodlar asosida o’rganish ziddiyatli xulosalarga olib kelishi mumkin. Ilmiy bilishdagi to’g’ri metodni xarakterlar ekan, F.Bekon metodni yo’lovchining yo’lini yorituvchi chiroq bilan qiyoslaydi. Noto’g’ri yo’ldan bora turib, y yoki bu masalani hal qilishda muvaffaqiyatga erishishga umid qilish mumkin emas. Zero nafaqat natija, balki unga eltuvchi yo’l ham to’g’ri bo’lmog’i lozim ekanligi tushiniladi

**FOYDALANILGAN MANBAALAR**

Òzbekiston Resbuplikasi 1-prezidenti I.A Karimovning_Ilmiy tadqiqot metodlarini faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish tòĝrisidagi farmoni.

R.Yoldoshev.R.Xusainova.U.Bobojonova. Ta'limning intefaol metodlari (metodik qòllanma).

Sobirova.M.R Òzbek tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish.

## O‘ZBEKISTONDA KUCHLI IJTIMOIY SIYOSAT KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI

Ataxonov Baxtiyor Namangan davlat pedagogika instituti gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Mahammadjonova Munavvarxon Avazjon qizi namangan davlat pedagogika instituti maxsus pedagogika (logopediya) yo‘nalishi 1-kurs talabasi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi tahlil qilingan. Uning muammoli jihatlariga to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy, siyosat, konsepsiya, iqtisodiyot, moliyaviy, korrupsiya, kambag`allik, ijtimoiy himoya, infrastrukturaviy, ekvivalent, xalq, jamiyat.

**Аннотация:** В данной статье анализируется формирование сильной концепции социальной политики в Узбекистане. Затронуты его проблемные аспекты.

**Ключевые слова:** социальное, политика, конфепция, экономика, финансы, коррупция, бедность, социальная, защита, инфраструктура, эквивалент, люди, обществ.

**Abstract:** This article analyzes the formation of a strong social policy concept in Uzbekistan. Its problematik aspects have been touched upon.

**Key words:** social, policy, concept, economy, financial, corruption, poverty, social protection, infrastructural, equivalent, people, soceiety.

**Kirish:** Ijtimoiy siyosat - bu davlatning ijtimoiy adolat, farovonlik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan strategiyasi bo`lib, aholining turli qatlamlariga yordam ko`rsatishni o`z ichiga oladi. Ushbu siyosat ijtimoiy himoya, ta’lim, sog`liqni saqlash, bandlik va uy-joy kabi sohalarda davlat tomonidan ko`rsatiladigan xizmatlar va resurslarni taqsimlashni boshqaradi. Ijtimoiy siyosatning asosiy maqsadi kambag`allikni kamaytirish, notenglikni bartaraf etish va aholining hayot sifatini yaxshilashdir.

O`zbekistonda ijtimoiy siyosat mustaqillik yillaridan boshlab rivojlanib, aholining ehtiyojlariga javob beradigan samarali tizim yaratishga qaratilgan. Ta’mirlanganlik darajasi iqtisodiy imkoniyatlarga bevosita bog`liq va iqtisodiyotning asosiy maqsadi cheklangan resurslar sharoitida aholini ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga qaratiladi.[1] Bugungi kunda davlatimiz inson uchun, xalq uchun ochildi. Xalq bilan bevosita muloqot qilish, uning dard-u tashvishlari,

muammolari ijobiy hal etish bo`yicha yangi tizim yaratildi. Davlat tashkilotlari ish faoliyatida "mahallaga tushish", "xalq ichiga kirish, uning dardiga quloq solish ", "tashvishiga sherik bo`lish" va "muammolarni o`rnida hal qilish" tamoyillari asosiy mezonga aylandi. Biz ko`p yillar davomida amal qilib kelingan "davlat - jamiyat - inson" tamoyilini o`zgartirdik. Mamlakatimizda avvalo inson, keyin esa, jamiyat va davlat manfaati barcha harakatlarimizning negiziga qo`yildi. Hayotimizda "Davlat - insonlar uchun" degan xalqchil g`oya izchillik bilan qaror topib bormoqda.[2]. Ijtimoiy siyosat mamlakatimizda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo`nalishlaridan biri bo`lib qolmoqda. Ijtimoiy qo`llab quvvatlashning aniq manzili xususiyatga ega ekani har bir muhtoj insonga uning real ehtiyojini hisobga olgan holda yordam ko`rsatish imkonini bermoqda. Bunda ushbu toifaga mansub hech bir inson e'tibordan chetda qolmasligiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Yurtimizda ijtimoiy muammolarni hal etishning mutlaqo yangi va o`ziga xos tizimi yaratildi.

Keyinggi paytda "temir daftar", "yoshlar daftari", "ayollar daftari", "mahallabay", "xonadonbay", ishlash usullari aynan shu maqsadda joriy etilmoqda. Bugungi kunda xalq farovonligini, odamlarning hayot darajasini har tomonlama oshirish, buning uchun yangi ish o`rinlari, daromad manbalarini yaratish, kambag`allikni qisqartirish, qishloq va shaharlarimizni obod qilish iqtisodiy strategiyamizning eng muhim yo`nalishlaridan biri bo`lib qolmoqda. Keksalar, nogironlar, og`ir ahvolga tushib qolgan insonlarni qo`llab-quvvatlash, ularga mehr va muruvvat ko`rsatish kabi ezgu an'analar bugungi kunda yangicha ma'no-mazmun, amaliy harakatlar bilan boyib, takomillashib bormoqda. Birgina "obod qishloq" va "obod mahalla" dasturlari doirasida 2021-yilda barcha shahar va tumanlardagi jami 8 mingga yaqin qishloq va mahallada qurilish, ta`mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirmoqda. Ta`kidlashim joizki, keyingi besh yilda oliy ta'limga qabul kvotasi 3 barobar oshirilib, joriy yilda 186 871 nafar yoshlar uchun talaba bo`lish imkoniyati yaratildi. Bu - umumiy qamrov 28 foizga yetdi. Bizga ma'lumki, bundan 4 yil avval bu raqam atigi 9 foizni tashkil etardi.

Bu borada davlat grantlari 21 mingtadan 47 mingtagacha ko’paytirildi ehtiyojmand oilalarga mansub 2 ming nafar qizlarga hamda nogironligi bo`lgan shaxslarning ham 2 ming nafariga bu yil oliygohlarga kirish uchun alohida grantlar ajratildi. Qishloqlarda ishsiz yoshlarni bandligini ta’minlash maqsadida ularga 10 sotixdan 1 gektargacha yer maydonlari ajratish boshlandi. Ota-onasidan ajragan, mehrga muhtoj bolalarni qo`llab-quvvatlash ularning ta’lim-tarbiya olishi, ish joyi va uyiga ega bo`lishi, jamiyatda munosib o`rin topishi uchun “Mehribonlik uylari”, maxsus maktab-internetlar va “Bolalar shaharchasi”ning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyatini mustahkamlashga jiddiy e’tibor berilmoqda. Shuningdek, yetim va ota-ona qaramog`idan mahrum bo`lgan bolalarni uy-joy bilan ta’minlash tartibi belgilandi. Unga ko`ra, o`ziga biriktirilgan uy-joyga muhtoj sifatida hisobda turgan ana shunday bolalarga ular 18 yoshga to`lgan yili umumiy maydoni 25 kvadrat metrdan kam bo`lmagan 2 xonali kvartiralar bilan ta’minlangan. Shuni ham ta’kidlash kerakki, aholining eng kambag`al qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish va qo`llab-quvvatlash siyosati ehtiyojmand oilalarga beriladigan yordam pullari bilan cheklanib qolmasdan maqsad - aholining iqtisodiy farovonligi darajasini oshirish uchun sharoit yaratishdir.[3].

Hozirgi kunda O`zbekistonning ijtimoiy sohani rivojlantirishidagi asosiy yo`nalishlari 2022-2026 yillarga mo`ljallangan PF-60-son 28.01.2022-yilda tasdiqlangan “Taraqqiyot”strategiyasida belgilab qo`yildi. Ushbu strategiyaning to`rtinchi yo`nalishida adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish konsepsiyalari ilgari surilgan. Bunda sifatli ta’lim-tarbiya masalasi doimiy e’tibor markazida bo`lishi ta’kidlanadi. Shu maqsadda o`qituvchilarning oylik maoshlarini izchil oshirib borish va 2025-yilga borib, 1 ming dollar miqdoriga yetkazish ko`zda tutilgan. Kelgusi 5 yilda oliy toifali shifokorlar maoshini ham 1 ming dollar ekvivalentga yetkazish mo`ljallanmoqda. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sog`lom turmush tarzini qaror toptirish muhim vazifa bo`lib qoladi. Bu sohada professional, oliy ma’lumotli trenerlar ulushini

hozirgi 54 foizdan 2026-yil yakuniga qadar 85 foizga oshirish va shu kabi asosiy rejalar “Taraqqiyot”strategiyasidan joy olgan.[4].

**XULOSA**: Tanganing bir tarafi bo`lganidek, albatta, ikkinchi tarafi ham bo`ladi. O`zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishidagi asosiy muammolarga to`xtalib o`tishni o`zimga joiz ko`rdim. Ular bir necha yo`nalishlarda ko`zga tashlanadi: Ijtimoiy sohalar jumladan, sog`liqni saqlash, ta’lim va ijtimoiy ta’minot tizimlari yetarli mablag` bilan ta’minlanadi. Biroq bu mablag’lar bizgacha yetib kelmaydi. Bu, ayniqsa, qishloq joylarida yaqqol ko`zga tashlanadi. Ishsizlik masalalariga to`xtaladigan bo`lsam ayollar va yoshlar orasida ish topish muammolari ko`p. Bunga sabab, xotin qizlar va yosh avlodning yetarli darajada bilim va malakaga ega emasligi, ma’lum bir kasb-xunar egallamaganini keltirishimiz mumkin. Buni oldini olish uchun bo’sh ish o’rinlarini yaratishimiz va aholini bunga jalb qilishimiz zarur. Bizning eng og`riqli nuqtamiz bu - korrupsiya. U jamiyatimizning turli qatlamlariga salbiy ta’sir ko`rsatadi. Buning natijasida resurslar samarali taqsimlanmaydi va aholining ehtiyojmand qatlamlari yetarli yordam ololmaydi. Bu muammolarni hal qilish uchun tizimli islohotlar, korrupsiyaga qarshi kurash va mahalliy boshqaruv tizimlarini tubdan o`zgartirish kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.Karimov “Taraqqiyotning o‘zbek modeli”.
2. Sh.Mirziyoyev “Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun”.
3. kun.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida “ gi PF-60-sonli farmoni.

# ILMIY TADQIQOTDA MUAMMO VA MUAMMOLI VAZIYATNING O’ZARO ALOQASI

Yo’ldoshev Jovohir Namangan davlat pedagogika instituti, gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti

Meliboyeva Yodgora Elmurod qizi Namangan davlat pedagogika instituti,Maxsus pedagogika (logopediya) yo’nalishi 1-bosqich talabasi

Email: yodgoram53@gmail.com

**Annotatsiya:** Muammolar, muammoli vaziyatlar. Ularga taklif etiluvchi yechimlar e'tirof etilgan.

**Аннотация:** Проблемы, проблемные ситуации. Предложенные им решения признаны.

**Abstract:** Problems, problematic situations. The solutions offered to them are acknowledged.

**Kalit so'zlar:** ilmiy muammo, muammoni to'g'ri qo'yish, muammoli vaziyat, dalil, fan dalillari, ilmiy dalil, talqin qilish,muammo tushunchasi, metod uyg'unligi, oqilona fikrlashning barcha metodlari.

**Ключевые слова:** научная проблема, постановка проблемы, проблемная ситуация, доказательства, научные доказательства, научные доказательства, интерпретация, концепция проблемы, метод гармонии, все методы рационального мышления.

**Key words:** scientific problem, problem formulation, problematic situation, evidence, scientific evidence, scientific evidence, interpretation, problem concept, method harmony, all methods of rational thinking.

Muammo - bilishning rivojlanish jarayonida yuzaga keladi.Uning yechimini topish muhim amaliy yoki nazariy ahamiyatga ega bo'lgan masalalar yig'indisidir. Shuningdek muammo, hal qilishni talab etuvchi nazariy yoki amaliy masala; fanda biron-bir hodisalar, uni yechish uchun muvofiq nazariyani talab etuvchi ziddiyatli holatdir.

Muammoni to'g'ri qo'yish kerak chunki to'gri qo'yilmagan muammo muammolarni yechishdan chalg'itadi. Muammoni qo'yish - ilmiy bilish jarayonining dastlabki bosqichi. Muammoni qo'yishda, avvalo, ayrim holatni masala sifatida anglab yetish kerak.

Ilmiy tadqiqotda mumammo va muammoli vaziyatlar, asosan, tadqiqot yuritish jarayonida duch kelinadigan qiyinchiliklar va noaniqliklar bilan bog'liq. Bu muammolarni aniqlash va hal qilish tadqiqot natijalarining sifatini oshirishga yordam beradi.

Mumammo, odatda, ma'lum bir sohada yoki ilmiy masalada muayyan bir savol yoki masala sifatida ifodalanadi. Mumammoning aniq tavsifi muhimdir, chunki bu tadqiqotning maqsadi va yo'nalishini belgilaydi. Mumammoni aniqlash — bu tadqiqot jarayonining birinchi va muhim bosqichidir. Tadqiqotning maqsadi, savollari va gipotezalari bu muammolarga asoslanadi.

- Muammoli vaziyatlar, asosan, tadqiqot jarayonida kutilmagan vaziyatlar yoki qiyinchiliklar natijasida paydo bo'ladi. Bu turli xil omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, masalan, ma'lumotlar yetishmasligi, metodologik noaniqliklar yoki tashqi faktorlar (masalan, iqtisodiy yoki ijtimoiy o'zgarishlar Muammoli vaziyatlarni hal qilish uchun tadqiqotchilar turli metod va strategiyalarni qo'llashadi.

Muammolarni Hal Qilish Usullari

1. Tahlil va Izlash: Muammoni aniqlaganingizdan so'ng, uning sabablarini tahlil qiling va turli manbalardan ma'lumotlar yig'ib, hal qilish yo'llarini izlang.

2. Ishonchli Manbalar: Tadqiqot uchun ishonchli manbalarni qo'llash muhimdir. Katta ma'lumotlar va dalillar asosida qarorlar qabul qilish tavsiya etiladi.

3. Tadqiqot Metodologiyasini Takomillashtirish: Agar mavjud metodologiya samarali bo'lmasa, yangi usullar va yondashuvlarni sinab ko'rish mumkin.

4. Hamkorlik: Boshqa mutaxassislar bilan birgalikda ishlash, yangi fikrlar va yechimlarni keltirib chiqarishi mumkin.

5. Tajriba: Amaliy tajribalar o'tkazish va natijalarni kuzatish orqali muammolarni hal qilishda qo'shimcha bilim va tushuncha olish mumkin.

Tadqiqot jarayonida muammolar va muammoli vaziyatlar bilan kompetent tarzda ishlash, ilmiy izlanishlarning muvaffaqiyatini oshirishga yordam beradi.

Muammo to'gri qo'yilgan deb hisoblanishi uchun: 1) o’rganilayotgan muammoning tarkibiga kiritish mumkin bo’lgan muayyan ilmiy bilim mavjud bo’lishi; 2) muammo shaklan to'g'ri tuzilgan bo’lishi; 3) muammo o'rinli bo’lishi, 4) muammo muayyan darajada chegaralangan bo'lishi; 5) yechimning mavjudlik sharti va uning yagonaligi ko’rsatilgan bo'ishi lozim.

U olimni doim haqiqiy bilim olishga yo'naltiradi. . Yangi bilim olishga qarab moljal oladi. Olim ongli ravishda yangilik sari intiladi.

G'oyada muammoni yechish yo'llari ko'rsatilmaydi, balki u faqat qo'yiladi. Rivojlantirilgan muammoda esa uni yechish yollari ham ko'rsatiladi. Odatda, bosh muammoni to’liq ifodalashga imkon beruvchi xususiy muammolar va ular ketma-ketligi, umumiy aloqadorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tadqiqot faoliyatida quyidagi bosqichlarini, ya'ni xususiy muammolar va ular yechimlarining bosh muammo yechimini topishdagi bosqichlarini qayd etish maqsadga muvofiq: 1 tadqiqot manbai faoliyat ko'rsatishiga tegishli korsatkichlar, omillarni o rganib chiqish va ular orasidagi mavjud aloqadorlik qonunlarini o'rganish hamda ko'rsatkichlar iyerarxiyasiga e’tibor berish va nihoyat ma'lumni noma'lumdan ajratish kerak; 2ilmiy-tadqiqot faoliyatda muammoni qo'yish uchun o'sha sohadagi ilm-fan, ta'lim-tarbiya texnika-texnologiyalarning yutuqlarini tadqiqotchi mukammal ozlashtirgan bo’lmog’i lozim, aks holda yechilgan muammoning va hattoki undan ham saviyasi pastroq muammoning yechimini topishga ortiqcha vaqt sarf qilinishi mumkin: ilmiy-ijodiy faoliyatda tadqiqot manbaini ifodalovchi ko'rsatkichlar tabiatini o 'rganish va asosiylarini olib qolish ikkinchi darajalilarini tashlab yuborish lozim; -ilmiy-tadqiqot faoliyatdagi noma'lumlarni aniqlash va ozgarish sohalarini bilish muhim; -ilmiy faoliyatda muammo yechimining aniq shartlarini belgilab olish va shuning bilan birga

muammo turi ham asoslanadi; -ilmiy faoliyatda butun tadqiqotning umumiy metodologiyasini asoslash, o1cham va baholash mezonlarini aniqlash mumkin. -ilmiy-tadqiqot faoliyatda tadqiqot yechimining variantlarining mavjud yechimlardan yangiligi hamda istiqbolli ekanligini asoslash kerak bo'ladi.

Xulosa: Yuqoridagi fikrlarni birlashtirib shuni aytamanki: muammo - bilish jarayonining rivojlanishi mobaynida obyektiv tarzda yuzaga keluvchi, yechimini topish muhim amaliy yoki nazariy ahamiyatga ega bo'lgan masala yoki masalalar majmuidir. Muammoli vaziyatni belgilash fikrlashga doir harakatni, amalni, mulohazalarni yoyishning boshlang'ich asosi hisoblanadi. O'rganilayotgan maqsadlarda kerakli axborotning va insonning bilimlari tegishli ma'lumotlar olishga yetishmasligi vaziyatning noaniqligini kuchaytirib yuboradi. Oqibatda esa, izlanuvchi o'z maqsadiga yetaklovchi ko'plab muqobilliklarga duch keladi. Insonda muammoli vaziyatni o'rganyotganda yangi fikr yangi savollar yuzaga chiqadi, muammoning muhim jihatlari ko'payadi. Biror bir muammo yechimini topishda boshqa muammoning tug' ilishi bosh muammoning kattagina kolamda yoyilishini tug'diradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Romanenko J.A. Muammo ilmiy bilimdagi hodisa sifatida. ASTU axborotnomasi. Ilmiy materiallar to'plami. Gumanitar fanlar. Astraxan. Gost.techn. universitet - Astraxan: ASTU, 2002.

2.Abdullaeva M., Pokachalov G. Fan metodologiyasining falsafiy muammolari: nomidagi Falsafa va huquq instituti bo'limi. I.M.Mo'minova A.N.Ruz.. – T.: 2006. – 7 b.

3.Abdullaeva M., Pokachalov G. Ilmiy metodologiyaning falsafiy muammolari: nomidagi Falsafa va huquq instituti bo'limi. I.M.Mo'minova A.N.Ruz.. – T.: 2006 y.

## TURKUSTON MUXTORYATI; TARIXIY TAHLIL

Jafarov Ibroxim Namangan davlat pedagogika insituti Stajyo’r o’qituvchi

Muhammadiyeva Marjona G’ayratjon qizi Namangan davlat pedagogika insituti Maxsus pedagogika (logapediya) yo’nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya** Turkiston muxtoriyati, o'zbek xalqining tarixi va madaniyati uchun ahamiyatli voqealar, O'rta Osiyo, xususan, Turkiston hududida mustaqillik va ozodlik uchun kurash sifatida namoyon bo'lgan.

**Kalit so‘zlar:** qurultoy, kengash, hokimiyat, mustaqillik, siyosat, davlatchilik.

**Abstract** The atmosphere of Turkestan, important events for the history and culture of the Uzbek people, Central Asia, the region, Turkestan was manifested as a struggle for independence and freedom

**Key words:** congress, council, power, independence, politics, statehood.

1917-yil 26-28-noyabrda Qo’qon shahrida Butunturkiston o’lka muslmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo’lib o’tdi. Turkustonni boshqarish shakli to’g’risidagi masala qurultoyning diqqat markazida turdi .

Qurultoy qatnashchilari muxtoiryat va mustaqillik e’lon qilish fikrini qo’llab quvatlashdi. 27-noyabrda tashkil topgan hukumat Turkuston Muxtoryati deb ataldi. Ta’sis majlisi chaqirilgunga qadar hokimyat Muvaqqat kengashi va Turkuston Milliy majlisi qo’lida jamlandi.

Shu tariqa, o’lkada ikki hokimyatchilik yuzaga keldi. Ularning biri millatlarning o’z taqdirini o’zi belgilashi huquqini yoqlagan, milliy davlat mustaqilligini tiklashga qattiq bel bog’lagan taraqqiyparvar ziyolilar, ishbilarmonlar, hukumati, ikkinchisi, Rossiya imperyasi hukumronligini yangicha sharoitlarda saqlab qolish siyosatini yuritgan bolsheviklar edi.

Oldinga bolsheviklar Turkuston Muxtoryati hukumatining ta’sir doirasini cheklash va uni tugatish uchun yetarli harbiy kuchga ega bo’lmagan. Ular 1918- yil

19-yanvardagina Orenburgni qo'lga olib, Moskiva bilan Turkuston o'rtasida temiryo'l qatnovini tiklaganlaridan so'ng Toshkentga qurol- yarog' yetkazib berish imkoniga ega bo'ldilar. Toshkentdagi bolsheviklar bundan ruhlanib, 1918-yil 31-yanvarda Qo'qondagi Turkuston Muxtoryati hukumatini tarqtib yuborish haqida qaror qabul qildilar.

Turkistonda mustaqillik uchun harakatlar

Nikolay II ag'darilib, hokimiyat muvaqqat hukumat ixtiyoriga o'tganidan so'ng Turkiston o'lkasida ham turli siyosiy harakatlar faollashadi. Ular qatorida xalq orasida ta'sir doirasi eng katta bo'lganlari «Sho'roi islomiya» va «Sho'roi ulamo» harakatlari edi. Bu ikki harakat ham Nikolay II taxtdan quvilgandan so'ng tashkil etilgandi. 1917 yil oktyabr oyida bolsheviklar Rossiyada davlat to'ntarishi uyushtirishadi. Muvaqqat hukumatni ag'darib tashlab, hokimiyatni o'z qo'llariga olishadi.

Turkistonning turli shaharlarida, jumladan, o'lkaning siyosiy poytaxtiga aylanib ulgurgan Toshkentda ijtimoiy-siyosiy harakatlar kuchayadi. «Sho'roi islomiya» va «Sho'roi ulamo» harakatlari Turkistonda milliy davlatchilikni tashkil etish uchun yig'inlar uyushtira boshlaydi.

Biroq bolsheviklar Rossiyaning chekka hududlarida joylashgan yerlarini shunchaki berib qo'ymoqchi emasdi. Shu sababli Toshkentda hokimiyatni temiryo'l ishchisi Kolesov boshchiligidagi Turkiston ishchi-dehqon soveti egallab oladi va Turkiston xalq komissarlari sovetini tuzadi. Bu tashkilot tarkibida birorta ham mahalliy millat vakili yo'q edi.

Shundan so'ng Turkistonda milliy davlatchilik tuzish istagida bo'lgan harakatlar kuchli bosim ostida qoladi va qarorgohlarini Qo'qonga ko'chirishga majbur bo'ldi.

Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari Soveti 1918-yil 30-yanvar kuni harbiy harakatlarni boshladi. Turkiston bolsheviklari buning uchun qizil gvardiyachilardan tashqari yollangan qurolli guruhlardan ham keng foydalandi. Natijada Qo'qon shahrida ko'plab aholi halok bo'ldi. Turkiston Muxtoriyati esa

harbiy kuch ishlatish yo‘li bilan tugatildi. 2-moddasida: «Aholi o‘lka Xalq Komissarlari Soveti hokimiyati va barcha mahalliy sovet tashkilotlarini tan oladi», deb yozishgan edilar

Mustafo Cho’qay (1890-1941) - taniqli davlat va jamoat arbobi hamda Turkuston xalqlari mustaqilligi uchun izchil kurashchi.

1917-yil aprelda Mustafo Cho‘qay Petrograddan Toshkentga qaytdi va Turkistondagi siyosiy jarayonlar markazida turdi. 1917-yil bahoridan boshlab “Birlik tug‘i” va “Свободный Туркестан” gazetalarini chop eta boshladi. O‘sha yili 16–23-aprelda Toshkentda o‘tgan Butunturkiston musulmonlarining I qurultoyida Mustafo Cho‘qay raisligida Turkiston o‘lka musulmonlari Markaziy Sho‘rosi (Краймуссовет), ya’ni Milliy Markaz tashkil qilindi. Orenburgda 21–28-iyulda bo‘lib o‘tgan Butunqirg‘iz (Butunqozoq) I syezdida qatnashdi. Muvaqqat hukumatning Turkiston Komiteti a’zosi (1917-yil avgustdan). Toshkentda bolsheviklar tomonidan zo‘ravonlik bilan hokimiyat egallab olingach, Mustafo Cho‘qay boshchiligidagi Milliy Markaz noyabr oyi boshlarida Qo‘qonga ko‘chib bordi.

Islom Sulton Shoaxmedov (Shohislom Shagisultonovich Shagiaxmetov. 1882–1922) – taniqli musulmon jamoat va siyosat arbobi.

Turkiston Muxtoriyati hukumatida Bosh vazir o‘rinbosari, keyinchalik moliya vaziri bo‘ldi. Turkiston Muxtoriyati Konstitutsiyasi loyihasining muallifi. Muxtoriyat hukumati tugatilgan paytda Qo‘qon qo‘rg‘oni ichida bolsheviklar tomonidan qo‘lga olingan (1918-yil fevral). 1918-yil bahorida “Ulug‘ Turkiston” gazetasida yozilishicha, u Toshkentdagi qamoqxonada qiynoqlar natijasida aqldan ozgan va turma lazaretiga ko‘chirilgan. 1918-yil mayda bolsheviklar tomonidan Turkiston Muxtoriyati hukumatining tirik qolgan a’zolari afv qilingach, qamoqdan chiqqan.

Obidjon Abduxoliqovich Mahmudov (Obid chatoq. 1871–1936) – davlat va jamoat arbobi, yirik sarmoyador va noshir.

O.Mahmudov 1917-yilda Qo‘qon shahar Dumasi raisi o‘rinbosari etib saylandi. Mustafo Cho‘qay boshchiligidagi Milliy Markaz 1917-yil noyabr oyi boshlarida Toshkentdan Qo‘qonga ko‘chib kelgach, uning hovlisida joylashganlar. O.Mahmudov Butunturkiston musulmonlari favqulodda IV qurultoyi chaqirilishi hamda Turkiston Muxtoriyati hukumati tashkil qilinishida katta rol o‘ynadi. U hukumatda oziq-ovqat vaziri lavozimida faoliyat ko‘rsatdi. Keyinchalik yustitsiya vaziri lavozimini egalladi. Obidjon Mahmudov sovet rejimi tomonidan bir necha marta qamoqqa olingan. Qamoqda orttirgan og‘ir xastaliklar tufayli 1936-yil 21-noyabrda 65 yoshida vafot etgan.

**Xulosa**

Muxtoriyat davrida o'zbeklar va Turkiston xalqlarining madaniyati rivojlandi. Biroq, bu jarayon har tomonlama muvaffaqiyatli bo'lmadi, chunki ko'plab qiyinchiliklar va qarshiliklar mavjud bo'ldi. Jumladan Turkiston Muxtoriyatini mustaqillikka olib chiqsh uchun jon jaxti bilan kurashgan davlat arboblaridan Islom Sulton Shoaxmedov, Obidjon Mahmudov, Mustafo Cho‘qaylarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O‘zbekiston tarixi : umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinf o‘quvchilari uchun darslik.
2. S.Tilabayev va boshqalar. — Birinchi nashr. — Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2022. https://oyina.uz/uz/article/1440
3. https://kun.uz/news/2024/02/20/umri-qisqa-bolgan-turkiston-muxtoriyati-uning-yetakchilari-taqdiri-qanday-kechgan

# TARIXIY TARAQQIYOT DAVRIDA TA'LIM- TARBIYANING O'RNI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

**Qosimova Yulduzxon Javlonbek qizi**

**NamPI 1-bosqich magistranti**

E-mail-yulduzxonqosimova0717@gmail.com

**Telefon: +998943377917**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarixiy taraqqiyot davrida ta'lim va tarbiyaga qaratilgan e'tibor, antik davrlarda yoshlar tarbiyasiga oid ayrim masalalar, bugungi zamonda tarbiyaning ahamiyati, qanday yo'llar orqali yoshlarga ta'lim va tarbiya berishga doir muammo va yechimlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** agoge, paydeyya**,** ijtimoiy muhit, ta'lim, etika, estetika, pedagogika, oilaviy tarbiya.

**Аннотация:** В данной статье анализируются акценты на образовании и воспитании в период исторического развития, некоторые вопросы, связанные с образованием молодежи в древности, значение образования сегодня, пути, проблемы и решения обеспечения образования и воспитания молодежи.

**Ключевые слова:** агоге, пайдея, социальная среда, этика, эстетика, педагогика, семейное воспитание.

**Abstract:**This article analyzes the focus on education and upbringing during the period of historical development, some issues related to youth education in ancient times, the importance of education today, the ways, problems and solutions of providing education and upbringing to young people.

**Key words:** agoge, paideya, social environment, ethics, aesthetics, pedagogy, family upbringing.

Barcahamizga ma'lumki, nafaqat bir oila, balki yer sayyorasidagi har bir mamlakatning gullab-yashnashi, unda yashovchi xalqlarning farog'ati ham shak-shubhasiz ta'lim va tarbiya tufaylidir. Tarixdan millat tarbiyasiga oid muhim ijtimoiy masalalar ota-bobolarimiz tomonidan e'tirof etib kelingan. Biz ajdodlarimiz asrlar davomida sevib mutolaa qilgan tarbiya ilmiga oid "Pandnoma",

“Siyostanoma”, “Qobusnoma” ,”Axloqi muhsiniy”, “Qonuni hikmat”, “Nigoriston”, “odob as-solihin”, “Turkiy guliston yoxud axloq” kabi asarlar haqida ma’lumotga egamiz. Ushbu asarlarda odob-axloqqa oid keng tushunchalar naql va rivoyatlar orqali dalillangan.

Tarixda keltirilishicha, Qadimgi Yunonistonda ikki polis alohida ahamiyatli hisoblangan-Lakoniyadagi Sparta va Attikadagi Afina. Spartada yosh avlodni tarbiyalash davlat ahamiyatidagi vazifa sifatida qaralgan. Sparta ta’lim va tarbiya tizimi ***agoge*** (qad.yun. “olib ketish”, “yulib olish”) 7 yoshdan 30 yoshgacha bo’lgan o’g’il bolalarni “spartancha tarbiya “ usulida jangchi-fuqarolarni tayyorlash edi. Sparta ta’lim va tarbiya tizimi murabbiy, tarbiyachi, ustoz, kattalar, siyosiy va davlat arboblariga so’zsiz bo’ysunish hamda o’quvchilarning shaxsiy dunyoqarashi shakllanmaslik ustunlariga qurilgan.

Afinada ta’lim va tarbiya ***Paydeyya*** (qad. yun. “bola tarbiyasi”) deb yuritilgan.[1]

Umuman olganda tarbiya va uning turlari har bir sohaning o’zidan kelib chiqib belgilanadi. Qadim-qadim zamonlardan beri axloqiy va manaviy tarbiya bo’yicha juda ko’plab kitoblar mavjud. Masalan, mutafakkir olim Abdulla Avloniy o’zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida “ Axloq bu insonlarni yaxshilikg’a chaqirguvchi yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur”,- desa, Abdurauf Fitrat o’zining “ Bolalar axloqiy tarbiyani muhitdan oladilar, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvga o’xshaydilar, suv idishning shaklini olgandek, bolalar ham muhitning odob-axloqini qabul qiladilar”,- degan fikrlarni keltiradi. Albatta, har bir zamonda ham tarbiya bolalikdan shakllanadi. Bunday muhim jarayon uyda ota-ona, bobo-buvilarning hatti-xarakatlari, bergan tarbiyalari orqali yuzaga chiqadi. Maktabda esa ustozlarning ta’limi bilan go’zal xulq sohibiga aylanish mumkin. Yomon xulqli shaxslar maktab, maorif ishlariga munosib bo’la olmaydi. Yuksak ta’lim va tarbiya ko’rgan shaxs esa jamiyatning yuzi hisoblanadi.

Insonda muomila, tashqi va ichki olam go’zalligi, ma’naviy odoblar, o’z navbatida, yana ko’plab axloqiy fazilatlarga bo’linib ketadi. Halollik, to’g’riso’zlik, shirinsuxanlik, mas’uliyatlilik, farosatlilik, sabr-qanoatlilik, ilmlilik va shunga o’xshash barcha xususiyatlar insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turadi. Bejiz, Alisher Navoiy o’zining hukmatlarida “Insonni so’z ayladi, judo hayvondin. Bilkim guxari sharifroq yo’q ondin”, -deb aytmagan. Demak, tilni tarbiya etmoq, behuda so’zlardan tiyilish ham nafis tarbiyadan darak berar ekan.

Qadimgi taraqqiyot davrida odamlar o’rtasida sharm-hayo, oqibat, chidamlilik kabi fazilatlar juda keng yoyilgan. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko’rsatish, kasallar holidan xabar olish, qanoatli bo’lish ham tarbiyaning bir ko’rinishi hisoblangan. Ayollar erkaklar ko’ziga tik boqishga jur’at etolmagan. Suqrot hakim: “Xotunlarning eng go’zali hayo va iffat pardasiga o’ralganlaridur”,- deydi. Garchand o’sha paytlarda yoshlarning ta’lim olishiga yetarlicha sharoit yo’q bo’lsa-da, insoniy fazilatlar murg’ak qalblarga oila davrasida berib borilgan. Ammo xalqning ilmsizligi tufayli millat boshiga juda ko’plab ijtimoy qiyinchiliklarni olib kelgan. Shunday bo’lishiga qaramay, ilm yo’lidan borib xaql orasida yangiliklar yaratgan, izlangan jadidlarimiz bugungi ma’naviy tarbiyaning asosini bunyod etdilar. Agar Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdurauf Fitrat, Minavvarqori Abdurshidxonov, Abdulla Qodiriy, Cho’lpon kabi ziyolilarimiz bo’lmaganida biz bugun jahon hamjamiyatida yuksak ma’naviyat orqali yuqori cho’qqilarni zabt etmagan bo’lar edik.

Bugungi globallashuv davrida tarbiya keng ma’noda har bir sohada inson hayotining ajralmas qismi va davr talabi bo’lib kelmoqda. Odob-axloqqa oid masalalar pedagogika fanining bir tarmog’I sifatida yoshlarga o’rgatilmoqda. Bilamizki, etika-shaxs ma’naviyatini yuksaltirish, undagi eng oliy fazilatlar,axloqiy ong, ma’naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o’rin tutuvchi nazariy g’oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o’rin tutadi. Estetika esa shaxs tomonidan go’zallikni his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo’nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Hozirgi yoshlar tarbiyasida etika va estetikaning shakllanishi bevosita ijtimoiy muhit bilan bog'liq jarayondir. Bugungi bola o'tgan asr bolasidan keskin farq qiladi, o'zbek o'g'il-qizlari zamonaviy komil inson siymosiga ega bo'lmog'i lozim. Tabiiyki, bu jarayonda oilaviy tarbiyaning o'rni beqiyos. Bola, asosan, oilada tarbiyalanadi. Oila o'z muhiti orqali bolaning dunyoqarashiga va xulqiga o'z ta'sirini doimo o'tkazib turadi.

Hozirgi kunda oilalarda o'z farzandi bilan to'liq munosabatga kirisha olmasaligini kuzatishimiz mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri bola tarbiyasiga faqatgina ona javobgar degan tor doirada fikrlashimiz va otaning vazifasi bolani moddiy tomondangina ta'minlash deb bilishimizda deb o'ylayman. Ko'cha-ko'yda ulfatchilik va pul topishdan bo'shamaydigan ota farzandiga tarbiya berishga vaqt ajratmaydi, biroq bolasining axloqsizligini maktabdagi ustozlarning uquvsizligi va befarqligidan shikoyat qiladi. Bunday bolalar jamiyatda o'z o'rnini topa olmasligi va kelajakda loqayd shaxsga aylanib qolishi bejiz emas.

XI asrda yashab ijod etgan mutafakkir Yusuf Xox Xojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida bola tarbiyasi haqida to'xtalib, shunday yozadi: "Farzand qanchalik bilimli, aqlli-hushli bo'lsa ota-onasining yuzi shunchalik yorug' bo'ladi".

"Agar mendan "sizni nima qiynayapti?" –deb so'rasangiz farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman",- deydi muhtaram Yurtboshimiz. Prezidentimiz tomonidan yoshlarga qulay sharoitlar yoritib berilayotgan bir zamonda barchamiz yoshlar tarbiyasiga e'tiborli bo'lishimizni talab etadi. Albatta, bunday global muammolarga yechim sifatida ko'proq kitob bilan oshno tutinishimiz darkor. Bugungi kun yoshlarining ruhiyatiga, ayniqsa, o'smir yoshidagi bolalarga tahqirlovchi so'zlar bilan emas, o'rtoqlarcha munosabat va farzandlariningiz yoshida qilgan orzularining qanchasi ushaldi, qanchasi sarob bo'lib qoldi, kamchiliklariningizni qog'ozga o'ragan holda so'zlash bilan ta'sir o'tkazishingiz lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdurauf Fitrat- Najot yo'li. T.: "Ma'naviyat", 2022.

2. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi, Toshkent 2004.-2 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. 22.09.2019 videoselektrdagi nutqi.

4. R.A.Mavlonova.,N.H.Rahmonqulova., K.O.Matnazarova va b.q Umumiy pedagogika. Darslik –Toshkent. 2018.

5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg’u bilig.- T., 2008.

6. https://yuz.uz.

7. https://docx.uz.

8. https://ziyo.uz.com.

## ARISTOTELNING FALSAFAGA QO‘SHGAN XISSA VA IJODIY MEROSI

Sotiboldiyeva Manzura Nosirjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta’lim metodikasi yo‘nalishi

I-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Aristotel falsafa va ilm-farog‘atga o‘z xissasi shunchaki mavjudlik emas, balki inson fikri, mulohaza va jamiyatsozlikni yangilanishiga olib keldi. Uning qarashlari va nazariyalari muhim jihatlarda ancha zamonaviy va dolzarbdir.

**Kalit so‘zlar**: «ilk falsafa», «analitika», kategoriya, etika, jamiyat, nazariya.

Aristotel (Arastu) qadimgi Yunonistonda buyuk kishilardan bo‘lgan. aseraффU hamma davrlarda yashab o‘tgan buyuk faylasuflar sirasiga kiradi. U o‘zining «ilk falsafa» ga oid (Metafizika) asarida Platonning g‘oyalar nazariyasini tanqid qildi. Aristotel ayrimlik va umumiylikni o‘zaro munosabati masalasini hal etdi. Ayrimlik «biron-bir joy»dagina va «hozir»dagina mavjuddir, uni his bilan idrok etish mumkin. Umumiylik esa «hamma yerda» va «hamma vaqt» mavjud, u muayyan sharoitda ayrim holda yuzaga kelib, shu ayrimlik orqali idrok qilinadi.

Aristotel mantiq ilmining asoschisidir. U yaratgan «analitika» deb nomlangan mazkur fan tafakkurning tushuncha, muhokama, xulosa kabi asosiy shakllaridan, ayniyat, qarama-qarshilik va uchinchisi istisno qonunlaridan,fikrni isbotlash yoxud rad etish uslublaridan, bir qancha kategoriyalardan iborat. Mantiq «ilk falsafa»(«metafizika») bilan birgalikda fan sohalarini falsafiy tasnif tizimini tashkil etadi.

Aristotel jahon ilm tarixida ilk bor axloq fani-etikaga asos soldi. Uning axloq sohasidagi ma’naviy ideali Xudodir, Xudo eng oliy faylasuf va mutafakkirdir.

Aristotelning siyosiy qarashlari «inson-ijtimoiy maxluqdir» degan g‘oyaga asoslanadi, ya’ni oila, jamiyat, davlat-inson hayoti va faoliyatining asosiy sohalaridir, bularsiz u yashay olmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Aristoteldan juda ko‘p falsafiy meros qolgan. Ular orasida eng mashhurlari «Politiya», «G‘oyalar haqida», «Analitika», «Metafizika», «Siyosat», «Etika», «Poetika», «Anodiktika», «Ritorika» va boshqalar. Aristotel ta’limotini davom ettirib, uni Yevropaga tanitib, yetuk ilmiy asarlar yaratgan faylasuflar butun dunyoda «Sharq aristotelchilari» unvoni bilan mashhurdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. www.ziyouz.uz

2. Qomus.info

3. Соч.в 4 тт., М., 1975-83; Поэтика [rus tilidan Mahkam Mahmudov tarjimasi] T., 1980

4. Arxiv.uz

# O’ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA TARBIYA KLASTERLARINI YARATISH ISTIQBOLLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

NamDPI gumanitar fanlar o’qituvchisi
Kenjayev Burgutali Qovuljon o’g’li
Tursunaliyeva Mukarram Ulug’bek qizi
NamDPI I-kurs talabasi

**Annotatsiya.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 apreldagi PF-5987-son farmonida ta'lim klasterlarini yaratish sohada samaradorlikni ta'minlovchi omil sifatida belgilab berilgan. So‘nggi yillarda mamlakatda o‘quv-pedagogik jarayonga innovatsion ilg‘or va xalqaro ta’lim standartlarini joriy etish, kadrlar salohiyatini oshirish va professor-o‘qituvchilar mehnatini rag‘batlantirish, shuningdek ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashni nazarda tutadigan yuridik ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha bir qator aniq chora-tadbirlar amalga oshirildi

**Абстрактный**. Постановлением Президента Республики Узбекистан от 29 апреля 2020 года № ПФ-5987 определено создание образовательных кластеров как фактор, обеспечивающий эффективность деятельности в сфере. По совершенствованию системы юридического образования реализован ряд конкретных мер. , который включает в себя внедрение стандартов, повышение потенциала кадров и стимулирование труда профессорско-преподавательского состава, а также укрепление материально-технической базы образовательных учреждений.

**Abstract**. The decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5987 dated April 29, 2020 defines the creation of educational clusters as a factor that ensures efficiency in the field. A number of specific measures have been implemented to improve the legal education system, which includes the introduction of standards, increasing the capacity of personnel and stimulating the

work of professors and teachers, as well as strengthening the material and technical base of educational institutions.

**Kalit so'zlar**: O'zbekiston, ta'lim, tarbiya, klaster, boshqaruv, muammo, yechim, amaliyot, pedagog.

**Key words**: Uzbekistan, education, training, cluster, management, problem, solution, practice, pedagogue.

**Ключевые слова**: Узбекистан, образование, обучение, кластер, управление, проблема, решение, практика, педагог.

Mamlakatimizda «Uchinchi Renessans» poydevori qurilayotgan, ta'lim sohasida islohotlar amalga oshirilib, ta'lim tizimi tubdan modernizatsiya qilinayotgan bir davrda har bir soha mutaxassislarini tayyorlash, ta'lim-tarbiya jarayonini klasterli yondoshuv asosida boshqarish sifatini oshirish muammosi dolzarblashmoqda.

Pedagogik ta'limning ushbu muhim ijtimoiy ahamiyati o'z-o'zidan uzluksiz ta'lim tizimini klaster rivojlanish modeliga o'tkazish zaruratini belgilaydi.

Ye.M.Tereshina va V.M.Volodinaning maqolasi muallifning tarmoq yondashuvi nuqtai nazaridan "Klaster" tushunchasiga ta'rifini beradi: "Klaster bu asosan mustaqil, geografik jihatdan qo'shni, asosan norasmiy ravishda o'zaro bog'liq va o'zaro bir-birini to'ldiruvchi tashkilotlarning tarmoq guruhi bo'lib, ularning raqobatbardoshligi va iqtisodiy faolligi darajasini oshiradigan turdosh sohalardagi hamkorlik, raqobat va tarmoq munosabatlari tamoyillari asosida moslashuvchan va tezkor harakat qiladi. hudud" [4, 165-bet].

"Klaster" tushunchasining barcha ta'riflari odatda o'xshash va quyidagi umumiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi:

1) Klaster korxonalari va tashkilotlarining geografik kontsentratsiyasi va yaqinligi;

2) yagona kuchli yetakchiga yega ishtirokchilarning keng doirasi;

3) ishtirokchilar o'rtasida barqaror va uzoq muddatli aloqalarning mavjudligi;

4) Klaster a'zolari va uning joylashgan mintaqasining kuchli raqobatbardosh pozitsiyalari.

"Klaster" atamasining turli formulalarini tahlil qilish asosida "Ta'lim klasteri" tushunchasining quyidagi talqinini taklif qilish mumkin:

Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari, ta'limda yangi innovatsion yo'nalish sifatidagi tavsifi va amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari G'.I.Muxamedov, U.N.Xodjamqulov, Sh.I.Botirova, Sh.Q.Mardonov, R.Eshchanov, D.Bekchanovlarning; klaster yondashuvi asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalari ta'lim samaradorligini oshirish texnologiyasi S.A. Toshtemirova, Sh. Botirova, N.Koshanovalarning tadqiqotlarida yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida ta'lim klasterlarini tashkil etish va amaliyotga tatbiq etish muammolari A.Yasheva, B.Pugacheva, A.G.Granberg, M.Galushkina, A.V.Leont'ev, N.V.Gorodnova, P.F.Anisimov, G.I.Ibragimov, D.L.Skipin, V.P.Panasyuk, N.Ye. Yegorov, T.I.Shamova, N.YE.Stenyakova, O.G.Gruzdova, S.A.Ivanova, A.V.Lagutkin, L.Yu.Grudsina, N.A.Mishura, L.L.Naumova; A.S.Subetto, Ye.A.Korchagin, N.A.Sharay, L.N.Nikolaeva, T.V.Vdovinalar tomonidan chuqur o'rganilgan.

Xorijlik olimlardan A.Marshall, M.Porter, O.Solvel, G.Lindgvist, S.Ketelslarning ilmiy izlanishlarida klaster modelining muayyan sub'ektlar raqobatbardoshligini oshirishdagi roli, ta'lim klasterlari modelining yagona tipologik xususiyatlari AQSH va Yevropa mamlakatlari misolida ochib berilgan.

Pedagogik ta'lim tizimining raqobatbardoshligi darajasini oshirish va jahon standartlari darajasiga ko'tarish, ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan muassasalarni umumiy maqsad yo'lida birlashtirish zaruriyati ta'kidlanadi. Klasterdagi ta'lim muassasalarining xususiy vazifalari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- o'quv jarayonini qo'shimcha moliyalashtirishni jalb qilish;

sinf xonalarining zamonaviy jihozlarini va laboratoriyalar va ustaxonalarning jihozlarini o'rnatish;

- sinf fondini kengaytirish;

zamonaviy texnologiyalarga yega bo'lgan mavjud korxonalarda talabalar tomonidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish imkoniyati va uskunalar;

- bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash imkoniyati.

Ta'lim klasteri va ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishga oid bajarilgan ilmiy-tadqiqot tayyorlash asosiy maqsad ekanligi ta'kidlanadiю Шshlari tahlili barcha sohalar zamonaviy mehnat bozoriga mos, raqobatga chidamli kadrlar Respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimining hozirgi holatidan kelib chiqib:

-O'quv-uslubiy ishlar,

-Ma'naviy-ma'rifiy ishlar;

-Ilmiy-tadqiqot ishlari;

-Qo'shimcha kasb-hunar o'rgatish;

-Bitiruvchilar bilan ishlash kabi klaster hamkorlik faoliyati yo'nalishlari tashkil qilish va ta'lim-tarbiya jarayonini klasterli yondoshuv asosida boshqarish lozim.

Uzluksiz ta'lim tizimiining hozirgi holatidan kelib chiqib, ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan klaster yondashuvini ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishga tatbiq etishning asosiy yo'nalishlari, klaster yondashuviga asoslangan o'qitish texnologiyalarini amaliyotga joriy etishning zaruriyatidan kelib chiqqan holda aniqlashtirish lozim.

Klaster yondashuvi vositasida oliy va o'rta ta'lim hamkorligini integratsiyalash integratsiyalashdagi nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashning asosiy shartlari, talabalarning o'z-o'zini boshqarish, tashkilotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni erkin ijodkor jamoa sifatida birlashtirish uchun zarur bo'lgan mustaqillik va erkinlik asosiga quriladigan mexanizm haqida gap boradi.

O'z manfaatlaridan kelib chiqib, hamkorlikda umumiy maqsad yo'lida bir-birini to'ldiradigan uyg'unlikdagi harakat, o'zaro ishonch va samimiy munosabat, ta'limda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash sharti sifatida ko'rsatiladi.

Uzluksiz ta'limda yoshlarning ijodkorlik ko'nikmalarini tarbiyalash, ijodiy tasavvuri va tafakkurini rivojlantirishda qo'llaniladigan yo'nalishlar ko'rsatib o'tilgan.

Uzluksiz ta'lim tizimida mavjud muammolar tahlil qilinib, pedagogik ta'lim klasterining sub'ektlari, yo'nalishlari va tamoyillari tasniflash, pedagogik ta'lim klasteri sub'ektlarining aniqlashtirilishi, yo'nalishlarining belgilanishi va tamoyillarining tayin qilinishi tasviriy san'at ta'limida klaster modelining to'g'ri yo'lga qo'yilishining sharti hisoblanadi.

Klaster yondashuvi asosida «Ustoz-shogird» an'analariga tayanib o'qitishning ilg'or usullarini ishlab chiqish va o'quv jarayoniga tatbiq etish uzluksiz ta'lim ta'lim sifat ko'rsatikichlari darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun klaster yondashuvi fan va ta'limni, pirovardida, amaliyotda jamiyatni rivojlantirish uchun yangi usullarni izlash va amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Bu jarayon ta'lim tizimida samaradorlikni oshirish, umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim muassasalari va professional ta'lim muassasalarida mavjud muammolarni bartaraf etishda oliy ta'limning ilmiy salohiyatidan keng foydalanish imkonini beradi.

Klaster yondashuvi asosida OTM va umumta'lim maktablari o'rtasidagi hamkorlik modellari va o'zaro hamkorlikni tashkil etish metodlari mazkur innovatsion yondashuvni to'g'ri tarkib toptirish imkonini beradi.

O'quv mashg'ulotlari hamda qo'shimcha ta'lim-tarbiya jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligidan to'g'ri foydalanishning ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishda sifat va samaradorlikka erishishdagi ahamiyati katta. O'quv jarayonida klaster yondashuvi asosida talabalarga chuqur nazariy bilim, amaliy ko'nikmalar berish, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini tezlashtirishi ma'lum bo'ldi.

Klaster yondashuviga asoslangan ilmiy va ijodiy to'garaklar faoliyati ta'lim-tarbiya sohasidagi integratsiyani amalga oshirish, talabalardagi kasbiy malakalarini shakllantirishda ahamiyati katta.

Tashkillashtirilgan ilmiy va ijodiy to'garaklar faoliyati orqali talabalarni ijodkorlikka yo'naltirishning samarali mexanizmi yuzaga keladi hamda klaster vositasida yoshlarning iste'dodini namoyon etishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish imkoniyatlari takomillashtiriladi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, mamlakatimizda ta’lim klasterlari soni ortib borgani jamiyatimizga o’sib rivojlanayotgan yosh avlodga, kelajagimizning kelgusidagi samarali ishlariga poydevor bo’laoladi. “Ustoz shogirt” ananalari yanada rivojlanadi, jamiyatimizda ishsizlik soni kamayadi, oily ma’lumotli kadrlar kopayadi, ilg’or texnologiyalar soni ortadi va jamiyatdagi turli xil muammolarga yechim topish va ularni bartaraf etish

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ларионова Н.А. Кластерный подход в управлении конкурентоспособностью региона // Экономический вестник Ростовского гос. ун-та. 2007. № 1.

2. Портер М.Э. Конкуренция: учебное пособие: перевод с английского. М., 2005.

3. Терешин Е.М., Володин В.М. Современная дефиниция понятия «Кластер» и подходы к формализации этого явления // Экономические науки. 2010. № 2 (63).

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасида юридик таълим ва фанни тубдан такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПФ-5987-сон Фармони: Тошкент ш., 2020 йил 29 апрель.

# IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB YUQORI SINF O‘QUVCHILARINI OILAGA TAYYORLASH.

Ro‘ziqova Malika Olimjon qizi Namangan davlat pedagogika insituti, Pedagogika va Psixalogiya kafedrasi o‘qituvchisi

Tursunova Roziya Nodirbek qizi Namangan davlat pedagogika insituti. Maxsus pedagogika (logapediya) yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Tel raqam +998885729906

humoyunmurzotursunboyev572@gmail.com

**Annotatsiya.**Ushbu maqolada ixtisoslashtirilgan yuqori sinf o‘quvchilarini oilaviy hayotga tayyorlash haqida bo‘lib, yoshlarning yetuklik davri batafsil tahlil qilinadi.

**Аннотация.** В статье речь идет о подготовке учащихся профильных вузов к семейной жизни, а также подробно анализируется период зрелости молодежи.

**Abstract.** This article is about the preparation of specialized high school students for family life, and the maturity period of young people is analyzed in detail.

**Kalit so‘z:** zamonaviy bilim,erkin fikr, rivojlantirilgan qobiliyatlar, oila, ota-ona, qadriyat, odob-axloq  millat.

**Ключевые слова:** современные знания, свободомыслие, развитые способности, семья, родители, ценности, мораль, нация.

**Key words:** modern knowledge, free thought, developed abilities, family, parents, values, morals, nation.

Hozirda faoliyat olib borayotgan 182 ta ixtisoslashtirilgan maktablarda 63 ming nafardan ziyod o‘quvchilarga uch bosqichli tanlov natijalariga ko‘ra saralab olingan 7 ming nafardan ziyod o‘qituvchi talim tarbiya berib kelmoqdalar.

Faoliyati tashkil etilganidan uzoq muddat o‘tmaganligiga qaramay,ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilari shu kunga qadar 23 turdagi xalqaro olimpiadalarda ishtirok etib jami 95 ta ( 11 ta oltin, 29 ta kumush, 55 ta bronza )medalni qo‘lga kiritdilar.

Ixtisoslashtirilgan talim muassasalari tizimidagi maktablarda zamonaviy bilimlarga ega, erkin fikrlaydigan, aniq va tabiiy fanlar, axborot texnika hamda boshqa yo‘nalishlarda jahondagi yengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan shaxslarni tarbiyalash, o‘quvchilarning istedodi hamda qobiliyatini rivojlantirish, ularning ilm-fanni egallashga bo‘lgan intilishlarini yanada qo‘llab quvvatlash maqsadid,juda ko‘p izlanishlar, say-harakatlar qilinmoqda. [1.488 b]

Har qanday zamon va makonda ham oilaning qolaversa ota-ona va yaqinlarning zimmasiga shaxs kamolotini taminlash borasida muayyan vazifalar yuklatiladi. Oila zimmasiga muayyan vazifalarning yuklatilishida jamiyat taraqqiyoti,u tomonidan shaxs kamolotiga qo‘yiladigan talablar, aholining ijtimoiy turmush tarzi, shaxslararo munosabatlar mazmuni, davlat siyosati hamda milliy rivojlanish maqsadlari inobatga olinadi. Bugungi kunda O‘zbekiston aholisining 62 foizini bolalar o‘smirlar,xullas 30 yoshgacha bo‘lgan yigit qizlar, ularning malum qismini esa yosh oilalar tashkil etadi. [ 2.56 b]

A. Avloniy ,,Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidur’’, [3.48 b] degan fikri o‘zbekning kun tartibidan tushmasligi lozim. Chunki avvaligiga o‘xshab qariyalar keksalar yoshlarni odob axloqqa chaqirib yoshlar esa ularni hurmatlab, ularning o‘gitiga amal qilish yo‘qolib bormoqda.

Ixtisoslashtirilgan yuqori sinf o‘quvchilarini oilaga tayyorlash deganda, o‘rta maktabning yuqori sinflarida o‘quvchilarga oila hayoti va unga oid mas’uliyatlar, oilaviy munosabatlar va boshqa hayotiy ko‘nikmalarni o‘rgatish nazarda tutiladi deb o‘ylayman. Va ushbu jarayon quyidagilarni ichiga olishi mumkin:

1.Oilaviy hayot haqida bilim berish:

O‘quvchilarga oila tuzish, oilaning ahamiyatu va ijtimoiy ro‘li haqida malumot beriladi. Bu esa nikoh, ota - onalik va farzand tarbiyasi kabi mavzularni o‘z ichiga qamrab oladi.

2. Jinsiy tarbiya va salomatlik:

O‘quvchilarni jismoniy va ruhiy salomatlik,shaxsiy gigiyena, jinsiy hayot va undagi masuliyatlar haqida xabardor qilish orqali sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga yordam beriladi.Bunday tayyorlagliklar o‘quvchilarga kelajakda masuliyatni anglash va ularni muvoffaqiyatli boshqarishga yordam beradi. Shu bilan birga, ularning shaxsiy hayot va munosabatlarda ongli qaror qabuk qilishga imkon yaratadi. [ 5.63 b]

Yordamchi maktab aqli zaif o'quvchilarni oilaga, turmushga tayyorlashdek o'ta muhim vazifani bajaradi. Chunki yordamchi maktab o'quvchilari hayotida yagona ilm maskani - bu faqat yordamchi maktabdir. Yordamchi maktab o'quvchilari katta bo'Igach, oila quradilar, o'g'il bolalar ota - uy xo'jasi, qiz bolalar esa ona - uy bekasi bo'ladilar. Yordamchi maktab o'quvchilari «ota» bo'lish mas'uliyatini, qiz bolalar esa «ona» bo'lish mas'uliyatini chuqur anglab yetishlari kerak. O'g'il bolalar oiIa qurgach, oilani boshqarishni bilishi zarur. Qiz bolalar esa, tuqqan farzandini to'g'ri tarbiyalashi, uning sog'lig'i uchun, unib-o'sishi uchun mas'ul ekanligini ongiga singdirishi kerak.

Yordamchi maktab o'quvchilarini oiJaga tayyorlash vazifasi birinchi sinfdan boshlab olib boriladi. Bu mehnat, axloqiy nafosat, huquqiy, jismoniy tarbiya jaryonida amaIga oshirib boriladi va ijtimoiy- maishiy darslarda, sinfdan tashqari tadbirlarda amalga oshiriladi. [4.206 b]

Xulosa: Iqtidorli yoshlarimiz bilim olishlari, o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llay bilishlari maqsadida har bir maktablarga fizika, kimyo bialogiya o‘quv fanlarining zamonaviy labaratoriya va rabototexnika jihozlari kimyoviy reogentlar bilan taminlangan, bu albatta muxtaram prezidentimizning biz yoshlar bilim olib faravon kelajak qurishimiz uchun ko‘rsatayotgan mehnatidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T :O‘zbekiston, 2017-488b.

2. Mirziyoyev Sh. Erkin va faravon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.T.O‘zbekiston, 2016-56b.

3. Abdulla Avloniy Turkiy Guliston yoxud axloq Toshkent.2004.-102b

4. Inomova M. Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi.-Toshkent:O‘qituvchi,1998. -258b.

5. P.M. Po‘latova Maxsus Pedagogika. Toshkent.2005.-206b

## UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA YOSHLARNING ESTETIK ONGINI SHAKLLANTIRISHDA TASVIRIY SAN’AT FANI HAMDA TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Xolmirzayeva Fazilatxon Obidjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
Tasviriy san’at va amaliy bezak san’ati
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

***Annotatsiya:*** Mazkur maqolada umumta’lim maktablarida tasviriy san’at fanining o‘quvchilar dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati hamda yoshlarning estetik ongini shakllantirishda tasviriy san’at fani hamda ta’lim texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati xususida fikr yuritilgan.

***Kalit so‘zlar:*** tasviriy san’at, san’at, rangshunoslik, obyekt, rang, ijodiy, kompazitsiya, ta’lim, g‘oyalar, yorug‘lik, tabiat, bilim, diqqat, amaliy me’morchilik.

***Аннотация:*** В данной статье обсуждаются роль и значение изобразительного искусства в формировании мировоззрения учащихся, а также роль и значение изобразительного искусства и образовательных технологий в формировании эстетического сознания молодежи в общеобразовательных школах.

***Ключевые слова:*** изобразительное искусство, искусство, цветоведение, предмет, цвет, творчество, композиция, образование, идеи, свет, природа, знание, внимание, практическая архитектура.

***Abstract:*** In this article, the role and importance of visual art science in the formation of students' worldview and the role and importance of visual art science and educational technologies in the formation of the aesthetic consciousness of young people are discussed in general education schools.

***Keywords:*** fine art, art, color science, object, color, creative, composition, education, ideas, light, nature, knowledge, attention, practical architecture.

Bolalar tabiatdan qiziquvchan. Ular oyoq-qo‘llarini nazorat qilishlari bilanoq, bularning barchasi qanday ishlashini ko‘rish uchun o‘zlarini dunyoga chiqarishga harakat qilishadi. Ular kashf qiladilar, kuzatadilar va taqlid qiladilar, narsalar qanday ishlashini va o‘zlarini va atroflarini qanday boshqarishni tushunishga harakat qiladilar. Bu cheklanmagan kashfiyot bolalarning miyyasida aloqalarni shakllantirishga yordam beradi, bu ularga o‘rganishga yordam beradi va bu ham qiziqarli. Tasviriy san’at bolalarning ushbu erkin o‘yinini qo‘llab-quvvatlash uchun tabiiy faoliyatdir. Turli materiallarni organik va tuzilmagan tarzda manipulyatsiya qilish erkinligi tadqiqot va tajriba o‘tkazish imkonini beradi. Bu badiiy urinishlar va mustaqil izlanishlar nafaqat qiziqarli, balki tarbiyaviy hamdir. Tasviriy san'at yoshlarga nafaqat hayot uchun, balki o‘rganish uchun ham foydali bo‘lgan keng ko‘lamli ko‘nikmalarni qo‘llash imkonini beradi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at o‘quv predmetining maqsadi barkamol, komil insonni uning badiiy madaniyatini shakllantirishga qaratiladi. Tasviriy san’at o‘quv predmeti har har bir inson uchun zarur bo‘lgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki har bir o‘quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat’iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak boladi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san’at asarlari bilan muzey, ko‘rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan

zavqlanish orqali erishadi. O‘quvchilar o‘zlarining kelajak hayotlarida ma’lum miqdorda rasm ishlashlariga to‘g‘ri keladi. Maktabda tasviriy san’at mashg‘ulotlarining vazifalari haqida to‘xtalganda ularni shartli ravishda ikki qismga bolish mumkin.

1. Tasviriy san’at darslarining o‘ziga xos,maxsus vazifalari hisoblanib ular: borliqdagi va san’atdagi go‘zalliklarni ko‘ra bilish, idrok etish, tushinish va qadrlashga o‘rgatish; estetik va badiiy didni o‘stirish; bolalar badiiy fikr doirasini kengaytirish; badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyani rivojlantirish; tasviriy san’atning nazariy asoslari (yorug‘, soya,rangshunoslik, perspektiva, kompazitsiya) bilan tanishtirish; rasm ishlash, haykal yasash, badiiy qurishyasash yuzasidan elementlar, malakalar hosil qilish; kuzatuvchanlik, ko‘rish xotirasi, chamalash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarini, abstrakt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish; tasviriy, amaliy me’morchilik san’at asarlarini tushungan holda o‘qiy olishga o‘rgatish; san’atga nisbatan qiziqish uyg‘otish uni qadrlashga, sevishga o‘rgatish.

2. Tasviriy san’at darslarining qo‘shimcha vazifalari,ular; borliqni, hayotni bilishga ko‘maklashish; milliy g‘urur va milliy istiqlol mafkurasini amalga oshirish; bolalarga axloqiy (vatanparvarlik, baynalminnal); mehnat, jismoniy tarbiyani amalga oshirish; bolalarni turli kasb va hunarga yo‘llash.

Tasviriy san’at o‘quv predmetining maqsadi va vazifalari haqida to‘xtalganda yana shuni qayd qilish lozimki, u maktabda o‘qitiladigan deyarli barcha o‘quv predmetlari bilan bog‘lanadi va ular yuzasidan materiallarni o‘zlashtirishga samarali ta’sir korsatadi. Ayniqsa u o‘qish, adabiyot, geografiya, tabiatshunoslik, biologiya, tarix, matematika, mehnat darslarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san’at, hattoki, jismoniy tarbiya, kimyo, musiqa darslari uchun ham foydalidir. Shuni ham qayd qilish lozimki, tasviriy san’at estetik tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan bo‘lsada u axloqiy, mehnat, ekologik, jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Maktabda tasviriy san’at estetik tarbiyani amalga oshirishga yonaltirilgan asosiy o‘quv predmeti

hisoblanib, u quyidagi yonalishlarda amalga oshiriladi: O'quvchilarning tabiat, sanat va hayotdagi go'zalliklarni idrok etishga o'rgatish: O'quvchilarning estetik didini tarbiyalash, go'zallikni baholay olish qobiliyati, haqiqiy go'zallikni xunuk voqea va narsalardan farqlay bilishga o'rgatish; Shaxsning tasviriy-ijodiy faoliyatida o'zini ko'rsata bilishga, hatti-harakatini qo'llabquvvatlash va hayotga go'zallik kiritish malakalarini o'stirish: Bolalarning badiiy fikr doirasini kengaytirish va boshqalar. Tasviriy sanat oquv predmetining muhim vazifalaridan biri u bolalarda kuzatuvchanlikni o'stirish, borliqni ko'ra bilish, qolaversa shu orqali xotirani rivijlantirish hisoblanadi. Ma'lumki, odamzod tevarak-atrofdan olayotgan axborotlarning deyarli 90% dan ortig'ini ko'z orqali oladi, qolgan 10% ni quloq, burun, og'iz v.b. a'zolar orqali o'zlashtiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, kishilar faoliyatida ko'z va xotirani rivojlantirish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Bu sifatlar bolalar tomonidan borliqni idrok etish mashg'ulotlarida, shuningdek, naturadan tasvirlash, san'atshunoslik asoslari mashg'ulotlarida alohida ahamiyatlidir. Bunday darslarda o'quvchilar narsalar va hodisalarning tuzilishi, shakli , rangi, o'lchovlari, fazoviy joylashishi, harakat go'zalligini kuzatadilar hamda ularni o'z xotiralarida saqlab qolishga harakat qiladilar.

Kuzatuvchanlikni mohiyati shundaki, bunda bolalar narsa va hodisalar haqida keng va chuqur tasavvurga ega bo'ladilar. Masalan, kuzatuvchanligi rivojlanmagan kishilar gulni kuzatar ekanlar, unga nisbatan yuzaki yondoshadilar,ya'ni gul bandi, guli, yaproqlari, gul rangiga o'z e'tiborlarini qaratadilar. Kuzatuvchanligi rivojlangan kishilar esa gullarning gul bandi, guli, yap-roqlari va boshqalarning o'lchovlari, o'lchov nisbatlari, har bir qismning rangi, yaproq va gulbarglarning joylashuvini bir ko'rishdayoq eslab qoladilar. Bolalarning kuzatuvchanligi va sinchkovligi, o'z o'rnida narsalar haqidagi ma'lumotlarni xotirada yaxshi saqlanib qolishga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham xotirani ayniqsa, ko'z xotirasini rivojlantirishda tasviriy san'at o'quv predmetining qanchalik ahamiyatli ekanligi oydinlashadi.

Tasviriy san’at darslarining eng muhim vazifalaridan biri tasviriy, amaliy va me’morchilik san’atlari asarlarini o‘qishga o‘rgatishdir. Tasviriy san’at asarlari ertak, hikoya, doston, roman kabi ma’lum bir mazmunni aks ettiradi. Biroq uni kitob o‘qigandek oqib bo‘lmaydi. Tasviriy san’at asarlarini o‘ziga xos tili bor. Ularni bilgan kishilargina o‘qiy oladilar. Xususan rassomlar, chiziqlar, ranglar, o‘lchovlar, kompazitsiya, proportsiya, ritm, simmetriya shakl kabi ifodalilik vositalari yordamida asar mazmunini ochib beradilar. Tasviriy san’at o‘quv predmeti yoshlarning estetik tarbiyasida ahamiyatli bo’libgina qolmay balki, axloqiy tarbiyada ham salmoqli o‘rinni egallaydi. Ayniqsa, tasviriy san’at darslari yoshlarda milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda, vatanparvarlik va baynalbinnal tarbiyada, do‘stlik va o‘zaro yordam g‘oyalarini tashkil toptirishda katta kuchga ega. Maktab tasviriy san’at dasturiga nazar solar ekanmiz unda Vatanimizning buyuk o‘tmishi, vatandoshlarimizning mustaqillik uchun olib borgan kurashlari, O‘zbekistonning nafosatga to‘la tabiati, xalqlar do‘stligi g‘oyalarini ifoda etuvchi tasviriy san’at asarlari bilan tolib toshganligining shohidi bo‘lamiz. Masalan ona tuproq uchun kurash olib borgan, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Spitamen, Muqnna kabi buyuk vatandoshlarimiz hayoti va obrazlarini, O‘zbekistonning rango-rang go‘zal manzaralarini, o‘zbek xalqining Respublikamizda yashayotgan boshqa millat vakillari bilan tinch-totuv mehnat qilayotganligini tasvirlovchi tasviriy san’at asarlari mavjud. Ularni o‘rganish jarayonida bolalar san`atning qonun va qoidalari bilan tanishadilar, yuqorida qayd qilingan mazmunda rasmlar ishlaydilar.

XXI asr – yangi shubhasiz texnologiyalar asri. Mazkur davrda zamonaviy texnologiyalarga oid bilim, malaka va ko‘ninikmalarga ega bo‘lmay turib keng qamrovli kasbiy sifatlarga ega kadrlarni tayyorlab bo‘lmaydi. O‘quvchilarning zamon talabi darajasidagi bilim va ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari ularni keying faoliyatga tayyorligining bosh me’zoni hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda zamonaviy ta’limning maqsad va vazifalari ham o‘zgarib bormoqda. Chunki, ta’limga zamonaviy yondoshuv asosidagina o‘quvchi shaxsining to‘la

rivojlanishi, tez o‘zgaruvchan dunyodagi turli mashaqqatlar va chaqiruvlarga har taraflama tayyor bo‘lishi, ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ulkan axborot makonida axborotlarni tanqidiy nuqtai nazaridan to‘g‘ri izlash, tanlab olish, oldida yuzaga kelgan mauammolarni nafaqat ko‘ra bilish, balki ularni ifodalash va hal eta olish kabi masalalrga yechim toppish mumkin.

Shuning uchun ham Yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyev tashabbuslari bilan yangi davrga qadam qo‘yish asnosida keng fikrlash doirasiga ega, bilimlarni chuqur egallagan, sohasida yetuk va davr talabiga javob bera oladigan shaxslarga bo‘lgan etibor ortib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida modernizatsiyalangan va sifatli tashkil etilgan ta’limni joriy etish masalasini ko‘ndalang qilib qo‘yadi. Hozirgi davr nuqtai nazaridan kelib chiqib bunday talablarga javob bera oladigan va yuqorida sanab o‘tilgan xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan shaxsni shakllantirishda quyida mezonlarni tashkil etilish muhim ahamiyat kasb etadi:

* Zamonaviy va ilg‘or ta’lim texnologiyalari;

* Raqamli texnologiya - zamonaviy va ilg‘or pedagogik texnologiya Xalqaro tajribalar [1].

Malakali kadrlarni tayyorlashga bo‘lgan ehtiyoj ishlab chiqarish korxonalari paydo bo‘lgan, sanoat sohasi rivojining ilk bosqichlarida yuzaga kelgan bo‘lsada, hanuzgacha o‘z dolzarbligini yo‘qotmay kelmoqda. Buning asosiy sabablari jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga bog‘liq ravishda yangidan-yangi yo‘nalishlar, ixtisosliklarning paydo bo‘lishi, ular bo‘yicha kadrlar tayyorlash zaruriyatining vujudga kelishi, o‘zgaruvchan, tezkor davrda mutaxassislarning kasbiy bilim, malaka va mahoratlarini izchil ravishda oshirib borishga bo‘lgan ehtiyojning shakllanishi, shuningdek, mutaxassis sifatida mehnat bozoridagi kuchli raqobatga bardosh bera olishga bo‘lgan talabning ortishi sanaladi[2].

Ijtimoiy jarayonlarning ajralmas qismi sifatida ta’lim tizimi, xususan tasviriy san’at fanini o‘qitish ham, ilg‘or texnologiyalardan samarali foydalanishi unga shu orqali zamon talab qilayotgan yetuk kadrni tayyorlash imkoniyatini beradi. Shu

ma’noda, bugungi kunda har jabhada keng qo‘llanib kelinayotgan hamda insonlar turmush tarzining bir qismiga aylanib borayotgan raqamli texnologiyalarni ham o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish zamonaviy tasviriy san’at o‘qitish metodikasining muhim vazifalaridan biridir.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tasviriy san’at fanini o‘qitish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarda nafaqat san’atga bo‘lagan qiziqishlarini orttirish, o‘quvchida nafosatni shakllantirishda ko‘maklashadi balki, ularda olingan bilimlarni uzoq vaqt yodda saqlab qolish hamda kelajakka oid bilim va malakalarni shakllantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, yangi bilimning aktualligi u o‘zlashtirilgan davrdan boshlab 3-5 yilni tashkil qiladi [3].

Raqamli qurilmalardan unumli foydalanish esa mustaqil izlay olish, kerakli ma’lumotni qisqa muddat ichida qidirib topish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida muntazam fikr almashib turish kabi imkoniyatlarni yaratib berish orqali ma’lumotlarni muntazam takrorlanib turishini ta’minlaydi va shu orqali o‘quvchilarda “mustahkam bilim” shakllanishini ta’minlaydi. Jumladan, kompyuter vositalaridan foydalanish shaxsni shakllantirishda to‘rtta asosiy yo‘nalish (aspekt) bo‘yicha ta’sir ko‘rsatadi:

* falsafiy (dunyoni, estetik ideallarni ilmiy tushunishni shakllantirish);

* psixologik (xotira, diqqat, tafakkur, xayol jarayonlarini rivojlantirish, faoliyat motivatsiyasini saqlab qolish);

* professional vaamaliy (maxsus fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyat muammolarini hal qilish uchun dasturiy ta’minotdan foydalanish);

* texnologik (kompyuter savodxonligi va axborot madaniyatini shakllantirish) [4].

Mazkur asosiy yo‘nalishlar fanni o‘qitish jarayonida o‘quv faoliyatini tashkil etish, darslarni zamonaviy moddiy-texnik bazalar yordamida o‘tish, mavzuni o‘zlashtirishda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqani muntazam amalda bo‘lishini ta’minlash, o‘quvchilarda zamonaviy tasviriy san’atga oid bilimlar

vamalakalarni shakllantirish kabi faoliyatlarda namoyon bo‘ladi. Xususan o‘quvchilarga mul’tfil’m yaratilish jarayonlari aks ettirilgan videoroliklar ko‘rsatilsa, mul’tfil’m qahramonlarining ijobiy va salbiy xislatlari, ranglar va chiziqlar plastikasining jozibadorligi hamda uning yaratilish jarayonidagi qiziqarli va mashaqqatli rassom mehnatidan bolalar boy taassurotga ega bo‘ladilar. Rassomlarning asarlaridan namunalar ko‘rsatish va taniqli rassom, pedagog olimlar bilan masofaviy ta’lim mashg‘ulotlarining tashkil etish orqali esa o‘quvchilarda darsga bo‘lgan qiziqishni oshirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Yuqori sinflarda loyihalash metodlarini keng qo‘llash mumkin. Bunda amaliy san’atning qadimiy, milliy va zamonaviy an’analarning uyg‘unlashuvi asosida yangi jihozlar (binolar, avtomobillar, maishiy va sport jihozlari, liboslar) loyihalashtirish bolalardagi milliy qadriyatlarimizga nisbatan faxr va mehr tuyg‘usini uyg‘otadi. Mahalliy xomashyolardan foydalangan holda yaratuvchanlik va ixtirochilik faoliyatlari bolalarning ijodiy qobiliyatlari shakllanishiga turtki bo‘ladi[5].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, inson uchun zarur bilimlar miqyosi tobora kengayib borayotgan hozirgi sharoitda muayyan faktlar yig‘indisini o‘zlashtirish bilan cheklanib bo‘lmaydi. Shuning uchun o‘quvchilarga oz bilimlarini mustaqil ravishda toldirib va boyitib borishni, ozining diqqat-e'tiborini ilmiy va siyosiy axborotlarning eng muhimlariga qaratishni o‘rgatish kerak. Bu vazifa o‘quvchilarning tasviriy san’at darslar ini ta’lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy bog`liq holda kengaytirish va rivojlantirishni taqozo etadi. Fan o‘qituvchilari tomonidan darslarni tashkil etishda va o‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish maqsadida multimedia vositalari hamda Internet tizimidan keng foydalaniladi. Ammo, shuni nazarda tutish joizki, mazkur texnologiyalardan o‘qituvchi foydalanadi ba bu uning texnikaga oid malakalatini takomillashtiradi, lekin o‘quvchilar asosan ma’lumotni qabul qiluvchi sifatida ishtirok etib, ularda yangi kompetensiyalar shakllanmaydi. Dunyo bo‘ylab keng tarqalayotgan hamda turli sohalarda faol qo‘llanilayotgan raqamli texnologiyalar va ularning tasviriy san’at fanida o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan komponentlari umumta’lim

maktablarida o‘rgatilmaydi. Chunki, fanning o‘quv rejalari hamda o‘qiv dasturlarida bunga doir bo‘limlar yoki mavzular keltirib o‘tilmagan. Demak, mamlakatimizda tasviriy san’at fanini o‘qitish metodikasi zamon bilan hamnafas rivojlanib borishi uchun mavjud uslublar va texnologiyalarni takomillashtirishni taqozo qiladi.

***Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:***

1. M. Pardaeva. Ta’lim tizimini modernizatsiyalash sharoitida innovatsiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish istiqbollari [Journal] // Science and Education. – 2020. – 4: Vol. 1.

2. U.A. Baykabilov. Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish bosqichlari [Journal] // Science and Education. – 2020. – 2: Vol. 1.

3. Х.И. Зарсаева. Использование цифровых технологий в образовании [Journal] // European science. – 2020. – Vol. 1(50).

4. А.П. Белиц-Гейман. Возможности компьютерных технологий в процессе обучения художественной графической композиции [Report]. – 2008.

5. H.E. Sultanov Uzluksiz ta’lim tizimida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish (Tasviriy san’at darslari misolida) [Report]. – [S.l.]: Uzluksiz ta’lim, 2016.

## YOSHLARNING MA'NAVIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI MA’RIFIY QADRIYATLAR

Tillayev Bobomurod Abduvoxobovich
Gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Zoxidjonova Moxinur Botirjon qizi
Ijtimoiy fanlar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti 1-bosqich talabasi.

**Annotatsiya:** Yoshlar har qanday jamiyatning kelajagidir, ularning ma'naviy madaniyati esa umumiy ijtimoiy taraqqiyotning ajralmas bir qismi bo‘lib, kelajakni belgilovchi muhim omildir. Yoshlarda ma’naviy madaniyatni shakllantirishda ma’rifiy qadriyatlarning o‘rni juda ham ahamiyatlidir. Ushbu maqolada ma'naviy madaniyatni shakllantirishga ta’sir etuvchi asosiy ma’rifiy qadriyatlarning

ahamiyati va ta’siri tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** milliy qadriyatlar, ma'naviy madaniyat, ijtimoiy taraqqiyot, global qadriyatlar, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy faollik, ijtimoiy mas'uliyat, Zamonaviy ilm-fan, milliy meros.

**Abstract:** Young people are the future of any society, and their spiritual culture is an integral part of general social development and an important factor determining the future. The role of educational values in the formation of spiritual culture among young people is very important. This article analyzes the importance and impact of the main educational values that influence the formation of spiritual culture.

**Key words:** national values, spiritual culture, social development, global values, moral values, social activity, social responsibility, modern science, national heritage.

Yoshlarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda ta'lim tizimi muhim o‘rin tutadi. Yoshlar ta'lim orqali ilmiy, estetik va axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtiradilar. Umumbashariy va milliy qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiya yoshlarning ongida vatanparvarlik, insoniylik, adolatsevarlik va yana shunday ezgu tuyg‘ularni shakllantirishga ko‘mak beradi. Ta'lim tizimining milliy qadriyatlar bilan uyg‘unligi yoshlar uchun zarur bo'lgan jamiyatga mos ruhiy muhitni shakllantiradi.[1]

Yoshlarni milliy madaniyat va an'analarimizga hurmat ruhida tarbiyalash ularning ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda, yaxshilashda, mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy meros, o‘zbek millati, o‘zbek xalqi va boshqa xalq, millatlarning madaniyati, san'ati, adabiyoti yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi va ularni chuqur ma'naviy qadriyatlar asosida shakllantiradi.

Yoshlarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda axloqiy qadriyatlarning o‘rni beqiyos. Ular o‘zaro adolat, haqiqatgo‘ylik, halollik, fidoyilik, hurmat kabi axloqiy asoslarni o‘z ichiga oladi. Axloqiy tarbiya orqali yoshlar nafaqat ilm-fan, san'at va madaniyatda, balki jamiyatda to‘g‘ri va adolatli munosabatlar

shakllantirishni ham o‘rganadilar.[2]

Yoshlar milliy qadriyatlar asosida tarbiyalanib, global qadriyatlar bilan ham tanishib borishi zarur. Global qadriyatlar, jumladan, inson huquqlari, adolat, tenglik, demokratsiya kabi prinsiplarga asoslangan bo`lib, ular yoshlarni butun dunyo miqyosida hurmat va hamkorlikni qadrlashga o`rgatadi va yoshlarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda muhim o`rin tutadi.[3]

Yoshlarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda ilm-fan, ta'lim, axloqiy qadriyatlar, global qadriyatlar, ijtimoiy faollik kabi omillar muhim ahamiyatga ega. Ushbu qadriyatlar har bir yosh avlodni jamiyatda o`z o`rnini topishga, axloqiy munosabatlar o`rnatishga, o`zligini anglashga, dunyoqarashini o`stirishga, jamiyatda ijtimoiy faol shaxslar sifatida shakllanishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati;**

1.Nizomov Sh."O‘zbekiston yoshlarining ma'naviy tarbiyasi" Ta'lim va tarbiya jurnali

2.Islom Karimov "Milliy va umumbashariy qadriyatlar"

3."Axloqiy qadriyatlar va jamiyatdagi o'rni". O'zbekiston yoshlar ilmiy jurnalidan.

4.Ubaydullayev X. "Ijtimoiy faollik va yoshlar ma'naviyati". Ijtimoiy fanlar jurnali.

## GLOBALLASHUV SHAROITIDA TARBIYA TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUV

Kenjayev Burgutali Qovuljon o‘g‘li
Namangan Davlat Pedagogika instituti Gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi.
Abdusobirova Mohiyatxon Mirzohidjon qizi
Namangan Davlat Pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.

xamrayevmirzohid999@gmail.com

**Annotatsiya:** Globallashuv sharoitida tarbiya tizimi ham sezilarli o'zgarishlarga uchramoqda. Dunyo miqyosidagi o'zgarishlar ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi, madaniy va iqtisodiy integratsiya tarbiya jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shu sababli ushbu maqolada tarbiyaning ahamiyati va hayotimizdagi o'rni haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Globallashuv davri, ma'naviy boylik, milliy an'analar, tarbiya tizimi, madaniy qadriyatlar.

**Annotatsion:** In the context of globalization, the education system is also undergoing significant changes. Global changes, the development of science and technology, cultural and economic integration are bringing the processes of education to a new level. Therefore, this article talks about the importance of education and its place in our lives.

**Keywords:** Era of globalization, spiritual wealth, national traditions, educational system, cultural values.

**Аннотация:** В условиях глобализации система образования также претерпевает существенные изменения. Глобальные изменения, развитие науки и техники, культурная и экономическая интеграция выводят процессы образования на новый уровень. Поэтому в этой статье говорится о важности образования и его месте в нашей

**Ключевые слова:** Эпоха глобализации, духовное богатство, национальные традиции, система образования, культурные ценности.

## KIRISH:

Globallashuv — bu dunyo miqyosida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy aloqalar va integratsiyaning kuchayishi jarayonidir. Bugungi kunda globallashuvning ta'siri turli sohalarda, xususan, ta'lim va tarbiya tizimida sezilarli darajada aks etmoqda. Yangi texnologiyalar, ilmiy yangiliklar, axborot vositalarining rivojlanishi tarbiyaga bo'lgan yondashuvni o'zgartirmoqda. Tarbiya tizimida innovatsion yondashuvlar kiritish, ta'lim jarayonini yanada samarali qilish,

yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish va ularni zamonaviy jamiyat talablari darajasida tarbiyalash muhim vazifaga aylangan.

Yaxshi tarbiya shaxsning shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyatiga, oilaviy, do'stlik va ish munosabatlariga ham bevosita ta'sir qiladi. Tarbiya nafaqat ota-onadan, balki jamiyat, maktab va boshqa ta'lim muassasalaridan ham keladi. Shuningdek, tarbiya orqali inson o'zini anglab, ma'suliyatli, mehr-shafqatli va adolatli bo'lishni o'rganadi. Shu sababli tarbiya hayotimizni yaxshilashdan va jamiyatni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 15-iyun kuni poytaxtimizda o'tkazilgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini saqlash — davr talabi" mavzusidagi anjumandagi so'zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasiga alohida e’tibor qaratdi. " Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala — bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim? —Yoshlar. Mayli yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doim aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undan tursin. Bunda nimani hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan".[1]

Tarbiya tizimida innovatsion yondashuvlar joriy etish, birinchi navbatda, jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlariga javob berish imkoniyatini yaratadi. Innovatsiyalar orqali o'quvchilarga nafaqat akademik bilimlar, balki zamonaviy dunyoda yashash, muloqot qilish va ishlash ko'nikmalari ham o'rgatiladi. Masalan:

Interaktiv metodlar: Klassik ta'lim usullaridan tashqari, zamonaviy innovatsion metodlar (masalan, guruhli ishlar, muammoli o'quv vazifalari) ta'limni yanada samarali qiladi. Talaba va o'quvchilar bu usullar orqali faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'zlashtiradi.

Kreativ ta'lim :Innovatsion yondashuvlar orqali kreativ fikrlashni rivojlantirish, o'quvchilarga yangi g'oyalar yaratishda yordam beradi. Masalan: dizayn, san'at va texnologiyalar kabi sohalarda ijodiy yondashuvlar yoshlarni zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatga erishishga undaydi.

Globallashuv sharoitida tarbiya tizimi yangi, innovatsion yondashuvlar va metodlarni joriy etishni talab qiladi. O'quvchilarga nafaqat akademik bilimlar, balki ijtimoiy, madaniy va global muammolarni yechish ko'nikmalari ham o'rgatilishi zarur. Innovatsion metodlar, texnologiyalar va global jamiyat bilan aloqalar yoshlarning keng dunyoqarashini rivojlantiradi va ularni kelajakda muvaffaqiyatli va ma'suliyatli fuqarolar qilib tarbiyalaydi. Globallashuv davrida tarbiyalshda nafaqat milliy, balki global miqyosida muvaffaqiyatga erishishi uchun muhim ko'nikmalarni rivojlantirish kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Sh. M. Mirziyoyev "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash — davr talabi ". Videoselektor yig'ilishidagi nutq. — 15-iyun, 2017-yil./https//www. Google. com.

2.G'ofurov S.(2010).O'zbek xalqining madaniy merosi. Toshkent. Ma'naviyat.

3.G. B. Saidnazarova. Tarbiya fanini o'qitish metodikasi. Buxoro-2024. "Kamolot" nashriyoti.

## TA'LIM JARAYONLARIDA YOSHLAR ONGIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH VA ASRASH TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

N. Shaydullayev

NAMMQI Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

Globallashuv jarayoni bugungi dunyoning mazmun mohiyatini belgilovchi xodisa bo'lib, bu jarayon xech qaysi millat, xalq va davlatni chetda qoldirmaydi. Bizga ma'lumki, sobiq sho'rolar davrida dunyo ikki qutbga , ya'ni musbat (sotsializm) va manfiy (kapitalizm) qutblarga bo'linib, bashariyat xayoti bilan bog'liq biron-bir (iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy) masala yo'q ediki, shu

ikki qutb tomonidan xal etilmasa , SSSR degan “imperiya” yemirilishi bu ikki qutbli dunyoni barham topishiga va ko‘p qutbli dunyoning yuzaga kelishiga olib keldi. Ko‘p qutbli dunyoda O‘zbekiston deb atalmish mustaqil suveren davlat yuzaga keldi va 30 yildan ziyod globallashuv jarayonining sub’ekti sifatida rivojlanib kelmoqda. Birinchi prezidentimiz ta’kidlaganidek “Olloxning marxamati bilan mustaqillik bugungi avlodga nasib qildi”. Mustaqillik yillarida xalqimiz oldida ikki bir-biridan dolzarb masala, ya’ni milliy o‘zlikni anglash va asrash masalasi turar edi. Biri, milliy o‘zlikni anglash o‘tmish bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchisi, o‘zlikni asrash globallashuv jarayoni bilan bog‘liq masaladir. Globallashuv jarayonining salbiy va ijobiy tomonlari borligini xayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi.

Globallashuv jarayoning ijobiy tomonlari to‘g‘risida xar qancha yozsak, gapirsak oz. Bu jarayon tufayli katta yoki kichik davlatlar, millat va xalqlar uchun barcha soha (iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy-madaniy)larda keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Jumladan O‘zbekiston davlati bugungi kunda 100dan ortiq davlat va xalqlar bilan teng huquqli tamoyilga asoslangan tashqisiyosat olib bormoqda. Iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy-madaniy sohalarda, ayniqsa dunyo xalqlari erishgan fan-texnika yutuqlaridan keng foydalangan xolda O‘zbekiston katta yutuqlarni qo‘lga kiritmoqda, shu bilan birga dunyo fan-texnika taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shib , bu borada pragmatik siyosat olib bormoqda.

Mustaqillik tufayli xalqimiz ma’naviy xayotida keng imkoniyatlar yuzaga keldi. Millatni millat qiladigan tariximiz, e’tiqodimiz, tilimiz, dinimiz, urf-odat va an’analarimizga qaytdik. Bu sohada olib borilayotgan islohotlarga milliardlab mablag‘lar sarflanayotganligi sir emas. Bu jarayonni xayot tajribasiga ega bo‘lgan taqqoslash, mantiqan kuzatish tafakkuriga ega bo‘lgan avlodgina anglab yetadi. Yevropa aholisining 60-65% ni keksa avlod tashkil etayotgan bir paytda, O‘zbekiston aholisining 60 foizdan ziyodini tashkil etayotgan yoshlarning globallashuv jarayonlariga munosabati qanday. Ularning xayot faoliyatidan ko‘ngli to‘ladimi ?

Bugungi kunda “Yadro poligonlardan mafkuraviy poligonlar” kuchaygan bir paytda, mafkuraviy poligonlarning sub’ektlari yoshlar bo‘lib qolayotganligi masalaning qanchalik dolzarbligidan dalolatdir.

Hozirgi davrni televideniya, uyali telefon, kompyuter va internetsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ayni shu unsurlar mafkuraviy poligonning asosiy qurollari bo‘lib qolmoqda va yoshlarni o‘z domiga tortmoqda. Natijada yoshlar tafakkurida G‘arbga intilish (oqilona emas) kuchayib borayotganligi ayni haqiqat. So‘ngi paytlarda xalqimiz o‘rtasida polonchining farzandi, nabirasi xorijdagi nufuzli oliygohlardan beshtasiga muddatidan oldin talabalikka qabul qilinibdi degan mish-mishlar tez-tez quloqga chalinayotganligi sir emas, bu ayni haqiqat.Lekin bu haqiqatning tagida nimalar yashirinib yotganligini hamma ota-onalar xam tushunib yetmayotganligi ham ayni haqiqat. Tug‘ilish o‘ta kamayib borayotgan G‘arb mamlakatlari Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekiston yoshlari uchun yuqorida zikr etilgan “Nufuzli” oliygohlar eshigini ochib qo‘yganliklari va iqtidorli yoshlarni “sotib olayotganligi” ham ayni haqiqat. Yoshlar o‘rtasida modaga aylangan xorijiy tilni o‘rganish orqali xorijga chiqish xar 10 ta yoshdan 6 tasida asosiy maqsad bo‘lib qoliyotganligi bizningcha fojia hisoblanadi.Sababi yoshlar tafakkurida moddiy manfaatni ustivor qo‘yish falsafasi kuchayib bormoqda,bu jarayon vatanparvarlik, xalqparvarlik kabi qadriyatlarga jiddiy xavf solmoqda. Shu joyda buyuk faylasuf Arastu (Aristotel)ning farzandiga qilgan vasiyati bugungi yoshlarimizga ibrat bo‘lsa ajab emas. “Bolajonim! O‘z umrimni ilmu-hikmatning sirlaridan voqif bo‘lish yo‘lida sarf qildim. Ilmu –hikmat nuri bilan juda ko‘p tugunlarni yechdim. Ammo o‘limga kelganda chora topa olmadim. Senga qiladigan vasiyatim shuki, o‘g‘lim mol-davlat orqasidan ortirilgan izzat-obro‘da baqo yo‘q. Izzat-hurmat, shon-sharaf ilmda. Ilm tufayli qo‘lga kiritilgan shon-sharaf fano va zavolni bilmaydi. Davlat va siyosatning o‘zgarishi unga ta’sir etmaydi... Izzat-ehtiromga loyiq bo‘lib, nomim abadiy qolsin desang ilm orttir! ”

Bugungi yoshlarimiz xayotida tahlil emas “Taqlid” kuchayib borayotganligi ham sir emas. Jadidchilik xarakatining buyuk namoyondasi Abdurauf Fitrat

ta'kidlaganidek "Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog'lom jismu tan, aql va ahloqdir ". Fitrat bobomizning nidosi aynan bugungi kunning manzarasini ifodalayotganday. O'z-o'zidan savol tug'iladi "Bugungi yoshlarimiz shunday kurashga tayyormi? " Bu borada fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan ta'lim –tarbiya muassasalari oldida o'ta muhim va dolzarb vazifalar ko'ndalang bo'lib turibdi. Shuni alohida ta'kidlash joizki ma'naviy muholiflarimiz yoshlar qalbini egallash bobida barcha zamonaviy usullardan foydalanmoqda. Bu borada ular bizdan bir necha qadam oldinda borayotganligi xech kimga sir emas. Fedor Dostoevskiy "inson qalbi –xayotning kurash maydoni" ekanligini ta'kidlab, u bilan xazillashmaslik, odamga kimligidan qat'iy nazar bepisand qaramaslikga chaqiradi. Globallashuv jarayonida yurtimizga kirib kelayotgan buzg'unchi g'oyalarga to'siq qo'yib bo'lmaydi, faqat milliy-ma'naviy tarbiyaga e'tiborni kuchaytirish davr talabidir. Bu borada ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida uztoz murabbiylar, ayniqsa ijtimoiy-gumanitar fanlar mutasaddilari oldida yoshlarni milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimiz ruhida tarbiyalash kabi o'ta muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Bu vazifalarni yoshlar qalbiga kirish orqali amalga oshirish mumkin, ularning qalbiga quloq tutish, maqsad va maslaklarini eshitish va e'tiborli bo'lish, yoshlarimizda mantiqiy, kreotiv fikrlashni shakllantirish, ularda dunyo miqyosida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni aql torozisiga sola bilish va bu voqea-hodisalarga o'zini daxldor deb xis etish kabi fazilatlarni shakllantirish o'ta zarur.

**XULOSA.** Haqiqatan bugungi dunyo kurashlar maydoni bo'lib qolmoqda. Yangi O'zbekistonning bunyodkori bo'lmish yoshlarimiz bu maydonda jismonan sog'lom, aqlan va ma'nan yetuk bo'lishlari davr talabi, ularning qalbida vatanparvarlik, elparvarlik tuyg'ularini iymon, e'tiqodga aylantirish barchamizning oldimiz turgan dolzarb vazifadir, bu borada najot ilmda e'kanligi ayni haqiqat.

## Adabiyotlar:

1. Tohir Malik "Odamiylik mulki"

2. Mamadjanova M. "Jamiyat taraqqiyotiga biotetika ta'sirining ijtimoiy falsafiy tahlili".

3. Abdulla Sher "Shoyad taffakkur qilsak" "Tafakkur" jurnali 2019yil 1-soni

4. Tafakkur jurnali. 2019-yil 4-soni.

5. Viktor Alimasov. "Begonalashuv" Tafakkur jurnali 2020yil 2-soni

# JAMIYATDA TARBIYAVIY JARAYONLARNING BARQARORLIGIGA ERISHISHDA DINIY BAG'RIKENGLIKNING O'RNI

Orziyev Iqbol Jumanazarovich

NamDU katta o'qituvchisi

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola demokratik paritsiplar qaror topgan mamlakatlarda jamiyatda fuqarolar o'rtasida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda diniy erkinlik va diniy bag'rikenglik tamoillarining o'rni va roli xususida bo'lib, unda diniy bag'rikenglikning dunyoviy rivojlanishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, maqolada O'zbekistonda diniy bag'rikenglik siyosatini samarali taraflari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** tolerantlik, sekulyarizm, bag'rikenglik, plyuralizm, globallashuv.

**Kirish:**Barqaror taraqqiyot sharti – davlat, din va jamiyat o'rtasida o'zaro uyg'unlikni, tolerantlikni saqlab qolish yoxud unga erishishdir. Biz amalga oshirmoqchi bo'lgan tadqiqotning ham asl maqsadi shu – milliy mustaqillik asosida mamlakatimizda barqaror rivojlanishga erishish, uni jahon hamjamiyatining ilg'or, rivojlangan davlatlari qatoriga olib chiqish. O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti I.Karimov va uning islohotlar, tub o'zgarishlar siyosati bardavomligini ta'minlashga harakat qilayotgan amaldagi Prezident

Sh.Mirziyoev va uning hukumati tomonidan ichki va tashqi siyosatda amalga oshirilayotgan ulkan ishlarning maqsadi ham ana shunda.

**Metodologiya:**

Asosiy va boshlang‘ich algoritm sifatida olg‘a surmoqchi bo‘lgan g‘oya shundaki, “ijtimoiy barqarorlik” va “barqaror rivojlanish” tushunchalari ushbu holatga erishishning muhim omillari – davlat, jamiyat va din o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik, uyg‘unlik va hamkorliksiz mumkin emasligini to‘g‘risidagi g‘oyadir. Ayniqsa yaqin o‘tmishda din ijtimoiy va shaxsiy hayotdan batamom siqib chiqarilgan, diniy e’tiqod taqiqlangan, dahriylik mafkurasi hukmron bo‘lgan davrdan inson huquq va erkinliklari konstitutsiyaviy jihatdan ta’minlangan va kafolatlangan yangi, demokratik jamiyat hayotiga o‘tayotgan mamlakatimiz uchun din, davlat va jamiyat o‘rtasida o‘zaro muvozanatga erishish, yangi hayot qurish yo‘lida hamkorlikka, hech bo‘lmasa o‘zaro konsensusga erishish muhim masalalardan biriga aylandi.

**Tadqiqot natijalari:**

Din masalasida muammo birmuncha mushkul – inson ayni vaqtda dindor va dinga betaraf bo‘la olmaydi. Sekulyarizmning O‘zbekistonda amal qilishining nozik va qaltis jihati ham aynan shunda – fuqaro to‘laqonli dindor ham va diniy e’tiqodsiz ham emas. Biroq kundalik hayotda, jamiyatda islom odatlari, qadriyatlari asosida hayot kechirishga majbur. Bu holatni taniqli davlat arbobi, Eron islom respublikasi prezidenti, yirik diniy ulamo Muhammad Hotamiyning “Islom, dialog va fuqarolik jamiyati” nomli risolasida bayon qilingan fikrlar vositasida anglab yetish mumkin [1]. Postsovet ijtimoiy makonida, dahriylik mafkurasi deyarli bir asr hukmron bo‘lgan makonda shakllangan bugungi O‘zbekiston fuqarosi uchun sekulyarizm nima, uning ma’naviy dunyosi uchun qanday ahamiyati borligini ushbu risolada bayon qilingan fikr-mulohazalar vositasida anglab yetish mumkin. Ushbu fikr-mulohazalar siyosiy tabiatga ega, ular diniy bag‘rikenglikning istiqbolini tasavvur qilishga ko‘maklashadi, mohiyatini yoritadi.

Diniy bayram va tantanalarda davlat rahbarlarining ham diniy marosimlarda ishtirok etishi – o‘z xalqi va uning diniy e’tiqodiga cheksiz hurmat va ehtiromning ifodasidir. Mustaqil O‘zbekiston siyosiy yetakchilari ham ushbu yo‘ldan bormoqdalar, din muammolariga muntazam e’tibor bermoqdalar. Biroq masalaning dunyoviy, demokratik davlat rivojlanishiga salbiy ta’sir etuvchi jihati borki, u dinga, diniy e’tiqodga nisbatan siyosiy populizmni sekulyarizm prinsipi qabul qila olmaydi. Muammoning jiddiyligi shundaki, ko‘pmillatli va ko‘pkonfessiyali jamiyatlarda (multikonfessionalizm) biron bir dinga va diniy konfessiyaga alohida e’tibor yoki diniy konfessiya “siyosati”ni me’yordan ortiq qo‘llab-quvvvatlash dunyoviy taraqqiyotga soya soladi, istiqbolda diniy omillar jamiyatda ortib borishi, asta-sekin o‘z irodasini jamiyatga o‘tkaza olish imkoniyatiga yetaklaydi.

Masalan, 2021 yil iyul oyida Oliy Majlis “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunga o‘zgartirishlar kiritdi. Bunday o‘zgartirishlar 1991 yil qabul qilingan ushbu qonunga 1998 yil 1 mayda kuchga kirgan o‘zgartirishlarning davomi bo‘ldi. Bu o‘zgartirishlar davlatning dinga oid siyosatidagi olg‘a bir qadamni yoki bir qadam chekinish ekanligini siyosiy tahlil qilish lozim. Bizning xavotirlanishimizning boisi – ko‘pkonfessiyali va ko‘pmillatli jamiyatda huquqiy plyuralizmning asta-sekin shakllanishidir. Shariat va dunyoviy qonunlar o‘zaro to‘qnashuvi muqaddam kuzatilgan. Masalan, Rossiya Federatsiyasining Tatariston davlatida fuqarolik pasportiga ayollarning boshlarida ro‘mol bilan rasmga tushishi masalasi keng muhokama va munozaralarga sabab bo‘lgan edi.

Bizning fikrimizcha, “turmush islomi” va “siyosiy islom”ni bir-biriga qarshi qo‘yish noto‘g‘ri. Gap shundaki, “turmush islomi” sekulyarizm biryoqlama bo‘lganda dogmatik sekulyarizm siyosati maydonida “siyosiy islom” uchun muqaddima bo‘lib xizmat qiladi. Bu – “sekulyarizm” tushunchasining mazmunan xilma-xilligi va ko‘pqirrali ekanligidan dalolatdir. Ikkinchi tomondan esa O‘zbekistonda “sekulyarizm” uzoq tarixga ega emas. U sovet davri, ateizm mafkurasi bilan bog‘liq. Taniqli fransuz sotsioantropologi Habiba Fatxi (IFEAC)

ta’kidlashicha, sekulyarizm deganda bugungi O‘zbekistonda dinni davlatdan ajratish deb tushunadilar [2]. Ushbu muallifning ta’kidlashicha, diniy e’tiqod va diniy ta’limotlarga bo‘ysunish ko‘p hollarda ijtimoiy bahslardan qo‘rquv hissi asosidagina mavjud. Masalan, o‘zini musulmon deb biluvchi fuqarolarning aksariyati islom farzlariga (namoz va h.k.) amal qilmaydilar, faqat ijtimoiy qoralashdan hadiksirashgina ularni islom odatlariga beixtiyor rioya etishlariga olib keladi. Ushbu olimaning fikriga qo‘shilish ham, qo‘shilmaslik ham mumkin, uning fikrida muayyan inkor etish qiyin jihatlar bor. Shu bois ko‘pchilik fuqarolarimizda surrogat diniy dunyoqarash mavjud, ular sobiq tuzum diniy siyosati ta’siridan hanuz qutula olmaganlar.

Hotamiy din va erkinlikni bir-biriga qarshi qo‘yish ham xatarli ekanligini ta’kidlaydi. U bugungi G‘arbiy Yevropada inson erkinligini dinga qarama-qarshi qo‘yish oqibatida G‘arb jamiyatida kuzatilayotgan ma’naviy inqirozni misol qilib ko‘rsatadi. Uningcha, Alloh insonga aql-tafakkur in’om qilgan va inson o‘ziga o‘xshagan mavjudotlar bilan o‘zaro bag‘rikenglikda, tinch-totuv yashashi lozim. Bu – Alloh irodasidir. Hotamiy dinni jamiyat hayotida cheklash mudhish oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ta’kidlaydi.[22]

**Xulosalar:**

Adolat yuzasidan xolisona aytish mumkinki, ushbu allomaning mulohazalarida jon bor. Masalan, sho‘rolarning dogmatik sekulyarizmga asoslangan dinga oid siyosati sovet kishilarida ma’naviyatning an’anaviy taraqqiyot o‘zagidan chetga chiqishiga olib keldi, fuqarolarning ateistik tarbiya ta’sirida na diniy va na dunyoviy qonunlarga itoat etish immuniteti, vijdoni zaiflashdi. Vijdon degani – insonning ichki hakami, u inson xatti-harakati va xulq-atvorining qandaydir baholovchi kuch (Alloh) yoki dunyoviy qonun vositasida ijtimoiy baholanishi mumkinligi to‘g‘risitdagi tuyg‘u va tushunchadir. “Vijdon erkinligi” shu bois qandaydir mustahkam, xolis mezonga, o‘lchov, tosh-taroziga aylanishi lozim. G‘arb sivilizatsiyasida vijdon erkinligi liberal demokratiya mafkurasi asosida amal qiladi. Natija ma’lum – bugun G‘arb jamiyatida bir jinsli

[22] Хатами Мохаммад. Ислам, диалог, гражданское общество... – С. 11.

nikoh, transseksualizm va h.k. jirkanch, tabiat nuqtai nazaridan ham, din nuqtai nazaridan ham nomaqbul, g‘ayriaxloqiy hodisalar ommalashmoqda. G‘arbda cherkov ham bunday axloqsizlarga e’tiroz bildirmoqda, bunday qilmishlarning Yaratgan irodasiga zid, gunoh ishlar ekanligini ta’kidlamoqda.

**Adabiyotlar:**

1. Xatami Moxammad. Islam, dialog, grajdanskoe obshestvo. – M.: «Rossiyskaya politicheskaya ensiklopediya», 2001. – 240 s.

2. Xabiba Fatxi. Islam vo Fransii i v Uzbekistane: dva primera svetskosti // Svetskost i religiya v musulmanskix stranax: poisk ratsionalnogo sootnosheniya. Pod red. Z.I.Munavvarova i R.Y. Krumm. – T., 2005. – S. 78.

3. Ataxanov B.T. O‘zbekiston va Belarus davlatlarining hamkorlik aloqalari va ularning huquqiy asoslari // O‘tmishga nazar. – 2021. – B. 18–23.

4. Ataxanov B.T. Mustaqillikning ilk yillarida O‘zbekistonning Belarus Respublikasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlari // FarDU ilmiy xabarlari –Farg’ona, 2022. -№ 1. – B. 128-129.

5. Atakhanov B.T. Participation and cooperation of Uzbekistan and Belarus in the Shanhai cooperation organization // An international multidisciplinary research journal. Vol. 12, Issue 04, 2022. pp. 575-578. ((23) Scientific Journal Impact Factor) https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:ajmr&volume=11&issue=4&article=015.

6. Atakhanov B.T. The significance of official visits in the relations of Uzbekistan and Belarus. // International Conference on Innovations in Applied Sciences, Education and Humanitie. – Barcelona, Spain, 2022, pp. 116-120. https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/1117.

## III-SHO’BA: TA’LIM JARAYONIDA ESTETIK TARBIYA KLASTERLARINING INTEGRATIV OMILLARI

# BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARI O’QISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN MAXSUS YONDASHUVLAR

Abduvaliyeva Gulchexra Mamadjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
Mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Hozirgi davr shiddat bilan rivojlanmoqda, barcha sohalarda yaqqol ko’rishimiz mumkin. Ta’lim sohasini olib qaraydigan bo’lsak, boshlang’ich sinflarga qaratilgan e’tibor yuksak baholanadi. O’quvchilarga qaratilgan e’tibor insonni xursand qilmasdan qo’ymaydi. Ushbu maqolada ham buni ko’rishimiz mumkin. Maktab ta’limidagi o’zgarishlar, o’qish darslarining samaradorligini oshirish uchun nimalar qilish lozimligi, o’qituvchi ko’zlagan natijaga erishishi uchun qanday yondashish kerakligi to’g’risida aytib o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** PISA, TIMSS, PIRLS, Summativ, Formativ, Motivatsiya, Strategiya, Differensial, Individual, Ko'rgazma.

**Annotation:** The current era is rapidly evolving, and this is evident across all sectors. In the field of education, the focus on primary education is highly valued. The attention given to students is truly gratifying. This article also reflects this. It discusses the changes in school education, what needs to be done to enhance the effectiveness of lessons, and how teachers should approach achieving their desired outcomes.

**Keywords:** PISA, TIMSS, PIRLS, Summative, Formative, Motivation, Strategy, Differential, Individual, Exhibition.

**Аннотация:** В настоящее время наблюдается стремительное развитие во всех сферах жизни. Если рассматривать сферу образования, то внимание, уделяемое начальным классам, высоко оценивается. Внимание к ученикам не может не радовать. Это также видно в данной статье. В статье обсуждаются изменения в школьном образовании, что необходимо для повышения

эффективности учебных занятий и каким образом учителю следует подходить к достижению желаемых результатов.

**Ключевые слова:** PISA, TIMSS, PIRLS, Суммативный, Формирующий, Мотивация, Стратегия, Дифференциальный, Индивидуальный, Выставочный.

Maktab ta'limini rivojlantirish uchun 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-sonli qarorida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, o'quvchilar tarbiyasi va odob-axloqi, ularda vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashning vertikal tizimini ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Shuningdek, psixologlarning sifatini yaxshilash, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazini transformatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlar rejalashtirilgan. Ushbu qaror va farmon orqali O'zbekiston maktab ta'limi tizimini yanada rivojlantirish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston maktab ta’limi tizimida 2024-yilda ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident maktablari ta’lim dasturi 2024-yilda yana 1000 ta maktabda joriy etiladi. Bu maktablarda xorijiy dasturlar (A-level, IB) va xalqaro baholash tajribalari (PISA, TIMSS, PIRLS) bosqichma-bosqich joriy etiladi. Hokimlar bu maktablarning moddiy-texnik bazasini yaxshilashga mas’ul bo‘lishadi. 2024-yilning 1-yanvaridan boshlab maktablarda yangi baholash tizimi joriy qilinadi. Bu tizim o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini, tanqidiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini baholaydi. O‘zbekiston 2024-yilda birinchi marta xalqaro TALIS (Teaching and Learning International Survey) tadqiqotida qatnashadi. Ushbu tadqiqot o‘qituvchilar va maktab rahbarlarining kasbiy va pedagogik faoliyati, mehnat sharoiti va ta’lim muhitini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu islohotlar ta’lim sifatini oshirish, xalqaro tajribalarni joriy etish va o‘qituvchilarning malakasini oshirish maqsadida amalga oshirilmoqda. [xalq ta’limi nfo].

Maktablarda xorijiy baholash tizimining joriy etilishi ta'lim samaradorligini oshirish va o'quvchilarni amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishiga yordam beradi. Bu

tizim ikki asosiy turga bo'linadi: summativ va formativ baholash.1.Summativ baholash: Bu tizimda ma'lum bir davr yoki bob yakunida o'quvchilarning olgan bilimlari baholanadi. Ushbu baholash shakli nazorat ishlari shaklida o'tkazilib, o'quvchilarning umumiy bilim darajasini aniqlashga qaratilgan. 2. Formativ baholash: Bu tizimda o'quvchilar dars jarayonida doimiy ravishda baholanadi. Formativ baholashning asosiy maqsadi o'quvchilarning bilimlarini baholashdan ko'ra, o'qituvchilarning darsni qanday o'tganini aniqlash va dars jarayonini yaxshilash hisoblanadi.

O'zbekistonda yangi baholash tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. 2023-2024 o'quv yilidan boshlab, tajriba-sinov tariqasida tanlab olingan maktablarda bu tizim sinovdan o'tkazilmoqda. Ushbu islohotlarning maqsadi o'quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash, shuningdek, o'qituvchilarning dars berish metodikasini takomillashtirishdir.Yangi baholash tizimi, ayniqsa, xalqaro tajribalarni o'rganish va ulardan foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. Mazkur tizimning joriy etilishi o'qituvchilarni ham baholashga va ularning dars berish uslubini yaxshilashga yordam beradi [Gazeta.uz].

Yuqoridagi ushbu qaror va farmonlardan ko’rinib turuptiki, maktab ta’lim tizimi tubdan islohat qilinmoqda bunda asosiy e’tibor aynan boshlang’ich ta’limga qaratilganligi insoni quvontiradi. Kelajak avlodlarimiz har tomonlama bilimli, salohiyatli  yurtimizning ravnaqiga o’z hissasini qo’sha oladigan qilib tarbiyalasak bilim bersak albatta o’z natijasini beradi. Bunda boshlang’ich sinflarda o’qish darslarining samaradorligini oshirish maqsadida chet el xalqaro baholash tizimi alohida o’rin turadi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) dasturi o'qish samaradorligini oshirishga qaratilgan ko'plab resurs va uslublarni taqdim etadi. Bu dastur boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholashga qaratilgan yirik xalqaro baholash dasturidir. PIRLS o‘qituvchilar va ta’lim tizimiga muhim ma’lumotlarni taqdim etadi, bu esa ta’lim sifatini oshirishda

yordam beradi. PIRLS tadqiqoti o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini oshirish uchun bir qancha usullarni tavsiya etadi. Bular orasida o‘quvchilarning matnni o‘qish va tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan turli xil topshiriq va mashqlar muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, matnlarni tahlil qilish va o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga katta e’tibor beriladi. Bundan tashqari, PIRLS tadqiqotlari o‘quvchilarni o‘qishga jalb qilish uchun turli xil matn turlari bilan tanishtirishni tavsiya etadi. Bu matnlar turli janrlar va mavzularda bo‘lib, o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otishga va ularda o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi. Mazkur dastur bo‘yicha olingan natijalar ta’lim islohotlarini rejalashtirish va amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatlar PIRLS natijalariga asoslanib, o‘z ta’lim tizimlaridagi zaif tomonlarni aniqlash va ularni yaxshilash bo‘yicha choralar ko‘rishi mumkin.

O’z o’rnida aytib o’tish lozimki, PIRLS baholash tizimi o’quvchilarning o’qish samaradorligini oshirishga va qay darajada o’zlashtirayotganini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi. PIRLS xalqaro baholash tizimi nafaqat o’quvchi uchun, balki o’qituvchi uchun ham bir qancha qulayliklar yaratadi. Hozirgi kunda o’quvchilar oldingilarga qaraganda ancha salohiyatli, buni dars jarayonlarida bilish mumkin. Chunki bolalarga maktabgacha ta’lim sohasiga e’tibor qaratilayotgani, bolalar ko’plab hayotiy bilimlarni maktabgacha ta’limda olayotganliklari, maktab o’qituvchilari uchun ham bir qancha yengilliklar yaratadi. O’quvchi maktabga bemalol yoza oladigan, hatto o’qiy oladigan bo’lib kelmoqda. Bunday holat o’qituvchi uchun yengillik hisoblanadi, desak adashmagan bo’lamiz. O’quvchi dastlabki o’qish jarayonlarini ilk savodini savod o’rgatish davridanoq boshlanadi. Bunda o’quvchining yoshiga mos alifbe darsligidan foydalanib savodi chiqariladi. Bu davrda maktabgacha ta’limiga borgan o’quvchi uchun oson, lekin maktabgacha ta’limiga bormagan o’quvchi uchun bir muncha qiyinchiliklar tug’dirishi tayin. Bu davrda o’quvchini dars jarayoniga qiziqtirish, darslarni har tomonlama yuksak darajada tashkil etish pedagogning mahoratiga bo’liq. O’qish samaradorligini

oshirish uchun turli yo'l va usullarni o'rganish, ularni dars mashg'ulotlarda qo'llay bilish kerak bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'qish samaradorligini oshirish uchun quyidagi xususiyatlarga e'tibor qaratishlari kerak:

Shaxsiylashtirilgan yondashuv: Har bir o'quvchining o'quv ehtiyojlari va qobiliyatlari turlicha bo'ladi. Shuning uchun, o'qituvchilar har bir o'quvchi uchun mos yondashuvlarni tanlashlari kerak. Shaxsiylashtirilgan yondashuv o'qish samaradorligini oshirishda juda muhim rol o'ynaydi. Bu yondashuv, o'quvchilarning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlariga mos ravishda ta'lim berishni nazarda tutadi. O'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash uchun testlar, baholashlar va o'z-o'zini baholash metodlari orqali individual tahlil o'tkaziladi. O'quvchilarning bilim darajasiga va o'rganish uslublariga qarab, o'qituvchilar darslarni moslashtiradilar. Masalan, ba'zi o'quvchilar vizual materiallarni afzal ko'rishsa, boshqalari yozma yoki tinglash orqali yaxshiroq o'rganishlari mumkin. O'quvchilarga o'z maqsadlarini aniqlashda va ularga erishish uchun rejalar tuzishda yordam berish. Shaxsiylashtirilgan yondashuv o'quvchilarga o'zlarining individual ehtiyojlariga mos ta'lim olish imkonini beradi.Bu esa o'qish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Motivatsiya va qiziqish uyg'otish: O'quvchilarning qiziqishini saqlab qolish uchun darslarni qiziqarli va interaktiv tarzda o'tkazish muhimdir. O'yinlar, hikoyalar va boshqa qiziqarli materiallar orqali ularni o'qishga jalb qilish kerak. Aniq va o'lchanadigan maqsadlarni belgilash motivatsiyani oshiradi. Maqsadlar kichik qadamlar bilan bo'linishi kerak, bu esa ularga erishishni osonlashtiradi. Shaxsiy rivojlanishga e'tibor berish va muvaffaqiyatlarni tan olish motivatsiyani kuchaytiradi. Har bir kichik yutuqni nishonlash va ijobiy fikr-mulohazalar berish motivatsiyani oshiradi.

Faol ishtirok: O'quvchilarning darsda faol ishtirok etishi ularning o'qish samaradorligini oshiradi. Savol-javob, munozaralar va guruhda ishlash usullaridan foydalanish tavsiya etiladi. Faol ishtirok etish orqali darsda o'rganilgan materialni

yaxshi tushunib, eslab qolishingiz osonlashadi. Dars davomida faol ishtirok etish, o'z fikrlaringizni aniq va ravon ifoda qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Differensial ta'lim: O'quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olib, turli darajadagi vazifalarni berish. Bu ularga o'z qobiliyatlari darajasida ishlash imkoniyatini beradi. Differensial ta'lim, shaxslarning turli o'rganish uslublariga, tezliklariga va qobiliyatlariga moslashtirilgan ta'lim usullaridan foydalangan holda ta'lim berishni anglatadi. Ushbu yondashuv har bir o'quvchining kuchli va zaif tomonlarini hisobga olgan holda, ularning eng samarali tarzda o'rganishini ta'minlaydi.

O'qish strategiyalarini o'rgatish: O'quvchilarga samarali o'qish texnikalarini o'rgatish, masalan, asosiy g'oyalarni ajratib olish, qayta ko'rib chiqish va xulosa chiqarish. PIRLS tadqiqoti o'quvchilarning matnni tushunish va undan ma'lumot olish qobiliyatlarini baholashga qaratilgan. Bu strategiyalar aniq ma'lumotlarni topish, xulosalar chiqarish, ma'lumotlarni talqin qilish va sintez qilish, shuningdek, matn tuzilishi va til xususiyatlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari ushbu yondashuvlarni qo'llagan holda, o'quvchilarning o'qish samaradorligini sezilarli darajada oshirishlari mumkin. [ "PIRLS 2016 International Results in Reading" (International Association for the Evaluation of Educational Achievement - IEA)].

Ko'rgazmalilik holati me'yor darajasida bo'lgan, o'quvchining yoshiga mo'ljallab shakllantirilgan rag'bat kartochkalari o'rganuvchining faolligini yana ham oshirishi tabiiy hol.Darsning boshlang'ich nuqtasi qanday chiroyli boshlangan bo'lsa, uning yakuni ham ta'sirli tugashi lozim. Vaqti-vaqti bilan didaktik vosita sifatida ko'rgazmali shaklda mashg'ulotni yakunlash ham o'ziga xos usul hisoblanadi. Ya'ni bunda o'quvchilar mashg'ulotdan olgan taassurotlarini, maslahatlarini, taklif-mulohazalarini, o'z fikrlarini, o'qituvchiga istaklarini didaktik vosita sanaluvchi "Samimiy tilaklar va takliflar savatchasi"da qoldirishsa, o'qituvchi ularni kelgusi darsda inobatga olishida, e'tibor qilmagan o'rinlarini bilib olishida, o'z ustida ishlashida qo'l keladi. Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida

tashkil qilingan til ta’limi mashg'ulotlarida o'quvchilarga insonparvarlik ruhidagi 2-3 daqiqalik videoroliklar namoyish qilish va ko'rsatilgan tasvirlar asosida matn yaratishlarini topshiriq qilish mumkin[ Sobirova, M.Y. (2023)].

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi zamonni texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shuning uchun o‘qish darslarini samarali yakunlayman degan o‘qituvchi har bir tomondan kuchli bo‘lishi kerak. Bilim jihatidan kuchli, mahoratli, kompyuter texnologiyalaridan foydalana oladigan va darsning mazmunini yoritib bera oladigan bo‘lishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "PIRLS 2016 International Results in Reading" (International Association for the Evaluation of Educational Achievement - IEA).

2. Sobirova, M. (2023). Teaching language phenomena through text analysis on the basis of anthropocentric approach. International bulletin of applied science and technology.

3. Sobirova, M. (2023). Обучение языковым явлениям на основе анализа текста. “Этнокультурный и социолингвистический аспекты в теории и практике преподавания языков в негуманитарных вузах” mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Минск, 30 март 2023 й., – В. 299-302.

4. Sobirova, M. (2022). In imparting humane education use of integrated technology. In Volume 8, Issue 1, of JournalNX-A Multidiscip- linary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230

## Dizayn fikrlashning kelib chiqish tarixi

Asqarov Behzod Baxtiyor o‘g‘li

NamDU tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dizayn fikrlashning kelib tarixi va rivojlanish masalalari haqida fikr yuritilgan

**Kalit so‘zlar:**dizayn fikrlash, kreativ fikrlash, ijodiy jarayon, markazli yondashuv, ta’lim, texnologiya

**Аннотация**: В данной статье рассматриваются вопросы истории возникновения и развития дизайн-мышления

**Ключевые слова**: дизайн-мышление, креативное мышление, творческий процесс, централизованный подход, образование, технология

**Abstract:** This article explores the significance and developmental stages of design thinking in education

**Keywords:** design thinking, creative thinking, creative process, centralized approach, education, technology

**Kirish:** Dizayn fikrlash (Design Thinking) – bu muammolarni innovatsion, ijodiy va foydalanuvchi markazli yondashuv bilan hal qilish usulidir. Uning maqsadi – yangi g‘oyalarni yaratish va murakkab masalalarni noan'anaviy yechimlar bilan hal qilishdir. Dizayn fikrlash kontseptsiyasi dastlab dizayn sohasi bilan bog‘liq bo‘lib, keyinchalik biznes, ta’lim va texnologiyalarda keng qo‘llanila boshlandi. Ushbu maqolada dizayn fikrlashning kelib chiqish tarixi va rivojlanish jarayoni ko‘rib chiqiladi.

Dizayn fikrlashning kelib chiqishi

Dizayn fikrlash yondashuvi o‘zining ilk rivojlanishini XX asrning o‘rtalariga borib taqaladi. Ilk bor dizaynerlar va muhandislar muammolarni yechishda ijodiy jarayonlarni qo‘llashni boshladilar. Ushbu jarayonni tizimli o‘rganish va umumlashtirish natijasida dizayn fikrlash metodikasi shakllana boshladi.

1. 1940–1960-yillar – Kreativ muammolarni hal qilish. Ilk yondashuvlar dizaynerlar va muhandislar tomonidan kreativ fikrlash orqali murakkab muammolarni hal qilish uchun qo‘llanilgan. Amerikalik muhandis Genrich Altshuller “Invention Algorithm” (TRIZ) metodologiyasini ishlab chiqib, kreativ fikrlashni tizimlashtirishga harakat qildi.

2. 1969-yil – Herbert A. Simonning “The Sciences of the Artificial” kitobi chop etildi. U muhandislik va dizayn jarayonlari haqida tizimli fikrlashni rivojlantirishga asos soldi. Simon dizayn jarayonini mantiqiy bosqichlarga bo‘ldi va uni ilmiy asoslar bilan bog‘ladi. Bu esa dizaynni faqat vizual estetika bilan

emas, balki murakkab muammolarni hal qilish metodikasi sifatida ko‘rishga yo‘l ochdi.

3. 1970–1980-yillar – Bu davrda dizayn fikrlashning nazariy asoslari kengaydi. Ingliz olimi Nigel Cross dizaynni ilmiy tadqiqot sifatida o‘rganishni ilgari surdi va dizayn fikrlashning metodologik asoslarini ishlab chiqdi. Bu yondashuv “design methods movement” deb nomlandi va bu harakatda dizaynni muammolarni hal qilish jarayoni sifatida tadqiq qilish asosiy maqsad qilib belgilandi.

Dizayn fikrlashning rivojlanishi

1. 1980-yillar oxiri – 1990-yillar – Dizayn fikrlash konsepsiyasi korporativ muhitga kirib keldi. Xususan, IDEO dizayn agentligi dizayn fikrlash metodikasini keng ommaga joriy qildi. IDEOning asoschisi David Kelley dizayn fikrlash jarayonini takomillashtirdi va u inson markazli yondashuvga asoslangan holda ijodiy yechimlarni topishga yo‘naltirildi.

2. 2000-yillar – Dizayn fikrlash global miqyosda keng tarqala boshladi. Tom Brown (IDEO rahbari) 2009-yilda “Change by Design” kitobini nashr etdi va dizayn fikrlash yondashuvini keng ommaga tushunarli qilib izohladi. U bu jarayonni biznes, ta’lim va boshqa sohalarda qanday qo‘llash mumkinligini ko‘rsatdi. Shundan so‘ng dizayn fikrlash nafaqat dizaynerlar, balki boshqa sohalardagi mutaxassislar orasida ham mashhurlashdi.

3. Ta’limda qo‘llanilishi – XXI asr boshlarida dizayn fikrlash ta’lim tizimiga ham kiritila boshlandi. Bu yondashuv talabalarda kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun juda muhim sanaladi. Dizayn fikrlashni ta’limda qo‘llash orqali talabalarga real hayotdagi muammolarni hal qilish ko‘nikmalari beriladi. Ushbu jarayon davomida o‘qituvchilar ham yangicha pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan.

Dizayn fikrlashning asosiy bosqichlari

Dizayn fikrlash jarayoni beshta asosiy bosqichdan iborat:

1. Empatiya – Foydalanuvchilarning ehtiyojlarini, muammolarini va qiyinchiliklarini chuqur tushunish.

2. Muammoni aniqlash – Muammoning aniq chegaralarini belgilash va to‘g‘ri talqin qilish.

3. G‘oyalar ishlab chiqish – Ijodiy jarayon orqali turli xil g‘oyalarni ishlab chiqish.

4. Prototip yaratish – Dastlabki g‘oyalarni amalga oshirish uchun moddiy yoki raqamli prototiplar yaratish.

5. Sinovdan o‘tkazish – Prototiplarni amalda qo‘llash va foydalanuvchi tajribasi asosida ularni takomillashtirish.

**Xulosa:** Dizayn fikrlash bugungi kunda ijodiy va tanqidiy yondashuvlar asosida innovatsiyalar yaratishda eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Uning kelib chiqishi XX asrning o‘rtalaridan boshlangan bo‘lsa-da, bu yondashuv 2000-yillarga kelib keng tarqaldi va ko‘plab sohalarda amalda qo‘llanilmoqda. Dizayn fikrlash inson markazli yondashuvga asoslanib, murakkab muammolarni yechish, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va foydalanuvchilar ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Simon, H. A. (1969). The Sciences of the Artificial. MIT Press.

2. Brown, T. (2009). Change by Design: How Design Thinking Transforms Organizations and Inspires Innovation. HarperBusiness.

3. Cross, N. (1982). Designerly Ways of Knowing. Design Studies, 3(4), 221-227.

4. Kelley, T., & Littman, J. (2001). The Art of Innovation. Doubleday.

5. Buchanan, R. (1992). Wicked Problems in Design Thinking. Design Issues, 8(2), 5-21.

6. Verganti, R. (2009). Design Driven Innovation: Changing the Rules of Competition by Radically Innovating What Things Mean. Harvard Business Press.

7. IDEO.org (2015). The Field Guide to Human-Centered Design. IDEO.org.

# ALISHER NAVOIY G‘AZALLARI YOSHLARNING ESTETIKASI VA ETIKASINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

**G‘aybullayeva Fotima Xayrullo qizi**

Namangan davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

**Annotatsiya***:* ushbu maqolada Navoiy asarlarining estetik va etik jihatlari, shuningdek, yoshlar tarbiyasidagi o‘rni tahlil qilinadi. Navoiy g‘azallaridagi go‘zallik, ma’naviyat va axloqiy qadriyatlar yosh avlodning estetik didini shakllantirishda va axloqiy muammolarni hal etishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Ularning musiqiy ritmi va melodiya bilan uyg‘unligi, shuningdek, g‘azallarning o‘zbek milliy musiqa san’atiga qo‘shgan hissasi, yoshlarning badiiy va ruhiy tarbiyasini boyitishga qaratilgan. Maqola, shuningdek, Navoiy merosining zamonaviy kontekstda qanday ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi, bu esa yoshlarning estetik va etik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** estetika, etika, yoshlar tarbiyasi, milliy musiqa san’ati, o‘zbek musiqa madaniyati, Navoiy merosi, musiqa va she’riyat, san’at va tarbiya, o‘zbek adabiyoti, g‘azal, ma’naviy meros, klassik musiqa, madaniy meros, tarbiya omili.

**Аннотация***:* в данной статье анализируются эстетические и этические аспекты творчества Навои, а также их роль в воспитании молодежи. Красота, духовность и нравственные ценности в газелях Навои служат важным фактором формирования эстетического вкуса молодого поколения и решения нравственных проблем. Их гармония с музыкальным ритмом и мелодией, а также вклад газелей в узбекское национальное музыкальное искусство направлены на обогащение художественного и духовного воспитания молодежи. В статье также показано, насколько актуально наследие Навои в современном контексте, служащее развитию эстетических и этических навыков молодежи.

**Ключевые слова***:* эстетика, этика, воспитание молодежи, национальное музыкальное искусство, музыкальная культура Узбекистана,

наследие Навои, музыка и поэзия, искусство и образование, узбекская литература, газель, духовное наследие пословиц, классическая музыка, культурное наследие, образовательный фактор.

***Abstract:*** this article analyzes the aesthetic and ethical aspects of Navoi's works, as well as their role in youth education. Beauty, spirituality and moral values in Navoi's ghazals serve as an important factor in shaping the aesthetic taste of the young generation and solving moral problems. Their harmony with musical rhythm and melody, as well as the contribution of ghazals to the Uzbek national music art, is aimed at enriching the artistic and spiritual education of young people. The article also shows how Navoi's legacy is relevant in the modern context, which serves to develop the aesthetic and ethical skills of the youth.

***Key words:*** aesthetics, ethics, youth education, national music art, Uzbek music culture, Navoi's heritage, music and poetry, art and education, Uzbek literature, ghazal, proverb spiritual heritage, classical music, cultural heritage, educational factor.

**Kirish.**

Alisher Navoiyning g‘azallari yoshlarning estetikasi va etikasini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Uning ijodi nafaqat adabiy, balki tarbiyaviy qiymatga ham ega. G‘azallari orqali Navoiy hayotning go‘zalligi, muhabbat, insoniylik va axloqiy qadriyatlarni o‘ziga xos uslubda ifoda etadi, bu esa yosh avlod uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi.

1. Estetik tarbiya: Navoiy g‘azallaridagi badiiy ifoda va tasvirlar yoshlar estetik didini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. U nozik tuyg‘ularni go‘zal so‘z bilan tasvirlaydi, shu orqali yoshlarni san’at va badiiy ijodga yaqinlashtiradi. Uning she'riy tili nafislik va ma'nodorlik bilan yo‘g‘rilgan bo‘lib, yosh avlodda til va adabiyotga qiziqishni oshiradi.

2. Etik tarbiya: Navoiy g‘azallari axloqiy tarbiya berishda ham muhim manba hisoblanadi. Uning asarlarida halollik, mehr-muhabbat, sabr-toqat, insoniylik, do‘stlik kabi fazilatlar targ‘ib qilinadi. Yoshlar Navoiy she’riyatini

o‘rganar ekan, ularning shaxsiy rivojlanishiga, odob-axloq me’yorlariga e’tiborli bo‘lishlariga ta’sir ko‘rsatadi.

3. Sevgi va insoniylik qadriyatlari: Navoiyning sevgi mavzusidagi g‘azallari sof, pokiza sevgi va insoniy munosabatlar go‘zalligini ulug‘laydi. Bu yoshlarni sevgi va hurmatga asoslangan munosabatlarni qadrlashga o‘rgatadi. G‘azallardagi chuqur ma’no va tuyg‘ular yoshlarda hayotiy qadriyatlarni anglashni chuqurlashtiradi.

Umuman olganda, Alisher Navoiy g‘azallari yoshlarning estetik va etik tarbiyasida boy ma'naviy ozuqa bo‘lib, ularga insoniy fazilatlarni anglash va hayotga go‘zallik bilan qarashga yordam beradi.

***Alisher Navoiyning o‘zbek milliy musiqa san’atiga qo‘shgan hissasi va qoldirgan merosi.*** Alisher Navoiy o‘zbek milliy madaniyati va adabiyotiga bo‘lgani kabi, milliy musiqa san’atiga ham katta hissa qo‘shgan buyuk shoir va mutafakkirdir. Uning ijodiy merosi nafaqat she’riyat, balki musiqa bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘lib, Navoiy o‘z davrining musiqiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Quyida uning o‘zbek milliy musiqa san’atiga qo‘shgan hissasi va qoldirgan merosi haqida asosiy jihatlar ko‘rib chiqiladi.

***1. Maqomlar va musiqiy an’analar rivojiga ta’siri***

Alisher Navoiy zamonida musiqaning muhim yo‘nalishlaridan biri maqomlar edi. Navoiy maqom musiqa madaniyatini yaxshi bilgan va uni qo‘llab-quvvatlagan. U Husayn Boyqaro saroyida ijod qilgan paytda musiqiy san’atning gullab-yashnashiga hissa qo‘shgan. Maqom kuylari va ularning ifodaviyligi Navoiy she’riyati bilan uyg‘unlashib, zamon musiqachilari tomonidan ijro etilgan. Uning she’rlarida ko‘pincha musiqaga va kuylarga bo‘lgan hurmat ifodalanadi, shuning uchun Navoiy ijodiyoti musiqa madaniyati bilan yaqin aloqador bo‘lgan.

***2. Lirik she’rlar va musiqa***

Navoiy o‘zining ko‘plab lirik she’rlarini musiqaga mos tarzda yozgan. Uning g‘azallari va ruboiylari ko‘pincha kuy bilan birgalikda ijro etilgan. Xususan, Navoiy g‘azallari maqom ijrochiligi uchun ajoyib matn manbasi bo‘lib xizmat

qilgan. Musiqa bilan lirik she'riyatning uyg'unligi Navoiy she'rlarining musiqiy asarlar sifatida ham mashhur bo'lishiga imkon yaratdi. Bugungi kunda ham uning g'azallari musiqiy ijrochilar tomonidan kuyga solinib, xalq orasida ommalashgan.

***3. Musiqachilar va shoirlarning homiysi***

Alisher Navoiy Husayn Boyqaro saroyida faoliyat olib borib, saroydagi musiqachilar va shoirlarga homiylik qilgan. U musiqachilar uchun maxsus sharoit yaratgan va ularning ijodini qo'llab-quvvatlagan. Shuningdek, Navoiy musiqachilarga va musiqiy san'atning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratib, ularning madaniy hayotda muhim o'rin egallashlarini ta'minlagan. Shu tariqa, u musiqachilar va ijrochilar uchun rag'batlantiruvchi muhit yaratgan.

***4. Musiqiy terminlarni boyitish va ularning ma'nosini kengaytirish***

Navoiy o'z asarlarida ko'plab musiqiy terminlar va atamalarni ishlatgan. U she'rlarida musiqa va kuylar haqida so'z yuritib, musiqiy obrazlarni keng qo'llagan. Masalan, dutor, chang, rubob kabi milliy cholg'u asboblari Navoiy g'azallarida ta'riflanadi, ularning nafis ovozi va ta'siri yuksak qadrlanadi. Bu atamalar milliy musiqa madaniyatining so'z boyligini boyitgan va ularning xalq orasida keng tarqalishiga sabab bo'lgan.

***5. Musiqiy madaniyatning saqlanishi va targ'ibotiga hissa***

Navoiy ijodiy merosi orqali musiqiy madaniyat saqlanib qoldi va keyingi avlodlarga yetkazildi. Uning she'riyati xalqning musiqiy an'analarini saqlash va rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi. Navoiy ijodi milliy musiqa bilan uyg'unlashgan holda, asrlar davomida musiqachilar va xonandalar tomonidan e'zozlangan. Bugungi kunda ham Navoiy g'azallari asosida yaratilgan kuy va qo'shiqlar xalq orasida mashhur bo'lib qolmoqda.

***6. San'at va falsafa orqali musiqa bilan bog'liqlik***

Navoiyning musiqaga oid falsafiy qarashlari ham e'tiborga loyiqdir. Uning musiqani inson qalbi va ruhiyatini tarbiyalaydigan kuch sifatida ko'rishi, san'atning ma'naviy va axloqiy tarbiyadagi o'rnini tushunishiga bog'liq. Navoiy musiqani nafaqat zavq va ko'ngilochar vosita sifatida, balki insonni komillikka

yetaklovchi yo'l sifatida ko'rgan. Shu tariqa, u musiqa orqali ma'naviy va ruhiy o'sishga katta ahamiyat bergan.

Xulosa qilib aytish joizki Alisher Navoiy o'zbek milliy musiqa san'atiga katta hissa qo'shgan va bu san'atning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan shoirdir. Uning she'rlari musiqiy asarlar uchun matn manbasi bo'lib xizmat qilgan, maqom musiqa madaniyati rivojiga ko'maklashgan, musiqachilarni qo'llab-quvvatlagan va milliy musiqa merosini saqlashga hissa qo'shgan. Shu bilan birga, Navoiy musiqani inson ruhiyati va tarbiyasining ajralmas qismi sifatida qadrlagan, bu esa uning ijodiy merosida aks etgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Navoiy Alisher. MAT. 20 tomlik. 3-tom. G'aroyib us-sig'ar. -T.: Fan, 1988.
2. Navoiy Alisher. MAT. 20 tomlik. 4-tom. Navodir ush-shabob.-T.: Fan, 1989.
3. Navoiy Alisher. MAT. 20 tomlik. 5-tom. Badoye' ul-vasat. -T.: Fan, 1990.

## YANGI O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIK TUSHUNCHASI

Zarnigor Omonova Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
Boqijonova Ruxshona Namangan davlat pedagogika instituti talabasi
**Boqijonovaruxwona96@gmail.Com**

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqola Yangi O'zbekistonda gender tenglik tushunchasining rivojlanishi, hozirgi holati va kelajakdagi istiqbollari haqida batafsil tahlilni taqdim etadi. O'zbekistonning zamonaviy siyosiy va ijtimoiy kontekstida gender tenglikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan siyosat, qonunlar va jamiyatdagi gender roli ko'rib chiqiladi. Maqolada gender tenglikka ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy omillar, shuningdek, O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikdagi tashabbuslari tahlil etiladi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida statistika, so'rovlar va hujjatlarni tahlil

qilish usullari qo‘llanilgan. Tadqiqot natijalari, davlat tomonidan gender tenglikka oid siyosatlarning samarali amalga oshirilishi uchun kerakli choralar va tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

**Kalit so‘zlar:** Gender tenglik, O‘zbekiston, gender siyosati, ayollar huquqlari, ijtimoiy adolat, gender rollari, gender diskriminatsiya, xalqaro hamkorlik.

**Абстракт:** В данной научной статье представлен подробный анализ развития концепции гендерного равенства в Новом Узбекистане, ее нынешнего состояния и перспектив на будущее. В современном политическом и социальном контексте Узбекистана реализуемая политика, законы и гендерная роль в обществе считаются обеспечивающими гендерное равенство. В статье анализируются основные социальные, культурные и экономические факторы, влияющие на гендерное равенство, а также инициативы Узбекистана в сотрудничестве с международными организациями. В качестве методологии исследования использовались статистика, опросы и методы анализа документов. Результаты исследования включают необходимые меры и рекомендации для эффективной реализации государством политики гендерного равенства.

**Ключевые слова:** Гендерное равенство, Узбекистан, гендерная политика, права женщин, социальная справедливость, гендерные роли, гендерная дискриминация, международное сотрудничество.

**Kirish.**

Yangi O‘zbekiston davlatining ijtimoiy-siyosiy tizimi zamonaviy globallashuv jarayonlari va xalqaro me’yorlarga mos ravishda shakllanmoqda. Shu bilan birga, gender tenglikka oid siyosat va amaliyotlar mustahkamlanib borayotgan bo‘lsa-da, bu sohada hali ko‘plab muammolar va qarama-qarshiliklar mavjud. O‘zbekistonda gender tenglik faqat ayollarni ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda erkinlashtirishni emas, balki erkak va ayol o‘rtasidagi adolatli munosabatlarni o‘rnatishni ham nazarda tutadi. Ushbu maqolada gender tenglik

tushunchasining O‘zbekiston kontekstidagi o‘rni, rivojlanish jarayoni va davlatning bu sohadagi tashabbuslari tahlil qilinadi. Maqolada gender tenglikka oid mavjud qonunlar, normativ hujjatlar, xalqaro hamkorlikdagi tashabbuslar va jamiyatda gender tenglikni amalga oshirishga qaratilgan strategiyalar ham ko‘rib chiqiladi.

**Asosiy qism**

Gender tenglik — bu erkaklar va ayollar o‘rtasida barcha ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda teng imkoniyatlarni yaratish va ularning huquqlari, imkoniyatlari hamda mas’uliyatlarini teng ravishda taqsimlash jarayonidir. Gender tenglik faqat ayollarga nisbatan o‘zgarishlarni ta’minlashni emas, balki erkaklarning ham gender rolini qayta ko‘rib chiqishni anglatadi. Ushbu tushuncha har bir insonga uning jinsidan qat’i nazar, teng imkoniyatlarni taqdim etishga qaratilgan.

O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlash yo‘lidagi birinchi qonuniy qadamlari 1991-yilda mustaqillikni qo‘lga kiritganidan keyin boshlangan. Birinchi navbatda, O‘zbekiston o‘zining gender tenglik siyosatini davlatning iqtisodiy va siyosiy tizimlariga kiritish uchun xalqaro huquqiy me’yorlar bilan hamohang qonunlarni ishlab chiqa boshladi. 1992-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Ayollarni kamsitishni yo‘qotish haqidagi Konvensiyasini ratifikatsiya qilish orqali gender tenglik yo‘lidagi birinchi yirik qadamlar qo‘yildi [1].

Shundan so‘ng, O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida gender tenglikka qaratilgan bir qator hujjatlar, qonunlar va strategiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, “Ayollarni qo‘llab-quvvatlash va ularning iqtisodiy faolligini oshirish” bo‘yicha qabul qilingan davlat dasturlari, “Gender tengligi to‘g‘risida”gi qonunlar, va “Ayollarni ishlash va jamiyatda faol ishtirok etish huquqini ta’minlash” kabi yirik tashabbuslar o‘zbekistonlik ayollarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan.

O‘zbekiston jamiyatidagi gender tenglikni ta’minlashda ko‘plab ijtimoiy va iqtisodiy omillar mavjud.

An'anaviy gender rollari. O‘zbekistonda tarixan an’anaviy gender rollari qat’iy ravishda erkaklar va ayollarni o‘z o‘rnida ushlab kelgan. Ayollar odatda uy-ro‘zg‘or va farzand tarbiyasi bilan shug‘ullangan, erkaklar esa iqtisodiy faoliyat va siyosatda faol ishtirok etgan.

Ijtimoiy inshootlar va ta’lim tizimi. O‘zbekistonda ayollar uchun ta’lim olish imkoniyatlari kengaygan bo‘lsa-da, ba’zi hududlarda ayollar o‘qishdan voz kechishi yoki kasb-hunar olishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shuningdek, ayollarni ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat ko‘rsatishlariga qarshi turgan ijtimoiy stereotiplar ham mavjud.

Tadbirkorlik va ishga joylashish. Ayollarni ishga joylashtirishda ba’zi tarmoqlarda gender diskriminatsiyasi mavjud. Ayollar odatda past daromadli sohalarda ishlashga majbur bo‘lib, yuqori lavozimlarga ko‘tarilish imkoniyatlari cheklangan [2].

Garchi O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlash borasida muhim qadamlar tashlangan bo‘lsa-da, bu yo‘lda hali ko‘plab to‘siqlar mavjud. Ayollarni iqtisodiy faoliyatga jalb qilish, siyosiy lavozimlarga saylash va ularni yuqori ijtimoiy lavozimlarga ko‘tarish hamon past darajada qolmoqda. Shuningdek, genderga oid stereotiplar, oilaviy zo‘ravonlik va ayollarni huquqlari buzilishi kabi muammolar ham saqlanib qolmoqda.

**Tadqiqot metodi:** Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

Statistik tahlil. O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilgan davlat dasturlari va statistik ma’lumotlar tahlil qilindi.

So‘rovlar va intervyular. Jamiyatdagi gender tenglik holati haqida so‘rovlar va intervyular o‘tkazildi.

Huquqiy tahlil. O‘zbekistondagi gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan normativ hujjatlar va xalqaro huquqiy me’yorlar o‘rganildi.

**Natijalar**

Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy jihatlarni ko‘rsatdi:

Siyosiy va iqtisodiy islohotlar samarasi. O'zbekiston hukumatining gender tenglikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirgan islohotlari, ayniqsa, ayollarni iqtisodiy faollikka jalb qilish, ta'lim olish va ishga joylashish sohalarida ijobiy o'zgarishlarga olib kelgan. Ayollarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlari va qonunlar, ayollarni iqtisodiy mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Biroq, yuqori lavozimlarda va siyosatda ayollar soni hali ham past bo'lib qolmoqda.

Xalqaro hamkorlik va qabul qilingan me'yorlar. O'zbekistonning BMT kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi, gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan yurt ichidagi siyosat va dasturlarni kuchaytirishga yordam bermoqda. BMTning Ayollarni kamsitishni yo'qotish konvensiyasi bo'yicha amalga oshirilgan o'zgarishlar va kelajakda amalga oshirilishi kutilayotgan tashabbuslar, O'zbekistonni gender tenglik borasida global miqyosda yanada faol va mas'uliyatli ishtirokchiga aylantirishi mumkin [4].

Ayollarni siyosatga jalb etish. Ayollarni siyosiy hayotga kengroq jalb qilish va ularning hukumat organlarida vakillik darajasini oshirish bo'yicha ko'plab tashabbuslar mavjud. Biroq, bu borada aniq va keng qamrovli dasturlarni amalga oshirish hali cheklangan. Ayollarni siyosiy lavozimlarga saylashda ba'zi jamiyat qatlamlarining qarshiliklari va stereotipik fikrlari mavjud.

Tarbiyaviy va ma'rifiy ishlar. Gender tenglikni keng tarqatish va jamiyatda ayollarni faollashtirishda ta'lim va tarbiya tizimi muhim rol o'ynaydi. Ayollarni ijtimoiy va siyosiy faollikka rag'batlantirish uchun maktablar, universitetlar va oliy ta'lim muassasalarida gender tenglikni o'rgatishga alohida e'tibor qaratish zarur.

**Tavsiyalar**

Gender tenglikka oid ta'lim tizimini yanada rivojlantirish. Maktab va universitetlarda gender tenglikni ta'lim berish jarayoniga kirgizish, o'quv dasturlarida gender masalalariga oid mavzularni ko'proq yoritish kerak. Bu, yosh avlodda genderga nisbatan salbiy stereotiplarni kamaytirishga yordam beradi [5].

Ayollarning siyosiy ishtirokini oshirish. Ayollarni siyosatga va qaror qabul qilish jarayonlariga yanada ko‘proq jalb qilish uchun maxsus targ‘ibot dasturlari ishlab chiqilishi lozim. O‘zbekistonda ayollar uchun siyosiy lavozimlarga saylash va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish, siyosiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Genderga oid stereotiplarni bartaraf etish. Jamiyatdagi gender stereotiplarini kamaytirish va ularni bartaraf etish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilishi kerak. Bu nafaqat ayollar uchun, balki erkaklar uchun ham ahamiyatlidir, chunki ular ham an'anaviy gender rolaridan chiqib, yangi imkoniyatlarga ega bo‘lishlari lozim.

**Xulosa**

O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan siyosatlar va dasturlar muvaffaqiyatli rivojlanmoqda, ammo hali ko‘plab qiyinchiliklar va to‘siqlar mavjud. An'anaviy gender rollari, ijtimoiy stereotiplar, va ba’zi hududlardagi madaniy omillar, bu boradagi taraqqiyotni cheklayotgan omillardir. Biroq, O‘zbekistonning gender tenglikka oid xalqaro hamkorliklari, qonuniy islohotlari va davlat dasturlari orqali ijobiy o‘zgarishlarga erishish mumkin. Ayollarni siyosatga kengroq jalb qilish, ularning iqtisodiy faolligini oshirish, va genderga oid stereotiplarga qarshi kurashish bo‘yicha faol ishlash zarur. Shuningdek, gender tenglikni ta’minlash uchun ta’lim tizimi, ijtimoiy dasturlar va xalqaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT). (1979). “Ayollarni kamsitishni yo‘qotish bo‘yicha Konvensiya”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2019). “Ayollarni iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan davlat dasturi”.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2021). “O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlash to‘g‘risida”gi qonun.

4. Shamsutdinova, M. (2018). “O‘zbekistonda ayollar huquqlarini himoya qilish va gender tenglik”.

# NUTQ NUQSONIGA EGA BO'LGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN LOGORITMIK MASHG'ULOTLAR AHAMIYATI

G’oyipova Nodira Namangan davlat pedagogika instituti, stajyor o’qituvchi

Hoshimboyeva Ruxshona Namangan davlat pedagogika instituti, Logopediya yo’nalish 1 – kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nutq nuqsoniga ega bo’lgan bolalar, ulardagi nutq nuqsonlarini bartaraf qilishda amalga oshiriladigan logoritmik mashg’ulotlar tartibi, ular haqida ma’lumot va bularning ahamiyati haqida so’z boradi.

**Kalit so’zlar:** Korreksion pedagogika , Logopediya, Logopediyani o'rganish obyekti, I. M. Sechenov, L. V. Vigotskiy, V. I. Lubovskiy, profilaktik va kompleks korreksion, Rinolalik bolalar, yurish mashq , Artikulyasion mashq, dislaliya, «tovush», «so’z», «gap».

Istiqlol tufayli o’z mustail taraqqiyot yo’lidan borayotgan Respublikamiz yoshlarini yangicha ijtimoiy muhitga tayyorlash, davr ruhida tarbiyalash – shu kunning dolzarb va ustuvor vazifalaridan biridir. Hozirgi kunda Respulikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning taqdiri yoshlarning ma’naviy qiyofasiga shaxsiy barkamolligiga bog’liq. Vatanimiz taqdiri albatta yoshlarimiz qo’lida. Bolalarning mustaqil shaxs sifatida ulg’ayishi va kamol topishida pedagogika va logopediyaning ahamiyati kattadir.

Korreksion pedagogika fani rivojlanib borib, ayrim sohalari mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Shu fanlar jumlasiga logopediya ham kiradi. Logopediya (logos –so‘z, padeo –tarbiyalash, o‘rgatish degan ma’noni anglatadi) –pedagogik fanlardan biri bo‘lib, nutq kamchiliklari va ularning sabablarini o‘rganish, shuningdek, bularning oldini olish, nuqsonlami bartaraf etish uchun maxsus ta’lim tarbiya vositalari va metodlarini ishlab chiqish, amaliyotga tadbiq etish masalalari

bilan shug‘ullanadi.Logopediya –nutq buzilishlari haqidagi maxsus ta’lim va tarbiya vositasida nutq buzilishlarini o‘rganish, tuzatish va oldini olish haqidagi pedagogik fandir. [1. B. – 340.]

Logopediyani o'rganish obyekti — nutq nuqsoniga ega bo'lgan shaxs. Adabiy tilda qabul qilingan nutq normasidan biroz bolsa ham chetga chiqish — bu nutq nuqsoni hisoblanadi. [2. B. – 3.]

Nutq buzilishining ko'pgina turlari markaziy asab tizimining organik shikastlanishi bilan bog'liq bo'lib, u logoped va nevropatolog-shifokor yoki psixonevrologning hamkorlikda ishlashi bilan aniqlanishi mumkin. Bolalarda nutq buzilishini yuzaga keltiruvchi sabablar ichida tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) omillar, shuningdek atrof-muhitning tashqi sharoitlari farq qilinadi. Nutqiy nuqsonning turli sabablarini ko'rib chiqishda evolyusion-dinamik yondoshiladi. Bu nuqsonning yuzaga kelish jarayonini tahlil qilishdan, anomal rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini va har bir yosh davrida nutqning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olishdan iboratdir (I. M. Sechenov, L. V. Vigotskiy, V. I. Lubovskiy). Bolalardagi nutqiy nuqsonlarning asosiy sabablari:

1. Embrion rivojlanish davridagi turli xil patologiyalar;

2. Xomiladorlik vaqtidagi toksikozlar, virusli va endokrin kasalliklar, jaroxatlar, qonning rezus-faktorga mos kelmasligi;

3. Tug'ruq vaqtidagi shikastlanish va asfiksiya;

4. Bola rivojlanishining birinchi yilidagi bosh miya kasalliklari (meningit, ensofalit).

5. Miyaning chayqalishi bilan birga sodir bo ladigan bosh miya jarohatlari.

6. Nasliy faktorlar.

7. Sotsial-maishiy sharoitning yomonligi. Bu holat pedagogik qarovsizlikka, vegetativ disfunksiyaga, emosionalirodaviy muhitning buzilishlariga va nutqning rivojlanmay qolishiga sabab bo ladi. Nutq nuqsonlarini bartaraf etishda bir qancha usullardan foydalanish mumkin.Logoped olib boradigan pedagogik tuzatish

ishning asosiy vazifasi bolalar nutqidagi nuqsonlar va ruhiy noto'kis jihatlarini bartaraf etish. [3.]

Logoritmik mashg’ilotlar bu bola nutqi rivojlanishiga yordam beradigan mashg’ulotlardir. Olib borilayotgan mashg‘ulotlar individual tarzda bo‘lib, 10-15 minutdan cho‘zilmasligi zarur. Mashg‘ulotlar maxsus jihozlangan, yorug‘ va iliq xonalarda olib boriladi. Mashg‘ulotlar bolaning uyqu va ovqatlantirishdan oldingi va keyingi soatlari ajratiladi. Mashqlar logoped rejasi asosida kun davomida onalar yoki tibbiy hodimlar tomonidan davom ettiriladi.

Ovoz tembrini tiklash tanglayning tug‘ma yoriqliklarda ovoz hosil bo‘lish mexanizmini aziyat chekishi bilan murakkablashadi, qaysiki yumshoq tanglayning inervatsiyasi ovoz burmalarining faoliyatiga ta’sir qiladi.

Korreksion ish ovoz va nutq hosil bo‘lishining butun tizimga ta’sir qilishini talab qiladi. Tanglay yoriqliklariga ega bolalarni patofiziologik o‘rganish ularda nafas olish, fonatsiya va artikulyasiyadagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlab, nutq strukturasi haqidagi tasavvurimizni kengaytirib, logopedik ishning bir muncha maqsadga qaratilgan metodlarini tanlash imkoniyatini berdi. O‘z vaqtida o‘tkazilgan profilaktik va kompleks korreksion tadbirlar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki faqat ulargina nuqsonning rivojlanishini susaytirib, tanglayni tug‘ma nuqsonlariga ega shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish imkoniyatlarini yarata olishlari mumkin.

Mashqlarni o‘z vaqtida olib borish, vaqtida e’tibor berilgan bemorlarda kamchiliklar bartaraf etilishi oson kechadi. Ular bilan logoritmik ish quyidagi tartibda korreksion-logoritmik ishlar olib boriladi:

- yuz mimik xarakatlarini rivojlantiruvchi mashklar – «Biz limon yeyapmiz», «Murabbo yeymiz» kabi;

- umumiy harakatlarni rivojlantiruvchi (motorika) mashqlari, umumiy motorikani rivojlantirish uchun turli xil harakatli o‘yinlar olinadi;

- nutq harakatlarini rivojlantiruvchi (motorika) turli artikulyatsion mashqlari, tanglay harakatchanligini oshiruvchi mashqlardan yo‘tal harakati, yutish, kuylovchi o‘yinlarni olish mumkin;

Foydalanilayotgan qo‘shiq unli tovushlardan iborat bo‘lishi kerak, masalan – poyezd qichqirmoqda – u-u-u; o‘rmonda adashib qoldik au-au-au; chaqaloq yig‘layapti – ua- ua-ua;

Rinolalik bolalarda logoritmik mashg‘ulot sho‘x musiqa ostida olib borilsa maqsadga muvofiqdir. Bolalar yurish mashqini bajarayotganda holati quyidagicha bo‘lishi kerak: boshi baland ko‘tarilgan, yelkalar tikka, qadam tashlaganda oyoq va qo‘l harakatlari bir – biriga mutanosib holda.

Kichik yoshdagi bolalar nutqini o’stirish vazifalari. Uch-besh yoshli bolalarda kattalarning mehriga, ularning tushunishiga va u bilan muloqot qilishiga ehtiyoj saqlanib qoladi. Kattalarga nisbatan ishonchga asoslangan muloqot va uning emotsional ahvolini (quvonch, zavq-shavq, qayg’u, xotirjamlik, jahldorlik va h.k.) his qilishga, kayfiyat o’zgarganligi sabablarini tushunishga qodirlik rivojlanadi. Kattalar bilan muloqotning yangi shakli – qiziqarli mavzularda muloqot qilish vujudga keladi va rivojlanadi. U dastlab kattalar bilan birgalikdagi bilish faoliyatiga (masalan, o’yin, predmetlar va o’yinchoqlar bilan tajriba o’tkazish, qog’ozdan va tabiiy materialdan narsa yasash va boshq.) qo’shilib ketgan, so’ngra, bola hayotining beshinchi yili oxiriga kelib muayyan vaziyat bilan bog’liq bo’lmagan bilish mavzularidagi «nazariy» muloqot ko’rinishiga ega bo’ladi.

O’rta yoshdagi bolalar nutqini o’stirish vazifalari. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarga ta‘lim-tarbiya berishda tevarak-atrof bilan tanishtirish va nutqni rivojlantirish bo’yicha olib boriladigan ishlar muhim o’rin egallaydi. Bu ishlar faqat mashg’ulotlardagina amalga oshirilmasdan, balki bolalarning kundalik hayotida ham, mehnat faoliyatida va o’yin faoliyatida amalga oshiriladi. Bolaning o’z qarindoshlari, qo’shni tengdoshlari shaxsiga va faoliyatiga qiziqishini qo’llab-quvvatlash, birgalikdagi o’yinlarda ularning dialogik nutqini yo’lga qo’yishga ko’maklashish; turli muloqot vositalari, ya‘ni so’z, yuz ifodasi (imo-ishora) dan

muayyan vaziyatni hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan holda foydalanishni o’rgatish; bolalarning ertak va kichik hikoyalarni so_zlab berishga qiziqishini qo’llabquvvatlash; bolani «tovush», «so’z», «gap» atamalari bilan tanishtirish kabilardan iborat. O’rta guruhda bolaning narsa (buyumlar) to’g’risidagi bilimlarini chuqurlashtirish bo’yicha mukammal ish olib borish ko’zda tutilgan. [4. B. – 18.]

Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan logoritmik mashg'ulotlar ahamiyati haqida gapiradigan bo’lsak ularning ahamiyati juda kattadir. Bilamizki har bir inson tug’ilishidan mukammal bo’lib tug’ilmaydi. Afsuski oramizda jismoniy va ruhiy jihatdan nuqsonli bo’lib tug’iluvchi bolalar ham mavjuddir. Hayotdagi ko’pchilik voqealar aynan nutqimiz orqali amalga oshiriladi. Har bir bolaning ham muvaffaqiyatga erishishi, o’z oldiga qo’ygan maqsadlarini amlaga oshirishda nutq katta ahamiyatga egadir. Hech bir inson hayotda o’z – o’zidan muvaffaiyotga erishib qolmaydi va albatta hammasi uzluksiz mashqlar orqali amalga oshiriladi. Nutq nuqsoniga ega bo’lgan bolalar bu mashqlarni uzluksiz bajarishi orqali o’z nutqidagi nuqsonlarni bartaraf qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda,logopedik mashg’ulotlarlar bolalarning jismoniy yetuk bo’lishi, aqliy va axloqiy jihatdan tarbiyalanishlari, shuningdek nutq nuqsonini bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalimova Ozoda Ma’murjon qizi. Logopediya va uning vazifalari. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida universal ta’lim faoliyatini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirsh nazariyasi va amaliyoti mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 2023-yil, 31-mart Namangan–2023
2. M.Y.Ayupova. Logopediya. O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent. 2007.

# TOVUSHLAR TALAFFUZIDAGI KAMCHILIKLARNI BARTARAF ETISHDA NAFAS MASHQLARINING AHAMIYATI

Namangan Davlat Pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi stajyor o'qituvchisi G'oyipova Nodira Baxtiyor qizi

Mamadaliyeva Maftunabonu Muzaffar qizi Namangan Davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika:logopediya yo'nalishi 1- kurs talabasi

E-mail: mamadaliyevamaftunabonu0@gmail.com

**Annotatsiya:** ushbu maqolani o'qish davomida siz talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari va bunda nafas mashqlarining ahamiyati haqida ma'lumot va bilimlarga ega bo'lasiz.

**Abstract:** while reading this article, you will gain information and knowledge about the ways to overcome pronunciation defects and the importance of breathing exercises in this.

**Аннотация :**читая эту статью, вы получите информацию и знания о способах преодоления дефектов произношения и значении в этом дыхательных упражнений.

**Kalit so'zlar:** talaffuzdagi kamchiliklar,nafas mashqlari

**Key words:**pronunciation defects, breathing exercise

**Ключевые слова:**дефекты произношения,дыхательные упражнения

Nutq inson hayotidagi eng zarur hodisalardan biri hisoblanadi. Agar inson nutqida,talaffuzida biror kamchilik bo'lsa insonlar bilan muloqotga kirishishda qiynaladi.Bunday hollarda logoped huzuriga borish va to'g'ri muolaja qilish tavsiya etiladi.

Talaffuz so'zlar yoki tillarning gapirish uslubini o'z ichiga oladi va u samarali muloqotda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Talaffuzga mintaqaviy,madaniy va individual omillar ta'sir qilishi mumkin buning natijasida so'zlarning talaffuzi turlicha bo'ladi.[1]Talaffuzdagi jiddiy nuqsonlardan biri bu duduqlanish hisoblanadi.

Duduqlanish nutqda tovushlar,bo'g'inlar yoki so'zlarning cho'zilishi bilan bog'liq.Duduqlanish insonning muloqotda ravonligiga va ishonchiga katta ta'sir ko'rsatadi va duduqlangan insonlar o'z fikr va g'oyalarini ifoda etishga qiynaladilar.

Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar nutq sistemasining boshqa tarkibiy qismlariga har xil darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ba’zi bolalarda talaffuz kamchiligi shunchaki bir nuqson bo‘lib, bola nutqining leksik, grammatik qismlarida, idrok etish layoqatida hech qanday kamchiliklar kuzatilmaydi. Biroq ko‘p hollarda, hattoki bittagina tovushning noto‘g‘ri talaffuzi ham nutq sistemasidagileksik hamda grammatik tomonlarga ta’sir ko‘rsatadi, natijada bola tovushni noto‘g‘ri idrok etadi, o‘xshash tovushlar bilan adashtiradi, yozish va o‘qish paytida ham xatolarga yo‘l qo‘yadi.Kelib chiqish sabablariga ko‘ra dislaliya mexanik, funksional xillarga bo‘linadi. Nutq apparatining tuzilishidagi o‘zgarishlariga aloqador talaffuz kamchiliklari mexanik dislaliyaga olib keladi, masalan, artikulatsion apparat tuzilishdagi o‘zgarishlar:tanglayning yoriq, til tagidagi yuganchaning kalta bo‘lishi, kichik (lak-luk)tilning ikkiga bo‘linganligi manqalanib gapirish,sirg‘aluvchi tovushlar, til oldi «r-l» sonor tovushlarning noto‘g‘ri talaffuz etilishiga sabab bo‘ladi. Noto‘g‘ri malakalar, masalan, kattalar nutqidagi talaffuz nuqsonlariga taqlid etish, til, lablarni noto‘g‘ri harakatlantirish odatlari va boshqalar mustahkamlanib, funksional dislaliyada nutq apparatining faoliyatida funksional o‘zgarishlar paydo qilgan bo‘ladi. Fiziologik dislaliya bola fiziologiyasiga bog‘liq. Kichik yoshdagi bolalarning nutq apparati yaxshi rivojlanmaganligi tufayli tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz etish hollari juda ko‘p uchraydi. Yoshi ulg‘ayib artikulatsion apparat rivojlanib borgan sayin bu nuqsonlar yo‘qolib boradi.Dislalik bolalarning qulog‘i yaxshi eshitadigan bo‘ladi, unda hech qanday kamchiliklar kuzatilmaydi. Nutqni fonematik jihatdan eshitish, ya’ni tovushlarni bir-biridan ajrata bilish layoqati esa rivojlanmagan bo‘lishi mumkin.Amaliyotda eng ko‘p noto‘g‘ri talaffuz etiladigan tovushlar asosan quyidagilardir: sirg‘aluvchilar – 46 foiz (sh, j, ch – 24 foiz. Til orqa tovushlari (k, g, ng, chuqur til orqa tovushlari (q, g‘, h ham ko‘pincha buzib talaffuz etiladi.Unli

tovushlarning deyarli hammasi to'g'ri talaffuz etiladi.Talaffuzdagi kamchiliklar o'z xarakteriga ko'ra logopediyada fonetik va fonematik (antropofonik va fonologikF kamchiliklarga bo'linadi.Tovushlarni tushirib ketish, noto'g'ri talaffuz etish – bu fonetik xarakterdagi kamchilikdir. Bir tovushni ikkinchi boshqa bir tovush bilan almashtirish, aralashtirish – fonematik xarakterdagi kamchilik bo'lib hisoblanadi.

Agar kishi talaffuzida kamchiliklar bo'lsa, eng avval noto'g'ri talaffuz etiladigan tovushni to'g'ri talaffuz etishga o'rgatish, ya'ni tovush talaffuzini yo'lga qo'yish, uning postanovkasi ustida ish olib boriladi.

O'rganilgan yangi tovushni bo'g'in, so'z, gaplarda, she'rlarda va umuman nutq faoliyatida to'g'ri qo'llashga o'rgatish – tovushning avtomatizatsiyasidir.

Yangi o'rganilgan tovushni boshqa o'xshash tovushlardan ajrata bilishga o'rgatish – differensiatsiya to'rtinchi bosqich sifatida o'tkaziladi.

Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda nafas mashqlarining ahamiyati juda katta. Nafas mashqlari nafaqat ovoz sifatini yaxshilash, balki talaffuzni aniq va to'g'ri qilish uchun zaruriy shartlar yaratadi.

1. Ovoz kuchini oshirish: To'g'ri nafas olish, ovozni kuchli va aniqlik bilan chiqarishga yordam beradi.

2. Barcha tovushlarni ishlab chiqarish: Nafas mashqlari, ayniqsa diafragma orqali nafas olish, tovushlarni aniq talaffuz qilish imkonini beradi.

3. Stressni kamaytirish: Nafas mashqlari stressni kamaytiradi, bu esa umumiy ovoz chiqish sifatini yaxshilaydi.

4. Konsonant va vokal farqlari: Nafas texnikalari yordamida konsonant va vokal tovushlarining to'g'ri chiqarilishi uchun zarur bo'lgan barqarorlik va aniqlikni ta'minlaydi.Umuman olganda, nafas mashqlari talaffuzni yaxshilash va o'z-o'zini ifoda etishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda nafas mashqlari talaffuzni yaxshilash va o'z-o'zini ifoda etishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu mashqlar nafaqat ovoz sifatini oshiradi, balki

umumiy nutq faoliyatini ham yaxshilaydi. Nutq kamchiliklarini bartaraf etish uchun logopedik muolajalar bilan birga nafas mashqlarini kiritish muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Paulston, Christina Bratt; Tucker, G. Richard „Some Sociolinguistic Principles“,Sociolinguistics: The Essential Readings. Wiley-Blackwell, February 14, 2003 — 234–250-bet. ISBN 0-631-22717-2.

2. V.S.Raxmanova "Defektologiya asoslari(korreksion pedagogika)" kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma.

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA SHAXSLARARO MUNOSABAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Nuriddinova Diyora Isaqali qizi
University of Bussines and
Science o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bo‘lajak o‘qituvchilarda shaxslararo munosabat takomillashtirishni taqozo etadi.

**Kalit so‘zlar:** Shaxslararo munosabat, an’ana, urf-odat, kompetensiya, kooperatsiya, jamiyat, axloq-odob, monolog, dialog, polilolog, muloqot.

**Аннотация:** Данная статья требует выяснения педагогических и психологических особенностей развития культуры межличностных отношений у будущих учителей, совершенствования технологии развития культуры межличностных отношений как условия успешной профессиональной адаптации в педагогическом коллективе.

**Ключевые слова:** Межличностные отношения, традиция, традиция, компетентность, сотрудничество, общество, этика, монолог, диалог, полиология, общение.

**Abstract:** This article requires clarifying the pedagogical and psychological features of the development of the culture of interpersonal relations in future teachers, improving the technology of developing the culture of interpersonal relations as a condition for successful professional adaptation in the pedagogical team.

**Key words:** Interpersonal relationship, tradition, tradition, competence, cooperation, society, ethics, monologue, dialogue, polyology, communication.

Jamiyat rivojining yangi bosqichida boshlang‘ich ta’lim oldida turgan muhim vazifa o‘qitish tizimini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirishdir. Bu vazifa esa, o‘z navbatida o‘qitishning an’anaviy tizimini modernizatsiyalash uchun o‘quvchilarda kooperatsiya (jamoada, komandada ishlash) kompetentsiyasi va shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirishni taqozo etadi.

2023-yil avgust oyida zamon talabi asosida O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyov tomonidan maktab ta’limi sifatini oshirish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida 1-4-sinf darsliklari yangidan “4K” kompetentsiyasiga mos ravishda ishlab chiqildi. Ilk marotaba 1-sinf o‘quv rejasiga “Informatika va axborot texnologiyalari” fani kiritilib, bu yondashuv bolalarda texnologiyadan foydalangan holda mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va  jadal rivojlanib borayotgan yoshlarni raqamli dunyoga tayyorlash va ta’lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi ko‘p jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirishni taqozo etadi. Chunki jamiyatni axborotlashtirish sharoitida o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyati kommunikativ tabiatga ega bo‘lib, unda muloqot, o‘zaro bir-birini

tushunish, hamkorlik, kommunikativ refleksiya, dialogik munosabat kabi muloqot madaniyatining tarkibiy asoslari o‘z aksini topadi.

Shaxslararo kommunikatsiya jarayonida muloqot me’yorlari va qoidalariga amal qilish talab etiladi. Biroq mazkur fenomenni o‘zgarmas, statik hodisa sifatida talqin qilmaslik lozim. Jamiyatning ijtimoiy-axloqiy taraqqiyotidagi qarama-qarshiliklar, tabiiy munosabat, umuminsoniy qadriyatlarning determinallashuvi bilan bog‘liqlikda shaxslararo munosabatda ham o‘zgarishlar sodir bo‘ladi.

Shaxsning atrofdagilar va moddiy borliq bilan o‘zaro munosabati unga nafaqat ichki quvvatlarni faollashtirish va safarbar qilish, balki undan tarkibi, mazmuniga hamda ahamiyatli fikriy nuqtai nazardan ham foydalanish imkonini beradi. Mazkur jarayonga kirishish shaxsning his-tuyg‘ulari, fikrlarini o‘zaro qiyoslashiga imkoniyat yaratadi. Bu esa uning o‘z-o‘zini anglashi, boshqarishi va namoyon qilishi uchun yetarlicha asosni vujudga keltiradi.

Tadqiqot obyekti nuqtai nazaridan “muloqot”, “munosabat”, “o‘zaro munosabat”, “shaxslararo munosabat” tushunchalar mazmunan bir biri bilan bog‘liq bo‘lib, shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirishda muhim ro‘l o‘ynaydi.

Munosabat mazmuniga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin: ma’lumotlarni yetkazish; sheriklarning bir-biriga ta’sir ko‘rsatishi; sheriklarning o‘zaro aloqalari. Muloqot jarayon sifatida quyidagi o‘ziga xosliklarga ega: yaxlit, kooperativ faoliyat, informatsion aloqa, o‘zaro ta’sir ko‘rsatish, o‘zaro munosabat, o‘zaro bir-birini tushunish. Muloqot jarayonida har bir inson doimiy ravishda ob’ekt va sub’ekt rolini bajaradi. Sub’ekt sifatida u muloqot jarayonida boshqa kishilar haqida ma’lumotga ega bo‘ladi, unga nisbatan ijobiy munosabat bildirishi yoki befarq bo‘lishi mumkin. O‘z navbatida shaxs muloqot jarayonida bilish ob’ekti sifatida xizmat qiladi.

Muloqot o‘z mohiyatiga ko‘ra teng huquqli suhbatdoshlarning o‘zaro fikr almashinish jarayoni hisoblanadi. Mazkur jarayon mantiq qonuniyatlari asosida shakllanib boshqalar fikrini idrok etish ehtiyojiga zaruriyat qoldirmaydi. Muloqot

inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatini o'zlashtirish va o'z individual ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular insonning ichki olamiga aylanadi. Shaxsning tafakkuri, olamni va o'zining obrazini tahlil qilish hamda baholash qobiliyati muloqot jarayonida shakllanadi.

Muloqot – odamlar o'rtasida birgalikda faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Shaxs – ijtimoiy munosabat mahsuli deyilishining eng asosiy sababi – uning doimo insonlar davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'lishini anglatib, bu shaxsning eng etakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi. Insoniy munosabatda dastlab odamlar o'rtasida roy beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvish-quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi.

Odamlar muloqotda bo'lishgani, ular o'rtasidagi munosabat tajribasi ortgan sari ular o'rtasida umumiylik, o'xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'lib, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig'izligi teskari reaksiyalarni – bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi.

V.E.Kemerovning fikricha, o'zaro munosabat – narsalarning bir-biriga ta'sir ko'rsatishini ifodalovchi hodisa bo'lib, u turli ob'ektlar orasidagi farqlarni aks ettirishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, inson hayoti va faoliyatiga bog'liq hodisalar uning bilish jarayonlarini rivojlantirishga ham asos yaratadi[23].

Shaxslararo munosabat esa ijtimoiy jarayonlarda qisqa to'qnashuvlar va uzilishlar sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham o'zaro munosabat dastlabki emas, balki muntazam takrorlanuvchi vaziyatlar bo'lib, barqarorlikni ta'minlashning ijtimoiy shakli hisoblanadi. Xuddi mana shuni hisobga olgan holda o'zaro munosabatni o'rganishda alohida munosabat haqida emas, uning muayyan

---

[23] Кемеров В. Е. Взаимодействие. // Современный философский словарь 2-е изд., испр. и доп. 1998. – С.135 - 136.

tizimlari, ketma-ketligi, aniq vaqt va zamonda jarayonlarning muntazamliligi va izchilligini ta'minlash xususiyatlari haqida yaxlit tarzda fikr yuritish talab etiladi.

Shu tariqa, shaxslararo munosabatda insoniy hodisalarning o'ziga xos shakllari namoyon bo'ladi. Ular sirasiga o'zaro munosabatga kirishuvchi tomonlarning o'zgarishi, ularning aloqadorligi, mustaqil rivojlanishning o'zaro moslashishi kabilar kiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqoti o'zida ikkita qarama-qarshi tendensiyani aks ettiradi: bir tomondan hamkorlik, integratsiya, ikkinchi jihatdan raqobat, differensiatsiya. Muloqotning bunday turi ko'pchilik kishilarni o'zida birlashtiradi, biroq u o'zining ichki va tashqi aloqalarida tezda uyg'unlashuv kuzatiladi. Bir vazifani muvaffaqiyatli hal etib, o'qituvchilar ikkinchi bir muammoni aniq ko'rsatmasiz to'liq bartaraf eta olishmaydi. Hamfikrlilik o'zlikni saqlash va eski munosabatni qayta yo'lga qo'yish asosida ishga tushadi[24].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini dialogik munosabatning yangi didaktik usullari va vositalari bilan tanishtirish jarayonida ularning muammo yechimlarini o'zlari topishga intilishlari zarurligi tavsiya etiladi. Buning uchun o'quv dasturlari va bilish jarayonlarini tashkil etish mexanizmlari shunday qurilishi kerakki, ular talabalarni topqirlik, izlanishlar doirasini kengaytirish, muhokamalar jarayonida yechimlarni mustaqil izlab topishga undashi lozim. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilar bilan quyidagi ish shakllarini tashkil etish talab qilinadi. Ular: dialog, suhbat, munozara kabilar. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish jarayonlarini har bir obrazni idrok etish orqali ularning tasavvurini kengaytirishiga qaratgan holda tashkil etilishi lozim. Bunga muntazam takrorlanuvchi vaziyatlar misol bo'la oladi. Buning uchun nafaqat boshlang'ich sinf o'quvchilarining birgalikda ishlashlari, balki mashg'ulotlarda o'quv munozarasini vujudga keltiradigan vaziyatlarni ham tashkil etish talab etiladi.

Dialogga kirishuvchanlik I.Yu.Xoperskovaning ta'biricha, o'quv-tarbiya jarayoni tavsifini ifodalab, o'quvchilarni yangi ijtimoiy pedagogik vaziyatlarga

---

[24] Сластенин В. А. Социокультурные проблемы инновационной деятельности учителя. М.: Издательский Дом МАГИСТР-ПРЕСС, 2000. – 280 с.

olib kirish imkonini beradi[25]. Bunday vaziyatlar bir butun pedagogik jarayonga dialog ruhini bag‘ishlaydi. Dialog o‘qituvchilar tomonidan tashkil etilgan hayotiy vaziyatlarning barcha bo‘g‘inlarida qo‘llanilishi lozim. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchilar muntazam tarzda o‘qituvchining fikrlarini tinglashlari va anglashlari zarur. Ular o‘z atroflarida bo‘layotgan voqelik va moddiy olam bilan munosabatiga boshqalarning e’tiborini jalb qila olishlari kerak.

Ko‘rinib turibdiki, o‘zaro munosabat doirasida suhbatdoshlar bir-birlarining ichki olamlariga singishlari natijasida ular orasida fikriy-qadriyatli munosabat vujudga keladi. Dialog orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insonga xos ma’naviy yuksalish imkonini beradigan layoqatlarni egallashga intilish, o‘z-o‘zini anglash ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa o‘z navbatida bo‘lajak o‘qituvchilarni dialogga o‘rgatish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shu tariqa, dialogga asoslangan munosabat haqida fikr yuritish o‘quv-tarbiya jarayonida samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Chunki dialog talabalarga o‘zaro fikr almashinish, bir-birlarining his-tuyg‘ularini tushunish imkonini beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobomurodova A. Ona tili ta’limi jarayonida o’yin topshiriqlaridan foydalanish: Ped. fan. nom. ... dis. –Toshkent, 1996.
2. X.Ibragimov, U.Yo’ldoshev, X.Bobomirzayev. Pedagogik psixologiya T2007.
3. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» G’.G’. Oliy ta’lim (me’yoriy huquqiy va uslubiy xujjatlar to’plami). - Toshkent: 2004.
4. S. Matchonov va boshq. Boshlang’ich sinf o’qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. — T.: „Yangiyul poligraph service", 2008.
5. M. Umarova, Sh. Hakimova. O’qish darslari (3-sinf o’qituvchilari uchun metodik qo'llanma). — T.: Cho’lpon, 2008.

[25] Хоперскова И.Ю. Научно-педагогические основы диалога в личностно ориентированном образовательном процессе: автореф. канд. пед. наук. – Ростов-н / Д., 2000. – 23 с.

# MILLIY O’ZLIKNI ANGLASH - MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA

Tillayev Bobomurod Abduvoxobovich
Gumanitar fanlar kafedrasi katta o`qituvchisi
Sobirjanova Ruxshona Shavkat qizi Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola milliy o'zlikni anglashning ma'naviy va mafkuraviy immunitetni shakllantirishdagi ahamiyatini tahlil qiladi. Globallashuv va madaniy xilma-xillik sharoitida milliy qadriyatlar va o'zlikni saqlab qolish muhim masalaga aylanmoqda. Milliy o'zlikni anglash shaxs va jamiyatni xorijiy madaniy ta'sirlardan himoya qiladi, ma'naviy immunitetni shakllantirishga yordam beradi hamda mustaqil fikrlash, o'z madaniyatiga hurmat bilan qarash kabi xususiyatlarni rivojlantiradi. Maqolada milliy qadriyatlarni targ'ib qilishning ta'lim va tarbiya, ommaviy axborot vositalari va madaniy merosni saqlashdagi o'rni muhokama qilinadi. Milliy o'zlikni mustahkamlash orqali mafkuraviy immunitetni shakllantirish bugungi zamonning dolzarb masalasi sifatida ko'rsatiladi.

**Kalit so‘zlar:** Milliy o'zlik, mafkuraviy immunitet, ma'naviy qadriyatlar, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur.

**Аннотация:** В данной статье анализируется значение осознания национальной идентичности в формировании морального и идеологического иммунитета. В условиях глобализации и культурного разнообразия важным вопросом становится сохранение национальных ценностей и самобытности. Осознание национальной идентичности защищает личность и общество от инокультурных влияний, помогает формировать моральный иммунитет и

развивает такие качества, как независимое мышление и уважение к собственной культуре. В статье рассматривается роль пропаганды национальных ценностей в образовании и воспитании, средствах массовой информации и сохранении культурного наследия. Формирование идеологического иммунитета через укрепление национальной идентичности показано как актуальная проблема современности.

**Ключевые слова:** национальная идентичность, идеологический иммунитет, духовные ценности, осознание национальной идентичности, национальная гордость.

**Abstract:** This article analyzes the importance of national identity awareness in the formation of moral and ideological immunity. In the context of globalization and cultural diversity, the preservation of national values and identity is becoming an important issue. Awareness of national identity protects the individual and society from foreign cultural influences, helps to form moral immunity and develops characteristics such as independent thinking and respect for one's own culture. The article discusses the role of promotion of national values in education and upbringing, mass media and preservation of cultural heritage. The formation of ideological immunity through the strengthening of national identity is shown as an urgent issue of today's time.

**Key words:** National identity, ideological immunity, spiritual values, national self-awareness, national pride, impact of globalization.

Milliy o'zlikni anglash va mafkuraviy immunitetni shakllantirish bugungi globallashuv davrida har qachongidan ham dolzarb masalaga aylanmoqda. Milliy o'zlik – bu xalqning o'z tarixi, madaniyati, qadriyatlari va an'analari orqali shakllangan o'ziga xosligi, milliy g'urur va ma'naviy asosdir. Globallashuv sharoitida turli millat va madaniyatlarning kuchli o'zaro ta'siri kuzatilayotgan bir paytda, milliy o'zlikni saqlash shaxs va jamiyat uchun mafkuraviy immunitet sifatida muhim rol o'ynaydi.

Mafkuraviy immunitet millatni xorijiy ta'sirlardan himoya qiladi, yosh avlodni mustahkam e'tiqod va qadriyatlarga asoslangan tarbiya bilan ta'minlaydi. Bu esa insonlarni mustaqil fikrlash, o'z madaniyatiga sodiqlik, an'anaviy qadriyatlarga hurmat kabi sifatlarni shakllantirishga yordam beradi. Shunday qilib, milliy o'zlikni anglash nafaqat milliy o'ziga xoslikni mustahkamlash, balki mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash uchun ham zaruriy omil hisoblanadi.[1]

Bunday anglash mafkuraviy immunitetni shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi, chunki u jamiyatni tashqi madaniy va mafkuraviy tahdidlardan himoya qiladi. Milliy o'zlikni mustahkamlash orqali, jamiyat a'zolari o'z madaniyati va an'analariga hurmat bilan qarab, ularni yangi global sharoitlarga moslashtirishga qodir bo'ladi. Shuningdek, bu jarayon yoshlarni ma'naviy barkamollik va mustahkam e'tiqod bilan ta'minlab, ularning yurtga bo'lgan sevgisini va vatanparvarlik tuyg'ularini oshiradi. Shunday qilib, milliy o'zlikni anglash mafkuraviy immunitetni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi va uning ahamiyati kun sayin ortib bormoqda.

Milliy o'zlikni anglash va mafkuraviy immunitetni shakllantirish mavzusidagi ilmiy adabiyotlar ko'plab ijtimoiy, madaniy va siyosiy jarayonlarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar, asosan, milliy identifikatsiya, jamiyatning madaniy mustahkamligi va globallashuvning salbiy ta'sirlari haqida atroflicha fikrlarni o'z ichiga oladi.

1. Milliy o'zlik va identifikatsiya. Milliy o'zlikni anglash, birinchi navbatda, xalqning o'z tarixiy va madaniy merosiga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Asosiy adabiyotlarda, masalan, Benedict Andersonning "Imagined Communities" asarida milliy identifikatsiya va o'zlikni yaratish jarayoni global aloqalar va madaniyatlar almashinuvining sharoitida qanday rivojlanishi tahlil qilinadi. Anderson milliy identifikatsiyaning "tasavvur qilingan jamoa" sifatida shakllanishini ta'kidlaydi, bu esa milliy o'zlikni anglashning asosiy poydevorini tashkil etadi.[2]

2. Mafkuraviy immunitet. Mafkuraviy immunitet tushunchasi milliy va ijtimoiy integratsiyani ta'minlashga yordam beruvchi fikrlar, qadriyatlar va

an'analarni nazarda tutadi. Bu sohada, masalan, Samir Aminning globallashuv haqidagi asarlarida mafkuraviy immunitetning millatlarni xorijiy ta'sirlardan himoya qilishdagi o'rni keng tahlil qilinadi. O'zbekistonda ham bu mavzu ko'plab ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan, ayniqsa, jamiyatda ma'naviy barkamollikni shakllantirish va milliy o'zlikni saqlash uchun mafkuraviy immunitetni kuchaytirish zarurligi ko'rsatiladi.

3. Globallashuv va milliy qadriyatlar. Globallashuv jarayonining milliy o'zlikka ta'siri haqida ko'plab adabiyotlar mavjud. Shu ma'noda, Arjun Appadurai va Manuel Castells kabi olimlar globallashuvning ijtimoiy va madaniy asoratlarini tahlil qilganlar. Ular milliy identifikatsiya va o'zlikni saqlash jarayonining global axborot va madaniy bosimlar tufayli qanday zaiflashishini ko'rsatadilar. Shu bilan birga, globallashuvning ijtimoiy o'zgarishlarni keltirib chiqarishi, milliy madaniyatlarni "global tarmoq" doirasida qanday shakllantirish mumkinligi haqida fikrlar bildiriladi.[3]

Ushbu mavzuni o'rganishda metodologik yondashuv sifatida bir nechta usullar qo'llaniladi:

1. Tahliliy usul. Milliy o'zlik va mafkuraviy immunitetni anglash jarayonlarini ilmiy adabiyotlar va amaliy misollar asosida tahlil qilish. Bu usul yordamida globallashuvning ijtimoiy va ma'naviy jihatlari, shuningdek, milliy qadriyatlar va identifikatsiyaning shakllanishi o'rganiladi.

2. Komparativ tahlil. Turli mamlakatlarda amalga oshirilgan tadqiqotlar va milliy o'zlikni anglashga qaratilgan amaliyotlarni solishtirish. Bu metodologiya orqali globallashuvning ijtimoiy tizim va milliy qadriyatlar ustidan qanday ta'sir ko'rsatishi o'rganiladi.[4]

3. Empirik tadqiqot. Yoshlarga oid so'rovlar, intervyular va fokuslar guruhlari orqali milliy o'zlikni anglash va mafkuraviy immunitetni shakllantirishga bo'lgan munosabatlarni o'rganish. Ushbu metod orqali jamiyat a'zolarining globallashuvga va uning milliy qadriyatlarga ta'siriga qanday qarashlarini aniqlash mumkin.[5]

4. Kontseptual yondashuv. Milliy o'zlikni anglash va mafkuraviy immunitetni shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish, uning ijtimoiy ahamiyatini ko'rsatish va amaliy tavsiyalar berish.

Shu asosda, maqola milliy o'zlikni anglash va mafkuraviy immunitetni shakllantirishning jamiyatdagi o'rni va uning globallashuv sharoitidagi ahamiyatini tahlil etib, amaliy tavsiyalarni taqdim etishga qaratilgan.

Milliy o'zlikni anglash va mafkuraviy immunitetni shakllantirish jamiyatning mustahkamligini ta'minlashda va uning ma'naviy salomatligini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Globallashuv jarayonida, har bir millat o'ziga xos qadriyatlar, madaniyat va tarixiy merosni saqlash orqali tashqi madaniy va mafkuraviy ta'sirlardan himoya qilishi zarur. Milliy o'zlikni anglash – bu faqatgina millatni o'zining tarixiy va madaniy asoslariga tayanib rivojlantirish emas, balki yoshlar, kelajak avlodlar uchun ham mafkuraviy immunitetni shakllantirish, mustahkam e'tiqod va ma'naviy barkamollikni rivojlantirishdir. Shu bilan birga, milliy o'zlikni anglash va uni saqlash, jamiyatni globallashuvning salbiy ta'sirlaridan himoya qiladigan kuchga aylanishi mumkin.

Taklif sifatida shuni kiritish joizki:

1. Ta'lim tizimini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish – maktablar va oliy ta'lim muassasalarida milliy tarix, madaniyat va an'analarga oid ta'limni kengaytirish, yoshlarni o'z madaniyati va o'zligiga hurmat qilishga o'rgatish zarur.[6]

2. Madaniy merosni saqlash va rivojlantirish – davlat darajasida milliy madaniy merosni asrab-avaylash va yoshlarni uning ahamiyati haqida xabardor qilish uchun madaniy dasturlarni amalga oshirish kerak.

3. Globallashuvga moslashuvchanlikni ta'minlash – milliy qadriyatlarni saqlab qolish bilan birga, global jarayonlarga ochiq bo'lish va boshqa madaniyatlarni o'rganishga intilish, lekin o'z milliy o'zlikni saqlashni unutmang.[7]

4. Ommaviy axborot vositalaridan foydalanish – milliy qadriyatlar va ma'naviy immunitetni targ'ib qilish maqsadida ommaviy axborot vositalarini samarali ishlatish, milliy o'zlikni anglashni jamoatchilikka keng targ'ib qilish.

5. Mafkuraviy immunitetni mustahkamlash – yoshlarni mustaqil fikrlash, o'z madaniyatiga hurmat va e'tiqod asosida tarbiyalash, ular o'rtasida milliy o'zlik va mafkuraviy immunitetni shakllantirishni o'z ichiga olgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish.

6. Jamoatchilik va ilmiy muhokamalarni tashkil etish – milliy o'zlikni anglash va mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalarida jamoat va ilmiy doiralarda keng muhokamalar o'tkazish, bu mavzularni ijtimoiy-tarbiyaviy dasturlarda faol ravishda ilgari surish.[8]

Shu tarzda, milliy o'zlikni anglash va mafkuraviy immunitetni shakllantirish, jamiyatni mustahkamlash va uning madaniy, ma'naviy o'zligini saqlashda asosiy omil sifatida xizmat qiladi. Bu jarayonlarning muvaffaqiyati, jamiyatning birligi va uning global jarayonlardagi mustahkam o'rni uchun muhim ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Anderson, B. (1983). Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism. Verso.

2. Amin, S. (1997). Capitalism in the Age of Globalization: The Management of Contemporary Society. Zed Books.

3. Appadurai, A. (1996). Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization. University of Minnesota Press.

4. Castells, M. (1996). The Rise of the Network Society. Blackwell Publishers.

5. Gellner, E. (1983). Nations and Nationalism. Cornell University Press.

6. Smith, A. D. (1991). National Identity. University of Nevada Press.

7. Said, E. W. (1978). Orientalism. Pantheon Books.

8. Kymlicka, W. (1995). Multicultural Citizenship: A Liberal Theory of Minority Rights. Clarendon Press.

# FALSAFA FANI AHAMIYATI VA AFZALLIKLARI

Sotiboldiyeva Manzura Nosirjon qizi
Namangan Davlat Pedagogika Instituti
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Falsafa fani insoniyatga muammolarni tahlil qilish, mulohaza yuritish, mantiqiy fikrlashni o’rgatadi. Bu har qanday sohada qaror qabul qilishda muhim ro’l o’ynaydi.

**Kalit so'zlar:** filosofiya, Metafizika, filosof, dunyoqarashning yaxlitligi, falsafiy antropologiya, Ellinistik falsafa.

Falsafa (yunoncha – „donishlikni sevish”) – eng umumiy fan (nazariya), dunyoqarash shakllaridan biri bo’lib inson faoliyati sohalaridan biri. U kishi qanday yashashi, hayot kechirishi kerak (etika); qaysi narsalar mavjud va ularning tabiati qanday (metafizika); bilim nima (epistemologiya); hamda qanday fikrlash to’g’ri (mantiq) ekanligini hal qilishga urinadi.

Falsafa, filosofiya – insonning dunyoda tutgan o’rni va dunyoqarashining yaxlit tizimini ifodalovchi ma’naviy faoliyatining bir shakli. Milodiy II, III asrlarda o’tgan yunon faylasufi Diogen Laertskiyning shohidlik berishicha, yunon mutafakkiri Pifagor birinchi bo’lib o’zini „filosof“ deb atagan. Bu so’z Geraklitning falsafiy ta’limotida narsalarning tabiatini tadqiq etishga nisbatan qo’llangan, tadqiqotchining o’zi esa „filosof“ deb atalgan. Keyinchalik „filosof“ so’zi har taraflama, keng, tushunarli va haqqoniy fikr yuritishga intiluvchi kishiga nisbatan qo’llangan. Tarixiy ma’lumotlar yunoncha „philosophia“ so’zi arabchaga „falsafa“ bo’lib o’tganligi, arablar bu fanni „hikma“ deb atashi, ruschaga „filosofiya“ tarzida o’tganligini tasdiqlaydi, demak falsafa bilan filosofiya so’zlari bir xil ma’noga ega.

Falsafaga haqiqatga eltuvchi ta’limot sifatida yondashgan sokratchilar maktabi vakillari nuqtai nazaridan kurasak, „haqiqatga muhabbat“, „haqiqatni sevish“ degan ma’no kelib chiqadi. Falsafa haqida fan tarixida turlicha, hatto birbiriga qaramaqarshi qarashlar mavjud. Falsafaga hamma fanlarning boshlanishi,

olamning asl mohiyatini va universal qonunlarini ochuvchi fan deb yondashishdan tortib uni o’z tadqiqot ob’yekti va predmetiga ega bo’lmagan mavhum va o’ta umumlashgan, inson uchun foydasiz bilimlar majmui deb hisoblovchilar ham uchraydi. Insoniyat foydalanayotgan barcha bilimlar Falsafadan boshlanib, falsafiy xulosa bilan yakunlanadi. Falsafanini fan darajasiga olib chiqqan Platon uni „mavjudlikni, mangulikni va doimiylikni bilish“, Aristotel „narsalarning sabablari va asosiy tamoyillarini tadqiq etuvchi fan“ deb bilgan, stoiklar uni nazariy va amaliy tafeilotlarga intilish deb, epikurchilar unga „aql vositasida baxtga erishish yo’li“ deb qaragan. Forobiy falsafani „hikmatni qadrlash“ yoki fikrlash san’ati deb bilgan.

Falsafaning tarkibiy qismlariga-bilish nazariyasi (gnoseologiya), metafizika (ontologiya, kosmologiya, falsafiy antropologiya, mavjudlik falsafasi, teologiya), mantiq, etika, estetika, huquq falsafasi, naturfalsafa, fan falsafasi, tarix va madaniyat falsafasi, siyosat falsafasi, din falsafasi, psixologiya va boshqalar kiradi. Hozirgi zamon falsafasida tibbiyot, tilshunoslik, musiqa, kibernetika va boshqa aniq, fanlarning umummetodologik jihatlarini o’rganuvchi falsafa yo’nalishlari vujudga kelmoqda. Falsafaning dunyoqarashlik, gnoseologik, metodologik, sotsiologik, aksiologik, antropologik, mantiqiy, psixologik va mafkuraviy funksiyasi bor.

Falsafa tarixi – inson tafakkuri taraqqiyoti tarixidir. Falsafa tarixiga oid adabiyotlarda insoniyat tarixida xitoy falsafasi, hind falsafasi, Yevropa falsafasi ajratib ko’rsatiladi.

Ilk falsafiy ta’limotlar qadimiy Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo va Yunonistonda paydo bo’lgan, keyin G’arb mamlakatlariga yoyilgan.

Markaziy Osiyodagi falsafiy qarashlar qadimiy turkiy yozuvlar, tangriga e’tiqod qilish tamoyillarida va zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestoda o’z ifodasini topgan. Miloddan avvalgi II, I asrlarda Marv, Balx, Termiz, Sig’noq, Samarkand, Buxoro zaminini o’ziga qamrab olgan hududda kushonlar saltanati qaror topib, unda budda dini xukm suradi, uning falsafasi bu joyda yashovchi

xalqning tafakkur tarziga o’z ta’sirini o’tkazadi. Ammo Avesto g’oyalari xalq ongidan butunlay chiqib ketmaydi.

Yunonistondagi falsafiy maktablar, asosan, miloddan avvalgi VI-V asrlardan vujudga kela boshladi va uning taraqqiyot bosqichlari klassik ellinizm va rimellinizm davrlariga bo’linadi. Ellinistik falsafa davri Sokratgacha davr (Milet maktabi, Eleya maktabi) va klassik (attik) falsafani (Sokrat, Platon, Aristotel) o’z ichiga oladi. Sokratgacha davr falsafasi kosmologik (gilozoistik) falsafa va antropologik davrlarni o’ziga qamrab oladi.

Ilk islom falsafasi davri yunon falsafasining arab va suryoniy tillariga tarjima etilishi, bu tarjimalarda yahudiylik va xristianlik aqidalarining ustuvorlik qilishi bilan ajralib turadi. Sharqiy islom falsafasi va g’arbiy islom falsafasi faylasuflarining musulmon olimlari tomonidan qayta ishlangan, tarjima qilingan asarlarining Yevropaga qayta takdim etilishi bu yerda uyg’onish davrining boshlanishiga ta’sir ko’rsatgan. Falsafaning keyingi ravnaq topishi Markaziy Osiyoda temuriylar davri bilan boshlanadi. Amir Temur falsafiy g’oyalarning mamlakat istiqboliga xizmat qilishini bilgan holda ilm-fan ravnaqiga rahnamolik qildi. Bu davrda Markaziy Osiyoda tasavvuf falsafasi, tabiatshunoslik falsafasi, mantiq falsafasi va axloqiy ta’limotlar rivojlandi.

Falsafa tarixidagi falsafiy maktab va oqimlar o’zlari ilgari surayotgan falsafiy g’oyaning mazmuniga qarab quyidagi yo’nalishlarga bo’linadi: empirizm va ratsionalizm, nominalizm va realizm, materializm va idealizm, skeptitsizm va antiskeptitsizm, agnostitsizm va antiagnostitsizm, dogmatizm va relyativizm kabilar.

O’zbekiston falsafasi o’zbek xalqining tafakkur tarzi sifatida XX asrda shakllandi. Unda O’zbekistonda yashovchi turli millat va elat vakillari ishtirok etishgan. Uning namoyandalari Behbudiy, Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Cho’lpon, Abdulla Qodiriy, Is'hoqxon Ibrat, So’fizoda va boshqalar. Sovet davrida falsafa fani chuqur mafkuraviy inqirozga uchragan, kommunistik tuzumning xizmatkoriga aylantirilgan edi. Ikkinchi jahon urushi davrida O’zbekiston Fanlar

akademiyasi tashkil etilishi ijtimoiy fanlar, xususan, falsafa fani taraqqiyotiga turtki berdi.

O’zbekistonning birinchi Prezidenti I. A. Karimov 1998-yilda „Tafakkur“ jurnali bosh muharririning savollariga bergan javobda yangi jamiyatni bunyod qilishda milliy mafkura va u tayanadigan milliy falsafaning roliga katta baho berar ekan, g’oyaga qarshi faqat g’oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma’rifat bilan bahsga kirishish kerakligini ta’kidlagan edilar.

O’zbekiston milliy universitetida falsafa fakulteti mavjud. Respublikada O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati faoliyat ko’rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Falsafa yosh avlodga ma’naviy komillik, mustaqillikka sodiqlik ruhida tarbiyalashga ko’maklashuvchi fandir. Birinchilardan bo’lib Aflotun va Arastu falsafaning jamiyat ma’naviy hayotidagi o’rnini belgilab bergan mutaffakkirlardandir. Ushbu fan borliqni anglashimizga ham yordam beradi. Ko’plab mutaffakkir filosoflar bu fan to’g’risida o’z nazariyalarini keltirib o’tishgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati :**

1.Choriev N. K. Buyuk ilmiy inqiloblar tarixi. O’quv qo’llanma

2.Uz.Wikipedia.org

3.arm.ssuv.uz

4.Renessans.edu.uz

# ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ СОЦИАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В УСЛОВИЯХ ИНТЕНСИВНОГО ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО РАЗВИТИЯ В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ

З.Ф.Азизова - и.о.доцента кафедры “Методики дошкольного и начального образования”, PhD, НВУЗ “University of economics and pedagogy”.
E-mail: zufizarxonazizova@gmail

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim yoshida intensiv-kognitiv rivojlanishda ijtimoiy kompetentsiyaning pedagogik va psixologik xususiyatlari, ijtimoiy kompetentsiya mezonlari, intensiv-kognitiv rivojlanish xususiyatlari, ijtimoiy kompetentsiyani baholash, baholash tamoyillari, metodlari va vositalari келтирилган.

**Kalit so’zlar:** ijtimoiy kompetentsiya, maktabgacha ta’lim,intensiv-kognitiv rivojlanish, baholash, baholash tamoyillari, metodlar, vositalar, pedagogik va psixologik xususiyatlar.

**Аннотация:** В данной статье представлены педагогические и психологические характеристики социальной компетентности при интенсивном познавательном развитии в дошкольном возрасте, критерии социальной компетентности, характеристики интенсивного познавательного развития, оценка социальной компетентности, принципы, методы и средства оценивания.

**Ключевые слова**: социальная компетентность, дошкольное образование, интенсивное познавательное развитие, оценивание, принципы оценивания, методы, средства, педагогические и психологические особенности.

**Abstract:** This article presents the pedagogical and psychological characteristics of social competence in intensive cognitive development in preschool age, criteria of social competence, characteristics of intensive cognitive development, assessment of social competence, principles, methods and means of assessment.

**Key words**: social competence, preschool education, intensive cognitive development, assessment, assessment principles, methods, means, pedagogical and psychological characteristics.

**Введение.** Современный мир предъявляет к личности человека всё более высокие требования в сфере социального взаимодействия. Особую актуальность эта проблема приобретает в дошкольном возрасте, когда закладываются основы личности, формируются навыки общения и социального поведения. В связи с интенсивным познавательным развитием дошкольника, его социальная компетентность становится важным фактором успешной адаптации в социуме и дальнейшего развития.

**Социальная компетентность** - это способность человека успешно взаимодействовать с окружающим миром, решать социальные задачи, строить и поддерживать межличностные отношения,осуществлять социально-значимую деятельность. [4, стр. 125].

"Социальная компетентность включает в себя когнитивный, эмоциональный и поведенческий компоненты" [6, стр. 180].

Структура социальной компетентности:

Когнитивный компонент:

- понимание социальных норм и правил;
- умение анализировать ситуации и прогнозировать последствия;
- способность к эмпатии и пониманию чувств других людей;
- знание и умение использовать коммуникативные стратегии.

Эмоциональный компонент:

- способность контролировать свои эмоции;
- умение выражать свои чувства адекватно ситуации;
- способность к сопереживанию и сочувствию.

Поведенческий компонент:

- умение устанавливать и поддерживать контакты;
- способность к сотрудничеству и совместной деятельности;
- проявление инициативы и самостоятельности;
- умение эффективно разрешать конфликты.

"Развитая социальная компетентность способствует успешной социализации ребенка, формированию коммуникативных навыков, укреплению психического здоровья, развитию личности и подготовке к школьному обучению" [1, стр. 15].

Критерии социальной компетентности:

* Умение взаимодействовать с другими людьми в различных ситуациях.

* Способность к сотрудничеству и совместной деятельности.

*Развитые коммуникативные навыки (вербальные и невербальные).

* Умение решать социальные задачи и разрешать конфликты.

*Уважение к другим людям и их чувствам.

*Ответственность за свои поступки.

"В условиях интенсивного познавательного развития в дошкольном возрасте социальная компетентность приобретает особую значимость, способствуя успешной адаптации ребенка к социуму и его дальнейшему развитию" [5, стр. 241].

Социальная компетентность играет ключевую роль в формировании личности ребенка:

*Успешная социализация*:способствует адаптации к социуму, интеграции в коллектив.

*Развитие коммуникативных навыков*:улучшает речь, навыки общения, расширяет круг интересов и общения.

*Укрепление психического здоровья*:снижает уровень тревожности, повышает самооценку.

*Формирование основ личности:*развивает ответственность, самостоятельность, инициативность,стремление к сотрудничеству.

*Подготовка к школьному обучению*:способствует успешному освоению образовательной программы, адаптации к школьным требованиям.

Интенсивное познавательное развитие способствует повышению уровня социального понимания, развитию навыков общения, повышению социальной ответственности и способности к решению социальных задач" [2,стр. 28].

"В дошкольном возрасте наблюдается интенсивное развитие всех познавательных процессов, включая развитие мышления, расширение кругозора, развитие речи, а также формирование памяти и внимания" [5, стр. 241].

В дошкольном возрасте наблюдается интенсивное развитие всех познавательных процессов:

*Развитие мышления*:от наглядно-действенного к словесно-логическому.

*Расширение кругозора*: накопление новых знаний и представлений об окружающем мире.

*Развитие речи*:появление связной речи, развитие словарного запаса, грамматических форм.

*Формирование памяти и внимания*:улучшение концентрации, объема и продолжительности запоминания информации.

"В зарубежной психологии социальная компетентность рассматривается как ключевой фактор адаптации ребенка к социуму"[7, стр. 18].

Влияние интенсивного познавательного развития на социальную компетентность:

*Повышение уровня социального понимания*: ребеноклучше понимает социальные нормы, правила,мотивы поведения людей.

*Развитие навыков общения*: улучшается умение формулировать свои мысли, слушать других людей,строить конструктивный диалог.

*Повышение социальной ответственности*:ребенокболеесознательно и ответственно подходит к выполнению социальных норм и правил.

*Развитие способности к решению социальных задач*:ребенокувереннеерешает задачи, требующиесоциального взаимодействия и коммуникации.

"Развитие социальной компетентности в дошкольном возрасте характеризуется формированием эмоционально-волевой сферы, самооценки, самосознания, социальной мотивации и социальных навыков" [3, стр. 12].

Педагогико-психологические особенностисоциальной компетентности:

*Развитие эмоционально-волевой сферы*: ребенокучится управлять своими эмоциями, проявлять волевые усилия,контролировать свое поведение.

*Формирование самооценки и самосознания*: ребенокучитсяоценивать себя и свои действия,формирует собственное мнение ипозицию.

*Развитиесоциальной мотивации*: формируютсяпотребностив общении,сотрудничестве,вклад в общий результат,стремление быть полезным.

*Формированиесоциальныхнавыков*: ребенокучитсяздороваться,прощаться,благодарить,извиняться,вестидиалог,сотрудничатьс другими.

"Образовательная среда играет ключевую роль в развитии социальной компетентности. Создание благоприятного психологического климата, проведение игр, тренингов, чтение художественной литературы, организация совместных игровых деятельностей - все это способствует формированию социальных навыков у ребенка" [4, стр. 201].

Рольобразовательнойсредывразвитиисоциальнойкомпетентности:

*Созданиеблагоприятногопсихологическогоклимата*: поощрениедоброжелательногоотношениямеждудетьми,уважениеккаждомуребенку.

*Проведениедидактическихигр,тренингов*:тренировкакоммуникативныхнавыков,уменияхрешатьконфликты,сотрудничать.

*Чтениехудожественнойлитературы*:знакомствосообразцамиположительногосоциальногоповедения,формированиеморальныхинравственныхкачеств.

*Организациясовместныхигровыхдеятельностей*:развитиеуменияигратьвкоманде,учитыватьмнениедругих.

"Для оценки уровня социальной компетентности используются различные методы: наблюдение, беседы, тестирование, анализ результатов деятельности" [6, стр. 180].

"Результаты оценки помогают определить уровень развития социальной компетентности ребенка и выстроить индивидуальный педагогический процесс" [1, стр. 17].

| Принцип | Описание |
|---|---|
| Индивидуальный подход | Учет индивидуальных особенностей ребенка, его темпа развития, интересов, нужд. |
| Системность | Поэтапное развитие социальной компетентности с учетом возрастных особенностей ребенка. |
| Активность | Поощрение активного участия ребенка в образовательном процессе, в игровой деятельности, в социальных проектах. |
| Сознательность | Формирование у ребенка понимания значения социальных норм и правил, ответственности за свои поступки. |

**Таблица 1. Принципы развития социальной компетентности в дошкольном возрасте**

**Методыиинструментарийоценки**. Дляоценкиуровнясоциальнойкомпетентностииспользуютсяразличныеметоды

*Наблюдение*:оценкаповеденияребенкавразличныхситуациях(игра,общение,занятия).

*Беседы:* выяснениевзглядовребенканаразличныесоциальныевопросы,егоотношениякдругимлюдям,егосамооценки.

*Тестирование:* использованиеспециальныхпсихологическихтестов,оценивающихразныеаспектысоциальнойкомпетентности.

*Анализрезультатовдеятельности*:оценкаучастияребенкавразличныхсоциальныхакциях,игровыхпроектах,творческихконкурсах.

| Метод | Описание | Преимущества | Недостатки |
|---|---|---|---|
| Наблюдение | Систематическое наблюдение за поведением ребенка в различных ситуациях. | Объективность, возможность зафиксировать реальные поступки ребенка. | Субъективность наблюдателя, невозможность контролировать все ситуации. |
| Беседы | Выяснение взглядов ребенка на различные социальные вопросы, его отношения к другим людям, его самооценки. | Возможность получить информацию о мыслях и чувствах ребенка. | Не всегда ребенок может точно выразить свои мысли и чувства. |
| Тестирование | Использование специальных психологических тестов, оценивающих разные аспекты социальной компетентности. | Объективность, возможность сравнить результаты с нормами. | Не всегда тесты могут учитывать индивидуальные особенности ребенка. |
| Анализ результатов деятельности | Оценка участия ребенка в различных социальных акциях, игровых проектах, творческих конкурсах. | Возможность оценить реальные достижения ребенка в социальной сфере. | Не всегда учитываются все аспекты социальной компетентности. |

**Таблица 2.Методыоценкисоциальнойкомпетентностивдошкольномвозрасте.**

Интерпретациярезультатовоценки:

Результатыоценкипомогаютопределитьуровеньразвитиясоциальнойкомпетентностиребенкаивыстроитьиндивидуальныйпедагогическийпроцесс.Важноучитывать,чтосоциальнаякомпетентность-этодинамическийпроцесс,которыйтребуетпостоянногоразвития.

* "Социальная компетентность - это ключевой фактор успешной социализации ребенка, его дальнейшего развития и включения в социум" [3, стр. 15].

* "Для успешного развития социальной компетентности ребенка необходимо создать благоприятную образовательную среду, использовать разнообразные педагогические методы и технологии, учитывать индивидуальные особенности ребенка" [2, стр. 31].

| Метод | Описание |
|---|---|
| Игровые методы | Игры с правилами, ролевые игры, драматизации, дидактические игры. |
| Тренинговые методы | Тренинги коммуникативных навыков, тренинги эмоциональной регуляции, тренинги решения конфликтов. |
| Проектные методы | Совместные проекты детей и взрослых, направленные на решение социальных задач. |
| Методы художественной литературы | Чтение художественной литературы, рассматривание иллюстраций, беседы по прочитанному. |

**Таблица 3. Методы и технологии развития социальной компетентности в дошкольном возрасте.**

**Заключение.** Успешное развитие дошкольника во многом зависит от уровня сформированности его социальной компетентности - способности эффективно взаимодействовать с окружающим миром, решать социальные задачи и строить взаимоотношения. В условиях интенсивного познавательного развития в дошкольном возрасте социальная компетентность приобретает особую значимость, способствуя адаптации ребенка к социуму и его дальнейшему развитию.

Развитие социальной компетентности в дошкольном возрасте закладывает основу для успешного развития личности ребенка, его адаптации к школе и будущему взаимодействию в социуме. Совместные усилия педагогов и родителей в этом направлении способствуют формированию гармоничной и социально адаптированной личности дошкольника.

**Рекомендации** педагогам и родителям:

- Поощряйте активное взаимодействие ребенка с окружающими: создавайте ситуации, в которых ребенок может практиковать социальные навыки, общаться со сверстниками и взрослыми.
- Развивайте эмоциональный интеллект ребенка: помогайте ему понимать и распознавать эмоции других людей, выражать свои чувства социально приемлемыми способами.
- Формируйте у ребенка ответственность и самостоятельность: поручайте ему посильные задания, поддерживайте его инициативу и стремление к сотрудничеству.

• Используйте разнообразные игровые методы: игры с правилами, ролевые игры, дидактические игры - эффективные средства развития социальных навыков и умения взаимодействовать в коллективе.

• Читайте ребенку художественную литературу: через сказки и рассказы дети знакомятся с образцами социального поведения, учатся сопереживать и понимать других людей.

**Рекомендации** по развитию социальной компетентности в дошкольном возрасте:

*Укрепление семейных отношений:* создание доверительной атмосферы в семье, воспитание ответственности за свои поступки.

*Создание благоприятной образовательной среды*: формирование уребенка чувства принадлежности кгруппе, поощрениеи нициативы и самостоятельности.

*Индивидуальныйподход:*учетиндивидуальныхособенностейребенка,египемпаразвития,интересов,нужд.

*Использованиесовременныхпедагогическихтехнологий:*игры,тренинги,проекты,активизирующиеучастиеребенкавобразовательномпроцессе,развивающиеегосоциальныенавыки.

### Список использованной литературы:

1. Ибрагимова А.Т. Развитие социальной компетентности у детей дошкольного возраста в условиях современного общества. "Педагогика"журнал,2020. № 1, С.12-17.

2. Рахимов М.С. Формирование социальной компетентности дошкольников в процессе игровой деятельности. "Дошкольноеобразование"журнал,2019. № 4, С.25-31.

3. Абдуллаев С.Х. Психолого-педагогические основы развития социальной компе тентности у детей дошкольного возраста. "Психология"журнал,2018. № 2, С.10-15.

4. Венгер Л.А. Психология развития ребенка. 2017. М.: "Просвещение".С.125.

5. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения.М.:"Педагогический университет".2016.С.241.

6. Эльконин Д.Б. Психологияигры.2015. М.: "Академия".С.180.

7. Erikson E. H. Childhood and society.New York:W. W. Norton & Company. 1963.C.18.

8. Bandura A. Social learning theory. Englewood Cliffs, NJ:Prentice-Hall. 1977

9. Vygotsky L.S. Mind in society:The development of higher psychological processes.Cambridge, MA:Harvard University Press. 1978.

# Проблемы воспитания человека в историческом развитии

**Академический лицей Международного Вестминстерского университета в Ташкенте**

**Зиявиддинова Зухрахон**

Заместитель директора по работе с молодежью

E-mail:zziyaviddinova@lyceum.wiut.uz

**Аннотация:** Статья посвящена исследованию проблем нравственного воспитания в истории педагогики. Основная цель исследования – выявление развития проблемы нравственного воспитания на различных исторических этапах. В работе анализируются исторические источники и научные труды, применяются методы анализа и обобщения. Особое внимание уделяется на причины актуализации проблем воспитания в современном мире. В статье выделяются ключевые этапы развития нравственного воспитания и анализируются их особенности и значимость для современной педагогики.

**Abstract:** The article is devoted to the study of problems of moral education in the history of pedagogy. The main goal of the study is to identify the development of the problem of moral education at various historical stages. The work analyzes historical sources and scientific works, and applies methods of analysis and synthesis. Particular attention is paid to the reasons for the actualization of educational problems in the modern world. The article highlights the key stages in the development of moral education and analyzes their features and significance for modern pedagogy.

**Key words:** moral education, history of pedagogy, pedagogical methods, historical analysis, development of education, modern pedagogy;

Воспитание и образование являются фундаментальными элементами для формирования ответственных и целеустремленных граждан, которые будут способствовать развитию и процветанию страны. Именно поэтому государство уделяет огромное внимание проблемам воспитания молодежи. Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев неоднократно поднимал данную тему и подчеркивал, что наука, образование и воспитание являются краеугольными камнями развития

страны: "Воспитание здорового и гармонично развитого поколения, целеустремленной и энергичной молодежи, способной взять на себя ответственность за судьбу и будущее Родины, направить на это все свои знания и потенциал, — для нас жизненно важный, главный вопрос". [1]

Чтобы понять тенденцию развития самого процесса воспитания, обратимся к истории и увидим, что воспитание человека претерпело значительные изменения на протяжении истории. Вот несколько ключевых аспектов, которые можно рассмотреть:

**Древние цивилизации**: Воспитание в древних обществах, таких как Египет, Греция и Рим, было тесно связано с религиозными и культурными традициями. Например, в Древней Греции большое внимание уделялось физическому и интеллектуальному развитию, что отражалось в системе образования и воспитания.

**Средние века**: В этот период воспитание было в значительной степени под влиянием церкви. Образование и воспитание носили религиозный характер, и основное внимание уделялось моральному и духовному развитию.

**Эпоха Возрождения**: Возрождение принесло с собой гуманистические идеи, которые изменили подход к воспитанию. В этот период акцент сместился на развитие индивидуальности и творческих способностей человека.

**Новое время**: В XVIII-XIX веках, с развитием науки и промышленности, возникли новые подходы к воспитанию. Появились идеи о важности образования для всех слоев общества, а также о необходимости развития критического мышления и самостоятельности.

**Современность**: В XX и XXI веках воспитание стало более комплексным и многогранным. Воспитание рассматривается как процесс, включающий не только передачу знаний, но и развитие социальных навыков, эмоционального интеллекта и критического мышления. Современные подходы также учитывают индивидуальные особенности каждого ребенка и стремятся создать условия для его всестороннего развития.

Уже в древнем мире многие общественные деятели и мыслители хорошо сознавали и указывали на огромную роль воспитания как в развитии общества, так и в жизни каждого человека. Уже в трудах древнегреческих

философов - Гераклита, Демокрита, Сократа, Платона, Аристотеля и др. - содержалось немало глубоких мыслей по вопросам воспитания. Из античной Греции ведет свое происхождение и термин «педагогика», который закрепился в качестве названия науки о воспитании.

Главная педагогическая задача, по мнению Сократа, состоит не в подготовке человека к конкретным видам деятельности, направленной на личное и общественное благо, а в его нравственном развитии, в формировании основ добродетельного поведения. При этом огромное значение он придавал образу жизни учителя, как примеру для подражания, и стилю его взаимоотношений с учениками.

На Востоке в средние века образование и воспитание также играли важную роль, но имели свои особенности. В отличие от Западной Европы, где доминировала католическая церковь, на Востоке значительное влияние оказывали ислам и конфуцианство.

В исламском мире образование было тесно связано с религией, но также включало светские науки. Медресе служили центрами обучения, где изучали Коран, хадисы, а также математику, астрономию, медицину и философию.

В эпоху Возрождения (XIV-XVII века) воспитание и образование претерпели значительные изменения, отражая гуманистические идеалы того времени. Основные особенности воспитания в этот период включают гуманизм, расширение учебных дисциплин, роль учителя, так как учителя стали играть ключевую роль в формировании нравственных и интеллектуальных качеств учеников, также были пересмотрены методы и средства обучения.

Эти изменения заложили основу для современного образования, подчеркивая важность всестороннего развития личности и профессионализма в преподавании.

Каковы особенности воспитание сейчас? Почему в современном мире проблема воспитания стала столь острой? Давайте рассмотрим некоторые причины:

1.**Социальные изменения:** В современном обществе происходят значительные изменения, такие как урбанизация, миграция и глобализация. Эти процессы влияют на традиционные семейные структуры и методы воспитания, вызывая необходимость адаптации к новым условиям.

**2.Технологический прогресс:** С развитием технологий и широким распространением интернета дети и подростки получают доступ к огромному количеству информации. Это требует от родителей и педагогов новых подходов к воспитанию, чтобы помочь детям критически оценивать получаемую информацию и использовать её во благо.

**3. Изменение ценностей**: Современные ценности и нормы поведения могут отличаться от традиционных. Это вызывает необходимость пересмотра методов воспитания, чтобы они соответствовали современным реалиям и помогали детям адаптироваться к быстро меняющемуся миру.

**4. Психологическое благополучие**: В последние годы всё больше внимания уделяется вопросам психологического здоровья и благополучия детей. Стресс, вызванный высокими требованиями в школе и обществе, требует от родителей и педагогов особого внимания к эмоциональному состоянию детей.

**5. Глобальные вызовы:** Проблемы, такие как изменение климата, экономическая нестабильность и пандемии, также влияют на воспитание. Родители и педагоги должны готовить детей к жизни в условиях неопределенности и учить их справляться с этими вызовами.

Проблема воспитания является одной из наиболее изученных и обсуждаемых тем в педагогике, психологии и социологии. Были исследованы такие ключевые аспекты, как теории воспитания, методы воспитания. Следует отметить, что существует множество теорий воспитания, разработанных различными учеными и педагогами. Например, теории Льва Выготского, Джона Дьюи и Марии Монтессори оказали значительное влияние на понимание процессов обучения и воспитания детей.

Исследования охватывают различные методы воспитания, такие как авторитарный, авторитетный, либеральный и индифферентный стили. Эти исследования помогают понять, как разные подходы влияют на развитие детей.

В Узбекистане воспитание детей и педагогическая наука имеют глубокие корни и богатую историю и основывается на трудах великих ученых и просветителей, таких как Абу Али ибн Сино, Абу Райхон Беруни. Их работы заложили основы педагогической мысли и продолжают оказывать влияние на современные методы воспитания. Также, важные фигуры джадидского движения, такие как Абдулла Авлони, Абдулкадыр Шакури, Махмудходжа Бехбуди активно писали о необходимости реформ в образовании и воспитании. Они подчеркивали важность воспитания толерантности, просвещения и критического мышления. А высказывание Абдуллы Авлони «Воспитание для нас - вопрос жизни или смерти, спасения или гибели, счастья или беды» является девизом всех педагогов и родителей, которые неравнодушны к будущему своих учеников и детей.[2]

Основные теории воспитания в стране опираются на национальные традиции и культурные ценности, которые передаются из поколения в поколение. В узбекских семьях большое внимание уделяется семейным ценностям, таким как уважение к старшим, ответственность родителей за воспитание детей и взаимное уважение между членами семьи. Эти традиции формируют основу нравственного воспитания и культурного развития детей. Следует отметить, что в последние годы в Узбекистане активно развиваются педагогические науки, направленные на всестороннее развитие личности. Государственная политика в области образования поддерживает непрерывную систему обучения, которая включает в себе как традиционные, так и современные методы воспитания. Реформируется школьная программа, куда поэтапно был внедрен предмет «Воспитание» в практику средних общеобразовательных учебных заведений.

Проблему воспитания невозможно решить в рамках одного школьного предмета. Воспитание — это комплексный процесс, который требует интеграции различных подходов и методов. Среди основных проблем воспитания в школе можно выделить отсутствие индивидуального подхода, где стандартный подход к воспитанию детей без учета их индивидуальных особенностей может привести к трудностям и недопониманию. Важно отметить и тот факт, что эффективное воспитание требует тесного сотрудничества между школой и семьей, что не всегда реализуется на практике. Также существуют проблемы с мотивацией: Мотивация учеников к обучению и развитию часто остается на низком уровне, что затрудняет воспитательный процесс.

Для решения этих проблем необходимо применять комплексные воспитательные технологии, учитывать индивидуальные особенности каждого ребенка и активно вовлекать родителей в образовательный процесс.

Обобщая вышесказанное, хочу процитировать Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиеева, который сказал, что "Семья — это основа общества, и именно в семье закладываются фундаментальные ценности и моральные устои. Родители должны быть примером для своих детей, воспитывать их в духе патриотизма, уважения к старшим и любви к Родине. [3] Эта цитата еще раз подчеркивает важность семейного воспитания и роль родителей в формировании личности ребенка.

**Список использованной литературы:**

1. Мирзиеев Ш.М. Цитаты из выступления на торжествах, посвященных 26-летию независимости Узбекистана.

2. А.Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Тошкент. 2018.

4. Абдуллаев А. Семейное воспитание в Узбекистане. - Ташкент, 2005.

5. Алихожиев М.О. Тажимирзаев Э.А. Джадидизм в Туркестане и просветительская деятельность джадидов. - Андижан. 2016.

6. Абдурахманова, Ш. А. Развитие педагогической науки в Республике Узбекистан // Молодой ученый. 2017. — № 1

7. Выготский Л. Собрание сочинений: в 6 т. — М., 1982–1984.

8. Дьюи, Дж.. Демократия и образование. Нью-Йорк: The Macmillan Company. 2016.

10. Сафиязова Д.Ж, Влияние национальных традиций на воспитание детей в узбекских семьях, III международная научная конференция «Теория и практика образования в современном мире» — Санкт-Петербург : Реноме, 2013.

## INSON TARBIYASINING AXLOQIY ASOSLARI: KONFUTSIY VA SHARQ FALSAFASI

Kenjayev Burgutali Qovuljon o'g'li
Ijtimoiy fanlar fakulteti Gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Ahmadjonova Dilafruz Zokirjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika (logopediya) yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalaridagi qarashlari, islomda bolalar tarbiyasi to'g'risida so'z yuritilgan. Shuningdek, mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta'lim-tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ulardan to'g'ri foydalanish pedagogik ta'lim jarayonida o'qituvchining pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlardan biri ekanligi ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** axloqiy qoida, tarbiya, odob, barkamol inson, insonparvarlik, ma'naviy fazilatlar, umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyat, milliy tafakkur, islom madaniyati.

**Abstract:** The article deals with the views of Eastern thinkers on education, morality, and the upbringing of children in Islam. Also, one of the important

features of a teacher's pedagogical skills in the process of pedagogical education is the knowledge of the methods and means of education in the creative activity of Easterthinkers, the methods and means of education in the minds of the younger generation. revealed that.

**Keywords:** morality, education, manners, harmonious human being, humanity, spiritthinking, Islamic culture. ual qualities, universal values, national values, national

**Аннотация:** В статье рассматриваются взгляды мыслителей на вопросы воспитания и морали, воспитания детей в исламе. Также выявлено, что знание образвнедрения идей, взглядов и представлений, связанных с воспитанием, в творческую деятельность мыслителей, их правильное использование в жизни является одной из важных осоовательных методов и средств

**Ключевые слова**: моральные прдуховные качества, общечеловеческие ценности, национальная цеавила, воспитание, манеры, совершенный человек, гуманизм, нность, национальное мышление, исламская культура.

O‘zbek xalqi o‘zining uzoq tarixi davomida yaratilgan ta’lim-tarbiyaga oid boy merosga ega.Tarbiya ham ota-onalarning burchi va farzandlarning haqqidir. “Tarbiya” so‘zi arabcha “robba” fe’lidan olingan bo‘lib, o‘stirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma’nolarini bildiradi.Yosh avlodda yuksak ma’naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllan umuminsoniy tirish, boy madaniy merosimiz, tarixiy an’analarimizga, qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalar sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi insonlar o‘zligini chuqur anglashi, mustaqillikning qadrini tobora teran tushunishi, milliy tafakkurning kengayishi va takomillashuvi, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg‘onishini ta’minlash ma’naviyat sohasidagi siyosatimizning asosiy maqsadiga aylandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida to‘xtalib: “Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o’zimiz tarbiyalashimiz Buning uchun yoshlarimiz bilan ko’proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak.Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz”. Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.

Tarbiya o‘z navbatida oiladan boshlanar ekan, biz o‘z farzandlarimizni baxti-saodatini, kamolini, iqbolini, buyuk inson bo‘lib yetishganligini va hayot abadiyligi avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan ma’naviy qo‘rg‘oni bo‘lmish o‘z oilamizning mustahkamligini ko‘rishni istar ekanmiz, demak oilada tarbiyalanuvchilarimizni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalashda tarbiyaning barcha turlariga e’tiborni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.Shunday ekan, oilada bola tarbiyasi umumdavlat ahamiyatiga molik muammodir. Shu boisdan har qanday jamiyatni oilaga, oilada bola tarbiyasiga bo‘lgan talabi ortib boradi. Ayni vaqtda - davlatning, ota-onaning bolalarni tarbiyalashdagi, farzandlarning ota-ona oldidagi mas’uliyatini oshirishdagi roli kuchayadi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek, “Buyuk ma’rifatparvar bobomizning bu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lsa hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Qadimgi Xitoyning buyuk donishmandi, bundan 2500 yil avval yashagan va ijod qilgan Konfutsiy “konfutsiychilik “ deb ataluvchi axloqiy-siyosiy bilimlar ta’limotini ishlab chiqqan. Bu ta’limotning mazmun-mohiyatini insonning tabiiy axloq-odobini takomillashtirilish, davlatni boshqarish haqida ma’lumotlar berilgan. Konfutsiy ta’limotida hukmdor va quyi qatlam vakillari o‘rtasidagi munosabatlar,

jamiyatdagi tinchlik va osoyishtalik, nafosatshunoslik qoidalari haqida ma'lumot berilgan.Konfutsiy uchun eng muhimi bu insonning axloqi va tarbiyasi, bunda quyidagi beshta tushuncha alohida o‘rin tutadi: (Ren) insonga bo‘lgan muhabbat, (Yi) ma’suliyat, (Li) xulq-atvor me’yorlari, (Zhi) bilimlar, (Xin) ishonch. Bundan tashqari ezgu fazilatlarga kattalarga hurmat ehtirom (xiao) ham kiritiladi .Xulq-atvor me’yorlari, (Zhi) bilimlar, (Xin) ishonch. Bundan tashqari ezgu fazilatlarga kattalarga hurmat ehtirom ( xiao ) ham kiritiladi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, yuqorida keltirilgan ezgulik tushunchalarining tarjimalari shartli ravishda amalga oshirilgan bo’lib, bu tushunchalarning har biri juda keng ma’noga ega bo'lgan.

Konfutsiy ta’limoti butun Xitoy bo‘ylab yoyilgan. Chunki uning qarashlari o‘z davrida muhim ahamiyat kasb etgan. Xitoydagi ilm-fan taraqqiyotiga Konfutsiy va uning maktabi alohida hissa qo‘shgan. Konfutsiyni yunon falsafasi tarixidagi Suqrotning o‘rni bilan qiyoslash mumkin. Konfutsiy maktabida asosan uning hikmatlari, o‘g‘itlari va pandu-nasihatlari o’rgatilgan. Ular o‘z ustozlarini ishlarini davom ettirishgan, ya’ni konfutsiylik ta’limotini butun Xitoy bo‘ylab va butun dunyo bo‘ylab yoyishga harakat qilganlar. Konfutsiyning shogirdlari unga sodiq bo‘lishgan va o‘z ustozlarini Buyuk Inson sifatida hurmat qilishgan. Xitoyda Konfutsiy tuzgan maktab ko‘p asrlar davom etdi. Miloddan avvalgi 136-yilda imperator Uqarashlari rasmiy ravishda Di hukmronlik qilgan davrda Konfutsiy “ta’limot” deb e’lon qilindi. Shundan keyin Konfutsiy ta’limoti 2000 ming yildan ortiq vaqt mobaynida hukmron ideologiya sifatida davom etdi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. T.: “Hilol-nashr”. 2013 y.

2. A.Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma’naviy qadriyatlar. T.: Muharrir, 2008

3 .M.Xajiyeva. Xoja Ahmad Yassaviyning ma’naviy-tarbiyaviy qarashlari. Avtoreferat. T.: 2004 y.

4. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O‘qituvchi. 1992 y.
5. Y.Abdullayev. Eski maktabda xat-savodga o‘rgatish. T.: 1960 y. 38-bet.
6.10. I.Karimov. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008 y.

# 4-SHO’BA: TARBIYA KLASTERLARINI SHAKLLANTIRISHDA AXLOQIY VA ESTETIK BILIMLARNING ZARURIYATI VA VOSITALARI

## SUN’IY INTELLEKTNING AXLOQIY MASALALARI

Madraximov Azamat Adilovich
Namangan Davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
email:azamatmadrakhimov80@mail.ru

**Annotatsiya:** Sun’iy intellekt rivoji zamonaviy dunyoqarashni tubdan o’zgartiruvchi omillardan biridir. Bu texnologiyaning imkoniyatlari bilan birga jiddiy axloqiy masalalari ham yuzaga keladi. Ushbu mavzu doirasida insoniyat oldida turgan savollar tahlil qilinadi.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt axloqiy tamoyillari qanday shakllanishi kerakligi, unga insoniyatning universal qadriyatlarini singdirish usullari, shuningdek, huquqiy va madaniy cheklovlarning roli haqida fikr yuritiladi. Sun’iy intellekt inson manfaatlari yo’lida xizmat qilishga yo’naltirish uchun bu masalalarni hozirdan chuqur va mas’uliyat bilan muhokama qilish zarur.

**Kalit so’zlar:** Sun’iy intellekt, axloq, axloqiy paradigma, axloqiy mas’uliyat va halollik, manipulyatsiya, algoritm.

**Abstract:** The development of artificial intelligence is one of the factors that fundamentally changes the modern worldview. Along with the potential of this technology comes serious ethical issues. Within this topic, the questions facing humanity will be analyzed.

In addition, it will be discussed how the ethical principles of artificial intelligence should be formed, ways of instilling in it the universal values of humanity, as well as the role of legal and cultural restrictions. In order to direct

artificial intelligence to serve human interests, it is necessary to discuss these issues in depth and responsibly.

**Key words:** Artificial intelligence, morality, moral paradigm, moral responsibility and honesty, manipulation, algorithm.

**Аннотация:** Развитие искусственного интеллекта является одним из факторов, кардинально меняющих современное мировоззрение. Наряду с потенциалом этой технологии возникают серьезные этические проблемы. В рамках этой темы будут проанализированы вопросы, стоящие перед человечеством.

Кроме того, будет обсуждаться, как должны формироваться этические принципы искусственного интеллекта, способы привития ему общечеловеческих ценностей, а также роль правовых и культурных ограничений. Чтобы направить искусственный интеллект на службу интересам человека, необходимо глубоко и ответственно обсуждать эти вопросы.

**Ключевые слова:** Искусственный интеллект, мораль, моральная парадигма, моральная ответственность и честность, манипуляция, алгоритм.

**Kirish (Introduction).** Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2024 yil 13 avgust kuni sun’iy intellekt va IT sohasidagi startup loyihalari bilan tanishganliklari, 8 oktabr kuni Moskvada Mustaqil Davlatlar Hamdostligi rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida MDH mamlakatlari ekspertlari va tahlilchilarining uchrashuvlarini muntazam o’tkazish hamda navbatdagi konferensiyani Samarqand shahrida sun’iy intellektni rivojlantirish masalalariga bag`ishlab o’tkazishni taklif etganliklari va 14 oktabr kuni **“Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to’g`risida”**gi qarorni tasdiqlaganliklari hozirgi kunning dolzalb mavzusi ekanligini ko’rsatib turibdi.

Nobel qo‘mitasi fizika bo‘yicha 2024 yilgi mukofot sovrindorlarini e’lon qildi. Amerikalik Jon Hopfild hamda britaniya-kanadalik Jyeffri Hinton ushbu mukofotga sazovor bo‘ldi.

Mukofot “sun’iy neyron tarmoqlari yordamida “Machine Learning”ning asosini tashkil etuvchi fundamental kashfiyotlar va ixtirolar uchun” berildi.

Ikkala laureat ham statistik fizika bilan shug‘ullangan. Ularning ishlari zamonaviy neyron tarmoqlari yaratilishiga olib keldi. Bugungi kunda ushbu tarmoqlar sun’iy intellektning ko‘plab sohalarida keng qo‘llanilmoqda.

Ushbu maqola orqali sun’iy intellektning axloqiy masalalari ko’rsatishga harakat qilingan.

Qayd etish joizki, sun’iy intellektni ijtimoiy va boshqa sohalarga joriy qilishda shaxsga doir ma’lumotlar daxlsizligi, ularni saqlash va boshqarish muhim ahamiyatga ega. Chunki, sun’iy intellektdan foydalanishning axloqiy jihatlari, ayniqsa, AQSh, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar va yetakchi xalqaro tashkilotlar diqqat markazida bo‘lib, inson huquqlari va shaxsiy ma’lumotlar masalasi hamda sun’iy intellektdan siyosiy va buzg‘unchi maqsadlarda foydalanish xavfi dolzarb hisoblanadi. Ayrim davlatlar, xususan, Xitoy va Rossiyada sun’iy intellekt va AKTdan fuqarolar shaxsiy huquq va erkinliklarini cheklash va siyosiy maqsadlarida foydalanilmoqda, degan ayblovlar yangramoqda. Shuning uchun sun’iy intellektdan foydalanishning huquqiy va axloqiy asoslarini yaratishda bu masalalarga ham alohida e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiq.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili** (Literature review). Sun'iy intellekt hayotimizda keng tarqalgan. U tibbiyot, moliya, transport, ta'lim va boshqa sohalarda qo'llaniladi. Biroq, sun'iy intellektning rivojlanishini jiddiy kuzatib borish va bir nechta muhim axloqiy jihatlarga e'tibor berish kerak.

Isroillik tarixchi va faylasuf Yuval Noah Harari o‘zining "Homo Deus: Kelajakning qisqacha tarixi" kitobida sun'iy intellekt (SI) va texnologik rivojlanishning insoniyat kelajagiga ta'siri haqida keng fikr yuritadi. U asarda

sun'iy intellektning axloqiy va falsafiy jihatlarini o'rganar ekan, quyidagi masalalarga to'xtalib o‘tadi:

Axloqiy paradigmaning o‘zgarishi: Harari kelajakda sun'iy intellekt va avtomatlashtirish insoniyat axloqiy tushunchalarini jiddiy o’zgartirishi mumkinligini ta’kidlaydi. An’anaviy axloq qoidalari inson tajribasi va ehtiyojlariga asoslangan bo‘lsa, Sun’iy intellekt o‘zining algoritmik qarorlari bilan insoniy axloqni qayta ko‘rib chiqishga majbur qilishi mumkin.

Insonning axloqiy ustunligi tugashi: Sun'iy intellektning rivojlanishi bilan birga, inson axloqiy va kognitiv jihatdan ustunlikni yo'qotishi mumkinligi haqida fikrlar bildiriladi. Sun’iy intellekt  insonlardan ko'ra samaraliroq va aniqroq qarorlar qabul qilishi mumkin bo‘lgan kelajakda, insoniyatning axloqiy roli qanday o'zgarishi muhim savol sifatida ko‘tariladi.

Axloqiy mas’uliyat va halollik: Harari shuningdek, sun’iy intellekt tomonidan qabul qilingan qarorlar uchun axloqiy javobgarlik kimda bo'lishini muhokama qiladi. Agar sun’iy intellekt avtonom ravishda ishlaydigan tizimlarga aylansa, axloqiy mas'uliyatni kim o‘z zimmasiga olishi kerakligi haqida noaniqlik paydo bo‘ladi.

Sun’iy intellekt va empatiya muammosi: Harari sun'iy intellektning insoniy his-tuyg'ular va empatiyani his qila olmasligi axloqiy muammolarni keltirib chiqarishini ta'kidlaydi. Inson axloqida hissiyotlar muhim rol o'ynaydi, lekin sun’iy intellekt bu jihatlarni hisobga olmasligi mumkin, bu esa qaror qabul qilishda axloqiy ziddiyatlar tug‘dirishi mumkin.

Umuman olganda, Harari "Homo Deus"da sun'iy intellekt axloqiy me'yorlar va insoniyatning o‘z-o‘zini anglashiga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqidagi savollarni keng ko'lamda o‘rganadi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)**

Ma'lumotlar xavfsizligi sun'iy intellektni rivojlantirish va qo'llash bilan bog'liq eng muhim masalalardan biridir. Katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va saqlash maxfiylik va shaxsiy xavfsizlikka tahdid solishi mumkin. Shuning uchun

ma'lumotlarni himoya qilish va shifrlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, ruxsatsiz ma'lumotlarga kirish va suiiste'mol qilishni oldini olish kerak.

Bundan tashqari, odamlar alohida guruhlariga salbiy ta'sir ko'rsatmaslik uchun ma'lumotlarni qayta ishlashda tarafkashlik va kamsitishni bartaraf etishga e'tibor berish muhimdir. Shuningdek, foydalanuvchi shaxsiy hayoti va xavfsizligiga rioya qilish uchun axloqiy tamoyillar va ma'lumotlarni qayta ishlash tartib-qoidalarini ishlab chiqish kerak.

**Tizimlarning shaffofligi.** Yana bir muhim jihat-sun'iy intellekt tizimlarining shaffofligi. Foydalanuvchilar va umuman jamiyat sun’iy intellekt tizimlarida qanday algoritmlar va ma'lumotlar ishlatilishini va qarorlar qanday qabul qilinishini tushunishlari kerak. Sun'iy intellektning shaffofligi ishonchsiz va mumkinligi noto'g'ri bo’lgan xulosalarning oldini olishdir. Sun'iy intellektni talqin qilish va tushuntirish usullarini qo'llash tizimning shaffofligini ta'minlashga va uning ishlash tamoyillarini tushunishga yordam beradi. Bunday usullar qaror qabul qilish jarayonini vizualizatsiya qilish, algoritm mantig'ini ifodalash va sun'iy intellekt tomonidan chiqarilgan xulosalarni asoslashni o'z ichiga olishi mumkin.

**Mas’uliyat.** Sun'iy intellektdan foydalanishning ko'payishi bilan huquqiy va axloqiy javobgarlik masalasi paydo bo'ladi. Sun'iy intellekt tomonidan qilingan xatolar uchun kim javobgar? Xavfsizlik va kamsitmaslik uchun qanday choralar ko'rilmoqda? Ushbu masalalar tegishli Qonunchilik va me'yoriy asoslarga e’tibor va rivojlanishni talab qiladi.

Sun'iy intellekt sohasidagi axloqiy javobgarlikning muhim jihatlaridan biri bu zararli va noqonuniy tarkibni yaratish yoki tarqatish uchun sun'iy intellektdan foydalanishga yo'l qo'ymaslikdir. Shuningdek, odamlarni manipulyatsiya qilish va nazorat qilish uchun sun'iy intellektni suiste'mol qilishning oldini olish choralari zarur. Sun’iy intellekt tizimlari uchun emas, balki ayrim populyatsiyalar uchun salbiy oqibatlarga olib kelmaslik uchun oldindan o'ylangan ma'lumotlar yoki algoritmlarga asoslangan bo'lishi kerak. Sun’iy intellekt algoritmlarida oldingi

rasmiy jihatlarni aniqlash va oldini olish uchun axloqiy tamoyillar va sinovdan o'tkaziladigan usullarni ishlab sun'iy intellektni yanada adolatli va xavfsizroq dasturni amalga oshirishga yordam beradi.

O'nlab yillar davomida YUNESKO o'zining noyob vakolati doirasida qat'iy axloqiy tamoyillar asosida ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishni ta'minlovchi yetakchi xalqaro tashkilot bo'lib kelgan.

YUNESKO genetik tadqiqotlar, iqlim o'zgarishi va ilmiy tadqiqotlar sohasida global standartlarni ishlab chiqdi, bu esa ilmiy kashfiyotlar natijalaridan maksimal darajada foydalanish va bir vaqtning o'zida xavflarni minimallashtirish, ularning yanada inklyuziv, barqaror va xavfsiz dunyoni yaratishga hissa qo'shishini ta'minladi. Neyrotexnologiya etikasi, iqlim muhandisligi va narsalar interneti kabi sohalardagi dolzarb muammolar ham aniqlandi.

**Sun'iy intellektning (AI) jadal rivojlanishi butun dunyo bo'ylab ko'plab imkoniyatlarni ochib** beradi: sog'liqni saqlashda diagnostika sifatini yaxshilashdan tortib, ijtimoiy tarmoqlar orqali odamlar o'rtasida aloqalarni o'rnatish va vazifalarni avtomatlashtirish orqali mehnat samaradorligini oshirishgacha.

Biroq, bu tez o'zgarishlar **jiddiy axloqiy muammolarni ham** keltirib chiqaradi. Ular sun'iy intellekt tizimlari noxolis bo'lishi, iqlimning yomonlashishiga hissa qo'shishi, inson huquqlariga tahdid solishi va boshqa xavflar kelib chiqadi. Sun'iy intellekt bilan bog'liq xavflar allaqachon mavjud tengsizlikni kuchaytira boshlagan, bu esa allaqachon marginal guruhlarga ko'proq zarar yetkazadi.

**Boshqa hech bir sohada axloqiy kompasning mavjudligi sun'iy intellekt sohasidagi kabi dolzarb emas**. Ushbu umumiy texnologiyalar bizning ishlashimiz, o'zaro munosabatlarimiz va yashash tarzimizni o'zgartiradi. Dunyo olti asr oldin bosmaxona paydo bo'lganidan beri tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada o'zgardi. Sun'iy intellekt texnologiyalari ko'plab sohalarda katta foyda keltiradi, ammo **axloqiy asoslarsiz** ular haqiqiy dunyoda xurofot va kamsitishlarning

tarqalishiga, kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishi va insonning asosiy huquqlari va erkinliklariga tahdid solishi mumkin.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Sun'iy intellektning axloqiy jihatlari bo'yicha tavsiyalar

2021-yil noyabr oyida 193 a'zo davlat ushbu sohadagi birinchi global me'yoriy hujjat bo'lgan "sun'iy intellektning axloqiy jihatlari bo'yicha tavsiya"ni qabul qildi.

**Inson huquqlari va qadr-qimmatini himoya** qilish sun’iy intellekt tizimida inson nazorati muhimligini hisobga olgan holda shaffoflik va adolatning asosiy tamoyillarini ilgari surishga asoslangan tavsiyaning asosidir.

Shu bilan birga, siyosatchilarga ma'lumotlarni boshqarish, atrof-muhit va ekotizimlar, jins, ta'lim va tadqiqotlar, sog'liqni saqlash va ijtimoiy farovonlik va boshqa ko'plab sohalardagi asosiy qadriyatlar va tamoyillarni hayotga tatbiq etishga imkon beradigan ko'plab siyosiy harakatlar sohalari tavsiyaning amaliy ahamiyatini beradi.

## To'rtta asosiy qiymat sozlamalari

Tavsiyaning markazida insoniyat, shaxslar, jamiyatlar va atrof-muhit manfaati uchun ishlaydigan sun’iy intellekt tizimlari uchun asos yaratadigan to'rtta asosiy qadriyat joylashgan:

1. Inson qadr-qimmati, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish
2. Tinch, adolatli va o'zaro jamiyatga bog'liq yashash
3. Turli xillik va inklyuzivlikni ta'minlash
4. Atrof-muhit va ekotizimlarning farovonligi

**Sun’iy intellekt haqida dinamik tushuncha**

Tavsiya sun’iy intellektni keng ma'noda ma'lumotni aqlli xatti-harakatlarga o'xshash tarzda qayta ishlashga qodir tizimlar sifatida izohlaydi. Bu juda muhim, chunki texnologik o'zgarishlarning tez sur'atlari tufayli har qanday qat'iy, tor ta'rif tezda eskiradi va uzoq muddatli siyosatni amalga oshirib bo'lmaydi.

1. Mutanosiblik va zarar yetkazmaslik
2. Xavfsizlik
3. Maxfiy ma’lumotlarni himoya qilish
4. Ko’p tomonlama va moslashuvchan boshqaruv va o’zaro ta’sir
5. Mas’uliyat va javobgarlik
6. Shaffoflik va tushuntirish
7. Insonga bo’ysunish
8. Barqarorlik
9. Xabardorlik va savodxonlik
10. Adolat va kamsitmaslik

**Siyosatning ustuvor yo'nalishlari**

**Siyosatning ustuvor yo'nalishlari a'zo davlatlar sun'iy intellektni mas'uliyatli rivojlantirish jarayonida muvaffaqiyat qozonishi mumkin bo'lgan sohalarni aniq belgilab beradi.**

Qadriyatlar va tamoyillar sun’iy intellekt tizimi uchun har qanday axloqiy asosni yaratish uchun juda muhim bo'lsa-da, sun’iy intellekt etikasi sohasidagi so'nggi harakatlar yuqori tartib tamoyillaridan tashqariga chiqish va amaliy strategiyalarni ishlab chiqishga o'tish zarurligini ko'rsatadi.

Aynan shu strategiyalar va **siyosiy harakatlar uchun o'n bitta asosiy yo'nalishni** tavsiyalarda keltirilgan.

1. Axloqiy ta’sirni baholash
2. Axloqiy boshqaruv va boshqaruvchilik
3. Ma’lumotlar siyosati
4. Rivojlantirish va xalqaro hamkorlik
5. Atrof-muhit va ekotizim
6. Gender
7. Madaniyat
8. Ta’lim va ilmiy tadqiqot
9. Aloqa va axborot

10. Iqtisodiyot va mehnat
11. Salomatlik va ijtimoiy farovonlik

**Xulosa va takliflar:** Ushbu maqolada sun'iy intellektni rivojlantirish va qo'llashning asosiy axloqiy jihatlari, jumladan ma'lumotlar xavfsizligi, tizim shaffofligi va javobgarlik ko'rib chiqildi. Sun'iy intellektdan axloqiy foydalanishni ta'minlash uchun tegishli mexanizmlar va me'yorlarni ishlab chiqish va qo'llash kerak. Ushbu sohadagi keyingi tadqiqotlar va munozaralar axloqiy me'yorlarni ishlab chiqishga va sun'iy intellektdan xavfsizroq va adolatli foydalanishga hissa qo'shishi mumkin. Ushbu mavzu ma'lumotlarni himoya qilish usullarini chuqurroq tahlil qilishni, shaffoflik standartlarini ishlab chiqishni o'z ichiga olishi mumkin bo’lgan axloqiy ramkalarni qurish va sun'iy intellektni boshqarishda qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish zarurligini ko’rsatadi. Shunga o'xshash axloqiy me'yorlarni ishlab chiqishga va sun'iy intellektdan xavfsizroq, shaffof va adolatli foydalanishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-son qarori
2. Yuval Noah Harari "Homo Deus: Kelajakning qisqacha tarixi"
3. www.unesco.org

## Autizm spektri buzilishlarida ijtimoiy-emotsional soha va o‘zaro muloqot qilishdagi muammolar

**Oribboyeva Dilafruz Dadamirzayevna** Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya kafedra mudiri

**Abdulmoniyeva Gulhayo Odiljon qizi** Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya fakulteti Maxsus pedagogika: Logopediya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim va unda autizm spektri buzilishlari(ASB) dagi emotsional hamda ijtimoiy soha, ijtimoiy muhitda shaxslarning bir-biri bilan muloqot qilishidagi muammolar va yechimlari haqida batafsil bayon etilgan.

**Аннотация:** В статье подробно описаны проблемы и пути решения инклюзивного образования и эмоционально-социальной сферы при расстройствах аутистического спектра (РАС), а также коммуникации личности в социальной среде.

**Abstract:** This article describes in detail the problems and solutions of inclusive education and the emotional and social sphere in autism spectrum disorder (ASD), as well as the communication of individuals in the social environment.

**Kalit so‘zlar:** inklyuziv ta’lim, ASB , emotsional soha, ijtimoiy soha, empatiya, logopediya, ergoterapevt

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, АСБ, эмоциональная сфера, социальная сфера, эмпатия, логопед, эрготерапевт.

**Key words:** inclusive education, ASB, emotional sphere, social sphere, empathy, speech therapy, occupational therapist

**Kirish:** Inklyuziv ta’limda bolalarda pedagogik, psixologik, tibbiy, jismoniy, aqliy muammolari doirasida autizm spektri buzilishi holatlari ham uchrab turadi. ASB ga chalingan bolalar juda qo‘rquvga moyil, hech kim bilan muloqotga kirisha olmaydigan bolalardir.

Autizm spektri buzilishlari (ASB) tug'ma nevrologik holat bo'lib, u shaxsning ijtimoiy muloqoti, emotsional rivojlanishi va xatti-harakatlariga ta'sir qiladi. Autizm bilan yashaydigan shaxslar odatda boshqa odamlar bilan samarali muloqot qilishda va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Autizm spektri buzilishlariga chalingan bolalar va kattalar ijtimoiy-emotsional rivojlanishda sezilarli farqlarni namoyon etadi.

Ular quyidagi muammolar bilan to'qnashishi mumkin:

Emotsional javobning qiyinligi: Autizmli odamlar ko'pincha boshqalar namoyish etayotgan emotsiyalarni tushunishda va javob berishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular quvonch, g'azab, qayg'u kabi his-tuyg'ularni anglash yoki ularga mos javob berishda qiyinchilikka duch kelishlari mumkin.

Empatiya va hamdardlikning pasayishi: Empatiya qilish qobiliyati ham kamaygan bo'lishi mumkin. Boshqalar boshdan kechirayotgan holatlarni his qilish va bu hissiyotlar orqali ularga to'g'ri javob berish qobiliyati autizmli insonlar uchun qiyinroq bo'ladi.Ijtimoiy signallarga javob berishdagi qiyinchiliklar: Ijtimoiy suhbatlarda tana harakati, ko'z bilan aloqa, yuz ifodalari kabi noverbal signallarni aniqlash va ularga javob berish ko'pincha murakkab bo'ladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi:** Mazkur maqola uchun tahlil va metodologik asos sifatida Kembrij universiteti soha yetakchisi S. Baron-Cohenning "Autism and Asperger Syndrome" asari hamda Prizant, B. M., Wetherby, A. M., Rubin, E., Laurent, A. C., & Rydell larning " The SCERTS Model: A Comprehensive Educational Approach for Children with Autism Spectrum Disorders" asarlarini amaliy tahlil vositasi sifatida talqin qilindi.S. Baron Cohenning asari autizm spektri buzilishlarining asosiy xususiyatlari va boshqalarga qanday ta'sir qilishi haqida muhim ma'lumotlar bersa, Prizant, Rubin, Laurentlarning asarlarida autizm spektri buzilishlari bo'yicha SCERTS modeli asosida ijtimoiy muloqot va emotsional rivojlanish strategiyalarini o'rganishga qaratilgan metodologik asos sifatida foydalanilgan asardir.

**Muhokama va natijalar:** O‘zaro muloqot qilishdagi muammolar: Autizm spektri buzilishiga ega bolalar va kattalarda muloqot qilish bilan bog‘liq muammolar asosan ikkiga bo‘linadi:

Verbal muloqot: Ayrim autizmli shaxslar so‘zlash qobiliyatida sustlik yoki umuman so‘zlashmaganlikni namoyon etishlari mumkin. So‘zlash qobiliyatiga ega bo‘lganlarda esa o‘z ifodalarini boshqalar uchun tushunarli tarzda yetkazib berishda qiyinchiliklar kuzatiladi.[1]

Noverbal muloqot: Ko‘z bilan aloqa qilish, imo-ishora va tana tili orqali muloqot qilish autizmli shaxslar uchun qiyin bo‘lishi mumkin. Bu esa ularning ijtimoiy o‘zaro munosabatlarga kirishishini cheklaydi.

ASBga chalingan shaxslarning ijtimoiy va emotsional ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus pedagogik va terapiya metodlari qo‘llaniladi:

Ergoterapiya: Ergoterapevtlar bolalar va kattalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarni amalga oshiradilar.

Logopediya: Nutq bilan bog‘liq muammolarni hal qilish va muloqot qobiliyatlarini oshirish uchun logopedlar bilan ishlash tavsiya etiladi.

Dasturli o‘yinlar: Maxsus dasturiy o‘yinlar orqali autizmli bolalarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga yordam berish mumkin.[2]

Autizmning asosiy belgilaridan ba'zilari:

Ijtimoiy muloqot muammolari: Autizmli bolalar va kattalar ko'pincha boshqalar bilan o'zaro aloqada qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ular boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish yoki tushuntirishda qiyinchilikka uchrashi mumkin. Ko'p hollarda ko'z bilan aloqa qilish, tana harakatlarini tushunish yoki mos javob berishda muammolar kuzatiladi.[3]

Takrorlanuvchi xatti-harakatlar: Autizmli shaxslar ko'pincha ma'lum bir xatti-harakatlarni qayta-qayta bajarishadi. Masalan, ular bir xil faoliyatga qiziqib qolishlari yoki doimiy ravishda bir xil narsalarga e'tibor qaratishlari mumkin.

Qiziqish va ko‘nikmalar chegaralanganligi: Autizm spektr buzilishiga ega shaxslar odatda o'zlarini ma'lum bir qiziqish yoki faoliyatga ko‘proq

bag‘ishlashadi. Bu cheklangan qiziqishlar oddiy faoliyatdan tortib, texnik jihatlarni o‘rganishga qadar bo‘lishi mumkin.[4]

Autizmga sabab bo‘luvchi omillar:

Hozirgi kunga kelib, autizmning aniq sabablari to'liq aniqlanmagan. Genetik omillar muhim rol o'ynaydi, chunki bu buzilish ba'zan oilalarda bir necha avlod davomida kuzatilishi mumkin. Shuningdek, muayyan ekologik omillar (masalan, homiladorlik davrida ona organizmiga ta'sir qiluvchi omillar) autizm rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqida tadqiqotlar mavjud.

Davolash va yordam:

Autizmning to‘liq davosi mavjud emas, lekin turli xil terapiya usullari orqali bolalar va kattalar o'z ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishi va o'zlarining xatti-harakatlarini boshqarishni o‘rganishi mumkin. Masalan:Davranish terapiyasi: Takroriy va mos bo‘lmagan xatti-harakatlarni to‘g‘rilashga qaratilgan terapiya.[5]

Nutq va til terapiyasi: Ijtimoiy muloqot va til ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qo‘llaniladi.

Dori vositalari: Ba'zi hollarda autizm bilan bog‘liq muammolarni yengillashtirish uchun qo‘llanilishi mumkin.Autizmli shaxslar o'ziga xos qobiliyatlarga ega bo‘lishi mumkin va ular to‘g‘ri yordam bilan jamiyatda to‘liq yashay olishlari mumkin. [6]

**Xulosa va takliflar:** Xulosani shundan iboratki, autizm spektri buzilishlariga chalingan shaxslar uchun ijtimoiy-emotsional rivojlanish va o‘zaro muloqot qilishdagi muammolar juda dolzarbdir. To‘g‘ri yordam va qo‘llab-quvvatlovchi dasturlar bilan autizmli insonlarning ijtimoiy hayotga moslashishi va samarali muloqot qilishlari imkoni mavjud. Terapiyalar va ta’lim metodlarining qo‘llanilishi ijtimoiy-emotsional qiyinchiliklarni yengillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Baron-Cohen, S. (2008). Autism and Asperger Syndrome. Cambridge University Press.Frith, U. (2003).
2. Autism: Explaining the Enigma. Blackwell Publishing.

3. Klin, A., Volkmar, F. R., & Sparrow, S. S. (Eds.). (2000). Asperger Syndrome. Guilford Press.

4. Attwood, T. (2007). The Complete Guide to Asperger's Syndrome. Jessica Kingsley Publishers.

5. Greenspan, S. I., & Wieder, S. (2006). Engaging Autism: Using the Floortime Approach to Help Children Relate, Communicate, and Think. Da Capo Lifelong Books.

6. Prizant, B. M., Wetherby, A. M., Rubin, E., Laurent, A. C., & Rydell, P. (2005). The SCERTS Model: A Comprehensive Educational Approach for Children with Autism Spectrum Disorders. Brookes Publishing.

## TARIXIY TARAQQIYOT JARAYONIDA INSON TARBIYASIGA OID MASALALAR

Xaydarov Zahiriddinbobur Umarovich Namangan Davlat Pedagogika instituti Gumanitar fanlar kafedrasi Dotsenti.

Abdumajidova Sayyora Baxodir qizi Namangan Davlat Pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.

abdumajidovazilola@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarixiy taraqqiyot bosqichlari va ularning insoniyat ongiga ta'siri, zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto" haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, ajdodlarimizning tarbiya borasidagi teran qarashlari o‘z aksini topgan bo‘lib, hozirgi globallashgan hayotimizda yoshlarning hayotida OAV vositalarining o'rni va tarbiyasiga ta'siri xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tarbiya, ibtidoiy jamoa, animizm, totemizm, fetishizm, "Avesto", "Turkiy guliston yoxud axloq", ommaviy axborot vositalari.

**Annotatsion:** This article provides information on the stages of historical development and their impact on human consciousness, and the Zoroastrian holy book, "The Avesta".At the same time, the profound views of our ancestors on education have been reflected, in our current globalized life, an opinion is expressed about the role of mass media in life and education of young people.

**Keywords:** Education, primitive community, animism, totemism, fetishism, "Avesta", " Turkiy gulistan yoxud axloq", mass media.

"Tarbiya" so'zining ma'nosi - rivojlantirish; parvarish qilish, o'stirish, o'rgatish ma'nolarini anglatadi. Insonda ish- hunar, odob-axloqni shakllantirish, rivojlantirishga, uning jamiyatda yashashi uchun kerak bo‘lgan xislatlarga ish-amallar majmui va shu yo‘l bilan singdirilgan odob-axloq, xislat, fazilat kabilarning o'zi.[1] Shu bilan birga, "tarbiya" tushunchasi jamiyatimizga har tomonlama yetuk ya'ni aqlan, jismonan va ma'nan barkamol insonni shakllantirish va rivojlantirish bosqichi degan ma’noni ham anglatadi.

Tarixiy taraqqiyot insoniyatning jamiyat, madaniyat, texnologiya, siyosat va iqtisodiyot sohalaridagi rivojlanishini, insonlarning ongi, madaniyat, ma'rifat va tarbiyasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Insoniyatning qadimgi tarixini turli ixtisosdagi olimlar o'rganishgan. Masalan, antropologlar, etnograflar va arxeologlar shular jumlasidandir.Asta-sekinlik bilan insoniyat ov qilishni ,terimchilikni shu bilan birga tosh qurollar ya'ni chopperlar yasash kabi faoliyatlarni o'zlashtirib oldi. Shuningdek, odamlar o'zlari uchun g'ayrioddiy tuyilgan tabiat hodisalari,suv toshqinlari, qurg‘oqchilik kabi tabiat hodisalarini anglab yetishga harakat qilishgan va bu hodisalarning ostida g'ayritabiiy sir borligiga ishonishgan. Natijada,animizm,totemizm va fetishizm deb ataluvchi tushunchalar paydo bo‘lgan."Totemizm"- odamlar guruhi jamoasining biror hayvon yoki o'simlik turi bilan qarindoshlik aloqasiga ishonish. "Fetishizm"- esa qadimgi odamlar u yoki bu buyumlar omad keltirishiga yoxud balo- qazoni bartaraf etishiga ishonishgan. " Animizm "- odamlarni o'rab turgan borliqda jon va ruhlarning borligiga ishonish kabi ma'nolarni anglatgan. Yozma manbalarning

topilishi esa olimlarga qadimgi ming yilliklar tarixini tiklashni osonlashtirdi. O'rta Osiyo tarixi bo‘yicha eng qadimgi yozma manba zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto" sanaladi.U Baqtriya, Sug'd, Xorazm aholisi madaniyati to'g'risida hikoya qiladi.Tarixiy  taraqqiyotda inson tarbiyasiga ta'sir etgan muhim omil ham 'Avesto " kitobi hisoblanadi. "Avesto" so'zining ma'nosi esa " qat'iy belgilangan qonun-qoidalar " degan ma’noni bildiradi. Undagi ta'limotga ko'ra, zardushtiylarning umrining tub ma’nosi ezgu fikr, ezgu so‘z, va ezgu amaldan iborat bo‘lgan. Insonning asosiy burchi eng avvalo adolatli turmush tarzi hisoblangan. Undagi asosiy qahramonlar Ahuramazda - ezgulik ilohi, Ahriman - yovuzlik ilohi sifatida gavdalanadi. Ular o'rtasidagi kurash esa ezgulikning g'alabasi bilan yakunlanadi. Bu esa insonlar qadim zamonlardan beri zulm va zo'ravonlik, yovuzlik va adolatsizlik ham vaqtincha ekaniga,ezgulik hamisha g'alaba qozonishiga ishonishganligini bilib olishimiz lozim.[2]

Ya'ni bola tarbiya qiluvchilar ko'z oldimizda tabib, shifokor sifatida gavdalanadi. Abdulla Avloniy ushbu ibratli fikri bilan farzand tarbiyasida "jahldorlik marazi" tog'riroq qilib aytganda, jahldorlik, qo'pollik va turli bemaza so'zlarni so'zlab emas, balki xushmuomalalik, halimlik va shirinsuxanlik bilan odob- axloq va tarbiyaning singdirish lozimligi haqida eslatib o'tilgan.[3]

Hozirgi globallashgan hayotimizda bu ibratli fikrni naqadar to'g'riligiga ishonch hosil qilamiz. Chunki, bugungi kundagi nafaqat yoshlar balki, kattalarning tarbiyasida, yurish- turishida hattoki tilida ham juda katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Bularga sabab nima degan savol tug'ilishi tabiiy.

Hech kimga sir emaski, bugungi axborotlashgan jamiyatimizda hayotimizni internat tarmog‘isiz tasavvur qilish qiyin , albatta. Dunyoning u chekkasida bo'lgan voqea yashin tezligida dunyoning bu chekkasiga internet orqali tarqaladi. Ommaviy axborot vositalaridagi aynan mana shu axborotlarni to'g'ri tahlil qilish orqali, biz bu axborotni yaxshi yoki aksincha yomoniga ajrata olamiz. Afsuski, bugungi kunda yoshlarimizning axborotni noto‘g‘ri talqin qilishi oqibati tufayli

turli xil terroristik guruhlarga qo'shilib qolayotganligi , ommaviy axborot vositalariga bog'lanib qolishlari achinarli holat.

Axborot maydonida xabarlar oqimi kuchaygani sari ishonchli va to'g'ri manbalarni aniqlash dolzarblashmoqda. Shunday vaziyatlarda "feyk" ekan degan so‘zlar quloqqa chalinadi, Feyk( ing. fake) -"soxta" , "qalbaki" degan ma'nolarni anglatadi. Bunday ma’lumotlarga haqiqatga juda o'xshab ketadigan yolg'on xabarlar, o'zgartirilgan fotosuratlar, montaj qilingan videoroliklar, ijtimoiy tarmoqlarda boshqa shaxslar ( odatda, mashhur insonlar) nomidan ochilgan " yolg‘on akkauntlar" misol bo'la oladi.

Hozirda ijobiy axborot bilan bir qatorda, salbiy axborotni yoshlar ongiga singdirishning usul va vositalari aynan internet orqali amalga oshirila boshlandi. Buning oldini olishning birgina yo'li bor, bu- keng tafakkur , yuksak bilim va tarbiyali bo'lishdir.[4]

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib aytganda, har bir xalqning o'ziga xos urf-odatlari, an'analari, odob-axloqi va tarbiya borasidagi qadimdan shakllangan boy, qadimiy merosga ega. Shunday ekan, biz ham avlod-ajdodlarimiz bizga meros qilib qoldirgan noyob durdonalarini nafaqat asrashimiz, balki unga amal qilishimiz darkor. Zero, yuksak ta'lim-tarbiyamiz, odob-axloqimiz, bilim va malakalarimiz bilan butun dunyoga ibrat bo'laylik!

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muallif: Jasur Shukurov LLC. "O'zbek tilining izohli lug‘ati".Lug'at tarkibi "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi ".

2. A. S Sagdullayev, V. A Kostetskiy " Qadimgi dunyo tarixi " 6-sinf darslik. "Yangiyo‘l Poligraf Servis" Toshkent-2017 8-10-11-bet

3.Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq " Mutollaa ilovasi.
Toshkent-2024. 6-7-bet.

4.N.Ismatova, Z. Zamoniva, Z. Islomov, D. Rahimjonov, O. Maxmudov, D. Ro'ziyeva, S. Shermuhamedova, S. Akkulova, N. Xolmuxammedova, Z. Jabborova." Tarbiya " 10-sinf darslik. Toshkent-2021.

# *BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI O'QITISHDA O'YIN TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI*

Abduraximova Muxtaramxon Mirjalol qizi
*Namangan Davlat pedagogika instituti*
*Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi*
*1-kurs magistranti.*
muxtaramxon56@gmail.com

**Annotatsiya***:* ushbu maqolada boshlang'ich sinf dars jarayonlarida samarali o'yin ta'lim texnologiyalaridan foydalanish,o'quvchilar bilimini oshirishda va ularni dars jarayonlariga yetarlicha jalb qilishda o'yin ta'lim texnologiyalarining o'rni, mazkur texnologiyalarining dars jarayonlarida qo'llanilish usullari keng yoritilgan.

***Kalit so'zlar:*** didaktika, texnologiya, ta'lim, mashg'ulot, jamiyat, metod.

***Аннотация:*** в данной статье рассматривается использование эффективных игрово-образовательных технологий в учебном процессе начальной школы, роль игрово-образовательных технологий в повышении знаний учащихся и их достаточной вовлеченности в учебный процесс, использование этих технологий в учебном процессе. методы описаны подробно.

***Ключевые слова:*** дидактика, технология, образование, обучение, общество, метод.

***Abstract:*** in this article, the use of effective game-educational technologies in elementary school teaching processes, the role of game-educational technologies in increasing students' knowledge and their sufficient involvement in the teaching process, the use of these technologies in the teaching process methods are covered in detail.

***Key words:*** didactics, technology, education, training, society, method.

O‘zbekistonimizda mustaqillik sharofati bilan barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirildi, iqtisodiy rivojlantirishning o‘zbek modeli, kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ishlab chiqildi va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda ta’lim sohasiga alohida e’tibor qaratilib, kelajak avlodni tarbiyalash borasida zarur shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratilmoqda. Bugungi kunda dunyo miqyosida axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotganligi va bu boshqa sohalar qatorida ta’lim jarayoniga ham kirib kelib, uni yanada sifatli tashkil etishga o‘z ta’sirini ko‘rsatayotganligi barchamizga ma’lum. Bunday sharoitda inson faoliyatining nazariy va amaliy qirralari ham uzluksiz yangilanib turishi tabiiydir. Pedagogik faoliyat ham alohida va murakkab mehnat turi sifatida bundan mustasn emas. Pedagoglar o‘z faoliyatlarida kafolatlangan natijalarni qo‘lga kiritishga urinmoqdalar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini oson o‘zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to‘g‘ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. O‘qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko‘pgina metodlaridan foydalaniladi. Bola hayotida bog‘chadan so‘ng maktabning dastlabki davrlari muhim o‘rin tutadi. Shu bois, boshlang‘ich ta’lim davri ta’lim jarayonidagi eng ma’suliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi. Bu davrda bolaning zehnini o‘stirishga qaratilgan har bir mashg‘ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun bu davrda, avvalo, ta’lim jarayonini qiziqarli, ta’sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e’tibor qaratish lozim. Chunki, bu muddat bolaning o‘yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya’ni o‘quv faoliyatiga o‘tganligi bilan harakterlanadi. Bolaning o‘quv faoliyatini rivojlantirishda turli o‘yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o‘yin orqali o‘z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o‘zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta’lim jarayonida qo‘llanadigan didaktik o‘yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o‘yinlar ta’lim jarayoni samaradorligini oshiradi, ta’lim jarayonida o‘quvchilar

faolligini, o'qish motivlarini rivojlantiradi. O'qish motivlari ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan o'qish darslari jarayonida erkin va mustaqil qobiliyati shakllanadi. Mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanishi natijasida, o'quvchilar atrof olamdagi, jamiyatdagi qonunlarni, shuningdek, asardagi ijobiy va salbiy qahramonlar orqali insoniy fazilatlarni anglash, bilimlarni chuqur o'rganish, keng fikrlash, tegishli qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi. Pedagogik texnologiyalardan foydalanishda ta'limning mazmunini belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchilarning bilimlarni keng egallashi va ma'naviy fazilatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ta'limning natijasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash, ularni obektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi.

O'yin ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, ularni dars jarayoniga qaratilgan e'tiborini yanada oshirishda samarali vosita hisoblanadi .Shuningdek, bilimlarni qiziqarli tarzda o'zlashtirish ulardan amaliyotda erkin va mazmunli foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Ta'lim jarayonida o'yin ta'lim texnologiyalari didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi.Bunday darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayoni o'yin texnologiyalari orqali amalga oshiriladi .Shu sababdan bunday texnologiyalar asosida olib borilgan dars jarayonlari didaktik o'yin texnologiyasidagi darslar deyiladi.

*Didaktik o'yinli mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlari.* O'qituvchi-pedagog didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'tkazishga qizg'in tayyorgarlik ko'rishi va uni o'tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etiladi:

1. Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlar dasturda qayd etilgan mavzularning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarini hal qilishga qaratilgan bo‘lishi;

2. Jamiyatdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag‘ishlanib, ular o‘yin davomida hal qilinishi;

3. Barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-axloq normalariga mos kelishi;

4. O‘yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda bo‘lishi;

5. Mashg‘ulotlar davomida didaktik printsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishishi kerak.

Konferentsiya mashg‘ulotini o‘tishdan avval mashg‘ulot mavzusini, maqsad va vazifalarini belgilab, shu mavzuga oid qo‘shimcha ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar ko‘zdan kechiriladi. Mashg‘ulotni o‘tkazishdan 1 hafta oldin mashg‘ulot mavzusi e’lon qilinib, unga tayyorgarlik ko‘rish uchun adabiyotlar tavsiya etiladi.

«Kasb ta’limi metodlari» mavzusida o‘tkaziladigan ilmiy konferentsiya mashg‘uloti quyidagi loyiha bo‘yicha o‘tkazilishi mumkin.

Mavzu: «Kasb ta’limi metodlari».

Mashg‘ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism.

2. O‘quvchlarni mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.

Bu mashg‘ulotni o‘tishdan bir hafta oldin o‘quvchlarni 4ta guruhga ajratamiz va ularga pedagogika fani sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan «Olimlar» maqomini beramiz.

3 Yangi mavzuni o‘rganish: O‘quvchlar guruhi o‘z mutaxassisliklariga tegishli bo‘lgan quyidagi mavzulardan biri bo‘yicha ma’ruza tayyorlaydi.

1. Kasb ta’limi metodlari va ularning tavsifnomasi.

2. Reproduktiv va muammoli izlanish metodlari.

3. Ishlab chiqarish jarayonida interfaol metodlar.

Didaktik o‘yinli ta’lim texnologiyasining o‘ziga xos jihati, an’anaviy ta’limdagidan farq qilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqilligi va o‘quv fani faoliyatini ta’qiqlamasdan, balki belgilangan maqsadga yo‘naltirish o‘quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etishni talab etadi. Ularni faoliyatiga ongli ravishda yo‘llash biror-bir faoliyatni buyruq orqali amalga oshirmasdan, balki samarali tashkil etish orqali o‘quvchilarda fan asoslarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi imkoniyatlarini chegaralamasdan erkin tanlash huquqini berish sanaladi. Bunday darslarni olib borishda o‘quvchining tabiatshunoslik fanidan to‘liq bilim olishi, axloqli bo‘lishi, biror-bir kasb tanlash iste’dodini ravnaq toptirish, xalqimizning yaxshi fazilatlarini egallashi uchun avvalo o‘qituvchining ijodiy mehnat qilishi talab etiladi. O‘qituvchi o‘quvchiga nisbatan sergak, ziyrak bo‘lib, uning qiziqishi, qobiliyatini hisobga olib, murabbiylarcha muomalada bo‘lishi darkor. Shundan keyingina darslarda foydalaniladigan didaktik o‘yinli texnologiyalar o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirib, darslik va qo‘shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish, ularni ongli ravishda kasbga yo‘llash, didaktik o‘yin davomida vujudga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etishda mo‘ljalni to‘g‘ri olish, har xil vaziyatlarni tahlil qilib, to‘g‘ri xulosa chiqarishga zamin tayyorlaydi. Metodist o‘qituvchilarning ko‘p yillik tajribalari va kuzatishlaridan didaktik o‘yinlar boshqa fanlar qatori tabiatshunoslik darslari va darsdan tashqari mashg‘ulotlarning mazmunli bo‘lishida eng qulay va samarali usullardan biri hisoblanishi qayd qilingan. Darsda didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning qiziqishi, hozirjavobligini bilishni chuqur egallashga qaratilgan ko‘nikma va malakalarni oshirishi ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida bir qator innovatsion texnologiyalar, jumladan, tabiatshunoslik darslarida rolli o‘yinlar, klaster, ishbilarmonlar o‘yini va boshqalardan foydalanish zarurligi haqida ham fikr yuritilgan.

Xulosa qilib aytgadigan bo‘lsak boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishni samarali tashkil etish, pedagogik texnologiyalarning mazmuni, shakl va vositalari, ta’lim berishda pedagogik texnologiyalardan to‘g‘ri va unumli foydalanish uslublari, kafolatlangan natijaga erishish uchun olib borilayotgan ta’lim sohasidagi yangiliklarni o‘rganish, amaliyotda foydalanish ishning amaliy ahamiyatini belgilaydi. Ta’lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo‘lganligi uchun ta’lim samaradorligi pedagog va o‘quvchi faolliligiga, ta’lim vositalarining mavjudligiga, ta’lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog‘liq.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muallif: Jasur Shukurov LLC. "O'zbek tilining izohli lug‘ati".Lug'at tarkibi "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi ".

2. A. S Sagdullayev, V. A Kostetskiy " Qadimgi dunyo tarixi " 6-sinf darslik. "Yangiyo‘l Poligraf Servis" Toshkent-2017 8-10-11-bet

3.Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq " Mutollaa ilovasi.
Toshkent-2024. 6-7-bet.

4.N.Ismatova, Z. Zamoniva, Z. Islomov, D. Rahimjonov, O. Maxmudov, D. Ro'ziyeva, S. Shermuhamedova, S. Akkulova, N. Xolmuxammedova, Z. Jabborova." Tarbiya " 10-sinf darslik. Toshkent-2021.

## TURISTON MUXTORIYATI UCHUN KURASH MUAMMO VA ZIDDIYATLAR

Akbarova Umida Abduholiq qizi
Namangan Davlat Pedogogika instituti Maxsus Pedogogika yo’nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari davlatchiligi tarixida Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishi yoritilgan. Shuningdek, o‘sha davr milliy matbuotida Turkiston muxtoriyatining faoliyati va uning qismatiga doir ko‘p ma’lumotlar tahlil qilingan.

**Abstract.** This article describes the establishment of the Turkestan Autonomy in the history of the statehood of the peoples of the Central Asian region. Also, the

national press of that time analyzed a lot of information about the activities of Turkestan autonomy and its fate.

**Абстрактный.** В данной статье описывается становление Туркестанской автономии в истории государственности народов Среднеазиатского региона. Также в отечественной прессе того времени анализировалось много информации о деятельности Туркестанской автономии и ее судьбе.

**Kalit so‘zlar:** Turkiston Muxtoriyati, qurultoy, kengash, sho‘ro, “Ulug‘ Turkiston”, “Najot”, “Turon” gazetalari.

**Key words:** Turkestan Autonomy, congress, council, council, "Ulug' Turkestan", "Najot", "Turon" newspapers.

**Ключевые слова:** Туркестанская автономия, съезд, совет, совет, газеты «Улуг Туркестан», «Наджот», «Турон».

**Kirish**

1917-yil oktabr inqilobi va undan keyin Rossiya imperiyasida yuz bergan ozgarishlar natijasida Turkiston muxtoriyati uchun kurash muhim bosqichga kirdi. Bu davrda Turkiston xalqlari mustaqillik va milliy ozodlikka intilgan bir paytda, siyosiy, milliy, etnik, diniy va iqtisodiy muammolar va ziddiyatlar ham avj oldi. Ushbu maqolaning mohiyatida Turkiston muxtoriyati uchun kurash jarayonidagi asosiy muammo va ziddiyatlar tahlil qilinadi.

Muxtoriyat uchun kurash davomida diniy va dunyoviy qarashlar o'rtasidagi to'qnashuvlar ham katta rol o’ynadi.Shu qatorda Islom dini asosida jamiyatni boshqarishni istagan kuchlar bilan dunyoviy-demokratik boshqaruvni qo'llab-quvvatlovchilar o'rtasidagi kelishmovchiliklar muxtoriyatning ichki barqarorligiga putur yetkazgan davr deb hidoblasak ham boladi. Ba'zi guruhlar islomiy shariat qonunlariga asoslangan davlat tuzishni xohlagan bo'lsa, boshqalar dunyoviy tamoyillar asosida davlat boshqaruvini rivojlantirishni maqsad qilishgan edi. Iqtisodiy muammolar .Turkiston muhtoriyatining iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini taminlashda va bartaraf etishda juda katta va jiddiy qiyinchiliklar

mavjudligi sababli sovetlar iqtisodiy nazoratni qoldan boy bermaslik va qolda qattiq ushlash maqsadida muxtoriyatning moliyaviy resurslariga bosim o'tkazdilar. Natijada, muxtoriyat o'z resurslarini samarali boshqarish va rivojlantirishda qiyinchiliklarga duch keldi va shu qatorda harbiy resurslarning yetishmasligi esa sovetlarga qarshi samarali kurash olib borishga to'sqinlik qildi.

1918-yil boshida sovet hukumati Turkiston muxtoriyatini bostirish maqsadida Qizil Armiyani Turkiston muhtoriyatiga yubordi. Bu bosqinchilik natijasida jiddiy sabablar yuzaga keldi. Shu qatorda muxtoriyatning rahbarlari qatag'on qilindi yoki surgun qilindi va muxtoriyatning o'zi esa tugatildi. Sovetlar tomonidan amalga oshirilgan bu harakatlar natijasida Turkiston xalqlarining milliy ozodlik va mustaqillik harakatlariga katta zarar yetkazildi.

Bundan tashqari Turkiston hududida yashovchi turli millat va etnik guruhlar ortasida ham ko'plab kelishmovchiliklar va nizolar mavjud edi. O'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar va tojiklar kabi millatlar o'z manfaatlarini muxtoriyat doirasida himoya qilishga intilishdi. Har bir millatning oziga xos madaniy va diniy qadriyatlari mavjud bo'lgani sababli, ular o'rtasida muayyan ziddiyatlar yuzaga keldi. Buning natijasida esa muxtoriyatni umumiy milliy maqsad yo'lida birlashtirishni qiyinlashtirdi va bunga yol qoymadi.Va bu hudud ustidan to'liq nazorat Siyosiy Muammolar va Ziddiyatlar Turkiston muxtoriyati tashkil topgan paytdan boshlab, markaziy sovet hukumati bilan to'qnashuvlar boshlanadi. Va ana osha davrda sovet hukumati Turkiston muxtoriyatining mustaqillik talablarini tan olmadi va ularni bostirishga intildi.

Xalqaro Jamoatchilikning Befarqligi

Turkiston muxtoriyati uchun kurash xalqaro miqyosda yetarlicha e'tibor qozona olmadi. Xalqaro jamoatchilik va yirik davlatlar Turkiston muxtoriyatini qo'llab-quvvatlamadi va uning mustaqillik harakatlariga e'tibor bermadi. Bu holat muxtoriyatning siyosiy va harbiy yordamdan mahrum qolishiga sabab bo'ldi. Islomiy asosda boshqaruvni tarafdorlari va dunyoviy boshqaruv shaklini qo'llab-

quvvatlovchilar o'rtasidagi kelishmovchiliklar muxtoriyat ichida birlikni ta'minlashga to'sqinlik qildi Bu esa harakatning zaiflashishiga sabab bo'ldi.

Shu o'rinda etibor qaratish zarur bolgan bir jihat bor:Turkiston Muhtoriyati 2 yarim oy mavjud bolgandan song ortada ikki hokimiyat :Toshkentda Xalq komisarlar kengashi va Turkiston Muxtoriyati hukumati vujudga keldi. Orta muzokaralar boshlandi. Ammo markazdan har qanday yol bilan yoq qilish togrisidagi topshiriq kelgani Toshkentdan harbiy echelon jonatilishiga sabab boldi. Farg'ona orqali yetib borgan 11ta eshelon Qo'qon shahrini orab oladi va 11 ta tarafdan toplar ornatiladi . Dastlab Turkiston Muhtoriyatidan taslim bolish talab qilinadi. Ammo ular qatiymavqeni egallab,bu talabni rad etadi.Shundan song esa shaharni topga tutishga buyruq beriladi. Shu tariqa hukumatning ayrim azolari ham oldiriladi. Boshqalari esa Qo'qondan chiqib ketishga majbur bo'ladi. Maqsad hamma narsani tashlab ketish emas balki, vzaiyatdan chiqib ketish bolgan. 19-fevralda esa Turkiston Muhtoriyati yer bilan yakson qilindi, deb hisoblanadi ,ammo Turkistonni Muhtoriyati saqlanib qolavergan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki,Turkiston Muhtoriyati uchun bo'lib o'tgan kurash milliy ozodlik harakati sifatida muhim ahamiyat kasb etgan bolsa-da, ko'plab muammolar shu qatorda ichki siyosiy ziddiyatlar , milliy va etnik kelishmovchiliklar,iqtisodiy va siyosiy qiyinchiliklar va tashqi bosimlar uning muvaffaqiyatsizligiga olib keldi.Sovetlarning Turkiston muhtoriyatini bostirish va qatag'on qilish harakatlari oxir-oqibat barcha harakatlarning barbod bo'lishiga sabab bo'ldi. Shunga qaramay, bu kurash Turkiston xalqlarining milliy o'zlikni anglash va ozodlik uchun intilish jarayonida muhim tarixiy voqea bo'lib qoldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muallif: Jasur Shukurov LLC. "O'zbek tilining izohli lug'ati".Lug'at tarkibi "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi ".

2. A. S Sagdullayev, V. A Kostetskiy " Qadimgi dunyo tarixi " 6-sinf darslik. "Yangiyo'l Poligraf Servis" Toshkent-2017 8-10-11-bet

3.Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq " Mutollaa ilovasi.

Toshkent-2024. 6-7-bet.
4.N.Ismatova, Z. Zamoniva, Z. Islomov, D. Rahimjonov, O. Maxmudov, D. Ro'ziyeva, S. Shermuhamedova, S. Akkulova, N. Xolmuxammedova, Z. Jabborova." Tarbiya " 10-sinf darslik. Toshkent-2021.

## AXLOQIY TARBIYA JARAYONIDA BADIIY ASARLARNING O‘QUVCHILARGA TA’SIRI

Axmadjanova Muazzam Islamjanovna Namangan davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Azamjonova Odina Isroiljon qizi O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada badiiy asarlarning o‘quvchilarga ta’siri haqida so‘z yuritiladi. Axloqiy tarbiya jarayonida badiiy asarlarning o‘quvchilarga ta’siri juda ahamiyatli hisoblanadi. Chunki ularning axloqiy qadriyatlarini anglashida va hayotiy tajribalarini boyitishda muhimdir. Badiiy asarlar, ayniqsa, bolalar va o‘smirlarning tarbiyasida katta o‘rin egallashini asosiy sabablaridan biri, ular hayotiy voqealarni tushunish, qahramonlarning xatti-haraktini baholash va xulosa chiqarish orqali o‘quvchilarda axloqiy tushunchalarni shakllantiradi.

**Kalit so‘zlar:** Tarbiya, badiiy asar, qadriyatlar, tajribalar, dunyoqarash, fazilatlar, xulosa chiqarish, fikrlash.

**Annotation:** This article discusses the impact of works of art on students. In the process of moral education, the influence of artistic works on students is very important. Because it is important for their understanding of moral values and enriching their life experiences.One of the main reasons why works of art occupy a great place in the education of children and adolescents is that they form moral

concepts in the minds of students by understanding life events, evaluating the behavior of the hero and drawing conclusions.

**Key words:** education, artistic work, values, experiences, outlook, qualities, drawing conclusions, thinking.

**Аннотатция:** В данной статье рассматривается влияние произведений искусства на учащихся. В процессе нравственного воспитания очень важно влияние художественных произведений на учащихся. Потому что это важно для понимания ими моральных ценностей и обогащения их жизненного опыта. Одна из основных причин, почему произведения искусства занимают большое место в воспитании детей и подростков, заключается в том, что они формируют нравственные представления в сознании учащихся, осмысливая жизненные события, оценивая поведение героя и делая выводы.

**Ключевые слова:** Образование, художественная деятельность, ценности, опыт, мировоззрение, качества, выводы, мышление.

**Kirish:**

Biz o‘rganayotgan barcha badiiy adabiyot va asarlar har xil ma'no va mazmunga ega. O‘quvchi bu asarlarini o‘qir ekan, turli xil fikrlay boshlaydi. Badiiy asarlar o‘quvchi ongida o‘z-o‘zini anglashda katta ahamiyat kasb etadi.O‘quvchi asarni o‘qib, o‘zlarini qahramonlarning o‘rniga qo‘yib ko‘radi va xulosa chiqaradi. Kimdir yaxshi yana kimdir esa yomon hislatlarini o‘zida aks ettiradi. Lekin ko‘p kitob o‘qigan inson doim boshqalardan yuksak saviyasi bilan ajralib turadi. Bu esa ko‘pgina axloqiy fazilatlarni, masalan halollik, fidoyilik, muruvvat ko‘rsatish tushunchalarini yanada yaxshiroq anglash imkonini beradi. Badiiy asarlar orqali inson qanday bo‘lishini anglaydi. Misol uchun, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Anton Pavlovich Chexov kabi yana bir qancha yozuvchilar o‘z asarlari orqali axloqiy tarbiyalarini o‘quvchilarga yetkazish bilan tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi.

Hech bir ota-ona farzandiga go'zal tarbiyadan ko‘ra qimmatliroq meros qoldira olmaydi[1]. Bu gap bejizga aytilgan emas, bizning ota-bobolarimizdan

qolgan kitoblar bizning qimmatli boyligimiz. Biz u kitoblardan, asarlardan tarbiya olamiz. Bu bizning bobolarimizdan qolgan qadrli merosimizdir.

Badiiy adabiyotlar orqali axloqiy tarbiya berish faqatgina o'qish va yozishni o'rganish emas, balki yoshlar ongida ezgulik, adolat, halollik kabi axloqiy sifatlarni rivojlantirish uchun ham muhimdir. Badiiy adabiyotlar o'quvchilarning dunyoqarashi va hissiyotlariga ta'sir ko'rsatib, ularda yaxshi va yomon to'g'ri va noto'g'ri tushunchalarni anglashga yordam beradi.

Yana bir buyuk jadidchimiz Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq'' kitobida ham axloq va tarbiya haqida ham bir qancha ma'lumotlar berilgan. Unda aytilishicha, insonlarni yaxshilikg'a chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur. Axloq ilmini o'qub, bilub amal qilgan kishilar o'zining kim ekanin, janobi Haq na uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganin bilur. Bir kishi o'zidan xabardor bo'lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas. O'z aybini bilub, iqror qilub tuzatmakg'a sa'y va ko'shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidur[2] deydilar. Shu bilan bir qatorda, badiiy adabiyotning tarbiyaga o'rni juda muhimligini ta'kidlab o'tganlar.

Yana qo'shimcha qilib aytish mumkinki, badiiy adabiyot o'quvchilarning hissiy rivojlanishiga ham ta'sir qiladi, chunki asarlardagi voqealar va qahramonlarning boshidan o'tgan hissiyotlar orqali o'quvchilar o'zlarini hayotiy holatlarda tasavvur qilishadi. Badiiy asarlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ham muhim o'rin tutadi. Yozuvchilarning asarlari, ayniqsa, murakkab axloqiy masalalarni o'z ichiga olgan bo'lsa, o'quvchilar o'zlariga savollar beradi va qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil qiladi. Bu esa yoshlar ongida fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilar o'zlari o'qigan voqealar yuzasidan mustaqil xulosa chiqarish va to'g'ri qarorlar qabul qilishni o'rganadilar. Bunga misol tariqasida bizning

birinchi prezidentimi o‘z asarlarida yozib qoldirgan. "Men mumtoz yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning "O‘tgan kunlar" asaridagi qahramonlarning o‘zaro muomala va muloqotlari ularning hatto kichik farzandlarini ham <siz>lab gapirishlari misolida ota-bobolarimizning oila ma'naviyatiga qanchalik katta e'tibor berganiga ishonch hosil qilaman"[3],-deb yozadi.

Xulosa qilib aytganda axloqiy tarbiya jarayonida badiiy asarlar juda ahamiyatli hisoblanadi. Chunki barcha insonlar asarlar tufayli madaniyatni, estetikani o‘rganadilar. Qanchadan-qancha asarlar bizni yaxshilikka, ezgulikka chorlaydi. Qancha ko‘p kitob o‘qigan inson esa har doim boshqalardan ajralib turadi. Badiiy asarlar bizning eng katta boyliklarimizdan biri hisoblanadi.Bu boylikni biz doim qadrlashimiz kerak.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Akmal Miravaz o'g'li "Tarbiyaning oltin kaliti" Toshkent 2020-y 4-bet
2. Abdulla Avloniy ‘’Turkiy Guliston yoxud axloq’’ Toshkent 1917-y. 2-bet.
3. Islom Karimov "Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch" Toshkent 2010-y 55-bet

## MA’NAVIY YUKSALISH OMILLARI ORASIDA IRODANING TUTGAN O‘RNI

Boymurodov Zohid Shokirovich
Qarshi davlat universiteti,
Falsafa va sotsiologiya kafedrasi dotsenti
zohidboymurodov26@gmail.com

**Annotatsiya.** Maqola ma’naviy yuksalish jarayonida irodaning tutgan o’rni va ahamiyati masalasiga bag’ishlangan. Ma’naviy yuksalishga turli omillar ta’sir ko’rsatishi va bu jarayonning qanday kechishi bilan bog’liq masalalar o’rganilgan.

**Kalit so’zlar:** Ma’naviyat, iroda, milliy iroda, ma’naviy yuksalish, ijtimoiy tuzum, moddiy-iqtisodiy omil, madaniyat, ma’naviy madaniyat.

**Annotation.** The article is devoted to the issue of the role and significance of the will in the process of spiritual ascension. Issues related to the influence of various factors on spiritual upliftment and how this process proceeds have been studied.

**Key words:** spirituality, will, national will, spiritual uplift, social order, material and economic factor, culture, spiritual culture.

**Аннотация.** Статья посвящена вопросу о роли и значении воли в процессе духовного возвышения. Были изучены вопросы, связанные с тем, как различные факторы влияют на духовный подъем и как этот процесс происходит.

**Ключевые слова:** духовность, воля, национальная воля, духовный подъем, общественный строй, материально-экономический фактор, культура, духовная культура.

Ma`naviyatni yuksaltiruvchi omillar iroda orqali o'zining ta`sirchanlik xususiyatiga ega bo'ladi. Ma`naviyatni yuksalishiga ta`sir etuvchi bir qancha omillar mavjud. Bu omillardan biri moddiy-iqtisodiy omildir. A.Erkayev ta`kidlaganidek: "Har qanday siyosiy tuzum, inson, davlat va jamiyat hayoti o'zining moddiy-iqtisodiy poydevoriga, asoslariga ega. Ko'pincha aynan iqtisodiy omillar, moddiy manfaatlar ijtimoiy va siyosiy munosabatlarga, hatto mamlakatlarning o'zaro aloqalariga hal qiluvchi ta`sir ko'rsatadi. Siyosiy jihatdan qo'lga kiritilgan mustaqillikni iqtisodiy jihatdan musatahkamlash zarur"[1;b.51].

Aholining moddiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilash orqali ma`naviyatini yuksaltirishga erishishimiz mumkin. Kambag'al, qorni och odam bilim olgisi, kitob o'qigisi kelmaydi. Bunday odam hayotda faqat qorin to'yg'ozish g'ami bilan yashaydi. Bilim olishga vaqt ham, imkon ham topolmaydi. Sobiq Ittifoq davrida bunday insonlarni ko'plab uchratish mumkin edi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov to'g'ri ta`kidlaganidek: "U paytlar shunday vaziyatlar ham bo'lardiki, bir marta to'yib ovqatlanishning o'zi

baxt hisoblanardi. Men yoshligimda bularning barchasini boshimdan o‘tkazganman. Hatto, shunday bo‘lganki, maktabda bir necha bor dars payti ochlikdan holsizlanib uxlab qolganman. Bunday holatlar o‘sha zamonlarni ko‘rgan odamlarning ko‘pchiligiga begona bo‘lmasa kerak. Men aniq bilaman, sizlar ham yoshligingizda ayni shunday qiyinchiliklarni boshingizdan o‘tkazgansiz. Ya`ni hammamizning taqdirimiz o‘xshash bo`lgan. O‘sha davrlarda ertalab och-nahor turib, darsga chopardik, kuch-quvvat ham shunga yarasha bo‘lardi”[2;b.19]. Qashshoq yashaydigan jamiyat ilm-fanini ham, san`atini ham, madaniyatini ham rivojlantira olmaydi. Barcha shart-sharoitlarga ega, bekamu-ko`st yashaydigan odam hayotdan mamnun bo‘lib yashaydi. Bilim olishga intiladi. Bo‘sh vaqtida kitob mutolaa qiladi. San`atga oshufta odam bo‘lsa, yangi san`at asari yaratishga intiladi. Bunday insonlar qayerda bo‘lmasin yurtidan faxrlanib yashaydi.

Bir narsani unutmasligimiz kerak iqtisodiyot ma`naviyat rivojlanishi uchun moddiy shart-sharoitlar yaratadi. Iqtisodiyot ehtiyojlari, talablari ma`naviyatga nisbatan “buyurtmachi” vazifasini o‘taydi. Masalan, yangi texnologiyalar yaratish, mehnat qurollarini takomillashtirish va shu kabilar ilm-fanni, texnik ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ishlab chiqarish jarayonining murakkablashuviga, ilm talabligining oshishiga yarasha ishchi va mutaxassislarda yangi mehnat ko‘nikmalari hosil bo‘lishini, ularning malakasi muttasil o‘sib borishini taqozo etadi. Bu esa jamiyatda kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, umuman tarbiya va ta`lim tizimi rivojlanishiga, ma`naviy-psixologik muhit o‘zgarishiga, ishlab chiqarishda va turmushda ratsionalizatorlik, ixtirochilik, texnik ijodkorlikka moyillik kuchayishiga ta`sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, turli tovarlarni, mahsulotlarni va xizmat turlarini xaridorlarga yetkazish ehtiyoji har xil ko‘rgazmalar, shou tomoshalar, konkurslar, lotoreyalar va nihoyat reklama-axborot industriyasini vujudga keltirdi[3;b.270-271]. Iqtisodiyot o‘z-o‘zidan rivojlanmaydi. Uning rivojlanishi uchun insonda kuchli bilim va iroda kuchi zarur. Mamlakatda yuzaga keladigan har qanday iqtisodiy

masalalarni bilimli va irodali insonlar hal etadi. Agarda iqtisodiyotni yuksaltirishda noto‘g‘ri yo‘l tanlansa mamlakat inqirozga yuz tutishi mumkin.

Iqtisodiy o‘sish bo‘lmasa, xalq turmush farovonligi yuksalmasa, ma`naviyatning ko‘p sohalari ham rivojlanmaydi: xalq ta`limi, san`at, ommaviy axborot vositalari, matbaachilik, ilm-fanning moddiy bazasi nochor ahvolga tushib qoladi, jamiyatning ijodiy izlanishlari susayadi. Turli shakllardagi mafkuraviy murosasizlik, mutaassiblik tarqalishi uchun imkoniyatlar paydo bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, iqtisodiyot rivojlanishi uchun qo‘shimcha qiyinchiliklar tug‘diradi, chunki iqtisodiyotning yangi texnologiyalarga, yangi g‘oyalarga bo‘lgan ehtiyojlari yetarlicha qondirilmaydi. Iqtisodiy tafakkur davr talabidan ortda qola boshlaydi. Insonparvarlik, halollik yetarlicha hisobga olinmagan joyda ish beruvchi bilan ishga yollanuvchi o`rtasida ijtimoiy hamkorlik emas, qarama-qarshilik vujudga keladi[3;b.270-271].

Kishilik tarixi, bugun dunyodagi ko‘pgina taraqqiy topgan, barqaror va badavlat yashab kelayotgan davlatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, avvalo o‘zining xususiy mulkiga ega bo‘lgan shaxs va bunday shaxslardan tashkil topgan toifa o‘zini va oilasini boqishga, shu bilan birga, orttirgan daromadi hisobidan o‘z yaqinlari va muhtoj insonlarga beg‘araz yordam ko‘rsatish, el-yurt uchun xizmat qiladigan maktab, kasalxona, madaniyat va sport maskanlari barpo etish, bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, davlat va jamiyat zimmasidagi ko‘pgina vazifalarni amalga oshirishga o‘z hissasini qo‘shadi[4;b.70].

Inson moddiy-iqtisodiy farovonlikka faqat o‘zining mehnati va irodasi orqali erishadi. Irodali inson nafaqat oilasi, balki yaqinlarining ham yaxshi yashashi haqida qayg‘uradi. Qo‘lidan kelgancha ularga yordam beradi. Irodasiz inson esa mas`uliyatsizligi sababli oilaviy xarajatlarni o‘z zimmasiga olishdan qo‘rqadi. Farzandlarini o‘qishga emas, ishlashga undaydi. Oilasi uchun o‘zi pul topib, farzanlarini o‘qitishdan ko‘ra, farzanlari topib kelgan pul orqasidan yashashni xohlaydi. Bunday insonlar ko‘pincha faqirona kun kechiradi.

Ma`naviyatning yuksalishiga siyosiy omillar ham ta`sir ko'rsatadi. Davlat noto'g'ri siyosat yuritsa, zo'ravonlik, qatag'onchilik siyosati olib borsa, ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanmasdan davlatning hukmron mafkurasi o'rnatilsa ma`naviyat rivojlanmaydi. Stalin, Gitler davridagidek o'zgacha fikrlovchi odamlar qatag'on qilinsa, insonlar erkin fikrlay olmay, o'zini fikrini aytishga qo'rqib qoladi. Faqat buyruq asosida harakat qiladi. Insonlar o'rtasidagi ma`naviy muhit buziladi. Ular bir-biriga nisbatan ishonmay qo'yadi. Bir birini ustidan shikoyat qilib, yozishmalar olib boradi. Davlatga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'ladi.

Agar davlat erkin demokratik siyosat yuritsa, insonlarning siyosiy faoliyat bilan shug'illanishiga imkoniyat yaratib berilsa, fuqarolar davlatning olib borayotgan siyosatiga nisbatan o'zining mustaqil fikrini ayta olsa ma`naviyat ham yuksalib boradi.

Davlatda qonun ustuvor bo'lmasa, adolatsiz insonlar jazolanmasa firibgarlik, o'g'rilik, jinoyatchilik rivojlanadi. Firibgarlik, o'g'rilik, jinoyatchilik rivojlangan mamlakatda ma`naviyat rivojlanmaydi. Bunday mamlakat aholisining psixologiyasiga ham putur yetadi.

Mamlakatda qonun ustuvor bo'lsa, millatchilikka, diniy ayrmachilikka yo'l qo'yilmasa, insonlarning huquqlari, erkinliklari qonun bilan kafolatlangan bo'lsa ma`naviyat ham yuksaladi. Aybdor shaxs aybiga yarasha jazolanmasa bu hol boshqalarning men ham yomon ishlar bilan shug'illansam bo'ladi, meni ham jazolamaydi degan fikrni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ham mamlakatda qonun ustuvorligi o'rnatilishi lozim.

Haqiqiy mustaqil mamlakatda fuqarolarning har tomonlama mustaqil bo'lishi qonun bilan kafolatlangan bo'ladi. Odamlarga shunday shart-sharoit yaratib berish kerakki, toki u emin-erkin ijod qilishi, o'zi xohlagan mehnat faoliyati bilan shug'illanishi, xohlagan diniga e`tiqod qilish yoki qilmaslik erkinligi va so'z, matbuot erkinligiga ega bo'lsin. O'zbekiston Respublikasida

bunday erkinliklar konstitutsiyada belgilab qo'yilgan va u hayotda o'z aksini topgan.

Huquqiy demokratik davlatlarda ma`naviyat rivojlanadi. Huquqiy demokratik davlat xalq taqdirini birinchi o'ringa qo'yadi. Uning o'tmish madaniyati, tajribasi va kelajagini o'zaro bog'liq holda tashkil etadiki, xalq o'z tomirlaridan uzilib qolmaydi. Shu maqsadda O'zbekistonda yashayotgan barcha xalq, millat va elatlar tarixi, urf-odat va an`analari, tili va madaniyati bugungi kunda amal qilmoqda. Hech bir xalqning madaniyati kamsitilmaydi va tahqirlanmaydi. Turli millat vakillari o'rtasida tenglik, ahillik va o'zaro baxamjihatlikni qaror toptirish huquqiy demokratik davlatning asosiy belgilaridan biridir.

Ma`lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilm-u ma`rifat, ta`lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan.

Albatta, ta`lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya`ni xalq ma`naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta`lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma`naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi[4;b.70].

Kelajakda yoshlarimizning qanday inson bo'lib voyaga yetishi ta`lim-tarbiyaga bog'liq. Biz ta`lim-tarbiya tizimini rivojlantirmasdan turib ko'zlagan maqsadimizga erisha olmaymiz. Buning uchun ta`lim muassasalarini rivojlantirishimiz, unda faoliyat ko'rsatuvchi ustoz va murabbiylarning bilim saviyasini ko'tarishimiz lozim. Masalan, ta`lim muassasasi xarob ahvolda bo'lsa, zamonaviy jihozlar bilan ta`minlanmagan bo'lsa bola bunday joyda ta`lim olgisi kelmaydi. Yoki ta`lim muassasasi zamonaviy jihozlar bilan jihozlangan bo'lsa-yu, ammo unda ta`lim beruvchi ustoz va murabbiylarning bilim saviyasi past bo'lsa, bunday vaziyatda ham o'quvchining o'qishga nisbatan munosabati o'zgaradi. Shuning uchun ham bunday holatlarning oldini

olish maqsadida hozirgi kunda boshqa sohalar kabi ta`lim sohasida ham keng islohotlar olib borilmoqda.

Ushbu dasturga muvofiq, yurtimizda mavjud bo'lgan o'n mingga yaqin umumta`lim maktabining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta`lim jarayonining mazmunini tubdan takomillashtirish, o'qituvchilarning mehnatini moddiy va ma`naviy rag'batlantirish bo'yicha katta ishlar qilinmoqda. Maktabda ta`lim rivojlansa, tarbiya yaxshilansa, faqat texnikaviy bilim emas, ijtimoiy-gumanitar bilimlar berilsa, ta`lim tarbiyadan ajratilmasdan olib borilsa, jamiyatda ma`naviy yuksalish yuz beradi.

O'quvchiga ta`lim va tarbiyani birgalikda berish zarur. Aks holda inson olgan bilimidan noto'g'ri maqsadlarda foydalanishi mumkin. Bilimi yuqori bo'lib o'zi shavqatsiz, ochko'z, nafs botqog`iga botgan inson bo'lishi ham mumkin. Masalan, fashistlar orasida ham juda bilimli, fanlarni yaxshi egallaganlari talaygina edi. Lekin ular o'z bilimlaridan insonlar va ularning ma`naviyatini, hayotini yuksaklikka ko'tarish uchun emas, ularni yerga urib chilparchin qilish yo'lida foydalandilar. Ularni bilimdon odam, deyish mumkin, lekin ma`naviyatli insonlar deyish mumkin emas. Aytish mumkinki, ilm va bilim insoniy qadriyatlar va insoniy axloq bilan uyg'unlashgandagina, yuksak ma`naviyatga asos bo'ladi.

Ta`lim dargohlarida o`quvchi-talabalarga qanday tarbiya berilmoqda. Ular qaysi g'oyalarga sodiqlik asosida bilim olmoqdalar bularning barchasi o'qituvchi, murabbiylarning zimmasidadir.

Ta`lim-tarbiya tizimining kelajakdagi ahvoli o'qituvchilarga bog'liq. Chunki ta`lim-tarbiya sohasining asosiy harakatlantiruvchi kuchi o'qituvchilar hisoblanadi. O'qituvchilar o'z kasbiga nisbatan mas`uliyatni his etsa, o'zini ustida ishlasa, darsni zamonaviy pedagogik texnalogiyalar asosida tashkillashtirsa, o'quv jarayonida o'quvchi va talabalarning mustaqil va erkin fikrlashiga imkon bersa, talabalar bilimini baholashda ularning bilimini hisobga olib, adolatli baholansa ta`lim-tarbiya tizimi biz kutgan natijani beradi.

Bilim olgan kishi har tomonlama rivojlangan, odobli, axloqli, kamtarin, komil inson bo‘ladi. Har qaysi insonning bilim darajasi jahon talablari darajasida, ya`ni fan-texnikaga, bozor iqtisodiyoti madaniyatiga javob beradigan holda bo‘lishi kerak. O‘sha komil inson, uning olgan bilimi hayot yo‘llarida tayanch, yolg‘iz damlarida yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarida rahbar, qayg‘uli damlarida madadkor bo‘ladi. Bilim insonni aql-idrokli, bilimdon, hunarmand, irodali, e`tiqodli qiladi. Bilim olish insondan sabr-toqatli bo‘lishni, o‘zining ichki mayllariga qarshi turishni talab etadi. Ayrim insonlar o‘zi qiziqqan asarni qo‘liga oladi va uni o‘qishga kirishadi, lekin asar hajm jihatdan katta ekanligi bois oxirigacha o‘qishga sabri yetmaydi. Uning his-tuyg‘ulari asarni o‘qib chiqishni emas, balki qiziqarli kino ko‘rishni istaydi.

Demak, bilim olish ham aslida iroda ekan. Chunki sabr-toqatli bo‘lish, boshlagan ishni oxirigacha yetkazish, o‘zining xohish-istaklariga qarshi turish bu – irodadir.

Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg`u bilig” asarida bilim haqida quyidagi firlarni bildiradi:

*Yana bir hikmat bor: Hazrati odam –*
*Bilim, aqlu idrok sabab muhtaram.*

Odamzod naslining ulug‘ligi bilimdan. U aql-idrok tufayli ne-ne tugunlarni yechishga qodir. Uquv-idrok va bilim egasi bo‘lgan har qanday odam sharaflidir.

*Bilimni buyuk bil, uquvni ulug‘,*
*Shu ikkov ulug‘lar kishini to‘liq.*

Bunga asos bo‘ladigan boshqa so‘zlar bor. Ularni eshitib yo‘l-yuriq tuzsa bo‘ladi. Mana:

*Uquv qayda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘lar,*
*Bilim kimda bo‘lsa, buyuklik olar.*
*Uquvli uqaru bilimli bilar,*
*Bilimli, uquvli shodlikka to‘lar*[5;b.11].

Bilim o‘ylab ko‘rilsa misoli bir jilov. U barcha yomon, yaramas ishlardan tiyib turadi. Bilim egasi o‘z tilaklarini topadi, orzu-maqsadlariga erishadi.

Aql-idrok egalarining nafi har doim ko‘pchilikka tegib turadi. Bilim egalari esa elda aziz bo‘ladi, hurmat qozonadi. Butun ishlar uquv-idrok bilan amalga oshadi. Barcha murakkab ishlar bilim bilan hal etiladi[5;b.11].

Insonning ma`naviy olamini boyituvchi asosiy omillardan yana biri adabiyot va san`atdir. Insonning ma`naviy hayotini adabiyot va san`atsiz tasav-vur etish qiyin. Aynan, adabiyot va san`at inson hayotini turli ranglar asosida bezaydi. O‘zi yaratgan qahramon orqali insonlarni ma`naviyati yuksak qilib tarbiyalaydi. Insonlarda nozik didni shakllantiradi. Hayotga qanday ko‘z bilan boqishni o‘rgatadi. Hayotning asl mazmun-mohiyatini ochib beruvchi soha ham aynan adabiyot va san`atdir.

Adabiyot va san`at insonni ichki dunyosini, xarakterini, qalbining nozik jihatlarini hamda insonning yuksakligi va tubanligini o‘rganadi. Insonning badiiy, estetik, ma`naviy ehtiyojlarini qondiradi. O‘zida ilgari surgan g‘oyalar orqali komil insonni tarbiyalashga harakat qiladi.

Yaratilayotgan san`at asarlarining saviyasi yuqori bo‘lsa, hozirgi zamon muammolariga bag‘ishlangan bo‘lsa insonlarning san`atga bo‘lgan munosabati ham ijobiy mazmun kasb etadi. Aks holda inson bunday san`at asarlarini o‘qigisi, ko‘rgisi kelmaydi.

Ilm-fan erishgan yutuqlar ma`naviyat mahsulidir. Tabiat sirlarini bilishga intilish, yangi-yangi bilimlarni egallash inson ma`naviyatini yuksaltirgan. Ilm-fanning o‘zi ham insonlarning nazariy va amaliy faoliyati natijasida yuksalib borgan. Insoniyat o‘zining ilmiy izlanishlari natijasida ilm-fanga yangi bilimlarni olib kirgan. Eski bilimlarni rivojlantirgan. Ixtirolar, kashfiyotlarni amalga oshirgan. Ilm-fan insonda o‘z ustida ishlash va o‘z kuchiga nisbatan ishonch tuyg‘usini shakllantirgan.

Ilm-fanning rivojlanishi yangi zamonaviy texnologiyalarni yaratishga olib keldi. Yangi texnologiyalardan foydalanish insonning aqliy tafakkurini tubdan

o‘zgartirdi. Ishlab chiqarishda samarali natijalarga erishildi. A.Erkayev ta`kidlaganidek: “Inson yangi ilmiy-texnikaviy, texnologik yutuqlarga intilmasa, jamiyat turg‘unlikka yuz tutadi, oxir-oqibatda halokatga uchraydi. Tez ko‘payayotgan insoniyat o‘zini o‘zi boqa olmay, panepidemiyalar va tabiat katakliz-mlaridan o‘zini himoya qilolmay qoladi” [6;b.74].

Irodaning o‘zi ham ma`naviy yuksalish omillaridan biridir. Iroda insonning o‘zidagi ma`lum bir kamchiliklarni yengib o‘tishi, dangasalik illatlariga qarshi kurashi. Masalan, o‘quvchi dars tayyorlagisi kelmaydi, kino ko‘rgisi keladi. Bunda o‘quvchining dars tayyorlashga bo‘lgan dangasaligini yengib o‘tishida iroda namoyon bo‘ladi.

Iroda men shuni xohlayman, istayman degani emas, iroda – bu men shunday qilishim kerak, shart degani. Iroda men kitob o‘qishni istayman degani emas, men kitob o‘qishim shart, zarur, o‘qimasam bo‘lmaydi degani. Iroda insonning o‘z oldidagi mas`uliyatni his qilishi, amaldorning o‘z kasbiga sodiqligi, qancha qiyin bo‘lmasin o‘z burchini sadoqat bilan ado etishidir. Ana shunday holatlardagina ma`naviyat yuksaladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erkayev A. O`zbekiston yo`li. - T., “Ma`naviyat”, 2011. 151-bet.

2. Islom Karimov. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. - T., “O`zbekiston”, 2015. 19-bet.

3. Erkayev A. Ma`naviyat va taraqqiyot. - T., “Ma`naviyat”, 2009. 270-271-betlar.

4. Islom Karimov. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. - T., “Ma`naviyat”, 2010. 69-bet.

5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg`u bilig. - T., “Yulduzcha”, 1990. 11-bet.

6. Erkayev A. Manaviyat va iroda // QarDU xabarlari ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. - Qarshi. 3/2015. 74-bet.

# TURKISTON JADIDLARINING MILLIY ISTIQLOLCHILIK G’OYASI VA MAFKURASI

Zaynobidinova Naima Inomidinovna
Namangan davlat pedagogika instituti
Gumanitar fanlar kafedrasi katta o’qituvchisi,
falsafa fanlar nomzodi
Davronboyeva Oygul Saydakbar qizi
Pedegogika fakulteti Maxsus pedagogika:
logopediya yo’nalishi 1-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada jadidchilik harakati, asoschilari hamda ularning g‘oyalari haqida fikir va mulohaza yuritishingiz o’zingiz uchun ma’lumotlar olishingiz mmumkin. Bundan tashqari XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Rossiya mustamlakasi hisoblangan O’rta Osiyo, Kavkaz, O’rta Sibir xalqlari orasida boshlangan milliy, madaniy-ma’rifiy tiklanish – jadidchilik harakati sifatida namoyon bo’lishi. Turkiston jadidlari xalqni qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariat tamoyillarini isloh qilish, xalqqa ma’rifat tarqatish va milliy muxtoriyatga erishish g’oyasini ilgari surganliklari. Jadidlar milliy birlik, ma’naviy-ma’rifiy isloxotlar bilan jamiyatni yangilash, yuksaltirish yo’llarini izlaganliklari haqida so’z boradi.

**Kalit so’zlar:** jadid, ma’rifat, matbuot, milliy g’oya, muxtoriyat, mafkura, ma’rifatparvarlik, turkiston, taraqqiyot, islohot.

**Аннотация:** В этой статье вы сможете получить информацию для себя, чтобы задуматься и поразмышлять о движении джадидизм, его основателях и их идеях. Кроме того, национально-культурное и образовательное возрождение, начавшееся среди народов Средней Азии, Кавказа и Средней Сибири, считавшихся в конце XIX — начале XX века российскими колониями, проявилось как модернистское движение. Туркестанские джадиды выдвинули идею освобождения народа от отсталости и

религиозных суеверий, реформирования принципов шариата, распространения просвещения народа, достижения национальной автономии. Говорят, что джадиды искали способы обновления и возвышения общества посредством национального единства, духовных и образовательных реформ.

**Ключевые слова:** современность, просвещение, печать, национальная идея, автономия, идеология, просвещение, Туркестан, развитие, реформа.

**Abstract:** In this article you will be able to get information for yourself to think and reflect on the Jadidism movement, its founders and their ideas. In addition, the national-cultural and educational revival that began among the peoples of Central Asia, the Caucasus and Central Siberia, considered Russian colonies in the late 19th - early 20th centuries, manifested itself as a modernist movement. Turkestan Jadids put forward the idea of liberating the people from backwardness and religious superstitions, reforming the principles of Sharia, spreading education to the people, achieving national autonomy. It is said that the Jadids were looking for ways to renew and elevate society through national unity, spiritual and educational reforms.

**Keywords:** modernity, education, press, national idea, autonomy, ideology, education, Turkestan, development, reform.

**Kirish:** “Jadid” atamasi Turkiya turklarida ilk marta Sulton Salim III hukmronligi (1739-1802) davrida paydo bo’ldi. Avstriyaga elchi qilib yuborilgan Abubakr Ratib afandi shohga yozgan bildirishnomalarida u yerda ko’rgan idora tizimini “Nizomi jadid” deb tushuntiradi. 1789 yilgi Fransuz inqilobidan keyin qurilgan yangi tizimni esa “Fransiya nizomi jadidi” deyila boshlandi. Shu yillari “Nizomi jadid” tor ma’noda askariy tizimni yevropalashtirishni, keng ma’noda ilm-fan, maorif, sanoat va qishloq xo’jaligini zamonaviylashtirishni ko’zda tutar edi. Demak, jadid atamasi yangilik tarafdorlarini, yangilik g’oyalarini ifoda etuvchi tushuncha sifatida qo’llanilgan. XIX asrning oxirlarida dunyo tamaddunida bo’layotgan ulkan madaniy –ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy o’zgarishlar, yangi munosobatlar u yoki bu tarzda sekinlik bilan bo’lsada, Turkiston o’lkalariga kirib

kela boshladi. Yangilik tarafdorlarini Abdulla Avloniy so'zi bilan aytganda, "gazeta o'qig'uvchilarni" mullalar "jadidchi" nomi bilan [1] atar edilar. Jadidlar Usmonli Turkiyadagi "Ganch (yosh) turk" lar tashkilotlari tasirida "Yosh buxoroliklar", "Yosh xivaliklar", "Yosh turkistonliklar" degan nomlarda faoliyat olib borishgan. Ma'lumki, o'z faoliyatini nafaqat siyosiy, balki ta'lim va tarbiyani yuksaltirish, turkiston o'lkasini ma'naviy hamda ma'rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan jadidlar harakati o'lka xalqlari tarixida muhim ro'l o'ynagan. Aslida jaded so'zi (arabcha "jadid"- yangi) yangilanish ma'nosini anglatib, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullarini jamiyatga tadbiq etishdan iborat ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakat, shu oqim tarafdorlarining umumiy nomi. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr birinchi choragida Turkistondagi milliy-ozodlik harakatining milliy mafkurasi, o'lka xalqlarining milliy mustaqillik va ma'rifatparvarlik g'oyasi sifatida shakllandi.[2] XIX asrda ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan nom olgan va XX asr boshida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar nomoyondalari - Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniylar ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o'lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdilar.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari quyidagilar edi:

1.Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish.

2. shariatni isloh qilish

3. xalqqa ma'rifat tarqatish.

4. Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash.

5.Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament.

6. keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish.

7.barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish.

Shunday qilib, o'lkada yangi maktablar ochishga Ismoil Gaspirinskiy va tatar ziyolilari, muallimlarining ibrati, yordami katta bo'ldi. XIX asr oxiri, XX asr

boshlarida Rossiya mustamlakasi hisoblangan O‘rta Osiyo, Kavkaz, O‘rta Sibir xalqlari orasida boshlangan milliy ko‘tarilish madaniy - ma’rifiy harakat – jadidchilik sifatida namoyon bo‘ldi. Jadidchilik harakati qoloqlik va jaholat, o‘lka aholisining ayanchli ahvoli, Turkistonning Yevropa va jahon sivilizatsiyasidan orqada qolib ketishi, islom va shariatning oyoq osti qilinishi va bunday og‘ir hayotdan qutulish, erk va ozodlikka erishish uchun o‘z zamonasining ilg‘or ziyoli qatlamlari qarashlarida vujudga keldi. Jaholat uyqusidan uyg‘onish, tarixiy zaruratga aylangan edi. Boshqacha qilib aytganda, jadidchilik harakati ijtimoiy rivojlantirishning, tarixiy taraqqiyotning talab va ehtiyojlariga javob sifatida maydonga kelgan ulkan ijtimoiy – siyosiy harakat edi. O‘lkada millatning dard-alamlarini, butun ayanchli, mudhish, fojiali og‘ir qismatini o‘z qalbi va vujudidan o‘tkazib, o‘zining butun borlig‘ini, aql-zakovatini, ongini, hayotini erk, ozodlik, taraqqiyot uchun safarbar etgan ziyolilarning butun bir yangi avlodi shakllana boshladi. Jadidlar turli mamlakatlardagi taraqqiyot va islohotlar uchun olib borilgan harakatlarning tajribasini milliy asosda qayta ishlashga intildi. Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g‘oyasi ana shu murakkab sharoitda shakllanib yetildi. Bu davr haqida shunday deyilgan: “Tarixdan shu narsa ma’lumki, har bir kichik harakat ertangi katta harakatning zamini vazifasini o‘taydi. Bu kungi mag‘lubiyat ertangi g‘alabaning amalga oshuvida ozmi-ko‘pmi rol o‘ynaydi. Bu siz jamiyatning rivojini tasavvur etish qiyin”. Jadidlik Turkistonda XIX asrning oxirida maydonga kelgan, XX asrning boshida shakllanib, qisqa muddatda o‘zining cho‘qqisiga ko‘tarilgan. Jadidlik 1917-yilgi bolsheviklar to‘ntarishidan keyin ham sotsialistik diktatura o‘rnatilgunga qadar o‘z mavqe va yo‘nalishini saqlab qola olgan ijtimoiy harakatdir. Ba’zi manbalarda jadidlik oqim deb atalsa, ba’zisida harakat deb aytiladi. Jadidlik oqim emas, harakat deb ta’kidlaydi B.Qosimov. Ijtimoiy, siyosiy, ma’rifiy harakat yaqingacha ham ataylab faqat ma’rifatchilik harakati deb kelindi. Maqsad jadidlikning doirasini toraytirish, sotsialistik-kommunistik mafkuradan boshqasi keng xalq

ongini qamrab olishi, egallashi mumkin emas, degan soxta tushunchaning asorati edi.

Jadidshunos olim B Qosimov jadidchilik harakatining harakter va muddaosini 3 turga bo,lib izohlaydi:

1. Jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg‘onish mafkurasi bo‘lib xizmat qildi.

2. Mustaqillik uchun kurash olib bordi. Uning g‘ayrat va tashabbusi bilan dunyo ko‘rgan Turkiston muxtoriyati bu yo‘ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi.

3. Maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi.

Bu xarakter va yo‘nalishni qator olimlar e’tirof etadi.[4]

Taraqqiy etgan millatlar teatrlarni ulug’lar uchun odob va ibrat maktabi deb biladilar. Teatr taraqqiy etishni eng birinchi sabab va omilaridandir, -deb yozgandi. Jadidlar milliy adabiyotga xam asos soldilar. Milliy romanchilik shakllana bordi. Dakstlab, romanchilikka o’rinish Xamza Xakimzodada kuzatildi. U “Yangi saodat” asarini milliy roman deb atagan va bu boradagi ilk izlanishlarni boshlab bergan edi [8]. Ammo O’zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Abdulla Qodiriy (Julqunboy 1894 yil 10 aprelda Toshkent shahrida tug’ilgan) romanchilikka asos soldi. Bo’lg’usi adibning ilk ijodi 1913-1914 yillarda boshlangan bo’lib, dastlab u shoir sifatida qalam tebratdi. Uning «Ahvolimiz», «Millatimga», «To’y» (1914- 1915) kabi she’rlari «Oina» jurnalida bosilib chiqqan edi. Abdulla Qodiriy 1917-1918 yillardan boshlab «O’tgan kunlar» romani uchun material yig’ishga kirishdi. 1922 yilda birinchi o’zbek romanining dastlabki boblari «Inqilob» jurnalida chop etila boshlandi. 1925-1926 yillarda «O’tgan kunlar» uch bo’lim holida kitob» bo’lib nashr etildi. Jadidchilarning poydevori, tamal toshi – “usuli jadid” maktabi edi. Bu tabiiy, hamonki maqsad jamiyatni yangilamoq ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Yangi avlodni esa, yetishtirmoq lozim. Eski an’anaviy usulda bu ishni amalga oshirish qiyin. Chunki

zamon o’zgargan. U tezkorlikni talab qiladi. Ikkinchidan, bugungi o’quvchi tarix, jug’rofiya, iqtisod, fizika, kimyo, matematika kabi zamonaviy fanlarni bilishi kerak. Ilmiy fanlar, fan-texnika yutuqlari so’nggi uch-to’rt asr dunyo taqdirini boshqa o’zanga solib yubordi va Yevropani oldinga olib chiqdi. Endi Yevropa ilm-fanini egallamasdan dunyo bilan barobar yashab bo’lmaydi. Bu ilm-fanni o’zlashtirmoq uchun Yevropa tillarini bilmoq kerak. Ayni paytda o’zlikni ham saqlamoq lozim. Din-diyonat ham zarur. Xullas, yashamoq uchun uchchala jihatni ham ushlamoq kerak bo’ladi. Ushlaganda ham hech birini suiste’mol qilmaslik kerak. Aks holda muvozanat buziladi. Muvozanat buzilishi esa, yomon oqibatlarga olib keladi. Masalan, yolg’izgina din ushlansa, dunyo qo’ldan ketadi. Faqat o’zlik, millat desak, yana dunyodan ajralib qolamiz. Birovning biz bilan ishi bo’lmaydi. Yevropalashsak, o’zlik yo’qoladi. Bu ham fojia. Bu fojiani Behbudiy “Padarkush” da ko’rsatib beradi. Dunyoga chiqmoq uchun til bilmoq kerak ekan. Bu talab ham bugun mustaqil taraqqiyot sari ketayotgan O’zbekiston uchun kun tartibidan tushgani yo’q, axamiyatini yo’qotgani yo’q. Behbudiy 1913 yil “Oyina” jurnalida yozgan “Ikki emas to’rt til lozim” maqolasida shu xaqda so’z yuritadi. Tilimiz turkiy, madrasalardagi shariy va diniy kitoblar arabiy, nazm va nasr kitoblari esa forsiydir. Turkistonda qadimdan beri bu uch til joriy bo’lib kelgan. Saodatki, turkiy va forsiyni taxsilsiz ham bilamiz, o’zaro gaplashamiz, tushunamiz, deydi Bexbudiy. “Bank va sudxonalar, sud mahkamalari, notarius, temir yo’l, xulosa, zamonni paydo qilgan har bir yangi nimarsalarig’a muhtoj bo’lsak avvalg’i qadamda ruscha bilmoq lozim kelur... Bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, xatto dini islom va millatg’a xizmat ilmsiz bo’lmaydur. ...Xulosa, bugun bizlarg’a to’rt tilga tahrir va taqrir etguvchilar kerak, ya’ni arabiy, rusiy, turkiy va forsiy”[7]

Bugungi mustaqil O’zbekistonda Davlatimiz rahbari tomonidan yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va bo’sh vaqtini mazmunli o’tkazish borasida ilgari surilgan besh tashabbusning uchinchisi ham kitobxonlikni keng targ’ib qilishga bag’ishlangan. Demak 110 yil muqaddam jadidlar tomonidan ilgari surilgan mavzu

eskirgani yo'q, o'zgargani yo'q. Yuqorida keltirganimiz jadidlarninig ma'rifiy soxadagi ikkinchi vazifasi xayriya va maorif jamiyatlarini tuzish edi. Bu borada "Turon", "Jamiyati xayriya", "Tarbiyai atfol" kabi jamiyatlar ochildi. 1909 yil 12 mayda Toshkentda tuzilgan Turkiston jadidlarinig "Jamiyati xayriya" tashkiloti maxalliy yoshlarni chet ellarga o'qitish, xomiylik qilish ishiga rahbarlik qildi. Uning yordami bilan yoshlar Rossiyaning Peterburg, Saratov, Qozon, Ufa, Orenburg shaharlaridagi oliy maktab va madrasalarga, shuningdek, Istambul, Qoxira kabi xorijiy shaxarlar oliy ta'lim muassasalariga o'qishga yuborila boshladilar. Shuningdek,1909 yil18 iyulda Buxoro shahrida jadidlar tomonidan tuzilgan "Tarbiyai atfol" jamiyati shu yilning o'zida Fitrat, Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li, Ato xo'ja, Mazhar Burxonov kabi yoshlarni Istanbulga o'qishga yo'llagan edi. Ushbu jamiyat orqali o'qishga jo'natilganlar soni 1911 yilda 15 nafar, 1912 yilda 30 nafarga yetgan [8]

Bugun biz yuzma-yuz bo'lib turgan milliy g'oya asoslari, milliy mafkura masalalari bundan yuz yil oldin jadidchilarimiz tomonidan ham kun tartibiga qo'yilgan va qizg'in muhokama qilingan edi. Ma'rifatga ehtiyoj, ilm-fanni egallash g'oyasi millatning ko'pchiligi tomonidan anglanishi kerak. Darhaqiqat, jadidchilarimiz olib borgan barcha ishlar, matbuotning yo'lga qo'yilishi, "usuli jadid" maktabi nazariyasi va amaliyoti, teatrchilik, hamma-hammasi shunga xizmat qildirildi. Shu tariqa har bir g'oyaning milliy g'oyaga aylanishi, jadidchilarimiz fikricha ikki shartni taqozo etadi.

1. G'oya millatning tub, asl ehtiyojlaridan,turish-turmushidan, asosiy an'analaridan, o'zligidan va tabiiyki, imkoniyatidan kelib chiqmog'i lozim.

2.Mazkur g'oya millat tomonidan anglanishi, his qilinishi, boshqacha aytganda, ongiga joylashib, yuragidagi o'tga aylanmog'i, so'ngsiz ishtiyoq hosil qilmog'i kerak.

Turkistonda jadidchilik harakatining faol tashkilotchi - ishtirokchilari haqida to'xtaladigan bo'lsak, bular: Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy, Saidahmad Siddiqiy - Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov,

Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo’ja Asadullaxo’jaev, Toshpo’latbek Norbo’tabekov (Toshkent), Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo’jaev, Usmonxo’ja Po’latxo’jaev, Abdulvohid Burxonov, Sadriddin Ayniy, Abudulqodir Muxiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Cho’lpon, Ishoqxon Ibrat, Muhammadsharif So’fizoda (Farg’ona vodiysi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Bobooxun Salimov (Xorazm)lar nomini birinchilar safida keltirishimiz mumkin.[9]

**Xulosa:** Biz ushbu maqolada mamlakatimiz xududida jadidchilik oqimining yuzaga kelishi va uning ma’rifatparvarlik soxasidagi faoliyatiga to’xtaldik. Jadidchilik harakatining ijtimoiy siyosiy qarashlari, milliy mustaqillik va davlatchilik g’oyalari (Munavvarqori, Behbudiy, Polvonniyoz Yusupov, Fitratning dasturlari), bu boradagi amaliy harakatlari va kurashlari aloxida katta mavzudir. Xulosa qiladigan bo’lsak, jadid bobolarimiz moddiy qiyinchiliklar, g’oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay millatning ma’naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning murakkab, mas’uliyatli burilish davrida millatning ongini yuksaltirish, milliy iftixor tuyg’usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o’z zimmalariga oldilar. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomalarida aytganidek, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o’rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko’p o’rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko’p savollarga to’g’ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ’ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini o’uncha ko’p anglab yetadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy A.“Tarjimai xol. Tanlangan asarlar.2-jild.T., “Ma’naviyat”, 1998 yil 288- bet”.
2. Oblomurodov N, Hazratqulov A va boshqalar. O’zbekiston tarixi.(o’quv qo’llanma)T.2011

3. Qosimov B.“Milliy uyg’onish”, T.,”Sharq”,2004 yil,53-bet.
4. https://www.bukhari.uz
5. Toshqulov J. Yosh xivaliklar: siyosiy qarashlarining tadrijiy rivojlanishi// Xalq va demokratiya, 1992,3-4-son. https://www.ziyonet.uz
6. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – T.: Universitet, 1999
7. Guli Mahmudova. Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti. –T., 2006.

## BOLALAR ADABIYOTIDA ZAFAR DIYOR SHE’RLARINING TUTGAN O‘RNI .

Ergashaliyeva Ma’sumaxon Ulug‘bek qizi
*Namangan davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:**Ushbu maqolada, o‘zbek bolalar adabiyotining rivojlanishiga hissa qo‘shganlar, Zafar Diyorning ijodiy yo‘li,  shoir she’rlarining bolalar hayotida tutgan o‘rni haqida so‘z boradi.

**Abstract:** This article talks about the contributors to the development of Uzbek children's literature, the creative path of Zafar Diyar, the role of the poet's poems in children's lives.

**Аннотация:** В данной статье узбекская детская литература,  В ней рассказывается о тех, кто способствовал ее развитию, о творческом пути Зафара Дияра, о роли стихов поэта в жизни детей.

**Kalitso‘zlar:** Zafar Diyor she’rlari , badiiy adabiyot, so‘z san’ati, bolalar adabiyoti , ijodiy fikrlash, Vatanparvarlik, do‘stlik , kitobxonlik .

**Key words:** Zafar Diyar's poems, fiction, word art, children's literature, creative thinking, Patriotism, friendship, reading.

**Ключевые слова:** стихи Зафара Дияра, художественная литература, искусство слова, детская литература, творческое мышление, патриотизм, дружба, чтение.

XXasrning 20-30-yillaridaHamidOlimjon, G‘afurG‘ulom, G‘ayratiy, ShokirSulaymon, IlyosMuslim, G‘ulomZafariy, Ayniy, Elbek, Zafar Diyor, Sulton Jo‘ra, Qudrat Hikmat, Quddus Muhammadiy, Shukur Sa'dulla, Hakim Nazir, Po‘lat Mo‘min vaboshqa ijodkorlarning asarlari o‘zbek bolalar adabiyotining rivojlanishida, maxsus adabiyot sifatida shakllanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zafar Diyorning "Yangiertak", "ToshxonbilanMoshxon", "Tulkininghiylasi', SultonJo‘raning "Zangorigilam" va "Qaldirg‘och" singariadabiyertaklarixalqog‘zakiijodian'analariasosidayaratilgan, shaklvamazmunjihatdanpuxtabadiiyasarlarsirasigakiradi.[1] Zafar Diyorning ijodi ham shaklan ham mazmunan bir-biriga uyg‘undir. Bolalar uchun tushunarli, yodlashga oson tarzda yaratilgan .Shoir badiiy adabiyot bilan bir qatorda dramaturgiya sohasini ham puxta bilgan.Zafar Diyor yaratgan sahna asarlari ham o‘zaro do‘stlikni , hamjihatlikni va qardoshlik tuyg‘ularini singdirgan holda yaratilgan.Umumadabiyotning ajralmas qismi bo‘lgan bolalar adabiyoti onalarning bolalariga aytgan allalaridan, bolalarning aql-zakovatini shakllantirishga xizmat qiladigan tez aytishlar-u topishmoqlardan boshlab, og‘zaki ijod namunalaridan o‘ziga xos yozma adabiyot sifatida shoyonlik topdi.O‘tgan asrning o‘ttizinchi yillari esa bolalar adabiyotimizning tom ma’nodagi shakllanish davri bo‘ldi.Zafar Diyor ana shu davr bolalar adabiyotining o‘ziga xos sahifalarini yaratgan ijodkor edi.U bor-yo‘g‘i o‘ttiz to‘rt yil umr ko‘rgan, yigirma yilga yetar-yetmas ijod qilgan bo‘lsa-da, shu qisqa davr mobaynida iste’dodli shoir, nosir, dramaturg sifatida bolalar adabiyotimizda o‘z o‘rniga ega bo‘ldi.Zafar Diyorning ijodiy yo‘li o‘tgan asrning o‘ttizinchi-qirqinchi yillariga to‘g‘ri keladi.Bu davr adabiyoti haqida fikr yuritganda, avvalo, badiiy adabiyot to‘laligicha sho‘ro siyosati manfaatlariga bo‘ysundirilganini qayd etish joiz. Ijodkorlar xohish-istaklaridan qat’iy nazar, xalq xo‘jaligining barcha sohalaridagi yutuqlar, ilm-fan, madaniyat va ma’rifat sohalaridagi ijobiy natijalarni sho‘rolar tuzumining afzalliklari sifatida madh etishga majbur edilar. Zafar Diyor ijodi ham bundan mustasno emas.Biroq, har bir ijodkor asarlari orasida tom ma’nodagi badiiyati, samimiyati, badiiy adabiyotning

estetik-ma’rifiy mohiyati birinchi o‘ringa qo‘yilganligi bilan ajralib turadigan asarlar bo‘ladiki, ular davrlar bo‘ronidan o‘tib, kitobxonlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga, umrboqiy qadriyatlarni kuylashga xizmat qilaveradi. [4] Haqiyqatdan ham kitobxonlik mamlakatimiz, millatimiz ,xalqimiz kelajagi uchun muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Adabiyotga e’tibor– ma’naviyatga, kelajakka e’tibor” yo`riqnomasida adabiyot, so‘z san’ati azaldan xalq qalbining ifodachisi ekanligi ta’kidlab ko‘rsatilar ekan, jumladan shunday deyilgan: “Ayniqsa, biz uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bolalar adabiyotini rivojlantirishga alohida e’tibor berishimiz, mustaqil fikrlaydigan shaxslarning shakllanishi, har qanday kitobxonlik, mutolaa madaniyati bolalikdan boshlanishini doimo yodda tutishimiz lozim”.[5] Yosh davrlardanoq bolalar adabiyotga oshno bo‘lishsa, ular kelgusida har tomonlama mustaqil fikrlay oladigan inson bo‘la oladilar. Bolalar adabiyotida, bolaning idroki, tafakkuri, tasavvuri obrazlarida gavdalantiruvchi barcha namunalarni aks ettiriladi. Bolalar adabiyoti inson ruhiyatini , hatto uning shaxsiy shakllanishi va rivojidagi o‘rni beqiyosligi ko‘rsatib turadi. Zafar Diyorning she’rlaridagi mo‘jizakor ta’sir kuchi o‘sib kelaytotgan yosh avlodga vatanparvarlik, ezgulik, elsevarlik, umuman hayotga, butun olamga nisbatan ijodkorlikka undaydi.Shoirning ijodi bolalarga shu darajadi tushunarli va qiziqarli tilda yozilgan .

Zafar Diyorning “Binafsha” she’rini yoddan bilmagan o‘quvchi bo‘lmasa kerak. She’r o‘zining ravon o‘qilishi, qofiyalarning jarangdorligi bilan o‘quvchini o‘ziga tortadi .

“Binafsha”

Binafshaxon, binafsha,
Kulishlaring chiroyli.
Bog‘imizda ochilib,
Turishlaring chiroyli .

Shoirning “Mamlakat”, “Kazbek”, “Tilsiz o‘rtoq”, “Madriddan kelgan mehmon” kabi she’r va dostonlari shoir ijodining har taraflama yuksalishidan

dalolat beruvchi liro-epik asarlardir.U vatanga sadoqatli, har doim olg‘a intiluvchi ilg‘or yoshlardan biri bo‘lib yetishadi. Shuning uchun o‘z umrini Vatan yo‘liga tikishga tayyor turadi .

Sevinaman, hali yoshman, ko‘p yashayman,
Bu o‘lkaning saodati – baxti uchun.
Yana o‘qib, yana kulib ko‘p ishlayman,
Shu ko‘plarning biri bo‘lib, o‘lkam uchun,
Ha! Mamlakat, shunday va’da beray senga:
Butun umrim sening porloq hayotingga!

Zafar Diyorda ayniqsa, ona yurtni, Vatanni qattiq sevadi. U vatanga sadoqatli, har doim olg‘a intiluvchi ilg‘or yoshlardan biri bo‘lib yetishadi.Shuning uchun doston qahramoni o‘z umrini Vatan yo‘liga tikishga tayyor turadi. Ijodkor qalbidagi muhabbat juda chiroyli bo‘lib she’rlariga ko‘chgani guvohimiz. She’rni o‘qigan har bir bolada, tezroq o‘sib-ulg‘ayish vatan uchun o‘z hissasini qo‘shish darkorligini yanada anglay boshlaydi. Yoshlarning ilm-fanga, kasb-hunarga, ona-Vatanga muhabbat va sadoqat ruhi bilan sug‘orilgan. Zafar Diyorning o‘ttizinchi yillar ijodi vatanparvarlik, baynalmilallik va mehnatsevarlik tuyg‘ularini aks ettiruvchi asarlarining ko‘pligi bilan xarakterlidir. Bu xil asarlar yoshlar xarakterini shakllantirishda, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.Shoir bolalarning tabiat hodisalariga, hasharot-u jonivorlarga, ayniqsa, kapalakka qiziqishini, muhabbatini kichkintoylarga xos so‘z va ohangda ifodalab, kichkintoyning hayotga diqqat e’tiborini oshiradi, kapalak obrazi orqali kitobxonda insoniy tuyg‘ularni shakllantirishga harakat qiladi. Shoir ijodidagi muhim mavzulardan biri inson va tabiat munosabatidir. Bu jihatdan uning “Binafsha”, “Navbahor”, “Qushlar haqida qo‘shiq”, “Kapalak” singari she’rlari ahamiyatlidir.

“Kapalak”
Hoy, kapalak,kapalak ,
Qanotlaring ipakdek.

Muncha shoshib uchasan,

To‘xta so‘zlayin andek….[6].

“Kapalak” she’rida bolaning shunchalar beg‘uborligi, tabiatni sevishi, uni asrab-avaylashga bo‘lgan munosabatini ko‘rishimiz mumkin .

“Qushlar haqida qo‘shiq “

Hoy qushlar,

Qushlar , qushlar ,

Qanot qoqib kelinglar, sa’va,

mayna, bulbullar.

Sizga termular ko‘zlar…

Bizga ortiq yoqadi Quvnoq qo‘shiq-kuyingiz.[3]

Hozir keltirilgan she’rida esa, rang-barang gullarni, turli-tuman qushlarni sevgan shoir bolalar ruhiyatini chuqur tahlil etib, ularni ham ona tabiatni sevishga va parvarish qilishga ruhlantiradi. Shoir bolalarda qushlarga muhabbat hissini uyg‘ota oladigan quvnoq vazn, o‘ynoqi misralar yaratadi.Shu maqsadda so‘zlarning xilma-xil takroridan, misralarni esa mayakovskiychasiga tizib, tasvirning ohangdorlik jarangini, kuchini yanada oshiradi.

“Archa qo‘shig‘i”

Chaman-chaman bog‘larning,

Bizlar jambil, rayhoni.

Bizning quvnoq qo‘shiqlar,

Jaranglatar har yonni .

Shoirning “Archa qo‘shig‘i” she’rida yangi yil archasi atrofida quvnab o‘ynayotgan bolalar shodligi, xursandchiligi tarannum etiladi. Shuni ham aytish joizki, mazkur she’r o‘zbek adabiyotidagi archa bayrami, yangi yil archasi tasviriga bag‘ishlangan ilk asarlardandir. She’r bolalar tilidan yozilgan bo‘lib, ularning baxt, quvonch qo‘shig‘i kabi yangraydi .[3] .Darhaqiyqat, bu misralar orqali shoirning bolalar yozuvchisining barcha xususiyatlari nozik ta’b , o‘tkir didlilik, haqiqiy pedagogcha donolik va soddalikka ega ekanligi sezilib turadi.

Zafar Diyorning har bir she'rini o'qib-o'rganib, yod olar ekanmiz, huddiki unga sehrlab qolgandek bo'lamiz . Bolalar adabiyoti adabiyotning bolaligi emas , barkamol adabiyotning qaymog'i, komil mahsulidir. Kitoblar yoshlarni yetuk va barkamol inson sifatida tarbiyalashda asosiy omillardan biri sanaladi. Har bir davlat, jamiyat o'z kelajagini qurishda bolalar tarbiyasida, ilm egallashida, qiziqqan sohasiga yo'naltirishda, uning kelajagini yaratishda muhim o'rin tutadi. Zafar Diyorning she'rlari ham kichkintoylarni mustaqil fikrlashga, hayotdagi barcha taassurotlarni to'plab , ulardan xulosa chiqarishga undaydi. Bolalar adabiyotini o'rganish jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashlari, bilm , ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yana-da hissa qo'shadi. Shoir , dramaturg sifatida Zafar Diyorning ijodida bolaning ruhiyatini ochib beradigan , ularni kitob olamiga oshno etadigan ajoyib jozibani ko'ramiz. Uning asarlari yosh avlod qalbiga ezgulik va yaxshilik urug'larini sochib ularni insoniy fazilatlarni oshirishiga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.https://cyberleninka.ru/article/n/hozirgi-o-zbek-bolalar-adabiyotida-chet-el-adabiyotining-ahamiyati.//[ murojaat qilingan sana:2.03.2023].

2.Abdurahmon Akbar.Bolajonlar uchun bayramlar kitobi ( Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun ) – T : Cho'lpon nomidagi nashriyot – manbaa ijodiy uyi , 2015. –B. 118.

3. https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/zafar-diyor/// [ murojaat qilingan sana : 5.03.2023]

4. https://saviya.uz/ijod/publitsistika/zafar-diyorning-zafarli-ijodi/ //[murojaat qilingan sana : 7.03.2023].

5. Z.Botirova . (Bolalar adabiyoti fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma). O'quv uslubiy majmua Namangan davlat universiteti Kengashining 2022- yil sentabr 1 sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya qilingan. –B.4

6. Mamarasul Jumaboyev . Bolalar adabiyoti ( Kasb-hunar kollejlarining " maktabgacha ta'lim " bo'limi o'quvchilari uchun , darslik-majmua ) – T : 2008. – B.157.

# NUTQ NUQSONIGA EGA BO’LGAN BOLALARNING REABLITATSIYASI

Erkinova Muslima Mirzaolim Qizi Namangan Davlat Pedagogika Instituti Maxsus pedagogika yo’nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarning so'z boyligini oshirish maxsus pedagogikaning dolzarb masalalaridan bo'lib kelgan. Bu murakkab vazifani so'z ustida mutasl ish olib bormay turib amalga oshirib bo'lmaydi. Maktabgacha yoshdagi nutq nuqsoniga ega bo’lgan bolalar lug’ati ustida ishlash usullari, surat bilan ishlash yo’llari berilgan

**Abstract:** Increasing the vocabulary of children with speech disabilities has been one of the urgent issues of special pedagogy. This difficult task cannot be done without thorough work on the word. Methods of working on the vocabulary of preschool-aged speech-impaired children, ways of working with pictures are given

**Аннотация:** Увеличение словарного запаса детей с нарушениями речи является одной из актуальных задач специальной педагогики. Эту трудную задачу невозможно решить без тщательной работы над словом. Приведены методы работы над словарным запасом детей дошкольного возраста с нарушениями речи, способы работы с картинками.

**Kalit so’zlar**: so’z boyligini boyitish, Nutq nuqsoni, lug’at, nutqning buzilishi, reablitatsiya

**Keywords:** vocabulary enhancement, speech disorder, vocabulary speech impairment, rehabilitation.

Nutqi buzilgan bolalar ko’plab qiyinchiliklarga duch kelishadi.Nutqning buzilishi turli yo’llar bilan namoyon bo’ladi. Masalan, artikulatsiya, ravonlik, ovoz va til bilan bog’liq qiyinchiliklar. Bu qiyinchiliklar bolaning maktabda va boshqalar bilan muloqat qilishiga sezilarli tasir ko’rsatishi mumkin. Nutq buzilishining keng tarqalgan turlaridan biri bu artikulatsiya bo’lib, u nutq tovushlarini chiqarishda qiyinchiliklarni o’z ichiga oladi. Artikulatsiyasi buzilgan bolalar ‘’r’’ yoki ‘’l’’ tovushlarini talafuz qilishda qiynalishadi. Bu ularning nutqini tushinishni qiyinlashtirishi va izolyatsiyaga olib kelishi kelishi mumkin.

Nutq buzilishining yana bir turi ravon nutqning buzilishi bo’lib, u duduqlanish va chalkashish bilan namoyon bo’ladi. Bunda duduqlanish so’zlar va tovushlarni takrorlash bilan chalkashish esa tez va tartibsiz nutqni o’z ichiga oladi. Bu o’z navbatida bolaning nutqini faol ifodalay olmasligiga va o’ziga bo’lgan ishonchni so’nishiga olib keladi. Nutq tezligini sekinlashtirish va dam olish mashqlarini bajarish kabi nutq terapiyasi usullari ravon nutq usullarini va muloqot jarayonlarini boshqarishda samarali bo’lishi mumkin. Ovoz buzilishi esa tovush balandligi va ovoz balandligiga kabi muamolarni o’z ichiga oladi. Bu holatlar esa zo’riqish, xirillashga olib kelishi mumkin. Til buzilishlari nutqi buzilgan bolalar orasida keng tarqalgan bo’lib, tilni tushinish va undan samarali foydalanish kabi qiyinchiliklarni o’z ichiga oladi. Nutq terapiyasi bolalarning lug’at, grammatika, hikoya qilish kabitil ko’nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi

Ota-onalar va o’qituvchilar imkon qadar erta yordam va yordam so’rashlari uchun boladagi nutq buzilishlaridan habardor bo’lishlari lozim. Nutq buzilishlarini

bartaraf etish, bolani maktabda va hayotda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur bo’lgan muloqot ko’nikmalarini rivojlantirishda erta aralashuv muhim hisoblanadi. Nutq terapiyasi nutq buzilishi bo’lgan bolalar uchun juda keng tarqalgan usul hisoblanadi. Nutqning buzilishi murakkab va ko’p qirrali bo’lganligi sababli ba’zi bolalarda bu genetic moyillika ega bo’lishi boshqalari esa nevralogik kasalliklar yoki rivojlanishdagi kechishlar natijasida rivojlanishi mumkin. Bolalarda nutqning buzilishi atrof muhit omillari, ya’ni toksinlar yoki travmalar ham rol o’ynashi mumkin. Ba’zi hollarda nutqi buzilgan bolalar o’zlarining ehtiyojlari uchun terapiya va maslahat kabi qo’shimcha hizmatlarni talab qilishlari mumkin. Misol qilib aytganimizdek, erta aralashuv doimiy yordam nutqi buzilgan bolalarga ijobiy tasir ko’rsatishi mumkin ya’ni erta aralashuvni olgan bolalar kuchli muloqot qobilyatlarini rivojlantiradi va akademik va ijtimoiy muvaffaqiyatlarga erishadi. Edi esa nutqning reabilitatsiyasi haqida gaplashsak. Nutq reabilitatsiyasi bu bolaning nutqini yaxshilash, o’z fikrlarini ifoda etishga yordam berish jarayoni hisoblanadi. Xulosa

Nutq nuqsoniga ega bolalarni reabilitatsiyasi nutq nuqsoni bo’lgan bola uchun muhim jarayon. To'g'ri yondashuv bilan bolalar o'z nutqini yaxshilab, o'ziga ishonchlarini oshirishlari mumkin. Bu jarayon, shuningdek, bolalarning hayot sifatini yaxshilaydi va ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydi. Nutq reabilitatsiyasi orqali bolalar kelajakda muvaffaqiyatl i ijtimoiy hayotga kirishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'lishlari mumkin. Bu ko’nikmalarni bajarishlari uchun ota-onalar va o’qituvchilarning balki, bizning yordamlarimiz ular uchun katta muvaffa

qiyatga yol’ hisoblanadi .

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alekseeva M.M., Yashina E.I. Maktabgacha yoshdagi bolalarga rol tilini tushunish va o'rgatish metodikasi: Proc. oliy o'rta ta'lim talabalari uchun qo'llanma. aavelenii. 3-nashr stereotipi - M. "Akademiya" nashriyot markazi, 2000.-400c.

2. Ayupova M.Y.Korrekstonlishlar metodikasi maruza matni.T.:2001. Boilarsiko L.K.Dilaktik o'yinlar va yozgi maktab: Shahzoda Diya bolalar o'qituvchisi. bog 2.e nzda dorab-M: Ma'rifat, 1991, Bondarenko A.K Bolalar bog'chasida og'zaki o'yinlar. Bolalar bog'chasi o'qituvchilari uchun qo'llanma. M. Prospishchenie, 1974 yil

## GLOBALLASHUV JARAYONIDA MILLIY TARBIYANING SAQLANISHI VA RIVOJLANISHI

**Kenjayev Burgutali Qovuljon o'g'li** Namangan davlat pedagogika instituti, Gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

**Halilova Muxlisabonu Hamidullo qizi** Namangan davlat pedagogika instituti, Maxsus pedagogika (logopediya) yo'nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya;** Ushbu maqolada hozirgi globallashuv jarayonlarida milliy tarbiyaning saqlanishi va rivojlanishi to'g'risida yechim va muammolar yoritilgan. Tarixiy va zamonaviy manbalar asosida milliy tarbiya haqidagi qarashlar tahlil

etilgan. Yangi O'zbekistonda ta'lim tarbiya tizimida e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlar hayotiy misollar orqali bayon qilingan.

**Abstract;** In this article, the solutions and problems of the preservation and development of national education in the processes of globalization are covered. On the basis of historical and religious sources, views on national education are analyzed.

**Аннонатця:** В данной статье освещены пути решения и проблемы сохранения и развития национального образования в современных глобализационных процессах

**Kalit so'zlar;** milliylikning shaffoflashuvi, milliy tarbiya, globallashuv, ogohlik, strategik maqsad, axborot asri, milliy qadriyatlar, yosh avlod, ijtimoiy tarmoqlar to'ri.

**Key words;** transparency of nationality, national education, globalization, awareness, strategic goal, information age national values, young generation, network of social networks.

**Ключевые слова:** Прозрачность граждансва, националное образование, информационный век, молодое покочение,осведомленность, глобализация.

**Kirish**

Milliy tarbiya masalasi insoniyat paydo bo'lgandan buyon eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Tadqiqotchilarning fikricha, insoniyat hayotining ibtidoiy davrlarida bolalarni tarbiyalashda turli g'oyalar paydo bo'lgan va tarbiya mazmuni turli davrlarda, turli xalq, millat va elatlarda u yoki bu shaklda bo'lishiga qaramasdan ibtidoiy to'da davridan insonlar ongli va ongsiz ravishda ushbu murakkab va uzluksiz jarayonni amalga oshirib kelmoqda. Shu o'rinda jamiyatda yosh avlodni axloqiy va irodali tarbiyalash dolzarb muammo bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Bugungi kunga kelib mafkuraviy tahdidlar kun sayin kuchayayotgan ayni damda yoshlarni, ayniqsa maktab yoshidagi va o'smirlarni tarbiyalash muammolarini hal etish masalasini qiyinlashtirmoqda[1]. So'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi masalasi

davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini inobatga olib, ushbu yo'nalishdagi prinsipial yondashuvlarni takomillashtirish, zaruratini talab qiladi.

Har qanday xalq va davlatda amalga oshirilayotgan tarbiya jarayoni umuminsoniy tarbiya tizimining tarkibiy qismidir. Demak mamlakatda olib borilayotgan siyosat kabi tarbiya jarayoni ham umumbashariy extiyojlardan kelib chiqishi lozim.[2] Dunyoda ijobiy xususiyatlardan ko'ra ko'proq milliy tarbiya asoslariga tobora ko'proq xavf solayotgan globallashuv jarayoni va ommaviy madaniyatning salbiy jihatlari; giyohvandlik, ekstremizm va terrorizm xavfi, turli ekologik muammolar butun insoniyat oldida tarbiya masalasini globzal muammolardan biriga aylantirmoqda.[3]

Jamiyatda ma’naviy muhitni shakllantirishdagi muhim omil, mamlakat yoshlarining ta’lim-tarbiya tizimi bo’lib, uning dolzarbligini jadidlarning yetuk namoyondalaridan biri Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asaridagi quyidagi satrlari ham isbotlaydi: “Alhosil, tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir”, “Ilm insonlarning madori hayoti, rahbari, najotidur” degan fikrlari hozir ham o’z ahamiyatini yo’qotgani yo’q. Jadidchi bobomiz bu gaplari bilan go’yoki kelajakni oldindan ko’ra olgandek hozirgi kunda yo’qolib borayotgan milliy tarbiyamiz haqida fikr yuritadi. Bundan tashqari u kishining “Tug’ib tashlash bilan bo’lmas bola, bo’lg’ay balo sizg’a, Vujudi tarbiyat topsa bo’lur ul rahnamo sizg’a Temirchining bolasi tarbiyat topsa, bo’lur olim, Buzilsa xulqi, Luqmon o’g’li bo’lsa bo’lg’usi zolim”.[4] Shunga ko’ra, millatimiz uchun yosh avlod tarbiyasi jarayoni, jumladan, ma’naviy tarbiya nechog’liq muhim, dolzarb va u davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Jumladan ta’lim va tarbiya to’g’risida fikr yuritganda avvalambor yoshlar tarbiyasiga daxldor tizimlarni isloh etishning yangicha yo’nalishlarni kashf etishni taqazo qiladi va bugungi davr talabi hisoblanadi.

Shu o’rinda tarbiyaviy manba sifatida Zardushtiylik dining muqaddas kitobi bo’lmish “Avesto”ning ham ahamiyati katta. Zardusht ta’limotida tarbiya haqida quyidagicha fikr bildirilgan: “Tarbiya - hayotning eng muhim tirgagi (tayanchi)

bo’lishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash kerakki, u, avvalo, yaxshi o’qishni va so’ngra esa yozishni o’rganishi bilan eng yuksak pog’onaga ko’tarilsin”. “Avesto”da inson tarbiyasiga, insonlarning jamiyatda tutgan o’rniga munosabati to’liq yoritilgan.[5]

Milliy tarbiya atamasi keng va tor doirada ishlatiladi. Keng ma'noda, u inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy ma'rifiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ma'naviy ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar va intilishlar yig'indisini anglatadi[6]. Demak milliy tarbiya nafaqat oila, maktab, bolalarva yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar, balki butun ijtimoiy tuzum va uning yetakchi g'oyalarni, hatto adabiyot, san'at, kino, radio, TV, OAV va boshqalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek milliy tarbiya tarkibiga bu sohada ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi. Tor ma'noda, milliy tarbiya muayyan shaxsning ma'naviy rivoji, dunyoqarashi, axloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Bizga ma'lumki, har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'la oladi. Shu o’rinda yana jadidchi bobomiz Abdulla Avloniyning “ikkinchi muallim” asaridagi ushbu so’zlari yodimizga keladi: “Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo’lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydigan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tana kabidir”, “Millat tarbiyasi eng kerakli,ko’p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan muqaddas bir vazifadur”.[7] Bu so’zlari bilan u kishi yoshlarga tarbiyani xuddiki bir ilmni o’rgatgan kabi ongiga singdirish lozimligini ta’kidlaganliklari, avlodlarga ta’lim-tarbiya berishda ustoz va muallimlarning o’rni beqiyos ekanligi va ulardan nihoyatda katta mas’uliyat talab etilishini ta’kidlaganliklarini tushunish unchalik ham qiyin emas.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida milliy tarbiyani samarali tashkil qilishda o'quv muassasalari va umumtalim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustaxkamlashga e'tiborni kuchaytirish jiddiy masalaga aylandi.

**Xulosa:** yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib shuni aytishim mumkinki milliy tarbiya har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega

vositadir. Negaki, bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida axloqqa zid bo'lgan harakatlar natijasida katta ma'naviy yo'qotishlar yuz berayotgani millatning asriy qadriyatlari va milliy tafakkuri izdan chiqayotgani, sababli odob axloq jiddiy xavf ostida qolmoqda.Bu o’rinda unib o’sayotgan avlodning, butun millatning kelajagi globallashib borayotgan olam tasirida turli oqimlarga aralashib qolayotgani hech kimga sir emas. Shu sabab hozirgi yosh avlodning milliy tarbiyasiga nafaqat ota-onalar balki jamiyat ham jiddiy e'tibor qaratishi, "Ha endi o'zi omon bo'lsa tarbiyasi bir gap bo'lar..." deya beparvolik bilan qarab butun boshli millatni tanazzulga yetaklashi emas, ularga biroz etiborliroq bo'lish talab etiladi. Negaki, to’g’ri qaysidir ma’noda bolaning sog’ligi va ta’lim olishi, ilm o’rganishi muhim, biroq bir narsani unutib qo’ymasligimiz kerak, ya’ni tarbiya ta’limdan ustun, insonni tarbiya voyaga yetkazadi, ugina yuqoriga ko’tarilishga zamin yaratadi. Keling barchamiz qo'lni qo'lga berib bugungi globallashgan XXI asrda yoshlarimizni axloqimizga zid bo'lgan illatlardan va tahdidlardan saqlab ularning milliy tarbiyasini rivojlantirishga o'z xissamizni qo'shaylik.

**Foydalinilgan adabiyotlar ro'yxati.**

**1.** Sh.N.Taykalovning globallashuv jarayonida yoshlarning g'oyaviy mafkuraviy imunitetini ommaviy axborot vositalarining o'rni nomli maqolasi 2023-yil

**2.** Milliy va axloqiy qadriyatlarning falsafiy jihatlarini tizimli ravishda tadqiq qilganlar- J.Tulenov, G. Tulenova, Q. Nazarovlar;

**3.** MDH tadqiqotchilaridan V.G.Baxteyerov, F.Kapterov, Ya.A.Komenskiy, A.S.Makrenko, K.D.Ushinskiylarning o'sib kelaayotgan yosh avlodda axloqiy sifatlarni tarbiyalashning muammolari va milliy tarbiyaning dolzarb masalalari to'g'risidagi qo'llanmalari;

**4.** Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari bestselleri;

**5.** Zarddushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”dan (tarj M. Ishoqov). O’zbek tili va adabiyoti jurnali, 1999-yil, 2-4.

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MUSIQA FANINING BOLA SHAXSINI HAMDA ESTETIKASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI

Kaxxorova Odina Nazirjonovna

Namangan davlat pedagogika instituti magistranti

***Annotatsiya:*** ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxs sifatida shakllanishida musiqaning o‘rni, musiqa o‘qituvchisining pedagogik mahorati hamda musiqiy ta’limning sifat darajasini oshirish uchun lozim bo‘lgan ishlar haqida so‘z olib borilgan.

***Kalit so‘zlar:*** musiqiy ta’lim, musiqa o‘qituvchisi, bola shaxsini rivojlantirish.

***Аннотация:*** В данной научной статье рассматривается роль музыки в личностном развитии учащихся начальных классов, педагогическое мастерство учителя музыки, а также работа, необходимая для повышения качества музыкального образования.

***Ключевые слова:*** музыкальное образование, учитель музыки, развитие личности ребенка.

***Abstract:*** This scientific article discusses the role of music in the personal development of primary school students, the pedagogical skills of the music teacher, and the work needed to improve the quality of music education.

***Key words:*** musical education, music teacher, child personality development.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3391-sonli Qarori qabul qilinib, ayni vaqtda milliy o‘zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo yosh avlodimizni yuksak insoniy tuyg‘ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san’atining keng imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayotganligi ta’kidlab o‘tilgan edi. Shu bois, milliy maqom san’ati namoyandalari, targ‘ibotchilari oldiga “Xalqimiz, xususan yosh avlodni maqom san’ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi yuksak

badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish” vazifasi qo‘yildi. Bu esa ta’lim-tarbiyaning metodologik asoslarini yanada takomillashtirishni taqozo etadi hamda pedagogik faoliyatni maqsadli amalga oshirishga undayli. Endilikda asosiy maqsad - o‘quvchi faqat egallangan bilim va ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish bilan emas, balki undan mustaqil ravishda shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olishi va hayoti davomidagi turli ijtimoiy munosabatlarda oqilona foydalana olishi joiz.

Ta’lim va tarbiya bir biri bilan uzviy bog‘liq tushunchalardir. Agar ta’limni tarbiyadan ajratib qo‘yilsa ta’lim cho‘loq bo‘lib qoladi. Tarbiyaning esa qator turlari mavjud bo‘lib, insonning barkamol shaxs sifatida rivojlanishida musiqiy tarbiyaning o‘rni beqiyosdir. Musiqa bolalarning estetik dunyosining ko‘p qismini egallaydi. Ularning musiqaga monand ritmik harakatlari, qo‘shiq kuylashi, kichik asarlarni ijro qilishi hissiy tuyg‘ularining rivojlanishiga yordam beradi. Musiqa bolalarning har taraflama sog‘lom shakllanishida boy manbaadir.

Bolalar shaxs sifatida rivojlanishida musiqa madaniyati asosiy rol o‘ynaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan musiqa darslarini samarali va qiziqarli tarzda tashkil etish musiqa o‘qituvchisining pedagogik hamda ijodkorlik mahoratiga bog‘liqdir. Hech kimga sir emaski, bugungi kunda musiqiy savodxonligimiz darajasi ancha past. Buning asoosiy sabablaridan biri mutaxassislarning yetarlicha bilim va ko‘nikmaga ega emasligidir. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda musiqaga umuman aloqasi bo‘lmagan shaxslar oddiygina gitara va dutorni ajrata olmaydi. Chalinadigan barcha musiqa asboblarini ,,gitara” yoki ,,do‘mbira” deb atashi esa ham kulguli, ham achinarli hol, aslida. Bunday holatlarni bartaraf etishda musiqa o‘qituvchisining o‘rni katta. Maktablarda musiqa darsi fan sifatida mukammal tarzda o‘tilsa, kelajakda ushbu muammolar o‘z yechimini topadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tasavvurida, ayniqsa birinchi va ikkinchi sinflarda musiqa darslarini qiziqarli va kerakli fan sifatida tasvirlay olish o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq. Ular, asosan informatsiyani ko‘rish hamda eshitish orqali eslab qoladi va idrok qiladi. Sababi, birinchi va ikkinchi sinf

o'quvchilarida o'qish va yozish ko'nikmalari hali yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Shundan kelib chiqib, ushbu sinf dars jarayonlarida ko'proq ko'rgazmali qurollar, rasmli plakatlar, quvnoq kuy va qo'shiqlar, sanoqli harakatlar, multi o'yinlardan foydalanish bolalarni darsga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishini orttiradi. Darslarning shunday sifatda olib borilishi esa bolalarni erkin fikrlash, nutqida ravonlik va o'zini tuta olish holatlarini rivojlantiradi. Uchinchi va to'rtinchi sinf o'quvchilarida yozish va o'qish ko'nikmalari nisbatan yaxshi shakllanganligi sababli, ular bilan jiddiyroq shug'ullanish talab qilinadi. Davlat dasturidan tashqari o'qituvchi o'zining ijodkorlik qobiliyatini ham o'rinli ishlata olishi lozim. Dars jarayonidagi turli o'yinlar, interfaol metodlar bola ongining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarni yozish bilan bezdirib qo'ymaslik kerak. Masalan, o'quvchiga uyga vazifa sifatida har bir o'tilgan mavzu yuzasidan mavzuga doir musiqa asbobining rasmini chizib kelish yoki kartondan yasash berilsa, ish jarayoni davomida bola qayta-qayta shu yasayotgan yoki chizayotgan musiqa asbobiga duch keladi. Ko'rish va chizish, yasash orqali o'quvchi tasavvuriga ushbu atama muhrlanadi.

Musiqa darslari-ijtimoiy faol shaxsni, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashning vositalaridan biri hisoblanadi. O'quvchi musiqa mashg'ulotlari orqali san'at dunyosiga kirib, musiqaning jozibaviy kuchi, sirlarini egallaydi. Musiqa vositasida go'zallikni anglash unga o'z munosabatini bildirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bir so'z bilan aytganda, musiqa mashg'ulotlarida o'quvchining ma'naviy kamolot tarbiyasi amalga oshiriladi. Musiqa darslarida rivojlanish va maqsadga muvofiq tarbiya, avvalo, ta'limning dogmatik metodlaridan voz kechib, o'quvchini ko'proq o'ylash, fikrlash, musiqiy ijodkorlikni ko'rsatishga undaydigan metodlarni qo'llash, musiqa darslarining ta'limiy, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini butun choralar bilan ishga solish orqali amalga oshiriladi. Buning uchun avvalo musiqani o'qitish metodlarini mukammal bilish, ularni tanlay olish mahoratiga ega bo'lish va har bir metodni amalga oshirishning turli yo'llaridan xabardor bo'lish kerak.

Xulosa qilib aytish joizki, boshlang‘ich sinflarda musiqa ta’limi mazmuni o‘quvchilarning musiqiy savodxonligini oshirish, ular faoliyatini aktivlashtirish, bosqichlararo o‘zaro bog‘liqlikka erishib, dars yaxlitligini ta’minlashga qaratilishi kerak. Muhim jihat shundaki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida musiqiy savodxonlik kompetensiyasini shakllantirishda oddiydan-murakkabga tamoyili asosida ularda mantiqiy fikrlashga o‘rgatish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O.Faziyev va boshqalar «O‘zbekiston maktablarida musiqiy nafosat tarbiyasini tashkil etish bo‘yicha metodik qo‘llanma» 1992.

2. Axmedov, B. A. (2021). Ta’limda axborot texnologiyalari fanining modullarini o‘qitishda klasterli-innovatsion texnologiyalardan foydalanish tamoyillari. O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

**Internet manbaalari:**

3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Faoliyat

## INTELLEKTUAL KAMCHILIGI BO’LGAN SHAXSLARDA MEHNAT TA’LIMI VA ULARNI KASB-HUNARGA YO’NALTIRISH

Roziqova Malika Olimjon qizi
Namangan davlat pedagogika institutI Pedagogika va psixologiya kafedrasi o’qituvchisi
Nasirova Nilufar Nazirjon Qizi
Namangan davlat pedagogika institute maxsus pedagogika (logopediya) yo’nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya**: Ushbu maqola intellektual kamchiligi bo‘lgan shaxslarda mehnat ta’limi va ularni kasb-hunarga yo‘naltirishning ahamiyatini tahlil

qiladi.Intellektual kamchiligi bo‘lgan shaxslar jamiyatda o‘z o‘rnini topishi,o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishi va mustaqil hayot kechirishi uchun mehnat ta’limi va kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlari muhim ahamiyatga ega bo‘lgan jarayonlardir.

**ABSTRACT**:This article analyzes the importance of vocational education and vocational guidance for persons with intellectual disabilities. In order for persons with intellectual disabilities to find their place in society, develop their abilities and lead an independent life, the processes of labor education and vocational orientation are important processes.

**Аннотация**: В данной статье анализируется значение профессионального образования и профессиональной ориентации для лиц с ограниченными интеллектуальными возможностями Для того чтобы лица с ограниченными интеллектуальными возможностями нашли свое место в обществе, развили свои способности и вели самостоятельную жизнь, важными процессами являются процессы трудового воспитания и профессиональной ориентации.

**Kalit so‘zlar**: intellektual kamchiligi bo‘lgan shaxslar, korreksiyalash, oligofrenopedagogika, kompensatsiya, sotsializatsiya.

**Key words**: persons, with, intellectual, disabilities, correction, oligophrenopaedagogy, compensation, socialization.

**Ключевые слова**:лица.с ограниченными интеллектуальными возможностями, коррекция олигофренопедагогика, компенсация, социализация.

"Intellekt (lotincha intellectus – aql, idrok, zehn) – keng ma’noda: kishining voqea-hodisa mohiyatini to‘laligicha bilishiga asoslangan va u orqali namoyon bo‘ladigan faoliyati; tor ma’noda: insonning tafakkur, fikr yuritish salohiyati. Intellekt kishilarning aql, idrok, zakovat, ma’naviy jihatdan yetuklik darajasini ham bildiradi; tasavvur, idrok, sinchkovlik orqali jamlangan materialni bilish usullari orqali asosli bilimga ega bo‘lish yoki mavjud bilimni tanqidiy tahlil etib chiqish qobiliyatini ham anglatadi."

Intellektida nuqsoni bo’lgan bolalarni aqliy rivojlantirish va korreksiyalash bo'yicha ishlarni tashkil etish bolalarning kognitiv faolligini oshirishga, umumiy intellektual qobiliyat va ko'nikmalarini shakllantirishga, jismoniy rivojlanishga va sog'lig'ini yaxshilashga, o'z-o'zini hurmat qilishni, o'zini o'zi tuzatishga qaratilgan. xabardorlik, hissiy barqarorlik va o'z-o'zini tartibga solishning shakllanishi, rivojlanish kechikishini ma'lum darajada qoplashga imkon beradi.

Maxsus maktablardagi mehnat tarbiyasi turli faoliyatlarda: o‘quv, maishiy va ijtimoiy mehnatda amalga oshirib boriladi. Bu mehnat turlarining barchasi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo‘lib, har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega. 0 ‘quvchilar mehnatda uning kerak boMadigan biiimlami egallasalar, maishiy mehnatda oddiy, sodda, tushunarli turlari bilan tanishadilar.[4.143]

Intellektual kamchiligi bo'lgan shaxslarning mehnat ta'limi va kasb-hunargacha yo'naltirilishi juda muhimdir. Bunday shaxslarning ijtimoiy hayotga faol ishtirok etishi, ularning o'z-o'zini ta'minlash qobiliyatini oshirish uchun mehnat ta'limi zarur.

- Mehnat ta'limini tashkil etish: Maxsus dasturlar va treninglar yordamida intellektual kamchilikka ega shaxslar uchun muloqot, muammo yechish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan tayyorgarliklar o'tkazilishi lozim.

- Kasb-hunargacha yo'naltirish: Bunda, shaxslarning qobiliyatlari va qiziqishlariga mos keladigan kasblar tanlanishi kerak. Dasturlar shaxsga individual yondashishni talab etadi.

- Psixologik muhit: Ta'lim muassasalari va ish joylarida ijobiy psixologik muhit yaratish, shaxslar o'zlarini erkin his qilishlari uchun muhimdir.

- Ijtimoiy integratsiya: Intellektual kamchilikka ega shaxslarni ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga, ular bilan hamkorlikda ishlashga rag'batlantirish yangi imkoniyatlar yaratadi.

Ushbu yo'nalishlarni rivojlantirish orqali intellektual kamchiligiga ega shaxslar hayot sifatlarini yaxshilash va jamiyatda to'laqonli ishtirok etish imkoniyatlarini oshirish mumkin.

Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarning o'ziga xos xususiyatlari murakkablik tamoyillari va individual yondashuv asosida psixologik va pedagogik yordamni tashkil etish zarurligini, zamonaviy korreksiyalash va bilish jarayonlarini rivojlantirish texnologiyalarini yaxshi biladigan va intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarga yordam bera oladigan mutaxassislarning ko'p tarmoqli guruhining mavjudligi ma'lum. Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlaydigan pedagog o'z oldiga bunday nuqsonli o'quvchilarni maxsus maktabda o'qishga tayyorlash vazifasini qo'yadi va ularni kelajagda ishlab chiqarishga yo'naltirish, mustaqil hayotga va mehnatga tayyorlash vazifasini qo'yadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda aqliy zaifligi yengil bo'lgan bolalar soni oshdi.Bunga sabab qilib atrof-muhitdagi zararli omillarni,oziqlanishning yomonlashuvi,asosan,vitamin va minerallarning yetishmasligini,oilaviy muammolarni,aqliy rivojlanish muammolarini aniqlash va davolashda tibbiy xizmatlarning yetarli emasligini ko'rsatishimiz mumkin.

Yordamchi maktablardagi mehnat tarbiyasini amalga oshirishda qo'l mehnati natijalarini namoyish etuvchi to'garak ishlari ham muhim ahamiyatga ega. Bu to'garaklarga qatnashish orqali aqli zaif bolalarni tarbiyalash, hayotga tayyorlash yaxshi natijalar beradi. Yordamchi maktablardagi mehnat orqali bolalarda kasbga tayyorgarlik, kasb tanlashga havas uyg'otib boriladi. Yordamchi maktablardagi mehnat ta'limi orqali o'quvchilami milliy hunarmandchilikka oid kasb-hunarga tayyorlash, hozirgi zamon sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi, qurilish, transport, xizmat ko'rsatish sohasining asoslari bilan tanishtirish orqali esa o'quvchilarda ko'p qo'llaniladigan o'lchov asbob-uskunalari bilan ishlash ko'nikmalari ham tarbiyalanadi. 0 'quvchilarda umumiy ish madaniyati, o'z ish o'mini tashkil eta bilish, ish qurollarini hamisha tartibli holda saqlash, ish vaqti va materiallami tejash, jamoa mehnatini uyushtira bilish, qiyinchilik tug'ilganda yordam ko'rsatish kabi shaxsiy sifatlar shakllantiriladi. Ta'limning unumli mehnat bilan birlashtirilishi natijasida aqli zaif bolalarning kasb tanlashiga sharoit yaratiladi.

Hozirgi vaqtda jamiyatining eng muhim vazifalari - bu bolaning ruhiy salomatligini saqlash va uni yanada mustahkamlash, uning hayotga moslashish qobiliyatini oshirish hisoblanadi. Intellektida nuqsoni bo’lgan bolalar sonining ko'payishi borasida tibbiyot hodimlarining oldiga qo’yilgan bir qancha vazifalari mavjud.Masalan,bolalarning intellektual rivojlanishini vaqtida aniqlash uchun keng qamrovli skrining dasturlarini amalga oshirish,har bir bolaning individual ehtiyojlarini belgilab,ularga mos keladigan davolash va yordam usullarini taklif qilish,intellektual nuqsoni bo’lgan bolalar uchun reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish shular jumlasidandir.

Korreksiyalash, aqliy zaiflik kompensatsiyasi, shuningdek, aqli zaif bolani sotsializatsiya qilish muammolari shu nuqsonning keng tarqalganligi bilan bog'liq. Aqli zaif bolalar uchun federal davlat standarti tamoyillari mavjud.Unga ko’ra har bir bolaning yoshiga va shaxsiy xususiyatlariga, maxsus ta'lim ehtiyojlariga muvofiq rivojlanishi va ta'lim olishi uchun qulay ijtimoiy vaziyat yaratib berishdir. Maxsus ta'lim tizimida va oligofrenopedagogikada intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarda mustaqil hayotga yetarlicha tayyorgarlikni shakllantirishga yordam beradigan samarali vositalarni izlash yo'lga qo'yilgan. Zamonaviy ta'lim tizimi, birinchi navbatda, intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, ularning sog'lig'ini yaxshilashga qaratilgan e'tiborini yo'qotdi. Ta'limning eskirgan usullari va shakllari, mukammal bo'lmagan ta'lim dasturlari intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarni neyropsixik ortiqcha yuklashga olib keladi.Chunki,maktablarda qabul qilingan umumiy ta’lim standartlari intellektual nuqsoni bo’lgan bolalar uchun mos kelmaydi, ta’lim tizimida belgilangan yuqori talablar bunday bolalarga ortiqcha bosim o’tkazadi,individual yondashuvlar yetishmaydi.

L.M. Shipitsin fikriga ko’ra:’’ Intellektida nuqsoni bo’lgan bolalar - bu o'sib borayotgan odamning kognitiv faollik darajasi va uning barcha ko'rinishlarida: bilim, bilish jarayonlari, qobiliyatlari; u hayot sharoitlari va ijtimoiy muhitning bolaga ta'siri natijasida amalga oshiriladi’’ .Boshqa aqliy tarbiya vositalari orasida

o'qitishning yetakchi mavqeyi quyidagi shartlar bilan belgilanadi: dasturiy, intellektida nuqsoni bo'lgan barcha bolalar, bolalarning yoshiga mos keladigan usullarni tizim bilan qamrab oladigan ta'limning yetakchi o'rni, o'qituvchi-psixolog. Aqli zaif bolalar odatda aqliy qobiliyatining pasayishi bilan sog’lom tengdoshlaridan ajralib turadi. Ularning faoliyati o'zini tuta olish qobiliyatining bo’lmasligi yoki juda ham past rivojlanganligi, maqsadli ishlab chiqarish harakatlarining yo'qligi, tadbirlarni rejalashtira ololmasliklari va harakatlarni og'zaki ifodalashda ma’lum qiyinchiliklarga duch kelishi bilan tavsiflanadi.

Xuddi shu omillar bolalarning ushbu toifasidagi xarakterli xulq-atvor buzilishlarini tushuntiradi.Intellektida nuqsoni bo’lgan bolalar boshqa bolalardan, odatda, hissiy beqaror bo’lishlari bilan,atrofdagi insonlar bilan til topishishda turli xil qiyinchiliklarga duch kelishlari bilan ajralib turishadi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, intellektual kamchiligi bo’lgan shaxslarda mehnat ta’limi va ularni kasb-hunarga yo’naltirish jamiyatda ijtimoiy integratsiyani ta’minlaydi.Bu shaxslar uchun kasbiy ko’nikmalarni egallash orqali o’z-o’zini anglash va ishonch hosil qilish imkoniyatini yaratadi.Natijada,mehnat ta’limi va kasb-hunarga yo’naltirish ularning hayot sifatini yaxshilash va jamiyatda muvaffaqiyatli ishtirok etishiga yordam beradi.Albatta, bunda oilaning,jamiyatning va davlatning qo’llab-quvvatlashi juda muhimdir.Chunki,oila,jamiyat va davlatning qo’llab-quvvatlashi orqali intellektual kamchiligi bo’lgan shaxslar ijtimoiy hayotga faol kirishib,o’z salohiyatlarini to’liq ochish imkoniyatiga ega bo’lishadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**:

1.L.Arifxodjayevaning “Intellektida nuqsoni bo’lgan bolalar bilan ishlovchi psixolog faoliyatini tashkillashtirish” nomli maqolasi 2021-yil.

2.O.P.Gavrilushkina,N.D.Sokolova “Aqli zaif maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va o’qitish”:Kitob.o’qituvchi uchun.2005.-72 b.

3.L.M.Shipitsyna “Og’ir va o’rtacha aqliy zaif bolalarda muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish”.Sank-Peterburg, “Soyuz”,2014-yil.

# TARBIYADAGI MUAMMO VA KAMCHILIKLAR: JAMIYATNING TARAQQIYOTIGA TAHDID

Nurmatova Shaxnoza Shavkatbek qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: xusanbaevashahnoz@gmail.com
Rustamova Mohina Akbarali qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kundagi jamiyatdagi yoshlarning tarbiyasi bilan bog‘liq muammo va kamchiliklar ochib berilgan bo‘lib, bu jarayon jamiyatimiz taraqqiyotiga jiddiy tahdid solayotgani haqida so‘z brogan.

**Kalit so‘zlar:** qobiliyat, depressiya, ta’lim-tarbiya, motivatsiya, qadriyat.

**Аннотация:** В данной статье раскрываются проблемы и недостатки, связанные с образованием молодежи в современном обществе, и говорится, что этот процесс представляет серьезную угрозу для развития нашего общества.

**Ключевые слова:** способности, депрессия, образование, мотивация, ценность

**Abstract**: This article reveals the problems and shortcomings related to the education of young people in today's society, and it is said that this process poses a serious threat to the development of our society.

**Key words:** ability, depression, education, motivation, value.

Tarbiyaning asosiy maqsadi shaxsni axloqiy, ma’naviy va jismoniy jihatdan rivojlantirishdir. Biroq, bugungi kunda jamiyatda tarbiya bilan bog‘liq muammo va kamchiliklar ko‘payib, bu jarayon jiddiy tahdidga aylangan. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, televideniya orqali efirga uzatilayotgan seriallar, oiladagi muhit, erkak

ustozlarning maktablarda kamligi va otalarning oiladagi roli kamayib ketayotgani kabi omillar bu muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar va seriallar bugungi kunda bolalar, yoshlarga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir tarafdan, ular zamonaviy texnologiyalarni o‘rganishda foydali vosita bo‘lsa-da, boshqa tarafdan, noto‘g‘ri axborot tarqalishiga sabab bo‘lib, yosh avlodning tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, ko‘p hollarda ijtimoiy tarmoqlarda tarqatiladigan kontentlar, xususan, ommabop seriallar o‘zida zo‘ravonlik, axloqsizlik va noto‘g‘ri qadriyatlarni tarqatadi. Bu holat yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga zarar yetkazishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar ko‘proq vaqtlarini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazayotganlari sari ularning xulq-atvorida o‘zgarishlar seziladi. Buni AQShdagi Pew Research Center tadqiqotida ham ko‘rish mumkin. Ushbu tadqiqotga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlarda uzoq vaqt o‘tkazish bolalarda depressiya, xavotir, va o‘ziga ishonchsizlik kabi hissiyotlarni kuchaytiradi. Shuningdek, seriallarda ko‘rsatilayotgan voqealar ham bolalarning hayotiy qadriyatlariga ta’sir qiladi. Masalan, ko‘plab seriallar hayotni faqatgina o‘yin yoki maishiy hayot tarzida ko‘rsatadi, bu esa yosh avlodning reallikdan uzoqlashishiga olib kelishi mumkin.

Oila har doim jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib kelgan. Bolalar va yoshlarning tarbiyasida oiladagi muhit juda katta ahamiyatga ega. Biroq, bugungi kunda ko‘plab oilalarda otalarning roli kamayib borayotgani kuzatilmoqda. Otalar ko‘pincha moddiy ta’minot uchun mas’ul deb hisoblanadi, lekin bolalar tarbiyasida ularning ishtiroki kamaygani bu jarayonning qisman rivojlanishiga olib kelyapti.Bolalarning tarbiyasida otalarning yetishmovchiligi yoki ularning faol ishtirok etmasligi katta kamchilikka aylanmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, otalarning bolalar tarbiyasidagi ishtiroki farzandlarning kelajakdagi muvaffaqiyati, o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati va jamiyatda to‘g‘ri yo‘lni tanlashida muhim ahamiyat kasb etadi. Oiladagi otaning o‘rnini qoplash uchun onalar va boshqa oila a’zolari ko‘proq vaqt ajratishga majbur bo‘ladilar, bu esa ko‘pincha o‘ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi.

Maktab ta’lim-tarbiyasida erkak ustozlarning kamligi muammosi ham dolzarbdir. Erkaklar ustoz sifatida faoliyat ko‘rsatishlari o‘quvchilarga o‘ziga xos misol bo‘lib, ularning jismoniy va axloqiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Biroq, bugungi kunda maktablarda erkak ustozlarning soni sezilarli darajada kamayib ketdi. Bu holat, ayniqsa, o‘g‘il bolalar uchun jiddiy muammo tug‘diradi, chunki ular o‘zlariga erkak idealni izlashadi va ustozlar ushbu ehtiyojni qondirishda muhim rol o‘ynaydi.Yaponiyada o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erkak ustozlarning yetishmasligi o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi va sportdagi muvaffaqiyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bilan birga, erkak ustozlarning kamligi bolalarning ijtimoiy qobiliyatlari rivojlanishiga ham ta’sir qiladi, chunki erkak ustozlar ko‘pincha bolalarga ijtimoiy va axloqiy me’yorlarni o‘rgatishda boshqa yondashuvni tanlaydilar.

O‘qituvchi jamiyatdagi eng muhim kasblardan biri hisoblanadi, chunki u kelajak avlodni shakllantiradi. Biroq, oxirgi yillarda o‘qituvchilarning jamiyatdagi mavqei kamayib, ular o‘z vazifalarini to‘liq ado etishga qiynalmoqdalar. O‘qituvchilarni qadrsizlanishi ularning motivatsiyasiga, shuningdek, o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.O‘qituvchilar o‘zlarining o‘rnini jamiyatda sezmayotgani va ularning mehnatlari yetarlicha qadrlanmayotgani sababli, bu kasbga qiziqish kamaymoqda. Buning oqibatida maktablarda kadrlar yetishmovchiligi, malakasiz o‘qituvchilarning ko‘payishi va ta’lim sifatining pasayishi kabi holatlar kuzatilmoqda. Xususan, Britaniyada o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, oxirgi 5 yil ichida o‘qituvchilik kasbiga kirayotganlarning soni sezilarli darajada kamaygan va bu jamiyat uchun katta muammo hisoblanadi.

Jamiyatdagi tarbiya bilan bog‘liq muammo va kamchiliklar bugungi kunda jiddiy ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, seriallar, oiladagi muhit, erkak ustozlarning yetishmasligi va o‘qituvchining qadrsizlanishi kabi omillar yosh avlodning to‘g‘ri tarbiyalanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun jamiyatning barcha qatlamlari birgalikda harakat qilishi lozim. Ota-

onalar, o‘qituvchilar, yoshlar yetakchilari va davlat organlari birgalikda yosh avlodni to‘g‘ri yo‘lga solish, ularga zamonaviy dunyoning ijobiy tomonlarini o‘rgatish va salbiy ta’sirlarni kamaytirish uchun harakat qilishlari zarur. Shundagina biz kelajak avlodni axloqiy va ma’naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalay olamiz.

Tarbiyaning asosiy maqsadi shaxsni axloqiy, ma’naviy va jismoniy jihatdan rivojlantirishdir. Biroq, bugungi kunda jamiyatda tarbiya bilan bog‘liq muammo va kamchiliklar ko‘payib, bu jarayon jiddiy tahdidga aylangan. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, seriallar, oiladagi muhit, erkak ustozlarning maktablarda kamligi va otalarning oiladagi roli kamayib ketayotgani kabi omillar bu muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar va seriallar bugungi kunda bolalar va yoshlarga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir tarafdan, ular zamonaviy texnologiyalarni o‘rganishda foydali vosita bo‘lsa-da, boshqa tarafdan, noto‘g‘ri axborot tarqalishiga sabab bo‘lib, yosh avlodning tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, ko‘p hollarda ijtimoiy tarmoqlarda tarqatiladigan kontentlar, xususan, ommabop seriallar o‘zida zo‘ravonlik, axloqsizlik va noto‘g‘ri qadriyatlarni tarqatadi. Bu holat yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga zarar yetkazishi mumkin.Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar ko‘proq vaqtlarini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazayotganlari sari ularning xulq-atvorida o‘zgarishlar seziladi. Buni AQShdagi Pew Research Center tadqiqotida ham ko‘rish mumkin. Ushbu tadqiqotga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlarda uzoq vaqt o‘tkazish bolalarda depressiya, xavotir, va o‘ziga ishonchsizlik kabi hissiyotlarni kuchaytiradi. Shuningdek, seriallarda ko‘rsatilayotgan voqealar ham bolalarning hayotiy qadriyatlariga ta’sir qiladi. Masalan, ko‘plab seriallar hayotni faqatgina o‘yin yoki maishiy hayot tarzida ko‘rsatadi, bu esa yosh avlodning reallikdan uzoqlashishiga olib kelishi mumkin.

Oila har doim jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib kelgan. Bolalar va yoshlarning tarbiyasida oiladagi muhit juda katta ahamiyatga ega. Biroq, bugungi kunda ko‘plab oilalarda otalarning roli kamayib borayotgani kuzatilmoqda. Otalar

ko‘pincha moddiy ta’minot uchun mas’ul deb hisoblanadi, lekin bolalar tarbiyasida ularning ishtiroki kamaygani bu jarayonning bir tomonlama rivojlanishiga olib kelmoqda. Bolalarning tarbiyasida otalarning yetishmovchiligi yoki ularning faol ishtirok etmasligi katta kamchilikka aylanmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, otalarning bolalar tarbiyasidagi ishtiroki farzandlarning kelajakdagi muvaffaqiyati, o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati va jamiyatda to‘g‘ri yo‘lni tanlashida muhim ahamiyat kasb etadi. Oiladagi otaning o‘rnini to‘ldirish uchun onalar va boshqa oila a’zolari ko‘proq vaqt ajratishga majbur bo‘ladilar, bu esa ko‘pincha o‘ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi.

Maktab ta’lim-tarbiyasida erkak ustozlarning kamligi muammosi ham dolzarbdir. Erkaklar ustoz sifatida faoliyat ko‘rsatishlari o‘quvchilarga o‘ziga xos misol bo‘lib, ularning jismoniy va axloqiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Biroq, bugungi kunda maktablarda erkak ustozlarning soni sezilarli darajada kamayib ketdi. Bu holat, ayniqsa, o‘g‘il bolalar uchun jiddiy muammo tug‘diradi, chunki ular o‘zlariga erkak idealni izlashadi va ustozlar ushbu ehtiyojni qondirishda muhim rol o‘ynaydi. Yaponiyada o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erkak ustozlarning yetishmasligi o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi va sportdagi muvaffaqiyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bilan birga, erkak ustozlarning kamligi bolalarning ijtimoiy qobiliyatlari rivojlanishiga ham ta’sir qiladi, chunki erkak ustozlar ko‘pincha bolalarga ijtimoiy va axloqiy me’yorlarni o‘rgatishda boshqa yondashuvni tanlaydilar.

O‘qituvchi jamiyatdagi eng muhim kasblardan biri hisoblanadi, chunki u kelajak avlodni shakllantiradi. Biroq, oxirgi yillarda o‘qituvchilarning jamiyatdagi mavqei kamayib, ular o‘z vazifalarini to‘liq ado etishga qiynalmoqdalar. O‘qituvchilarni qadrsizlanishi ularning motivatsiyasiga, shuningdek, o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchilar o‘zlarining o‘rnini jamiyatda sezmayotgani va ularning mehnatlari yetarlicha qadrlanmayotgani sababli, bu kasbga qiziqish kamaymoqda. Buning oqibatida maktablarda kadrlar yetishmovchiligi, malakasiz o‘qituvchilarning ko‘payishi va

ta’lim sifatining pasayishi kabi holatlar kuzatilmoqda. Xususan, Britaniyada o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, oxirgi 5 yil ichida o‘qituvchilik kasbiga kirayotganlarning soni sezilarli darajada kamaygan va bu jamiyat uchun katta muammo hisoblanadi.

Jamiyatdagi tarbiya bilan bog‘liq muammo va kamchiliklar bugungi kunda jiddiy ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, seriallar, oiladagi muhit, erkak ustozlarning yetishmasligi va o‘qituvchining qadrsizlanishi kabi omillar yosh avlodning to‘g‘ri tarbiyalanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun jamiyatning barcha qatlamlari birgalikda harakat qilishi lozim. Ota-onalar, o‘qituvchilar, yoshlar yetakchilari va davlat organlari birgalikda yosh avlodni to‘g‘ri yo‘lga solish, ularga zamonaviy dunyoning ijobiy tomonlarini o‘rgatish va salbiy ta’sirlarni kamaytirish uchun harakat qilishlari zarur. Shundagina biz kelajak avlodni axloqiy va ma’naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalay olamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. G‘ulom Karimov - "Tarbiya nazariyasi va amaliyoti".

2. Shavkatbekovna, N. S. (2023). FORMATION STRATEGIES OF POSITIVE ATTITUDES TOWARDS THE LESSON IN FOREIGN COUNTRIES. *International Journal of Pedagogics*, *3*(12), 126-131.

2. Amanda Third "Social Media and Mental Health: Handbook for Parents and Educators".

4. Ross D. Parke "Fatherhood in Modern Society".

5. Nurmatova, S., & Ilhomova, D. (2024). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING DARSGA IJOBIY MUNOSABATLARINI SHAKLLANTIRISHDA BOLALAR ADABIYOTINING ROLI. *Interpretation and researches*.

6. Shavkatbekovna, N. S. (2023). History of the Development of Home Education in The Countries of The World. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, *1*(1), 13-18.

# MILLIY TARBIYADA NAVOIY AFORIZMLARING O‘RNI

O‘g‘iloy Axmadaliyeva

NamDPI magistranti

ogiloyaxmadalieva2@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy, o‘rta va oliy ta’lim tizimlarida o’qitiladigan “Alisher Navoiyning aforizmlarida milliy o‘zlik talqini” mavzusi, uning yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdagi o‘rni, mazkur mavzuga zamonaviy raqamli texnologiyani tatbiq etish, amaliy-metodologik jihatdan o‘quvchilarga mavzu predmetini o‘rganishni qulaylashtiruvchi kompyuter dasturlari, onlayn platformalardan foydalanish va turli dasturiy o‘yinlar yaratish orqali o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglashni yanada rivojlantirish borasida olib borilgan izlanishlar, tadqiqotlar haqidagi fikrlar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** aforizm, milliy qadriyatlar, raqamli texnologiya, lirika, metodik uslub, qofiya, devon, internet dasturlari, interaktiv mashg‘ulotlar

**Annotation:** In this article, the topic "Interpretation of national identity in Alisher Navoi's aphorisms" taught in general, secondary and higher education systems, its role in educating young people in the spirit of national values, application of modern digital technology to this topic, practical Methodologically, researches and opinions about the further development of national identity in students by using computer programs, online platforms, and creating various software games, which facilitate students' learning of the subject, are highlighted.

**Key words:** aphorism, national values, digital technology, lyrics, methodological style, rhyme, divan, internet programs, interactive training

**Аннотация:** В данной статье рассматривается тема «Интерпретация национальной идентичности в афоризмах Алишера Навои», преподаваемая в системах общего, среднего и высшего образования, ее роль в воспитании молодежи в духе национальных ценностей, применение современных цифровых технологий к данной теме, практически-методически освещаются исследования и мнения о дальнейшем развитии национальной идентичности

у учащихся путем использования компьютерных программ, онлайн-платформ, создания различных игровых программ, способствующих усвоению предмета учащимися.

**Ключевые слова:** афоризм, национальные ценности, цифровые технологии, методический стиль, рифма, диван, интернет-программы, интерактивное обучение

**Kirish.**

Dunyo adabiy merosida Navoiy ijodi alohida, o‘ziga xos o‘rin tutib kelmoqda. Ayniqsa, Alisher Navoiyning nasriy asarlari hozirda jahonning yetakchi oliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlari tomonidan o‘rganilmoqda. Xususan, g‘arb tadqiqotchilari tomonidan Navoiyning adabiy xazinasini o‘rganish Yevropa tillariga tarjima qilish, ulug‘ qalamkash asarlarining mazmun-mohiyatini G‘arb afkor ommasiga yetkazib berishda The University of Californiya (AQSH), University of Chicago(AQSH), India University (AQSH), University of Cambridge (BB) kabi ta’lim dargohlarida qator izlanishlar olib borilmoqda.

Natijada buyuk mutafakkir ijodi faqat olimlar tomonidan o‘rganilibgina qolmay, uni bugungi avlodga anglatish borasida ham metodologik tatqiqot va ilmiy-amaliy tajribalar olib borilmoqda. Xususan, yurtimizda ham bu borada ko‘plab pedagog olimlar ish olib borayotgamligiga guvoh bo‘lyapmiz. Chunki Alisher Navoiy hikmatlari xalqaro maydonda ahamiyatini yo‘qotmay kelishi bilan birgalikda, yosh avlod ongiga milliy o‘zlik tushunchasini singdirishda ham tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

**Metodologiya va adabiyotlar tahlili.**

5-sinf adabiyot darsligi kirish qismida buyuk shoirning “Xazoyin ul-maoniy” asari birinchi devonida keltirilgan “Olam ahli bilingizkim...” jumlalarining izohlanishi e’tiborni tortadi: “Bugungi kunda televizor orqali dunyoning hali u, hali bu chekkasida bombalar portlayotganiga, o‘nlab, yuzlab kishilar bir-birlarini qurbon qilayotganiga guvoh bo‘lasiz. O‘sha janglar, janjallar oqibatida azob

chekayotgan begunoh odamlar ham xuddi sizdek tirik jon ekanini o'ylarkansiz, Navoiy bobomiz naqadar haq ekanini ich-ichingizdan his qilasiz. Toki dunyoda kishilarning bir-birlariga dushmanlik qilishlari to'xtamas ekan, shoirning bu tashvishli qichqirig'i o'z ahamiyatini saqlab qolaveradi". Ushbu tasdiqlar bolalarga tinchliksevarlik g'oyalarini singdirishda aynan mana shu ikkilik naqadar to'g'ri misol bo'la olganligiga dalildir.

Yoki 6-sinflar uchun adabiyot darsligida berilgan pand-nasihat usulida yozilgan "Mahbub ul-qulub" asaridan keltirilgan parchalar esa Navoiy bobomizning o'zbek xalqi ma'naviy hayoti va tarbiyasida naqadar muhim shaxs ekanligining isbotidir. Jumladan, uning mazkur asarida keltirilgan: "Saxosiz kishi ila dursiz sadafning bir hukmi bor" jumlalarida saxovatsiz kishi ichida duri bo'lmagan sadafga o'xshatiladi va bu hozirgi yoshlarizmizda milliy tushunchalarni uyg'otishda juda yaxshi o'rnak bo'lib xizmat qila oladi. Chunki millliy qadriyatlarimizga ko'ra azaldan saxovat, qo'lidagi ne'matlarni atrofdagi do'stlar va muhtojlar bilan bo'lishish juda yaxshi xizlat sanab kelingan va bolalarga yoshlikdan o'rgatib kelingan.

Asarning 110-tanbihida keltirilgan yana bir hikmatda esa "Yaxshilikni yomonlikdan yaxshiroq deb bilmasang, yomonroq deb ham bilma", – deyiladi. Ushbu birgina aforizm orqali mutafakkir o'zbek xalqining yuzlab ertaklardagi yaxshilik qilishga chorlovni qisqa qilib ifodalagan.

Bu kabi hikmatlar sirasiga yuzlab misollar keltirish mumkin. Shuning uchun ham Navoiy asarlari va hikmatli so'zlari olti asrni bosib o'tgach ham o'qitilishda davom etmoqda. Bolalarda milliy ruh va o'zlikni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyati tufayli ham mazkur mavzuni o'qitish texnologiyalari va metodlari ustida qator ishlar olib borilmoqda.

Ayniqsa, mavzuni o'rgatishga raqamli texnologiya yutuqlarini joriy qilish yana ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu izlanishlar qatoriga Navoiy hikmatlariga oid kompyuter o'yinlari va animatsion filmlar yaratish, darslarda sun'iy intelektga oid qo'llanma va dasturlar qo'llash o'quvchilar xotirasida

aforizmlarning ma’nosini va ahamiyatini yana ham kuchliroq ochib berish ham kiradi. Masalan, “Yaxshilik qilishni bilmasang, yaxshilarga qo‘shil” degan jumla asosida qisqa metrajli animatsiya yaratish ham bolada milliy axloqiy qarashlarni shakllantirishda kuchli audiovizual material bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari buyuk shoir o‘z davrida ham yosh avlodni ijodiy-ma’naviy o‘stirishga alohida ahamiyat berganligi, ularga ijtimoiy-siyosiy kuch, kelajak poydevori sifatida qaraganligiga ham ko‘plab misollar mavjud. Jumladan, Filologiya fanlari doktori Farruxbek Olimning “Tamaddun” nashriyotida bosilgan “Alisher Navoiy manoqib -holatlarida badiiy-publitsistik mahorat” monografiyasida Navoiyning birgina bayti bilan e’tiborga tushgan yosh qalamkashlarni ham o‘z tazkirasiga kiritganligi haqida ma’lumot berilgan. Bunga dalilni yana Oybekning “Navoiy” romanida keltirilgan voqealar syujetidan ham bilib olish mumkin. Unda mutafakkirning kelajak avlodga bo‘lgan e’tiborini ifodalash uchun yosh iste’dod Sultonmurodga qarata Navoiy tilidan shunday jumlalar keltiriladi: “Himmat va g‘ayratni aslo qo‘ldan bermang. El-ulus sizdek zotlarga g‘oyat muhtojdir. Ilm daraxtini yaxshi parvarish etib, yurt tuprog‘iga chuqur tomir yoydirmog‘imiz kerak”.

**Xulosalar.**

Ushbu mavzuni to‘laqonli ochib berish va o‘quvchiga singdirishda pedagogdan nafaqat fanni va mavzularni chuqurlashtirilgan holda bilish va tushuntira olish qobiliyati, balki zamon bilan hamnafas holda texnologiya yutuqlaridan ham xabardor bo‘lish va ularni dars vaqti mobaynida qo‘llay olish mahorati ham talab etiladi. Natijada darsdagi interaktivlikni oshirish, sinf e’tiborini tortish bilan birga mavzuni tushuntirishda yuqori samaradorlikni ta’minlashga, fanlar integratsiyalashuvining amalda ro‘yobga chiqishiga hamda o‘quvchilarda mavzuga oid kompyuter savodxonligini oshirishga erishish mumkin.

Darslar mobaynida Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda “Madaniyat va ma’rifat”, “O‘zbekiston tarixi” telekanallari hamkorligida mumtoz ijodkorlarning boy ilmiy merosini yosh avlodga taqdim qilish maqsadida tashkil

etilgan qator loyihalar asosida tayyorlangan video va audiomahsulotlardan foydalanish ham tobora yoshlardagi milliy ruh va uni aforizmlar orqali o‘rganishga qiziqishni orttirib borayotganligi ham quvonarli hol.

Ammo faqatgina tayyor mediamahsulotlarni darsda qo‘llash va ularni sharhlab berish bilangina cheklanib qolish hozirgi ayrim pedagoglar uchun og‘riqli nuqtadir. Ushbu mavzuga yana ham ko‘proq internetni joriy etish, turli onlayn o‘yinlar ishlab chiqish, hozirgi kunda jamoaviy dasturiy o‘yinlar uchun eng uyg‘un bo‘lgan “Kahoot” dasturdan foydalanish lozim.

Mazkur imiy ishning yozilish jarayonida, aynan shu mavzuda ushbu sohada faoliyat yuritayotgan kadrlar ishtirokida o‘tkazilgan so‘rovnomada berilgan “Qaysi telekanalda Alisher Navoiy hikmatlariga oid dasturlarni kuzatib borasiz?” degan




savolga umumiy 25 nafar ishtirokchining 67 foizi “O‘zbekiston tarixi”, 11 foizi “Zo‘r TV”, 22 foizi “Madaniyat va ma’rifat” kanallari degan javobni berishgan.

Shu tufayli ham milliy tarbiyada Alisher Navoiy hikmatlarining o‘rni, mavzuga nisbatan o‘quvchilardagi faollikni oshirish, sinfdagi interaktiv mashg‘ulotlarni ko‘paytirishda kompyuter dasturlarini mavzuga joriy qilish muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A. Navoiy. Xazoiyin ul-maoniy.Birinchi devon. G‘aroyib us-sig‘ar. – Toshkent: Tamaddun, 2022
2. Ahmedov, S., Qosimov, B. Qo‘chqorov, R., Rizayev, Sh. Umumiy oi’rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun adabiyotdarsligi. – Toshkent: 2020. – 6 b.
3. Ahmedov, S., Qosimov, B. Qo‘chqorov, R., Rizayev, Sh. Umumiy oi’rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun adabiyotdarsligi. – Toshkent: 2017. – 34 b.
4. Axmadaliyeva, O‘. Majolis un-nafois xususida. – Toshkent: O‘zFA
5. Axmadaliyeva, O‘. Alisher Navoiy aforizmlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash metodikasi . – Namangan. – 4-5 b.
6. Olim, F. (2022).Alisher Navoiy manoqib-holatlarida badiiy-publitsistik mahorat. – Toshkent: Tamaddun, 2022. – 5b.

## TALABALARNI IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH TAMOYILLARI

Shodmonova Sevara Muxtor qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(boshlang`ich ta’lim) mutaxassisligi magistranti

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni mazmuni, ahamiyati va talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash tamoyillari yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** ijtimoiy pedagogika, differensial, differensial ta’lim, metod, xarakter, temperament, individual.

**Аннотация:** В данной статье описываются содержание, значение процесса подготовки к социально-педагогической деятельности и принципы подготовки студентов к социально-педагогической деятельности.

**Ключевые слова:** Социальная педагогика, дифференциал, дифференциальное образование, метод, индивидуальный, характер, темперамент, индивидуальный

**Annotation :** This article is covered by the principles of the content of the process of preparing for social pedagogical activities in the field of social pedagogical activity for social pedagogical activities.

**Key words:** Social pedagogy, differential, differential education , method, character, temperament, individual.

Pedagog jamiyat hayotida o‘z o‘rniga ega bo‘lish bilan bir qatorda ijtimoiy faol shaxs hisoblanadi. O‘qituvchilik kasbi ijodkorlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik va faol izlanuvchanlikka asoslangan soha hisoblanadi. O‘z ustida izlanmaydigan, tashabbus ko‘rsatmaydigan hamda ijod qilishdan to‘xtagan har qanday pedagog ham jamiyatda o‘z nufuzini, pedagogik obro‘-e’tiborini yo‘qotadi. Shu tufayli ham o‘qituvchi ijtimoiy faollik ko‘rsatishi, o‘z sohasini chuqur o‘zlashtirishi lozim. Pedagogikada “kasbiy o‘z-o‘zini tarbiyalash”, “o‘z-o‘zini boshqarish” va “o‘z-o‘zini tahlil etish” mazmun-mohiyati jihatdan ijtimoiy faollikka yo‘naltiruvchi omil vazifasini o‘taydi. Ijtimoiy pedagogik faoliyat-bolaga ijtimoiylashuvi jarayonida (bolaning jamiyatga kirishi) yordam kursatishga karatilgan kasbiy faoliyat turidir. Bola bilan ish olib borishi mumkin bulgan turli xil ta’lim muassasalari, tashkilotlari, birlashmalari uz ishlarini ijtimoiy pedagoglar orkali amalga oshiradilar.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat har doim aniq bir bolaga va uning ijtimoiylashuviga, uni jamiyatga integratsiyalash jarayonida yuzaga keladigan muammolarini hal etishga yo`naltirilgan bo'ladi.

Talabalarning ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyor bo‘lib borishida o‘qituvchining dars jarayonini to‘g‘ri tashkil etishi, talabalarni faoliyat algoritmi

hamda unda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yuzlab muammoli vaziyatlar bilan ishlashga tayyorlashga bog'liq. Bunday vazifalarni hal etish talabadan mustaqil bilim, kasbiy ko'nikma va malakalarni egallashni talab etadi. Bu jarayonda ijtimoiy pedagogik ta'limni differensial yondashuv asosida tashkil etishga doir an'anaviy va interaktiv metodlardan unumli foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni bu ijtimoiy pedagogik tamoyillar asosida talabalarni ham umumkasbiy differensial (ijtimoiy mas'uliyatlilik, ijtimoiy faollik, refleksivlik, kommunikativlik) va kasbiy-individual (xotira, diqqat, temperament, xarakter, axloqiy, empatiya) kabi sifatlarini nazarda tutuvchi ijtimoiy ta'limni nazariy, amaliy va metodik kabi ustuvor yo'nalishlarini jamiyat talablari va me'yorlar asosida tashkil etishning yaxlit tizimidir.

Ushbu tizim bitiruvchilarning kasbiy raqobatbardoshligini va yaxlit shaxsiyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Differensial yondashuv asosida ijtimoiy pedagogik ta'limni tashkil etishning asosiy maqsadi talabalarning iqtidori, qiziqishi, layoqati va qobiliyatiga ko'ra tabaqalashtirgan holda turli ijtimoiy pedagogik faoliyatga va sohaga doir muammolarni hal etishga tayyorlashdan iborat.

Ijtimoiy pedagogik ta'limni differensial asosda tashkil etish davomida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- talabalarning qiziqishlariga ko'ra yo'nalishlar bo'yicha ijtimoiy faolligini oshirish;
- ijtimoiy faoliyat davomida zarur bo'ladigan kasbiy qobiliyat, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- shaxsiy va kasbiy sifatlar, qobiliyatlar barqarorligini ta'minlash;
- talabalarni kasbiy refleksiyaga tayyorlash orqali o'zidagi shaxsiy va kasbiy kamchiliklarni bartaraf etishga o'rgatish;

– talabalarda tashabbuskorlik, prinsipiallik, mehnatsevarlik sifatlari orqali pedagoglarning ijtimoiy hayotdagi mavqeini yanada oshirishga erishish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda quyidagi sub’ektiv omillarni hisobga olish ijtimoiy pedagogik ta’limning muvaffaqiyatini ta’minlaydi:

• faoliyat maqsadini aniq belgilash va motivatsiyaning mavjudligi;

• vaqtdan unumli foydalanish;

• ish faoliyatini to‘g‘ri rejalashtirish;

• kasbiy refleksiya ko‘nikmasini egallash;

• qulay mehnat sharoitini yarata bilish;

• pedagogik mehnatga ijodiy yondashish;

• tashkilotchilik, tashabbuskorlik va kommunikativlik;

o‘z ustida ishlash va mas’uliyatlilik.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni o‘ziga xos pedagogik tamoyillar asosida amalga oshirilishi jarayonning tartibli, tizimli va muvaffaqiyatli tashkil etilishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy pedagogik ta’limdagi tamoyillar – bu ijtimoiy jamiyat tomonidan bir qator xususiyatlar (ko‘pjihatlilik, yaxlitlik, tizimlilik, barqarorlik, uzviy mutanosiblik) kabi mutaxassisning bir qator sifatlarini o‘z ichiga olgan talablaridan kelib chiqqan holda pedagogik ta’limni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi va shu sababdan ta’limni majmuaviylik, davriylik, sub’ektivlik, innovatsionlik tamoyillaridan kelib chiqqan holda amalga oshirishni nazarda tutadiki, bunda ushbu tamoyilni ro‘yobga chiqarish bitiruvchilarning davlat va jamiyatning zamonaviy talablariga javob berishini nazarda tutadi.

Asosiy tamoyillar sirasiga quyidagilar kiradi:

• differensial ijtimoiy pedagogik ta’limning tabiat va jamiyatga muvofiqlik tamoyili (tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning o‘zaro aloqadorligi, tabiat va insoniyat rivojining umumiy qonuniyatlarga muvofiq kelishini ifodalaydi);

• shaxsni ijtimoiy faoliyatga tayyorlashda uning jinsi, yoshi, psixologik, pedagogik va fiziologik xususiyatlarini inobatga olish tamoyili;

• ijtimoiy pedagogik ta’lim mazmunining variativligi tamoyili (shaxsning ehtiyoj va qiziqishlari, shu bilan birga, jamiyat ehtiyojlarining xilma-xilligi xamda shaxsning ma’naviy-axloqiy rivojlanishi uchun hudud, mintaqa, respublika ehtiyojlariga ko‘ra ko‘p variantliligini ifodalaydi);

• talabalarni ijtimoiy faoliyatda jamoaviylikka tayanishga o‘rgatish tamoyili (bolalar, o‘smirlar, o‘spirinlarni ijtimoiylashtirish ularning tengdoshlari va kattalar bilan o‘zaro munosabatlari jarayonida amalga oshirilishini anglatadi);

• ijtimoiy pedagogik jarayonning madaniy taraqqiyotga muvofiqlik tamoyili (tarbiya mazmunining umuminsoniy madaniy qadriyatlarga muvofiq o‘zgarib borishi, ma’naviy kadriyatlar va me’yorlar, u yoki bu hududning o‘ziga xos xususiyatlari asosida tashkil etilishini anglatadi);

• ijtimoiy pedagogik shaxsga yo‘naltirilganlik tamoyili (ijtimoiy tarbiyaning bolalar, o‘smirlar, o‘spirinlarni shaxs sifatida takomillashtirishga yo‘naltirilishini anglatadi, ya’ni jamiyat mafkurasi, tarbiya g‘oyasi, asosiy qadriyat sifatida shaxsning e’tirof etilishini ifodalaydi);

• kommunikativlik tamoyili (shaxslararo muloqotning tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar, tarbiyalanuvchi hamda tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqa, tajriba almashish vositasi sifatida ustuvor o‘rin tutishini ifodalaydi);

• ijtimoiy tarbiyaning insonparvarligi tamoyili (bola shaxsini hurmat qilish, uning sha’ni, or-nomusi, qadr-qimmatini qadrlash e’tiborda ekanligini ifodalaydi).

Ijtimoiy pedagogik faoliyat murakkab jarayon bo‘lib, talabalarda birdaniga vujudga kelmaydi. Izlanishlarimizning ko‘rsatishicha, o‘qituvchi shaxsining ijtimoiy faolligini shakllanishi uni ushbu kasbni tanlagan davriga to‘g‘ri keldi. Ijtimoiy faol o‘qituvchi shaxsining shakllanishida pedagogik va psixologik omillar ta’sirini o‘rganish alohida tadqiqot mavzusi hisoblanib, talaba-yoshlarda yangicha dunyoqarash, shaxs va jamiyat manfaatlarining uyg‘unligini ta’minlash hamda ijtimoiy sog‘lomlashuv jarayonida yetakchi motivatorlik xizmatini bajaradi.

Shundan kelib chiqib, ijtimoiy pedagogika ruhan va qalban to‘g‘ri o‘rnatilgan munosabatlar san’ati hamda madaniyati to‘g‘risida bahs yurituvchi fan sifatida o‘qituvchi shaxsi oldiga ma’naviy-axloqiy va kasbiy vazifalar yuklaydi.

**Foydalanilgan adabiyatlar:**

1. Rajabova L. Integrativ-differensial yondashuv asosida bo‘lajak ijtimoiy soha mutaxassislarini o‘qitish nazariyasi. Xalq ta’limi. 2021, №5, 75-81 b.

2. Nurullaeva Sh.U. Pedagogik mahorat va kompetentlik: mazmuni, shakllantirish metodikasi va rivojlantirish yo‘llari // Pedagogik mahorat. № 1. 2021. 19-22 bet.

3. Oleshkov M.Yu., Uvarov V.M. Sovremennыy obrazovatelnыy protsess: osnovnыe ponyatiya i terminы.— M.: Kompaniya Sputnik, 2006.154 st.

## AXLOQIY VA ESTETIK QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY MEROSNING O‘RNI

Kenjayev Burgutali Qovuljon o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti,
Gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
To‘xtaboyeva Nafisa G‘ulomqodir qizi
Namangan davlat pedagogika instituti,
O‘zbek tili yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Milliy meros har bir xalqning madaniy, tarixiy va estetik qadriyatlarini belgilashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bu qadriyatlar xalqning udumlari, san'ati va diniy e'tiqodlari bilan bog'liq Ushbu maqolada milliy merosning axloqiy urf-odatlari va qadriyatlarini shakllantirishdagi o‘rni haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar**: milliy meros , axloqiy qadriyatlar,estetik qarashlar, zamonaviy jamiyat.

**Annotation:** National heritage is one of the main factors in determining the cultural, spiritual and aesthetic values of any nation. These values are related to people's traditions, art and religious beliefs. This article discusses the role of national heritage in the formation of moral and aesthetic values.

**Keywords:** national heritage, values, aesthetic culture, modern society

**Аннотация:** Национальное наследие является одним из главных факторов определяющих культурные и естетические ценности любого народа. Эти ценности связаны с традициями, искусством и религиозными верованиями людей. В данной статье рассматривается роль национального наследия в формировании нравственных ценностей

**Ключевые слова**: национальное наследие, моральные ценности, роль семьи, современное общество ритуалы.

**Kirish:**

Ma'lumki, azaldan o'zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo'lib keladi. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim -yesirlarning boshini silash, to 'y-tomosha, hashar va m a'rakalami ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga boliish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar awalambor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan. Xalqimizga xos o'zini o'zi boshqarish tizimining bu noyob usuli qadim-qadimdan odamlarning nafaqat tilida, balki dilida, butun hayotida chuqur joy egallagani bejiz emas. Biz «Mahalla ham ota, ham ona» degan hikmatli naqlni ana shu hayotiy haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilamiz.[1]

Hozirgi kunda yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlardan foydalanishning ahamiyati va o'rni katta. Biron bir jamiyat imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini shakllantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z kelajagini tasavvur qila olmaydi .Dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o 'ziga tobe qilib, bo'ysundirmoqchi bo'lsa uning boyliklarini egallamoqchi bo'Isa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng

buyuk boyligi hisoblanmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma’naviyatidan judo qilishga urinadi. [2]

Hayotimizdagi boshqa millatlar va elatlar faqat uning o‘ziga xos va munosib bo‘lgan an’ana va qadriyatlari bilan boshqa millatlardan ajralib turadi. Insoniyatning bir necha ming yillik tarixiy tajribasi shuni isbotlaydiki, turli xil qadriyatlarimiz shunchaki saqlanib qolmaydi, aksincha ularni saqlab qolish uchun uzoq davrlar va mehnat kerak bo‘ladi. Ular avloddan-avlodga o‘tib, insonlarga to‘g‘rilik va halollik kabi fazilatlarni singdiradi. Agar ular keyingi avlodlar tomonidan ham qabull qilinsa , an’anaga aylansa, shundagina ularni milliy qadriyat deb hisoblashimiz mumkin.

Milliy qadriyatlarimiz millatimizning yashash tarzi va madaniyati bilan bog’liq bo‘ladi.

Milliy qadriyatlar shaxsning axloqiy tarbiyasini shakllantirishda, ayniqsa oila doirasida muhim ro‘l o‘ynaydi. O‘zbekiston o‘zining boy tarixiy va madaniy merosi bilan milliy qadriyatlar sezilarli darajada katta ta’sir ko‘rsatadigan namunadir. Ularga quyidagilar kiradi:

1. Avloddan- avlodga o‘tadigan urf-odatlar va marosimlar
2. Axloqiy me’yorlar
3. Milliy qadriyatlar

Bugungi kunda milliy merosning axloqiy va estetik qadriyatlarini shakllantirishdagi o‘rni yanada ahamiyatli. Globalizatsiya jarayonida xalqning o‘ziga xos xususiyatlarini saqlab qolish va hurmat qilish muhimdir.Bundan tashqari milliy merosni o‘rganish va uni saqlash ,o‘z xalqimizga va uning madaniyatiga bo‘lgan mehr-muhabbatni oshiradi. Bu o‘z navbatida insonlarning estetik va axloqiy qadriyatlarini yanada boyitadi.[3]

Har bir xalq, millat yaratgan qadriyatlar uning dunyoqarashi va hayotga munosabatini, urf odatlari va marosimlarida to‘laqonli namoyon bo‘ladi. Xalqning kelajagi yoshlarga bog’liq ekanligi qanchalik haqiqat bo‘lsa, bularni miliy ruhni asrab , hurmat qilish ham e’tirof etilgandir.

Milliy meros xalqning o‘zligini anglashiga yordam beradi.O‘z merosini bilish va ehtiyot qilish insonni bir maqsad yo‘lida birlashtiradi va jamiyatda birlikni mustahkamlaydi. Xalqning o‘ziga xosligi va tarixini bilish, tushunish hamjihatlikni kuchaytiradi. [4]

Tarbiya: Milliy meros ta’lim jarayonida ham o‘z o‘rnini topadi. O‘zbek xalqining tarixini, madaniyatini, va axloqiy qadriyatlarini o‘rganish, bolalarga to‘g’ri tarbiya berish uchun muhim ahamiyatga ega. Maktablarda milliy merosni o‘rgatish orqali axloqiyme’yorlarni shakllantirish mumkin.

Tarixiy va madaniy obidalar , xalqning estetik qadriyatlarini namoyon etuvchi narsa hisoblanadi. Ular nafaqat o‘z qiymatiga ega bo‘lishdan tashqari , tarixiy voqealarni va xalqning ruhiyatini ham aks ettiradi .Masalan: arxitektura obidalari yoki xalq san’ati namunalari bu qadriyatlarning timsolidir.

Milliy meros orqali yosh avlodga tarbiya va ta’lim berish, estetikani his qilishga va san’atni qadrlashga undaydi.Bu esa kelajak yoshlarini qadriyatlar borasida rivojlanishiga olib keladi. Yurtimizda san’at tadbirlari, ko‘rgazmalar va ochiq festivallar orqali tarbiyani rivojlantirish muhimdir.

Bugungi kun yoshlari milliy urf odatlarimizning shakllarini, aniq mazmunlarini chuqur anglagan bo‘lishlari lozim. Ana shundagina kelajak avlod o‘zbek millatining qadriyatlarini ,ma’naviyatini, madaniyatini saqlab qoladigan, Vatanni himoya qiladigan insonlar bo‘lib ulg‘ayishadi.

Xulosa qilib aytganda, asrlar davomida shakllangan milliy meros, qadriyatlar milliy g‘oyaga ma’naviy zamin bo‘lib xizmat qilmoqda Milliy ma’naviy qadriyatlarning har bir tarkibiy qismi xalqning mustaqilligini mustahkamlash va kelajagini bunyod etishda muhim ahamiyatga ega. Har bir inson o'zining milliy merosini avaylab, uni kelajak avlodlariga yetkazish orqali, o‘z qadriyatlarini va tarixini shakllantirishga xizmat qilgan inson hisoblanadi. Shunday insonlar orqali madaniyatimiz va an’analarimiz yo‘q bo‘lib ketmaydi. Bizning avlodlarimiz esa bizdan o‘rnak olib, ular ham xuddi shunday yo‘lni tanlaydilar. Milliy

qadriyatlarimizni e’zozlaydigan, o‘z hayotiy faoliyatida millat g‘ururi bilan ish olib boradigan yoshlarning tarbiyalanishi millat kelajagini ta’minlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" Toshkent 2010- yil 58-bet

2. "Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch " (2010) 11-bet

3. G'afurov S.(2010). O‘zbek xalqining madaniy merosi. Tashkent: Ma’naviyat

4. Karimov I (1998). Milliy qadriyatlar- taraqqiyot asoslari. Tashkent: O‘zbekiston.

# V-SHO’BA: IJTIMOIY DAVLAT VA INSON QADRI INTEGRATSIYASIDA ESTETIK TARBIYA KLASTERINING ASOSIY TAMOYILLARI

## O‘ZBEKISTONDA ICHKI ISHLAR IDORALARI XODIMLARIDA “IJTIMOIY DAVLAT” VA “INSON QADRI” TAMOYILLARINING IJTIMOIY-ESTETIK HAMDA FALSAFIY MOHIYATI

Dadaxanov Shavkat Shakirovich

FarDU tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** mazkur maqolada O‘zbekistonda ichki ishlar idoralari xodimlarida “ijtimoiy davlat” va “inson qadri” tamoyillarinining ijtimoiy-estetik hamda falsafiy mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, maqolada inson huquqlarini himoya qilishda jamoat tashkilotlarilari va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning jamiyatimizdagi ijtimoiy barqarorligi va davlatimiz aholisining xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy-nazariy hamda amaliy tadqiqotlarni olib borilishi yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** ijtimoiy barqarorlik, Ijtimoiy davlat, huquqiy-demokratik, xavfsizlikni ta’minlash, iqtisodiy barqarorlik.

**Аннотация:** в данной статье раскрывается социально-эстетическая и философская сущность принципов «социального государства» и «человеческого достоинства» среди сотрудников органов внутренних дел Узбекистана. Кроме того, в статье описано проведение научно-теоретических и практических исследований, направленных на обеспечение социальной стабильности общественных организаций и правоохранительных органов в нашем обществе и безопасности населения нашей страны при защите прав человека.

**Ключевые слова:** социальная стабильность, Социальное государство, правовая демократия, безопасность, экономическая стабильность.

**Abstract:** this article reveals the socio-aesthetic and philosophical essence of the principles of "social state" and "human dignity" among the employees of internal affairs agencies in Uzbekistan. In addition, the article describes the conduct of scientific-theoretical and practical research aimed at ensuring the social stability of public organizations and law-enforcement agencies in our society and the safety of the population of our country in the protection of human rights.

**Key words:** social stability, Social state, legal-democratic, security, economic stability.

Dunyoda ijtimoiy barqarorlik, jamiyatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotini ta’minlashda nafaqat davlat organlari yoki ijtimoiy institutlar, balki aynan Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida “Ijtimoiy davlat” va “Inson qadri” tamoyillarini ta’minlash o‘zaro bog‘liq hisoblanadi. O‘zbekistonning global integrasiyalashuvi jarayoni natijasida jamiyatimiz Ijtimoiy davlatni qaror toptirish va inson qadrini ta’minlash maqsadida qator halqaro xujjatlar qabul qilingandir, xususan, 2015 yil 25 sentyabrida BMTning Nyu-Yorkdagi Bosh qarorgohida qabul qilingan “Barkaror taraqqiyot - 2030” dasturining 17 ta barqaror taraqqiyot maqsadlaridan (BTM) biri, tinchlik, adolat va samarali boshqaruv institutlarini rivojlantirish hisoblanadi [4.], bu esa albatta “inson manfaatlari”ga xizmat ko‘rsatuvchi yangi ichki ishlar xodimlarisiz amalga oshirib bo‘lmasligi ayon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda nufuzli xorijiy ilmiy tadqiqot markazlari va institutlarida inson huquqlarini himoya qilishda jamoat tashkilotlarilari va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning jamiyatimizdagi ijtimoiy barqarorligi va davlatimiz aholisining xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy-nazariy hamda amaliy tadqiqotlarni olib borishmoqda.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash, demokratik tamoyillarni yanada rivojlantirishda Ichki ishlar xodimlarining estetik tarbiyasi, ularni ijtimoiylashuvlari, ya’ni “xalqparvar-inson qadrini ta’minloi” - davlat sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida keltirilgan fikrlarni davom ettirib,

yangi O‘zbekistonda iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy sohalarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar “Inson manfaati - oliy qadriyat”, “inson qadri uchun”, “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” kabi demokratik tamoyillari har bir davlat xizmatchisi, xususan ichki ishlar xodimlari estetik tarbiyasining me’yoriga aylantirish orqali, huquqiy-demokratik va ijtimoiy davlat qaror topishining bosh mezoni hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev davlat fuqarolik xizmati vakillarining jahon hamjamiyatiga keng qamrovli integrasiyasi natijasida munosib o‘rinlarini egallashlari orqali har bir fuqaro, insonga munosib turmush shart-sharoiti havfsizligini ta’minlashlariga oid quydagi fikrlarni ilgari surganliklarini ko‘rishimiz mumkin: “...Biz xalqimizning ana shu orzu-niyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun ikkita masalaga, ya’ni ichki ishlar va sog‘liqni saqlash tizimni isloh qilishga katta e’tibor qaratayapmiz” [1.].

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ustuvor yo‘nalishlaridan biri, ya’ni “Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish” [2.], deb nomlangan bo‘lib, unda jamiyatimiz a’zolarining ijtimoiy, iqtisodiy huquqlarining kafolati, rivojlanishimizning barqarorligi, davlat fuqarolik xizmati, aynan ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida xalq manfaatlari tamoyilini ta’minlash kontseptual ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo‘nalishdagi inson manfaatlari “shaxs-jamiyat-davlat’ tizimida oliy qadriyat sifatida ijtimoiy, iqtisodiy barqarorlikni va jamoat xavfsizligini ta’minlash, profilaktika faoliyatida ichki ishlar idoralari xodimlari kasbiy ko‘nikma va madaniyatining yanada yuksaltirish, ularda nafaqat davlat tomonidan o‘rnatilgan huquqiy normalarga amal qilish, balki jamiyatimizda shakllangan odatlarni bilishi, ularni hurmat qilishi talab etiladi. Yuqoridagi tamoyillarga sodiq qolgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori bilan qabul qilingan “Ichki ishlar xodimlarining kasbiy madaniyati va intizomi kodeksi” [3.] ham fuqarolarning siyosiy faolligining o‘sishi, jamoat tartibiga daxl etuvchi munosabatlar ichki ishlar xodimlarining fuqarolik ishlarida

siyosiy madaniyatini talab etmoqda. Bu hol Ichki ishlar xodimlarning estetik tarbiyasiga bo‘lgan talabni tadqiq etishni dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo‘yadi.

Mavzuimizga oid maxsus tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, respublikamizning suvereng taraqqiyoti davrida ichki ishlar idoralari xodimlarining jamiyatimzdagi amalga oshirilayotgan ijtimoiy transformasiyalar natijasida, yangicha maqomni, ya’ni “halqchil tuzilma”ni nazarda tutgan tub o‘zgarishlar jarayonini va bu bilan bog‘liq munosabatlar ob’ekt sifatida o‘rganishga harakat qilingan. Yangi O‘zbekistonda “insonparvar” Ichki ishlar xodimlari, yuksak estetik tarbiya, yuqori axloqiy madaniyatli xodimlar kontingentini tarkib toptirish mavzuimizning dolzarbligini izohlaydi.

Huquqiy davlat tarkib topishida huquq-tartibot, xavfsizlikni ta’minlash, jinoyatchilikni profiklaktikasi jarayonida ichki ishlar xodimlarining estetik madaniyatini oshirishga qaritilgan yangi “insonparvar” tizimni shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ijtimoiy omillarini ilmiy-falsafiy jihatdan tadqiq etishni o‘z oldimizga maqsad qilganmiz. Ichki ishlar xodimlari estetik madaniyatining oshirishlarida huquqiy normalari va milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish orqali jamiyatimizdagi ijtimoiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq aksologik, proksiologik hamda legitimlik jihatlari ochib berish orqali erishish mumkinligi tahlil qilingan.

Ichki ishlar idoralari xodimlarining faoliyatida jamiyat huquq-tartiboti, xavfsizligini ta’minlashda, jinoyatchilik profilaktikasini, ularning shaxsiy kommunikativliklari, ochiqligi, kompetentligi, professionalligi jamiyat tizimidagi ijtimoiy munosabatlarning metodologik asoslarini ishlab chiqishda foydalanish talab etiladi. O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmati, xususan huquqni muhofaza qilish organlari tizimidagi ichki ishlar xodimlarining samaradorligi, ularning fuqarolarimiz orasida huquqbuzarlikni minimallashtirish, jinoyatchilikni oldini olishda huquqiy savodxonlikni oshirish, bular fuqarolar huquqiy madaniyatini o‘sishi, ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni jadallashtirish bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqadorligini aoslangan.

Ichki ishlar idoralari bo‘limlari shaxsiy tarkibining kasbiy-professional tayyorgarligini izchil oshirib borish, ularni jamiyatdagi “ijtimoiy sherikchilik” zanjirining bir bo‘lagi ekanligi va “insonparvar” tamoyiliga tayangan holda “halq davlat idoralari uchun emas, balki davlat idoralari halq uchun” asnosida o‘z faoliyatlarini tashkil qilishlari lozimligi, soha vakillarida axloqiy qadriyalar va huquqiy madaniyat mustahkalash borasida estetik talablarni qayta shakllantirishni tadqiqotimiz natijalaridan taklif sifatida ishlab chiqildi. Bu o‘znavbatida, ichki ishlar idorali xodimlarining “ma’naviy qiyofasini aholi o‘rtasida ularni jazolovchi-salbiy obrazda emas, balki himoyachi-ijobiy obrazda” namoyish bo‘lishlariga asos bo‘ladi. Ularning hulq-atvori, kasbiy madaniyati, jamoatchilikda pozitiv munosabatni shakllantirish, xodimlarning kunlik faoliyatlarida fuqarolar bilan hushmuomalada bo‘lish, jinoyatchilik profilaktikasi va oldini olish choralarini ko‘rish orqali namoyon bo‘ladi. Bunda ichki ishlari xodimlarining estetik madaniyatini oshirishda barchalari o‘z faoliyatida mazkur profilaktik tadbirlarni “xodimbay-fuqarobay” formatida tashkil etishlari talab etiladi. Ta’kidlash kerakki, jamoatchilik tartibini saqlash, jinoyatchilikni oldini olish va unga qarshi samarali kurashishda xodimlar tomonidan aholi orasida “qizil toifa-jinoyatchilikka moyillarni” ajratib olish orqali, ular bilan tizimli huquqbuzarlikni oldini olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish talab etiladi. Ayniqsa jamiyatimizning asosiy bog‘inlaridan hisoblanmish mahallada fuqarolar tinchligi, dahlsizligi, salomatligi, mulkiy dahlsizligi, turar-joy dahlsizligi, shaxsiy xayot dahlsizligi kabi har kanday noqonuniy tajovuzkor harakatlardan muhofaza qilish, yoshlarda deviasiyasini boshlang‘ich nuqtasida aniqlash, ularni oilaviy hayot asoslarini o‘rgatish, milliy qadriyatlarimizga hurmat hissini shakllantirish yo‘nalishida joylardagi mutasaddi amaliyoti, tezkor va profilaktika inspektorlarining “fuqarobay”, ya’ni yakka tartibda ish faoliyatlarini tashkil qilishni yo‘lga qo‘yilganligi huquqiy davlatning yana bir unsurlaridan hisoblanadi.

Ichki ishlar idoralari faoliyatida xalq manfaatlari tamoyilining ijtimoiy, estetik va falsafiy mohiyatini tadqiq etish orqali quyidagi fikr-mulohazalarni ta’kidlashimiz mumkin:

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining shakllanishi davomli stratifikasiyalashuvi, yangi ijtimoiy guruhlarning shakllanishi kuzatilsa, o‘z navbatida davlatda esa professionalashuvi jarayoni sodir bo‘lmoqda, bu ichki ishlar vakillari orqali davlat fuqarolik xizmatining insonlar o‘rtasidagi bog‘lovchi sherik, huquqiy-demokratik tamoyillar asosida jamaoatchilik tartibotini saqlash, jinoyatchilikni oldini olish, profilaktikasi orqali ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi. Ichki ishlar idoralari xodimlari kasbiy faoliyatining samaradorligi ularning xizmat vazifalarini to‘laqonli bajarishi bilan bog‘liqdir. Uzoq davrdan beri fuqarolar tasavvurida ichki ishlar idoralari xodimlarini faqatgina davlat hokimiyati vakillari manfaatlarini himoya qiluvchi, oddiy aholini “qo‘rquvda” ushlab turuvchi, jazolash vositasi sifatida ko‘rishgan. Ichki ishlar xodimlarining faoliyatini tubdan o‘zgartirish, aholi tafakkurida ijobiy-pozitiv tasavvurlarni mustahkamlash maqsadida milliy taraqqiyotimizning yangi bosqichida maxsus Kodeks, konun va farmonlar qabul qilinishi va faoliyatlarining asosiy tamoyillari sifatida inson manfaatlariga xizmat qilishni ilgari surilmoqda.

Ichki ishlar idoralari xodimlari kasbiy etikasi va madaniyatini oshirishni ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish orqali “bilim-tafakkur-amaliyot” mexanizmi orqali oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erishish mumkin, yakunida esa jamiyatda huquq ustuvorligini ta’minlashga erishiladi. Tadqiqotimizda fuqarolik jamiyatini mustahkamlashning Liberal-demokratik asoslari va ijtimoiy davlat tushunchasini “insonparvar” mexanizmini qaror toptirish orqali fukarolarning huquq, erkinliklari kafolati sifatida ko‘rishimiz mumkin. Mazkur o‘zgarishlar ichki ishlar idoralari xodimlarining yangi ijtimoiy maqomini ham o‘zgarishiga olib keldi, shuningdek kasbiy madaniyatlarida ham ijtimoiylashuvni kuzatish mumkin.

Olib borilgan tadqiqotimiz davomida jamiyatimizdagi ijtimoiylashuv jarayonining mazmun-mohiyati, tarkibiy elementlari va amalga oshirish

mexanizmlarini tahlililari natijasida ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy madaniyatini ijtimoiy o‘zgarish dinamikasi kuzatilgan. Ijtimoiy davlatni to‘laqonli tarkib topishi avvalambor uning ijtimoiy islohotlari jarayonida “insonparvar” tuzilma asoslari bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlanishini talab etuvchi muhim shartlardan hisoblanadi. Jamiyatimizda aholi huquqiy madaniyatini uzluksiz oshirib borish strategiyasi ularning o‘z huquq va erkinliklarini ta’minlovchi omil bo‘lib, aks holda jamiyatdan begonalashuv holati yuzaga kelishi mumkin, unda fuqaro tomonidan norozilik kayfiyati kuchayishiga olib kelishi mumkin, bu esa ichki ishlar xodimlarining mazkur ziddiyatlarni bartaraf etishda faollik, kompetentlikni talab qiladi. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, ichki ishlar idoralari xodimlari jamiyatimizning barcha sohalarida huquq-tartibotni amalga oshirishlaridan tashqari jamiyatning turli ijtimoiy masalalarni ham bajarishga jalb qilishlari orqali nafaqat shaxsiy, balki jamoa manfaatlari bilan mos kelishi talab etiladi.

Soha xodimlarining kasbiy-professional madaniyati indikatorlari muayyan harakatlar bilan izohlanib, huquqni himoya qiluvchi organlari tizimidagi xizmat vazifalarini shakllanishi va rivojlanishining umumiy qoidalarini belgilab beradi. Bunda, davlat fuqarolik xizmati vakillarining o‘z faoliyatlaridagi erkinligi, ob’ektivliligi, adolatparvarligi, shaffofligi kabi umume’tirof etilgan qadriyatlarga tayanishlari jamiyatimizdagi huquq tartibotni ta’minlashda talab etuvchi majburiy ko‘rsatkichlardir. Fikrimizni davom ettirib, davlat xizmatchilari qatori ichki ishlar idoralari xodimlarining ijtimoiy sheriklikni ta’minlashda ular tenglik, erkinlik, ob’ektiv betaraflik kabi tamoyillarni qaror toptirish orqali biz o‘ylagan “insonparvar” tizimga olib boramiz. Axoli huquqiy madaniyatini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining samaradorligi bevosita ichki ishlar idoralarining samaradorligiga ta’sir o‘tkazadi. Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, davlat fuqarolik xizmatchisi sifatida ichki ishlar idoralari xodimlarining mavqei yuqori kasbiy madaniyatga ega bo‘lishlarini talab qiladi. Global o‘zgarishlar davrida kiberjinoyatchilik sababli yuzaga kelayotgan hatti-harakatlar o‘z navbatida

soha vakillarida ham innovasion bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishlarini talab etmoqda, shuningdek jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini modernizasiyalashni talab qilmoqda. Modernizasiyalash sharoitida jamiyatimiz xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishida ham ichki ishlar shaxsiy tarkibida zamonaviy bilim va ko‘nikmalarini o‘zlashtirishi kasbiy madaniyatlarida o‘z aksini topishini talab qiladi. Davlatimiz transformasiyasida yuqoridagi sohaga doir muammolar echimi sifatida ichki ishlar idoralari xodimlarining zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirishning yuqori darajasiga javob bera oladigan kasbiy madaniyatini oshirish masalasi ustuvorligi bilan izohlanadi.

Xulosa o‘rnida zamonaviy “insonparvar” Ichki ishlar idoralari xodimlarning estetik madaniyatini adaptasiya qilish jarayonida asosiy jihatlari erkin fikrlash, kompetentlik, mustakil qaror qabul qilish, ijtimoiylashuvida ko‘rinadi. Shu o‘rinda dunyodagi g‘oyaviy qarama-qarshiliklarga mafkuraviy immunitetni shakllantirish ham davrning o‘zi taqazo qilmoqda. Shu sababdan real vaziyat, ob’ektivlik va sub’ektivlik qarashlar, empirik xususiyatlardan axborotlashgan jamiyatda mos ravishda yangi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari soha vakillari tafakkurida universal bilim hamda noodatiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish talab etadi.

**Adabiyotlar ro‘yhati:**

1. Мирзиёев Ш.М. Унвон, орден ва медалларни ўз эгаларига топширди // Халқ сўзи. /2017/ 7 декабрь

2. “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” (расмий нашр) - Тошкент: “Адолат”, 2022. - Б. 26-30.

3. https://nrm.uz/contentf?doc=711850_ichki_ishlar_organlari_hodimlarining_kasbiy_madaniyat_va_hizmat_intizomi_kodeksi_(o‘zr_prezidentining_20_01_2023_y_pq-10-son_qaroriga_1-ilova)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana& ysclid=lsrf9wjg7z121371054

4. https://www.researchgate.net/publication/356776309_BARQAROR_TARAQQIYOT-2030_DASTURINING_YANGI_MAQSAD_VA_TAMOYILLARI

5. https://kknews.uz/uz/31781.html

6. Ganiyev B.S. Education - priority sphere of reform in the conditions of a new stage of development. / Central Asian Problems of Modern Science and Education. 2020 (1), - P. 106-111.

## YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY DAVLAT VA INSONPARVAR TAMOYILINING TARBIYA KLASTERIDAGI O'RNI

Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich
Farg'ona davlat universiteti professor, falsafa fanlari doktori, professor

**Annotatsiya:** Ushbu maqola yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy davlat va insonparvar tamoyilining tarbiya klasteridagi o'rni va ochib berishga qaratilgan bo'lib. Shuningdek, maqolada Yangi O'zbekistonda ta'lim-tarbiya jarayonlarining uzviyligi, o'zaro bir-biriga bog'liqligi ijtimoiy falsafiy jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy davlat, ijtimoiy sheriklik, jamoatchilik nazorati.

**Аннотация:** Данная статья направлена на раскрытие роли социального государства и гуманитарного принципа в образовательном кластере в модернизации Узбекистана. Также в статье анализируется связанность и взаимозависимость образовательных процессов в Новом Узбекистане с социально-философской точки зрения.

**Abstract:** This article is aimed at revealing the role of the social state and the humanitarian principle in the educational cluster in modernizing Uzbekistan. Also, the article analyzes the coherence and interdependence of educational processes in New Uzbekistan from a socio-philosophical point of view.

**Key words:** education, civil society, social state, social partnership, public

control.

O‘zbekistonning yangilanish davrida fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash strategiyasi, inson+jamiyat+davlat kontseptsiyasining vazifalari tubdan qayta ishlab chiqildi, mazkur o‘zgarishlar o‘z navbatida milliy tarbiya klasteriga ham bevosita ta’sir etmoqda. Fuqarolik jamiyatinining asosiy shartlaridan hisoblanmish “Ijtimoiy davlat” kontsepsiyasi asosiy qomusimiz Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda [1.], shuningdek Prezidentimiz qaror, farmon va farmoyishlari ushbu munosabatlarda fuqarolik jamiyati institutlari roli va vazifalarini yanada oshirish, jamiyatimizda tarbiya sohasidagi islohotlarni ham jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Mazkur qonun osti hujjatlarga, “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” [2.], farmonni misol keltirishimiz mumkin. Yuqoryda keltirigan normativ hujjatlar, jamiyatimizni yanada ijtimoyilashuvi orqali, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega barkamol shaxslarni shakllantirish yo‘lida, quyida keltirilgan ishlarni amalga oshirishni talab etadi:

- “fuqarolik jamiyati - huquqiy davlat”, “ijtimoiy davlat”, “insonparvar hukumat” kabi tushunchalarning ilmiy-nazariy va huquqiy-normativ asoslarini takomillashtirish va aholiga etkazishning tashkiliy-amaliy mexanizmlarini ishlab chuqish;

- ijtimoiy tuzulmalar faoliyati samaradorligini baholash indikatorlari hamda uslubiyotini takomillashtirish orqali fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning asosiy sharti sifatida “ijtimoiy davlat”ni qaror toptirishni talab etadi;

- aholining turmush-sharoitlari va real daromadlarini oshirib borish yuzasidan muntazam ravishda ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar orqali “Iste’mol savatchasi”ni tolaqonli joriy qilish hamda muntazam yangilanishini ta’minlash talab etiladi.

Mazkur asoslar quydagi keltirilgan, “Yangi O‘zbekistonda “Davlat - inson uchun” tamoyli asosida inson huquqlarini rag‘batlantirish, himoya qilish va ularga

amal qilish masalalari islohotlarimizning eng ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Bu esa nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda mazkur islohotlarning eng demokratik tamoyillarga mosligi, ularning pirovard maqsadi va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi inson qadri va manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta’minlashga qaratilganining e’tirof etilishiga sabab bo‘lmoqda” [9. 58.], - so‘zlarda ko‘rishimiz mumkin.

Tarbiya klasterining shakllantirishda “jamoat nazorati” va “ijtimoiy sheriklik” institutlarini faoliyati muhim o‘rin egallaydi. Mazkur ijtimoiy institutlarning rivojlanmasligi jamiyatning tarqoqlashish va davlat funktsiyalarining nazoratsiz qolishi, bu o‘z navbatida tarbiya tizimini izdan chiqaradi. Yuqordagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib yangilanayotgan O‘zbekistonda qaror topayotgan tarbiya klasterining zaruriy elementi sifatida “Ijtimoiy davlat”ni shakllantirish va rivojlantirish o‘z dolzarbligi bilan ajralib turadi, shuningdek davlat boshqaruvi organlari faoliyat yuritishini “jamoatchilik nazorati”, “ijtimoiy nazorat” va “ijtimoiy sheriklik” tamoyillari orqaligina insonparvar tarbiya tizimini yaratishimiz mumkinligini tushunishimiz mumkin. ““Jamoatchilik nazorati” va “ijtimoiy nazorat” tushunchalari o‘rtasidagi tafovut, avvalo, shundaki “ijtimoiy nazorat” tushunchasi mazmun doirasiga ko‘ra “jamoatchilik nazorati” tushunchasidan kengroq. Bu tushuncha tarkibiga “jamoatchilik nazorati” tushunchasidan tashqari “davlat nazorati” va “fuqarolik nazorati” ham kiradi. Chunki ular ham mohiyatan ijtimoiy nazoratning ko‘rinishlaridir” [11. 315.]. “Shu o‘rinda “ijtimoiy” tushunchasiga e’tiborni qaratish joiz. Falsafiy fanlarda mazkur tushuncha “sotsial” tushunchasining sinonimi sifatida qo„llaniladi. Bu uning keng ma’noda ifodalanishidir. Ana shundan kelib chiqib jamiyatda insonlar o‘rtasidagi barcha munosabatlarda ijtimoiy sheriklik mavjud bo‘ladi deb aytish mumkin. Ijtimoiy sheriklik ijtimoiy munosabatlarning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, bu jarayon, ya’ni ijtimoiy munosabatlar keng ma’noda, torroq va tor ma’nolarda tahlil etiladi” [12. 398.].

Olib borilgab tadqiqotlardan quydagilarni ta’kidlash lozim, mamlakatimizda

tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar global transfotmatsion o‘zgarishlar ta’sirida milliy tarbiya tizimida ham o‘zgarishlarga uchramoqda, jumladan davlat va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoyilashuv orqali tarbiya klasterining barcha sub’ektlarining faolligini talab etadi. Yuqorida keltirilgan yangilanishlar O‘zbekiston milliy tarbiya tizimi takomillashuviga bevosita ta’sirini o‘tkazmoqda. O‘tqan qisqa davr ichida davlat va jamiyat orasida samarali muloqot o‘rnatildi desak mubolaga bo‘lmaydi, bunda barcha tuzilmalar o‘rtasida “ijtimoiy sheriklik”ni ta’mulash muhim ahamiyat kasb etadi. Sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar oqibatida “inson qadri uchun” ijtimoiy muloqot kontsepsiyasi yuzaga kelishi natijasida tarbiya klasterini shakllanishida davlat organlari va jamoatchilik tashkilotlarining ahamiyati oshib bormoqda. Olib borilayotgan islohotlar yangi ijtimoiy jamiyat va tarbiya klasterini qaror topishi yo‘lida: birinchidan, soha qonunchiligini takomillashuvi; ikkinchidan, davlat hokimiyatining faollashuviga olib keladi. Samarali tarbiya tizimining asosiy shartlaridan “inson manfaatlari uchun” va “ijtimoiy davlat” tamoyillarini tarkib topishini talab etadi, bu o‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi bunga kafolat bo‘lib xizmat qiladi. Konstitutsiyamizning 7-moddasiga muvofiq “Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan organlar tomondangina amalga oshiriladi” [1. 6.]. Inson-jamiyat-davlat, shuningdek boshqa ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi tarbiyaviy munosabatlar mamlakatimizda quydagi model asosida, maxsus tamoyillarga tayanadi:

- inson, fuqaro, uning nomidan fuqarolik jamiyati institutlari davlatning qonunchilik va tarbiya tizimida bevosita ishtirok etishini talab etadi;

- fuqarolarning tarbiya tizimidagi tashabbuskorliklarini faollashtirish yo‘lida davlat asosiy kafolatlovchi va barqarorlashtiruvchi ekenligi;

- fuqarolik jamiyati sharoitida milliy tarbiya tizimini mustahkamlash va tarbiyaviy munosabatlar sub’ektlarining to‘laqonli faoliyatini yuritish uchun

davlat shart-sharoitlat yaratib beradi hamda tartibga soladi.

Xalqaro tajribani tahlil qilganimizda bizning Mahalla instituti, ya’ni joylardagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish tizimi bo‘lib, milliy tarbiya tizimining fenomenal xususiyatga ega ijtimoiy xodisa xisoblanadi. Mahalla institut mamlakatimiz xududida qadimgi davrlardan mustahkam an’ana va qadriyatlariga ega tarbiya tuzulmasi sifatida qaror topib, rivojlanib kelmoqda. Mamlakatimizning yangi taraqqiyot bosqichida ham mahallaga “ma’rifatli jamiyati” va “ijtimoiy davlat”ni qurishda asosiy bo‘g‘in sifatida qaralmoqda. Ta’kidlash kerakki, yangi mahalla tizimi jamiyatimizda inson, jamiyat va davlat o‘rtasidagi ochiq-pragmatik muloqot hamda tarbiya ko‘prigini o‘rnatishga xizmat qilmoqda. Korib turibmizki, bejiz emas “Mahalla tarbiya o‘chog‘idir”, degan xulosalar shakllanmoqda. Prezident mahallani “Dunyoga xos demokratik tuzilma” deb atadi va, uning vakolatlari kengaytirilishi. 2022-yil 26-yanvar kuni yangi O‘zbekistonning rivojlanish strategiyasini amalga oshirish, ya’ni insonning qadr-qimmati, sha’ni va g‘ururi bundan buyon barcha sohalarda birinchi o‘rinda turishi kerak” [9.], - deydi Shavkat Mirziyoyev. Bu “insonlarga munosib yashash sharoitlarini yaratish va jamiyatimizda insonparvar milliy tarbiya tuzilmasini qaror topishini nazarda tutadi”.

Respublikamiz Prezidentining quydagi ta’kidlagan fikr-mulohazalari mavzuimizni o‘rganishda ahamiyatlidir: “Tushuncha insonning sharafi va qadr-qimmati biz uchun mavhum emas, oliy tushuncha, - dedi Sh.M.Mirziyoev. - Bu haqda gapirganda, avvalo, barchaning tinch va xavfsiz hayotini ta’minlashni nazarda tutamiz fuqaro, uning asosiy huquq va erkinliklari ta’minlashni nazarda tutamiz” [7.]. “Inson qadr-qimmati ostida biz biz munosib yashash sharoitlari va zamonaviy infratuzilmani yaratishni tushunamiz har bir fuqaro uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyati xizmat ko‘rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya, sog‘lom ekologik muhit” [8.]. “Bu maqsadga erishish uchun biz institut imkoniyatlaridan samarali foydalanish vazifasi qo‘yildi mahalla-dunyoga xos demokratik tuzilma, undan keyin oxir oqibat mahallani a ga aylantirish uchun

uning vakolatlarini kengaytirish jamiyatimizning hal qiluvchi bo‘g‘ini. Agar mahallada tinchlik hukm sursa, tinch va osoyishta bo‘ladi mamlakat. Agar mahalla obod bo‘lsa, unda hamma obod bo‘ladi mamlakat” [5.], - dedi Shavkat Mirziyoyev.

**Xulosalar.**

Mavzuga oid ko‘rib chiqilgan fikr-mulohazalarga tayanib, quydagi qisqa xulosa va tavsiyalarni ilgari surishimiz mumkin:

birinchidan, harqanday fuqarolik jamiyati karor topgan mamlakatda avvalambor uning institutlari faoliyatini amalga oshirishlari uchun muntazam ravishda qonunchilikni takomillashtirib borishini talab etadi;

ikkinchidan davlatni ham, fuqarolik jamiyatini ham birdab bir manbai va ishtirokchilari xalq, ya’ni inson deganimizdan keyin, ularning ijtimoiy-siyosiy faollashuvlarini oshirishga qaratilgan islohotlarni shaxsga yo‘naltirish zarur;

uchinchidan, tarixiy tajribaga tayangan holda real fuqarolik jamiyati shakllanishi uchun “jamoatchilik nazorati” va “ijtimoiy sheriklik” tamoyillarining amaliy ishlashini ta’minlash juda muhim;

to‘rtinchidan, umumiy xulosa qiledigon bo‘lsak “ijtimoiy davlat”, “huquqiy davlat” va “xalqparvar siyosat” kabi tushunchalar o‘zaro aloqador hamda toldiruvchi xususiyatga ega. Bundan kelib chibib sodir bo‘layotgan transformatsion o‘zgarishlar nafaqat xususiy, balki umumiy xarakterga kasb etib, umumiy natijaga bevosita ta’sir etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: Adolat, 2023. - B. 108.

2. https://lex.uz/docs/-5459107

3. https://president.uz/uz/lists/view/4229

4. https://daryo.uz/2022/06/20/shavkat-mirziyoyev-inson-qadr-qimmati-shani-va-gururi-bundan-buyon-barcha-sohalarda-birinchi-orinda-turishi-kerak

5. https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/1870

6. https://xs.uz/uz/post/shavkat-mirziyoev-hamma-islohotlarni-hamma-harakatlarni-zhamiyat-bilan-birga-qilamiz

7. https://president.uz/oz/lists/view/4942

8. https://president.uz/oz/lists/view/4743

9. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. (Rasmiy nashr), - Toshkent: Adolat, 2022. - B. 152.

10. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2022. - B. 440.

11. Yunusov K.A. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi. (O‘quv qo‘llanma) - Toshkent: Nuravshon business, 2022. - B. 384.

12. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “O‘zbekiston - 2030 strategiyasi: inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlari” / Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, - Toshkent: 17 aprel 2024 yil, - B. 398.

13. Khakimov N., Ganiyev B. Vocational education and social mission of enterpreneurship in society. Journal of Advanced Research in Dinamical and Control System, 2020 12 (2), - P 2776-2782.

14. Tair Makhamatov, Bahodirjon Ganiyev, Dildor Pulatova, Timur Makhamatov Dialectics of existential space in educational societies. XLinguae. European Scientific Language Journal, 2024 June, Volume 17, Issue 3. - P. 187-197.

## YOSHLAR, AYNIQSA XOTIN-QIZLARDA TADBIRKORLIKKA OID KASBIY KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI

G‘anyieva Malikaxon Sodiqjonovna
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish, ish bilan ta’minlash, bandlik, kambag‘allikni qisqartirish

bugungi kunda muhim ahamiyat ega. Shundan kelib chiqqan holda tadbirkorlarda ijtimoiy konpetentsiyalarini oshirish turmush tarzi sifatiga bevosita ijobiy ta’sir etadi.

**Kalit so’zlar:** kasbiy ko’nikma, ekstremal kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, kommunikativ kompetentlik.

**Аннотация:** Сегодня в Узбекистане большое значение имеет развитие предпринимательства, повышение уровня жизни населения, обеспечение занятости, сокращение бедности. Исходя из этого, повышение социальной компетентности предпринимателей оказывает прямое положительное влияние на качество жизни.

**Ключевые слова:** профессиональные качества, предельная компетентность, личностная компетентность, коммуникативная компетентность.

**Abstract:** Today, the development of entrepreneurship, raising the standard of living of the population, providing employment, reducing poverty is of great importance in Uzbekistan. Based on this, increasing the social competence of entrepreneurs has a direct positive effect on the quality of life.

**Key words:** professional skills, extreme competence, personal competence, communicative competence

Tadbirkorlar kasbiy bilim va ko‘nikmalarini yangilashda umume’tirof etilgan kompetentsiyalardan foydalanish amaliyotda ijobiy samara beradi. Kasbiy ko‘nikma - bilim olish, tajriba, qadriyatlar, moyillikka asoslangan umumiy qobiliyat sifatida faqat bilim yoki ko‘nikma bilan chegaralanmaydi. Vakolatli bo‘lish, o‘rganish yoki o‘qishni anglatmaydi. Ma’lum bir sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun bilim, ko‘nikma, shaxsiy fazilatlar va amaliy tajribani qo‘llash qobiliyatini anglatadi.

Kasbiy ko‘nikma – ma’lum holat xususida to‘g‘ri mulohaza yuritish imkoniyatini beradigan bilimga ega bo‘lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atama. Kasbiy ko‘nikma – tadbirkorning shaxsiy

sifatlari to‘plami (bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar, layoqatlar) bo‘lib, belgilangan ijtimoiy va shaxsiy sohadagi faoliyatida orttirgan tajribasi bilan belgilanadi.

Kasbiy ko‘nikma noan’anaviy holatlarda, ya’ni mutaxassislarning kutilmagan hollarda o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangicha yo‘l tutishi, aniq bo‘lmagan vazifalarni bajarishda, konfliktlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanishni istiqbolli rejasiga egalikni tushunish mumkin. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirishda mihim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va tajribalarning egallanishi va ularni ijtimoiy hayotda yuqori darajada qo‘llay olinishidir. Ijtimoiy kompetentlik ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, tajribalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish hisoblanadi. Maxsus kompetentlik kasbiy-tadbirkorlik faoliyatni shakllantirishga tayyorlanish, kasbiy-tadbirkorlik funktsiyalarini hal qilish, faoliyati natijalarini baholash va rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagilarni ifodalaydi: psixologik kompetentlik tadbirkorlik jarayonida sog‘lom ruhiy muhitni tashkil etish, xaridorlar va kelishuv jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan muloqotni tashkil etish, turli salbiy ruhiy konfliktlarni o‘z vaqtida tushunish va uni bartaraf eta olish; metodik kompetentlik tadbirkorlik jarayonni metodik jihatdan rejali tashkil etish, savdo-sotiq faoliyati turlarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq belgilay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash; informatsion Kasbiy ko‘nikma – axborot muhitida zarur bo‘lgan ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan faoliyat davomida maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish; kreativ kompetentlik – tadbirkorlik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o‘zining innovatorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish; innovatsion kompetentlik– tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, sifatli ta’lim olish, savdo-sotiq ishlariining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni ijtimoiy

hayotga samarali tatbiq etish; kommunikativ kompetentlik – o‘zaro kelishuv jarayonining barcha a’zolari, jumladan, xaridorlar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularning fikrini tinglay bilish, ularga muntazam ravishda ijobiy ta’sir qila olish. Shaxsiy kompetentlik – uzliksiz kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini doimiy oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z imkoniyatlarini to‘liq ko‘rsata olish. Texnologik kompetentlik – kasbiy-tadbirkorlik innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalana olish. Ekstremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, ish bilan bog‘liq konfliktlar vujudga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish tajribasiga egalik. Kasbiy-tadbirkorlik kompetentlikka ega bo‘lishda muntazam o‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini-o‘zi tahlil qilish, real baholash orqali aniqlanadi. O‘z ustida ishlash – tadbirkor shaxsning izchil ravishda o‘zining kasbiy va shaxsiy sifatlarini takomillashtirib borish yo‘lidagi amaliy harakatlarni tashkil etishi hisoblanadi. O‘z ustida ishlash quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- kasbiy faoliyatni takomillashtirib borish;
- faoliyatga holisona tanqidiy va ijodiy yondashish;
- hamkasblar bilan kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- faoliyatdagi ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- faoliyatdagi salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- faoliyatga doir ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish.

Tadbirkorlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlash, ularning doimiy malakasini oshirib borishni tizimli yo‘lga qo‘yish, jumladan, Savdo-sanoat palatasi, Tadbirkorlikni rivojlantirish markazlari, “Tadbirkor ayol” uyushmasi va boshqa nodavlat tuzilmalari tomonidan belgilab berilgan.

Yoshlikdan shaxsda kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish bo‘yicha bir qator tajribalar mavjud. Rivojlangan davlatlar tajribasida, jumladan, Yevropa Kengashining “Evropada o‘rta ta’lim” loyihasi doirasida mazkur Kengash

tomonidan 1996-yilda Bernda o‘tkazilgan “Evropa uchun tayanch kompetentsiyalar” simpoziumida zamonaviy bitiruvchilarning quyidagi 5 ta muhim kompetentsiyalari belgilangan bo‘lib, u tadbirkorlarga mazkur ko‘nikmalarni singdirishga qaratilgan kompetentsiyani talab qiladi [3. 148.].

Taraqqiy etgan davlatlarda milliy g‘oya jamiyatda shaxslarni o‘z o‘rnini mustahkamlashga, uning ijtimoiy muvofiqlashtirish va jipslashtirish salohiyatiga bog‘liq bo‘lgan jarayonni ifodalaydi. Jumladan, Rossiya Federasiyasida jamiyat a’zolari faol fuqarolik pozisiyasini oshirish orqali - milliy mas'uliyatini oshirish, ularning ongi va tafakkuriga, eng avvalo, Vatan tuyg‘usini singdirish bo‘yicha bir talay ishlar qilinmoqda. Bu borada turli jamoatchilik doiralari orasida tashabbuslar diqqatga sazovor. E’lon qilingan rasmiy hujjatlarda: “mamlakat iqtisodiy va siyosiy hayotida ishtirok etishi istiqboli bilan bog‘liq muammolar, ushbu jarayonda davlatning liderlik maqomiga erishishi,” yoki “mamlakatda yuz berayotgan muammolarni biznes tomonidan tushunish zarurati, yangi iqtisodiyot va bozorni shakllantirish bo‘yicha biznes va davlat o‘rtasida konsensusga kelishning shart-sharoitlari,” [4] - singari muhim masalalar o‘rin olgan.

Bizningcha, jamiyat barqarorligini ta’minlashda milliy g‘oya masalasining dolzarbligi ijtimoiy-ma’naviy jihatdan ma’naviy tahdidga nisbatan qarshi kurashish sifatida namoyon bo‘ladi. “Ma’naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e’tiqodidan qat’iy nazar, har qaysi odamning tom ma’nodagi erkin inson bo‘lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko‘zda tutadigan mafkuraviy, g‘oyaviy va informasion hurujlarni nazarda tutish lozim.” [2.14.] Bugungi kunda mamlakatimizga qarshi qaratilgan mafkuraviy tahdidlar sifatida birinchidan, Islom xalifaligini tiklab, uning bayrog‘i ostida musulmon xalqlarni yangi imperiyaga birlashtirish yo‘lidagi sa’yi-xarakatlar, ikkinchidan, axloqsizlikni yoyib, xalqni ma’naviy jihatdan buzishga qaratilgan intilishlar, uchinchidan, turli mafkuraviy vositalar orqali mintaqaviy va davlatlararo mojarolar keltirib chiqarishga qaratilgan xarakatlarni keltirishimiz mumkin.

Ijtimoiy munosabatlar doirasidan foydalanib, muayyan hulq modellarini, fazilat-kompetentsiyalarni bosqichma bosqich rivojlantirib borish ko'zda tutilgan.

Tadbirkorlarga o'zini ijtimoiy munosabatlarning markazida tasavvur qilishlari, shakllantirilgan ijtimoiy kompetentsiyalarini erkin namoyon qilishlari uchun bir tomondan, zarur kasbiy-metodik tayyorgarlikka, ikkinchi tomondan, muayyan ma'naviy fazilatlarga, ijtimoiy kompetentsiyalarga ega bo'lishi talab qilinadi.

Tadbirkorlarning ijtimoiy kompetentsiyalari insonni o'z kasbi ijtimoiy maqsadlarini anglashiga, uning axloqini, tadbirkorlik maqsadlarga erishish strategiyalarini anglashga xizmat qiladi. Shu boisdan tadbirkorlarda ijtimoiy kompetentsiyalarni tutgan o'rni tobora orta boradi.

Zero, axloqiy sifatlar kichik yoshdan boshlab bolalarning ko'nikmalariga aylantira borilsagina fazilatlarga aylanadi. Bu tadbirkordan shaxsiy ijtimoiy kompetentsiyalar bilan uyg'un bo'lishini talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatimizda yoshlar va xotin-qizlarda tadbirkorlik ko'nikmalarini tarbiyalashda milliy va xalqaro tajribalarning ilmiy-amaliy jihatdan asoslab barkamol shaxs dunyoqarashini o'zgartirmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Yoshlar va xotin-qizlarning mulk, boylik orttirish va bu sohadagi professionalizm harakatlarini amaldagi natijasi jamiyat o'z-o'zini qayta ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlab shaxsiy fazilatlari, dunyoqarashi va xulq-atvoriga jiddiy ta'sir qiladi.

## Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch - Toshkent: "Ma'naviyat", 2008.

3. OECD Reviews of Evaluation and Assessment in Education “Synergies for Better Learning”. OECD publishing, PARIS CEDEC. 2013.
4. Государства и бизнес: союз за национальную модернизацию. 25.01.05.
5. Ganiev, B. (2018, May). Философский анализ культуры предпринимательства. In Proceedings of the XXIII World Congress of Philosophy (Vol. 49, pp. 79-84).
6. Ganiyev, B. S. (2020). EDUCATION-PRIORITY SPHERE OF REFORM IN THE CONDITIONS OF A NEW STAGE OF DEVELOPMENT. Central Asian Problems of Modern Science and Education, 2020(1), 106-111.
7. Khakimov, N. H., & Ganiyev, B. S. (2019). THE ROLE OF STUDYING THE STRATEGY OF ACTION IN CHOOSING A PROFESSIONAL DIRECTION (TAKING INTO ACCOUNT THE FORMATION OF ENTREPRENEURIAL QUALITIES) IN STUDENTS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(7), 296-303.
8. Usmanov, N., Ganiev, B. S., & Karimova, G. Y. (2021). The Philosophical Basis For The Formation Of Spiritual Maturity Among Young People. Oriental Journal of Social Sciences, 33-37.
9. Sodikjonovich, G. B. (2020). Social and philosophical aspects of family entrepreneurship development. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 10(12), 1228-1234.
10. ГАНИЕВ, Б., & ГАНИЕВА, М. (2019). РЕЛИГИОЗНО-ИСЛАМСКИЕ И ДУХОВНЫЕ КОРНИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СРЕДНЕЙ АЗИИ. ИДЕАЛЫ И ЦЕННОСТИ ИСЛАМА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ, 332.
11. Ganiyev, B. S. (2019). INNOVATIVE (ENTREPRENEURIAL) ACTIVITY OF WOMEN AT A NEW STAGE OF DEVELOPMENT OF OUR SOCIETY. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(11), 122-129.

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJANISHI

Kenjayev Burgutali Qovuljon o'g'li Namangan davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlari kafedrasi o'qituvchisi.

Hakimjonova Nilufar Salimjon qizi Namangan davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika logopediya yo'nalishi 1-kurs talabasi

**Annotatsiya:**Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurashish tushunchasi, korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik masalalarini oldini olish bo'yicha fikr va mulohazalar yuritilgan.

**Abstract:** This article contains the concept of combating corruption, thoughts and opinions on preventing issues of responsibility for corruption-related crimes.

**Аннотация:** В данной статье содержится концепция борьбы с коррупцией, мысли и мнения по предотвращению вопросов ответственности за преступления коррупционной направленности. преступления

**Kalit so'zlar:** korrupsiyaaviy jinoyatlar, poraxo‘rlik,korrupsiyaga qarshi kurashish,korrupsiya.

**Key words:** corrupt crimes, bribery, fight against corruption, corruption.

**Ключевые слова:** коррупционные, преступления, взяточничество, борьба, коррупцией, коррупция.

Korrupsiya O'zbekistonda jiddiy muammo. Korrupsiyaning oldini olish bo'yicha qonunlar mavjud, ammo korrupsiyaga oid qonunlarning ijrosi juda zaif. Korrupsionerlarning jinoiy javobgarlikka tortilish darajasi pastligi O'zbekistonda korrupsiyaning avj olishiga sabab bo'lmoqda. Nodavlat sektordagi mansabdor shaxsning davlat mansabdor shaxsi ixtiyoriga ta'sir qilishi jinoiy javobgarlikka sabab bo'lmaydi. Sud tizimi cheklangan resurslar va korrupsiya tufayli jiddiy funksional kamchiliklarga duch kelmoqda [1].

O'zbekistonda korrupsiya jamiyat, biznes va hukumatning deyarli barcha qatlamlarida mavjud. O'zbekiston dunyodagi eng korrupsiyalashgan mamlakatlardan biridir[2]. Transparency International xalqaro tadqiqotlar markazining 2021-yilgi korrupsiyani idrok etish indeksida. O'zbekiston 180 mamlakat ichidan 140-o'rinni qayd etdi. Bu reytingda 180-o'rinni egallagan davlat eng korrupsiyalashgan davlat deb hisoblanadi [3].„Quyi va o'rta darajadagi amaldorlar o'rtasidagi poraxo'rlik kundalik hayotning bir qismidir va ba'zan hatto oshkoradir", deb ta'kidlaydi Freedom House[4].Amnesty International tashkilotining 2015-yildagi hisobotida „O'zbekistonda korrupsiya hamma joyda tarqalgan saraton kabi" ekani aytiladi[5

Aksariyat Korrupsiya lobbizm (monopoliyalarning qonunchilik organlari va amaldorlarga tazyiq o'tkazish bilan shug'ullanadigan muassasa va agentlari tizimi) bilan bog'langan. Xalqaro darajada 1970-yillarda Yaponiyaga samolyotlar sotishda kompaniya tomonidan oliy davlat amaldorlarini sotib olish bo'yicha „Lokxid ishi" eng yirik Korrupsiya ko'rinishlariga misol bo'ladi.

Porani xaspo'shlash uchun yirik bitishuvlarda ko'proq„xizmat haqi" to'lash amaliyotidan foydalaniladi[6].

Korrupsiya bu jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm vaboshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi. Ta'kidlab o'tish o'rinliki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag'al bo'lishidan qat'iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish bo'yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalgam oshirilayotgan bo'lsada, hanuzgacha u bartaraf etilmayotganligini ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek, korrupsiya va uning tarixiy ildizlari haqida ham tushuntirish berildi. Biz quyida korrupsiyaning tarixiy ildizlariga va unga qarshi kurashish

xususida fikr yuritmoqchimiz. Korrupsiya (lot. Corrumpere buzmoq) termini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qonunchilik va axloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi. Ko'p hollarda bu atama siyosiy elitadagi byurokratik apparatga qarata ishlatiladi.

Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rligi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma'lum. Chunki bu holat davlatning obro'siga juda qattiq putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rligi qattiq qoralanadi. Jumaladan, Injilda "Sovg'alarni qabul qilma, chunki sovg'a ko'rni ko'radigan qiladi va haqiqatni o'zgartiradi" deyilgan bo'lsa, Qu'roni Karimda "Boshqalarning mulkini nohaq yo'l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo'lgan narsalarni olish uchun o'z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar" deyilgan.

Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylangan ilk kunlardanoq

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bir qator Qonun va qonunosti hujjatlar qabul qildi. Jumladan, 2017-yilning 3-yanvarida "Korrupsiyaga qarshi kurashish terisida"gi 419-sonli qonun qabul qilindi.Mazkur qonun korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi va kurashning qonuniy asosi yaratildi. Mazkur qonunning 3-moddasida korrupsiya tushunchasiga ta'rif berilgan. Unga ko'ra, korrupsiya- shaxsning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy nafolish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdir.[8]

Jamiyat a'zolarini birday qiynab kelayotgan baloi ofatga qarshi kurashish uchun biz qo'shni davlatlar tajribasini o'rganish va saboqlar chiqarish yo'lida izlanib, Rossiyadagi ahvolni ko'zdan kechirdik: 2000-yillar avvalida ulkan mamlakatning milliy xavfsizligiga korrupsiya xavf sola boshlagach (asosan, yer osti boyliklari va mudofaa sohasi

mablag'larini talon-toroj qilish), maxsus idora ochildi, mavjud muammolar - xalqaro tajriba bilan taqqoslanib, "homiy" vazifasini bajargan huquq-tartibot organlari, soliq, bojxona xizmati tizimi rahbarlariga keskin choralar ko'rildi.Ichki ishlar organi tizimi butunlay isloh etildi. Kriminal tarmoqlardagi uzoq yillik korrupsiya holatlari ishonchli dalillar orqali fosh qilinib, yirik jinoiy ishlar ochildi.

To'g'ri, B. Yelsin hokimiyati davrida masalaga panja orqasidan qarab kelingan edi. Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V. Putin nazoratiga o'tgan ko'plab maxsus ilmiy markazlar, jamoat tashkilotlari qisqa muddatda vazirliklar va mintaqalardagi korrupsiya darajasini aniqlab oldilar.

Masalan, Moskva hamda markaziy shaharlarda korrupsiya yuqori, uzoq o'lkalarda kamroq rivojlangan edi. Ayniqsa, sud, prokuratura, ichki ishlar organlarida, oliy o'quv yurtlarida korrupsion tizim "samarali" ishlaganligi aniqlanib, minglab mansabdor shaxslar lavozimidan ozod qilindi. Bundan xulosa chiqargan tamagir rahbarlar siyosiy vaziyatdan sal cho'chib, o'zlarini "panaga tortdi".

Aytish mumkinki, o'zbek siyosatchilari, davlat arboblari, olimlari o'rganaman desa dunyo mamlakatlarida bunday jihatlar ko'plab topiladi. Misol uchun, Singapurda pora olishdan bosh tortgan amaldorlarga mukofotlar tarqatiladi. Yaponiya davlat sektori xodimlarining vijdonliligi baholab boriladi. Biz o'ziga xos bunday islohotlar tag-zaminidagi ichki va tashqi omillarni tadqiq etishimiz zarur.

**Xulosalar:**

Xullas, davlat organlarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlarni joriy etish, aholining korrupsiyaga qarshi qarashlarini shakllantirish bo'yicha xalqaro tajribalar hech qachon zarar qilmagan. [9]

Korrupsiya — taraqqiyot kushandasi, xavfsizlikka tahdid tug‘diruvchi xavfli jinoyat. Bu illatga qarshi kurashish tegishli organlarninggina emas, barchaning ishi bo‘lishi zarur. Shundagina biz ushbu xavfni bartaraf etgan bo‘lamiz.

Korrupsiya, birinchidan, jamiyatda adolatsizlik, tengsizlik va aholining noroziligiga olib keladi, bu esa barcha sohadagi islohotlarning natijasiga salbiy

ta’sir etmay qolmaydi; ikkinchidan, fuqarolarimizda huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatning yetarli darajada emasligi, o‘z haq-huquqini himoya qila olmasligi jamiyatda adolat mezonining buzilishini ko‘paytiradi.

Mamlakatimizda ham siyosiy, ham iqtisodiy islohotlarni hayotga tatbiq etish paytida korrupsiya jiddiy to‘siq bo‘layotgani jamoatchilikni tashvishga solmoqda.

Eng avvalo, korrupsiyaga qarshi kurashishni oiladan boshlash darkor. Bu borada ayollarning roli katta, deb hisoblanadi. Agar o‘g‘rilik yoki pora hisobiga kelgan luqmaning ayollarimiz surishtirib bilsa, ochiq fikrini aytolsa, erkaklar halol rizqni izlashga tushib, ishi va oilasida fayz-baraka, sokinlik hamda xotirjamlik qaror topishi, shubhasiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Uzbekistan Corruption Profile“. Business Anti-Corruption Portal. 2016-yil 5-martda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2015-yil 14-iyul

2.Follath. „Tashkent's Shakespearean Drama: Scandal Shakes Uzbekistan's“. Spiegel (2015-yil 3-aprel).

3. „Corruptions Perceptions Index 2021 for Uzbekistan“ (en). Transparency.org. Qaraldi: 2022-yil 26-aprel

4. „Uzbekistan“. Freedom House. 2015-yil 16-martda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2023-yil 2-aprel

5. „Uzbekistan: Torture, corruption and lies“. Amnesty International (2015-yil 13-aprel)

6.O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

7.www.samstat.uz

8.O‘zbekiston Ming "Korrupsiyaga qarshi kurashish terisida"gi Qonuni. //https:lex.uz/docs/-3088008 /. (Law of the Republic Uzbekistan onCombating Corruption);

9.www.tuit.uz

# O‘ZBEKISTONDA KUCHLI IJTIMOIY SIYOSAT KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI

Ataxonov Baxtiyor Namangan davlat pedagogika instituti gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Mahammadjonova Munavvarxon Avazjon qizi namangan davlat pedagogika instituti maxsus pedagogika (logopediya) yo‘nalishi 1-kurs talabasi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi tahlil qilingan. Uning muammoli jihatlariga to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy, siyosat, konsepsiya, iqtisodiyot, moliyaviy, korrupsiya, kambag`allik, ijtimoiy himoya, infrastrukturaviy, ekvivalent, xalq, jamiyat. **Аннотация:** В данной статье анализируется формирование сильной концепции социальной политики в Узбекистане. Затронуты его проблемные аспекты.

**Ключевые слова:** социальное, политика, конфепция, экономика, финансы, коррупция, бедность, социальная, защита, инфраструктура, эквивалент, люди, обществ.

**Abstract:** This article analyzes the formation of a strong social policy concept in Uzbekistan. Its problematik aspects have been touched upon.

**Key words:** social, policy, concept, economy, financial, corruption, poverty, social protection, infrastructural, equivalent, people, soceiety.

**Kirish:** Ijtimoiy siyosat - bu davlatning ijtimoiy adolat, farovonlik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan strategiyasi bo`lib, aholining turli qatlamlariga yordam ko`rsatishni o`z ichiga oladi. Ushbu siyosat ijtimoiy himoya, ta’lim, sog`liqni saqlash, bandlik va uy-joy kabi sohalarda davlat tomonidan ko`rsatiladigan xizmatlar va resurslarni taqsimlashni boshqaradi. Ijtimoiy

siyosatning asosiy maqsadi kambag`allikni kamaytirish, notenglikni bartaraf etish va aholining hayot sifatini yaxshilashdir. O`zbekistonda ijtimoiy siyosat mustaqillik yillaridan boshlab rivojlanib, aholining ehtiyojlariga javob beradigan samarali tizim yaratishga qaratilgan. Ta'mirlanganlik darajasi iqtisodiy imkoniyatlarga bevosita bog`liq va iqtisodiyotning asosiy maqsadi cheklangan resurslar sharoitida aholini ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga qaratiladi.[1]

Bugungi kunda davlatimiz inson uchun, xalq uchun ochildi. Xalq bilan bevosita muloqot qilish, uning dard-u tashvishlari, muammolari ijobiy hal etish bo`yicha yangi tizim yaratildi. Davlat tashkilotlari ish faoliyatida "mahallaga tushish", "xalq ichiga kirish, uning dardiga quloq solish ", "tashvishiga sherik bo`lish" va "muammolarni o`rnida hal qilish" tamoyillari asosiy mezonga aylandi. Biz ko`p yillar davomida amal qilib kelingan "davlat - jamiyat - inson" tamoyilini o`zgartirdik.

Mamlakatimizda avvalo inson, keyin esa, jamiyat va davlat manfaati barcha harakatlarimizning negiziga qo`yildi. Hayotimizda "Davlat - insonlar uchun" degan xalqchil g`oya izchillik bilan qaror topib bormoqda.[2]. Ijtimoiy siyosat mamlakatimizda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo`nalishlaridan biri bo`lib qolmoqda. Ijtimoiy qo`llab quvvatlashning aniq manzili xususiyatga ega ekani har bir muhtoj insonga uning real ehtiyojini hisobga olgan holda yordam ko`rsatish imkonini bermoqda. Bunda ushbu toifaga mansub hech bir inson e'tibordan chetda qolmasligiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Yurtimizda ijtimoiy muammolarni hal etishning mutlaqo yangi va o`ziga xos tizimi yaratildi. Keyinggi paytda "temir daftar", "yoshlar daftari", "ayollar daftari", "mahallabay", "xonadonbay", ishlash usullari aynan shu maqsadda joriy etilmoqda. Bugungi kunda xalq farovonligini, odamlarning hayot darajasini har tomonlama oshirish, buning uchun yangi ish o`rinlari, daromad manbalarini yaratish, kambag`allikni qisqartirish, qishloq va shaharlarimizni obod qilish iqtisodiy strategiyamizning eng muhim yo`nalishlaridan biri bo`lib qolmoqda. Keksalar, nogironlar, og`ir ahvolga tushib qolgan insonlarni qo`llab-quvvatlash, ularga mehr va muruvvat ko`rsatish

kabi ezgu an’analar bugungi kunda yangicha ma’no-mazmun, amaliy harakatlar bilan boyib, takomillashib bormoqda. Birgina “obod qishloq” va “obod mahalla” dasturlari doirasida 2021-yilda barcha shahar va tumanlardagi jami 8 mingga yaqin qishloq va mahallada qurilish, ta`mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirmoqda. Ta`kidlashim joizki, keyingi besh yilda oliy ta’limga qabul kvotasi 3 barobar oshirilib, joriy yilda 186 871 nafar yoshlar uchun talaba bo`lish imkoniyati yaratildi. Bu - umumiy qamrov 28 foizga yetdi. Bizga ma’lumki, bundan 4 yil avval bu raqam atigi 9 foizni tashkil etardi. Bu borada davlat grantlari 21 mingtadan 47 mingtagacha ko’paytirildi ehtiyojmand oilalarga mansub 2 ming nafar qizlarga hamda nogironligi bo`lgan shaxslarning ham 2 ming nafariga bu yil oliygohlarga kirish uchun alohida grantlar ajratildi. Qishloqlarda ishsiz yoshlarni bandligini ta’minlash maqsadida ularga 10 sotixdan 1 gektargacha yer maydonlari ajratish boshlandi. Ota-onasidan ajragan, mehrga muhtoj bolalarni qo`llab-quvvatlash ularning ta’lim-tarbiya olishi, ish joyi va uyiga ega bo`lishi, jamiyatda munosib o`rin topishi uchun “Mehribonlik uylari”, maxsus maktab-internetlar va “Bolalar shaharchasi”ning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyatini mustahkamlashga jiddiy e’tibor berilmoqda. Shuningdek, yetim va ota-ona qaramog`idan mahrum bo`lgan bolalarni uy-joy bilan ta’minlash tartibi belgilandi. Unga ko`ra, o`ziga biriktirilgan uy-joyga muhtoj sifatida hisobda turgan ana shunday bolalarga ular 18 yoshga to`lgan yili umumiy maydoni 25 kvadrat metrdan kam bo`lmagan 2 xonali kvartiralar bilan ta’minlangan. Shuni ham ta’kidlash kerakki, aholining eng kambag`al qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish va qo`llab-quvvatlash siyosati ehtiyojmand oilalarga beriladigan yordam pullari bilan cheklanib qolmasdan maqsad - aholining iqtisodiy farovonligi darajasini oshirish uchun sharoit yaratishdir.[3].

Hozirgi kunda O`zbekistonning ijtimoiy sohani rivojlantirishidagi asosiy yo`nalishlari 2022-2026 yillarga mo`ljallangan PF-60-son 28.01.2022-yilda tasdiqlangan “Taraqqiyot”strategiyasida belgilab qo`yildi. Ushbu strategiyaning to`rtinchi yo`nalishida adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini

rivojlantirish konsepsiyalari ilgari surilgan. Bunda sifatli ta'lim-tarbiya masalasi doimiy e'tibor markazida bo`lishi ta'kidlanadi. Shu maqsadda o`qituvchilarning oylik maoshlarini izchil oshirib borish va 2025-yilga borib, 1 ming dollar miqdoriga yetkazish ko`zda tutilgan. Kelgusi 5 yilda oliy toifali shifokorlar maoshini ham 1 ming dollar ekvivalentga yetkazish mo`ljallanmoqda. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sog`lom turmush tarzini qaror toptirish muhim vazifa bo`lib qoladi. Bu sohada professional, oliy ma'lumotli trenerlar ulushini hozirgi 54 foizdan 2026-yil yakuniga qadar 85 foizga oshirish va shu kabi asosiy rejalar "Taraqqiyot"strategiyasidan joy olgan.[4].

**XULOSA:** Tanganing bir tarafi bo`lganidek, albatta, ikkinchi tarafi ham bo`ladi. O`zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishidagi asosiy muammolarga to`xtalib o`tishni o`zimga joiz ko`rdim. Ular bir necha yo`nalishlarda ko`zga tashlanadi: Ijtimoiy sohalar jumladan, sog`liqni saqlash, ta'lim va ijtimoiy ta'minot tizimlari yetarli mablag` bilan ta'minlanadi. Biroq bu mablag'lar bizgacha yetib kelmaydi. Bu, ayniqsa, qishloq joylarida yaqqol ko`zga tashlanadi. Ishsizlik masalalariga to`xtaladigan bo`lsam ayollar va yoshlar orasida ish topish muammolari ko`p. Bunga sabab, xotin qizlar va yosh avlodning yetarli darajada bilim va malakaga ega emasligi, ma'lum bir kasb-xunar egallamaganini keltirishimiz mumkin. Buni oldini olish uchun bo'sh ish o'rinlarini yaratishimiz va aholini bunga jalb qilishimiz zarur. Bizning eng og`riqli nuqtamiz bu - korrupsiya. U jamiyatimizning turli qatlamlariga salbiy ta'sir ko`rsatadi. Buning natijasida resurslar samarali taqsimlanmaydi va aholining ehtiyojmand qatlamlari yetarli yordam ololmaydi. Bu muammolarni hal qilish uchun tizimli islohotlar, korrupsiyaga qarshi kurash va mahalliy boshqaruv tizimlarini tubdan o`zgartirish kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.Karimov "Taraqqiyotning o'zbek modeli".
2. Sh.Mirziyoyev "Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun".

3. kun.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida “ gi PF-60-sonli farmoni.

## 1917–YIL FEVRAL–OKTYABR ORALIG’IDA TURKISTON

Valiyeva Nafisa Abdumajitovna
NamDPI dotsenti
Maxamadinova Marjona Xolmurod qizi
NamDPI Maxsus pedagogika 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada 1917-yil fevral-oktyabr oralig’ida qadim Turkistonimizning ijtimoiyiqtisodiy, siyosiy holati tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Burjuaziya, fevral inqilobi, oktyabr to’ntarilishlari, sovetlar.

**Аннотация:** В этой статье анализируется социальное, экономическое и политическое состояние древнего Туркестана в период с февраля по октябрь 1917 года.

**Ключевые слова:** Буржуазия, Февральская революция, Октябрьские перевороты, советы.

**Abstract:** In this, tha social, economic and political condition of ancient Turkestan between february and october 1917 is analyzed.

**Key words:** Bourgeoisie, february revolution, october revolution, soviets.

1917-1991-yillar O’zbekiston tarixida sovet davrini tashkil qiladi. Mazkur davrni quyidagi katta 2 tabosqichga ajratish mumkin: 1) birinchi bosqich 1917 - 1924 yillar 2) bosqich 1925–1991-yillar birinchi bosqichda mintaqada Turkiston, Buxuro, Xorazm respublikalari tashkil qilingan bo’lsa, ikkinchidavr 1925 – yil fevralda O’zbekiston SSSRning tuzilishi bilan boshlanadi hamda 1991 – yilda sovet davlatining parchalanishi bilan tugaydi. Turkiston o’lkasi 1917 – yil fevral – oktyabr oralig’ida Turkiston jadidlari islohatlarni bosqichma – bosqich amalga

oshirishni, taraqqiyot va rivojlanishga faqat tinchlikyo'li bilan, parlament orqali erishishni mo'ljallagan edilar. Biroq 1917- yildagi voqealar jarayoni,jadidchilik harakatining yirik nazoratchisi Abduraufi Fitrat o'sha paytda yozganidek, "Rusiyada boshko'targan yangi bir balo - bolshevik balosi " kuchlar nisbatini butunlay o'zgartirib yubordi. O'zbek xalqining yan bir fidoyi farzandi Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan o'rtaga tashlangan " Haq berilmas olinur " shiori butun millatning jangavor chaqirig'iga aylandi. Rossiya samoderjaviyasi zulmi, hukmronligiga qarshi uzluksiz davom etib kelayotgan kurash, nihoyat 1917-yil fevraliga kelib g'alabaqozondi. Uch asr davomida Rosssiya saltanatini to'xtovsiz boshqarib kelgan Romanovlar sulolasi hukmdorligi ag'darildi. Mutlaq monarxiya tuzumi quladi. Mart oyi boshlarida Rossiya burjuaziyasi dorilari vakillaridan tashkil topgan Muvaqqat hukumat faoliyat ko'rsata boshladi. Ayni chog'da Petrogradda va boshqa joylarda ishchi,askar va dehqon deputatlari sovetlari tuzilib, hokimyat organlari sifatida ish yurita boshladi. Shu tariqa, Rossiyada tarixda nihoyatda kamdan kam uchraydigan noyob hodisa – ikki hokimyatchilik boshqaruvi vujudga keldi. Bu hol o'sha vaqtdagi mamlakatda vujudga kelgan siyosiy kuchlar nisbatini o'zida aks ettirardi.1916-yilning oxirlari va 1917-yilning boshlarida Rossiyaning mustamlakasi bo'lgan Turkistonda ham inqilobiy tanglikning barcha alomatlari har tomonlama pishib yetildi. Bu inqilobiy tanglik 1917-yil 27-fevralda Petrogradda chor monarxiya tuzumining ag'darilishiga olib keldi. Mamlakatda ikki hokimyatchilik vujudga keldi. Bir tomonda knyaz Lvov boshchiligida burjua –pomeshchiklar hukumati – muvaqqat hukumat, ikkinchi tomondan esa, ishchi va dehqonlarning demokratik diktatura organi bo'lgan ishchi, dehqon va askarlar deputatlari soveti ish boshladi. Ishchi, dehqon va askarlar sovetiga eserlar, kadetlar va menshe viklar boshchilik qildilar. 1917 – yil mart oxiriga borib, o'lkada ishchi va soldat deputatlarining 75 soveti bor edi. Sovetlarning saylangan deputatlari asosan, yevropalik millat vakillaridan iborat edi. Turkiston ijtimoiy – siyosiy hayotida o'lka muhtoriyati masalasi asosiy o'ringa chiqdi. Turkistonga muhtoriyat maqomini berish g'oyasi nafaqat

demokratik ziyolilar orasida, hatto oddiy odamlar o’rtasida ham ancha ommalashgan edi. 1914 – yil 14 – martda xalq vakillarining birinchi majlisi bo’ldi. Unda aholining tatar va qozoq vakillari bilan to’ldirilgan 61 kishidan iborat bo’lgan yangi tashkilotining tarkibi tasdiqlandi. Bu organ “ Sho’ri islom” degan nom oldi. Aprel oyining boshlarida mahalliy jadidlarning tashabbusi bilan O’sh, Andijon, Skobelev, Turkiston, Mari,Samarqand, Namangan va Qo’qonda uning mahalliy tashkilotlari tashkil qilindi. “ Sho’roi islom” tashkilotining xalq o’rtasida ta’sirining kuchayib borishi Turkistonda markazga o’xshab ikkihokimiyatchilik emas, balki siyosiy maydonda uch hokimyatni yuzaga keltirgan edi. Rossiya qariyb 300 yildan ziyod hukmronlik qilgan Romanovlar sulolasining taxtdan ag’darilishi mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotiga jiddiy ta’sir qildi. Inqilob g’alabasini Rossiya fuqarolari zo’r shod-u hurramlik bilan qarshi oldilar. Chunki uning ezgu shiori ozodlik, tenglik va birodarlik edi. Fevral inqilobi asrlar osha Rossiyaning barcha mehnatkash va mazlum xalqlariga baxtsaodat yo’lini ko’rsatdi, katta-kichik millatlarga o’z taqdirini o’zi hal qilishga imkoniyat yaratdi, vijdon erkinligini joriy qildi, mahalliy idoralarni saylashda umumiy bevosita teng va maxfiy ovoz berishni yo’lga qo’ydi. Muvaqqat hukumat mahalliy xalq vakillari dan front orqasidagi ishlarga mardikorlikka olishga chek qo’ydiki, bu tadbirlar millati, irqi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar barcha xalqlarning istakorzulariga javob berar edi. Rossiyadagi barcha o’n bitta partiya erkin suratda o’z faoliyatini olib bora boshladi. Xullas, qisqa muddat ichida fevral inqilobi g’alabasi tufayli Rossiya harbiy feodal monarxistik davlatdan dunyoda eng ilg’or demokratik davlatga aylandi.

1917 – yil 28 – fevralda Petrogradda qishki saroy va Petropavlovsk qal’asini bosib olish bilan inqilobiy voqealar nihoyasiga yetdi. 2 – martda ishchi va soldat deputatlari Petrograd sovetining burjua partiyalari va tashkilotlari vakillaridan iborat bo’lgan hamda “ Progressivniy blok” nomi bilan birlashgan Davlat dumasi muvaqqat qo’mitasi bilan kelishuv asosida Rossiyada muvaqqat hukumat tuzildi. Rossiyada 2 ta hokimyat 2 ta diktatura: muvaqqat hukumat siymosida demokratik

diktatura va Sovetlar siymosida proletariat va dehqonlarning inqilobiy – demokratik diktaturasining o'ziga xos qo'shiluvi yuzaga keldi. Muvaqqat hukumat 3 marta e'lon qilingan bayonnomasi va 6 marta e'lon qilingan Rossiya fuqarolariga murojaatnomasida o'z dasturini bayon qilib berdi. Hukumat siyosiy erkinliklar – so'z, matbuot, ittifoqlar tuzish, yig'ilishlar va ish tashlashlar erkinligi joriy etilganligigini; barcha tabaqa, diniy va milliy cheklashlarning bekor qilinganini teng va yashirin ovoz berish bilan o'z – o'zini boshqarish organlariga saylov o'tkazish, politsiyani xalq militsiyasi bilan almashtirish, to'la siyosiy afvnoma berish lozimligini e'lon qildi. Fevral inqilobi Rossiyaning xalqaro maydondagi ahvoliga ham jiddiy o'zgarishlar kiritish imkoniyatini yaratdi. Inqilob sharofati tufayli Rossiya uzoq davom et gan jahon urushidan chiqib ketishi va mamlakat fuqarolarining ezgu niyatlarini ro'yobga chiqarish mumkin edi. Umuman olganda fevral inqilobi jamiyat taraqqiyotining obyektiv rivojlanishi qonunlaridan kelib chiqqan hayotiy zaruriyat bo'lib, u chinakam xalq inqilobi edi. Shu bois fevral inqilobining bu g'alabasi Turkiston xalqi ham zo'r xursandchilik va katta umidlar bilan kutib oldilar. Podsho Nikolay II ning taxtdan ketganligi to'g'risidagi xabar Toshkentga 28- fevralda kechasi yetib keldi. Ammo Turkiston General gubernatori Kuropatkin monarxiyaning qayta tiklanishidan umidvor bo'lib bu xabarni xalqqa bildirishni istamadi. 3 – martda fevral inqilobining g'alabasi to'g'risidagi telegramma matbuotda bosilgach, uning siri fosh bo'ldi. Bu inqilobga nisbatan mamlakatimiz jadidchilari ham xayrixohlik hissi bilan qarab baho berdilaradilar. Jumladan, endigina 19 bahorni qarshilagan Abdulhamid Cho'lpon fevral inqilobini 1789-1793-yillardagi buyuk fransuz respublikasiga o'x shatgan edi. Fevral inqilobi ta'siri ostida Turkiston o'lkasida ommaviy milliy ozodlik harakatlari avj olib ketdi. O'lkaning yirik shaharlari: Toshkent, Samarqand, Skobelev ya'ni Farg'ona, Andijon, Kogon, Namangan, Qo'qon, Petro-Aleksandrovsk (To'rtko'l) va boshqa joylarda ko'p ming kishilik miting va namoyishlar bo'ldi. Fevral inqilobi haqidagi xabar matbuotda e'lon qilingan kuniyoq Toshkentda katta miting va namoyish bo'ladi. 1919-yil iyun oyida bo'lib o'tgan Turkiston kompartiyasi III syezdning

milliy kommunistik seksiyasida qilgan ma'ruzasida "Agar biz Turkistondagi haqiqiy vaziyatga e'tibor bersak ham ko'chmanchi ham o'troq aholi shu paytga qadar ham o'rta asrchilik sharoitidadir " degan edi T. Risqulov. Mustafo Cho'qayev o'zining '' Turkiston sovetlar hokimiyati ostida" deb nomlangan kitobida 1917-yilgi fevral inqilobi buyuk umidlar tug'dirgan bo'lsa, " oktyabr to'ntarishi bularning hammasini yo'qqa chiqar gani'' ni yozadi. Oktyabr to'ntarishi o'zbek xalqi uchun kutilmagan bir voqea edi, - deb yozgandi Rahim Inog'omonov, - va unga o'zbek mehnatkashlari hozirlik ko'rmagan edilar. Chunki o'zbek orasida o'zgarishga hali zamin hozirlanmagan edi. O'zbek orasidagi oktyabrgacha bo'lgan harakatning eng kuchli yo'liyolg'iz ruslarga va rus istibdod hukumatiga qarshi bo'lib, mustaqillikka intilish edi. Xullas, oktyabr to'ntarishi Turkiston o'lkasining obyektiv taraqqiyoti qonunlariga zid suratda o'lkaga chetdan –Rossiyadan kelgan bir guruh shaxslar tomonidan zo'rlik bilan amalga oshirildi, ya'ni zo'rlik yo'li bilan eksport qilindi. Uni mahalliy xalq qabul qilmadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar va internet sahifalar ro'yxati:**

1. R. Shamsutdinov, H. Mo'minov - O'zbekiston tarixi kitobi. Toshkent – 2010. 7 – bet.

2. R.Shamsutdinov, Sh. Karimov – Vatan tarixi kitobi. 3-kitob. 11 –12 – 46 – betlar.

3. Qosimov B."Milliy uyg'onish", T.,"Sharq",2004 yil,53-bet.Toshqulov J. Yosh xivaliklar: siyosiy qarashlarining tadrijiy rivojlanishi// Xalq va demokratiya, 1992,3-4-son.

4. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. –T.: Universitet, 1999

5. https://www.ziyonet.uz

6. https://www.bukhari.uz

# MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH – MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA

Tillayev Bobomurod Abduvoxobovich
Gumanitar fanlar kafedrasi katta o`qituvchisi
Muhammadaliyeva Zilola Sherzod qizi
Ijtimoiy fanlar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo`nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya;** Yurtimizning, xalqimizning barqaror taraqqiyotini ta’minlashning muhim shartlaridan biri bu g‘oyaviy tarbiyani kuchaytirishdan iboratdir. Bu borada kishilarimizda yot , foydasiz va zararli g‘oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirish zarur. Shubhasiz, mafkuraviy immunitetni shakllantirish kishilar ongiga bir xil g‘oyani zo‘r berib tiqishtirish emas, balki insonlarda, jamiyatda oq-qorani ajratish, munosib tafakkur yuritish, zararli g‘oyalarga qarshi turish va ulardan ogoh bo‘lish xususiyatlarini tarbiyalash demakdir.

**Kalit so'zlar;** mafkura, immutitet, manipulatsiya, milliy qadriyatlar, shaxs, jamiyat, aqidaparastlik, g‘oya, illat, globallashuv.

**Аннонатця:** Одном из важных условий обеспечения устойчивого развития нашей Родины и нашего народа является укрепление идеологического воспитания. В этой связи необходимо формирование идеологического иммунитета у наших людей для борьбы с чуждыми, безполезными и вредными идеями. Безусловно, формирование этого идеологического иммунитета не сводится к навязыванию единой идеи людям, а подразумевает обучение людей и общества различать добро и зло, вести адекватное мышление, противостоять вредным идеям и быть осведомленными о них

**Ключевые слова:** Идеология, иммунитет, манипуляция, национальные ценостии, личность, общество, догматизм, идея, недуг, национальная

идентичность, глобализация.

**Abstract;** One of the important conditions for ensuring the sustainable development of our homeland and our people is to strengthen ideological education. In the regard, it is essential to develop a cultural immunity among our people to combat foreign, useless, and harmful ideas. Undoubtedly, forming this ideological immunity is not about forcing a single idea onto people’s minds; rather, it involves teaching individuals and society to distinguish between good and bad, to think critically and to resist harmful ideas while being aware of them.

**Key words;** Ideology, immunity, manipulation, national values, individual, society, dogmatism, idea, illness, national indentity, globalization.

**Kirish:** Hozirda butun dunyo uchun mafkura, mafkuraviy immunitet tushunchasi tanish bo‘lsa-da, lekin hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi [1]deya ta’riflanayotgan davrda juda ko‘p tushunchalar vujudga kelmoqda.

“Mafkuraviy immunitet”- ma’naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun shaxsni tarbiyalashda, har qanday reaksion, buzg‘unchi xarakterdagi g‘oyaviy tashabbuslarga bardosh bera oladigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan ilmiy asoslangan tushuncha.

“Ma’lumki, har qanday kasallikni oldini olish uchun, avvalo, kishi organizimida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham Vatanga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog‘lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta’bir joiz bo‘lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur. Ana shunday johil aqidaparastlikning “da’vati” axloqni rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g‘oyalar ham o‘z ta’sirini o‘tkaza olmaydi”, deya Birinchi Predizentimiz Islom Karimov “Fidokor” gazetasi muxbirining yoshlarda mafkuraviy immitetni shakllantish to‘g‘risidagi savoliga javob bergan edilar.[2]

Milliy o‘zlikni anglash- insonning o‘z xalqiga, madaniyatiga, qadriyatlariga va tarixiy ildizlariga bo‘lgan hurmatini shakllantirishdan boshlanadi. Bu tuyg‘u nafaqat bir shaxsni, balki butun jamiyatni mustahkamlashiradi. Milliy o‘zlikka ega bo‘lgan kishi o‘z ona tilini, tarixini va madaniy merosini o‘rganishga intiladi va

ularni asrab – avaylashga harakat qiladi. Shuningdek, milliy o‘zlik insonga jahon madaniyatiga hurmat va ehtirom bilan yondashish, boshqa xalqlar bilan barqaror aloqalar o‘rnatish imkonini beradi. Chunki o‘z milliy o‘zligiga ega inson boshqa millatlarning qadriyatlarini ham anglab, hurmat qilishi osonroq. Bu esa xalqaro miqyosda madaniy almashinuvni rivojlantirishga, turli millatlarni bir-biriga yaqinlashtirishga xizmat  qiladi. Milly o‘zlikni saqlab qolish orqali xalqning o‘zligini anglashi va dunyo xalqlari orasida o‘z o‘rnini topishi mumkinligi e’tirof etiladi.[3]

Bugungi globallashuv davrida milliy o‘zlikni saqlash juda dolzarb bo‘lib bormoqda. O‘z ildizlarini anglagan va ularga sodiq bo‘lgan odam xorijiy ta’sirlar oldida ham o‘zini yo‘qotmaydi va o‘z xalqining haqiqiy vakili bo‘lib qoladi. Bu, ayniqsa, yoshlar uchun muhim, chunki ular- millatning kelajagi. Milliy o‘zlikni shakllantirish esa, avvalo, ma’naviy-axloqiy tarbiyadan boshlanadi. Milly o‘zlikni anglash, mafkuraviy immunitetni shakllantirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Tarixiy xotira, madaniyat va ta’lim orqali milliy o‘zlikni anglagan shaxslar tashqi ta’sirlarga qarshi yanada mustahkam turish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bois, milly o‘zlikni anglash jarayonini qo‘llab- quvvatlash va rivojlantirish har bir millat uchun zarurdir. Mafkuraviy immunitet va o‘zlikni anglashning shakllanishida ta’limning roli katta bo‘lib, ta’lim jarayonida milliy qadriyatlarni o‘rganish va ularga amal qilish, yosh avlodning o‘zligini anglashida ta’lim muassasalarida o‘zbek tarixini, adabiyotini o‘rganish mafkuraviy immunitetni shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi.

Milliy o‘zlikni anglash va mafkuraviy immunitetning asosiy omillari quyidagilar:

4. Ta’lim: Mafkuraviy immunitetni rivojlantirish uchun ta’lim, ijtimoiy ko’mak muhim ahamiyatga ega. U muayyan g‘oyalar va mafkuralarga qarshi turish qobiliyati shaxs va jamiyatning rivojlanishi uchun zarur[4]

5. Madaniy-ijtimoiy faoliyat: Jamiyatda ijtimoiy tadbirlar va madaniy loyihalarda ishtirok etish, insonlarning o‘z fikrini erkin ifoda etishiga yordam

berishi.

6. Ochiq mulohazalar: Turli fikrlarni mulohaza qilish, fikrlar almashinuvi orqali ko‘proq ma’lumot olish va muammolarni har tomonlaman ko‘rish imkoni.

7. Milliy o‘zlikni targ‘ib qilish ta'lim-tarbiya jarayonida o‘z xalqining qadriyatlari va an'analarini o‘rgatish orqali amalga oshiriladi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarga milliy g‘urur va o‘ziga bo‘lgan hurmatni oshiradi. Misol uchun, adabiyot, tarix, musiqaning milliy yo‘nalishlariga oid darslar orqali milliy o‘zlikni shakllantirish mumkin. O‘z millatining tarixini madaniyatini bilgan yoshlar o‘z indentifikatsiyasini yaxshiroq tushunib, milliy va global masalalarda qanday yondashish kerakligini o‘rganadi.

Milliy o‘zlikni talimga integratsiya qilish pedagogika fanida muhim o‘rin tutadi. Pedagoglar o‘quvchilarga milliy madaniyatni, qadriyatni, adabiyot va san'atni yetkazishning samarali usullarini ishlab chiqaradi. Bu jarayonda interaktiv metodlar, etnik madaniyatlararo muloqot va zamonaviy texnologiyalar ham ahamiyati katta. Milliy o‘zlik ta'lim- tarbiyaga ta'sir qilganda, nafaqat shaxsiy, balki jamiyatning ham rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatib, milliy o‘zlikni yuksaltirgan holda, global dunyo integratsiyasini oshiradi.

**Xulosa:** yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib shuni aytishim mumkinki, milliy o‘zlik har qanday jamiyat va mamlakat hayotida eng muhim ahamiyatga ega vositadir. Negaki, bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida axloqqa zid bo'lgan harakatlar natijasida katta ma'naviy yo'qotishlar yuz berayotgani millatning asriy qadriyatlari va milliy tafakkuri izdan chiqayotgani, sababli o‘zlikni anglash hissi jiddiy xavf ostida qolmoqda. Har qanday buyuk rejalar, buyuk g‘oyalar inson ehtiyojlari, turmush yaxshilashi, erkinligi ortishi va ma’naviy kamoloti bilan bevosita bog‘lansagina, hayotiylik va reallik kasb etadi. Shu jihatdan, biz mafkuraviy immunitet har birimizga qay darajada zarur ekanligini shaxsan o‘zimiz his qilishimiz kerak va barcha soha vakillari buni yodda tutmog‘i lozim. Keling barchamiz qo‘lni qo‘lga berib, bugungi globallashgan XXI asrda yoshlarimizni axloqimizga zid bo'lgan illatlardan va tahdidlardan saqlab, ulaning

milliy o‘zligini anglashiga va uni saqlashiga o‘z xissamizni qo‘shaylik.

**Foydalinilgan adabiyotlar ro'yxati.**


1. Karimov. A. I. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch . Toshkent. Ma’naviyat 2008, 77-bet.
2. Karimov. I. A. Milliy istiqlol mafkurasi- xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. “ Fidokor” gazetasi savoliga javoblar- T; “O‘zbekiston”, 2000-yil 40-bet.
3. Anvar Obidjon – “Milliy ong va jahonqarash” (2021)
4. Khamidov, “Mafkura va milliy identitet” (2020)


## O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MUNOSABATLAR VA BAG'RIKENGLIKNING TARIXIY ILDIZLARI


Risliqov Rasuljon

NamDU 2-bosqich magistranti



**Annotatsiya:** Ushbu maqola O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglikning tarixiy ildizlarini o'rganadi. Tarixiy hujjatlar, ilmiy tadqiqotlar va boshqa manbalar asosida, mamlakatda yashovchi turli millatlar o'rtasidagi aloqalar va ularning qadriyatlari tahlil qilinadi. Maqola, shuningdek, mustaqillik yillarida bag'rikenglikning rivojlanishi va hozirgi zamondagi ahamiyati haqida bahs yuritadi. O'zbekistonning ijtimoiy va madaniy hayotida bu qadriyatlarning ahamiyati va kelajak avlodlar uchun ijobiy meros qoldirish zarurati ta'kidlanadi.



**Kalit so'zlar:** Millatlararo munosabatlar, bag'rikenglik, tarixiy ildizlar, madaniy almashuv.



**Аннотация:** В данной статье рассматриваются исторические корни межнациональных отношений и толерантности в Узбекистане. На основе исторических документов, научных исследований и других источников анализируются отношения между различными народностями, проживающими в стране, и их ценности. Также в статье рассматривается развитие толерантности в годы независимости и ее актуальность сегодня.

Подчеркивается важность этих ценностей в общественной и культурной жизни Узбекистана и необходимость оставить положительное наследие будущим поколениям.

**Ключевые слова:** Межнациональные отношения, толерантность, исторические корни, культурный обмен.

**Abstract:** This article examines the historical roots of interethnic relations and tolerance in Uzbekistan. On the basis of historical documents, scientific studies and other sources, relations between different nationalities living in the country and their values are analyzed. The article also discusses the development of tolerance during the years of independence and its relevance today. The importance of these values in the social and cultural life of Uzbekistan and the need to leave a positive legacy for future generations is emphasized.

**Key words:** Interethnic relations, tolerance, historical roots, cultural exchange.

**Kirish**

O'zbekiston, tarixan, turli millatlar va madaniyatlarning kesishgan nuqtasi sifatida tanilgan. Ushbu mamlakatda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglikni o'rganish, mintaqaviy barqarorlik va ijtimoiy taraqqiyot uchun muhimdir. Maqolada O'zbekistonda millatlararo munosabatlar tarixi, bag'rikenglikning ildizlari va hozirgi zamondagi ahamiyati tahlil qilinadi.

**Metodologiya**

Ushbu maqolada tarixiy hujjatlar, ilmiy tadqiqotlar va statistik ma'lumotlardan foydalanildi. O'zbekistondagi millatlararo munosabatlar va bag'rikenglikni tahlil qilish uchun sifatli va miqdoriy usullar qo'llanildi. Shuningdek, mahalliy va xalqaro mutaxassislar bilan intervyular o'tkazildi.

**Natijalar**

**Tarixiy kontekst:** O'zbekiston hududi tarixan ko'plab xalqlar va madaniyatlarni o'z ichiga olgan. O'zbekistonda turk, rus, qozoq, tojik va boshqa

millatlar yashaydi. Ushbu ko'p millatli muhit, asrlar davomida iqtisodiy va madaniy almashuvlarga sabab bo'lgan.

**Bag'rikenglikning Ildizlari:** O'zbekistonda bag'rikenglik an'anaviy qadriyat sifatida qadrlanadi. O'zbek xalqining mehmondo'stligi va boshqa millatlar bilan birga yashash madaniyati, tarixiy ildizlarga ega. Mustaqillik yillarida bu qadriyatlar yanada rivojlandi va davlat darajasida qo'llab-quvvatlandi.

**Hozirgi Zamondagi Ahamiyati:** Bugungi kunda O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglikni mustahkamlashga qaratilgan bir qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Milliy madaniyatlarni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar, mamlakat ichidagi barqarorlikni ta'minlaydi. O'zbekistonning Millatlararo Siyosati: **O'zbekiston Respublikasi o'zining ko'p millatli tuzilishi bilan ajralib turadi. Mamlakatda 100 dan ortiq millat va etnik guruhlar yashaydi, shu sababli millatlararo siyosat muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning millatlararo siyosati quyidagi asosiy yo'nalishlarga asoslanadi: 1. Millatlararo barqarorlikni ta'minlash - O'zbekistonda millatlararo barqarorlikni ta'minlash maqsadida qator qonun va dasturlar ishlab chiqilgan. Bu dasturlar, millatlararo do'stlikni kuchaytirish, etnik guruhlar o'rtasida o'zaro hurmatni rivojlantirish va ijtimoiy barqarorlikni saqlashga qaratilgan. Davlat, millatlararo munosabatlarni mustahkamlash uchun zamonaviy qonunchilikni ishlab chiqdi va ijro etmoqda.**

**2. Madaniyat va tilni rivojlantirish - O'zbekistonda har bir millat va etnik guruhning madaniyati, an'analari va tillarini saqlab qolish uchun maxsus dasturlar mavjud. Milliy madaniy markazlar, til va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar o‘tkazadi. O'zbekistonda turli millatlarning madaniyatini rivojlantirish va ularni o'zaro tanishtirishga qaratilgan ko'plab festivallar va tadbirlar tashkil etiladi.**

**3. Ta'lim tizimi – O'zbekistonda ta'lim tizimi millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Maktablarda va oliy ta'lim muassasalarida turli millatlarning tillari va madaniyatlari o'qitiladi. Bu**

**orqali yosh avlod o'rtasida o'zaro tushunish va hurmatni rivojlantirishga yordam beriladi.**

**4. Ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish – Millatlararo siyosat ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish bilan chambarchas bog'liq. O'zbekistonda davlat, etnik guruhlar o'rtasida iqtisodiy tenglikni ta'minlash hamda ijtimoiy kuchaytirish maqsadida turli dasturlarni amalga oshirmoqda. Bu dasturlar, kam ta'minlangan oilalarga yordam berish, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish va ish bilan ta'minlashga qaratilgan.**

***5. Xalqaro hamkorlik - O'zbekiston, millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda xalqaro hamkorlikni ham muhim deb biladi. Mamlakat, BMT, YEVROOS, SHHT kabi xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik qiladi. Bu tashkilotlar orqali O'zbekiston, millatlararo munosabatlarni rivojlantirish, etnik muammolarni hal etish va barqarorlikni ta'minlash borasida tajriba almashadi.***

6. Davlat siyosati - O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida millatlararo munosabatlarga alohida e'tibor qaratilgan. Mamlakatda har bir etnik guruhning huquqlari, erkinliklari va madaniyati himoya qilinadi. Davlat, millatlararo do'stlikni mustahkamlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida turli tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydi.

**Xulosa**

O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglikning tarixiy ildizlari mamlakatning ijtimoiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynaydi. Ushbu qadriyatlarni saqlab qolish va rivojlantirish, mintaqaviy barqarorlik va tinchlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda davlat va jamiyat tomonidan amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar, kelajak avlodlar uchun ijobiy meros qoldirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonning millatlararo siyosati, mamlakatda yashovchi barcha millatlar va etnik guruhlar uchun barqaror va xavfsiz muhitni yaratishga qaratilgan. Ushbu siyosat, O'zbekistonning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida muhim omil

sifatida xizmat qiladi. Millatlararo munosabatlarni rivojlantirish, O'zbekistonning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdullaeva, D. (2018). O'zbekiston millatlararo munosabatlari: tarixiy va zamonaviy jihatlari. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
2. Iskandarov, A. (2020). O'zbekistonda bag'rikenglik va millatlararo munosabatlar. Tashkent: Fan va texnologiya.
3. Khalilov, R. (2019). O'zbekistonning madaniy xilma-xilligi va uning ijtimoiy ahamiyati. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi.
4. Murodov, S. (2021). O'zbekistonda millatlararo siyosat: nazariy va amaliy jihatlar. Tashkent: O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti.
5. Sattorov, A., & Karimov, A. (2022). O'zbekistonning ko'p millatli jamiyati: kelajak istiqbollari. Tashkent: Ijtimoiy fanlar akademiyasi.
6. World Bank. (2020). Uzbekistan: Promoting Inter-Ethnic Harmony and Tolerance. Washington, DC: The World Bank.
7. Programme. (2019). United Nations Development Building Inclusive Societies in Uzbekistan: A Focus on Inter-Ethnic Relations. New York: UNDP.
8. Tashkent State Institute of Oriental Studies. (2021). Ethnic Diversity and National Identity in Uzbekistan. Tashkent: Tashkent State Institute of Oriental Studies.
9. Gafurova, N. (2023). O'zbekistonda madaniy almashuv va bag'rikenglik. Tashkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari. Millatlararo munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan rasmiy hujjatlar va dasturlar. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

# МУТОЛАА–ИНСОН КАПИТАЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ СИФАТИДА

Самадов Турсунбой Адхамжонович
Наманган давлат университети,
мустақил тадиқотчиси

**Аннотация:** Ушбу мақолада талаба ёшлар ўртасида мутолаа маданиятини ривожлантиришга оид социологик сўров тахлили ва натижалари ёзилган. Олий таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанларни ўқитишда бадиий асарлардан фойдаланиш бўйича тавсиялар берилган.

**Калит сўзлар:** Китоб, мутолаа, инсон капитали, таълим, тарбия, инновация, тараққиёт, ахборот, олий таълим.

Тарихдан бизга маълумки, таълим барча халқларнинг илм-фани, маънавияти, маданият ва санъатининг пойдевори ҳисобланади. Инсоният тарихига назар ташласак, халқнинг билим даражаси юқори бўлган даврда мамлакатнинг ҳар бир соҳада ривожланганлиги ва тараққиётга эришганлигини кўришимиз мумкин.

Барчамизга аёнки, юртимиздаги ҳар қайси инсон, ҳар қайси оиланинг энг эзгу орзу-мақсадлари, ҳаётий манфаатлари, авваламбор, унинг фарзандлари тимсолида намоён бўлади, рўёбга чиқади. Албатта, бу борада юртимизда улкан ишлар амалга оширилмоқда ва улар амалда ўзининг ижобий натижасини бермокда[1.32].

Мамлакатимизнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишида инсон капитали ижтимоий ишлаб чиқариш омили сифатида шакллантириш жараёни янги босқичга қадам қўйди. Инсон капитали замонавий иқтисодиётни муҳим таркибий қисмига айланди. Давлат инвеститсия сиёсатининг устувор ёъналишлари ва давлатнинг иқтисодий соҳадаги ўрни ўзгаради. Бу ёълда таълим тизими инсон капиталининг шаклланишининг асосий манбаи сифатида ривожланмоқда. Бундай шароитларда иқтисодий муносабатларнинг барча таркибий қисмини ташкил этувчи ва ушбу муносабатларнинг ўзи

шаклланадиган инсон капитали вужудга келишининг институтсионлашувига талаб ошиб бормоқда.

Инсон капитали тушунчаси бўйича хорижлик ва маҳаллий олимлар ҳам кўплаб тадқиқотлар, изланишлар олиб боришмоқда. Инновасион ривожланишнинг, умуман иқтисодий тараққиётни таъминлашнинг муҳим ва зарурий шарти инсон капиталининг юксаклиги ҳисобланади. “Инсон капитали” назарияси асосчилари, жумладан, Г. Беккернинг фикрича, “ҳар кимнинг билими, қобилияти ва қизиқишлари” инсон капитали ҳисобланади[2.17-32].

Инсон капиталининг ривожланиши ва унинг тараққиёти ҳар қандай мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий мвофаққияти стратегик катта аҳамиятга эга. Инсон капитали тушунчаси бугунги кунга келиб фақатгина иқтисодиёт ёки ишлаб чиқаришда эмас, балки, мамлакатдаги ҳар бир фуқаронинг индивидуал хусусиятлари саломатлик, таълим, қобиляти ва истеъдодлари, ортирган малака ҳамда тажрибалари, ижтимоий, психологик, дунёқараш ва одамларнинг ижтимоий-маданий хусусиятларида, шунингдек унинг таркибий тузулишида нафақат моддий, балки маънавий таркибни ҳам англаш муҳим аҳамият касб этмоқда.

Маълумки, жамият қандай бўлса, ижтимоий муносабатлар мажмуи бўлган инсон капитали ҳам унга мос бўлади. Инсон капиталининг ривожи ҳам шахснинг онги, одоб-ахлоқи, маънавияти, дунёқараши, ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий муносабатларга, ижтимоий тузум моҳияти ва табиатига бевосита боғлиқдир. Инсон ақл-идрок соҳиби бўлганлиги боис реал дунёдаги воқеаларни тушунади, илм-у тафаккури, меҳнати, салоҳияти билан дунёни бошқаради. Инсон капиталининг юксалишига уни ўраб турган ижтимоий-муҳитда рўй бераётган барча воқеаларнинг таъсири кучлидир[3.4].

Ҳар қайси инсонда муайян даражада интеллектуал салоҳият мавжуд. Агар шу ички қувватнинг тўлиқ юзага чиқиши учун зарур бўлган барча шарт-шароит яратилса, тафаккур ҳар хил қотиб қолган эски тушунча ва

ақидалардан халос бўлади. Эркин фуқаролик, ҳуқуқий демократик жамият қуришда таълим-тарбия ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Маънавиятни шакллантиришга бевосита таъсир қиладиган яна бир муҳим ҳаётий омил - бу таълим-тарбия тизими билан чамбарчас боғлиқдир.

Мутолаа маданиятини юксалтириш зарурати Ўзбекистонимизнинг ҳозирги ижтимоий-сиёсий, интеллектуал-бадиий тараққиётининг муҳим ва узвий жиҳати ҳисобланади. Мутолаа маданияти шакллантириш инсон капиталини ривожлантиришдан иборат алоҳида ижтимоий сиёсатининг ҳам ажралмас қисмидир.

Мутолаа маданиятини турли ёш босқичларида тизимли тарзда шакллантириб бориш узлуксиз таълимнинг барча босқичлари учун муҳим аҳамиятга эга. Маълумки, олий таълим бошланғич, умумий ўрта ва ўрта махсус таълимнинг якуний босқичи бўлиб, шахснинг фуқаро ва мутахассис сифатида ижтимоий-касбий маконга киришиши ва ҳар томонлама фаоллашиши ҳолатини ифода этади.

“Мутолаа” сўзи арабча “ўқиш” деган маънога эга бўлса-да, бугунги кунда у китоб ўқишдан кўра кенгроқ тушунчани англатмоқда. Мутолаа маданияти таълимнинг узвий таркибий жиҳати бўлиб, бўлғуси касбий фаолият таркиби ва мазмунини ўзлаштириш жараёнларини фаоллаштиришда муҳим аҳамиятга эгадир. Мутолаа орқали инсон нафақат ахборотлар олиш имкониятига эга бўлади, балки миллий ва умуминсоний бойликлар оламига кириб боради.

Айни вақтда китоб мутолаасини юксалтириш ахборот дунёсининг бошқа манбалари билан ҳам мақсадли уйғунлаштиришда катта аҳамиятга эга бўлади. Зеро, бугунги кунда ахборотга эга бўлишнинг маълумотлар топиш, маълумотларни саралаш, маълумотларни тизимлаштириш ва уларни ҳиссий ҳамда оқилона англаш босқичлари мавжуд бўлиб, уларнинг ҳар бирига алоҳида эътибор қаратиш ниҳоятда муҳимдир. Хусусан, ахборот

олишнинг маълумот топиш босқичида интернетнинг ўрнини ҳеч қандай бошқа ахборот манбаси боса олмайди.

Таълим субъектларида мутолаа жараёнларини фаоллаштириш учун олий маълумотли бакалавриат ва магистратура ўқув режаларидаги мустақил таълим блокини ҳар томонлама яхшилаш ҳисобидан амалга ошириш зарур. Бугунги кунда талабанинг аудиториядаги таълим жараёнлари устидан беш босқичли назорат йўлга қўйилган. Назорат ишлари даставвал педагог, сўнг кафедра, деканат, ректорат ҳамда Вазирлик томонидан амалга оширилади.

Мустақил таълим жараёнлари эса фақат икки субъектга, яъни, педагог ва талабанинг биргаликдаги фаолияти кўрсатилган эга бўлиш учун давлатимиз томонидан талаба ўзлаштириши зарур бўлган таълимнинг учдан икки ҳиссаси, яъни, 33,3 фоизи мустақил таълимга ажратилган. Демак, мустақил таълим блокини ҳар томонлама такомиллаштириш учун мутолаа маданиятини юксалтириш ишларини махсус дастурлар асосида ҳар томонлама фаоллаштиришга алоҳида эътибор қаратиш зарур.

Талабанинг мустақил таълим орқали касбни ўзлаштириш даражаси ва дунёқарашининг бойиши ҳолатларини қатъий назорат қилиш механизмининг самарали усуллари ишлаб чиқилмаган. Ўқув услубий мажмуаларда мустақил таълим учун берилган адабиётлар рўйхати, рефератлар мавзулари аксарият ҳолларда тавсия характерига эгадир.

Талабалардаги мутолаа маданиятини ўрганиш мақсадида жорий йилнинг март ойида “**Мутолаа–инсон капиталини ривожлантиришнинг муҳим омили сифатида**” ўтказилган сотсиологик сўров натижалари асосида ёзилган. Тадқиқот Наманган давлат университети Ижтимоий фанлар факултетидан 210 та респондент(талаба) ўртасида ўтказилди. Респондентларнинг ёш ва жинс таркиби қуйидагича: 20 – 25 ёш – 72,4%, 25 – 30 ёшгача бўлганлар – 27,6% бўлиб, улардан эркаклар – 51,8%, аёллар – 49,2%. Оилавий ҳолатига кўра: оилалилар – 31,2%, турмуш ыурган ва ыурмаганлар–68,8%.

Сўровнома натижалари шуни кўрсатдики, респондентларнинг 64,1% дарс соатларидан ташқари қўшимча дарсларга қатнаши, 35,9% эса фақатгина аудиториядаги маъруза соатлари билан чекланишаётганини кўрсатди. Қўшимча дарсаларга қатнашадиган талабаларни кўп қисми хорижий тилларни ўрганишни мақсад қилган. Бу эса ёшлар ўртасида хорижий тилларни ўрганишга бўлган иштиёқи тобора ортаётганини билдиради. Талабалрнинг қўшимча фанларни ўзлаштиришлари, мутолаа билан шуғилланишларида уларни ота-оналарининг таълим даражасига кўра бу кўрсаткич 30,2%, ўрта маълумотлилар орасида, 48,1% ўрта махсус маълумотлилар орасида ва 21,7%ни олий маълумотли ота-оналар ўртасида ташкил этди. Ўрта махсус таълим даражасига эга бўлган ота-оналарнинг аксарият қисми фарзандларига сифатли таълим бериш истагини, ҳаётда фарзандларини улардан юқори натижаларга эришишга хоҳиш сифатида баҳолаш мумкин. Лекин, олий маълумотли ота-оналар орасида бу кўрсаткични нисбатан пастлиги уларнинг фарзандига нисбатан эътиборнинг пастлигидан эмас. Фикримизча, бундай оила фарзандлари нисбатан қобилятли бўлишлари ёки фанлар доирасида ёрдамни ота-оналаридан олишлари мумкинлиги ҳисобига бу кўрсаткич нисбатан пастроқ деган хулосага келинди.

Мутолаа даражаси аниқлаш бўйича берилган саволларга респондентлардан натижа олинди. Сўровномада роман ва қиссалар мутолааси бадиий асар номи билан берилган. Кейинги ўринларда бадиий асар деб юритилади. Академик литсей ва касб-ҳунар коллежларини тамомлаб, институтнинг 1-босқич “Ижтимоий фанлар” факултетидаги таълим йўналишларига ўқишга кирган биринчи босқич талабаларинингнинг мутолаа ҳолати қуйидагича; 32,3% талабалар 2 тадан отиқ бадиий асар ўқиган, 31,2% талабалар атиги 2 тадан бадиий асарлар ўқиган, 26,4% талаба бадиий асарлардан фақат айрим парчаларни ўқиган, холос(1-расм). Шунингдек, 10,1% талабалар эса ҳеч қандай бадиий асар ўқимаган(*Муаллиф*

*томонидан Мутолаа инсон капиталини такомиллаштиришнинг энг муҳим омили сифатида номли сотсиологик сўровнома натижаси асосида. Наманган 20.09.2019*). Деярли респондентларнинг жуда кўп қисми синф дарсликлари билан чегараланиб қолишгани, қўшимча бадиий асарларни мукаммал ўқишмаган деган хулосага келинди.

*Расм-1.*




Шунунгдек, респондентлар орасида 3-босқич талабалари бўйича ҳолат: 37,3% талабалар 7 тадан отриқ бадиий асар ўқиган. 35,4% талабалар 5 тадан бадий асар ўқиган, 23,6% талабалар 3 тадан ва 3,7% талабалар эса умуман бадиий асар ўқимаган(2-расм). Деярли респондентларнинг аксарияти мустақил таълим олиш учун ахборот манбаини интернет хусусан, турли ижтимоий сайтлар фасебоок, телеграм, Вконтакте, однокласники ва бошқалар) орқали ахборотга эга бўлмоқда.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, респондентлар орасида биринчи босқич талабалрининг 10,9% умуман қўшимча адабиёт (бирор турдаги бадий асар)ни мукаммал ўқишмаган, деярли синф дарсликлари билан чегараланишган. Юқори босқичга ўтгандан сўнг эса бу кўрсаткич аста-секин кўтарилганлигига гувоҳ бўлдик. Бу ҳолатда ҳам берилган саволларга

жавоблардан оилй таълим муҳити, семинар дарсларга тайёргарлик кўриш жараёнида 43,2%, билим даражаларини ошириш мақсадида 27,3%ни кўрсатса, бугунги кунда 27,3% талабалар ҳеч қандай қўшимча адабиёт мутолааси билан шуғулланишмаётгани аниқ бўлди. Ўз жавобларида электрон дарсликлар ва ва шу турдаги китобларни бази-базида мутолаа қилишларини таъкидлашган.

*Расм-2.*




Шунингдек, оилавий муҳит ота-онасининг таълим даражаси мутолаа маданиятига муҳим таъсир этиб бу кўрсаткич: ўрта маълумотлиларда – 16,8%, ўрта махсус – 35,2%, олий малумотли – 46,3%, илмий даражаси бор – 1,7%ни кўрсатди. Респондентлар ота-оналарининг фаолият юритаётган соҳасига кўра тақсимланиши ва бунда фарзандларининг мутоллаага бўлган қизиқишлари қуйидагича: тадбиркорлик – 12,2%, таълим, илм - фан – 28,6%, ишлаб чиқариш – 8,6%, транспорт – 6,1%, соғлиқни сақлаш – 9,2%, савдо

соҳасида – 10,1%, қурилиш – 2,3 %, банк-молия – 8,2%, маиший хизмат -4,8% ва бошқа соҳаларда – 9,9% ўз-ўзидан таълим соҳасида фаолият олиб борадига оилаларда бу кўрсаткич юқори. Бу саволнинг таҳлили натижасида ҳам олий маълумотли инсонларнинг ўзларига ва бошқаларга нисбатан талабчанликлари ўз ифодасини топди. Албатта, қўшимча адабиётларни мутолаа қилиш инсон капиталини ривожлантирувчи омиллардан саналади.

Сотсиолигик сўровда респондентлар арасида инсон капиталини такомиллаштиришда мутолаа маданиятини такомиллаштириш ва инсон капиталини таркиби бўлган ва унинг сифатини белгилаб берувчи таълимга инвеститсия қилиш моиллигини аниқлаш мақсад этиб белгиланган.

Маълумки, инсон капиталининг шакилланишида биринчи навбатда демографик омиллар муҳим ўрин эгаллайди. Оилаларда фарзандлар сони келажакда оила инсон капиталининг ва ўз навбатида мамлакат инсон капиталини қайта ҳосил бўлиш даражасини белгилаб беради. Олинган натижаларга кўра, респондентлар орасида икки фарзандлик оилаларнинг салмоғи катталиги маълум бўлди.

Олий таълим муассасаси фақат бирор ихтисослик бўйича мутахассисни тайёрлаш билан бир вақтда фикр доираси кенг, дунёқараши кўламдор қалбида юрт ишқи, ватан туйғуси жўш уриб турган баркамол шахсни вояга етказишга ҳам масулдир. Камолот пиллапоясида турган ёш инсонга бу хислат – фазилатларни асосан адабиёт ва санъат асарлари ато қилади. Шунинг учун ҳам талаба қайси мутахассисликни  эгаллаш учун таҳсил олишидан қатъий назар адабиёт  ва санъатга ошуфта бўлиши жуда муҳим. Ёшларни китоб, адабиёт оламига олиб кириш уларни гўзаллик, эзгулик оламига олиб киришни англатади.

Бугунги кунда эса мутолаа маданиятини ривожлантириш давлат сиёсати даражасига кўтарилиди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев: … ахборот – коммуникатсия соҳасидаги охирги ютуқларни ўзлаштириш билан бирга, ёшларнинг китоб ўқишга бўлган

қизиқишини оширишга, уларни китоб билан дўст бўлишга, аҳолининг китобхонлик савиясини янада оширишга алоҳида эътибор қаратиш лозим бўлади. Бунинг учун, аввало, миллий адабиётимиз ва жаҳон адабиётининг энг сара намуналарини ижтимоий тармоқларга жойлаштириш ва уларни кенг тарғиб қилишга алоҳида эътибор беришимиз муҳим аҳамият касб этади” деб таъкидлайди. Мамлакатимиз раҳбарининг китоб, китобхонлик маданиятини яхшилаш тўғрисида куюнишининг гапираётганликларининг чуқур фалсафаси бор. Биринчидан, юқорида қайд этилгани каби, китоб инсонни ердан кўкка кўтарувчи, унинг маънавий қувватини оширувчи буюк куч ҳисобланади. Иккинчидан, китоб инсониятнинг тарихий хотираси, барчамизни ўз маънавий-маърифий, илмий заминимизни мустаҳкамловчи, келажакни ёрқин кўрсатиб боришга қодир машъала ҳисобланади.

Инсон капиталини такомиллаштириш, одамларнинг ўзини-ўзи баҳолаш кўрсаткичларнинг тез ўсаётганлиги, одамларнинг ҳаёт даражаси, аҳолининг иқтисодий-сиёсий тараққиётига ишонч юксалиб, давлат ва фуқаролараро ҳамкорлик даражасининг барқарор ўсаётганлиги ва айниқса инсон капиталини ривожлантириш борасида дунё мамлакатлари орасидан муносиб ўринга кўтарилмоқдамиз.

Хулоса ўрнида шуни қайд қилиш мумкинки: мутолаа маданияти бугунги кунда оммавий маданият таҳдидидан ёшларни ҳимоялашда ҳам муҳим аҳамиятга эгадир. Китобга муҳаббат қўйган инсон оммавий маданиятнинг вайронкор таъсиридан мустаҳкам ҳимояланган бўлади. Шу боисдан ҳам ўқувчи ва талабаларнинг бадиий асарларни мутолаа қилиш жараёнларини муфассал ўрганиш, бу жараённи чуқур илмий таҳлил қилиш Республикадан ҳар бир олий таълим муассасалари ва академик литсей ва касб-ҳунар коллежларининг муҳим вазифаларидан саналади.

Мамлакатимизда инсонларни маънавий ва ақлий эхтёжларини қондириш ва истедодларини рўёбга чиқаришга таъсирини аниқлашда таълимга муҳим аҳамиятли хусусиятлардан бир-бири билан боғлиқ давлат,

жамият ва шахс нуқтаи назаридан қараш қабул қилинган. Ушбу хусусиятларни бир-биридан фарқлаш ва моҳиятига етиш, таълимни ривожлантиришнинг стратегик мақсадили ёъналишларини шакиллантириш имконини беради.

Тақиқот давомида мутолаа маданиятини ривожланиш манбалари ва омиллари унинг ички ва ташқи даражасиси юзасидан кенгроқ ўргандик хулосани инсон капиталига оила даражасидаги инвеститсияларга эътиборни кучайтирсак мақсадга мувофиқдир. Инсон капиталини энг самарали ривожлантирувчи инвеститсиялар таркибида таълим учун киритиладиган инвеститсиялар ўта муҳим аҳамиятга эгадир. Таълим учун харажатлар, агарда инсон олган билимлари мазмуни меҳнат бозоридаги талабга мувофиқ бўлсагина, у натижа келтирувчи капиталга айланади. Чунки, инсон капиталининг барча таркибий қисмлари оила ўз фарзандига киритадиган инвеститсиялар орқали шакллантирилади ва кўпайтирилади. Инсоннинг интеллектуал ва психофизиологик қобилиятларини оилада ривожлантириш унинг келгусида камол этиши ва инсон капитали мунтазам такомиллашиб боришининг пойдеворидир.

Шундай бўлса ҳам инсон капиталининг  асосий инвестори – мазкур капитал эгасининг ўзидир. шахс ўз инсон капиталига инвеститсия киритишнинг мақсадга мувофиқлиги тўғрисида қарор қабул қилар экан, кутилаётган харажатлар ва олиниши мўлжаланаётган даромадларни таққослайди.

Юртимизда олий таълим билан боғлиқ ўзгаришлар давлат сиёсати билан боғлиқ ҳолда миллий манфаатларга хизмат қилмоқда. Мамлакатда эркин ва фаровон ҳаёт қурилишига қаратилган миллий ғоя мақсадлари билан муштарак ҳолда тегишли шарт-шароитлар яратилди. Талабаларга педагог ва ота-оналар томонидан фарзандларида мутолаа маданиятини шакллантириш, унда миллий ва жаҳон адабиётининг нодир дурдона асарларини ўқишни

тавсия этишлари муайян аҳамиятга эга бўлиб, субъэкт-субъэкт тамойили асосида иш олиб бориш зарур.

Юқоридагилардан хулоса қилиб қуйидаги тавсилар ишлаб чиқилди:

- Олий ва ўрта махсус таълим муассасаларида "Мутолаа маданияти" номли махсус курс жорий этиш, талаба ва ўқувчиларни мутолаа технологиялари билан таништириш;
- Республикамиз Олий ва ўрта махсус таълим муассасаларида мутолаа маданиятининг ҳолатини ўрганишга доир сотсиологик тадқиқот ўтказиш;
- ўқув жараёнида фойдаланилаётган ижтимоий – гуманитар фанлар блоки предметларидаги фойдаланилаётган адабиётлар рўйхатига маърифий-бадиий адабиётларни ҳам киритиш;
- ёшларнинг ҳаётга позитив ёндошувини тарбияловчи, адабиётларнинг янги авлодини яратиш;
- мутолаа-китобхонлар клубларини ташкил этиш зарур.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотлар таълимнинг узлуксизлиги ва шахсга ёъналтирилганлиги билан характерлидир. Бу эса ўз навбатида инсон капиталини янада ривожланишига хизмат қилади.

Инсон капиталига инвеститсияларнинг асосий тури миллий қадриятлар тизимини шакллантириш билан боғлиқ бўлиб, таълим, фан, санъат, жисмоний тарбия ва спортни ривожлантиришга сарфланадиган харажатлар билан ўлчанади. Аҳолининг таълим даражаси мамлакат иқтисодий ривожланишига икки баробар (тўғридан-тўғри ва билвосита) таъсир кўрсатди. Таълим даражасини ошириш инсон капитали сифатига сезиларли ҳисса қўшади, бу ўз навбатида юқори ўсиш суръатларига ва иқтисодий ўсишнинг барқарорлигига олиб келади. Ютимизда инсон капитали ривожлантириш таркибида етакчи ижтимоий инвестор бўлиб ҳизмат қилмоқда.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конститутсияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузa. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 32. Б

2. Бекмуродов М. Инсон капитали-тараққиёт омили. Тошкент. "Маънавият", 2015. –Б.4.

3. Капелюшников Р. Экономический подход Гэри Беккера к человеческому поведению. США: экономика, политика, идеология. 1993. № 11 С. 17–32.

**4.** Содиржонов М. М. Инсон капитали ривожланиш жараёнларининг этносоциологик хусусиятлари (Фарғона водийси мисолида). Соц.ф.б.фал.док.(PhD) дис.автореф. – Тошкент, 2022. – Б. 43.

# IJTIMOIY DAVLAT VA INSON QADRI INTEGRATSIYASIDA ESTETIK TARBIYA

Botirova Sevara Mamurovna
NamDPI Gumanitar fanlar kafedrasi mudiri
E-mail: sevarabotirova783@gmail.com

Turg'unboyeva Nozima Raxmatilla qizi

Namangan Davlat Pedagogika Instituti
Maxsus pedagogika logopediya yo'nalishi 1-bosqich talabasi
E-mail: turgunboyevanozima8@gmail.com

**Annotatsiya:** Bu maqola ijtimoiy davlatda har bir inson uchun ijtimoiy tenglik, adolat asosida munosib yashash sharoitlari, insonning qadr-qimmati, yoshlarda ma'naviy-axloqiy va mehnat tarbiyasi, ularning mohiyati va vazifalari ma'naviy-axloqiy tarbiyasi haqida ilmiy tushuncha berish, davlatlar o'rtasida tovarlar, xizmatlar, moliya, investitsiya, ishchi kuchi erkin harakatlanadigan iqtisodiy kenglikni tashkil qilish maqsadi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy davlat, tenglik, inson qadri, integratsiya, estetik tarbiya.

**Аннотация:** В данной статье дано научное понимание социального равенства, достойных условий жизни, основанных на справедливости для каждого человека в социальном государстве, человеческого достоинства, духовно-нравственного воспитания молодежи, их сущности и задач, духовно-нравственного воспитания, блага между государствами, цели. особое внимание уделяется созданию экономического пространства, в котором услуги, финансы, инвестиции и рабочая сила могут свободно перемещаться.

**Ключевые слова:** социальное государство, равенство, человеческие ценности, интеграция, эстетическое воспитание.

**Abstract:** This article provides a scientific understanding of social equality, decent living conditions based on justice for every person in a social state, human dignity, spiritual and moral education of young people, their essence and tasks, spiritual and moral
education, goods between states the goal of creating an economic space in which services, finance, investment, and labor can move freely is highlighted.

**Keywords:** social state, equality, human value, integration, aesthetic education.

**Kirish:**

"Estetik tarbiya" mavzusi, jamiyat va inson qadri integratsiyasida muhim ahamiyatga ega. Estetik tarbiya, insonning estetik his-tuyg'ularini rivojlantirish, go'zallikni anglash va qadrlash, ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan jarayondir. Bu jarayon ijtimoiy, madaniy va individual jihatdan muhim rol o'ynaydi. Umuman olganda, estetik tarbiya ijtimoiy davlatning asoslarini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, inson qadri hamda jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

**Tahlillar va natijalar:**

Ijtimoiy davlat har bir fuqaro uchun ijtimoiy tenglik, adolat, ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish, bandlikni taminlash, yashash

uchun zarur bo‘lgan iste'mol tovarlarining eng kam miqdorini belgilab qo‘yish, xavfsiz mehnat sharoitini yaratishni talab qiladi. Ijtimoiy davlatda insonlarni ish bilan ta`minlash himoya qilish, kambag`alchilikni qisqartirish choralarini ko`radi.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 1-moddasida O‘zbekiston ijtimoiy davlat ekani belgilangan. Shunga muvofiq, 2023-yil 1-iyunda aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish bo‘yicha Prezident Farmoni qabul qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilgan.[1]

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Konstitutsiyamizda "O‘zbekiston-ijtimoiy davalat degan tamoyilni mustahkamlash g‘oyasini ilgari surgan edi.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida bu g‘oya yanada mustahkamlanib, ijtimoiy davlatni batpo etishining ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi.Davlatimiz rahbari bu xususda to‘xtalib "Biz Yangi O‘zbekistonni "ijtimoiy davlat"tamoyili asosida qurishni maqsad qilyapmiz. Buni Konstitutsiyada mustahkamlashimiz kerak" deya ta'kidlagan edi [2]

"Ijtimoiy davlat" bilan "inson qadri" bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Ijtimoiy davlatda inson qadr-qimmati, urf-odatlari,an'analari uluĝlanadi. Inson qadri ulug‘. Inson qadri ulug‘langan yurt albatta mustahkam, doim taraqqiy etadi.Xalqi hamjihatlikda mehr muruvvatda yashaydi.

Davlatimiz rahbari "Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda,biz avvalo,har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini,uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz.Inson qadri deganda,biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni,malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish,sifatli ta'lim,ijtimoiy himoya tizimi,sog‘lomekologik miluhit yaratib berishni tushunamiz" deya ta'kidladi[3]. Integratsiya (lotincha integratia-tiklash,

to`ldirish,integar-butun so`zidan) - bu suveren davlatlar o`rtasida tovarlar, xizmatlar, moliya, investitsiya, ishchi kuchi erkin harakatlanadigan iqtisodiy kenglikni tashkil qilish maqsadida birlashish jarayoni hisoblanadi.

Estetik tarbiya ko‘chada, tanishlar oldida mahallada, oilada muhim ahamiyatga ega. Bu tarbiya orqali insonni, voqeylikni go'zallik orqali idrok etishni, inson amaliy faoliyatining hamma sohalarida go'zallik va nafosat tuyg'ularini, badiy ijodning umumiy qonuniyatlarini o'rganish orqali ularda nozik did, go'zallikni yaratish va anglash, undan zavqlanish his-tuyg'ulari shakllantiriladi.[4] Estetika haqidagi tushuncha, qarash va nazariyalar ma'lum tizim sifatida qadimgi Misr, Bobil (Vavilon), Hindiston, Yunonistonda, Sharq va Osiyo mamlakatlarida paydo bo‘lgan. Juda qadim zamonlardan buyon dunyo donishmandlari, faylasuf va rassomlari badiiy faoliyatning mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlarini bilib olishga intilganlar. Lekin estetik faoliyatning barcha sohalari, san'atning hamma turlariga xos estetik ong va estetik faoliyat qonuniyatlarini umumlashtiruvchi, tartibga soluvchi fan zarur ekanligini ancha keyin.

«Estetika» atamasining tub ma'nosi yunoncha «estezis» so‘zi bilan aloqador bo‘1ib, «sezish», «his qilish qobiliyati» ma nosini bildiradi. «Estetika» so‘zini birinchi bor fanga atama sifatida olmon ma'rifatchisi, faylasufi Aleksandr Baumgarten (1714— 1782) o'zining «Poetik asarning ba'zi bir masalalari to‘g‘risidagi falsafiy mulohazalar» asarida kiritganBugungi kunda estetika turmushimizning barcha sohalariga kirib bordi, desak yanglishmaymiz. Estetika va ishlab chiqarish, texnika estetikasi va dizayn, tabiat estetikasi, mehnat va nafosat, turmush estetikasi tushunchalari shular jumlasidandir. Go‘zallik va xunuklik, ulug‘vorlik va tubanlik, fojiaviylik va kulgililik estetikaning asosiy kategoriyalaridir. San'atning estetik mohiyati, hayot bilan aloqasi, san’at turlarining vujudga kelishi, hozirgi zamon san'atining asosiy turlari va ularning o'zaro aloqalarida estetika o‘z aksini topmoqda. Go‘zallik hamisha insonga, jamiyat taraqqiyotiga ma'naviy foyda keltiradi. Estetik tarbiyada shaxsestetik madaniyati shakllanishining tashqi va ichki omillari uyg‘unligidan, tarbiyaviy

faoliyatning o'ziga xos usullaridan foydalanilgandagina mo‘ljaldagi samaralar va muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.

Estetik tarbiya — o‘quvchining estetik faoliyati orqali amalga oshiriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni, estetik hissiyot, qiziqish, estetik ehtiyoj, estetik did va mulohazalami tarhiyalashini o‘z ichiga oladi.Bular o‘yin, mehnat jarayonida, maishiy faoliyatda, ijtimoiy va tabiat voqealari bilan tanishtirish orqali, san'at asarlari (badiiy tarbiya) vositasida estetik tarbiya berishdan iborat.

Estetik tarbiyaning asosiy vositalari quyidagilardir:

— badiiy adabiyot, tabiat, mehnat

— insonlarni o‘rab turgan muhit, turmush estetikasi;

— tabiat manzaralaridan olingan taassurotlar;

— san'at asarlari;

— o'quvchilarning tasviriy faoliyatlari;

— bayramlar, ko‘ngilochar tadbirlar, urf-odatlar, an’analar;

— ma'lum maqsadga qaratilgan va rejali ravishda amalga oshiriladigan tadbirlar.

Bunday ta'lim-tarbiya va go‘zallik muhiti insonlarning har tomonlama kamol topishiga, estetik didlarining tarbiyalanishiga yordam beradi.Estetik tarbiyaning asosiy maqsadi — jamiyat a'zolarining har tomonlama mukammal rivojlanishlari uchun go'zallikni to‘laqonli his etishga ko'maklashishdan iboratdir zamonlardan buyon dunyo donishmandlari, faylasuf va rassomlari badiiy faoliyatning mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlarini bilib olishga intilganlar. Lekin estetik faoliyatning barcha sohalari, san'atning hamma turlariga xos estetik ong va estetik faoliyat qonuniyatlarini umumlashtiruvchi, tartibga soluvchi fan zarur ekanligini ancha keyin tushunganlar.[5]

## Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir inson ijtimoiy davlatda yashar ekan o`z erkinligi qadr- qimmati,huquq burchlari,urf-odat an`analariga amal qilgan holda yashaydilar. Yuqoridagi gaplardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki

yuksalib borayotgan siyosiy davlatda yashar ekanmiz unga munosib yoshlarni tarbiyalashga o`z hissamizni qo`shish burchimiz ekanini unutmaslik lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


6. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O`zbekiston xalqiga murojaatnomasi.-Toshkent:"O`zbekiston" NMIU,2022. – B. 9
7. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O`zbekiston xalqiga murojaatnomasi. - Toshkent:"O`zbekiston" NMIU,2022.- B. 10
8. Yangi O`zbekiston sayti. https://yuz.uz
9. Islom Karimov "Yuksak Manaviyat yengilmas kuch" - "Manaviyat-marifat va huquq" E.Umarov.R.Karimov, M.Mirsaidova,G. Oyxo`jayeva
10. Estetika_asoslari. Cho`lpon nomidagi nashriyot Toshkent - 2013


## O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA TARBIYA KLASTERLARINI YARATISH ISTIQBOLLARI MUAMMO VA YECHIMLAR

Tursunboyeva Shirin Farhodjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti magistranti
mijoza310699@gmail.comb

**Annotatsiya:** O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ta'lim va tarbiya tizimining yangilanishi muhim ahamiyatga ega. Tarbiya klasterlari — bu ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari va ishlab chiqarish sektori o'rtasida hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan tizimlar bo'lib, ularning yaratilishi ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

**Kalit so'zlar:** Tarbiya klasterlari, Ta'lim tizimi,Innovatsiyalar,Hamkorlik**,** Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish.

So‘nggi yillarda mamlakatda ta’lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog‘cha tarbiyalanuvchilari, o‘quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ta’lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o‘rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta’limning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, milliy ta’lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma’rifat egalari, jismoniy va ma’naviy sog‘lom insonlar etib tarbiyalash, ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

Mamlakatimiz ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o‘qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo‘lgan hurmat-e’tiborni yanada oshirish, o‘quvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, tizimda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida:

1. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g‘oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta’lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun ularda zarur ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish;

dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o‘quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish;

ta’lim-tarbiya muassasalarining rahbar xodimlari, pedagog va murabbiylari, professor-o‘qituvchilari va ilm-fan sohalari vakillarining jamiyatimizdagi o‘rni va

maqomini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rag‘batlantirish;

pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida takomillashtirib borish;

ilmiy-tadqiqot va ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha xususiy sektorning salmog‘ini kengaytirish, hududlarda nodavlat ta’lim tashkilotlarini tashkil etish orqali raqobat muhitini shakllantirish, ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan xolda ta’limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta’limni yanada rivojlantirish, ta’lim oluvchilar o‘rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish;

ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish;

ta’lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish, respublika ta’lim tashkilotlarini nufuzli xalqaro reytinglarga kiritish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

- Ta'lim tizimidagi uzviylik: Ta'lim muassasalari o'rtasidagi uzviylik va hamkorlikning yetishmasligi.
- Resurslarning cheklanganligi: Innovatsion resurslar va moliyaviy yordamning yetarli emasligi.
- O'qituvchilar malakasi: O'qituvchilarning yangilangan metodologiyalarni qo'llashdagi tajribasining pastligi.
- Ijtimoiy talablar: Jamiyatning ta'limga bo'lgan ehtiyojlari va talablarining o'zgarishi.

1. Hamkorlikni kuchaytirish: Ta'lim muassasalari, sanoat va ilmiy-tadqiqot markazlari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish.

2. Moliya va resurslarni jalb qilish: Xususiy sektor va xalqaro tashkilotlardan moliyaviy yordam olish.

3. O'qituvchilarni tayyorlash: O'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

4. Innovatsion dasturlar: Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish.

Tarbiya klasterlari yaratish jarayoni murakkab va ko'p qirralidir. Bunda har bir ta'lim muassasasining o'ziga xosligi va ehtiyojlarini inobatga olish zarur. Yana bir muhim jihat — jamiyatda ta'limga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishdir.

Tarbiya klasterlari orqali ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shish mumkin. Biroq, bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ko'p tomonlama yondashuv va resurslarni jalb qilish zarur.

**Xulosa:**

O'zbekistonda tarbiya klasterlarini yaratish istiqbollari ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Muammolarni hal qilish uchun hamkorlik, innovatsiyalar va resurslarni jalb qilish zarur. Kelajakda bu tizimlar mamlakat taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Umarova, G., & Toshpo'latov, A. (2024). Klaster tanqidiy fikrlash texnologiyasi texnikasi sifatida. Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(10), 49–55. Извлечено от.https://inacademy.uz/index.php/cajmrms/article/view/33393 https://t.me/innovatsion_akademic

2. Umarova, G. (2024). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING O'QISHGA BO'LGAN KLASTERLI YONDASHUVI. B

CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH (Т. 2, Выпуск 6, сс. 116–122). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.11542450 https://t.me/innovatsion_akademic

3. Toshpo’latov, A. (2023). SHAXS PSIXODIAGNOSTIKASIDA PROYEKTIV METODIKALARDAN FOYDALANISH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(5 Part 2), 170–178. извлечено от https://inacademy.uz/index.php/ejsspc/article/view/16154 DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.8001510

4. https://lex.uz/docs/-5085999

## IJTIMOIY MUAMMOLAR VA INSON TARBIYASI: ZAMONAVIY DUNYODA BOLALARNING TARBIYASI

**Kenjayev Burgutali Qovuljon o‘g‘li**
Namangan davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlarni kafedrasi o‘qituvchisi **Uraimjonova Zilola Ikromjon qizi** Namangan davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika logopediya yo‘nalishi 1-kurs talabasi

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada ijtimoiy muammolarni hal etish bo‘yicha hukumat rejalari haqida ma’lumot beriladi va shuning bilan birga zamonaviy dunyoda bolaning shaxsiyatini rivojlantirish nazarda tutilgan. Zamonaviy dunyoda bolaning tarbiyasi, shaxsiy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali atrof-muhitning salbiy ta’sirini bartaraf etish yo‘llari taklif qilingan.

**Annotation:** This article provides information about the government's plans to solve social problems and, therefore, the development of the child's personality in the modern world. Ways to eliminate the negative effects of the environment by

creating favorable conditions for the upbringing and personal development of the child in the modern world have been proposed.

**Аннотации:** В данной статье представлена информация о планах правительства по решению социальных проблем и, следовательно, развитию личности ребенка в современном мире. Предложены пути устранения негативного воздействия окружающей среды путем создания благоприятных условий для воспитания и личностного развития ребенка в современном мире.

**Kalit so‘zlar**: Tarbiya, tarbiya jarayoni, tarbiyaning umumiy vazifasi, tarbiya turlari.

**Ключевые слова:** Образование, образовательный процесс, общая задача образования, виды образования.

**Key words:** Education, education process, general task of education, types of education

Tarbiya-muayyan, aniq maqsadga va har tomonlama ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni tarbiyalash uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogic jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan hissiyotlarga ega bo‘lishini ta'minlash yo‘lida ko‘riladigan chora-tadbirlar yig‘indisi. Demakki, insonning shaxs bo‘lib rivojlanishi, uning odatlari, xulqi qay darajada bo‘lishi, dunyoqarashi, ongi his-tuyg‘ularini shakllantirish tarbiya jarayonida hosil bo‘ladi. Shaxsning jamiyatdagi o‘rnini topishi, his-tuyg'u, kechinmalarini yo‘nalishi, o‘sishi tarbiyaga bog‘liq

Tarbiya jarayoni- o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik jarayoni.

Tarbiya bizdan ko‘p narsalarni talab qiladi. Masalan, oila muqaddasligini chuqur anglash kerak. Avlodlar o‘zgarishi mumkin, yillar bir-biriga o‘xshamasligi mumkin. Ammo yurakdagi mehr-muhabbat hech qachon o‘zgarmaydi. Muhabbat bu- avvalo inson o‘ziga ishonishi, o‘zini hurmat qilish uchun ham jasorat talab

qiladi. Farzandlar o‘zidan o‘zi katta bo‘lib qolmaydi ularga kiyim, oziq-ovqat, uy-joy zarur. Shuningdek, albatta ta’lim olishi uchun sharoit kerak. Afsuski, hozirgi kunda ular uchun qo‘l telefoni zarur deb hisoblashadi. Biroq farzandlar tarbiyasi uchun eng muhimi insoniy samimiyat va ota-onaning e’tibori va mehr-muhabbatidir. Shunaqangi me’yorlar mavjudki ularni o‘zgartirish mumkin emas. Bu insonnig biologik xususiyatlari hisoblanadi. Bizda bolalar tarbiyasi qadar ahamiyat berilmagan bir masala yo‘qdir. Shuning uchun kundan-kun har jihatdan qaror chekmoqdamiz desak xato qilmagan bo‘lamiz. Bolalar tarbiyasi to‘g‘risida buzuqliklar shuncha ko‘pki, qay yeridan boshlamoq kishini o‘ylantiradi. Xoh bolalarning moddiy tarbiyasini olsangiz , xoh ma’naviy tarbiyasini olsangiz — tarbiya qonunlariga muxolif bo‘lgan o‘rinlari ko‘pdir. Biz tarbiyaga ahamiyat bermaganmiz. Holbuki, Payg‘ambarimiz bizga: «Al-ilmu ilmayni; ilmu abdan va ilmu adyan», deb ilmning turlarini aytmoq bilan bizga badan ilmi, ya’ni moddiy tarbiyani ma’naviy tarbiyadan, ya’ni din tarbiyasidan ajratib ko‘rsatganlar. Bizning eski tirikliligimizda badan ilmi birinchi darajani tutar edi. Biz avvaldan askarlikka ahamiyat bergan millatlarning birinchilaridanmiz. Bu tarix kitoblarini mutolaa qilgan har kishiga ma’lumdir. Ta'lim va tarbiya bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Inson ilmli bo‘lishni istasa u eng avvalo tarbiyalanishi kerak.Tarbiyali inson mukammal ilm sohibi bo‘la oladi. Har bir mamlakatning bugungi va ertangi kuni o‘sha yurtdagi maktablarning holatiga, ta'lim-tarbiyaning sifatiga bog‘liq. O‘sib kelayotgan yosh avlodning bilimi va ularning kelajakda qanday inson bo'lishiga qarab, yurtimiz kelajagini tasavvur qilishimiz mumkin. Shuning uchun ham: "Kelajak yoshlarning qo‘lidadir" - deyishadi. Bolaga tarbiya berish avvalo oiladan boshlanadi. Biz oilani "kichik vatan" deb ataymiz. Aynan shu Vatan bola uchun dastlabki tarbiya maktabi bo‘ladi. Qaysidir ma'noda ota-ona farzandining birinchi o'qituvchisi hisoblanadi. Shuning uchun ota-onaning o‘zi ham yuksak axloqiy sifatlarga ega bolmog'i kerak. Bolaga o'zi yaxshi fazilatlar bilan o'rnak bo'la oladigan ota-onaning farzandi kelajakda go'zal xulqli, yuksak ilmli, xalqqa foydasi tegadigan barkamol shaxs bo'ladi. "Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh

yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: "...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi"[1]. Aynan shu vaqt oralig'i ota-onadan katta mas'uliyatni talab etadi. Mana shu vaqtda ota-ona o'z farzandiga ko'proq e'tibor berishi, uning tarbiyasi bilan jiddiy shug'illanishi kerak. Ayna shu davrda bolaga to'g'ri tarbiya bera olish juda muhimdir. Har bir bolada bir daho yashirin. Uning kim bo‘lib voyaga yetishi esa kattalarning munosabati, tarbiyasi mahsulidir[2]. Bola tarbiyasi bu juda katta fidoyilikni talab qiladigan mashaqqatli ish hisoblanadFarzandga yaxshi tarbiya berish ota-onaning asosiy mas’uliyatli vazifalaridan biridir. Bu borada ular har qadamda mas’uliyat bilan yondashmog‘i lozim. Kelajakdagi yo‘li ravon bo‘lishini istagan har bir ota-onalar sarflaydigan vaqtini va harakatini ertaning buyuk insonlari bo‘lgan farzandlarini ulg‘aytirish uchun sarflashlari lozim. Farzand kamoloti uchun sarflangan har bir daqiqa ertangi farovon hayot uchun tamal toshi bo‘ladi desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Agar ota-ona vaqtida farzandiga e’tibor qaratmasa, uning kelajagi uchun qayg‘urmasa, keyinchalik afsus – nadomat bilan yashashi muqarrar. Bu kelajakda muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin[3]. O‘sha vaqtda esa muammolarni hal qilishga kech bo‘lishi mumkin. Shunday ekan, farzandining taqdiri uchun e’tiborli bo‘lib, uning xulqi, tarbiyasiga va ilm olishiga befarq bo‘lmaslik lozim.

Xalqimizda “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan naql bejizga aytilmagan. Har bir ota-ona o‘z farzandi uchun ko‘zgudir. Ularning muomala va munosabati, o‘zini tutishi farzandiga bo‘lgan e’tibori alohida ahamiyatga ega. Buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy farzand tarbiyasi xususida shunday deydi: “Yosh bolaga nisbatan eng zarur ish bilki, uni kichkinaligidan parvarish qilishdir. Qatrani sadaf tarbiya qilgani uchun odamlarning boshiga chiqib sharaf topdi. Tarbiyaning yana biri bo’laga ilm-u adab o‘rgatish uchun muallim chaqirishdir.

O‘g‘ling bilimsizligicha qolib ketsa, ajab kamchilik bo‘ladi[4]. Unga sening shafqat qilishing foydalidir, lekin buning ortiqchasi zarardir”. Bu fikrlar orqali qattiqqo‘llik va shafqatning me’yorda bo‘lishini bilish mumkin. Mirzo Ulug‘bekning oila muhitini yaxshilash, sog‘lom tarbiya berish haqida quyidagi qarashlari mavjud. Bolaning bilim olishiga bo‘lgan qiziqish, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit, ya’ni oila muhim o‘rin egallaydi. Oilada ota-onalar bilimli bo‘lishini, tarbiya berishda ota-onaning o‘zi o‘rnak va hayotiy misol bo‘lishiga farzandi guvoh bo‘lishi eng ko‘p samara berishi ta’kidlangan. Bola tarbiyasida ota-onaning bir-biriga munosabati muhim sanaladi. Farzandning tarbiyasini faqat onaga tashlab qo‘yish to‘g‘ri emas. Bu borada otaning ham o‘rni beqiyosdir. Hayotda og‘il ko‘proq otaga qarab ergashadi. Otaning samimiyligi, hurmati va yaxshiligi farzandga kuch-quvvat bo‘ladi. Oilaning asosiy tirgagi bo‘lgan ota hayotning mashaqqatlarini kechib, o‘zining bukulmas irodasi, adolatparvarligi, hayot sinovlariga bardoshliligi bilan ajralib turuvchi buyuk shaxs sifatida gavdalanadi. Ota oilada o‘z farzandlariga yurish-turishda, nutq odobida, o‘zaro muomala madaniyatida to‘g‘rilik, halollik, samimiylik yuzasidan namuna bo‘la oladi[5]. Oilada samimiylik, bir-biriga bo‘lgan mehr va hurmat yuqori bo‘lsa, farzandning o‘sib ulg‘ayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bola tarbiyasida ota-onaning bir-biriga munosabati muhim sanaladi.

**Xulosa** qilib aytganda Hayotda zimmamizda farzand tarbiyasidan muhimroq vazifa yo‘q. Farzandni dunyoga keltirish mashaqqatini his qilmaydigan ona bo‘lmasa kerak. Shunday ekan, jonimizni garovga qo‘yib erishgan Yaratgan in'omi – farzandlarimiz tarbiyasida e'tiborliroq bo‘laylik. Zero, bizdan talab qilinadigani – go‘zal axloq, ulkan sabr, foydali ilm va albatta xushmuomalalikdir!

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Al-jome' as-sahih" asari. Ilm o'rganmoq va ilm o'rgatmoqning fazilati to'g'risidagi hadis.

2. Karamatova D.S. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar orqali o'quvchilarni ijodiy faoliyatga yo'naltirish metodlari // Central Asian Research Journal For

Interdisciplinary Studies (CARJIS) ISSN: 2181-2484, Volume 1. ISSUE 2 2021. 4-9 b.

3. Karamatova D.S., Safarbayeva R.N., Murodova M.M. Bo'lajak pedagoglarning integrativ yondashuv asosida ekologik madaniyatini shakllantirish // "Образование и наука в XXI веке" Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022. - B.950-955.

4. Karamatova D.S., Tolliyeva G.R., Qilichova M.J. O'quvchilarda ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida// "Образование и наука в XXI веке" Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022. - B.956-962.

5. Karamatova D.S. Kichik maktab yoshidagi bolalarda tabiatga,jamiyatga va o'z-o'ziga nisbatan munosabatlarni tizimli rivojlantirish / International Scientific and Practical conference "Topical Issues of Science" Xalqaro konferensiyasi. - USA: NEW York university

## MUXTOR TURKISTON DASTLABKI DAVLATCHILIK TIMSOLI

Sevara Botirova Mamurovna
Namangan davlat pedagogika instituti Gumanirat fanlar kafedrasi mudiri
Valijonova Dilbarxon Muhiddin qizi
Namangan davlat pedagogika instituti Maxsus pedadogika:logopediya yo`nalishi 1-bosqich talabasi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Turkiston muxtoriyating tashkil topishi, unda ish yuritgan shaxslar, ijtimoiy holati va davlat boshqaruvi haqida malumotlar beriladi.

**Kalit so`zlar:** Turkiston muxtoriyati,qurultoy, syezd, hokimiyat,Muvaqqat Kengashi.

**Abstract:** This article provides information about the establishment of the Turkestan Autonomous Region, the people who worked in it, its social status and state administration.

**Key words:** Autonomy of Turkestan, congress, congress, authority, Provisional Council.

1917-yil 26-28-noyabr kunlari Qo'qon shahrida Butunturkiston o'lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo'lib o'tdi. Turkistonning boshqarish shakli to'g'risidagi masala qurultoyning diqqat markazida turdi. Qurultoyda Turkiston Muvaqqat Kengashi a'zolaridan Turkiston muxtoriyati hukumati 8 kishidan iborat qilib tuzildi. Yevropalik aholi vakillari orasidan nomzodlar ko'rsatilishi uchun ularga ham yana 4 o'rin ajratildi. Hukumat tarkibiga Muhammadjon Tinishboyev (Bosh vazir va ichki ishlar vaziri), Islom Shoahmedov (Bosh vazir o'rinbosari), Mustafo Cho'qay (tashqi ishlar vaziri), [1]Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev (harbiy vazir) jamoat arbobi, jadidchilik harakatining yirik vakili, o'zbek matbuotining ilk tashkilotchilaridan biri[1], Hidoyatbek Agayev (yer va suv boyliklari vaziri), Obidjon Maxmudov (oziq-ovqat vaziri), Abdurahmon O'razayev (ichki ishlar vazirining o'rinbosari), Solomon Gersfeld (moliya vaziri) kiritildi. Keyinchalik hukumat tarkibida ayrim o'zgarishlar yuz berdi. M. Tinishboyev Alash o'rda Muxtoriyati faoliyatida qatnashish uchun Orenburgga jo'nab ketgach (1917-yil), Mustafo Cho'qay Bosh vazir lavozimini bajarishga kirishdi. Shoahmedov moliya vaziri (S. Gersfeld o'rniga), Potelyaxov oziq-ovqat vaziri (O. Mahmudov o'rniga), O. Mahmudov adliya vaziri, Nosirxon To'ra maorif vaziri, Saidnosir Mirjalilov hukumat xazinachisi lavozimlarini egallashdi. Savodsiz bolshevik komissarlardan farqli ravishda hukumat a'zolari chuqur ma'lumotli taraqqiyparvar ziyolilar bo'lib, ulardan 5 nafari huquqshunos edi. . Qurultoy jarayonida 32 kishidan iborat Millat Majlisi saylandi. O'lkaning barcha mintaqalari va ko'pgina jamoat tashkilotlaridan 200 dan ortiq vakil ishtirok etdi. 28-noyabrda

tashkil topayotgan davlatning nomi aniqlanib „Turkiston muxtoriyati“ deb ataladigan bo‘ldi. Butunrossiya Ta’sis s’yezdi chaqirilgunga qadar hokimiyat to‘la ravishda Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Xalq (Milliy) Majlisi qo‘lida bo‘lishi haqida qaror qabul qilindi. Muvaqqat kengash a’zolaridan 12 kishilik hukumat tuziladigan bo‘ldi. [2]Qurultoy jarayonida Turkiston Milliy Majlisi 54 kishidan iborat qilib saylandi. Turkiston Muxtoriyati va Turkiston Xalq Majlisi delegatlar tomonidan saylandi.Saylov ochiq va teng imkoniyatlar asosida amalga oshirildi.[2] Turkiston Millat Majlisi tomonidan tasdiqlangan qonunlar tez orada e’lon qilindi, shuningdek, yangi hukumat mamlakat Konstitutsiyasini tayyorlash uchun taniqli huquqshunoslarni jalb qildi. 1917-yil 26-dekabrda Turkiston muxtoriyatining Milliy bayrog‘i qabul qilindi. „El bayrog‘i“, „Birlik tug‘i“, „Svobodno‘y Turkestan“, „Izvestiya Vremennogo Pravitelstva Avtonomnogo Turkestana“ kabi hukumat gazetalari o‘zbek, qozoq, rus tillarida nashr qilina boshlandi. Avval chiqayotgan „Ulug‘ Turkiston“ va „Hurriyat“ gazetalari ham o‘z sahifalarida muxtoriyat hukumati faoliyatiga alohida o‘rin ajrata boshladi. Nashr ishlarini yaxshilash uchun O. Mahmudovning bosmaxonasi hukumat ixtiyoriga o‘tdi. Turkiston muxtoriyati milliy qo‘shinni tashkil qilishga kirishdi. 1918-yil boshida ularning soni 2000 askarga yetdi. Bundan tashqari Qo‘qonda taxminan shuncha mirshablar bor edi. Hukumat iqtisodiy sohada 30 mln. so‘m miqdorida ichki zayom chiqarishni yo‘lga qo‘ydi. Shuningdek, hukumat a’zolari ochlik changalida qolgan Turkiston aholisiga Orenburg orqali g‘alla keltirish muammosini hal qilish uchun amaliy qadamlar tashlagan. Turkiston muxtoriyati hukumati qisqa muddat ichida xalq o‘rtasida katta e’tibor qozondi. Yangi hukumat faoliyati butun Turkiston mintaqasida yashayotgan tub yerli xalqlar tomonidan qo‘llab-quvatladi.Turkiston Muxtoriyati hukumati qisqa muddat ichida xalq o‘rtasida katta e'tibor qozondi.Fitrat,Cho‘lpon,Hamza singari o‘zbek xalqining otashin shoirlari muxtoriyat hukumatini aqlab, o‘tli she'rlar bitishdi.

[3]Ellik yildan beri ezildik,
tahqir etildik, qo‘limiz bog‘landi,

tilimiz kesildi, og‘zimiz qopondi,

yerimiz bosildi, molimiz talandi,

sharafimiz yumuruldi, nomusimiz

g‘asb qilindi, huquqimizg‘a tajovuzlar bo‘ldi, insonligimiz oyog‘lar

ostig‘a olindi, to‘zimli turdik, sabr

etdik. Kuchga tayangan har buyrug‘ga bo‘yunsundik, butun borlig‘imizni qo‘ldan berdik. Yolg‘iz

bir fikrni bermadik, yashunturdik,

imonlarimizga avrab saqladik:

Turkiston muxtoriyati! [3]

General-gubernatorlik devoni katta vakolatlarga ega bo‘lgan asosiy ijrochi organ hisoblangan. Turkiston o‘lkasi ma’muriy-hududiy jihatdan viloyatlarga bo‘linib, ularni o‘z qo‘lida fuqarolik va harbiy hokimiyatni birlashtirgan harbiy gubernatorlar boshqargan.Viloyatlar uyezdlarga bo‘linib, ular harbiy zobitlar boshqaruvida bo‘lgan. Uyezdlar uchaskalarga, volostlarga, qishloq va ovullarga bo‘lingan. Uchastkalarni uchastka pristavlari boshqargan. Yuqori organlar nazoratida bo‘lgan mahalliy aholi vakillaridan iborat quyi bosh qaruv organlari va soliq tizimi saqlab qo-lingan.Boshqaruv tizimining quyi bosqichida volost boshlig‘i (mingboshi), qishloq oqsoqoli, ovul boshlig‘i, xalq sudyalari (o‘troq aholida qozilar, ko‘chmanchi aholida biylar) va ularning yordamchilari, bosh mirob, mirob, yuzboshi, ellikbo shi, o‘nboshi kabi lavozimlarda mahalliy aholi vakillari ish olib borgan.Qozilar majlisi 1867-yildagi «Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizom» loyihasi asosida o‘troq aholi bir bosqichli tizim shaklida, ya’ni oqsoqolliklarga, chorvador aholi esa ikki bosqichli tizim ko‘rinishidagi volost va ovullarga birlashtirilgan. Har bir oqsoqollik 100–200 xonadon, ovul 100–200 o‘tov, har bir volost esa 1000–2000 o‘tovdan iborat holda tashkil qilinishi belgilangan.

O‘lka bolsheviklari Turkiston muxtoriyati hukumatiga katta xavf deb qaradilar.Turkiston o‘lkasi ishchi, soldat va krestyan deputatlarining favqulodda 4-

s’yezdi (Toshkent shahri, 1918-yil 19—26 yanvar)da muxtoriyatga munosabat masalasi asosiy o‘rinda turdi. S’yezd Turkiston muxtoriyati hukumati va uning a’zolarini qonundan tashqari holda deb hisoblab, hatto vazirlarni qamoqqa olish haqida qaror qabul qildi. 1918-yil 30-yanvarda Turkiston o‘lkasi XKS Turkiston muxtoriyatini tugatish uchun harbiy harakatlarni boshladi. Toshkentdagi bolsheviklar buning uchun qizil gvardiyachilar otryadlari va arman dashnoqlari drujinalaridan (qarang Dashnaksutyun) keng foydalandi. Milliy matbuotning yozishicha, 31-yanvar (yangi hisob bilan 13-fevral)da janglar boshlandi. Turkiston o‘lkasi XKS 1918-yil 14-fevralda (yangi hisob bilan) Farg‘ona viloyatida harbiy holat e’lon qildi.

**Xulosalar:**

Muxtoriyat zamonida amalga oshirilgan islohotlar va ijtimoiy o‘zgarishlar, Turkiston hududida sulhni saqlash va xalqaro maydonda mustaqil pozitsiyani belgilashga qaratilgan edi. Bu jarayonlar orqali Turkiston xalqi o‘z madaniyatini va o‘zligini saqlashga intildi, bu esa hunar va ma’rifat sohalarida yangi imkoniyatlarni yaratdi.Turkiston Muxtoriyati, dastlabki davlatchilik timsoli sifatida, milliy birlashishni, erkinlik va o‘z-o‘zini belgilash intilishlarini rasmiylashtirishga qaratilgan katta bir tarixiy qadam bo‘ldi. Ushbu davr, Turkiston xalqining o‘zligiga bo‘lgan intilishi va tarixiy merosini saqlashga bo‘lgan hurmatini o‘zida aks ettiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.O‘zME.Birinchi jild.Toshkent.2000-yil

2.Shosh.uz - Turkiston Muxtoriyati {{citation}}: ; Unknown parameter |link= ignored

3.Fitrat."Hurriyat"1917-yil.

4https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Turkiston_muxtoriyati

## INSON HUQUQLARINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Valiyev Elyorbek Saidaxror o’g’li

Andijon davlat pedagogika insituti II-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola inson huquqlari avvalam bor O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlanganligini Konstitutsiyamizning bosh yo'nalishi insonni va uning hayotini ulug'lash ekanligini inson va uning hayoti eriknligi sha'ni qadr-qimmati hamda boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishini yoritishga bag'ishlanadi.

**Kalit so'zlar**: Demokratiya, Konstitutsiya, qadr-qimmat, erkinlik, huquq, burch, qonun, jamiyat.

**Kirish:**

Butun jahonda Inson huquqlari va erkinliklari tizimi o‘z yaralish ibtidosi va rivojlanish mantiqiga ega. Adabiyotlarda „inson huquqlarining uch avlod“ bosqichi haqida ko‘rsatilgan.

1 Ular quyidagilardan iborat.Inson huquqlarining „birinchi avlodi“ – fuqarolik va siyosiy huquqlar hisoblanadi.

2 Inson huquqlarining „ikkinchi avlodi“ – bir qator obyektiv va subyektiv omillar ta’siri ostida shakllandi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida sanoati rivojlangan ko‘pgina mamlakatlarda iqtisodiyot sohasida sezilarli siljishlar ro‘y berdi.

3 Inson huquqlarining „uchinchi avlodi“ – „hamjihatlik huquqlari“ deb atalib, ular davlatlardan ustun turuvchi va kollektiv xarakterga ega.

**Tadqiqot metodologiyasi:** Maqolani yozish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillardan foydalanildi.

**Muhokama.**

Umumiy e’tirof etilgan qoidaga ko‘ra bu huquqlar: tinchlikka bo‘lgan huquq, bexavotir tabiiy atrof muhitga bo‘lgan huquq, insoniyatning iqtisodiy va madaniy merosidan foydalanish huquqi va boshqalar.

Insonning o‘z erkinliklari, huquqlari va manfaatlari uchun davom etgan uzoq kurashi umuminsoniy ahamiyat darajasiga ko‘tarilgan quyidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda o‘zining moddiy ifodasini topgan:

Erkinlikning buyuk xartiyasi (1215-yil);

Huquq to‘g‘risidagi petitsiya (1628-yil)

Huquqlar to‘g‘risidagi bill (1689-yil);merika Virginiyasi huquqlari Deklaratsiyasi (1776-yil);

Amerika Qo‘shma Shtatlarining mustaqillik Deklaratsiyasi (1776-yil);

Fransuz inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi (1789-yil);

Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (1948-yil);

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida xalqaro Pakt (1996-yil) va boshqalar.

**O’zbegistonda:** O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, jumladan, shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy huquklari, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari belgilab berilgan (18-52-moddalar). O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar (18-modda). Jumladan, yashash huquqi – har bir insonning uzviy huquqi. Inson hayotiga suiqasd qilish – eng og‘ir jinoyat hisoblanadi (24-modda). Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi; qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas (25-26-moddalar). Har kim o‘z sha’ni va obro‘siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joyi daxlsizligi huquqiga; fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi xuquqiga ega (27-29-moddalar). Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi

dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi (31-modda).

Eymon Gilmor.;Yevropa Ittifoqining inson huquqlari bo‘yicha maxsus vakili sifatida doimiy ravishda turli mamlakatlarga xizmat safarlarini uyushtirib turaman va O‘zbekistonga tashrif ham ushbu dasturning bir qismidir. Lekin Markaziy Osiyo mamlakatlariga birinchi marta tashrif buyurishim emas, Qozog‘iston va Qirg‘izistonda bo‘lganman, shu haftaning oxirida esa Turkmanistonga boraman deb aytdi.O‘zbekistonga tashrifim doirasida fuqarolik jamiyati tashkilotlari vakillari, prezident Shavkat Mirziyoyev, tashqi ishlar, adliya, ichki ishlar vazirlari, bosh prokuror, ombudsman, Senat va Qonunchilik palatasi rahbarlari bilan uchrashuvlar o‘tkazildi,bu yerdagi inson huquqini himoyalash Dasturlari anchagina takomillashgan .Hamma insonlarning bir yoqadan Bosh chiqarib harakat qilishi insonlarni tabaqalanmasligi menga yoqdi Deb aytib o’tdi.

**Xulosa:**

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, davlatimizning Inson huquqlarini himoya qilish yuzasidan Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilgan normalarni hayotga izchil tadbiq etish yo'lida olib borayotgan siyosati insonga va uning huquqlarini ta'minlashga qaratilgan. Biror bir insonning huquqi sud organining asoslantirilgan qaroridan tashqari hech bir organ yoki mansabdor shaxs tomonidan cheklanishi mumkin emas.

## Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent-"O'zbekiston"-2021.

2. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi. "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya va uning fakultativ protokollari". Toshkent-2009, 7-b

3.B.L.Nazarov.[1995]

# MA’NAVIY YETUK SHAXSNI TARBIYALASHDA YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING O'RNI

**Zokirjanov Nematjon Ziyoviddin o'g'li**

Namangan davlat pedagogika instituti magistiranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasining ma'naviy yetuk shaxslarni tarbiyalashdagi ahamiyati ko'rib chiqilgan. Unda strategiyaning milliy qadriyatlarni zamonaviy ta'lim paradigmalari bilan birlashtirgan axloqiy va axloqiy tarbiyaga qo'shgan hissasi ko'rib chiqiladi. Maqolada O'zbekistonning ijtimoiy-madaniy doirasi doirasida ma'naviy yetuklikni tahlil qiluvchi adabiyotlar ko'rib chiqiladi, ta'lim islohotlarini baholash usullari, shaxsiy va milliy rivojlanishning potentsial natijalari muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi, ma'naviy yetuklik, ta'lim, axloqiy taraqqiyot, milliy qadriyatlar, ta'lim islohoti, shaxsiy o'sish.

**Abstract.**This article examines the importance of Uzbekistan's new development strategy in educating spiritually mature individuals. It examines the strategy's contribution to moral and ethical education that integrates national values with modern educational paradigms. The article examines the literature analyzing spiritual maturity within the socio-cultural framework of Uzbekistan, discusses the methods of evaluating educational reforms, and the potential results of personal and national development.

**Key words:** New Uzbekistan development strategy, spiritual maturity, education, moral development, national values, educational reform, personal growth.

**Аннотация** В данной статье рассматривается значение новой стратегии развития Узбекистана в воспитании духовно зрелых личностей. В нем рассматривается вклад стратегии в морально-этическое воспитание, которое объединяет национальные ценности с современными образовательными парадигмами. В статье рассматривается литература, анализирующая духовную зрелость в социокультурных рамках Узбекистана, обсуждаются методы оценки образовательных реформ, потенциальные результаты личностного и национального развития.

**Ключевые слова:** Новая стратегия развития Узбекистана, духовная зрелость, образование, нравственное развитие, национальные ценности, образовательная реформа, личностный рост.

Ma’lumki, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jamiyatning ma’naviy axloqiy rivojlanishiga bog’liq. Ma’naviyat, eng avvalo ajdodlardan saqlanib qolgan bebaho moddiy-ma’naviy qadriyatlar, urf-odatlar majmuasi, diniy-ma’rifiy merosdir. Ma’naviy jarayonlar taraqqiy etmagan jamiyat esa, tabiiyki tanazzulga mahkumdir. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub sifat o’zgarishlarining amalga oshirilayotganligi bilan xarakterlanadi. Tabiiyki, ushbu mas’uliyatli vazifani hal etish xalqimiz, xususan yosh avlodning ma’naviy-ijodiy faolligini oshirib borish va ma’nan yetuk, axloqan barkamol qatlamni kamol toptirish bilan chambarchas bog’liqdir.

Ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalash zamonaviy, ilg'or jamiyat rivojlanishining ajralmas qismidir. 2022 yilda joriy etilgan O'zbekistonning yangi rivojlanish strategiyasida bilim olishni axloqiy va axloqiy qadriyatlarni tarbiyalash bilan birlashtiradigan yaxlit ta'lim tizimini yaratishga alohida e'tibor qaratilgan. Strategiya ma'naviy etuklik shaxsiy va milliy rivojlanishning asosi degan g'oyaga asoslanadi. Ta'lim siyosatini O'zbekistonning madaniy merosi va qadriyatlariga moslashtirish orqali strategiya nafaqat bilimdon, balki ma'naviy mas'uliyatli va ijtimoiy ongli shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan.

Ushbu maqolada biz O'zbekistonning yangi rivojlanish strategiyasi ma'naviy yetuk shaxslarni tarbiyalashga qanday hissa qo'shayotganini o'rganamiz. Biz strategiyaning asosiy tarkibiy qismlarini, amalga oshirish usullarini va uning shaxs va jamiyat o'sishiga kutilayotgan ta'sirini tahlil qilamiz.

Yangi O‘zbekistonda mutlaqo yangi milliy huquqiy tizim shakllanmoqda. Ya’ni, “Inson, uning huquqlari, erkinliklari, ayniqsa, qadri – eng muhim qadriyat” degan tamoyil e’tirof etilmoqda. Eng asosiysi: Yangi O‘zbekiston taraqqiyot

strategiyasida yillar davomida amal qilib kelgan “davlat – jamiyat – inson” tamoyili “inson – jamiyat – davlat” tamoyiliga o‘zgartirilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoev taqdim etgan Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasida belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlar va eng muhim vazifalarning atroflicha tahlili shundan dalolat beradi.

Avvalambor, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”, degan nomning mazmun-mohiyatiga muxtasar to‘xtalamiz. Zero, bu nomning kelib chiqishi, fikrimizcha, bir qator muhim omillarga borib taqaladi.

Birinchi omil: ushbu nom Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi – Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi ekanini anglatadi. Agar Harakatlar strategiyasida 5 ta ustuvor yo‘nalish belgilab olingan bo‘lsa, Taraqqiyot strategiyasida ham ushbu ustuvor yo‘nalishlar davomiyligi saqlab qolingan.

Shu bilan bir qatorda, taraqqiyot o‘zgarishlarining yangi tarixiy bosqichda davom ettirilishi ko‘zda tutilgan holda, Taraqqiyot strategiyasiga 2 ta yangi ustuvor yo‘nalish qo‘shilyapti. Bulardan biri – ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchisi – O‘zbekistonning dunyoda yuz berayotgan global muammolarga munosabati negizida belgilangan yangi ustuvor yo‘nalishdir.

Shunday qilib, Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida quyidagi yettita ustuvor yo‘nalish nazarda tutilgan:

birinchi ustuvor yo‘nalish – inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

ikkinchi ustuvor yo‘nalish – mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

uchinchi ustuvor yo‘nalish – milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o‘sish sur’atlarini zamon talablari darajasida ta’minlash;

to‘rtinchi ustuvor yo‘nalish – adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

beshinchi ustuvor yo‘nalish – ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish;

oltinchi ustuvor yo‘nalish – umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish;

yettinchi ustuvor yo‘nalish – mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borish.

Prezidentimizning bevosita tashabbusi bilan Imom Buxoriy xalqaro ilmiytadqiqot markazi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O’zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazlarining tashkil etilganligi yuksak ilmiy, ma’naviy va axloqiy salohiyatga ega bo’lgan ajdodlarimizning bizga qoldirgan boy merosini o’rganish sohasida, yangi ma’naviy makonni yaratishda tayanch muassasalar bo’lib xizmat qilmoqda. Yangi ma’naviy makon “…biz orzu qilayotgan Yangi O’zbekistonning ma’naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma’rifatli jamiyatdir”[5] . Zero, bugungi mafkuraviy tahdidlar avj olgan, ekstremizm, terrorizm, aqidaparastlik, mutaassiblik kabi illatlar xavf solib turgan dunyoda islom dinining sof ma’naviy-axloqiy g’oyalarini yosh avlod ongiga singdirish, yuksak axloqiy fazilatlar bilan yo’g’rilgan mutafakkirlarimizning hikmatlari bilan qurollantirish ushbu ma’naviy makonning kengayishiga, uning mustahkam asosga ega bo’lishiga xizmat qiladi. Jamiyatimizni ma’naviy-axloqiy jihatdan mustahkamlash va taraqqiy ettirishda xalqimizning boy madaniy tarixini chuqur o’zlashtirish, jahon madaniyati tarixida munosib o’rin egallagan allomalarimizning merosini har tomonlama o’rganish katta ahamiyatga egadir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan joriy etilgan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lim, iqtisodiyot va boshqaruv kabi turli sohalarda yaxlit rivojlanish ta'kidlangan. Uning asosiy ustunlaridan biri ma'naviy etuk shaxslarni etishtirish, xususan, ta'lim tizimidagi islohotlar orqali. Strategiya milliy qadriyatlarni, vatanparvarlik tuyg'usini va axloqiy mas'uliyatni ta'lim doirasiga

singdirib, nafaqat intellektual qobiliyatli, balki axloqiy va ma'naviy asoslangan avlodni tarbiyalashga intiladi.

Ta'lim va ma'naviy yetuklikni rivojlantirish strategiyasining asosiy jihatlari:

Axloqiy va axloqiy tarbiya: strategiya axloqiy tarbiyaning akademik yutuqlar bilan bir qatorda muhimligini ta'kidlaydi. Maktablar hurmat, halollik va bag'rikenglik kabi qadriyatlarni o'rgatishga da'vat etiladi. Bu jarayonda talabalarning O'zbekistonning boy tarixi va an'analari bilan bog'lanib qolishlarini ta'minlovchi diniy va madaniy meros muhim o'rin tutadi.

Vatanparvarlik va fuqarolik javobgarligi: ma'naviy yetuk insonni rivojlantirish o'z millatiga nisbatan chuqur mas'uliyatni o'z ichiga oladi. Strategiya vatanparvarlikni targ'ib qilishni targ'ib qiladi o'quv dasturlarini o'zgartirish va darsdan tashqari tadbirlar orqali, millat taraqqiyotidan g'ururlanishni va uning kelajagiga sodiqlikni singdirishga qaratilgan.

Madaniy va ma'naviy merosning integratsiyasi: O'zbekistonning Islomiy qadriyatlar va Markaziy Osiyo an'analariga asoslangan ma'naviy va madaniy merosi yoshlarni axloqiy tarbiyalashning asosi sifatida targ'ib qilinadi. Strategiya ta'lim orqali madaniy o'ziga xoslikni saqlash va targ'ib qilishni qo'llab-quvvatlaydi, talabalarning o'z jamoalariga daxldorlik va mas'uliyat hissi bilan o'sishini ta'minlaydi.

Tanqidiy fikrlash va Global xabardorlik: O'zbekistonning yangi rivojlanish strategiyasida belgilab berilgan ma'naviy etuklik faqat axloqiy qadriyatlardan tashqarida. Shuningdek, u tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va kuchli axloqiy poydevorni saqlab, global muammolar bilan shug'ullanish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Ushbu muvozanat shaxslarni axloqiy kompasini unutmasdan global iqtisodiyot va jamiyatda ishtirok etishga tayyorlaydi.

Oila va jamiyatning roli: strategiya, shuningdek, shaxslarning ma'naviy rivojlanishida oila va jamiyat ta'sirining ahamiyatini ta'kidlaydi. Oilalar maktablar va jamoat tashkilotlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan axloqiy tarbiyaning

asosiy birliklari sifatida qaraladi. Ushbu yaxlit yondashuv maktablarda o'qitiladigan qadriyatlarning kundalik hayotda mustahkamlanishini ta'minlaydi.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi strategiyasi orqali mamlakat ma'naviy yetuk, ijtimoiy mas'uliyatli va mamlakatning barqaror o'sishiga hissa qo'sha oladigan avlodni tarbiyalashga qaratilgan. Axloqiy va ma'naviy rivojlanish vositasi sifatida ta'limga e'tibor, shaxslar intellektual va axloqiy jihatdan har tomonlama rivojlangan kelajakni qurishda muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa:** Bugungi davr voqeliklari, shiddat bilan o’zgarib borayotgan dunyoning ma’naviy-siyosiy qiyofasi mustahkam, ilm-ma’rifat asosiga qurilgan ma’naviy makonni tashkil etish vazifasini kunning dolzarb vazifasiga aylantirmoqda. Buni amaliyotga joriy qilish uchun esa yuksak ma’naviyat, axloq va ilm bilan qurollangan ma’naviyatli avlodga ehtiyoj seziladi. Shu nuqtai nazardan sohani rivojlantirish maqsadida Yangi O’zbekiston strategiyasida belgilab berilgan vazifalarni og’ishmasdan amaliyotga joriy etish, xususan, bir necha ming yillik tarixiy asoslarga egan bo’lgan ma’naviy merosimizni, qadriyatlarimizni o’rganish, o’rgatish, bu borada turli innovatsion, ommabop loyihalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi strategiyasi ma'naviy yetuk shaxslarni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. U milliy qadriyatlarni ta'lim doirasiga birlashtiradi, axloqiy etakchilikni targ'ib qiladi va shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishga yaxlit yondashuvni taklif qiladi. Biroq, o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun o'qituvchilarning qadriyatlarga asoslangan ta'limni amalga oshirish uchun to'g'ri o'qitilishini va o'quv dasturining an'anaviy qadriyatlarni ham, zamonaviy global muammolarni ham aks ettirish uchun doimiy ravishda yangilanib turishini ta'minlash juda muhimdir.

Kelajakda amalga oshirish uchun takliflar:

O'qituvchilar malakasini oshirish: o'qituvchilarni axloqiy va axloqiy tarbiya berishga o'rgatish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilishi kerak.

Monitoring va baholash: strategiyani amalga oshirishni doimiy ravishda baholash uning samaradorligini ta'minlash uchun zarurdir.

Jamoatchilikni xabardor qilish kampaniyalari: ma'naviy etuklikning ahamiyati va uning milliy taraqqiyotdagi o'rni to'g'risida xabardorlikni oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni kuchaytirish kerak.

**Adabiyotlar.**


1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. – Toshkent “O’zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 bet.
2. Umarov E. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2005. – 128 bet.
3. Erkayev A. Ma’naviyat — millat nishoni. – Toshkent, “Ma’naviyat”, 1997. – 166 bet.
4. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent, “O’qituvchi”, 1996. – 227 bet.
5. Saidov, S. (2022). TARIXIY MANBALARDA KELTIRILGAN IBN ALMUQAFFA BORASIDAGI MA’LUMOTLAR TAHLILI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(2), 525-528.
6.


**Формирование патриотических ценностей в воспитании молодежи**

Самостоятельный соискатель: Курганова Р.Н.

E-mail:roza34903@gmail.com

**Аннотация:** В статье рассматривается анализ понимания патриотизма как нравственное, моральное чувство, мощный фактор, позволяющий защитить государственные интересы человека. Патриотические ценности- во все времена играли особую роль не только в духовной жизни социума, но и во всех важных сферах его деятельности: в политике, культуре, экономике, образовании.

**Ключевые слова:** патриотизм, патриотическое воспитание, ценность, культура, традиции, ответственность, защита, духовность, человеколюбие.

**Annotatsiya:**Maqoladavatanparvarliktushunchasiniaxloqiy, axloqiytuyg'u,insonningdavlatmanfaatlarinihimoyaqilishgaimkonberadigankuchliomilsifatidatahlilqilishko'ribchiqiladi. Vatanparvarlikqadriyatlari - hardoimnafaqatjamiyatningma'naviyhayotida,balkiuningfaoliyatiningbarchamuhimsohalarida: siyosat, madaniyat, iqtisodiyot, ta'limdaalohidarolo'ynagan.

**Kalitso'zlar:**vatanparvarlik, vatanparvarliktarbiyasi, qadriyat, madaniyat, urf-odatlar, mas'uliyat, himoya, ma'naviyat, insonparvarlik.

**Annotation:** The article examines the analysis of the understanding of patriotism as a moral, moral feeling, a powerful factor that allows protecting the state interests of a person. Patriotic values have always played a special role not only in the spiritual life of society, but also in all important spheres of its activity: politics, culture, economics, education.

**Keywords:** patriotism, patriotic education, value, culture, traditions, responsibility, protection, spirituality humanity.

Патриотизм, как одно из важнейших социокультурных явлений, играет значительную роль в формировании и развитии общества. Формирование патриотических ценностей среди молодежи становится неотъемлемой частью образовательного процесса, а также задачей государственной и общественной политики в целом. Патриотические ценности способствуют укреплению гражданской идентичности, сплочению общества вокруг общих целей и идеалов, а также формированию ответственного отношения к судьбе своей страны.

В современном Узбекистане вопрос формирования патриотических ценностей среди молодежи занимает особое место в общественной и политической повестке дня. Страна, богатая историей и культурным наследием, осуществляет системную работу по воспитанию нового

поколения граждан, готовых преданно служить своей родине и продолжать её развитие.

Патриотизм в контексте узбекской молодежи охватывает не только гордость за свою страну, но и глубокое уважение к историческим традициям, культурному наследию и ярким достижениям народа,являющейся важной составляющей государственной политики в области образования и социальной работы.

В данной статье мы проследим основные направления работы по формированию патриотических убеждений среди молодежи в Узбекистане, выявим особенности и методы, применяемые в этом процессе, а также обсудим вызовы и перспективы данной работы в контексте современного узбекского общества.

Каждый день мир изменяется, структура патриотического воспитания нуждается в улучшении. События, которые происходят в современном мире, где происходят столкновения угроз и вызовов- все это чутко воспринимает молодое поколение. Именно сейчас и в такое время важно быть патриотом и отстаивать интересы своей страны. На протяжении всей истории нашего государства патриотические чувства и поступки помогали нашему народу пережить любые испытания и трудности. Сегодня перед нашим обществом встает вопрос о том, кто является патриотом и какое значение имеет патриотизм в ценностной структуре современной молодежи. Поэтому патриотизм, формы его проявления становятся предметом исследования ученых из разных областей наук. Некоторые исследователи рассматривают патриотизм с позиции аксиологии, как ценность в системе духовно-нравственных ценностей(С.Г. Ивченков, Е. Г.Сайганова).А в работах А.В. Верещагиной, И.М.Кузнецова[1] патриотизм стабилизирует общественную жизнь в рамках определенного социума. Возникает вопрос, «Что значит быть патриотом? Народ любит и гордиться своей страной, верит и надеется, что все будет хорошо». Идеи, патриотические ценности выступают важным

инструментом в интеграции нашей многонациональной страны. В таких условиях усиливается значение формирования патриотического сознания среди современной молодежи. Чтобы ответить на вопрос «Как воспитывать молодое поколение?»необходимо важную роль в воспитательной работе отводить на развитие патриотического воспитания с детства, в раннем возрасте. Поэтому руководителям образовательных учреждений предъявлены требования по активной организации программ патриотического воспитания на изучение родного языка, истории родного края.

Патриотизм(греч. соотечественник, «родина», «отечество») политический принцип и социальное чувство,осознанная любовь,привязанность к родине, преданность ей и готовность к жертвам ради нее, осознанная любовь к своему народу, его традициям.

Нет единого определения понятия «патриотизм», но можно выявить следующее: во-первых, это любовь, уважительное и этическое отношение к Родине; во-вторых, патриотизм направлен на развитие личности и окружающих его людей; в третьих, стремление защищать и оберегать родину, ставить на первый план интересы страны и общества; в четвертых, привязанность человека к определенному месту жительства или рождения. Патриотическое воспитание – это сложный многосторонний процесс, направленный на формирование и развитие духовных, моральных, нравственных, а главное личностных качеств человека, стремление к гражданскому, культурному совершенствованию [2]. Оно является важным звеном в укреплении межпоколенных взаимосвязей и формирования принципа преемственности. Необходимо, чтобы современное поколение не просто заявляло о том, что оно относит себя к патриотам, но и доказывали данную позицию действием. В чем проявляется это действие? Действовать - это быть небезразличным к проблемам страны и трудиться для ее процветания. И у каждого здесь своя задача, свой путь. Кто-то вносит свой

вклад через защиту нашей страны, кто-то - через воспитание детей в христианских ценностях, кто-то - через помощь другим и благотворительность, а кто-то — через реализацию своих талантов.[3]. Поэтому важно подумать и понять, что я могу сделать прямо сейчас для благополучия своей страны?

Когда мы говорим о методологии формирования патриотических ценностей в воспитании молодежи в Узбекистане, следует учитывать разнообразие подходов и методов, используемых как в образовательной сфере, так и в общественных и культурных инициативах. Вот несколько ключевых методологических аспектов:

1. **Интеграция в образовательный процесс:**образовательные учреждения играют важную роль в формировании патриотических ценностей у молодежи. Методология этого подхода включает интеграцию патриотических тем в учебные программы, проведение праздников, конкурсов и мероприятий, направленных на изучение истории и культуры Узбекистана.

2. **Вовлечение молодежи в общественные и волонтерские инициативы:**патриотические ценности могут быть сформированы через активное участие молодежи в общественной и волонтерской деятельности. Методология этого подхода включает создание платформ для активного участия молодежи в решении социальных и культурных задач, а также поддержку их инициатив в сфере общественной деятельности.

3. **Использование средств массовой информации и культурных мероприятий:** СМИ и культурные институты могут быть эффективным средством формирования патриотических убеждений. Методология этого подхода включает создание позитивного образа страны в средствах массовой информации, организацию культурных мероприятий, фестивалей и выставок, посвященных истории, культуре и достижениям Узбекистана.

4. **Развитие исторического сознания и национальной идентичности:**понимание и уважение к историческим традициям и культурному наследию являются важными составляющими патриотического воспитания. Методология этого подхода включает проведение исторических лекций, экскурсий, организацию музеев и памятников истории и культуры.

Формирование патриотического сознания у молодежи в высших учебных заведениях играет ключевую роль в развитии национальной идентичности, гражданской ответственности и готовности к активному участию в жизни общества. Методология, основанная на интеграции патриотических тем в учебные программы, организации патриотических мероприятий, вовлечении студентов в общественную деятельность, поддержке студенческих инициатив и использовании современных технологий и медиа-ресурсов, является эффективным инструментом для достижения этой цели.

Формирование патриотического сознания у молодежи это сложный и длительный процесс. Этот вопрос в рамках воспитательной работы с молодежью необходимо решать на государственном уровне. Молодое поколение это гарант будущего нашей страны. Развивая ее активную гражданскую позицию формируется гражданское самоопределение личности. Патриотическое сознание формирует определенные ценности установки каждой личности, которая в последствии отражает их в своих действиях.

Формирование патриотических ценностей среди молодежи в высших учебных заведениях играет важную роль в общественном развитии и становлении будущего гражданства. В ходе нашего обсуждения мы рассмотрели разнообразные методологические подходы, которые могут быть применены для достижения этой цели.

Однако важно понимать, что формирование патриотических ценностей - это процесс, который требует постоянного внимания и усилий со стороны

образовательных учреждений, государства, общественных организаций и самой молодежи.[4] Только совместными усилиями мы сможем обеспечить стабильное и процветающее будущее нашей страны.Поэтому важно продолжать работу в этом направлении, поддерживая и развивая патриотические инициативы, создавая условия для активного участия молодежи в жизни общества и обеспечивая доступ к знаниям о истории, культуре и достижениях своей родины.

Только таким образом мы сможем обеспечить стойкое и гармоничное развитие нашей страны и воспитать поколение граждан, готовых с любовью и преданностью служить своей родине.

**Литература**

1. Верещагина А.В. Патриотизм в регионах сообщества: потенциальная этносоциальная консолидация// Сб.тр. Международной научно-практической конференции(Майкоп,23-25мая 2019).

2. Лебедева П.Г. Орлова Л.В.Патриотизм –как активная социальная ценность поколения// Социодинамика 2019- №8 с 53-61.

3. Лисовский В.Т. Духовный мир и ценностные ориентации молодежи России.СПб 2000-с 205.

4. Фролов В.Ф. Проблемы патриотического воспитания личности в современных условиях.- М.ИМ ,1996-с101-107.

# VI-SHO’BA: ESTETIK TARBIYANING GLOBAL MUAMMOLARINI KLASTER TIZIMI ASOSIDA O‘RGANISH OMILLARI

## GLOBALLASHUV VA MA’NAVIY TAHDIDLAR

Tillayev Bobomurod NamDPI katta o’qituvchisi
Abdukarimova Robiya Raxmatullo qizi NamDPI maxsus pedagogika: Logopediya yo’nalisi 1-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolani o’qish davomida Globallashuv va ma’naviy tahdidlar to’g’risida ma’lumotlarga ega bo’lasiz, Ma`naviy tahdidlarning yoshlar tarbiyasiga qiladigan va qilayotgan ta`sir va yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoy qilish omillari to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

**Аннотация:** В процессе чтения этой статьи вы получите информацию о глобализации и духовных угрозах, о влиянии духовных угроз на воспитание молодежи и о факторах, способствующих защите молодежи от духовных угроз.

**Kalit so’zlar:** globallashuv,  aksilglobalizm, institutsionallashuv, ma’naviy tahdid

**Ключевые слова:** глобализация, антик глобализм, институтализация, духовная угроза

Hozirgi paytda globallashuv atamasi barcha ijtimoiy fan sohalari diqqat markazida bo’lmoqda. Unga turli nuqtai nazardan yondashib tariflar berilmoqda, ijtimoiy hayotga va jamiyat taraqqiyotiga tasiri togrisida tadqiqotlar olib borilmoqda.Globallashuv togrisida davlat va jamoat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jusnalistlar turli nuqtai nazardan yondashib, o’z qarashlarini bildirishmoqda. Ularning qarashlari shunchalik turli-tumanki, hatto globallashuvning foydali yoki zararli tomonlariga nisbatan qarama-qarshi tariflar, izohlarni ham uchratish mumkin. Lo’nda qilib aytganda, bugungi davrning bu qadar “tilsim”lariga boyligi globallashuvni zamonaviy mavzuga aylantirdi. XXI asr

boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasida o'zaro ta'sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to'la alohidalanib olgan birorta ham davlat yo'qdir. Hattoki, xalqaro tashkilotlardan uzoqroq turishga intilayotgan mamlakatlar ham globallashuv jarayonlaridan uzoqda emas. Globallashuvning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog'liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir maamlakatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o'rganish lozim.Globallashuv shunday jarayonki, uni chuqur o'rganmaslik undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma'naviyatini tog'dan tushayotgan shiddatli daryo oqimiga qayiqni topshirib qo'yish bilan barobar bo'ladi.

Tahdid – jismoniy zarar ziyon, niyat sabab bir imkon xavf va hokazo. Bu tushuncha har xil yo`llar bilan talqin qilinishi mumkin, lekin mohiyati o`zgarmaydi. Tahdid shaxsiy va jamoat ma`nfaatlariga jismoniy zarar uchun tahdid niyat og`zaki yoki yozma deb hisoblanadi. Juda tez - tez internetda tahdidlarni ko`rish mumkin. "Ma`naviyatga tahdid -o`zligimizga tahdid" degan o`ta chuqur hamda kishini o`yga to`ldiradigan fikrlar ham aslida bugungi kunda yosh avlod tarbiyasiga salbiy ta`sir qilayotgan mana shu kabi illatlarni targ`ib qilishga qaratilayotganligining mohiyatiga xolisona yondashishdan iborat. Bizga ma`lumki, ma`naviyat-inson ongiga ona suti, ota tarbiyasi, yon atrof dagilarning yoshlarga bo`lgan e`tibori bilan singadi.Demak, yosh avlodning ma`naviyatli bo`lishi oiladagi tarbiyaga borib taqalar ekanda degan o`rinli savol tug`iladi. Juda to`g`ri mulohaza. Albatta, qush uyasida ko`rganini qiladi deganlaridek, inson farzandi ham birinchi ma`naviy va ruhiy tarbiyani o`z ota-onasidan o`rganadi va xuddiki, tasvirga olish vositasi kabi o`z ongiga muhrlab boraveradi. Ma`lumki, ma`naviy yetuklikning asosida tarbiya, xulq-odob turibdimi, demak ota-ona o`z farzandini tug`ilganidan boshlaboq tarbiyaning eng asl asosini o`z farzandiga singdirib

borishga va bu tarbiya farzandi ongida qanday ezgulik urug`ini sochayotganligini kuzatib borishga majburdir. Barchamizga ayon bo`lishi kerakki, qayerdaki beparvolik va loqaydlik hukim sursa, eng dolzarb masalalar o`zbilarmonchilikka tashlab qo`yilsa, o`sha yerda ma`naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql – idrok va tafakkur hukumron bo`lsa, o`sha yerda ma`naviyat qudratli kuchga aylanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ma’naviyatga tahdid kelajakka tahdid, demakdir. O‘zbekiston xalqi jahon taraqqiyotiga ulkan ulush qo‘shgan Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Forobiy, buyuk imomlar al-Buxoriy, Moturidiy, at-Termiziy, hazrat Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburlarning avlodidir. Ular va boshqa ulug‘larimizning ma’naviy merosini butun dunyo ahli hayrat bilan o‘rganayotgan bir paytda bizning zamonaviylik, madaniyatlilik niqobi ostida turli yengil-yelpi, ma’naviyatsizlikni targ‘ib etuvchi omillarga berilishimiz kechirilmas holdir. Bunday salbiy illatlarga qarshi immunitetni shakllantirish, ularga qarshi kurashish bugunning dolzarb vazifasi bo‘lmog‘i kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. G’oya va mafkura. Mas’ul muharrir Toshkent-2001 y.
2. Milliy istiqlol g’oyasining amal qilish tamoyillari. Toshkent-2001 y.
3. Bunyodkor g’oya. Toshkent-2001 y.
4. Taraqqiyotning o’zbek modeli. Toshkent-2001 y.
5. Yo’ldosheva Asilaxon ’’MA’NAVIY TAHDIDLARNING YOSHLAR TARBIYASIGA TA’SIRI’’ maqolasi Международный научный журн«Научный Фокус» май, 2023 ал № 1(100), часть 1


## QATAG‘ON OLOVIDA TOBLANGAN NAMANGANLIK VATANDOSHLARIMIZ QISSASI

Abdujabborov Mirzohid Abdug‘affor o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti erkin tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Xalqimizning ko‘p ming yillik tarixida boshidan kechirgan alg‘ov- dalg‘ov, quvg‘in va qatag‘onlarning oxirgisi sho‘rolar zamonida yuz bergan edi. Har galgiday, bu gal ham, birinchi navbatda, millatning peshqadam qatlamlari – ziyolilar va din ulamolari qatag‘on qurboni bo‘ldilar. Xayriyatki yurtimiz davlat mustaqilligiga erishdiyu, u qora kunlar o‘tmishga aylandi. Ularning tashkilotchilari va ijrochilari aniqlandi, qurbonlarning nomi va sha’ni tiklanmoqda.

**Аннотация:** Последние взятки, гонения и репрессии, пережитые нашим народом за многотысячелетнюю историю, пришлись на времена Советов. Как всегда, и на этот раз жертвами репрессий стали ведущие слои нации - интеллектуалы и религиоведы. К счастью, наша страна добилась государственной независимости, и те мрачные времена остались в прошлом. Их организаторы и исполнители установлены, имена и честь погибших восстанавливаются.

**Annotation:** The last of the bribes, persecutions and repressions experienced by our people in the many thousand years of history happened during the time of the Soviets. As always, this time too, the leading layers of the nation - intellectuals and religious scholars - became the victims of repression. Fortunately, our country achieved state independence, and those dark days have become a thing of the past. Their organizers and executors were identified, the names and honor of the victims are being restored.

**Kalit so’zlar:** “Mushtumzo'r”, “qizil askar”, “bosmachilik”, “kollektivlashtirish”, “quloqlashtirish”, “Katta qirg'in”.

**Ключевые слова:** «Мустумзор», «красный солдат», «печать», «коллективизация», «подслушивание», «Расправа».

**Key words:** "Mustumzor", "red soldier", "printing", "collectivization", "eavesdropping", "Massacre".

Buyuk istiqlol sharofati bilan tariximizga, jumladan 130 yildan ziyod davom etgan mustamlakachilik yillaridagi vatan tarixini holisona o`rganish uchun qulay sharoitlar yaratildi, sovetlar davrida taqiqlangan manbalar, turli arxivlarda saqlanayotgan muxim hujjatlardan foydalanish va shu asosda xalqimizning haqqoniy, chin tarixini yaratish imkoniyati tug`ildi. Mavzuning dolzarbligi Prezidentimiz I.A.Karimovning 1996 yil 18 –sentabrdagi O`zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilshi akademiyasi qoshida “O`zbekistonning yangi tarixi markazini tashkil etish to`g`risi”dagi farmoyishi va O`zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 1996-yil 19-dekabrdagi “O`zbekistonning yangi tarixi yaratish to`g`risida”gi qarori muhim dasturul amal ahamiyatga ega bo`ldi. 2000-yilda uch jildlik “O`zbekistonning yangi tarixi” yaratildi. Prezident I.A.Karimovning 1999-yil 12- maydagi farmoyishiga muvofiq O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999- Prezident I.A.Karimovning 1999-yil 12-maydagi farmoyishiga muvofiq O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999- yil 22- iyuldagi “Vatan ozodligi yo`lida qurbon bo`lgan fidoiylar xotirasini abadiylashtirish to`grisida”gi qarori katta ahamiyatga egadir. Qarorda mustamlakachilik davrida qatag`on qilingan yurtdoshlarni nomma –nom aniqlash, shaxid bo`lganlarning nomini abadiy saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish vazifasi qo`yildi. Bu borada yurtimizda ma’lum ijobiy ishlar amalgam oshirilmoqda. “Qatag`on qurbonlari” xotira kitobi yaratilmoqda. Qishloqdagi dehqonlar ommasiga qarshi sotsialistik genotsid qo`llab, sovet rejimi begunoh o`ziga to`q, tadbirkor, mulkdor dehqonlarni, hunarmandlarni, dindorlarni “quloq” qildi, ularning ko`plarini jismonan yo`q qildi. kollektivlashtirish va uning fojeali oqibatlari butun bo`y-basti bilan yangitdan etilmoqda. Bu o`rinda Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek, sovetlar tuzumi, aniqrog`i sovet rejimi “qattol” zamon taqozosi bilan sovetlar davrida biri “qizil askar”, biri “bosmachi ”, biri “quloq”, biri “komissar”, yana biri “mushtumzo'r ” yana qay biri “yo`qsil” deb guruhlarga ajratib tashlandi. Imperialistlar o`z zamonida mazlum millatlarga nisbatan qo`llagan “Bo`lib tashla, hukmronlik qil ”

siyosatni sovetlar ham qo`llab o`zbek millati vakillarini bir-biriga qarshi qayrash, adovat va nizo urug`ini sochishni amalgam oshirdilar. “shu boisdan,- deb ko`rsatdi I.A.Karimov, -ota –bobolarimizga ana shunday ranglar bilan ajrarib baho bermasligimiz, balki ularning hayotini, ular yashagan davr mohiyatini to`g`ri tushuntirishga harakat qilishimiz lozim”[1]

Sovet davlati tarixi - bu siyosiy qatagonlarning uzluksiz tizimidan iborat: Inqilob va Fuqarolar urushi, Polshaga bostirib kirish, “bosmachilik”ka qarshi kurash, Afgonistonga birinchi tajovuz (1928-y), “kollektivlashtirish” “quloqlashtirish”, Leningrad va Ozarbayjondan deportasiya qilish, “Katta qirg'in”, 1939 va 1941- yil 25-iyunida Finlyandiyaga bostirib kirish, Polshaga ikkinchi tajovuz (1939-y), Ikkinchi jahon urushi, xalqlarning deportasiya qilinishi (qrim tatarlar, koreyslar va boshqalar), kosmopolitizmga qarshi kurash, Vengriya (1956-y) va Chexoslavakiyaga (1968- y) bosib kirish, dissidentlarga qarshi kurash, Afgoniston urushi, sovet harbiylarining Yaqin Sharq, Vetnam, Laosdagi qurolli ziddiyatlardagi ishtiroki, “O'zbeklar ishi” yoki “paxta ishi” va hokazolar. O'zbek xalqi boshiga mislsiz darajada katta fojialarni keltirgan, yuz minglab begunoh vatandoshlarimizning yostig'ini quritgan - 1937-1938-yillardagi “Katta qirg'in’ni esa shubhasiz “XX asr vabosi” deb atash mumkin. Sovet hukumati “Katta qirg'in” davrida zamon va makonga insoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan munosabatda bo'luvchi, hur fikrlaydigan, totalitar tizimga qarshi chiquvchi o'z dushmanlarini shafqatsizlarcha mahv qildi. SSSR Ichki ishlar xalq komissari, “temir narkom” nomini olgan Nikolay Yejov tomonidan 1937-yil 30-iyuldagi “Sobiq quloqlar, jinoyatchilar va boshqa sovetlarga qarshi unsurlarni qatag'on qilish operatsiyasi to'gnsida’gi 00447-sonli mutlaqo maxfiy operativ buyruqqa muvofiq 1937-yil 10-avgustdan 1938-yil 1-yanvargacha bo'Igan vaqtda O'zbekiston bo'yicha jami 10700 kishi qamoqqa olingan, ulardan 3613 kishi 1-toifa bo'yicha otuvga, 7087 kishi 2-toifa bo'yicha 8-10 yil qamoq jazosiga hukm qilingan.[2]

1930-yillarning boshlarida ommaviy ravishda amalga oshirilgan bunday mislsiz adolatsizlik, oshkora zulm va zo‘ravonlik “mushtumzo‘r” — “quloq”

atamalari avvalo o‘sha yillarda o‘ylab chiqarilgan edi. Sho‘ro davlati o‘zini yo‘qsillar davlati deb e’lon qilgan. Uning maqsadi 1917-yil oktyabriga qadar emin-erkin turmush kechirgan xalq qatlamini yo‘qotish va “alif”ni kaltak deguvchi kuchlarga tayangan holda hali tarix ko‘rmagan davlat tuzumini barpo etish edi. U shu maqsadda xalqning o‘ziga to‘q qismini “mushtumzo‘r”lar yoxud “quloq”lar deb e’lon qildi va ularni sinf sifatida tugatishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Sho‘ro davlati nazarida, “mushtumzo‘r”lar yer-suvga ega bo‘lgan, dehqonchilik sohasida tadbirkorlik ko‘rsatgan va shu tufayli emin-erkin yaishyotgan kishilar bo‘lib, chor hokimiyati go‘yo ularga tayangan, go‘yo ularning qishloq axlini talashiga keng imkoniyatlar yaratgan edi. Bu — masalaning, shubhasiz, faqat bir tomoni. Ikkinchi tomoni shundaki, davlat va jamoa xo‘jaliklarini yaratish va shu orqali iqtisodiy quvvatini mustahkamlash vazifasini o‘z oldiga qo‘ygan Sho‘ro davlati xalqning xuddi shu qismini talamoqchi, uning mol-mulkini, yer-suvini tortib olmoqchi bo‘lgan. Ularni sinf sifatida tugatib, kambag‘al dehqonlarni davlat va jamoa xo‘jaliklarida qul sifatida ishlatish, qariyb tekin ishchi kuchini yaratish boshi berk ko‘chaga kirib borayotgan Sho‘ro davlati uchun birdan-bir najot yo‘li bo‘lib ko‘rindi. U 1929- yildan boshlab “quloq”larni chegaralash siyosatini olib bordi, ularga katta soliqlar chiqardi, ulardan olinajak g‘allaga qat’iy narx belgiladi. Har tomondan siqila boshlagan, harakat va faoliyat maydonlari cheklangan “quloq”lar tez orada sina boshladilar. Ularning falajlangan holatidan foydalangan Sho‘ro davlati 1930-yil 5-yanvarda qabul qilgan qarori bilan “quloq”larni endi sinf sifatida tugatishga kirishdi. Shu oyning o‘zidayoq O‘zbekiston Markaziy Qo’mitasining qoshida “quloq”lar va boylarni tugatishga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish bo‘yicha respublika komissiyasi tuzildi. 8-yanvar kuni Sreten qo‘rg‘onida bo‘lib o‘tgan batrak va kambag‘allar yig‘ilishi “quloq”larni sinf sifatida tugatish to‘g‘risidagi Sho‘ro davlatining qarorini bir og‘izdan ma’qullab, 23 “quloq” xo‘jaligini o‘z ichiga olgan ro‘yxatni tasdiqladi va bu ro‘yxatdagi kishilarning mol-mulklarini musodara etish, o‘zlarini esa badarg‘a qilish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Bu rus qo‘rg‘onining tashabbusidan rag‘batlangan boshqa jamoa

xo‘jaliklari ham respublikada “quloq”larni tugatish bo‘yicha o‘zaro musobaqani boshlab yubordilar.

Xullas, 1930-yilning o‘zidayoq O‘zbekistonda 2648 ta boylar va “quloq”lar xo‘jaligi tugatilib, qishloq ahlining tadbirkor qismi oyog‘iga bolta urildi. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, o‘sha yillarda O‘zbekistondan Ukraina respublikasi va Stavropol o‘lkasiga 10 ming oila badarg‘a qilindi.[3]

Qatag’onchilik siyosati butun O’zbekistonni barcha hududlarini, jumladan Namangan viloyatidagi barcha shahar va tumanlariga boshqa viloyatlar kabi birdek o’z ta’sirini o’tkazgan desak maqsadga muvofiq bo’ladi. Shuningdek, Namanganda ham barcha soha vakillari olimlar, yozuvchilar, dehqonlar, tadbirkorlar, hunarmandlar va hokazolar qatag’on siyosatining girdobiga uchragan. Shu o’rinda aytadigan bo’lsak Namangan viloyatining taniqli ziyoli kishilaridan hisoblangan Lutfulla Olimiy, edi.

**Lutfulla Olimiy**-1893-yilda Namangan shahrida dunyoga kelgan. U o‘qituvchi va jurnalist bo’lgan. Namangan madrasalarining birida tahsil ko‘rgach, 1916-yilda Ufaga borib, Madrasai Oliyada o‘qigan. 1917-yil fevral voqealaridan keyin yurtiga qaytib, Namanganda tashkil etilgan "Namuna" maktabida o‘qituvchi (1918—23), shahar xalq maorif bo‘limi, madaniy oqartuv muassasida mudir, shahar ijroiya qo‘mitasida kotib (1924) bo‘lib ishlagan. Ayni paytda "Nashri maorif" jamiyati viloyat bo‘limining kotibi (1921—23). So‘ng Qo‘qonga ko‘chib borib, 1930-yilga qadar "Farg‘ona" ("Yangi Farg‘ona") gaz.da muharrir o‘rinbosari (1925—27) va muharrir (1928— 30) lavozimlarida xizmat qilgan. 1930-yilda "Milliy ittiqod" tashkilotining a’zosi sifatida qamoqqa olingan. 1937 va 1949-yillarda 3-marotaba qatag‘on etilgan. Qamoqdan qaytgach, xo‘jalik ishlarida xizmat qilgan. U faqat Stalinning o‘limidan so’ng, shaxsga sig‘inishning fojiapi oqibatlari fosh etilganidan keyingina ona yurtiga qaytib, 1969-yili Namangan shahrida vafot etadi.[4]

**SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining 1938-yil 10-oktyabrdagi sayyor yig'ilishida bir qancha shaxslar otuvga hukm qilinganlar. Ularning orasida Namanganlik hamyurtlarimiz ham bo'lgan, jumladan:**

**Xo'jayev Muhammad-**1901-yilda Namangan shahrining Boqimirza dahasida, savdogar oilasida tug'ilgan. Ijtimoiy kelib chiqishi – ishchi, kasbi to'quvchi, ma'lumoti o'rta, 1925-yilning 3-yanvaridan partiya a'zosi, 1923-yil oktyabridan 1924-yil noyabrigacha 2-Turkiston o'qchi diviziyasi huzuridagi kichik komandirlar tayyorlash bo'yicha harbiy maktabni milliy bo'limini bitirgan, kichik komandir mutaxassisligiga ega bo'lgan. **Xo'jayev Muhammad** SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining 1938-yil 10-oktyabrdagi sayyor yig'ilishida Abdurahimov Muhammad oliy jazoga, ya'ni otuvga hukm etilgan.

**Egamberdiyev Dadaxon-**1901-yilda Namanganning Qizilchori qishlog'ida hunarmand-etikdo'z oilasida tug'ilgan. Millati: o'zbek, 1926-yil fevralidan partiya a'zosi, ma'lumoti quyi, o'z ustida ishlab savodini chiqargan. SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 10-oktyabrdagi Toshkentdagi yig'ilishida **Egamberdiyev Dadaxon**ni otuvga hukm etgan, hukm o'sha kuni ijro qilingan.[5]

**SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining 1938-yil 10-oktyabrdagi sayyor yig'ilishida bir qancha shaxslar otuvga hukm qilinganlar:**

**Inomov Solijon**-1903-yilda Namangan shahrining To'qmoqguzar mahallasida hunarmand oilasida tug'ilgan. U etikdo'zlik bilan, inqilobdan keyin paxta zavodida qora ishchi bo'lib ishlagan. Ma'lumoti o'rta, Namangan shahridagi savodsizlikni tugatish kursida o'qigan. **Inomov Solijon** SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938 yil 14 oktyabrdagi yig'ilishida Inomov Solijon otuvga hukm etilgan, jazo o'sha kuni ijro etilgan.

**Qobulov Orifjon-**1905-yilda Namangan shahrida xizmatchi oilasida tug'ilgan. Millati: o'zbek, 1920-yildan 1924-yilgacha o'zining to'quvchilik ustaxonasida to'quvchi bo'lib mehnat qilgan. 1924 yildan 1925 yilgacha Namangan moliya bo'limida moliya agenti bo'lib ishlagan. SSSR Oliy sudi Harbiy

kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 14-oktyabrdagi yig‘ilishida **Qobulov Orifjon** otuvga hukm etilgan, hukm o‘sha kuni ijro etilgan.[6]

**Quyidagi shaxslar 10 yil ozodlikdan mahrum qilingan:**

**Asqaraliyev Otavali-**1867-yilda Namangan viloyatining Namangan shahrida tug‘ilgan, Millati: o‘zbek, “quloq” sifatida surgun qilingan, qamoqqa olingunga qadar 1-Paxtachilik sovxozida yashab, ishlagan.

**Olimboyev Hoshim**.-1916-yilda tug‘ilgan, Namangan shahridan, o‘zbek, “quloq” sifatida surgun qilingan, qamoqqa olingunga qadar u ham o‘sha sovxozda yashab, ishlagan.

**Qambaraliyev Sherxon-**1886-yilda tug‘ilgan, Namangan viloyatining Namangan shahrida tug’ilgan. **Qambaraliyev Sherxon** quloq sifatida surgun qilingan, qamoqqa olingunga qadar u ham mazkur sovxozda yashab, ishlagan.

**Quyidagi shaxslar 8 yil ozodlikdan mahrum qilingan:**

**Matnazarov Ibrohim**-1867-yilda Namangan viloyatining Namangan shahrida tug‘ilgan, “quloq” sifatida surgun qilingan. Qamoqqa olingunga qadar ushbu paxtachilik sovxozida yashab, ishlagan.

**Boboxo‘jayev Abduraim-**1872-yilda Namangan viloyatining Namangan shahrida tug‘ilgan. Millati: o‘zbek, “quloq” sifatida surgun qilingan, qamoqqa olingunga qadar u ham mazkur sovxozda yashab, ishlagan.

**Ro‘zmatov Madumar**-1872-yilda Namangan viloyatining Norin tumani To‘da qishlog‘ida tug‘ilgan. Xerson viloyati Kaxovka tumanidagi paxtachilik sovxoziga “quloq” sifatida surgun qilingan, o‘zbek, dehqon, o‘rta ma’lumotli, oilali, sudlanmagan.

**Shermatov Hojimat**-1912 yilda Namangan viloyatining Norin tumani Kulitej qishlog‘ida tug‘ilgan. Xerson viloyati, Kaxovka tumanidagi paxtachilik sovxoziga “quloq” sifatida surgun qilingan, o‘zbek, dehqon, quyi ma’lumotli, oilali, sudlanmagan.[7]

**1930-1931-yillarda Farg‘ona vodiysidan Xerson viloyati Kaxovka tumaniga surgun qilingan, 1937-1938 yillarda qatag‘on bo‘lgan vatandoshlarimiz**

**Rahmonqulov Abdurahmon**-1878-yilda Namangan viloyatining Norin tumanida tug‘ilgan. 2-Paxtachilik sovxozi ishchisi bo’lgan. **Rahmonqulov Abdurahmon** 1938-yilda qatag‘on qilingan va 1989-yil 26-mayda oqlangan.

**Soliboyev Abdug‘ani-** 1883-yilda Namangan viloyatining Uchqo‘rg‘on tumanida tug‘ilgan. Millati: O‘zbek. 2-Paxtachilik sovxozi ishchisi bo’lgan. 1938-yilda qatag‘on qilinib, 1989-yil 29-mayda oqlangan.

**Salimboyev Bobohodi**-1867-yilda Namangan viloyatining Uchqo‘rg‘on tumanida tug‘ilgan. U 2-Paxtachilik sovxozida ishlagan va 1938-yilda qatag‘on etilib, 1989-yil 11-aprelda oqlangan.

**Salimboyev Nasriddin**-1892 yilda Namangan viloyatining Norin tumanida tug’ilgan. U 2-Paxtachilik sovxozi ishchisi bo’lgan. Va 1938 yilda qatag‘on qilingan. 1989-yil 10-mayda oqlangan.[8]

Ushbu maqoladan xulosa qiladigan bo’lsak, yaqin tariximizning bunday fojeali sahifalariga e’tiborni qaratishdan maqsad nafaqat tarixiy haqiqatni tiklash, chor va sho‘ro hokimiyati davrlarida kechgan siyosiy va ijtimoiy voqealarni ob’ektiv baholash, balki, birinchidan, Mustaqillikning ahamiyatini chuqur his etish, vatandoshlarimizda istiqlol qadriyatlariga nisbatan hurmat hissini tarbiyalash, ular kuchi va mehnatini istiqlol samaralarini mustahkamlashga safarbar etish, ikkinchidan, barpo etilayotgan yangi jamiyatda o‘tmishda ro‘y bergan salbiy hodisa va voqealarning takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslikdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.**

1. “Xalq so`zi”, 1996-yil 19-sentabr , 1996-yil 17-dekabr.
2. Karimov N. 1937-1938-yillardagi “Katta qirg’in tarixi”. T.: Ўзбекистон-2013. 3-bet.
3. Норматов К.”Шахидлар хотираси” Биринчи китоб. Т.: Ўзбекистон, 2000. - Б. 35

# TARBIYANING MADANIY VA MILLIY XUSUSIYATLARI: SHARQ VA G‘ARB

Zaynobidinova Naima Inomidinovna
NamDPI Gumanitar fanlar kafedrasi katta o’qituvchisi, falsafa fanlari nomzodi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Sharq va G‘arb madaniyatlarining tarbiya tizimlaridagi madaniy va milliy xususiyatlar tahlil qilingan. Sharq madaniyatlarida tarbiya asosan axloqiy va diniy qadriyatlarga asoslangan bo‘lsa, G‘arbda shaxsiy erkinlik va ilm-fan rivojiga katta e'tibor qaratilgan. Maqolada ikki madaniyatdagi tarbiya tizimlari solishtirilib, ularning o‘xshashliklari va farqlari tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tarbiya, Sharq, G‘arb, madaniy xususiyatlar, milliy qadriyatlar, shaxsiyat, ilm-fan, axloqiy me'yorlar

**Аннотация:** В данной статье анализируются культурные и национальные особенности образовательных систем Востока и Запада. В восточных культурах образование основывается на моральных и религиозных ценностях, в то время как на Западе большое внимание уделяется индивидуальной свободе и научному развитию. В статье проводится сравнение образовательных систем обеих культур, выявляются их сходства и различия.

**Ключевые слова:** Образование, Восток, Запад, культурные особенности, национальные ценности, индивидуальное развитие, наука, моральные ценности

**Abstract:** This article analyzes the cultural and national characteristics of educational systems in Eastern and Western civilizations. In Eastern cultures, education is based on moral and religious values, while in the West, emphasis is placed on individual freedom and scientific development. The article compares and contrasts the educational systems of both cultures, highlighting their similarities and differences.

**Keywords:** Education, East, West, cultural characteristics, national values, individual development, science, moral values

**Kirish:** Inson tarbiyasi nafaqat individual rivojlanishni, balki jamiyatning umumiy ahvolini yaxshilashni ham maqsad qilgan jarayon sifatida qadimdan jahon sivilizatsiyalarining diqqat markazida bo'lib kelgan. Har bir madaniyat va millat o'zining tarbiya tizimlarini yaratishda o'ziga xos yondashuvlarni rivojlantirgan. Xususan, Sharq va G‘arb jamiyatlaridagi tarbiya tizimlari o'zlarining madaniy, axloqiy, diniy va falsafiy qadriyatlaridan kelib chiqqan holda, bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu maqolada Sharq va G‘arb madaniyatlarining tarbiya tizimlariga oid asosiy farqlar, ularning tarixiy rivojlanishi va ijtimoiy funksiyalari tahlil qilinadi.

**Metodologiya:** Maqolada Sharq va G‘arb yondashuvlarini tahlil qilish uchun tafsiliy adabiyotlar tahlili va tarixiy metodologiya qo'llaniladi. Tarbiya tizimlarining asosiy tamoyillari, ularda aks etgan madaniy qadriyatlar va shaxsiyatning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni solishtirish maqsadida turli pedagogik, falsafiy va ijtimoiy manbalar orqali ma'lumotlar yig‘iladi. O‘rganilayotgan davrlar: Antik davr, O'rta asrlar va Zamonaviy davr.

**Natijalar:** Sharq va G‘arb tarbiyasining farqlari va o‘xshashliklari: Sharq va G‘arb tarbiyasining madaniy va milliy xususiyatlari o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud. Sharqda an'anaviy qadriyatlar, oilaviy hurmat va jamiyatdagi tazelikka katta e'tibor berilgan bo‘lsa, G‘arbda individualizm, erkinlik va kritikal fikrlashning rivoji ko‘proq ahamiyatga ega.

1. Tarbiya va milliy o‘zlik: Har bir madaniyat tarbiyaning o‘ziga xos uslublarini shakllantiradi. Sharq tarbiyasi ko‘proq axloqiy, diniy qadriyatlar va jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan bo‘lsa, G‘arb tarbiyasi erkinlik, mustaqillik va ijodkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

2. Tarbiya tizimining ijtimoiy roli: Har ikkala madaniyatda ham tarbiya ijtimoiy barqarorlikni saqlash va jamiyatni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi, ammo bu jarayonlarning uslublari va motivatsiyalari farq qiladi.

**Mulohaza:** Sharq jamiyatlarida tarbiya, ko‘pincha, an'anaviy qadriyatlar va diniy ta'limotlar asosida shakllanadi. Sharqning ko‘plab mamlakatlarida, xususan, Islom, Buddizm va konfutsianizm kabi diniy va falsafiy tizimlar tarbiyaga katta ta'sir ko‘rsatgan. Bu tizimlar tarbiyadagi asosiy e'tiborni ahloqiy tarbiya, ota-onaning hurmati, ijtimoiy burch va diniy mas'uliyatga qaratadi. Misol uchun, Islomda ota-onaga hurmat, sabr-toqat va axloqiy qadriyatlar tarbiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Konfutsianizmda esa, insonning o‘z o‘rnini va jamiyatdagi rollarini to‘g‘ri anglashga katta e'tibor beriladi.

Sharq jamiyatlarida, shuningdek, bolalar o‘qish va yozishni o‘rganishdan ko‘ra, ularning axloqiy va ma'naviy tarbiyasiga ko‘proq e'tibor berilgan. Jamiyatda hurmat va intizomning saqlanishi, oilaning ijtimoiy normasi sifatida muhim ahamiyatga ega.

1. G‘arb madaniyatida tarbiya.

G‘arb jamiyatlarida tarbiya asosan rasyonallik, individuallik va ilmiy yondashuvlar asosida rivojlanadi. Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarida tarbiya, asosan, bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash va innovatsion yondashuvlarga asoslangan. G‘arbda ta'lim tizimi ko‘proq akademik bilimlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning asosida bilim olish va ijodiy fikrlashga urg‘u beriladi.

G‘arb tarbiyasida shaxsiy erkinlik, inson huquqlari va mustaqillik qadriyatlari muhim o‘rin tutadi. Ota-onalar va o‘qituvchilarning roli bolalarni motivatsiya qilish va ularga ijtimoiy mas'uliyatni o‘rgatishdan iborat. Bu yondashuvda, bolalarga o‘z fikrini bildirish, savollar berish va mustaqil qarorlar qabul qilish imkoniyatlari yaratish eng muhim omillardan biridir.

2. Sharq va G‘arb yondashuvlarining farqlari.

Jamiyatning roli: Sharq madaniyatida tarbiya ko‘proq jamiyat va oilaning an'anaviy qadriyatlari asosida amalga oshiriladi. G‘arbda esa, shaxsning erkinligi va individning rivojlanishi muhim hisoblanadi.

Diniy va falsafiy ta'sir: Sharqda diniy va falsafiy ta'limotlar tarbiya jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. G'arbda esa, din va falsafa ko'proq xususiy hayotga tegishli bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonida ilmiy yondashuv ustunlik qiladi.

Axloqiy va intellektual qadriyatlar: Sharqda axloqiy tarbiya, jamiyatning ijtimoiy me'yorlariga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. G'arbda esa, intellektual rivojlanish va shaxsiy erkinlikka urg'u beriladi.

Tarbiyaning usullari: Sharqda ota-onalar va o'qituvchilar bolaning axloqiy va diniy qadr-qimmatlarini shakllantirishda yetakchi rol o'ynaydi. G'arbda esa, bolalarga o'zini ifoda etish va ilmiy bilimlarni o'rganish imkoniyatlari ko'proq beriladi.

4. Hozirgi tendentsiyalar va integratsiya: Hozirgi kunda globalizatsiya va texnologik taraqqiyot Sharq va G'arb madaniyatlarini yanada yaqinlashtirmoqda. Har ikki yondashuvda bir-biriga ta'sir ko'rsatgan elementlar mavjud. Masalan, Sharq mamlakatlarida G'arb ta'lim tizimining ilmiy yondashuvlari ommalashmoqda, G'arbda esa Sharq madaniyatining axloqiy qadriyatlari va diniy qarashlariga bo'lgan qiziqish ortmoqda. Tarbiya jarayonida madaniy o'zgarishlar va integratsiya yangi yondashuvlar va usullarni yaratishga olib kelmoqda.

**Xulosa.** Tarbiyaning madaniy va milliy xususiyatlari Sharq va G'arb yondashuvlarida o'ziga xos jihatlarni aks ettiradi. Sharqda an'anaviy, diniy va axloqiy qadriyatlar asosida tarbiya berilsa, G'arbda ilmiy, ratsionallik va shaxsiy erkinlikka yo'naltirilgan yondashuvlar mavjud. Biroq, globalizatsiya jarayonida har ikki yondashuvning integratsiyasi va bir-birini o'rganishi zarur bo'lib, bu yangi tarbiyaviy yondashuvlar va metodologiyalarni yaratishga olib kelishi mumkin. Sharq va G'arb tarbiyasining madaniy va milliy xususiyatlari o'rtasidagi farqlar, har bir jamiyatning ijtimoiy va axloqiy qadriyatlari, tarixiy rivojlanishi va diniy ta'limotlaridan kelib chiqadi. Sharqdagi jamiyatlar kollektiv maqsadlarni, axloqiy me'yorlarni va diniy qadriyatlarni ustuvor qilib olishsa, G'arb jamiyatlarida esa shaxsiy erkinlik va ilmiy yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, har ikki tizimda ham insonning axloqiy va aqliy rivojlanishi uchun tarbiya zaruriy

vosita sifatida qaraladi, ammo bu jarayonning metodlari va yo'nalishlari jamiyatning madaniy-ijtimoiy kontekstiga qarab farq qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. G‘afforov, O. Tarbiyaning ijtimoiy va madaniy asoslari. - Toshkent, O‘qituvchi, 2018.

2. Xudoyberdiyev, A. Madaniyat va tarbiya: Sharq va G‘arbdagi farqlar. - Toshkent, Fan, 2021.

3. Muradov, M. Tarbiya va axloqiy qadriyatlar: Sharq va G‘arb o‘rtasidagi tafovutlar. Samarqand: "Samarqand Davlat Universiteti", 2020.

4. Alimov, B. G‘arb va Sharq ta'lim tizimlari: Tarixiy rivojlanish va madaniy o‘ziga xoslik. Toshkent: "O‘zbekiston", 2017.

5. Saidov, A. Milliy ta'lim va tarbiya tizimlarining evolyutsiyasi: Sharq va G‘arb madaniyatlari nuqtai nazaridan. Buxoro: "Buxoro universiteti", 2019.

6. Karimov, I. A. (1997). Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: "O‘zbekiston" nashriyoti.

7. Зайнобидинова Н. Некоторые мысли о Восточной философии. Central Asian Journal of literature, philosophy and culture. Vol. 3 Iss. 5. 2022. – C. 132-139

8. N. I. Zaynobidinova. Globallashuvda ta9limning roli. ADChTI “Globallashuv jarayonida fan va ta’lim muammolari va yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 2024 y, 5 iyun.

9. N. I. Zaynobidinova. Rivojlangan davlatlarning jamiyat barqaror rivojlanishiga doir taraqqiyot modellari. Sharq tarixi, siyosati va huquqi jurnali. 2024 y, № 4-son. -B. 107-114.

10. N. I. Zaynobidinova. Inson ma’naviy kamolotida Jaloliddin Rumiy ijodining ahamiyati. “Inson qadri: tarixiylik va zamonaviylikning ilmiy-nazariy talqinlari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. NamDPI – 2024 y, -B. 61-64.

# MADANIYATDA AN’ANA VORISLIGI MUAMMOSINING FALSAFIY AKS ETISHI

Sharobiddinov Sherzodbek
Namangan davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi,

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada madaniyatda an’ana vorisligi muammosining falsafiy jihatlari tahlil qilinadi. Madaniyatning tarixiy va zamonaviy ko‘rinishlarida an’analar va ularning avloddan-avlodga uzatilishi jarayonida yuzaga keladigan masalalar falsafiy nuqtai nazardan o‘rganiladi. An’analar jamiyatni birlashtiruvchi va milliy o‘zlikni saqlab qoluvchi omil sifatida qaralib, ularning zamonaviylik va globalizatsiya ta’sirida qanday o‘zgarishga uchrashi tahlil qilinadi.

**Аннотация:** В данной статье анализируются философские аспекты проблемы преемственности традиций в культуре. В исторических и современных формах культуры традиции и проблемы, возникающие в процессе их передачи от поколения к поколению, изучаются с философской точки зрения. Традиции рассматриваются как фактор, объединяющий общество и сохраняющий национальную идентичность, и анализируется, как они меняются под влиянием современности и глобализации.

**Abstract:** This article analyzes the philosophical aspects of the problem of the succession of traditions in culture. Traditions in historical and modern manifestations of culture and the issues that arise in the process of their transmission from generation to generation are studied from a philosophical perspective. Traditions are considered as a factor that unites society and preserves national identity, and how they change under the influence of modernity and globalization is analyzed.

**Kalit so‘zlar:** madaniyat, an’ana, vorislik, globalizatsiya, madaniy muloqot, jamiyat, o‘zlikni anglash, tarixiy meros, milliy ong, an’analar konsepsiyasi.

**Ключевые слова:** культура, традиция, наследие, глобализация, культурная коммуникация, общество, идентичность, историческое наследие, национальное сознание, концепция традиций.

**Key words:** culture, tradition, succession, globalization, cultural dialogue, society, identity, historical heritage, national consciousness, concept of traditions.

**Kirish.** Madaniyat jamiyatning jamoaviy e'tiqodlari, amaliyotlari va qadriyatlari bilan shakllanadigan dinamik va rivojlanayotgan kategoriyadir. Madaniyatning uzluksizligi va asrab-avaylanishining markaziy o'rni an'analarni avloddan-avlodga o'tkazishdir. Biroq, an'analar vorisligi jarayoni diqqat bilan tekshirishni talab qiladigan bir qancha falsafiy muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu maqola madaniyatdagi an'analar vorisligi muammosi bo'yicha falsafiy mulohaza yuritadi, saqlash va yangilik o'rtasidagi ziddiyatlarni, individual agentlikning rolini va madaniy o'zgarishlarning mumkin bo'lgan oqibatlarini o'rganadi.

An’analar konsepsiyasining asosiy tamoyillarining nazariy retrospektivi, madaniyatning uzluksizligi ularni tushunishda kamida ikkita kognitiv paradigma mavjudligi haqida gapirishga imkoniyat beradi. Klassik talqinga ko‘ra an’ana madaniyatning sifat xususiyatlaridan biri bo‘lib, uning me’yoriy regulyatorlaridan biri bo‘lib xizmat qilgan, uning diaxronik va sinxron tarzda ishlash qonuniyatlarini ochib bergan jihatlari. Bu o‘tmish va hozirgi kunning uchrashish shakli, madaniyatga barqarorlik va ishonch bag‘ishlovchi tuzilma sifatida tushunilgan.

Zamonaviy dunyoqarash paradigmasi asosida madaniyatning ob’ektiv qonuniyatlarini qayta qurish emas, balki borliqni sub’ektiv voqelik sifatida anglaydigan, ko‘plab individual va jamoaviy olamlarning o‘zaro bog’liqligi, madaniyatni idrok etishning mohiyatini anglatuvchi sub’ektning aks etishi yotadi. Germenevtika ilmiy foydalanishga an’analar muammosini qayta qurishda zamondosh nuqtai-nazarini organik ravishda kiritish tamoyilini kiritdi. Mavjud hozirgi zamon sifatida zamonaviylikni o‘tmish bilan taqqoslab bo‘lmaydi, bu zamonaviylikda tarixiy asos va tushuncha topadi.

O‘tmish inson mavjudligining zaruriy sharti bo‘lib, ijtimoiy xotira hodisasi bilan bog’liq bo‘lgan tarixning ketma-ket uzluksizligidan dalolat beradi. Madaniyatning genetikdan tashqari irsiyati to‘plangan tajribani an’analar mexanizmi orqali uzatadi va shaxslarning uni o‘zlashtirish va rivojlantirish uchun tabiiy ravishda aniqlanmagan qobiliyatlarini shakllantiradi. Madaniyat makonida an’analarda, umuminsoniy qadriyatlarda mujassamlangan tarixiy xotiraning ko‘p yo‘nalishli proyeksiyalarining integratsiyasi amalga oshiriladi, ular orqali madaniy uzluksizlik mexanizmi amalga oshiriladi.

Madaniyat mazmunli kontekslarning boyligi sifatida qaralganda va qandaydir umumiy vertikal ko‘rinishga muhtoj bo‘lsa, an’analar muammosi alohida keskinlik kasb etadi. Shu munosabat bilan urf-odatning tarixiy-madaniy hodisa sifatidagi mohiyati va roli tobora chuqurroq anglab yetilmoqda. Madaniyatdagi an’analarning rolini o‘rganish mumkin bo‘lgan koordinatalar tizimi - bu inson va madaniy hodisalarning tarix bilan bog’liqligi mazmuni va shakllari. An’anaga ko‘ra, tarix dunyosi yangilanadi. Bu vaqtlarni bog’lovchi ip: o‘tmish, hozirgi va kelajak.

Tarixiy yondashuv shundan iboratki, o‘tmish yagona tarixiy jarayonning elementi sifatida, davomiylik (A.Bergson bo‘yicha), o‘tmishning hozirgi zamon bilan aloqa qiladigan o‘ziga xos uzluksizligi sifatida qaraladi. An’ana - o‘zgarmaslik, madaniyat mavjudligining ma’lum bir doimiy xususiyati. Bu abadiy xususiyatga ega bo‘lgan madaniyatning “abadiy” qadriyatlarini aniqlash bilan bog’liq. An’anani sababiy-genetik toifalarda talqin qilib bo‘lmaydi, chunki u hozirgi va kelajak bilan bir vaqtda mavjud bo‘lgan o‘tmishdir. An’anaga ko‘ra, diaxronik tartib (bundan oldin - bundan keyin) sinxronga, madaniyat tarkibiy qismlarining birgalikda yashash tartibiga aylanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Bir qator tadqiqotchilar (B. Malinovskiy, K. Levi-Strous, E. Kassirer, E. Shatskiy, M. Eliade va boshqalar) an’ananing vaqtinchalik mavjudligi xususiyatlarini mifologik zamon bilan solishtiradilar. Shunday qilib, B.Malinovskiy qadriyat namunalarini yaratuvchi va shu tariqa zamonaviy

madaniyatda yashashni davom ettiruvchi mif an’ana bilan chambarchas bog’liq bo‘lib, uning ahamiyatini oshiradi, deb hisoblagan.

**Tahlil va natijalar.** An’anani afsona bilan taqqoslash o‘tmishga o‘ziga xos yondashuvni, hozirgi va uzoq vaqt oldin sodir bo‘lgan voqealar o‘rtasidagi masofaning yo‘qligiga aniqlik kiritish imkonini beradi. Bu yerda, go‘yo, davrlar va hodisalarning o‘zgarishi deb tushunilgan tarix chegarasidan chiqish yo‘li bor. Vaqt tarixiy emas, balki mifologik nuqtai nazardan tushuniladi, chunki mif ilgari nima bo‘lganligi to‘g’risida bilimga bo‘lgan ehtiyojni emas, balki mavjud bo‘lgan, hozirda mavjud va bo‘ladigan qadriyatlarda ishtirok etish ehtiyojini qondiradi. K.Levi-Stros mif ikki tomonlama tuzilishga ega ekanligini ta’kidladi - bir vaqtning o‘zida tarixiy va notarixiy. An’ana haqida ham shunday deyish mumkin, chunki u har doim tarixga, bo‘lgan narsaga ishora qiladi. Mifdagi vaqt va o‘tmish, an’anadagi kabi, xotiraga asoslanadi. Ammo shu bilan birga, an’ana chuqur tarixga ziddir, chunki u o‘tmishni abadiy model, siyosiy, axloqiy, estetik mutlaq darajaga ko‘taradi. Shunday qilib, mif bilan o‘xshashlik an’ananing vaqtinchalik mavjudligining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

Uning hayotiy faoliyatining har bir harakati o‘zini muayyan turdagi zarurat oqimiga tortadi. M.Veber an’anaviy harakat tushunchasini avtomatizmning bir turi sifatida kiritadi. O‘tmishda mavjud bo‘lgan deyarli cheksiz imkoniyatlardan faqat bir nechtasi an’anaga aylanadi. O‘tmishdan aniq nima aktuallashtiriladi va nima faqat tarixiy haqiqatga aylanadi? An’anaga ko‘ra, o‘tmishdagi avlodlar tajribasi kamida ikkita usulda - yoki namunali yagona harakat (pretsedent) shaklida yoki qandaydir universal qonun (marosim, kodeks, ko‘rsatmalar va boshqalar) shaklida ob’ektivlashtiriladi. Pretsedent ideal namunani ko‘rsatadi va har bir qonun uni sharhlaydigan naqshlarni ishlab chiqarish uchun o‘ziga xos paradigmadir. Shunday qilib, an’analar uzluksizligi kamida ikkita turli xil va ayni paytda o‘zaro bog’liq bo‘lgan tamoyillar – akt va qonunni birgalikda tartibga solish bilan ta’minlanadi. An’anaviy davomiylikning ikkala turini ham turli madaniyatlarda kuzatish mumkin. Masalan, nasroniylikda Isoning ishlari va uning amrlari madaniy

an’anaviylikning ikkita o‘zaro aks ettiruvchi paradigma manbalari hisoblanadi. Xuddi shunday, Buddist madaniyatida Buddaning turmush tarzi va uning va’zlari me’yoriy naqshlarni va umuminsoniy amrlarni, maksimlarni keltirib chiqaradigan pretsedentning birligi bo‘lib, ular o‘z navbatida insonning fikrlash tarzini ham, xatti-harakatlarini ham kodlashadi. Xuddi shu naqshlarni boshqa madaniy an’analar (konfutsiylik, daosizm va boshqalar) tarkibida ham kuzatish mumkin. Keyinchalik paragrafda diniy an’analarning shakllanishidagi umumiy xususiyatlar tahlil qilinadi.

Madaniy shakllarning madaniyat mazmunini yetkaza olishi va shu orqali ijtimoiy hayot va tarixning uzluksizligini ta’minlay olishi ana shu shakllarning o‘zi mazmunli bo‘lishiga asoslanadi. Har bir aniq misol, namuna yoki standart o‘z mazmuniga ega va bu mazmun insonning ma’lum bir faoliyatini keltirib chiqaradi. Muayyan me’yorlar, o‘ziga xos qadriyatlar yoki tamoyillar ham mazmunli. Ularning mazmuni doimo ular ishlab chiqaradigan va madaniyatda paydo bo‘lgan faoliyatning ma’lum bir yo‘nalishida amalga oshiriladi. Lekin har bir madaniy shakl o‘zining o‘ziga xos mazmuniga qo‘shimcha ravishda ma’lum madaniy-mavhum mazmunga ega bo‘lib, u tajribani madaniy kategoriyalarga, madaniyat universallariga aylantiradi, unda madaniyatning o‘zini o‘zi takror ishlab chiqarish mantig’i yotadi.

An'analar vorisligidagi asosiy keskinliklardan biri saqlash va yangilik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikdadir. An'analar ko'pincha tarixiy, diniy yoki ijtimoiy kontekslarda chuqur ildiz otib, madaniy belgilar va o'ziga xoslik manbalari bo'lib xizmat qiladi. Biroq, madaniyatlar rivojlanishi bilan yangi g'oyalar, texnologiyalar va ijtimoiy tuzilmalar paydo bo'lib, status-kvoga qarshi chiqadi. Ushbu keskinlik an'analarni saqlab qolish va madaniy o'sish uchun innovatsiya zaruriyati o'rtasidagi muvozanat haqidagi falsafiy savollarni tug'diradi.

T.I. Oizerman madaniyatda qarama-qarshi tendentsiyalar va anomaliyalarning mavjudligiga qaramay, universallarning mavjudligi madaniy-tarixiy jarayonning ustun xususiyati deb hisoblaydi*[26].

Madaniy universallar har bir madaniyat turining tizimli asoslari bo‘lib, ular madaniyatga yaxlitlik beradi. Men V.S. Stepinning madaniy universallar muammosi haqidagi nuqtai nazarini baham ko‘raman, u ularni "kategorik shakllar (ular ko‘pincha madaniyat kategoriyalari deb ataladi) deb tushunadi), ular orqali ijtimoiy-tarixiy tajriba o‘rnatiladi, go‘yo qadoqlangan. ularda va avloddan-avlodga o‘tadi"[27]. Universallar tarixiy tajribani aniqlash va uzatish usullaridir. Har bir tarixiy davrda ular kategorik shakllarning yaxlit tizimini tashkil etadi, unda dunyoqarash va inson faoliyatining umumlashtirilgan dasturi kodlanadi.

Madaniyat universallari odamlarning hayoti va faoliyatida turli funktsiyalarni bajaradi (ular madaniy tajribani tarqatish shakllari; madaniy rivojlanishning uzluksizligini ta’minlaydi; ong kategoriyalari bo‘lgan tarixiy davr ongining kategorik tuzilishini belgilaydi; ongning yaxlit qiyofasini o‘rnatadi). dunyo, davr dunyoqarashi). Ular insonning olamga munosabatini, dunyoni tushunish, tushunish va tajriba tuzilishini belgilaydi.

Madaniy universallar har bir davr har xil tarzda hal qiladigan inson mavjudligining abadiy muammolarini aks ettiradi. Umumjahonlarning ma’nolari o‘zgarib boradi, har bir yangi davrda sub’ekt va ob’ekt o‘rtasidagi chegara yangicha chiziladi, zamon va makon, o‘lim va boqiylik, ezgulik va yovuzlik, go‘zal va xunuk va hokazolar turlicha talqin qilinadi. Turli tarixiy davrlardagi har bir madaniyat universallarning turli modellarini yaratadi, ularda ularning madaniy va tarixiy o‘ziga xosligi mujassam. Insoniyatning antropologik birligiga, madaniyatning arxetipik asoslarining mavjudligiga qaramay, universal universalliklar doirasida ko‘plab modifikatsiyalar mavjud. Shunday qilib, universallarning turli madaniy-tarixiy variantlari mavjudligi madaniyatda umuminsoniylik, xususiylik va birlik dialektikasini o‘zida mujassam etadi.

---

[26] Oizerman T.I. Madaniy universalliklar bormi? // Falsafa savollari. - 1989. - No 2. - S. 55.
[27] Stepin V.S. Falsafa va madaniyat universallari. - S-P., 1998. - S. 10.

Hozirgi vaqtda yangi madaniy yaxlitlikning umuminsoniy asoslari shakllanmoqda: bu umuminsoniy qadriyatlarga (go‘zallik, insonparvarlik, haqiqat, ezgulik va boshqalar) asoslangan madaniyat merosining yagona uslubini shakllantirish; madaniyatning ortib borayotgan estetiklashuvi (san’atning an’anaviy mavjudlik chegarasidan tashqariga chiqishi); axborotlashtirish, madaniyatlar muloqoti, ularning o‘zaro yaqinlashuvi uchun misli ko‘rilmagan istiqbollarni ochish; ekologik imperativ tahdidli ekologik ofatlar qarshisida omon qolish uchun insoniyatning sa’y-harakatlarini birlashtirishga qat’iy talabga aylanadi.

Shunday qilib, insoniyat o‘z mavjudligini uyg’unlashtirish uchun foydalanishi kerak bo‘lgan yangi madaniy sintez uchun sharoitlar yaratildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

1. Madaniyat uzluksizligining asoslari. - M.: Iqtisodiyot va informatika, 2000.

2. Ijtimoiy vaqt va madaniyat uzluksizligi muammosi // Tabiat va ijtimoiy fanlarda vaqt tushunchasi. - M., 1990.

3. Falsafa o‘qitishda madaniyat masalalari // Falsafa va oliy ta’lim - M., 1996.

4. Madaniyat va ta’lim // Xalqaro konferensiya materiallari: XXI asrda ta’lim. - Izmir (Turkiya), 1995 yil (ingliz tilida).

5. Madaniyatdagi uzluksizlik va uning asoslari. Qo‘lyozma INION RAS da 1999 yil 27 sentyabrdagi 54983-son bilan saqlashga topshirildi.

6. Sharobiddinov, Sherzodbek. "Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda vorislik masalasini hal etishning ahamiyati." *UzMU xabarlari* 1.1.1. 1. (2024): 233-236.

## YANGI O’ZBEKISTON YOSHLARINING TARIXIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYANING O’RNI

Qambarov Abdujabbor Boxrolievich
Namangan davlat pedagogika instituti
“Gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti
abduzabborkambarov15@gmail.com

**Annotatsiya:** Tarix ko’p qirrali bo’lib, uning mazmunining barcha ko’p qirraliligi va imkoniyatlarini bir ta’rif bilan qamrab olish qiyin. Va shunga qaramay, bu Kontseptsiyada universal narsa bor, odamlarning kristallanadigan ongi: tarix-bu genetik xotira. Bunga madaniyat, ruh, axloqiy qarashlar xotirasi, ya’ni kundalik tarbiyaviy - ma’naviy tajriba, shu jumladan son-sanoqsiz oldingi avlodlar tajribasi deyiladi.

**Kalit so’zlar:** tarixiy tafakkurning rivojlanishi, tarbiya, tarixiy tafakkur, oilaviy qarashlar, inson ongi.

**Аннотация:** История многогранна, и все многообразие и возможности ее содержания сложно охватить одним определением. И все же есть в этой Концепции, кристаллизованном сознании людей, нечто универсальное: история — это генетическая память. Это называется памятью культуры, духа, нравственных взглядов, то есть повседневного образовательного и духовного опыта, включающего опыт бесчисленных предшествующих поколений.

**Ключевые слова:** развитие исторического мышления, образование, историческое мышление, семейные взгляды, человеческое сознание.

**Annotation:** History is multifaceted, and it is difficult to cover all the versatility and possibilities of its content with one definition. And yet there is something universal in this Concept, the crystallized consciousness of people: history is genetic memory. It is called the memory of culture, spirit, moral views, that is, daily educational and spiritual experience, including the experience of countless previous generations.

**Keywords:** development of historical thinking, education, historical thinking, family views, human consciousness.

Tarix fani paydo bo’lginga qadar tarixiy qarashlar uzoq yo’lni bosib o’tgan. Tarixni dastlabki voqeanavislik – qisqa yilnomalar, podsholik va imperatorlik

haqidagi yozuvlar paydo bo'lishi bilan vujudga keladi. Chunki, har qanday yozuv ma'lumoti o'z tuzilishiga ko'ra og'zaki xabarlardan farq qiladi. O'tmishni o'rganish, avvalo, faktlar, sanalar, nomlar, joylar, voqealar va g'oyalarni bilishga asoslanadi. Shundan ko'rinib turibdiki, chinakam tarixiy xotira tadqiqotchilardan tarixiy tafakkur bilan shug'ullanishni talab qiladi: savollar berish va ularning javoblarini tasdiqlovchi ishonchli dalillarni yig'ish; o'z ma'lumotlarida keltirilgan faktlardan tashqariga chiqish va tarixiy yozuvni o'zlari uchun tekshirish; hujjatlar, jurnallar, kundaliklar, artefaktlar, tarixiy joylar, san'at asarlari, miqdoriy ma'lumotlar va o'tmishdagi boshqa dalillar bilan maslahatlashish va buni tasavvur qilish - bu yozuvlar yaratilgan tarixiy kontekstni hisobga olgan holda va bir nechta fikrlarni taqqoslash. o'sha paytda voqea joyida bo'lganlarning ko'rinishidir.

Tarixiy tafakkurni butun turmush tarzi, barcha ijtimoiy institutlar: oila, maktab, adabiyot, san'at, til madaniyati, milliy an'ana va urf-odatlar, ommaviy axborot vositalari shakllantiradi. Ko'pincha tarixiy tafakkur - bu ilmiy bilimlarning, shuningdek, kundalik g'oyalar darajasidagi fikrlar, mulohazalar, baholarning g'alati uyg'unligidir. Odamlarning tarixiy o'tmishni, tarixiy hozirgi va bashorat qilinayotgan tarixiy kelajakni hissiy va oqilona idrok etish jarayonida ularning “inson tabiatidagi uzluksiz o'zgarishlarga” kirib borish chuqurligiga, haqiqat darajasiga qarab empirik tushunchasi va nazariy tushunchalaridir. Balki, tarixiy bilimlarning to'liqligi esa tarixiy tafakkurning ikki darajasi (oddiy va nazariy) shakllanadi, bu erda shaxs tarix bilan uchrashadi. Tarixiy tafakkurning oddiy darajasi, empirik tafakkur mahsuli, ko'p jihatdan kundalik “tarixiy to'qnashuvlar” asosida shakllanadi. Tarix dunyoqarashi insonning xulq-atvoriga bevosita ta'sir qiladi: u ma'lum toifalarda fikr yuritadi. O'tmish zamonaviy inson faoliyatining asoslarini yaratdi. Biroq, u bevosita idrok etilmaydi. Har bir inson faoliyati kelajakka qaratilgan bo'lib, uni faqat oldindan ko'rish mumkin. Insoniyat vujudga keltirgan qadriyatlar, ma'naviy hamda madaniy merosning qo'shiluvi natijasida yuzaga kelgan tarixiy xotira jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy o'zarishlarning mohiyatini tushunib etishga yordam beradi. Tarixni anglash orqali

inson o’zini anglaydi, hayot mazmunini chuqurroq tushunadi. Tarixiy tafakkur insonning shaxs sifatidagi faolligini vujudga keltirishiga va barkamol inson bo’lib shakllanishiga yordam beradi[7: 6-b].

Ma’lumki, tarixiy xotira bir vaqtning o’zida ham falsafiy, ham tarixiy kategoriya hisoblanadi va chuqur nazariy va metodologik yondashuvni taqozo etadi. Tarixiy xotira o’z tuzilishiga ko’ra murakkab hodisa bo’lib, uning bir necha asosiy qismlarini ko’rsatib o’tish mumkin. Zamonaviy dunyoqarash o’tmishga bo’lgan munosabatda iz qoldirganligi sababli, biz bostirish qiyin bo’lgan hamdardlik va unga nisbatan sovuq manosabatda bo’lish harakati haqida gapirishimiz mumkin. Binobarin, alohida tarixiy shaxslarga ikki tomonlama baho beriladi: kimdir uchun ular barcha insoniy zaif tomonlari bilan tarixiy shaxslar bo’lsa, boshqalar uchun muqaddas mavjudotlardir. Bunday yondashuv tarixiy qonuniyatlar va izchillikni tushunishga to’sqinlik qiladi. Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda “tarixiy tafakkur” tushunchasi tarixiy ongning muayyan ko’rinishi, tarkibiy qismi, komponenti sifatida ta’rif va tavsif qilingan, uning genezisi, evolyutsiyasi, fenomenologiyasi haqida ayrim fikrlar bayon etilgan. Ammo ijtimoiy falsafada ham barchani birdek qanoatlantiradigan, ushbu murakkab va serqirra fenomenning tub mohiyatini ochib beradigan talqin hali yaratilmagan. Alohida shaxslarning nomlari tarixiy voqealarning timsoliga aylanadi, ular tarixiy voqealarga turtki bo’lganga o’xshaydi, ular tarixning o’choqlari hisoblana boshladilar. Tarixchi Dilorom Abdullajanova “Tarixiy ong va tarixiy xotira” deb nomlangan maqolasida quyidagi ta’rifni beradi: "Tarixiy ong ijtimoiy ong shakli bo’lib, jamiyat tomonidan o’zining kelib chiqishi va zamondagi o’rni, o’tmishi, bugungi kuni va kelajagi o’rtasidagi aloqadorlikning anglanishi, ijtimoiy voqelikning ob’ektiv idrok etilishidir"[1:83-b]. Agar xotira eskisidan "tozalangan" bo’lsa - "nomaqbul" (uni o’z xohishiga ko’ra "yaratish"), vakuumli fikrlash paydo bo’ladi. Tarixni “o’chirish” teskari ta’sir ko’rsatadi: tayanch joyidan ayrilgan odam o’zini bo’shliqda his qiladi va qonuniy ravishda savol tug’iladi: agar hamma narsa hech narsa bo’lmasa, hayotning ma’nosi nima? Tarixiy xotira barcha ijobiy va

salbiy narsalarni, jumladan, tarixning "tozalovchilari"ning nomlarini ham o’rnatadi. Tarix ob’ektiv jarayondir, unda shaxsning o’zini namoyon qilishi kerak. Shaxslar tarixiy xotirani qo’zg’atadi: ular boshqa nuqtai nazarlarning mavjudligiga e’tibor berishadi (turli hodisalar, faktlar o’rtasida har doim ham to’g’ridan-to’g’ri bog’liqlik mavjud emas), shu bilan tarixiy tafakkurning shakllanishiga ta’sir qiladi, chunki ba’zi qoidalar apriori (jamoat tomonidan kiritilgan) qabul qilinadi. fikr, "tasdiqlangan" nazariyalar), shaxs har bir bayonotni tekshirishga qodir emasligi sabablidir. Tarixiy tafakkur haqidagi munozarada yana bir yondashuvni odamlarning vaqtinchalik begonalashuv tajribalariga qanday tartib va ma’no berishiga antropologik qiziqishdan ko’rish mumkin. Tarixiy tafakkurda o’tmish va hozirgi zamon o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik sifatida o’rnatiladi. Tarixiy faktlarni tahlil qilish asosida, bizning fikrimizcha, biz uchun nima ma’qul bo’lgan va nima bo’lmagan degan xulosaga kelamiz. Tarixiy tafakkurni bizning fikrlash tarzimizga bevosita ta’sir qiladi, tarixchi izlanishlarini to’g’rilaydi. Shuni ta’kidlash kerakki, ularning egalari chuqur o’zlashtirganligi sababli aniq muvaffaqiyatlar mumkin bo’ldi. Tarix fanining nazariy-metodologik asoslarini bilish va buni qo’llashning mohir ko’nikmalari kundalik ijodiy faoliyatda ko’rinadi. Tarix fanlari tarixiy tafakkurni mustahkamlaydi: ular insonning o’z-o’zini anglashining natijasi bo’lib, uning ma’naviy rivojlanish darajasining ko’rsatkichlaridan biridir. Tarixiy tafakkur har bir shaxsga ta’sir etuvchi tarixiy xotiraga asoslanadi va u ham o’z navbatida tarixning “qo’riqchisi” hisoblanadi. Tarixiy tafakkur insondan tashqarida mumkin emas. Tarixiy tafakkurning ijtimoiy –tarixiy mazmunini ijtimoiy psixologiyaning tarkibiy qismi sifatida tahlil qilish nuqtai-nazaridan ko’rish mumkin. Tarixiy tafakkurning ijtimoiy-psixologik mazmuni xilma-xildir. M.A.Barg “tarixiy fakt” tushunchasini “ilmiy-tarixiy fakt” tushunchalarini “manbaviy xabar” sifatida farqlashni, tarixchilar tamonidan ilmiy tushunilishi va shu bilan fanlar haqiqatiga aylanishini taklif etadi [2:56-c].

G.V.Plexanov yozishicha “Tarixiy insonning xususiyatlari uning tamoyillari, intilishlari, qarashlari va ideallari, yoqtirishlari va yoqtirmasliklarini ijtimoiy

taraqqiyot borishi bilan birga o’zgarib boradi”[4:227-c]. Tarixiy tafakkurning istalgan darajasida tarixiy voqelikni qayta qurishda mazmun jihatining polifonizmi tabiatshunoslikdagi rekonstruksiyadan muhim, tubdan farq qiladi. Falsafiy adabiyotda tarixiy voqelikni qayta qurish sodir bo’lgan tarixiy voqea va vaziyatlarni takror ishlab chiqarish va go’yoki yangidan yaratish, degan fikr mavjud. Tarixiy voqelik (o’tmish) hajmiga aniq odamlar, ijtimoiy guruhlar, ularning iqtisodiy, siyosiy, shaxsiy va jamoaviy munosabatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari, harakatlari kiradi.

Ushbu maqolada biz tarixning tarkibiy tahliliga unchalik qiziqmaymiz  bu haqiqatdir. Bizga uslubiy zanjirni tushunish kerak:

- tarixiy voqelik (o’tmish), tarixiy manbalarda aks ettirilgan va aks ettirilmagan;
- tarixiy voqelikni (o’tmish) faraziy tiklash va qayta qurish;
- tarixiy tafakkurning mazmun elementlarining mualliflik varianti.

Tarixiy tafakkurning o’zgaruvchan tabiati esa tarixiy tafakkurning birdek qimmatli qutblari sifatida umuminsoniy va shaxsiy-individualni nazarda tutadi. Tarixiy tafakkur ko’p qirrali jarayondir.

Shunday qilib, tarixiy tafakkurning har bir tarixiy va ijtimoiy asosli shakli ideal va qadriyatlarning ma’lum bir tuzilmasida o’zini namoyon qiladi, davrning ijtimoiy ong doirasi doirasida ularning o’zaro bog’liqligi sifatida mavjud. Bu hodisa tarixiy tafakkur uslubi kontseptsiyasida o’z aksini topgan. Tarixiy tafakkur uslubi tarixiy tafakkurning barcha darajalarida o’zini namoyon qiladi. Bu tarixiy tafakkurning barcha shakllarida va barcha darajalarida asosiy funksiyasini ta’minlovchi muhim omillardan biri – pirovardida, tarix olamini ijtimoiy taraqqiyot va o’zgartirish vositasi bo’lishdir. Binobarin, tarixiy tafakkur uslubi, jumladan, tarixiy bilimlarni u yoki bu ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatga aylantirish usulidir.

A.M. Gendinning fikricha, ijtimoiy xotira shaxs va ijtimoiy guruhlarning tarixiy tafakkurining asosini tashkil qiladi. Ijtimoiy xotira (yoki «o’ylanadigan o’tmish») hozirgi zamondagi o’tmishning ruhiy izlari bo’lib, o’tmish haqidagi

g'oyalarni ham kundalik ong darajasida, ham nazariy-mafkuraviy darajada o'z ichiga oladi[5: 12-13-c].

Shunday qilib, falsafiy va sotsiologik adabiyotlarda tarixiy tafakkurga mutlaqo boshqacha talqin berilishi, uning ta'riflarining xilma-xilligida namoyon bo'lishini ko'ramiz. Bu tasodifiy emas, chunki bu ma'naviy tarbiyaning o'zi o'z mazmuniga ko'ra juda murakkab va ko'p qirralidir.

Fikrimizni umumlashtirib aytadigan bo'lsak, yoshlarda tarixni anglash orqali kishida hayotni va o'zligini anglash qobiliyati shakllanadi. Ayniqsa, buyuk ajdodlarning vorislari bo'lgan, bashariyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan millatga daxldor inson qalbida o'tmishini o'rganishga ehtiyoj kuchayadi. Uning milliy g'ururi mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan yurt farovonligi uchun uni kamarbasta bo'lishga chorlaydi. Zero, tarix sahnalarida o'tmishi qora qilib ko'rsatilgan, ma'naviyati poymol etilgan, ma'rifatparvarlari tazyiq ostiga olinib, qatag'onga uchragan xalq va millatning asl tarixiy yuzini qayta tiklash, milliy merosini o'rganish, bugungi avlodlar zimmasidagi dolzarb vazifalardan biri sanaladi va jamiyatda tarixiy tafakkurining rivojlanishi ushbu vazifaning sifatli va samarali bajarilishiga hal etuvchi omil sifatida xizmat qilishi mumkin.

**Foydanilgan manba va adabiyotlar ro'yhati:**

1.Абдуллажанова Д. Тарихий онг ва тарихий хотира. //Фалсафа ва ҳуқуқ.– 2004.– № 2.– Б.83.

2.Барг М.А. Исторический факт: структура, форма, содержание // История СССР. - 1976. - № 6. - С. 56-69.

3. Слово о науке. Афоризмы. Изречения. Литературные цитаты. М. : Знание, 1978.

4. Плеханов Г.В. Проблемы теории и практики исторического процесса. -М.: Политиздат, 1989. – С.227.

5.Гендин А.М. Понятие социального будущего и его методологическое значение для прогнозирования // Методологические вопросы общественно-исторического предвидения: Проблемы социального прогнозирования. Вып.

XI (Красноярский гос. пед. институт) / Редкол.: Гендин А.М. (отв. ред.) и др. - Красноярск: Изд-во КГПИ, 1986. - С. 12-33.

6.Тарихий онг – маънавият таянчи. Қ. Махкамов, масъул муҳаррир А. Умаров. – Тошкент: «Наврўз» нашриёти, 2017. 61-б.

## O‘ZBEKISTONDA SOVETLAR DAVRIDAGI QATAG’ONLIK SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI

Abdujabbarov Mirzohid Abdug‘affor o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti erkin tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O’zbekistonda XX asrning 20-30 yillarida sovetlar tomonidan olib borilgan qatag’onlik haqida so’z boradi. Bu davrda amalga oshirilgan qatag’onlik milliy vatanparvar kadrlarning sho’rolar tomonidan ayovsiz yo’q qilinishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa bu siyosat qatag’onlik davrini eng uchiga chiqqan payt 1937-1938-yillarga to’g’ri kelgan.

**Аннотация:** В данной статье Узбекистан в 20-30- годы 20 века. Речь идет о репрессиях, проводимых Советами. Сделано за этот период усиление репрессий со стороны Советов против национально-патриотических кадров он отличается своей разрушенностью. Особенно эта политика совпала с 1937-1938 годами, когда период репрессий достиг своего апогея.

**Annotation:** In this article, Uzbekistan in the 20-30s of the 20th century It is about the repression carried out by the Soviets. Done during this period increased repression by the Soviets of national patriotic cadres it is distinguished by its destruction. Especially this policy coincided with 1937-1938, when the period of Repression reached its peak.

**Kalit so’zlar:** “Qosimovchilik”, “inog’omovchilik”, “uchlik”, “Botir gapchilar”, “18 lar guruhi”, “bosmachilik harakatlari”.

**Ключевые слова:** «Касимовчилик», «Иногамовчилик», «тройной», «Батир».

спикеры», «группа из 18 человек», «полиграфическая деятельность».

**Key words:** "Kasimovchilik", "Inoghamovchilik", "triple", "Batir

speakers", "group of 18", "printing activities".

Jahon tarixi odamzod o‘zi yashab turgan makonida ko‘p miqdorda yovuzlik,

jinoiy harakatlar ijod etganiga shohiddir. Fransuz olimi Laynus Polinga o‘zining

«Hech qanday urush bo‘lmasin» nomli asarida yer yuzida keyingi 5,5 ming yil davomida 14500 ta katta va kichik urushlar bo‘lib, ularda 4 milliardga yaqin odam

halok bo‘lgan, bu bundan bir necha o‘n yil oldin er kurrasida yashayotgan odamlar

miqdoriga tengdir», deb yozgan edi. Harbiy harakatlar yuz berishi va yuz bermasligidan qatiy nazar turli mamlakatlarning u yoki bu hududida qotilliklar, portlashlar, yong‘inlar, zaharlanishlar, odamlarni o‘g‘irlash va boshqa harakatlar yuz bergan va hozirda ham sodir bo‘lmoqda. Oktyabr to‘ntarishi oqibatida Turkistonda zo‘rlik bilan o‘rnatilgan mustamlakachi Sovetlar tuzumi birinchi kundan boshlab xalqimiz boshiga son-sanoqsiz qirg‘inlar, dahshatli va alamli kulfatlar olib keldi. Bu dahshatli rejimni o‘lkamiz xalqlari qabul qilmadilar. Ular istiqlol uchun, erk va milliy-ozodlik uchun 16 yil mobaynida qurolli kurash olib bordilar. Bu kurash davomida, ayrim xorijdagi muarrixlar hisobicha, 1 million 900 ming vatandoshimiz Turkistondan bosh olib, xorijiy mamlakatlarga chiqib ketdi va 1 million 700 ming yurtdoshimiz Sibirga, Uzoq Shimolga, Ukrainaga, Shimoliy Kavkazga, Uralga, Qozog‘istonga, Uzoq Sharqqa, Kavkazga, Volgabo‘yi rayonlariga surgun qilindi. XX asrning 20-yillarida amalga oshirilgan qatag’onlar shunisi bilan ajralib turadiki, bu davrda o’z xalqi uchun jonini ayamay xizmat qilgan siyosiy rahbarlar asossiz ayblar bilan qatag’on qilindi. Mustabid tuzum Markazdan O‘zbekistonga o‘zining ko‘p sonli sadoqatli xodimlar, vakillarini

rahbariy lavozimlarda ishlashga uzluksiz yuborib turdi. Ular yordamida o‘lka hayotida kechayotgan barcha jarayonlar, o‘zgarishlardan doimiy xabardor bo‘lib, mahalliy kadrlar faoliyatini kuzatib, nazorat qilib bordi. O‘z xalqi, yurtining milliy manfaatlarini himoya qilib, uning istiqbolini ko‘zlab, o‘zida kuch-iroda topib, bor haqiqatni aytishga jur’at qilgan millat kishilari birinchi navbatda hukmron Markazning qahr-zahriga duchor bo‘ldi.[1] Qatag‘on zulmkorlari, ularning gumashtalari bir imo-ishora bilan bunday yurt fidoyilarini oradan olib tashlash, faoliyatini og‘machilik, buzg‘unchilikda ayblash, sha’niga millatchi, xalq dushmani, aksilinqilobchi, burjua malaylari singari asossiz bo‘xtonlar bilan la’nat tamg‘asini tirkashga doimo tayyor turardilar. Buning yorqin ifodasini sovet mafkurachilari tomonidan to‘qib chiqarilgan va o‘zbek milliy kadrlari sha’nini bulg‘ashga qaratilgan «18 lar guruhi», «inog‘omovchilik», Milliy kuchlar safining bo‘lib tashlanishi «qosimovchilik» degan siyosiy ishlar misolida ko‘rish mumkin.[2] Mazkur guruhlar faoliyatiga oid tarixiy hujjatlarni ko‘zdan kechirib, tahlil etar ekanmiz, bu insonlar xatti-harakatida, faoliyatida ularni ayblashga bois bo‘ladigan hech bir asosli ashyo-dalillar bo‘lmaganligiga to‘la amin bo‘lamiz. Ularning yagona «gunohi» - bu o‘z millati dardi, tashvishi va manfaatini ko‘zlab, ayrim muhim muammolarni ko‘targanligi va ularni hal etishga yuqorining e’tiborini jalb etganligi bo’ldi xolos. Xo‘sh, «18 lar guruhi» tarkibi kimlardan iborat bo‘lgan? Ular sovet mutasaddilari oldida qanday gunoh qilgan edilar? Respublikaning taniqli arboblaridan tashkil topgan bu guruhdagi I. Xidiraliyev, M. Saidjonov, U.Ashurov, R. Rahimboboyev, R. Rafiqova va boshqalarga tirkalgan asossiz aybga, uyushtirilgan tuhmatu-bo‘htonga ko‘ra, go‘yo uning a’zolari ko‘p masalalarda noto‘g‘ri yo‘l tutganlar. Aslida esa ular hukmron Markazning ulug‘ davlatchilik va shovinistik siyosatiga, milliy kadrlarga nisbatan bepisandlik, loqayd lik yo‘liga qarshi chiqib, adolat va haqqoniylik tamoyillarini himoya qilib chiqqandilar. Shu bois rasmiy partiya organlari tomonidan mazkur guruh keskin qoralandi va uning a’zolari o‘z lavozimlaridan olinib, turli partiyaviy jazolarga giriftor etildilar. «Inog‘omovchilik» guruhi to‘g‘risida gap borganda ham unga

qo‘yilgan barcha ayblarning to‘liq tarzda to‘qib chiqarilganligi ayon bo‘ladi. Ma’lumki, Rahim Inog‘omov O‘zKP(b) MQ Matbuot bo‘limi mudiri va O‘zSSR Maorif xalq komissari vazifasida faoliyat yuritib kelgan. «Inog‘omovchilik» guruhi to‘g‘risida gap borganda ham unga qo‘yilgan barcha ayblarning to‘liq tarzda to‘qib

chiqarilganligi ayon bo‘ladi.[3] Ma’lumki, Rahim Inog‘omov O‘zKP(b) MQ Matbuot bo‘limi mudiri va O‘zSSR Maorif xalq komissari vazifasida faoliyat yuritib kelgan. U 1926-yilda «O‘zbekiston ziyolilari» degan risolasini e’lon qilgan. Risolada oktabr o‘zgarishi o‘zbek xalqi uchun kutilmagan voqea bo‘ldi va unga o‘zbek mehnatkashlari tayyor emas, degan gaplarni yozdi. Uning risolasida oktabrgacha bo‘lgan davrda «...Rus istibdodiga qarshi mustaqillik harakatida tarixiy rolni ziyolilar o‘ynagan», degan haqqoniy fikrlar ilgari surilgan. Shuningdek, R. Inog‘omov o‘zining bir qator nutqlarida O‘zbekiston Kompartiyasining mustaqil faoliyat yurita olmayotganligiga, Markazning nazoratchi organlarining o‘lka hayotidagi zo‘ravonligiga ham alohida e’tibor qaratgan. Respublikaning bir qator mahalliy partiya, sovet organlari mas’ul xodimlaridan N.Mavlonbekov, I.Isamuhammedov, M.Aliyev singari hammaslaklar Inog‘omov qarashlarini qo‘llab-quvvatlab chiqqandilar. Albatta, bunday muxolifotchi chiqishlar hukmron partiya mutasaddilarining qahriga uchramasdan, jazolanmasdan qolmasdi. Shu bois 1926– 1927-yillarda bu guruh faoliyati partiya tashkilotlarida bir necha bor muhokama qilinib, og‘machi guruhbozlikda ayblandi. R. Inog‘omov va uning tarafdorlari vazifalaridan olinib, nomlari qoralandi, o‘zlari esa tavba-tazarru qilishga majbur etildilar. «Qosimovchilik» guruhi ham 1929 – 1930-yillarda sovet hukmron rejimi tomonidan milliy kadrlarni, ziyolilarni qatag‘on qilish, jazolash maqsadida atayin uyushtirilgan navbatdagi uydirma bo‘lgan. O‘zSSR Oliy Sudining raisi lavozimida ishlab kelgan Sa’dulla Qosimov va uning yaqin maslakdoshlari deb topilgan N.Alimov, B. Sharipov kabi 7 kishi 1929-yilning ikkinchi yarmida qamoqqa olinadilar. Ularning atayin to‘qib chiqarilgan «ayblov ishi»ga siyosiy tus beriladi. Bunga ko‘ra, ular respublikadagi millatchi tashkilotlar bilan aloqa bog‘laganlikda ayblandilar. Ular «bosmachilik»

harakatiga yon bosganlikda qoralandilar.[4] Bu guruh Akmal Ikromov. Yo'ldosh Oxunboboyevning 4 ta a'zosi mana shunday asossiz ayblar bilan ayblanib, otib tashlandilar, qolgan 3 kishi esa ko'p yillik qamoq jazosiga hukm qilindilar. O'zbekiston ravnaqi, istiqboli uchun, xalqining baxt-u saodati, farovon turmushga erishishi uchun fidoyilik ko'rsatgan Fayzulla Xo'jayev, Turor Risqulov, Abdulla Rahimboyev, Akmal Ikromov, Isroil Ortiqov, Abdulla Karimov va boshqa o'nlab nomdor mahalliy rahbar kadrlarning hayot qismati ham pirovardida mana shunday fojia bilan yakun topdi. Mustabid tuzum hukmdorlari va ular gumashtalarining yeng shimarib qilgan «sa'y-harakatlari» natijasida 1937–1938-yillarda go'yo O'zbekistonda bir qator yirik aksilinqilobiy tuzilmalar borligi to'qib chiqarildi. Bular: respublika rahbarlari A.Ikromov va F.Xo'jayev boshchiligidagi «Burjua-millatchilik aksilinqilobiy tashkiloti markazi», Abdurauf Qoriyev rahbar bo'lgan «Musulmon ruhoniylarining millatchi-isyonchilar tashkiloti», «Aksilinqilobiy o'ng trotskiychi josuslar tashkiloti markazi», «Buxoro va Turkiston baxt-saodati» nomli aksilinqilobiy tashkilot, I. Ortiqov boshliq «Yoshlarning aksilinqilobiy burjua millatchilik tashkiloti», «Ingliz josuslik rezidenturasi», «Yapon josuslik qo'poruvchilik rezidenturasi» va boshqalar edi. 1937-yil 30 iyuldan boshlanib 1938-yil noyabriga qadar davom etgan qizil terror mobaynida 1,5 million kishi qamoqqa olingan, shundan 700 minggi otib yuborilgan. Qatag'onning qahrli tig'i jamiyat a'zolarining barcha toifalarini o'z domiga tortgan. O'zbekistonda esa 1937 yil 10-avgustdan 1938-yil 1-yanvargacha o'n ming etti yuz kishi qamoqqa olingan. Bulardan uch ming olti yuz o'n uch kishi qatl etildi, etti ming sakson etti kishi sakkiz-o'n yil muddatga qamoqqa tashlandi. O'sha yillari aholining barcha qatlamlari qatag'on girdobiga tushgan. Qatag'on avvalo, ziyolilar, din xizmatchilariga qarshi qaratilgan edi. Faqat 1937-yil dekabr oyida «uchlik» qarori bilan hukm qilingan uch ming olti yuz qirq to'rt kishidan bir ming to'rt yuz oltmish to'rt nafari imom, eshon, mulla va boshqa diniy xizmatchi bo'lgan. 1938 yilning fevralida «uchlik» yig'ilishlarida 2491 mahbus ustidan hukm chiqarilgan, shundan 2086 mahbus otuvga, 398 mahbus o'n yil muddatga, ikki mahbus sakkiz yil

muddatga qamoq jazosiga hukm qilingan. To'rt mahbus tergov vaqtida vafot etgan, bir kishigina ozod etilgan. 1937-1938-yillarda I.V.Stalin boshchiligida Sovet hokimiyati amalga oshirgan siyosiy qatag'onlar insoniyat tarixidagi eng dahshatli fojialardan biri edi. Bu davrda Sovet hokimiyatiga, uning mafkurasiga qarshi har qanday o'zgacha fikrlash, hatti-harakatga chek qo'yish, xalqni asoratda tutish, partiya va hukumat organlarini so'zsiz itoat etuvchi kadrlar armiyasiga aylantirish maqsadida misli ko'rilmagan ko'lamda qatag'on siyosatini avj oldirdi. Bu qatag'on to'lqini eng avvalo davlat arboblari, partiya va hukumat organlari, muassasalardagi mas'ul kadrlarga qaratildi. O'zbekistonda bu jarayonda o'sha davrning eng ilg'or, faol, bilimli va tashkilotchi milliy kadrlari, ziyolilari, maorif va madaniyat xodimlari, olimlar, ziyolilar, yozuvchilar mash'um qatag'on qurboni bo'ldilar. Stalin hukumati nafaqat ularning o'zlarini, balki oila a'zolarini ham qatag'on girdobiga tortdi. Eng so'nggi ma'lumotlar, tarixiy hujjatlarni har tomonlama o'rganish, tahlil qilishlar, surishtirishlar bunday tashkilotlarning respublika hududida butunlay bo'lmaganligini tasdiqlamoqda. Demak, bunday aksilinqilobiy tashkilotlar totalitar tuzum buyurtmasi asosida Markaz jallodlari va jazo organlari tomonidan atayin to'qib chiqarilgan. Buning orqasida ming-minglab begunoh, aybsiz insonlar shafqatsiz jazolangan, aziz umrlari xazon bo'lgan. Faqat 1937—1938-yillarda O'zbekistonda hammasi bo'lib mingdan ziyod kishi qamoqqa olingan. Ulardan uchlik: siyosiy boshqarma vakili, ichki ishlar xodimi va mahalliy hokimiyat vakili nazarda tutiladi. ming 920 nafari otib tashlangan, 37 ming nafari esa turli muddatli qamoq va surgunlarga hukm etilgan.[5]

Xulosa qilib aytganda, mustabid tuzum jallodlarining bu bedodligini hech narsa bilan oqlab bo'lmaydi. Yaqin milliy tariximizning bu qorong'u zulmati xalqimiz dilida mangu o'chmas armon bo'lib qoldi. U faqat milliy istiqlol tufayligina to'la yuzaga chiqib, bundan yurtimiz fuqarolari chinakam ro'shnolik ko'rmoqdalar. Sovet tuzumining qatag'onlaridan milliy ziyolilar eng ko'p aziyat

chekdi, mislsiz qurbonlar berdi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng qatag'on bo'lgan yurtdoshlarimizni nomi asta-sekinlik bilan oqlanib, aybsiz deb

topilgan. Ularning oilalariga chuqur ta'ziya izxor etilib, qilgan xizmatlari uchun har yili Prezidentimiz tomonidan tashakkurnomalar yuboriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Шамсутдинов Р. Истиқлол йўлида шаҳид кетганлар. – Т.: Шарқ, 2001. –Б.19

2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sa%CA%BCdulla_Qosimov

3. Зикруллаев М. Ўзбекистонда совет давлатининг қатағон сиёсати: келиб чиқиш сабаблари ва фожиали оқибатлари (Илмий мақолалар тўплами). Тошкент: Ўзбекистон, 2022. – Б. 110.

4. https://e-tarix.uz/vatan-tarixi/444-qatogonlik-dawrlari.html [Murojaat qilingan sana: 09.02.2023]

5. Шамсутдинов Р. Қатағон қурбонлари. Иккинчи китоб - Т.: Шарқ, 2007 Б 18-22-бетлар

## MAXSUS PEDOGOGIKA VA LOGOPEDIYA SOXASIDAGI XALQARO TAJRIBALAR

**Valiyeva Dilnoza Bahromjon qizi**

Namangan davlat pedogogika instituti Maxsus pedogogika logopediya yo'nalishi 1-bosqich talabasi Tel:+99899994320

**Ilmiy rahbari: Voxobova Munira**

NamanganDavlat Pedagogika instituti Pedagogika va Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mahsus pedogogika va logopediya sohasidagi xalqaro tajribalar bolalarning kommunikatsiya va ta'lim ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyatga ega.Ushbu sohada Yevropa va Amerika mamlakatlarida mahsus tashxis va baholash tizimlari,innovatsion interventsiya dasturlari,oilaviy qo'llab-

quvvatlash,o'qituvchilar va logopedlar uchun tayyorgarlik,shuningdek,zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali bolalar va ularning oilalariga keng ko'lamli yordam berilmoqda.Ushbu tajribalar mahalliy tizimlarni rivojlantirishda va bolalarning individual ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynaydi.

**Kalit so'zlar:** Logopedik mashqlar, ijtimoiy muloqot, reabilitatsiya, qiyinchiliklar, lexika, syllabik, fonetika, talab, murojaat, diagnostika, nutq rivojlanishi, ovoz.

**Abstract:** International experiences in the field of special pedagogy and speech therapy are important in meeting the communication and educational needs of children. In this field, in European and American countries, special diagnostic and assessment systems, innovative intervention programs, family support, training for teachers and speech therapists, as well as the use of modern technologies, provide extensive support to children and their families. These experiences play an important role in developing local systems and meeting the individual needs of children.

**Key words**: Logopedic exercises, social communication, rehabilitation, treatment, difficulties, vocabulary, syllabic, phonetics, demand, appeal, diagnostics, speech development, voice

**Абстрактный**:Международный опыт в области специальной педагогики и логопедии важен для удовлетворения коммуникативных и образовательных потребностей детей. В этой области в странах Европы и Америки широкую поддержку детям и их семьям оказывают специальные системы диагностики и оценки, инновационные программы вмешательства, поддержка семьи, подготовка учителей и логопедов, а также использование современных технологий. Этот опыт играет важную роль в развитии местных систем и удовлетворении индивидуальных потребностей детей.

**Ключевые слова** :Логопедические упражнения, социальная коммуникация, реабилитация, лечение, трудности, словарный запас, слоговое

письмо, фонетика, потребность, обращение, диагностика, речевое развитие, голос.

**Kirish:** Mahsus pedagogika va logopediya sohasidagi xalqaro tajribalar turli mamlakatlarda bolalarning maxsus ehtiyojlariga javob berish uchun yaratilgan usullar va tizimlarni o'z ichiga oladi. Quyida ba'zi asosiy yondashuvlar keltirilgan:

1. -Inkluziv ta'lim: Ko'plab mamlakatlar, jumladan, Skandinaviya davlatlari, inkluziv ta'lim tizimlarini rivojlantirgan. Bu tizimda maxsus ehtiyojli bolalar odatiy sinflarda ta'lim oladi va ularning ehtiyojlariga moslashtirilgan dasturlar ishlab chiqiladi.

2. -Logopedik xizmatlar: AQSh va Kanadada logopedik xizmatlar ta'lim muassasalarida keng tarqalgan. Bu xizmatlar bolalarning nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun individual va guruh mashg'ulotlari o'tkazishni o'z ichiga oladi.

3.- Erta muomala: Avstraliya va Yevropa davlatlarida bolalarga erta yoshidan boshlab muomala qilish, ya'ni maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlash, ularga rivojlanish jarayonida yordam berish uchun dasturlar mavjud.

4. -Oilaviy qo'llab-quvvatlash: Gollandiya va Yaponiyada oilalarga maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda yordam beruvchi dasturlar ishlab chiqilgan, bu orqali ota-onalar ta'lim jarayoniga jalb qilinadi.

5. -Tadqiqot va innovatsiyalar: Birlashgan Qirollik va Germaniya kabi mamlakatlarda logopedik usullar va materiallar uchun ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, bu esa metodologiyalarning takomillashishiga yordam beradi.

Logopediya bu — nutq buzilishlari haqidagi maxsus ta'lim va tarbiya vositasida nutq buzilishlarini o'rganish, tuzatish va oldini olish haqidagipedagogik fandir.Logopediya nutq faoliyati buzilishining sabablari,mexanizmlari, alomatlari,oqimlari tarkibini o'rganadi. Shuning uchununi maxsus pedagogika sohasiga qo'shadilar. Logopediya" termini grekcha logos (so'z, nutq), peydeo(tarbiyalayman, o'qitaman) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, tarjimadato‘g‘ri“nutqni tarbiyalash" ma'nosini anglatadi. [1]

Fan sifatida logopediya nutq nuqsonini tuzatish, nutqiy faoiiyatizaiflashgan shaxslarni o'qitish va tarbiyalash jarayoni hisoblanadi.Logopediyani o'rganish obyekti - nutq nuqsoniga ega bo'lgan shaxs hisoblanadi.Adabiy tilda qabul qilingan nutq normasidan biroz bo‘lsa ham chetgachiqish - bu nutq nuqsoni hisoblanadi. Zamonaviy logopediya strukturasi maktabgacha yoshli, maktab bolalarlogopediyasi, o'smirlar va katta yoshdagilar logopediyasiga bo'linadi.Logopediya fan sifatida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.U tilning, nutqning ijtimoiy mohiyati, bolaning nutqi, tafakkuri va butunruhiy faoliyatning chambarchas bog'liqligi bilan belgilanadi. Nutq vazifasi insonning muhim ruhiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Nutq rivojlanishi jarayonida bilish faoliyatining oliy shakllari, tafakkurqobiliyatlari shakllanadi. So'zning ahamiyati o‘z-o‘zidan umumlashtiruvchihisoblanadi va shu munosabat bilan o'zida nafaqat nutq birligini, balkitafakkur birligini ham namoyon qiladi. Ular aynan o'xshash emas va ma'lumdarajada bir-biriga bogliq bolmagan holda paydo bo'ladi. Lekin bolaningruhiy rivojlanishi jarayonida murakkab, sifat jihatdan yangi birlik nutqiytafakkur, nutqiy fikrlash fnoliyati paydo boladi. Logopedlar o’z ishlarini individual reja asosida olib boradilar,bu esa har bir bemorning ehtiyojlariga mos keladi.Nutqiy muomala qobiliyatini o'zlashtirish o‘ziga xos insoniy, ijtimoiy aloqalar uchun zamin hozirlaydi. U tufayli bolaning atrof-muhit haqidagi tasavvurlari shakllandi va oydinlashadi, uni aks ettirish shakllaritakomillashadi. Bolaning nutqni o‘zlashtirishi uning xatti-harakatlarini anglash,rejalashtirish va tartibga solishga imkon beradi. Bolada nutqiy muammolarga turli qiyinliklar,dislaliya yoki afaziyaga chalingan bolalar kiradi.Muloqot qiyinchiliklariga esa autizm va rivojlanish muammolarini misol qilish mumkin.Nutq muomala faoliyatning turli shakllarini rivojlantirish va jamoa mchnatida ishtirok etish uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi. U yoki bu darajadagi nutq buzilishlari (nutq buzilishlaring xususiyatiga bogliq holda) bolaning barcha ruhiy rivojlanishlariga salbiy ta'sir etadi, uning faoliyatida, yurish-

turishida aks etadi. Og‘ir nutqiybuzilishlar aqliy rivojlanishga, ayniqsa, bilisli faoliyati oliy darajalariningshakllanishiga ta'sir etishi mumkin. Bu nutq va tafakkurning chambarchas bog'liqligi, ijtimoiy, jumladan nutqiy aloqalaming cheklanganligi bilanbog'langandir. Bu jarayonda bolaning atrof-muhitni idrok etishi amalgaoshadi.Nutq buzilishlari logopedik yordam va mahsus mashqlar orqali davolanishi mumkin.Har bir holat individual yondashuvni talab etadi. Nutq buzilishi, nutqiy muomalaning cheklanganligi bola shaxsiningshakllanishiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi, aslida bo‘linagan ruhiy buzilishlarni,hissiy-irodaviy sohaning o‘ziga xos xususivatlarini keltirib chiqarishi, uttingxarakteridagi salbiy fazilatlar (tortinchoqlik, qat'iyatsizlik, odamovilik, sahiylik, nomukammallik tuyg‘usi)ning rivojlanishi uclum yo‘l ochib berishi mumkin [2] Bularning barchasi savodxonlikni egallashga, umuman o'zlashlirishga,kasb tanlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, logopediya fanining ahamiyati bolaning ntitqiy btizilishini bartaraf etish, shu bilan birga uning mukammal, har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. Nutq muomala faoliyatning turli shakllarini rivojlantirish va jamoa mehnatida ishtirok etish uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi.U yoki bu darajadagi nutq buzilishlari (nutq buzilishlaring xususiyatiga bogliq holda) bolaning barcha ruhiy rivojlanishlariga salbiy ta'sir etadi, uning faoliyatida, yurish-turishida aks etadi. Og‘ir nutqiy buzilishlar aqliy rivojlanishga, ayniqsa, bilisli faoliyati oliy darajalarining shakllanishiga ta'sir etishi mumkin. Bu nutq va tafakkurning chambarchas bog'liqligi, ijtimoiy, jumladan nutqiy aloqalaming cheklanganligi bilanbog'langandir. Bu jarayonda bolaning atrof-muhitni idrok etishi amalgaoshadi.[3

**Xulosa:**

Xulosa qilib aytganda, mahsus pedogogika va logopediya sohasidagi xalqaro tajribalar, turli mamlakatlardagi metodlar va yondashuvlar ,muammolarni hal qilishda yangi imkoniyatlarni taqdim etadi.Ushbu sohalarda hamkorlik va tajriba almashish,har bir mutaxassisga o’z faoliyatini yanada takomillashtirishga yordam beradi va natijada muammolar bilan kurashishda samaradorlikni oshiradi.Bu

sohadagi global tajriba ,kelajakda inklyuziv ta'lim va rivojlanishning samarali usullarini ta'minlashda davom etishi kutilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**:

**1 –** Ayupova M.Y. "Logopediya: M.Y. Ayupova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. –T:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007-560b.

**2 –**Ahmedova Z.M. Ayupova M.Y. Xamidova M.P. Logopedik o'yin darsligi, Toshkent 2007.

**3 –**V.Rahmonova. Maxsus pedagogika. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2004.

## GLOBALLASHUV JARAYONIDA TA'LIM-TARBIYANING O'RNI VA AHAMIYATI

Tillayev Bobomurod Abduvoxobovich
Gumanitar fanlar kafedrasi katta o`qituvchisi
Soataliyeva Layloxon Sobitali qizi
Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti 1-bosqich talabasi.

**Annotatsiya**;Ushbu maqolada jadal sur'atlarda o'sib borayotgan globallashuv davrida ta'lim-tarbiyaning tutgan o'rni, uning ahamiyati,bu jarayonda yoshlarimizning ta'lim-tarbiyasi, globallashuvning ta'lim tizimiga ta'siri hamda uning imkoniyatlari haqida so'z boradi. Shu jumladan globallashuv jarayonining ta'lim-tarbiyaga bo'lgan ijobiy va salbiy jihatlari xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar**;globallashuv, ta'lim va tarbiya, axborot kommunikatsiya texnologiyalari,media, mediaqurilma, mediamakon.

**Kirish** Bugungi kunda globallashuv davrida ta'lim-tarbiya nafaqat milliy, balki global miqyosda ham o'zgarishlarga duch kelmoqda.Bu jarayonda ta'lim va

tarbiyaning tutgan oʻrni va ahamiyati juda katta.U oʻzgaruvchan global sharoitda yoshlarni tayyorlash, jamiyatni rivojlantirish madaniy oʻzgarishlarga moslashish va iqtisodiy barqarorlikni saqlashda muhim omil hisoblanadi.Ta'lim tizimi globallashuvning ijobiy va salbiy ta'sirlarini boshqarish, yoshlarni muvaffaqiyatli va intiluvchan qilish uchun zarur vositadir. Axir aytiladiku- ''Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo, illat izlaganga illatdir dunyo.'' Yoshlar bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarga, har xil saytlarga sho'ng'ib bormoqda, buni esa fanda **Telefonimiya** deb atashadi**.**

Buyuk allomalarimizdan biri Abu Nasr Forobiy insondagi bilishga boʻlgan ehtiyoj, qiziqish, axloq, madaniyat ikki yoʻl bilan ya'ni ta'lim va tarbiya yoʻli bilan hosil qilinadi,ta'lim degan soʻz xalqlar va shaharliklar oʻrtasida nazariy fazilatni birlashtirish,esa shu xalqlar oʻrtasidagi tugʻma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan soʻzdir deydi. Ta'limdagi globallashuv jaroyonlari, oʻquv dasturlariga yangi predmetlar, fanlar kiritishni taqozo etadi. Bu oʻrinda asosiy e'tibor milliy taraqqiyot va madaniyat nuqtayi nazardan yondashishga qaratilishi lozim.Chunki boshqa davlatlardan oʻzlashtirilib amaliyotga tatbiq predmetlar, fanlar har doim ham ijobiy natija beravermaydi. Bugungi kunda globallashuv ta'lim tizimiga ham ta'sir etmoqda. Hozirda ilmiy adabiyotlarda "global ta'lim", "global maorif" "global etika", degan atamalar paydo boʻlmoqda. Tarbiya sohasidagi globallashuvni umuminsoniy qadriyatlarda koʻrishimiz mumkin. Inson hayotini har xil jabhalarida namoyon bo'ladi.

**Asosiy qism**

Yoshlarimizning virtual olamda faollashuvi ko'p holatlarda salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Afsuski, tajovuzkorlikni targ'ib etuvchi audio, video va multimedia mahsulotlari savdosi avj olgani, turli reklamalar, kompyuter, telefon o'yinlarining ko'payib borayotgani bugungi yoshlar ongini zaharlamoqda. Ularning barchasi o'smir yoshlarimizning psixologik holatiga bosim o'tkazishning samarali vositasi sanaladi. «Axborot urushi» xavfi tahdid solayotganini ham jiddiy e'tiborda tutib, barcha ezgu amallarni qo'llash davri keldi. "Axborot urushi" oxirgi maqsadga

erishish yo'lidagi vosita sanaladi. Ayrim ommaviy axborot vositalaridagi reklamalar axborot o'rniga uydirma tarqatish, boshqalarni yolg'on axborotga ishontirish imkonini beradi. Hamda bu shubhasiz o’quvchining ongiga ta’sir etadi. Kundalik hayotda uchraydigan fitna va bo'htonlar ham "Axborot urushi"ning primitiv ko'rinishidir. Reklamalar orqali tavsiya etilayotgan turli dori mahsulotlarini bilib-bilmay iste'mol qilayotgan insonlar ham talaygina. Bunday insonlarni ko'p aldovlar sabab o'z sog'ligidan shikoyat qilganini ham kuzatish mumkin. Ommaviy axborot vositalari faqat ezgu maqsadlar yo'lida xizmat etmog'i darkor.

Yurtimizda chiqarilayotgan har bir qonun inson manfaati uchun xizmat qiladi. Shunday ekan, virtual olam ham omma orasida ma'naviy-axloqiy pok jihatlarni shakllantirish va ezgu-maqsadlar yo'lida xizmat qilsin.

Turli o'quv treninglar, vebinarlar tashkil etish, so'rovnomalar o'tkazish ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning internetdan, mobil aloqa tarmoqlaridan o'rinli va samarali foydalanishlari uchun muassasa rahbarlari, professor-o'qituvchilar, psixologlar tomonidan ommaviy-axborot vositalari bilan ta'limning uzviyligini ta'minlash hamda mavzuga doir o'quv qo'llanma ishlab chiqish ham maqsadga muvofiq. Mamlakatimizda«Eng yaxshi matbuot kotibi», «Faol mahalla raisi», «Eng yaxshi rahbar», «Eng faol ma'naviyatchi», «Eng faol tadqiqotchi olim» ko'rik-tanlovlarini doimiy tashkil etilishi yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etmoqda. Yot axborot hamda uning salbiy ta'sirini oldini olishda mutaxassislar tomonidan turli chora-tadbirlar, ijtimoiy-psixologik dastur, o'quv adabiyotlar yaratish orqali o'quvchilarda axboriy-psixologik immunitet tizimini shakllantirish lozim.

Umuman olganda, axborotlar oqimidan foydalanish bo'yicha yosh, sog'lom immunitetni hosil qilish, ijobiy tomonlarini o'rgatish bilan birga, salbiy oqibatlarini ham tushuntirib o'tish darkor hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

1.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O'zbekiston, 2017.-485 b.
2.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat,2016.174 b.
3.Odilqoriyev X. T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. Toshkent, 2002.117b
4.Globallashuv asoslari. O‘quv qo‘llanma. Samarqand_"SamDChTI"nashriyoti, 2023.79-81 -82b.

## GLOBALLASHUV DAVRIDA TA'LIM - TARBIYANING O'RNI VA AXAMIYATI

NamDPI Gumanitar fanlar kafedrasi
katta o`qituvchisi
Abduqahhorova Mohlaroy Mirzaolim qizi
NamDPI Maktabgacha ta’lim sirtqi
yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada globallashuv jarayonida yosh avlodga beriladigon milliy tarbiya, uning ahamiyati bola tarbiyasidagi muhim jihatlar haqida so'z boradi. Yosh avlodga milliy ta'lim-tarbiya berish orqali ularni tog'ri yo'lga boshlash, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash mumkinligi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:**globallashuv, milliy qadryat, shaxs, ta'lim-tarbiya, ezgulik va yovuzlik, Vatan, sadoqat, muhabbat, ma'navat, barkamol, avlod.

**Аннотация:** В статье говорится о национальном образовании, данном молодому поколению в условиях глобализации, его значении в образовании детей. Подчеркивалось, что направить их на правильный путь и воспитать в духе верности Родине можно, обеспечив национальное воспитание молодого поколения.

**Annotation:** The article talks about the national education given to the young generation in the process of globalization, its importance in child education. It was emphasized that it is possible to start them on the right path and educate them in

the spirit of loyalty to the Motherland by providing national education to the young generation.

Xalqimiz azal-azaldan axloqiy fazilatlarga boy bo’lgan. Ota-bobolarimiz farzand o’stirar ekanlar, ularning xulq-atvorlariga, gap-so’zlariga, kishilar oldida o’zlarini qanday tutib, nimalar haqida fikrlashib, o’z maqsadlarini qanday so’zlar bilan tushuntirishlariga katta ahamiyat berishgan. Ular farzandlarining qurslik qilishi, kattalar suhbatiga aralashishi, nojo’ya ishlariga zinxor-bazinxor yo’l qo’ymaganlar. Bu narsalarga farzand tarbiyasining eng muhim tomoni deb qaraganlar.Sharqona odob ming yillar mobaynida islomiy tarbiya qoidalari asosida tarkib topib, takomillashib borganligi tarixdan ma’lum. Chunonchi, Qur’oni karim oyatlari mazmuni, Payg’ambar alayxissalom hadislari, sharq allomalari va faylasuflarining kitoblari tarbiyamizning manbai bo’lib xizmat qilgan. Islomiy tarbiya musulmonlar hayotining barcha qirralarini, hatto mayda jihatlarigacha qamrab olgan.

Davlatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan kundanoq yoshlarni har taraflama ma'naviy yetuk va barkamol etib tarbiyalash borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Shundan biri Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2018-yil 14-avgustdagi ,,Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash ularga ta'lim tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora tadbirlari togrisida"gi qarori misol bola oladi. Globallashuv jarayonida milliy qadryatlarimiz, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'rni kuchayib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov globallashuv atamasiga quyidagicha ta'rif beradi: ,,Bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayonidan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas. Shu ma'noda globallashuv bu avvalo hayot sur'atining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir". Shu jumladan ta'limda ham globallashuv sharoitida o'sib kelayotgan yosh avlod va ularga ta'lim-tarbiya

beruvchi mutaxassislarning ma'naviy-madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga egaa bo'lib, ma'naviyatli, barkamol yetuk yosh avlodni tarbiyalashda umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qitivchilarning oldida turgan dolzarb vazifalardan biriga aylandi desak xato qilmaymiz. Globallashuv atamasi dastlab XX asrning 80-yillari boshlarida iqtisodiy sohada sodir bo’lgan o’zgarishlarni yuzaga keltirgan omil sifatida amerikalik olim T. Levittning 1983-yildagi “Garvard biznes revyu” jurnalida e’lon qilingan maqolasida qo’llanilgan edi.

Aslida, globallashuv XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli darajada va ko’rinishlarda mavjudbo’lgan va hozirgi davrimizga kelib bu jarayonning avj olishi ro’y bermoqda. Buning ayrim jihatlari mamlakatimiz uchun ijobiy bo’lsa, ayrimlari salbiy ta’sir etadi. Bu ayniqsa, ma’naviyatga yetarlicha zarar keltiradi.Darhaqiqat, globallashuv jarayoni hozirda hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelmoqda. Globallashuv jarayonidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo’lida foydalanish mumkin. Ezgulik yo’lidagi harakatlar davlatni va jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladigan bo’lsa, yovuzlikni maqsad qilgan taraqqiyot mahsuli esa buning tamomila aksidir. Albatta, bu jarayonlardan ko’z yumib bo’lmaydi. Muammoning qay darajadaligidan qat’iy nazar uning oldini olish, bunga qarshi kurashish choralarini izlash bizning oldimizda turgan vazifadir.

Globallashuv jarayonida tahdidlar masalasiga to’xtaladigan bo’lsak, u barcha sohalarda bo’lgani kabi ma’naviyatga ham o’z ta’sirini o’tkazmoqda.Globallashuv – bu ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayondir. Globallashuv xalqimiz ongiga kuchli ta'sir etuvchi hodisa deb o'rganiladi. Bugungi kunda inson hayotidagi kichkina arzimagan habar ham inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan bolishi mumkin.Jumladan, ma’naviy tahdidlarning bir ko’rinishi bo’lgan “ommaviy madaniyat” niqobidagi tazyiqlarning yoshlar ongiga ta’siri mamlakat taraqqiyoti uchun xavf soladi. Yosh avlod uyali aloqa vositasidan foydalanishi, internet klublariga kirishi, mobil aloqadan noto'g'ri foydalanib behayo kinolar va sur'atlar ko'rib yurishi bularning barchasi inson ma'naviyatiga nojo'ya ta'sir qilib ularni

zaharlashi mumkin. Bunday jarayonlarda yosh avlodlarni to'g'ri yo'lga boshlashimiz lozim Bunda:

– ularda, turli xildagi ma’naviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish;

– yoshlarni ma’naviy merosimiz namunalari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish;

– yosh bolalarga mobil telefonlar va kompyuter o’yinlarining inson sog’ligi, ma’naviyati, ongiga yetkazadigan salbiy ta’sirlari haqida tushuntirish ishlari olib borish lozim.

Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayoni milliy, ma'naviy qadryatlarimiz asosida bo'lishi hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha davrlarda bo‘lgani kabi hozir ham komil har taraflama yetuk shaxs yetishtirish davlatimizning muhim vazifa va maqsadlaridan biridir. Buning uchun har bir pedagog yosh avlodlarga tarbiya berishda inovatsiyalardan tog'ri foydalanib axborot texnologiyalardan va media axborotlardan tog'ri foydalanib mustaqil fikrga ega bolgan shaxs etib yetishtirishni muhim maqsad qilib olishi zarur. Yoshlarimizning ma’naviy olamini boyitish,ularniilmli,ma’rifatli qilibtarbiyalash yo’lida nafaqat o’qituvchi murabbiylar balki barchamizbirlashib, millatimiz ma’naviyatini yillar ,asrlar davomida yuksaltirib borish yo’lidaharakar qilishimiz va bu borada avlodlarga namuna bo’lishimiz kerakligini har Birimiz his qilib, doim harakatda bo’lishimiz kerakligi hozirgi zamon talabi, Shundagina hozirgi globallashuv davrida avlodlardan meros yengilmas kuch–manaviyatimiz orqali buyuk kelajak yarata olamiz, shundagina biz yoshlarni, balki butun xalqimizni yovuz g'oyalar ta'siridan ma'naviy taxdidlardan asrab, ezgu g'oyalar asosida yurtga sadoqat, vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantira olamiz.

**XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi globallashuv davrida yosh avlodni ma'nan yetuk barkamol shaxs qilib yetishtirish har bir davlatning muhim maqsadi hisoblanar ekan. Yosh avlodni uyali aloqa vositalari, internet klublaridan unumli foydalanishlarini nazoratga olinishi, ularga buning salbiy oqibatlarini

tushintirish kelajakda ularni vatanga sadoqat, muhabbat ruhida tarbiyalashga sabab boladi. Buning uchun yoshlarga milliy, ma'naviy qadryatlarimiznu Vatan tuyg'usini qon qoniga singdirib borishimizlozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Sh.Mirziyoyev ,,Yoshlarni ma'naviy axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora tadbirlari togrisida"gi qarori.
2. Karimov ,,Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asari


## GENDER MADANIYAT SHAXSNING ASOSIY MADANIYATINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

Boyjonov Furqat Baxromovich Alfraganus universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsent v.b. E-mail: furqat1001@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada madaniyat haqida umumiy tushuncha berilib, shu bilan birga gender madaniyat shaxsning asosiy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida bo‘lishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Madaniyat quyidagilarni o‘z ichiga oladi: til, urf-odatlar va an’analar, turmush tarzi, ilm-fan, umuminsonlar qabul qilgan xatti-harakatlar me’yorlari, e’tiqodlari, bilimlari, hayotiy qadriyatlari va dunyoni san’atda namoyish etishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** madaniyat, gender madaniyat, odob-axloq, axloqiy mas’uliyat, urf-odatlar va an’analar, turmush tarzi, ilm-fan, ta’lim.

**Аннотация:** В этой статье дается общее представление о культуре, а также дается информация о гендерной культуре как компоненте основной культуры человека.

Культура включает в себя: язык, обычаи и традиции, образ жизни, науку, общепринятые нормы поведения, убеждения, знания, жизненные ценности и представление мира в искусстве.

**Ключевые слова:** культура, гендерная культура, этикет, моральная ответственность, обычаи и традиции, образ жизни, наука, образование.

**Abstract:** This article provides a general understanding of culture, and at the same time provides information that gender culture is as a component of the main culture of the individual.

Culture includes: language, customs and traditions, lifestyle, science, norms of behavior adopted by the genders, beliefs, knowledge, life values, and thought to represent the world in art.

**Key words:** culture, gender culture, etiquette, moral responsibility, Customs and traditions, lifestyle, science, education.

“Madaniyat” termini (lot. kul’tura - yetishtirish, tarbiyalash, o‘qitish, rivojlantirish, nurga sig‘inish) deyarli barcha tillarda mavjud bo‘lib, turli vaziyatlarda va har xil kontekstlarda qo‘llaniladi. Har bir xalqning madaniyati insoniyat tarixining murakkab, ko‘p qirrali qiyofasini aks ettiradi. Keng ma’noda madaniyat - bu tabiat tomonidan emas, balki odamlar o‘zlarining aqliy va tarixiy rivojlanish jarayonida yaratadigan narsadir.

Madaniyat quyidagilarni o‘z ichiga oladi: til, urf-odatlar va an’analar, turmush tarzi, ilm-fan, umuminsonlar qabul qilgan xatti-harakatlar me’yorlari, e’tiqodlari, bilimlari, hayotiy qadriyatlari va dunyoni san’atda namoyish etish.

Madaniy me’yorlar har qanday jamiyatda mavjud. O‘z xalqingiz madaniyatini doimiy ravishda o‘rganish, yodda tutish va uni himoya qilish zarur. Axir, bu iste’molchilarning tabiatga bo‘lgan munosabati, tarixiy obidalarni vayron qilinishi, jamiyatdagi ma’naviy inqirozi, moddiy qadriyatlarga intilish - bularning barchasi madaniyat yetishmasligining dastlabki belgilaridir. Xalq madaniyati uning vakillari madaniyatidan kelib chiqadi. Vijdon va sharaf, mehr-oqibat, o‘zlarining tarixiy qadriyatlari bilan faxrlanish, kattalar yoki bolalar bilan muomala qilish qobiliyati - bu tuyg‘ular va ko‘nikmalar faqat odamlarga xosdir. Ushbu fazilatlarni, birinchi navbatda, oilada haqiqiy madaniyat yordamida tarbiyalash va rivojlantirish

mumkin. Madaniyatli yoki aqlli odam hech qachon boshqa odamga – jismoniy yoki psixologik zarar yetkazmaydi [2].

Madaniyat hayotimizning barcha jabhalarida mavjud. Bu gender aloqa, shaxsning munosabatlari va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq xatti-harakatlarga ta’sir qiladi. Har qanday jamiyatda ayolga munosabat, ayolning mavqei ma’lum bir jamiyat madaniyati darajasining mezonidir. Shuning uchun gender – bu xalq madaniyatining ajralmas qismidir.

Bolaligidanoq odam o‘zini shunday tutishni o‘rganishi kerakki, u bilan oilada, ishbilarmonlik muhitida, bo‘sh vaqtlarida muloqot qilish qulay va yoqimli bo‘ladi. Gender madaniyati - bu individual va shaxsiy xususiyat, insonning umumiy madaniyatining bir qismi, shu jumladan, gender mustaqilligi, dunyoning gender surati, o‘ziga xos gender qadriyat yo‘nalishlari va xulq-atvor shakllari.

Gender madaniyati gender roli va zamonaviy gender stereotiplari, ayol va erkak shaxsiyatining xususiyatlari anglashni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Dunyoning gender idrokiga qarab, patriarxal yoki tenglik tipidagi shaxsiyatning gender madaniyati shakllanadi. Shunday qilib, erkakning oila va jamiyatdagi hukmron mavqei haqidagi an’anaviy g‘oyalarga asoslangan insonning umumiy madaniyatining tarkibiy qismi shaxsning patriarxal gender madaniyatini shakllantiradi. Shaxsning teng huquqli gender madaniyati gender tengligi prinsipini amalga oshirishga asoslangan tarkibiy qismdir. Zamonaviy dunyoda, Sharq mamlakatlari va O‘zbekiston Respublikasi, boshqa ko‘plab mamlakatlar singari, gender madaniyatining patriarxal turiga kiradi [3].

Gender o‘zini o‘zi anglash fonida gender madaniyati umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligini va har xil jinsdagi shaxslar uchun teng huquqlarni, sheriklik va teng nikohlarga yo‘nalishni, boshqa jinsga bo‘lgan hurmatning namoyon bo‘lishini shakllantiradi.

Shaxsning xulq-atvori, madaniyati, uning shaxsiy fazilatlarini aks ettiradi. Agar biror kishi tarbiyali, rostgo‘y, samimiy, o‘zi gatalabchan bo‘lsa, o‘zining va birovning qadr-qimmatini hurmat qilsa, u o‘zini tutishga va shunday qarashga

harakat qiladi, shunda uning tashqi qiyofasiga, fe'l-atvori, o'zini tutishida hech qanday xayolparast, mag'rur, yolg'onchi, odobsiz bo'lmaydi. Bu xususiyatlarning barchasi erkak va ayolga tegishli.

Gender madaniyati quyidagilarni nazarda tutadi:

- o'rta maktab o'quvchisining erkak va ayolning hayotiy maqsadi, ularning o'ziga xos ijobiy fazilatlari va xarakter xususiyatlari to'g'risida g'oyalarini shakllantirish;

- o'g'il bolalar / yigitlar, qizlar / qizlarning fiziologik, psixologik va axloqiy xususiyatlarini to'liqroq ochib berish uchun sharoit yaratish;

- erkak va ayol qadr-qimmati, or-nomusi haqida g'oyalarni shakllantirish[97].

Gender madaniyatini shakllantirish mezonlari:

1. O'g'il va qiz, o'g'il va qiz bola o'rtasida to'g'ri va adolatli munosabatlarni o'rnatish;

2. O'zaro tushunish va o'zaro hurmatga intilish va uni rivojlantirish;

3. Halollik, samimiylik, ishonch, sadoqat, rahm-shafqat, o'zaro yordamning mavjudligi.

Konfutsiyning iqtibosini muhokama qilish: "Agar tabiat odamning odob-axloqida ustun bo'lsa, siz vahshiy bo'lib qolasiz, agar yaxshi xulq tabiatni yoritib bersa, siz Muqaddas Bitiklar bo'yicha mutaxassisni olasiz. Faqat tabiat va kimga bir yaxshi naslchilik muvozanatida bo'lgan munosib shaxs deb atash mumkin.

Qadimgi xitoy mutafakkiri va faylasufi Konfutsiy haqida gapiradi. Bu ta'limot Xitoy va Sharqiy Osiyo hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan. U konfutsiylik deb ataluchi bir tizimga aylanib, ushbu tizim ko'pincha din bilan taqqoslanadi, ammo Konfutsiy etikasi diniy emas, unda cherkov instituti yo'q. Barkamol jamiyatni yaratish Konfutsiylik idealidir, bu yerda har bir inson o'ziga xos funksiyaga ega. Konfutsiy esa axloqning oltin qoidasini shakllantirgan: "O'zingiz uchun istamagan narsani boshqa odamga qilma" [1. B.51].

Axloqiy mas’uliyat – **bu tarbiya**, ta’lim va madaniyat natijasidir. Konfutsiydagi bu tushunchalar “wen” toifasi tarkibiga kiradi. “Wen”ni insoniyatning madaniy ma’nosi sifatida yaxshi naslchilik deb hisoblash mumkin. Bu odamda ikkilamchi sun’iy shakllanish emas, uning asosiy tabiiy qatlami emas, kitoblilik va tabiiylik emas, balki ularning organik va tabiiy birlashishi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda jamiyatimiz yangi siyosiy munosabatlar shakllanishining birinchi bosqichida, uchinchi Uyg'onish jarayoni. Ushbu jarayon erkaklar va ayollardan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa sohalarda gender tengligini ta'minlashni, ayniqsa o'g'il-qizlarning davlat va jamiyat qurilishidagi ishtirokini yaxshilashni talab qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu borada yuqori samaradorlikka erishishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- ushbu masala bo‘yicha ta'lim muassasalarida o‘qitiladigan ijtimoiy-gumanitar Fanlar mazmuniga ustuvor ahamiyat berish; ta’lim muassasalarida “Gender tenglik strategiyasi” maxsus kurslarini, nazariy-uslubiy laboratoriyalarni tashkil etish va ular uchun dasturiy mahsulotlar yaratish maqsadga muvofiqdir;

- Gender tengligining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, ma’naviy va boshqa jihatlari bo'yicha davra broshyuralari, esdalik buyumlari, videomateriallar, onlayn dasturlar, vizual targ‘ibot mahsulotlari( plakatlar, bukletlar va boshqalar.q) boshqalarni yaratish va ularning har bir oilaga va umumiy o'rta ta'lim muassasalariga kirib borishini ta'minlash mexanizmini yaratish kerak;

- Mooks (ommaviy ochiq onlayn saytlar), vebinarlarni (veb-seminarlar, veb-konferentsiyalar, vebdebatlar, veb-tavsiyalar, uslubiy veb-saytlar va boshqalarni sozlash., gender muammolari bo'yicha qiziqtirgan savollar bo'yicha maslahat olish va berish maqsadida.q).

**Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro‘yxati:**

1.B.Namazov, N.Egamberdiyeva, M.Mirsoliyeva. (2018) O‘qituvchilarni tayyorlashda gender yondashuv masalalari (80th ed.). O‘quv qo‘llanma. – Toshkent.

2. Bayjonov, F. (2023). Technologies for the development of gender culture in cooperation with the family and educational institutions. Bulletin of Science and Practice, (4), 531-534. https://doi.org/10.33619/2414-2948/89/70.

3. Bayjonov, F. B. (2021). Gender differences in the contemplation of teenagers. Theoretical & Applied Science, 98(06), 144-146. https://doi.org/10.15863/tas.2021.06.98.21.

4. Bayjonov, F.B. (2021). Oilada o‘spirinlarda gender tengligi masalalar // Maktab va hayot jurnali 3-son. T., 2021. 46-49 b.

5.Baxtiyorovich, N.D. The initial influence of life strategy on the formation of the teenager // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, UK Volume 6, number 2, 2018 ISSN 2056-5852; – P. 91-94.

## MINTAQAVIY HAMKORLIK VA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA

Shuhrat Haydaraliyev

Namangan davlat universiteti dotsenti tarix fanlari nomzodi.

*shuxrathaydaraliyev@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik jarayonlarining mazmun va mohiyati, Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishning ijtimoiy zarurat ekanligining nazariy asoslari, Markaziy Osiyo xalqlaridagi umumiylik va xususiylik, integratsiya va milliy taraqqiyot modellarini tadqiq etishning metodologik va konseptual asoslari ochib berilgan.

**Kalit so’z va iboralar:** Markaziy Osiyo, O’zbekiston Respublikasi, mintaqaviy hamkorlik, xalqaro munosabatlar, tashqi siyosat, mintaqaviy tizim, integratsiya, globallashuv, tinchlik, tenglik, taraqqiyot

Hamkorlikni davlatlar misolida olsak, ular vujudga kelgandan buyon u yoki bu ko‘rinishda hamkorlik qilib kelishgan. Hamkorlikda asosiy e’tibor milliy manfaatlarga qaratiladi, davrning xususiyati, u yuzaga keltiradigan muammolar nuqtayi nazaridan yondashiladi. Davlat hamkorlikdan manfaatdor bo‘lsa, albatta unda ishtirok etadi. Mintaqaviy integratsiyada esa asosan kelajakdagi samara

ustuvorlik qiladi. Shuningdek, mintaqaviy hamkorlik bilan mintaqaviy integratsiya uzviy bog‘liq. Bu ikki jarayon uchun davlatlarning taraqqiyot darajalari, siyosiy tuzumining yaqinligi muhim ahamiyatga ega. Bunday omillar bo‘lmasa, ikki jarayon ham samara bermaydi. Deylik, Yaponiya bilan Shimoliy Koreya geografik nuqtayi nazardan bir mintaqada joylashgan, bunda makon omili mavjud bo‘lsa-da, ularning siyosiy tuzumlari va iqtisodiy darajalaridagi farq jarayonning amalga oshishiga to‘sqinlik qiladi.

Mintaqaviy integratsiya xamkorlikni institutsiyalashuvi hamdir. Hamkorlik uchun esa institutsiyalashuv shart emas. Shunga qaramay har qanday integratsion jarayonlarning ibtidosi aynan hamkorlikdan boshlanadi. Mintaqaviy hamkorlik natijasida integratsiya jarayonlari shakllanadi va rivojlanadi.

Bugungi kunda mintaqaviy integratsiyaning eng katta kamchiligi - milliy suverenitetga daxl qilishi ko‘pchilik tomonidan tan olinmoqda. Ya’ni, aksariyat tadqiqotchilar “mintaqaviy integratsiya” tushunchasini tahlil qilishda va o‘rganishda umumiy manfaatlar ustuvorligini ta’minlash maqsadida davlatlar o‘zlari yaratayotgan yangi institutsional strukturaga o‘z suverenitetlarining bir qismini berish jarayoni” sifatida qarashadi[1].

Masalaning boshqa tomoni shundaki, integratsion birlashmalarda vujudga kelayotgan turli muammolar yuzasidan munozaralar hamon davom etmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyaning YEI tarkibidan chiqishi masalalarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, hozirgacha YEI manfaatlari bilan AQSH manfaatlari ko‘pchilik holatlarda muvozanatlashib kelgan bo‘lsa, bugungi kunda bu borada ma’lum muammolar paydo bo‘lmoqda.

Bugungi kunga kelib yetakchi davlatlar mintaqaviy integratsiya subyektlarini (birlashmalarni) tuzish orqali geosiyosiy nuqtayi nazardan, o‘z mavqelarini mustahkamlab olishga intilishlari diqqatni jalb etadi. Masalan, MERKOSURda AQSH manfaatlari ustuvorlik kasb etayotganligi yoki YevroOsiyoda Rossiya manfaatlari ustuvor bo‘lishi fikrimizni tasdiqlaydi. Boshqacha aytganda, nazariyada ko‘p ta’kidlangan tenglik va ixtiyoriylik amalda

hammavaqt ustuvorlik kasb etmayapti. Rivojlangan davlatlarning mintaqaviy integratsiya niqobida yangi bloklarni shakllantirish ehtimollari ham xatarli tus olayotganligi tashvishlidir.

Tinchlikni saqlash, xavfsizlikni ta’minlash, manfaatlar muvozanatini ta’minlash, umummilliy manfaatlar uyg‘unligiga erishish, hamkorlik natijasida shaxs va jamiyat farovonligini ta’minlash mintaqaviy hamkorlikning asosiy vazifasini tashkil etadi. Bundan tashqari, mintaqaviy hamkorlik jarayonlari umuminsoniy taraqqiyot omili sifatida evolyutsion tarzda rivojlanib bormoqda.

Mintaqaviy hamkorlik jarayonlari rivoji uchun quyidagi shart-sharoitlar muhimdir:

1. Geografik yaqinlik. Ya’ni, geografik nuqtayi nazardan bir mitnaqada joylashganlik.
2. Barqaror taraqqiyot. Bunda iqtisodiy, siyosiy barqarorlik va shu asosida taraqqiyot ko‘zda tutiladi.
3. Davlatlar siyosiy tizimining mutanosibligi. Davlatlar siyosiy tizimlarining mutanosib bo‘lishi, ya’ni har bir tizimning o‘z tartibotlari bo‘ladiki, ular bir-biriga mos kelmasa hamkorlik kutilgan samara bermaydi.
4. Hamkorlikni siyosiy elita va jamiyat tomonidan qo‘llab- quvvatlanishi.
5. Milliy madaniyatlarning o‘zaro yaqinligi va tarixiy ildizlarning umumiyligi.
6. Boshqaruv shakli va iqtisodiy tizim o‘xshashligi.
7. Harbiy potensial darajasini yaqinligi va tashqi taxdidlarning umumiyligi.
8. Davlatlarning hamkorlik tajribasi.
9. Umumiy muammolarning mavjudligi.
10. Tashabbuskorlik va siyosiy liderlarning unga moyilligi[2].

Mintaqaviy hamkorlikning mazmun-mohiyatini anglashda uning tamoyillari ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada rossiyalik olima Ye.Kuznetsova: “1) manfaatlar balansi; 2) o‘zaro kelishuvlar tizimiga putur yetkazilgan taqdirda, ittifoqchi davlatlarning aralashuv huquqiga egaligi; 3) ko‘ptomonlama harakatda bo‘lish”[3] ni mintaqaviy hamkorlik tamoyillari sifatida ilgari suradi. Bunday

yondashuvga qo‘shilgan holda, tenglik va ixtiyoriylik jarayonning asosiy tamoyili deb hisoblaymiz. Aynan ana shu tamoyillar orqali mintaqaviy hamkorlik jarayonlari mevasi bo‘lgan davlatlararo birlashmalar kuchga asoslangan imperiya yoki ittifoqlardan farq qiladi.Shularni inobatga olib, mintaqaviy hamkorlikning asosiy tamoyillariga: a) tenglik; b) ixtiyoriylik; v) milliy manfaatlar uyg‘unligi asosida shakllangan umummanfaatlar ustuvorligi;g) o‘zaro ishonch va hurmat;d) milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik; ye) ichki ishlarga aralashmaslik tamoyillarinikiritish mumkin.

Tenglik manfaatdorlik bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda ishtirok etuvchilar har qanday umumiy xatti-harakatlardan teng manfaatdorligi bilan bog‘liq. Buning murakkabligi shundaki, nafaqat bugungi kundagi teng manfaatdorlik, balki istiqboldagi teng manfaatdorlik ham ta’minlanishi muhim.

Ixtiyoriylik haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, avvalo hamkorlik qilish yoki qilmaslik masalasida ixtiyoriylik bo‘lishi lozim. Buning muhim jihati shundaki, ixtiyoriylik bo‘lgan joyda kuchga hojat qolmaydi. Uning asosida amalga oshirilgan har qanday hatti-harakat majburiylik orqali amalga oshirilganga nisbatan samaraliroq kechadi. Bundan tashqari, u demokratik tamoyillarga ham mos keladi. Shu bilan birga, ixtiyoriylikni ma’suliyat bilan chegaralab turish maqsadga muvofiq.

Milliy manfaatlarni uyg‘unlashtirish orqali umummintaqaviy manfaatlarni shakllantirishga amal qilish muhim ahamiyat kasb etib, har qanday hamkorlik jarayoni natijasi ana shu tamoyilga nechog‘lik amal qilinishiga bog‘liq. Bunda nafaqat bugungi kundagi manfaatdorlik, balki istiqboldagi manfaatdorlik ham inobatga olinishi va bosqichma bosqich uyg‘unlashtirib borilishi ahamiyatlidir.

O‘zaro ishonch va hurmat. Hamkorlik subyektlari zimmalariga olgan vazifani amalga oshirishga yoki istiqbolda hamkorlikdan manfaatdor bo‘lishga ishonishi lozim. Shu bilan birga o‘zaro hurmat ayniqsa siyosiy lider va siyosiy elita o‘rtasida ishonch ham zarur. O‘zaro ishonch va hurmat siyosiy liderning ambitsiyasini oldini oladi.

Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik. Hamkorlikdan asosiy maqsad faravonlikni ta'minlashga qaratiladi. Bunda birlashib umumiy dushmanni izlash yoki urishish emas, balki umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik, do'stlikka amal qilish muhim omil hisoblanadi.

Rossiyalik tadqiqotchilar Yu.Borko va O.Butorinalar mintaqaviy hamkorlik haqida quyidagi xulosalarini qayd etadilar.

1. Hamkorlik maqsad emas, balki vosita.
2. Hamkorlik davomiylikni talab qiladi.
3. Hamkorlik tenglashtirilgan (adekvat) mexanizmlarga muhtojlik sezadi[4] .

Yuqoridagi tadqiqotchilarning fikriga qo'shilgan holda, shuni qayd etish joizki, hamkorlikdan hamma manfaatdor bo'ladi. Sababi hamkorlikda manfaatlar oson qondiriladi. Hamkorlikdan olingan samaradan hamma foydalanadi. Shu bilan birga mintaqani umumiy rivojlanishiga hissa qo'shadilar.

Mintaqaviy hamkorlik obyektiv jarayondir. Muammo insoniyat undan o'z manfaati va taraqqiyoti yo'lida samarali foydalanishni o'rganishiga bog'liq.

Endilikda xalqlar hamkorligi va hamjihatligi, muammolarni hal qilishi dunyoning taraqqiyotini kafolatlaydi. Shundagina siyosiy makonda hammaga joy topilib, hech kim o'zini kamsitilgan, huquqlari cheklangan, deb bilmaydi. Bunday imkoniyatga faqat mintaqaviy hamkorlik orqali erishish mumkin. Umuman olganda mintaqaviy hamkorlikka tizimli yondashuv bir-biriga ta'sir etuvchi turli hamkorlik sohalarining o'ziga xos xususiyatini qismlarga bo'lib emas, balki yaxlit tasavvur qilish imkonini beradi. Tizimli yondashuv tadqiqotning juda ko'p uslublaridan foydalanishga yordam beradi. Ba'zi uslublar orqali olingan natijalarni boshqalariga qarama-qarshi qo'ymasdan va mutloqlashtirmasdan xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, mintaqaviy hamkorlikni tizimlashtirish muhim deb hisoblanadi.

Umuman, mintaqaviy hamkorlik asoslari har bir mintaqada oʻziga xos tarzda mavjud. Shu asoslardan samarali foydalangan, ularni rivojlantira olgan mintaqalardagina hamkorlik jadal ruvojlanmoqda.

Mintaqaviy hamkorlik asoslari hamkorlik jarayonlari rivojiga mustahkam zamin yaratadi. Bunda tarixiy-madaniy, iqtisodiy, xavfsizlik, gʻoyaviy, huquqiy asoslarga tayaniladi. Galdagi masala mintaqaviy hamkorlik asoslaridan samarali foydalanish va milliy taraqqiyotga erishish hisoblanadi.

**Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:**


1. Yusubov F. Dvustoronnee mejgosudarstvennoye ekonomicheskoye sotrudnichestvo: ponyatiye, formы i sущnost. http://evolutio.info/content/view/2040/232/
2. Livensev N.N., Xarlamova V.N. Mejdunarodnaya regionalnaya ekonomicheskaya integratsiya.Mejdunarodnыeekonomicheskiye otnosheniya. Uchebnik. M.: ROSSPEN. 2010. s-323.
3. Kuznetsova Ye. Razmыshleniya// Mejdunarodnaya jizn. №2. 2013,-S-6-7.
4. Yevropeyskiy soyuz na paroge XXI veka. Vыbor strategii razvitiya/ pod red. Yu.A.Borko i O.V.Butorinoy. – M.: Editorial URSS, 2001.- S.79.


## GLOBALLASHUV DAVRINING BADIIY ADABIYOTGA TA'SIRI


Bobomurod Tillayev NamDPI Gumanitar fanlar kafedrasi katta o`qituvchisi

Komiljonova Zarifa Ahmadali qizi Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti Oʻzbek tili va adabiyoti yoʻnalishi 1-kurs talabasi.


**Annotatsiya:** Globallashuv jarayoni badiiy adabiyotga ham oʻz ta'sirini koʻrsatmoqda. Ushbu maqolada dunyo xalqlarining ommalashuv davri yozuvchi va

shoirlarning ijod uslubida, asar shakl va mazmunida qanday ko‘rinish berayotgani, hozirgi davr insonlarining madaniyatini, haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** globallashuv, “bozor adabiyoti”, yoshlar, adabiyot, globallashuv asri, millat, o‘zlik, milliylik.

**Аннотация:** Процесс глобализации оказывает влияние на художественную литературу. В данной статье говорится о том, как период популяризации народов мира отражается на творческом стиле писателей и поэтов, форме и содержании произведений, культуре народов настоящего времени.

**Ключевые слова:** глобализация, «рыночная литература», молодежь, литература, эпоха глобализации, нация, идентичность, национальность.

**Abstract:** The process of globalization has an impact on fiction. This article talks about how the period of popularization of the nations of the world is reflected in the creative style of writers and poets, the form and content of the work, the culture of the people of the present time.

**Key words:** globalization, "market literature", youth, literature, age of globalization, nation, identity, nationality.

Biz yashayotgan XXI asr ko‘pchilik tomonidan globallashuv asri deya ta’riflanadi. Globallashuv yer yuzidagi barcha xalqlarning madaniy, iqtisodiy-siyosiy, shuningdek, adabiy sohalari bir-biriga ta’sir etishi uchun zamin yaratmoqda.

“Global” fransuzcha “global” degan so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib, “umumga oid”, “umumga taalluqli”, “umum bilan bog‘liq” ma’nolarini anglatadi. Etimologik nuqtayi nazardan “global” so‘zi lotincha “globus” ya’ni “shar” so‘zidan kelib chiqqan. Globus deganda yer shari nazara tutiladi. Mazkur yondashuvni ilk bor Aristotel qo‘llagan. Taniqli sotsiolog E.Giddens fikriga ko‘ra, “globallashuv bir-biridan ko‘p uzoqlarda ro‘y beradigan mahalliy voqea-hodisalarning butunjahon sotsial munosabatlarga intensifikatsiyalashuvidir”. Uning ta’kidlashicha, bu intensifikatsiyalashuv milliy davlatlar jahon tizimi, jahon kapitalistik tuzum iqtisodiyoti,

umumjahon harbiy tartib va xalqaro mehnat taqsimotining shakllanishi bilan izohlanadi. U globallashuv jarayonining boshlanishini XVIII asr bilan belgilaydi.[1]

Qadimgi davrlarga nazar tashlansa, bir hududdagi ma'lumot va yangiliklar boshqa yerga yetib borguncha vaqt talab qilgan. Biz bu yo'lda Sharq va G'arb mamlakatlarini bir-biri bilan yaqindan tanitgan Buyuk Ipak yo'li, Chingiziylar saltanati tomonidan yo'lga qo'yilgan pochta xizmatining guvohimiz. Paulo Koeloning "Alkimyogar" romanida asar bosh qahramoni Santyago boshqa mamlakatlarga sayohat qilib, har borgan joyida badiiy asarlarni almashtirib, ko'rgan voqealarini, noyob hodisotlarni, yangiliklarni eslab gapiradi. Globallashuv badiiy adabiyotga shu tahlitda o'z ta'sirini ko'rsatib keldi. Bugungi axborotlashgan zamonda esa yangiliklar burungidan-da tezroq tarqalmoqda.

Globallashuv hodisasining adabiyotshunoslikka ta'sirini tahlil qilish, odam hamda olam munosabatlarini muvozanatlashtirishga harakat boshlangan. Adabiyotda globallashuv bevosita ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-psixologik, ma'naviy-ma'rifiy hayot, ilm-fanning rivoji, eng muhimi, insonning insonga ta'siri – barchasini qamradi. Badiiyatga asoslangan tafakkur Haqni tanishga olib keladi, oqibat xulosa esa adabiyotni jahon bozorlarida insoniylikning yo'qolishidan himoya qiladi.[2]

Hozirda O'zbekiston, shuningdek, barcha millatlarning hayot tarzi, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jabhalaridagi globallashuv badiiy adabiyotni ham chetlab o'tmadi. Zeroki, hech bir muammo adabiyotda iz qoldirmasdan ketmagan. Milliy adabiyotda milliylikni qanday saqlab qolish mumkin? To'g'ri, bu jarayon tufayli o'zbek adabiyotida ijodiy erkinlik va ko'tarilishlar bo'ldi. Har bir adabiy turda ko'plab asarlar yaratildi. Biroq tanganing ikkinchi tomoni ham bor, ko'pchilik ta'biri bilan aytganda, "Bozor adabiyoti"ning "rivoji"ga ham hissa qo'shdi. O'zbek adabiyotida saviyasi past, yengil-yelpi asarlar hamda ularning talabgorlari ko'paydi. Bu kabi asarlarning bozori chaqqon bo'lishi, ko'lami kengligi haqida Yo'ldosh Solijonov shunday fikrlar aytadi: "Men badiiy adabiyotninng tarbiyaviy,

estetik vaifalarini ustuvor deb bilgan bir mutaxassis sifatida, hozirgi adabiy jarayondan to‘la qoniqish hosil qilolmayman. Ijod erkinligi zamirida, avvalo, adibning o‘z xalqi, Vatani va uning ma’naviy ko‘zgusi hisoblangan adabiyoti – so‘z san’ati oldidagi buyuk mas’uliyatini tushunaman. Ana shu mas’uliyatni chuqur his etgan ijodkor asarida nimani qanday yozish kerakligini oldindan o‘ylab oladi. Xayoliga kelgan, eshitgan yoki qaysidir chet el kitobida o‘qigan voqea-hodisalarni qog‘ozga tushiraverish bilan moddiy boylikka ega bo‘lish mumkin, lekin obro‘ ololmaydi.” Tanqidchi olim Abdulla Ulug‘ov bugungi kunning ba’zi mantiqsiz asarlariga “ko‘pchilik miyasini mashaqqatga qo‘yadigan jiddiy asarlardan ko‘ra” kaltafikr qissa-yu romanlar kishilarga maroq bag‘ishlashini aytadi. Shu kabi yechim ham kiritadi: kishilarning ma’naviyatiga beqiyos ziyon keltiradigan har qanday “ommabop” asarga sergaklik bilan munosabat bildirib, xalqqa uning “asl bahosi”ni yetkazish kerakligini uqtiradi. Masalan, o‘zbek yoshlari orasidagi ishtiyoqmandlar inson psixologiyasi, dinga oid asarlarni qidirib topib o‘qishyapti. Bunga sabab yoshlar o‘zlaridagi ko‘plab savollarga javob olib, bo‘shliqlarini to‘ldirmoqchi bo‘lishadi.

**Xulosa.** Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov ta’kidlaganidek: “Biz yoshlarimizning ma’naviy olamida bo‘shliq vujudga kelmasligi, unga turli tahdidlar hujum qilmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarsi milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat – ehtirom tuyg‘usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarurdir”. Globallashuv jarayoni o‘zbek millatining, badiiy adabiyotining kelajakda rivojlanishiga asosiy omil sifatida ko‘rish darkor. Yangiliklar kirishi uchun eshiklarimizni ochiq qo‘yishimiz kerak, biroq kuchli shamollarga qarshi ehtiyot choralarini ham qilish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Globallashuv asoslari. O‘quv qo‘llanma. Samarqand. 2023-y;
2. Zebo Sabirova Zokirovna. “Globallashuv va adabiy jarayonning munosabati xususida” maqola. Fledu.uz;

3. Birinchi Prezident I.A. Karimov. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asari;

# GLOBALLASHUV JARAYONI VA MA’NAVIY TAHDIDLAR

Tillayev Bobomurod Abduvaxobovich NamDPI Gumanitar fanlar kafedrasi katta o`qituvchisi.

Parpiyeva Laylo Shuhrat qizi NamDPI Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada globallashuv jarayoni va ma'naviy tahdidlar, milliy va madaniy qadriyatlarning yo‘qolishi, axborot xavfsizligi va uning jadallashuvi, chet el madaniyat va qadriyatlariga tahdid qilish, diniy tahdidlar va ularning insoniyatga ta’siri haqida batafsil bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** ma’naviy tahdid, globalizatsiya, global madaniyat, insoniy munosabatlarning kommersializatsiyasi, relavotizm

**Kirish:** Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng globallashuv jarayoni yuzaga keldi. Bu jarayon natijasida ma’naviy tahdidning yuzaga kelishi boshlandi.Hozirgi paytda globallashuv atamasi barcha ijtimoiy fan sohalari diqqat markazida bo'lmoqda. Unga turli nuqtai nazardan yondashib ta'riflar berilmoqda, ijtimoiy hayotga va jamiyat taraqqiyotiga ta siri to'g'risida tadqiqotlar olib borilmoqda. Globallashuv to`g`risida davlat va jamoat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jusnalistlar turli nuqtai nazardan yondashib, o`z qarashlarini bildirishmoqda. Ularning qarashlari shunchalik turli-tumanki, hatto globallashuvning foydali yoki zararli tomonlariga nisbatan qarama-qarshi ta`riflar, izohlarni ham uchratish mumkin. Lo'nda qilib aytganda, bugungi davrning bu qadar "tilsim"lariga boyligi globallashuvni zamonaviy mavzuga aylantirdi. Muhtaram birinchi Prezidentimiz:

"Biz bugun yurtimizda yangi hayot barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim. Ya'ni kommunistik mafkura va axloq normalaridan voz kechilgandan so`ng jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mulaqo yot bo`lgan, ma`naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o`z ichiga olgan "ommaviy madaniyat" yopirilib kirib kelishi mumkinligi barchamizga ayon bo`lishi kerak"-, deya ta’riflagan fikrlarida jon bor.

Mazkur maqola uchun adabiyotlar tahlili sifatida Q. Nazarovning " Markaziy Osiyo: g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdid " asari, "O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti va mafkuraviy jarayonlar " asarlari asosiy metodologik asos qilib olindi.

Bugun dunyoning mafkuraviy manzarasida inson qalbi va ongiga ta’sir o‘tkazuvchi, turli xil vositalar bilan kurash olib boruvchi mafkuraviy poligonlar faoliyati tobora yaqqolroq ko‘zga tashlanmoqda. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida jahonda g‘oyat murakkab va tahlikali jarayon kechmoqda. Bular dunyoning siyosiy, mafkuraiy manzarasidagi o‘zgarishlar, taraqqiyotning yangi bosqichiga ko‘tarilishi va bu taraqqiyotga g‘ov bo‘ladigan demokratik rivojlanishni izdan chiqaradigan, jamiyat barqarorligiga rahnas oladigan g‘oyaviy-mafkuraviy to‘siqlarning paydo bo‘lishi bilan izohlanadi.[1] Globalizatsiya jarayonlari dunyoning turli mamlakatlarini iqtisodiy, siyosiy, madaniy va texnologik jihatdan yanada bir-biriga bog‘liq qilib qo‘ymoqda. Bu jarayonning ijobiy tomonlari bilan birga, ba’zi ma’naviy tahdidlarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Ushbu tahdidlar quyidagilardan iborat:

Milliy va madaniy qadriyatlarning yo'qolishi: Global madaniyatning kengayishi milliy o'ziga xosliklar va an'anaviy qadriyatlarning siqib chiqarilishiga olib kelishi mumkin. Bu, ayniqsa, ommaviy madaniyatning keng yoyilishi orqali namoyon bo‘ladi, chunki ko‘p hollarda g‘arb madaniyati boshqa mintaqalar madaniyatini bostirib, ularning o‘ziga xosligini yo‘qotishiga sabab bo‘ladi.[2]

Axborot xavfsizligi va ta’sirchanlik: Global axborot oqimlarining kuchayishi insonlarga chet davlatlar, madaniyatlar va qadriyatlar ta'sirini oshiradi. Bu ta'sir,

ko‘pincha, ma'naviyat va axloqiy qadriyatlarga qarshi yo‘naltirilgan axborotlar orqali amalga oshiriladi. Madaniy o'zlashtirish va assimilyatsiya: Ba'zi mamlakatlarda kuchliroq davlatlar tomonidan madaniy jihatdan o'zlashtirish, ya'ni chet madaniyatlarini o'z ichiga olgan assimilyatsiya jarayonlari kuchayadi. Bu milliy ma'naviyat va milliy o'ziga xoslikka zarar yetkazadi.[3]

Ma'naviy qadriyatlarning relativizmi: Globalizatsiya madaniyati odatda "har narsaning nisbiyligi"ni targ'ib qiladi, ya'ni barchaning qadriyatlari teng degan qarashni ilgari suradi. Bu esa ba'zan an'anaviy axloqiy me'yorlarning erkin talqin qilinishiga olib keladi. Diniy tahdidlar: Dunyoviy global g'oyalar va ko'pgina tijoratlashgan, iste'molchilikka asoslangan madaniyatlar diniy e'tiqod va qadriyatlarga ham tahdid soladi. Bu, ba'zi hollarda, diniy qadriyatlarning so‘nishi yoki ahamiyatining kamayishiga olib kelishi mumkin.[4]

Insoniy munosabatlarning kommersializatsiyasi: Global iqtisodiy integratsiya insoniy munosabatlarni ham tijoratlashtirishi mumkin. Bu esa insonlarning shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarini iqtisodiy manfaatlar bilan cheklab qo‘yishi, jamiyatning ma'naviy qadriyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.Shu bilan birga, globalizatsiya dunyo bo‘ylab ma’naviy qadriyatlarni almashish imkonini ham beradi. Ba'zi hollarda bu jarayon bir-birini to‘ldiruvchi madaniy o‘zaro ta'sirlar orqali ma'naviy boyliklarni ko‘paytirishga yordam berishi ham mumkin. Maqsad — bu jarayonda milliy va ma'naviy qadriyatlarni himoya qilish hamda ularni zamonaviy dunyo talablari bilan uyg‘unlashtirishdan iborat.[5]

**Xulosa va takliflar:** “Sayyoramiz ertangi kuni, farovonligi, farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga etishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamizyoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi”tarqalishining oldini olishdir” -, deydi Shavkat Mirziyoyev.

Xulosa qilib aytganda, globalizatsiya jarayoni zamonaviy dunyo rivojiga katta hissa qo‘shayotgan bo‘lsa-da, u bilan bog‘liq ma’naviy tahdidlar jamiyatning diqqat markazida turishi kerak.[6] Milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish,

ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlash bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Markaziy Osiyo: G'OYAVIY jarayonlar va mafkuraviy tahdid. Mas'ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent 2001 y.

2. ARXIV UZ Milliy istiqlol g'oyasining amal qilish tamoyillari. Toshkent 2001 y. bosqichga ko’taramiz. 1-jild –T.: O’zbekiston , 2018. 29-30-betlar.

3. Safoeva. S. Globallashuv jarayonining ijtimoiy hayot sohalariga ta’siri. // Globallashuv jarayonida jamiyatni demokratlashtirishning siyosiy, falsafiyhuquqiy masalalari. –Toshkent: Falsafa va huquq nashriyoti, 2006, 27-bet.

4. Quchqarov. V. Milliy o’zlikni anglash va barqaror taraqqiyot T.: Akademiya , 2013 67-bet,

5. Zokirov B. G‘arb tamadduni: inqiroz alomatlari // Tafakkur, 2007. №2. – 23 b.

6. Quronov. M Mafkuraviy tahdidlar va yoshlar tarbiyasi T.: Akademiya, 2008 54-bet

## YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHID TARBIYALASHDA TA`LIM MUASSASALARINING ROLI

Tillayev Bobomurod Abduvaxobovich
NamDPI Gumanitar fanlar kafedrasi katta o’qituvchisi
Mirzabdullayeva Gavharoy Mirzohid qizi
NamDPI Maktabgacha talim (sirtqi) yo`nalishi 1-kurs S.MTM-EU-24 talabasi.

**Annotatsiya:** Yoshlar – har bir jamiyatning kelajagi, uning taraqqiyoti va barqarorligini ta'minlovchi asosiy kuchdir. Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ta'lim muassasalari bilan birga, ota-onalar, jamoatchilik va davlat

hamkorligi muhimdir. Ta`lim orqali yoshlarga insoniyat tajribasida to`plangan bilimlar, ko`nikmalar, malakalar etkaziladi. Ta`lim muassasalarida yoshlar turli fanlarni o`zlashtirish natijasida uning mazmunida yotgan g`oyalar, dunyoqarashlar ta`sirida o`zining shaxsiy sifatlarini, imon-e`tiqodlarini shakllantiradi.

**Kalit so‘zlar:** Ta’lim, tarbiya, milliy qadriyat, barqarorli, axloqiy qadriyat, ma’rifatparvar, qadriyatlar, milliy g‘oya, o‘zlikni anglash, milliy g‘urur.

**Аннотация:** Молодежь – будущее каждого общества, главная сила, обеспечивающая его развитие и стабильность. Важное значение в воспитании молодежи в духе национальных ценностей имеет сотрудничество родителей, общества и государства наряду с образовательными учреждениями. Через образование молодым людям передаются знания, навыки и способности, накопленные в ходе человеческого опыта. В результате освоения различных предметов в образовательных учреждениях молодые люди формируют свои личностные качества и убеждения под влиянием идей и мировоззрений, содержащихся в его содержании.

**Ключевые слова:** Образование, образование, natsiональная ценность, стабильная, моральная ценность, просвещенный, ценности, natsiональная идея, самосознание, natsiональная гордость.

**Abstract:** Youth is the future of every society, the main force that ensures its development and stability. The cooperation of parents, society and the state along with educational institutions is important in educating young people in the spirit of national values. Through education, the knowledge, skills, and abilities accumulated in human experience are imparted to young people. As a result of mastering various subjects in educational institutions, young people form their personal qualities and beliefs under the influence of the ideas and worldviews contained in it.

**Key words:** Education, education, national value, stable, moral value, enlightened, values, national idea, self-awareness, national pride.

Hozirgi vaqtdagi dolzarb mavzulardan biri – bu mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, jismonan sog'lom hamda har tomonlama ma'naviy salohiyatini yuksak darajada shakllantirish hisoblanadi. Bularning natijasini 2016-yil 14-sentyabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"[28]gi Qonun hamda uning uzviy davomi bo'lgan 2017-yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106 kabi ko'plab qaror va farmonlar ijrosida ko'rishimiz mumkin.

Yoshlar – har bir jamiyatning kelajagi, uning taraqqiyoti va barqarorligini ta'minlovchi asosiy kuchdir. Shuning uchun, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalari bu jarayonda muhim rol o'ynaydi, chunki ular nafaqat bilim berish, balki yosh avlodning ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda ham o'ziga xos vazifalarni bajaradi.

Jamiyatimiz hayotida tarbiya muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. Ma'rifatparvar olim Abdulla Avloniyning deyarli barcha izlanishlari tarbiya mavzusiga qaratilgan edi. "Tarbiya yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir", – deb berilgan ta'rif ham jamiyat hayotida tarbiyaning mohiyatini to'liq ochib beradi. Tarbiya – inson tug'ilgan kundan boshlanib to umrining so'nggiga qadar davom etadigan uzoq muddatli tabiiy jarayondir. Farzandlar inson naslining davomchisi bo'lish bilan birgalikda oilaning mustahkam zanjiri hisoblanadi. Oilaga esa barkamol avlodni tarbiyalovchi maskan deya ta'rif beramiz. Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ta'lim muassasalari bilan birga, ota-onalar, jamoatchilik va davlat hamkorligi muhimdir. Ota-onalar bolalariga milliy qadriyatlar haqida ma'lumot berib, ularni hayotda amaliy tarzda qo'llashga undashlari lozim. Shuningdek, davlat tashkilotlari ham ta'lim muassasalariga ko'mak berib, milliy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirishi kerak. Yoshlar o'z ma'naviy tarbiyasi bilan jamiyatga

[28] "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"[28]gi Qonun

munosabatini ifodalaydi. Shunday ekan, oila yosh avlodga dastlabki tarbiyani to‘g‘ri bermog‘i lozim. Avvalo, oilada sog‘lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-onalar har tomonlama ibrat, namuna bo‘lishi, farzand ongida ota-onaga va Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish, milliy urf-odatlarni, qadriyatlarni singdirish muhimdir. Milliy qadriyatlar – bu xalqning tarixi, madaniyati, an'analari va urf-odatlari bilan bog'liq bo'lgan normativlar va tamoyillardir. Ular yoshlarni o'z xalqiga, ona zaminiga nisbatan munosabatini belgilab beradi. Milliy qadriyatlar yoshlar ongida vatanparvarlik, mehriqonlik va adolat kabi muhim tushunchalarni shakllantirishda asosiy omildir. Qadriyatlar har doim ham insonlarni mehr-oqibatga, o‘zaro hamjihatlikka chorlovchi, asrdan asrga o‘tib, xalqimiz turmush tarzining ajralmas qismiga aylangan moddiy va ma’naviy jarayonlarning sara namunasidir. Millatning o‘tmishi, buguni va kelajagining muhim omili sifatida qadriyatni belgilashimiz boisi ham shu. “Qadriyatlar”, “milliy g‘oya”, “o‘zlikni anglash”, “milliy g‘urur” kabi atamalar kishiga oila muhitida ona allasi bilan birga singadi. O‘z yurtiga bo‘lgan ehtirom, ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimo hurmat ko‘rsatish va bir nechta ijobiy fazilatlar singdirib boriladi. Oilada olingan tarbiya keyinchalik shaxsning butun umri davomi oladigan ma’rifat va hayot saboqlari uchun asos, zamin, poydevor vazifasini o‘taydi. Har bir ota-ona o‘z burchini anglagan holda oila mustahkamligini ta’minlaydigan hamma xususiyatlarni to‘liq e’tiborga olishi va o‘z vazifalarni adog‘ etmog‘i lozim.

“Bugungi kunda yurtimizda tobora keng tarqalib borayotgan “O‘z bolangni o‘zing asra” degan da’vat quruq shior bo‘lib qolmasdan, har bir ota-ona, har bir fuqaroning qalbiga chuqur kirib borishi amaliy harakatga aylanishi zarur. Buning uchun bu masalani, ya’ni ota-onalarning farzandlar tarbiyasi uchun ma’suliyatini va burchini huquqiy asosda mustahkamlab qo‘yish vaqti keldi deb o‘ylayman”. Chindan ham har bir ota-ona o‘z farzandining tarbiyasi uchun o‘zi mas’uldir. Ota va ona bolaning ilk muallimi hisoblanadi. Yoshlarimizning ma’naviy yetuk bo‘lib tarbiyalanishida oila hamda mahallaning o‘rni beqiyosdir. O‘zbek mahallalari

azaldan tarbiya maskani hamda ahillik, totuvlik va mehr-oqibat o‘chog‘i bo‘lgan. Hozirgi davrga kelib mahallaning mohiyati bilan birga vakolati ham shakli ham o‘zgardi, ko‘lami esa kengaydi. Jumladan, keng jamoatchilik o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali yo‘lga qo‘yishda mahallaning katta imkoniyatlari mavjud. Ayniqsa, har bir yosh avlod qalbida milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, hamjihatlik, insoniylik, el-yurt sha’ni uchun kurash, bir-biriga o‘zaro yordam kabi fazilatlarni tarkib topishida o‘z-o‘zini boshqarish instituti hisoblanmish mahallaning o‘z o‘rni mavjud. Chunki mahalla, kishilarni birlashtiradigan, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan jamoa vazifasini ham bajaradi. Mahallaning barcha faollari yoshlarning tarbiyasiga bee’tibor qaramasdan, ularning yurish-turishini, xatti-harakatini nazorat ostiga olib, xuddi o‘z bolasidek ko‘rib, mas’ul bo‘lishi, ko‘pgina yoshlarning tarbiyasiga ijobiy ta’sir etadi. Yoshlar tarbiyasiga oila, mahalla va ta’lim muassasalari birdek mas’ul. Bunda esa o‘zaro hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi ko‘zlangan maqsadga erishishni yanada osonlashtiradi. Milliy qadriyatlarimizni yosh avlod ongiga singdirish uchun umumxalq bayramlarida, xasharlarda yoshlarimiz ishtirokini kengaytirib, ularni ko‘proq jalb etish maqsadga muvofiq. Mahalla yoshlarni tarbiyalashda tarixiy merosimizga va milliy tarbiyamizga asoslanishimiz lozim. Milliy an’ana, urf-odatlarimiz xalqimiz hayotining mazmuniga, kundalik turmush tarziga singib ketgan. Buni yoshlarga to‘g‘ri yetkazish yoshlarning o‘zaro munosabatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, dunyoni aslidek tushunish va eng asosiysi, inson ma’naviy qiyofasini mukamallashuviga olib keladi.

Ta’lim orqali yoshlarga insoniyat tajribasida to‘plangan bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar yetkaziladi. Ta’lim muassasalarida yoshlar turli fanlarni o‘zlashtirish natijasida uning mazmunida yotgan g‘oyalar, dunyoqarashlar ta’sirida o‘zining shaxsiy sifatlarini, imon-e’tiqodlarini shakllantiradi.

Ta'lim muassasalari yoshlarni tarbiyalashda quyidagi vazifalarni bajarishi zarur:

- Bilim berish: Milliy qadriyatlar bilan bog'liq fanlarni, jumladan tarix, adabiyot va madaniyatni o'rgatish. Bu bilimlar yoshlarni o'z xalqi tarixi va madaniyatini tushunishga yordam beradi.
- Tarbiyaviy ishlar: Tarbiyaviy tadbirlar, davra suhbati, musobaqalar va boshqa faoliyatlar orqali yoshlarni milliy qadriyatlarni ulug'lashga jalb etish.
- Qadr-qimmatni oshirish: Yoshlarni o'z xalqi, an'analari va madaniyati bilan faxrlanishga undash. Bu jarayonda o'zligini anglash va o'zligini qadrlash muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuning 4-moddasida, ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biri ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligini, ta’limning uzluksizligi va izchilligini ta’minlash dolzarb masalalardan biri ekanligi qayd etib o‘tilgan[29].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, oila, mahalla va ta’lim muassasalarida beriladigan tarbiya yoshlarimizning o‘zligini anglashiga, insonparvarlik tamoyili asosida kamol topishiga, milliy qadriyatlarga hurmat, muhabbat ruhida tarbiyalanishiga va onginig o‘sishiga, zamonaviy dunyoqarashining shakllanishiga asos bo‘la oladi. Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ta'lim muassasalari markaziy o'rin egallaydi. Ular nafaqat bilim berish, balki yoshlarni tarbiyalash va ularning ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda muhim vazifalarni bajaradilar. O'z navbatida, bu jarayonda jamiyat va davlatning faol ishtiroki yoshlarning kelajagi uchun muhim omil hisoblanadi. Milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularga hurmat ko'rsatish yoshlarning fikr va munosabatlarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. M. Hamdamova. Ma’naviyat asoslari. T., “Fan va texnologiya”, 2008.
2. X. Ibragimov, Sh. Abdullaeva. Pedagogika nazariyasi (darslik). T., “Fan va texnologiya”, 2008.

[29] O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun.

# GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY MADANIYATLAR TO‘QNASHUVI

Tillayev Bobomurod Abdulvaxobovich
Namangan davlat pedagogika institutining katta o'qituvchisi
Naimjonova Gulshoda Rustamjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika(logopediya) yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada globallashuv jarayoni milliy va madaniy qadriyatlarning yo‘qolishi, axborot xavfsizligi va uning jadallashuvi, chet el madaniyat va qadriyatlariga tahdid qilish, milliy madaniyatlarning to‘qnashuvi va ularning insoniyatga ta’siri haqida batafsil bayon etilgan.

**Аннотация:** В данной статье подробно описан процесс глобализации, утрата национальных и культурных ценностей, информационная безопасность и ее ускорение, угрозы чужим культурам и ценностям, столкновение национальных культур и их влияние на человечество.

**Abstract:** This article describes in detail the process of globalization, the loss of national and cultural values, information security and its acceleration, threats to foreign cultures and values, the clash of national cultures and their impact on humanity.

**Kalit so‘zlar:** ma’naviy tahdid, globalizatsiya, global madaniyat, insoniy munosabatlarning kommersializatsiyasi, relavotizm

**Ключевые слова:** моральная угроза, глобализация, глобальная культура, коммерциализация человеческих отношений, релятивизм.

**Key words:** moral threat, globalization, global culture, commercialization of human relations, relativism

**Kirish:** Globalizatsiya jarayonida milliy madaniyatlar o'zaro yaqinlashishi va bir-biriga ta'sir qilishi tabiiy jarayon. Bu jarayonni "milliy madaniyatlar

to'qnashuvi" deb ham atash mumkin, chunki turli madaniy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar bir-biriga qarshi kelib, o'zaro moslashish yoki qabul qilinmaslik holatlarini keltirib chiqaradi.Globalizatsiya va madaniy to'qnashuvni tahlil qilishda bir qancha omillarni hisobga olish kerak:[1]

1. Madaniy diversifikatsiya va moslashuv: Globalizatsiya dunyo bo'ylab turli madaniyatlarni birlashtirgan holda, milliy o'ziga xosliklarni saqlab qolish va ularni global madaniyat bilan uyg'unlashtirish zaruratini keltirib chiqardi. Bunday holatda, kichikroq madaniyatlar katta madaniy oqimlarga qarshi turish yoki ularga moslashishga majbur bo'ladi. Masalan, G'arb madaniyati elementlari (kino, musiqiy yo'nalishlar, kiyinish uslublari) ko'plab jamiyatlarda keng tarqalgan bo'lsa-da, milliy madaniyatlar bu jarayonda o'z an'analarini saqlab qolish uchun turli strategiyalarni qo'llamoqda.

2. Madaniy assimilyatsiya va integratsiya: Ba'zi hollarda kichikroq madaniyatlar global madaniyat oqimiga qo'shilib, asta-sekin o'ziga xosligini yo'qotishi mumkin. Buni assimilyatsiya deb atashadi. Milliy madaniyatlar global sahnada o'z mavqeini saqlab qolish uchun yangi shakllarni qabul qilishi yoki eski an'analarni qayta talqin qilishi lozim. Biroq, bu jarayonda ko'plab xalq madaniyatlari o'zligini yo'qotishi xavfi ham mavjud.

3. Madaniy to'qnashuvlarning ijobiy va salbiy jihatlari: Madaniy to'qnashuv ijobiy natijalar ham berishi mumkin. Masalan, yangi madaniy shakllarning yaratilishi, millatlararo aloqalarning kengayishi va madaniy boylikning oshishi kabi jihatlar ko'proq diqqatga sazovor. Ammo, salbiy jihatlar ham bor: madaniy konfliktlar, o'zlikni yo'qotish, milliy qadriyatlarning zaiflashishi kabi omillar.[2]

4. Texnologiyalar va global madaniyat: Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi milliy madaniyatlar to'qnashuvini kuchaytiradi. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn axborot manbalari va global ommaviy axborot vositalari orqali madaniy mahsulotlarning keng tarqalishi ham milliy madaniyatlar oldida yangi sinovlarni yaratmoqda. Bu jarayonda ba'zi madaniyatlar o'z o'rnini yo'qotib qo'yishi, boshqalari esa moslashuvchanlik orqali rivojlanishi mumkin.

5. Madaniyatlararo dialog: Madaniyatlar to'qnashuvini tinch yo'l bilan hal qilish, millatlararo hamjihatlik va hamkorlikni mustahkamlash uchun madaniyatlararo dialogni yo'lga qo'yish zarur. Bu jarayon bir-biridan o'rganish, madaniy merosni asrash va boshqa millatlarning qadriyatlarini tushunish orqali amalga oshiriladi. Shu orqali milliy madaniyatlar global maydonda o'z o'rnini saqlab qolishi va bir vaqtning o'zida dunyo madaniyatiga boy hissa qo'shishi mumkin.[3]

Globalizatsiya sharoitida milliy madaniyatlar to'qnashuvi qochib bo'lmas hodisadir. Biroq, bu to'qnashuvdan ijobiy natijalar olish va milliy madaniyatlarni asrab qolish, ularning rivojlanishini ta'minlash uchun madaniyatlararo muloqot, tushunish va moslashuv jarayonlari muhim ahamiyatga ega. Global madaniy oqimlarga qarshi turish emas, balki ularni milliy madaniyatga moslashtirish milliy o'ziga xoslikni saqlab qolishning kalitidir. Mazkur maqola uchun Appadurai, Arjun. Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization. University of Minnesota Press nashridan chiqqan kitobda globalizatsiya jarayonlarining madaniyatlarga ta'sirini chuqur tahlil qiladi va madaniyatlarning global tarmoqlari qanday shakllanganini ko'rib chiqadi.Huntington, Samuel P. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. Simon & Schusterlarning kitobida madaniy va sivilizatsion to'qnashuvlar haqida keng tahlillar berilgan bo'lib, globalizatsiya kontekstida millatlararo mojarolar va madaniy qarama-qarshiliklar yoritiladi.

Globalizatsiya jarayonida milliy madaniyatlar to'qnashuvi keng tarqalgan hodisa bo'lib, bu jarayon o'ziga xoslik, milliy qadriyatlar va an'analar uchun yangi chaqiriqlarni yuzaga keltiradi. Har bir millatning madaniyati tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan, o'ziga xos urf-odatlari, til, din va qadriyatlar tizimidan iborat. Globalizatsiya esa dunyo bo'ylab iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni birlashtirishi bilan birga, milliy madaniyatlarga ham ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada globalizatsiya jarayonida milliy madaniyatlarning to'qnashuvi va uning ijobiy hamda salbiy oqibatlari tahlil qilinadi.

Milliy madaniyat va globalizatsiya: Globalizatsiya madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni kuchaytiradi. Buning natijasida biror millatning madaniyati global miqyosda tan olinishi yoki aksincha, yo'qolish xavfi bilan yuzma-yuz kelishi mumkin. [4] Masalan, xalqaro ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi milliy madaniyatlarni global madaniyatga moslashishga majbur qilmoqda. Shu bilan birga, ba'zi milliy qadriyatlar global madaniyat tomonidan siqib chiqarilishi yoki ular boshqa madaniy oqimlar ichida eriy boshlashi mumkin.

Madaniyatlar to'qnashuvi: integratsiya va assimilyatsiyaMadaniy to'qnashuvlar natijasida ikki xil jarayon yuzaga keladi: integratsiya va assimilyatsiya. Integratsiya jarayoni bir millatning boshqa madaniyatlar bilan o'zaro boyishiga, ularning eng yaxshi jihatlarini qabul qilishiga olib keladi. Masalan, milliy musiqa, milliy kiyim-kechak yoki milliy ovqatlar global maydonda ommalashib, boshqa madaniyatlar bilan uyg'unlashib ketishi mumkin. Bu jarayon milliy madaniyatning rivojlanishiga, uning global sahnada tan olinishi va qadrlanishiga yordam beradi.Biroq, assimilyatsiya jarayoni ko'pincha milliy madaniyatning global madaniyatga singib ketishiga olib keladi. Bunda kichikroq yoki zaifroq madaniyatlar o'z o'ziga xosligini yo'qotib, katta madaniyat oqimiga qo'shilib ketishi mumkin. Bu hodisa milliy o'zlikni saqlash uchun jiddiy tahdid hisoblanadi. Ko'plab jamiyatlar G'arb madaniyatining kuchli ta'siri ostida o'z an'analarini yo'qotish xavfi ostida turibdi.

Ijobiy va salbiy ta'sirlar: Globalizatsiya natijasida madaniyatlar o'rtasida o'zaro ta'sirning kuchayishi ijobiy natijalar keltirishi mumkin. Masalan, dunyo bo'ylab madaniyatlararo muloqot va tushunish jarayonlari kuchayadi, turli madaniyatlar bir-biridan o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu jarayon milliy madaniyatlarning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Globalizatsiya sharoitida milliy madaniyatlarning o'zaro boyishi va yangilanib borishi yangi shakllar va yo'nalishlarning paydo bo'lishiga olib keladi.Ammo, madaniy to'qnashuvlar ham salbiy oqibatlarga ega bo'lishi mumkin. Ko'plab jamiyatlarda milliy an'analar va

qadriyatlar global madaniyat ta'siri ostida zaiflashadi. Bu, ayniqsa, kichik xalqlar va milliy guruhlar uchun xavfli bo'lishi mumkin, chunki ularning madaniyati katta madaniy oqimlar tomonidan siqib chiqarilishi mumkin. Shuningdek, madaniyatlararo farqlar ayrim hollarda nizolar yoki ijtimoiy mojarolarga olib kelishi mumkin, chunki har bir madaniyat o'z qadriyatlarini ustun qo'yishga intiladi.[5]

Milliy madaniyatlarni globalizatsiya jarayonida saqlab qolish va rivojlantirish uchun bir qator strategiyalar mavjud. Eng muhimlaridan biri madaniy merosni himoya qilishdir. Bu jarayonda davlatlar va xalqaro tashkilotlar milliy madaniyatlarni asrab-avaylash va yangi avlodga etkazish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqishi lozim. Shuningdek, ta'lim milliy madaniyatni saqlashda katta ahamiyatga ega. O'sib kelayotgan yosh avlodga milliy qadriyatlar va an'analarni o'rgatish, ularning o'z madaniyati bilan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish zarur.Bundan tashqari, madaniyatlararo dialogni rivojlantirish globalizatsiya sharoitida madaniyatlarning bir-birini boyitishiga yordam beradi. Bu jarayon millatlararo hamkorlikni kuchaytirib, turli madaniyatlar bir-birini yaxshiroq tushunish va hurmat qilishiga olib keladi. Shu bilan birga, texnologiyalarni to'g'ri foydalanish orqali milliy madaniyatni targ'ib qilish, uning jahon maydonida tan olinishiga erishish mumkin. [6]

**Xulosa va takliflar:** Globalizatsiya jarayonida milliy madaniyatlar to'qnashuvi qochib bo'lmas hodisa hisoblanadi. Biroq, bu jarayondan samarali foydalanib, milliy madaniyatlarni boyitish va ularni global sahnada tan olishga erishish mumkin. Shu bilan birga, milliy madaniyatlarni asrash va o'ziga xoslikni yo'qotmaslik uchun madaniyatlararo muloqot, ta'lim va texnologiyalardan foydalangan holda madaniy merosni himoya qilish zarur. Bu orqali milliy madaniyatlar nafaqat global madaniyatning bir qismi bo'lib qoladi, balki uning boyligi va xilma-xilligi ham hisoblanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Appadurai, Arjun. Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization. University of Minnesota Press, 1996.
2. Huntington, Samuel P. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. Simon & Schuster, 1996.
3. Tomlinson, John. Globalization and Culture. University of Chicago Press, 1999.
4. Robertson, Roland. Globalization: Social Theory and Global Culture. SAGE Publications, 1992.
5. Featherstone, Mike (Ed.). Global Culture: Nationalism, Globalization and Modernity. SAGE Publications, 1990.
6. Steger, Manfred B. Globalization: A Very Short Introduction. Oxford University Press, 2017.

## INSONIYAT HAYOTIDA ILK BOSMA NASHRLAR

Tillayev Bobomurod Abdulvaxobovich
Namangan davlat pedagogika institutining katta o'qituvchisi
Ortiqova Maftuna Xomidjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim sirtqi yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya**Insoniyat tarixida ilk bosma nashrlarning ahamiyati va ta’sirini o‘rganadi. Bosma nashrlar, xususan, 15-asrda Yevropada paydo bo‘lgan Gutenbergning bosma nashr mashinasi orqali amalga oshirilgan, bilim va ma’lumotlarni keng ommaga tarqatish imkonini yaratdi. Maqolada ilk bosma kitoblar, ularning mazmuni, tarqatilish usullari va jamiyatga ta’siri haqida batafsil ma’lumot beriladi. Shuningdek, ilk bosma nashrlarning madaniy, ilmiy va ijtimoiy rivojlanishga qo‘shgan hissasi, shuningdek, ularning ta’lim va bilim almashinuvidagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Maqola, shuningdek, bosma nashrlarning

O‘rta Osiyoda hamda zamonaviy davrdagi ahamiyatini va raqamli texnologiyalar bilan birgalikda qanday rivojlanayotganini tahlil qiladi.

**Kalit so‘zlar:** bosma, nashriyot, vaqtli nashriyot, Fransuz inqilobi, Gutenberg, ijtimoiy-ilmiy ahamiyat.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается значение и влияние первых печатных изданий в истории человечества. Печатные издания, особенно типография Гутенберга, появившаяся в Европе в XV веке, позволили распространить знания и информацию среди широкой аудитории. В статье представлена подробная информация о первых печатных книгах, их содержании, методах распространения и влиянии на общество. Также рассмотрен вклад старопечатных изданий в культурное, научное и общественное развитие, а также их роль в образовании и обмене знаниями. В статье также анализируется важность печатных СМИ в Центральной Азии и в современную эпоху, а также то, как они развиваются вместе с цифровыми технологиями..

**Ключевые слова:** книгопечатание, издательское дело, издательское время, Французская революция, Гутенберг, общественно-научное значение..

**Abstract:** This article examines the importance and influence of the first printed publications in human history. Printed publications, especially Gutenberg‘s printing press, which appeared in Europe in the 15th century, made it possible to spread knowledge and information to a wide audience. The article provides detailed information about the first printed books, their content, methods of distribution, and their impact on society. Also, the contribution of early printed publications to cultural, scientific and social development, as well as their role in education and knowledge exchange is considered. The article also analyzes the importance of print media in Central Asia and the modern era, and how it is evolving together with digital technologies.

**Keywords:** printing, publishing, time publishing, French Revolution, Gutenberg, socio-scientific significance.

Insoniyat tarixida bosma nashrlar muhim o‘rin tutadi. Ular bilim va ma’lumotlarni tarqatish, madaniyat va san’atni rivojlantirishda, shuningdek, ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lishda muhim rol o‘ynagan. Bosma nashrlarning tarixi XV asrga borib taqaladi, bu davrda Yevropada Johannes Gutenberg tomonidan bosma pressning ixtiro qilinishi bilan boshlangan. Gutenberg 1440-yillarda bosma pressni ixtiro qildi. U harflarni alohida tayyorlab, ularni bir joyga joylashtirib, qog‘ozga bosish imkonini beruvchi mexaniz yaratdi.(1 -rasm) Bu ixtiro, avvalgi qo‘lda yozish usuliga nisbatan, nashrlarni tez va arzon narxlarda chiqarishga imkon berdi. Gutenbergning eng mashhur asari “Gutenberg Bibliyasi” bo‘lib, bu kitob 1455-yilda bosilgan va u bugungi kunda juda qadrli sanaladi.




1-rasm. Johannes Gutenbergning bosma nashr.

Gutenbergning ixtirosi Yevropada tezda tarqaldi. 15-asrning oxiriga kelib, Yevropaning ko‘plab shaharlarida bosma nashrlar ishlab chiqaruvchi ustaxonalar paydo bo‘ldi. Bu davrda kitoblar, gazetalar va jurnallar nashr etila boshlandi. Bosma nashrlar nafaqat bilim tarqatishda, balki diniy, siyosiy va ijtimoiy fikrlarni shakllantirishda ham muhim rol o‘ynadi. Bundan tashqari bosma nashrlar, ayniqsa, diniy matnlar, masalan, Injil va Qur’on kabi asarlarni tarqatishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Martin Luter 1517-yilda o‘zining “95 tezisi”ni bosma nashr qilib chiqarishi,[30] Protestant islohotining boshlanishiga sabab bo‘ldi. Bu nashrlar orqali Luter o‘z fikrlarini keng ommaga yetkazdi va diniy muammolarni muhokama

[30] https://www.bbc.co.uk/history/historic_figures/luther_martin.shtml

qilishga undadi. Bosma nashrlar, shuningdek, boshqa diniy oqimlar va harakatlar uchun ham muhim vosita bo'lib xizmat qildi.

Bosma nashrlar ilm-fan va madaniyatning rivojlanishida ham muhim rol o'ynadi. 16-asrda, Yevropada ilmiy inqilob boshlanib, ko'plab olimlar o'z asarlarini bosma nashrlar orqali tarqatishga kirishdilar. Nikolaus Kopernik, Galiley Galiley va Iogann Kepler kabi olimlar o'z ilmiy ishlarini nashr etish orqali yangi g'oyalarni ommaga yetkazdilar. Bu jarayon, ilmiy bilimlarning tez tarqalishiga va yangi g'oyalar paydo bo'lishiga olib keldi.[31]

Bosma nashrlar ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarga ham sabab bo'ldi. 18-asrda Yevropada Yana bir muhim bosqich — "Nashrlar asri" boshlandi. Bu davrda gazetalar va jurnallar ko'paydi, bu esa odamlarning fikrlarini ifoda etish va ijtimoiy muammolarni muhokama qilish imkoniyatini yaratdi. Fransuz inqilobi davrida bosma nashrlar inqilobiy g'oyalarni tarqatishda muhim vosita bo'lib xizmat qildi. Inqilobchilar o'z g'oyalarini ommaga yetkazish uchun broshyuralar va plakatlar nashr etdilar. Bundan tashqari bosma nashrlarni O'rta Osiyoda rivojlanishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, davriy nashr Markaziy Osiyoda Turkiston bosib olingandan va Rossiyaga qo'shilgandan so'ng paydo bo'ldi. Birinchi rasmiy gazeta 1870 yil 28 aprelda rus tilida chop etilgan "Turkiston vedomostlari" edi. Gazetaning birinchi soni 1000 nusxada chop etilgan. 1901 yilning kuzida gazeta tiraji 2500 nusxada chop etilgan.[32]

Bugungi kunda bosma nashrlar hali ham muhim ahamiyatga ega. Internet va raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan birga, bosma nashrlar yangi shakllarga o'tdi. Raqamli kitoblar, onlayn jurnallar va bloglar orqali ma'lumotlar tez va oson tarqatilmoqda. Biroq, bosma kitoblar va jurnallar hali ham ko'plab insonlar uchun qadrli va muhim manba hisoblanadi. Ular o'zlarining jismoniy shakli va hissiy tajribasi bilan o'ziga xos ahamiyatga ega.

Turkistonda bosma so'z rus mustamlakachilarining eng muhim muammolarini hal qilish uchun yangi va kuchli qurol va vosita sifatida paydo

---

[31] Stéphane Haffemayer, L'Information dans la France du XVIIe siècle : la gazette Renaudot de 1647 à 1663, éd.
[32]Zaynabidin-Abdirashidov 1917 GAZETASIDAGI TURKISTON MATERIALLARINING IZOHLI BIBLIOGRAFIYASI.

bo‘ldi. “Vedomosti” nashri bilan hukumat Turkiston general-gubernatorligining hokimiyati va obro‘sini mustahkamlash, rus imperatorini ulug‘lash, Turkiston xalqlarining bosqinchilarga qarshi kurashini to‘xtatish va mahalliy aholini ruslashtirish maqsadini ko‘zlagan.

O‘zbek tilidagi birinchi gazeta “Turkiston vedomostlari” nomi bilan chop etilgan.[33] 1883 yildan mustaqil gazetaga aylandi va 500-600 nusxada nashr etildi. Turkiston vedomostlari Turkistonda rus tilida birinchi Rossiya haftalik gazetasi. Toshkentdagi Turkiston general-gubernatori kanselyariyasida nashr etilib, tahrir qilinishni boshladi. Toshkentda 1917 yil dekabrgacha nashr etilgan.[34]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, insoniyat hayotida ilk bosma nashrlar tarixiy ahamiyatga ega. Ular bilim va ma’lumotlarni tarqatish, madaniyat va san’atni rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lishda muhim rol o‘ynagan. Bosma nashrlar insoniyat tarixida yangi bir davrni boshlab berdi va bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ular orqali biz o‘z fikrlarimizni ifoda etish, bilim olish va o‘zaro muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Bosma nashrlar insoniyatning rivojlanishida muhim vosita bo‘lib qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Stéphane Haffemayer, L’Information dans la France du XVIIe siècle : la gazette Renaudot de 1647 à 1663, éd.
2. Zaynabidin-Abdirashidov 1917 GAZETASIDAGI TURKISTON MATERIALLARINING IZOHLI BIBLIOGRAFIYASI.
3. https://shosh.uz/toshkent-gazetalari-tarixi/
4. Ш.Риззаев Жадид матбуоти. Шарқ Юлдузи.-Т.: 2012. -128. -136.
5. https://www.britannica.com/biography/Johannes-Gutenberg
6. https://images.app.goo.gl/HWL1bsxZiwuQg37n7
7. https://www.bbc.co.uk/history/historic_figures/luther_martin.shtml

[33] https://shosh.uz/toshkent-gazetalari-tarixi/
[34] Ш.Риззаев Жадид матбуоти. Шарқ Юлдузи.-Т.: 2012. -128. -136.

# GLOBALLASHUV DAVRIDA TA’LIM-TARBIYANING O’RNI VA AHAMIYATI

Bobomurod Tillayev

NamDPI Gumanitar fanlar kafedrasi katta o`qituvchisi

Tojimirzayeva Zulayho Nusratillo qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada globallashuv davrida ta'lim-tarbiyaning o'rni va ahamiyati, jamiyatdagi tutgan o'rni haqida fikrlar aytib o'tilgan. Ta'lim-tarbiyaga e'tibor berish nafaqat hozirgi globallashuv sharoitida, balki bir necha asrlardan beri murakkab jarayon ekanligi haqida gap boradi.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, integratsiyalashuv, ma'rifat, komil inson, milliy tafakkur, diniy bag'rikenglik.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль и значение образования и его роль в обществе в эпоху глобализации. Говорят, что внимание к образованию – сложный процесс не только в условиях нынешней глобализации, но и на протяжении нескольких столетий.

**Ключевые слова:** глобализация, интеграция, просвещение, совершенный человек, национальное мышление, религиозная толерантность.

**Annotation:** This article discusses the role and importance of education and its role in society in the era of globalization. It is said that paying attention to education is a complex process not only in the current globalization, but also for several centuries.

**Key words:** globalization, integration, enlightenment, perfect man, national thinking, religious tolerance.

**Kirish:** Tarbiya masalasi insoniyat paydo bo’lgandan buyon eng dolzarb masalalardan biri bo’lib kelmoqda. Tadqiqotchilar fikricha, insoniyat hayotining

ibtidoiy davrlarida bolalarni tarbiyalashda stixiyali g’oyalar paydo bo’lgan va tarbiya mazmuni turli davrlarda, turli xalq, millat va elatlarda u yoki bu shakldа bo’lishiga qaramasdan ibtidoiy to’da davridan insoniyat ongli yoki ongsiz ravishda ushbu murakkab va uzluksiz jarayonni amalga oshirib kelmoqda. Shu o’rinda jamiyatda yosh avlodni axloqiy va irodali tarbiyalash dolzarb muammo bo’lib kelgan va doimo shunday bo’lib qoladi. Hozirgi mafkuraviy tahdidlar kundan kunga kuchayayotgan ayni paytda yoshlarni, ayniqsa, maktab o’quvchilarini tarbiyalash muammolarini hal etish masalasini qiyinlashtirmoqda. Chunki, bugungi zamonaviy jamiyatda aksariyat bolalarning irodaviy rivojlanishda zaiflik va xatti-harakatlarida salbiy xarakter xususiyatlarning namoyon bo’lishi, o’sib kelayotgan yosh avlodni axloqiy sifatlarini tarbiyalashni yetakchi masala sifatida namoyon qiladi.

XXI asr insoniyatga katta ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlar, ya’ni mustaqil davlatlar sonining ortib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, xalqaro munosabatlarning integratsiyalashuvi kabilar bilan birga hal qilinishi zarur bo‘lgan ijtimoiy va xalqaro kelishmovchiliklarning og‘ir yukini, millatchilik, buyuk davlatchilik shovinizmi, terrorizm, diniy ekstremizm va fundamentalizm singari illatlarni meros qilib qoldirdi. Bularning barchasi tolerantlik madaniyatini umumbashariy qadriyatga aylantirish masalasining qanchalik muhimligini ko‘rsatib turibdi.

Ma’lumki O‘rta Osiyo, xususan O‘zbekiston hududi qadim asrlardan turli madaniyat, til, urf-odat, turmush tarziga ega bo‘lgan, xilma-xil dinlarga e’tiqod qiluvchi, bir-biriga o‘xshash bo‘lmagan bir necha xalqlar yashagan o‘lkadir. O‘zbekistonning jo‘g‘rofiy nuqtayi nazaridan muhim savdo yo‘llari chorrahasida joylashgani, ko‘plab davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar qilgani turli xalqlarning diniy va ma’naviy hayotiga, shuningdek, Movarounnahrdagi urf-odatlar ham o‘zga yurtlar madaniyati rivojiga salmoqli ta’sir ko‘rsatgan. Bu esa o‘ziga xos millatlararo hamjihatlik va diniy bag‘rikenglikni shakllantirishdagi asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Haqiqatan ham O‘zbekiston zaminida qadim zamondan islom dini

bilan boshqa dinlar yonma-yon yashab, rivojlanib va bu jamiyatning ma’naviy yuksalishiga muayyan hissa qo‘shdi.

Barchamizga ma’lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining rezolyutsiyasi bilan har yili 30-iyul - Xalqaro do‘stlik kuni sifatida keng nishonlanadi. Shu bois ushbu sanani O‘zbekistonda “Xalqlar do‘stligi kuni” deb belgilashni taklif etaman. Bag‘rikenglikni namoyon qilish inson huquqlariga ehtirom bilan hamohang, u ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan sabr-toqatli munosabatda bo‘lishni, o‘z imon-e’tiqodidan voz kechish yoxud boshqalarning e’tiqodiga yon berishni anglatmaydi. U shuni anglatadiki, har kim o‘z e’tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog‘i lozim. U yana shuni anglatadiki, odamlar o‘z tabiatiga ko‘ra tashqi ko‘rinishi, qiyofasi, o‘zini tutishi, nutqi, xulqi va qadriyatlari jihatidan farqlanishi e’tirofga loyiqligi barobarida, ular dunyoda yashashga va o‘zlarining ana shu individualligini saqlab qolishga haqlidirlar.

Biz bugun jadal rivojlanib, tez sur’atlar bilan o’zgarib borayotgan shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Dunyo mamlakatlari orasida kechayotgan bu jarayonlarni turli olimlar, davlat arboblari, jurnalist va siyosatchilar turli nom bilan atamoqda. Ana shu tushunchalar orasida eng maqbuli “globallashuv” tushunchasidir. Globallashuv o’zi nima? Bu so’z lug’aviy ma’nosi nuqtayi nazaridan fransuz tilida – umumiylashuv, lotin tilida esa – globus – Yer shari ma’nolarini bildiradi. Demak, bu so’z ma’nosi jihatidan ham umumbashariy tushunchalar, insoniyat taraqqiyotiga doir muammolar va ularning yechimini, rivojlanish istiqbollarini o’zida mujassamlashtiradi. Globallashuv – jahon xo’jaligi rivojlanishining obektiv jarayoni bo’lib, juda ko’p ijobiy xususiyatlarga ega. Bular, xususan, turli mamlakatlarning o’zaro aloqasi, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, ilm-fan, texnika- texnologiya yutuqlari almashinuvining tezlashishini hamda davlatlarning ilmiy, texnikaviy, siyosiy, madaniy, iqtisodiy taraqqiyotiga ko’maklashuvida ko’rinadi. Bugungi mana shunday jadal globallashuv asrida axborotga bo’lgan talab har qachongidan ko’ra kuchayib bormoqda.

Ma’rifat kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiyadir. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma’lumotlar majmuasini ham bildiradi. Bugun rivojlanayotgan davlatimizga jahon mamlakatlari mutaxasislari bilan bemalol raqobatlasha oladigan intellaktual salohiyat egasi bo’ladigan ijodiy fikrlovchi ma’naviyati yuksak shaxslar zarurdir. Zero, Respublikamiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning yurtimizda ta’lim sohasini tubdan isloh qilish bilan bog’liq holda aytgan quydagi gaplari fikrimiz dalilidir:- «Ta’lim tizimining bosh maqsadi mustaqil fikrlaydigan avlodni shiddat bilan o’zgarayotgan global dunyo bilan ketishga tayyorlash, ularni boshqa mamlakatdagi tengqurlariga nisbatan raqobatbardosh qilish va shu orqali millatning ravnaqini ta’minlashdir. Yoshlar kasbsiz, mahorat va malakasiz, mustaqil fikrlamaydigan, o’rganishni o’rganmagan millatlar zaiflashib, boshqa millatlarga yem bo’lishini tarix ming bir  marta isbotlab bergan. Shunday ekan, hozir bizga ta’limning yangi islohoti kerak»[1]. Ma’naviyati yuksak shaxs har xil oqimlarga qo’shilmaydi, aniqrog’i jaholat ta’siriga berilmaydi. Ma’rifat inson ma’naviyatining cho’qqisi bo’lsa jaholat uning aksi inson zotining zavoli kushandasidir. Ma’rifat orqaligina olamda rivojlanish bo’lgan. Odamlarning hayvondan farqi ham mana shunda ota-bobolarimiz bu borada qanchadan-qancha ishlar qilgan. Insoniylik nima ekanligini uqtirib ma’rifat sari yetaklagan. Oddiygina bir misol:-«Nuh payg’ambar zamonidagi o’g’il ota ustidan kulib yuzi qora bo’lgani va uning avlodi qarg’ishga uchrab qora tanli bo’lib yaralganligi aytilgan» ota-ona oldidagi farzandning burchi, farzand oldidagi ota-ona burchi buning dastlabki ko’rinishidir. Chunki to’g’ri tarbiyagina insonni inson qilib kamolotga  yetaklaydi. Ming yillar avval shakllangan rivojlanishning poydevori bo’lib xizmat qilgan. Ma’rifatparvarlik g’oyasi asosidagina shunday rivojlanish cho’qqisiga yetishdik.

Dunyoda insonga tuhfa etilgan aql ne’mati shunday qudratli kuchki, u bilan odam  o’zini istagan holatda tarbiya eta oladi, har qanday azob-mashaqqatni, har qanday  yomonlikni, eng murakkab muammolarni ham aql ne’mati bilan yengadi va hal etadi.  Ruhiy kamolat odam qalbida ezgulikning yuksak koshonasini yaratadi.

Aql-zakovatning kamoli o’qish, o’rganish, tahlil etish, idora qilish, e’tiqod qo’yish, hayot tajribasini egallash bilan ro’yobga chiqadi. Yosh niholning basavlat daraxtga aylanishi parvarishga bog’lik bo’lganidek, odam bolasining komil inson bo’lib yetishishi uchun uni murg’aqlikdan tarbiyalashga e’tibor berib borish lozim. Ma’lumki, bolani layoqatga mos holda o’stirish uchun unda yoshlikdan mehnatsevarlik va ishchanlik ko’nikmasini hosil qilish kerak. Garchand inson kamolatiga ta’sir etadigan omillar bir qancha bo’lsa ham lekin, maxsus tarbiya muassasalarida tarbiyachining rahbarligida amalga oshiriladigan milliy tarbiya jarayoni yetakchi hisoblanadi. Chunki, birinchidan, tarbiya ta’sirida muhit ta’siri bera olmagan fazilatlar o’zlashtiriladi va narsalar o’rganiladi, ya’ni bilim, ma’lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog’lik ko’nikmalar, malakalar ham maxsus uyushtirilgan tarbiya orqali hosil bo’ladi.

Ikkinchi, tarbiya tufayli tug’ma kamchiliklar ham o’zgartirib shaxsni kamolga yetkazish mumkin. Masalan, ko’rlar, gunglar ham o’qitilib, sog’lom kishilar qatori hayotga tayyorlanadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta’sirini ham yo’qotish yoki bartaraf qilish mumkin.

To’rtinchidan, tarbiya doimo kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Shu tufayli, u shaxsning kamolga yetishini tezlashtiruvchi rol o’ynaydi. Insonni kamol topishida barkamol inson bo’lib yetishida maktabning ahamiyati katta. Bolalar maktabga qadam qo’yar ekan, ular o’quv mehnati bilan band bo’ladilar. Bolalar maktabda fan asoslarni egallab olishi bilan birga ularda sekin-asta ilmiy dunyoqarash shakllanib boradi. O’quvchi-tarbiyachilarning rahbarligida insonga xos bo’lgan yuksak fazilatlarni egallaydilar. Reja asosida tarbiyaviy ishlarni tashkil etib, bolani tariyalashda oilaga har vaqt yordam ko’rsatadi. Tarbiyachi o’z tarbiyalovchisining oila sharoitidan xabardor bo’lishi, pedagogik maslahatlarga, yordamga muhtoj bo’lgan oilalarga yordam berishi muhim. Tarbiyachi uchun bola bo’sh vaqtini kimlar bilan va nimalar bilan mashg’ul bo’lib o’tkazayotgani ahamiyatsiz emas. Chunki o’z holiga tashlab qo’yilgan bola ko’chaning salbiy ta’siriga berilib ketishi mumkin [2].

Ota-bobolarimiz “Agar kishiga hayotning o’zi berolmasa ta’lim, unga o’rgata olmas hech bir muallim” deb bejiz aytishmagan [3]. Umuman, pedagogik jihatdan to’g’ri uyushtirilgan har qanday faoliyat bola shaxsining aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy va irodaviy rivojlanishiga ijobiy ta’sir etadi. Rahbarlik qilinmagan faoliyat esa bir yoqlama yoki salbiy ta’sir etishi mumkin. Rivojlanish shaxs faoliyatidan tashqarida bo’lmaydi. Shu sababli odam faoliyati uning rivojlanishi uchun asos bo’ladi. Pedagogik jihatdan to’g’ri uyushtirilgan har qanday faoliyat ham o’yin, mehnat, o’qish, sport va boshqalar shaxsning rivojlanishiga ta’sir ko’rsatadi. Shaxs ulg’aya borgan sari uning faoliyati ham mazmunan, ham aqlan o’zgarib boradi, turli yosh davrlarida esa faoliyat turlari ham o’rganib boradi. Shu sababli bola hayotida o’yin, o’quvchi xayolida o’qish, kattalar hayotida mehnat faoliyatlari katta ahamyatga egadir. Shaxs qaysi yoshda bo’lishidan qat’iy nazar, ularning rivojlanishida mehnat faoliyatining ahamiyati kattadir. Ayniqsa, mehnat insonning ham jismoniy, ham ma’naviy kamol topishida muhim manba hisoblanadi. Mehnat orqali shaxsning axloqiy sifatlari tarkib topadi, ularda vatanparvarlik, mas’uliyat, intizomlilik, faollik ortadi. Bulardan tashqari shaxsni kamolga yetishda uning barkamol inson bo’lib yetishishida nafosat tarbiyasi, axloq-odob tarbiyasi, ekologik tarbiya, jismoniy tarbiyalarning o’rni va roli beqiyosdir.Chunki bu tarbiya usullari birgalikda amalga oshirilsa biz yoshlar, ertangi O’zbekiston bunyodkorlari, yuksak marralarni qo’rqmasdan zabt eta olamiz.

Yuqoridagi fikrlardan ko’rinib turibdiki, milliy tarbiya har qanday jamiyat va mamlakat hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki uning o’sishi har qanday jamiyat va davlatda hal qiluvchi ahamiyatga ega.Buning uchun o’sib kelayotgan yosh avlod o’z ajdodlaridan ham yuqoriroq natijalarga erishsishi lozim bo’ladi. Ammo, bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida axloqga zid bo’lgan harakatlar natijasida katta ma'naviy yo’qotishlar yuz berayotgani millatning asriy qadriyatlari, millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash sharti jiddiy xavf ostida

qolayotganini kuzatish mumkun [4]. Bugungi globallashgan XXI asrda yoshlarimizni axloqimizga zid bo’lgan illatlardan va tahdidlardan saqlash eng asosiy burchimizdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 29-dekabr 2020 y.

2.Muhammad Quronov. Milliy tarbiya. – T.:Ma’naviyat. 2007.

3.Сафо Очил.Мустақиллик маънавияти ва тарбия асослари. Тошкент.“Ўқитувчи”1995.-Б. 208.

4.М.К.Рашидова.Тарбияда инсоний фазилатларнинг намоён бўлиши.//Academic Research in Educational Sciences, 3 (12) ,2022. -P.276-280.

## YOSHLARNING MA’NAVIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI MA’RIFIY QADRIYATLAR

Bobomurod Tillayev NamDPI
Gumanitar fanlar kafedrasi katta o`qituvchisi
Umarova Muhayyo Tolibjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada qadriyatlarning jamiyat hayotiga ta’siri, milliy qadriyatlar yoshlarning ma‘naviyatiga ta’siri, yoshlar dunyoqarashida milliy - ma’rifiy qadriyatlarga tayanish muayyan maqsad va vazifalari, Jamiyat ma’naviy hayotida milliy qadriyatga munosabat muammolarini omillari haqida batafsil yoritilgan.

**Kalit so’zi:** xalq, mamlakat, madaniyat, tinchlik, qadriyat, millat, jamiyat, milliy, milliy qadriyat, ma’naviyat.

**Аннотация:** В данной статье подробно описано влияние ценностей на жизнь общества, влияние национальных ценностей на духовность молодежи, конкретные цели и задачи опоры на национальные и духовные ценности в

мировоззрении. молодежи, и факторы проблем отношения к национальным ценностям в духовной жизни общества.

**Ключевые слова:** нация, страна, культура, мир, ценности, нация, общество, национальный, национальная ценность, духовность.

**Annotation:** This article describes in detail the influence of values on the life of society, the influence of national values on the spirituality of young people, the specific goals and tasks of relying on national and spiritual values in the worldview of young people, and the factors of the problems of attitude to national values in the spiritual life of society.

**Keyword:** nation, country, culture, peace, value, nation, society, national, national value, spirituality.

Bugun mamlakatimizda tinchlik va barqarorlik hukm surayotganiga bir davrda mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlash ustuvor maqsad bo‘lib qolaveradi. Yangi O‘zbekistonda jamiyat va davlat munosabatlari bir maromga soluvchi, o‘z-o‘zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo‘lgan eng muhim va umumiy xususiyat bu uning faolligidir. Bugun mustaqillik tufayli ularning nomlari, milliy-ma’naviy qadriyatlarimiz tiklanib, o‘zligimizni chuqurroq anglab bormoqdamiz. Bugun yoshlar o‘z milliy tarixini o‘rganmoqda. Ona tili, madaniyat, urf-odat va an’analarining qayta tiklanib borayotgani ularni o‘zligini anglashga shart-sharoit yaratib berayotgani ham muhim yutuqdir. Zero O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo’lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. Tarbiya qancha mukammal bo’lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo’lishi uchun esa bu masalada bo’shliq paydo bo’lishiga mutlaqo yo’l qo’yib bo’lmaydi”. [1] Bugun yoshlar shunchaki milliy-ma’naviy qadriyatlarini o‘rganib qolayotgani yo‘q. Ular dunyo xalqlari erishgan yutuqlardan bahramand bo‘lmoqda. Xorijiy davlatlarda o‘qish, bilim olib, fan-texnika yutuqlari, ilg‘or

texnologiyalarni egallab jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga joriy etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Yoshlarda ijtimoiy
faollik holati va amalga oshirish shakllari haqida S. Samadova [2], Z. G`afurov [3] , O. Musurmonova [4], M. Imomnazarov [5], M. Inoyatov [6] ilmiy tadqiqotlari tahlil qilib borildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Jahonda yuzaga kelayotgan o‘zgarishlar zamirida rivojlanayotgan jamiyat o‘z ta’siri doirasida insonlarning qadriyatlariga ham sezilarli darajada o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. O‘z navbatida mazkur omillar sabab insonlarning dunyoqarashi va xulq-atvori ham o‘zgarib bormoqda. Olimlar esa mazkur o‘zgarishlarning konstruktiv va destruktiv jihatlari borligini alohida ta’kidlab o‘tadilar. Shu boisdan ham bugungi kunda inson ruhiyatini o‘rganuvchi olimlar qadriyatlarnio‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlariga ko‘proq e’tibor qaratmoqdalar. Qadriyat deganda inson uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushuniladi.“Qadriyat” aslida arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “qiymat”, “ahamiyat”, “qimmatbaho buyumlar”, “xalq boyligi” degan ma’nolarni anglatadi. Qadriyat falsafiy jihatdan esa “... inson uchun biror ahamiyatga ega bo‘lgan shakllar, xolatlar,narsalar, voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab, tartiblarning qadrini ijtimoiyahamiyatini ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy kategoriya” hisoblanadi.

Har bir davlatning o'ziga xosligining ramzi bo'lib xizmat qiladigan o'ziga xos milliy qadriyatlari mavjud. O‘zbekiston misolida esa milliy qadriyatlarga mehmondo‘stlik, kattalarga hurmat - kichiklarga izzat, mardlik, mehr-oqibat kabi fazilatlar kiradi. Bu qadriyatlar avloddan-avlodga o‘tib, o‘zbek madaniyatining

shakllanishiga yordam berdi. Misol uchun, mehmondo'stlik o'zbek madaniyatiga shunchalik chuqur singib ketganki, mehmonlar ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, muqaddas sanalib, doimo kutib olinadi.

Ma’lumki, 2020 yilda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlar 18 million 720 ming nafarni yoki umumiy aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo‘lganlar esa 14 million 80 ming nafarni yoki 64 foizni tashkil etadi[7].

Mamlakatimiz aholisining aksariyat qismini tashkil etadigan yoshlarimizning hali-beri yechilmagan muammolariga e’tiborimizni jalb etish, ularni hayotimizda haqiqatdan ham hal qiluvchi kuchga aylantirish masalasi jamoatchiligimizning diqqat markazida turibdi. Ma’lumki, tarbiya inson shaxsi ma’naviyatini, e’tiqodini, o‘zini anglash, yon-atrofga bo‘lgan munosabatini shakllantirishga qaratilgan jarayondir. Shunday ekan, ushbu jarayon mutanosibligini ta’minlashda ta’lim-tarbiya ishini uyg‘un tarzda olib borish lozim bo‘ladi. Ta’lim orqali yoshlar hayotida o‘z o‘rinlarini topishda ma’lum bir kasb - hunarni o‘rganish bilan birga, o‘zlarini bo‘lajak hayotga tayyorlab boradilar. Xalqning ma’naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o‘ziga xosligi, qayta tiklanayotganligi, jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo‘lida muvaffaqiyatli ravishda olg‘a siljitishda hal qiluvchi, ta’bir joiz bo‘lsa, boshlovchi ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi 1- Prezidenti I.Karimov ta’kidlaganidek, “Huquqiy demokratik adolatli davlat qurishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, xalqimizning madaniy va eng nozik tuyg‘ularini, chuqur falsafiy, siyosiy, huquqiy tushunchalarini o‘zida mujassam etadigan ma’naviyatni yuksaltirish asosiy va ustivor vazifalardan biriga aylandi” [8] .

Jamiyat yoshlar ongida ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirmay va mustahkamlamay turib o‘z istiqboliga erisha olmaydi. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy jamiyat qurish yo‘lidagi murakkab va keng ko‘lamli vazifalarni hal etishga qodir bo‘lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash bundan buyon ham faoliyatimizning eng muhim yo‘nalishi bo‘lib qoladi.

Mustaqillik esa ana shu vazifani amalga oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Xalq yoki millat o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga ega bo‘lsagina, o‘zining mustaqil taraqqiyot yo‘lini erkin belgilab olishi, yoshlarni o‘z milliy qadriyatlari negizida tarbiyalash mumkin. Biroq jamiyat hayotining barcha jabhalarini erkinlashtirmasdan haqiqiy erkinlikka erishib bo‘lmaydi. Erkinlik g‘oyasi va xalqning ma’naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun yuksalishning qudratli manbai bo‘lib xizmat qilgan. Sharqda shaxs erkinligi va huquqlari, xatti-harakati, xulq-atvori, jamiyatdagi o‘rni, ma’suliyatini idrok etish darajasiga baho berilganda muayyan guruh, etnos, xalq, millat, jamiyatning manfaatlari, huquqlariga alohida qadriyat va an’analardan kelib chiqqan holda yondashiladi. Yoshlar dunyoqarashida milliy-ma’naviy qadriyatlarga tayanish, uning talqini va jamiyatimizda iqtisodiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishda tutgan o‘rni bugungi muhim muammolar jumlasidandir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Millat uchun erkinlik adolat tantanasining oliy ifodasidir. Erkinlik birovni o‘ziga qaram qilishga, birovning mol-mulkini talon-taroj etishga, birovga xiyonat qilishga, birovni o‘ldirishga yoki zarar yetkazishga yo‘l qo‘ymaydi.”[9] deb ta’kidlaydilar. Erkinlik qonunga asoslanadi: qonun doirasida olib yuborilgan ishlar va xatti- harakatlar ahloqiy hamda huquqiy qadriyatlar jihatidan haqli hisoblanadi. Kundalik turmushda, o‘zaro munosabatlarda inson erkinligi qonun hamda axloqiy normalar bilan cheklangan bo‘ladi. Erkinlikni to‘g‘ri tushunib, uni hayotimizga to‘hri tatbiq etganimizdagina, bu buyuk ne’mat-adolat va erkinlikni saqlab qolishimiz va undan keyingi avlodlarimiz ulardan bahra olishlari mumkin.

Yoshlar dunyoqarashida milliy – ma’naviy qadriyatlarga tayanish muayyan maqsad va vazifalarni o‘z ichiga oladi. Ular quyidagilar :

- Yoshlarning milliy- ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatining hozirgi

holatini o‘rganish, ularning amaliy faoliyatlarida ko‘proq qaysi qadriyatlar ustuvor bo‘lib borayotganini aniqlashga yordam beradi. Bundan ko‘zlangan

asosiy maqsad ularning milliy- madaniy meros va qadriyatlarga nisbatan ishonch va e’tiqodni mustahkamlashdan iborat.

- Yoshlarning milliy-ma’naviy qadriyatlarga nisbatan ishonch va e’tiqodining mustahkam bo‘lishi O‘zbekiston tanlagan o‘ziga hos va mos taraqqiyot yo‘li talablaridan kelib chiqadi hamda yoshlar oldiga aniq vazifalarni qo‘yadi.

- Yoshlar o‘z dunyoqarashida milliy – ma’naviy qadriyatlarga tayanmasa, ularning ongi va tafakkuridan mutlaqo begona qadriyatlar joy oladi. O‘zining milliyma’naviy qadriyatlariga nisbatan bepisandlik bilan qarash shakllanadi. [10]

Jamiyat ma’naviy hayotida milliy qadriyatga munosabat muammolarini quyidagi omillarga bog‘laydi :

1. Jamiyatni erkinlashtirish va ma’naviyat demokratiya hamda yoshlar dunyoqarashidagi milliy- ma’naviy qadriyatlarga tayanish bilan ham uzviy bog‘liq. Mamlakat, xalq, millatning buguni va kelajagiga daxldor bo‘lgan qadriyatlar haqida o‘z fikrini ochiq va erkin bildirish ayrim salbiy holatlarning oldini oladi. Eng muhimi, fikrni erkin aytish muhim. Yoshlar fikriga hurmat bilan qarash, o‘zgalar fikriga tayanish, milliy- ma’naviy qadriyatlarni tiklash orqali jamiyatda siyosiy- huquqiy madaniyat yuksalib boradi.

2. Mustaqillik ulug‘ ne’mat va qadriyat ekanini chuqur idrok etgan holda, umummaqsad yo‘lida yoshlar ozod shaxs va erkin fuqaro sifatida jamiyat oldidagi o‘z ma’suliyatini chuqur anglab, faollik ko‘rsatishi ularning qalb amriga aylanishi lozim.

3. Milliy – ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi tufayli yoshlar o‘z erkinligi va mustaqilligini qadrlaydigan, unga hurmat bilan qaraydigan, shu tuyg‘uga ko‘proq ehtiyoj sezadigan bo‘lib boradi. Madaniy merosga nisbatan befarqlik va loqaydlik kabi ayrim illatlar barham topadi.

4. Demokratik jamiyatda milliy- ma'naviy qadriyatlarni tiklashga ehtiyoj ortib, fikrlar xilma- xilligi, munozara madaniyati shakllanadi. Faqat o'z fikrini o'tkazish, o'zgalar fikrini bo'g'ib qo'yish hollariga barham beriladi.

5. Mustaqil mamlakatda har bir yoshning qaysi sog'ada ishlashidan qat'i nazar, avvalo, ozod va erkin shaxs, inson sifatida o'zligini anglamog'i zarur bo'ladi. O'zlikni anglash esa ma'naviy qadriyatlarni chuqur o'rganish, asrab-avaylab rivojlantirish orqali amalga oshadi.

6. Bugun rahbarlik lavozimlarida ishlayotgan ayrim shaxslar faoliyatida uchraydigan, qadriyatlarimizga to'g'ri kelmaydigan salbiy illatlarga barham berish imkoniyati tug'iladi. [11]

Mustaqil O'zbekistonning kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari taraqqiyoti davrida, asriy ma'naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz, buyuk ajdodlarimizning tarixiy tajribalaridan to'g'ri foydalanib, ularning ibratli ishlaridan saboq olish mamlakatimizda fuqarolik jamiyati qurilishi vazifalarini amalga oshirishga, xalqimizning ma'nan yuksalishiga xizmat qiladi.

**XULOSA**

Ma'naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Chunki, ma'naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy – siyosiy barqarorlik vujudga keladi, hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi. Bu o'z navbatida shaxsning barkamolligiga va uning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan zamin bo'lib xizmat qiladi.

Zero, xalqimiz, ayniqsa yosh avlod ongi va tafakkuriga singdirilgan milliy g'oya har qanday yot g'oyalarning ta'siriga berilib qolmaslikni ta'minlashi bilan birga ularga munosib javob qaytarish ko'nikmasini ham shakllantiradi, milliy qadriyatlarimizni hurmat qilishga va uni asrab-avaylashga undaydi. Shu nuqtai nazardan, yoshlar bilan bog'liq muammolarni hal etishda ma'rifiy qadriyatlardan, ilg'or taraqqiyotga xizmat qiluvchi diniy qadriyatlardan foydalanish, ularni zamonaviy demokratik qadriyatlar bilan uyg'unlashtirgan holda, yosh avlodni har

omonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash masalasiga bugun yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda.

**Adabiyotlar ro'yhati**


1. 1.Sh. Mirziyoyev "Jismoniy va barkamol yoshlar – bugungi va ertangi kunimizning xal qiluvchi kuchidir". "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining quriltoyida so'zlagan nutq. 2017yil 30 iyun. To'la asarlar to„plami 1-jild, Toshkent "O'zbekiston" 504-505 betlar.
2. 2.Samadova.S. Ma'naviy - ma'rifiy tadbirlar samaradorligini oshirishning pedagogik asoslari. (o'quv-uslubiy qo'llanma). "Durdona", 2020. -96 bet
3. G`afurov Z., Toshev S. Ma'naviyat saboqlari. - Qarshi, Nasaf. 1999.-160 bet
4. Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish.-T.: "Fan", 1993. – 112 bet.
5. Imomnazarov M. Ma'naviyatimizning takomil bosqichlari.-T.: Sharq, 1996 yil.
6. Inoyatov M. Oila, ijod, tarbiya va ma'naviyat. – T.: "SHarq", 2000. -112 bet.
7. Мадалиева З. Ҳуқуқий маданият ва ёшлар.- Т.: "Академия", 2020. 5- бет.


## *O`ZBEKISTONDA KUCHLI IJTIMOIY SIYOSAT KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI*


Ataxonov Baxtiyor

NamDPI Gumanitar fanlar kafedrasi katta o`qituvchisi

Yo'ldosheva Munavvarxon NamDPI 1-kurs talabasi



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O`zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi tahlil qilingan. Uning muammoli jihatlariga

to`xtalib o`tilgan. Kalit so`zlar: ijtimoiy, siyosat, konsepsiya, iqtisodiyot, moliyaviy, korrupsiya, kambag`allik, ijtimoiy himoya, infrastrukturaviy, ekvivalent, xalq, jamiyat.

**Аннотация:** В данной статье анализируется формирование сильной концепции социальной политики в Узбекистане. Затронуты его проблемные аспекты.

**Ключевые слова:** социальное, политика, конфепция, экономика, финансы, коррупция, бедность, социальная, защита, инфраструктура, эквивалент, люди, обществ.

**Abstract:** This article analyzes the formation of a strong social policy concept in Uzbekistan. Its problematik aspects have been touched upon.

**Key words**: social, policy, concept, economy, financial, corruption, poverty, social protection, infrastructural, equivalent, people, soceiety.

**Kirish:**

Ijtimoiy siyosat - bu davlatning ijtimoiy adolat, farovonlik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan strategiyasi bo`lib, aholining turli qatlamlariga yordam ko`rsatishni o`z ichiga oladi. Ushbu siyosat ijtimoiy himoya, ta’lim, sog`liqni saqlash, bandlik va uy-joy kabi sohalarda davlat tomonidan ko`rsatiladigan xizmatlar va resurslarni taqsimlashni boshqaradi. Ijtimoiy siyosatning asosiy maqsadi kambag`allikni kamaytirish, notenglikni bartaraf etish va aholining hayot sifatini yaxshilashdir. O`zbekistonda ijtimoiy siyosat mustaqillik yillaridan boshlab rivojlanib, aholining ehtiyojlariga javob beradigan samarali tizim yaratishga qaratilgan. Ta’mirlanganlik darajasi iqtisodiy imkoniyatlarga bevosita bog`liq va iqtisodiyotning asosiy maqsadi cheklangan resurslar sharoitida aholini ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga qaratiladi.1. Bugungi kunda davlatimiz inson uchun, xalq uchun ochildi. Xalq bilan bevosita muloqot qilish, uning dard-u tashvishlari, muammolari ijobiy hal etish bo`yicha yangi tizim yaratildi.

Ijtimoiy siyosat mamlakatimizda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo`nalishlaridan biri bo`lib qolmoqda. Ijtimoiy qo`llab quvvatlashning aniq manzili xususiyatga ega ekani har bir muhtoj insonga uning real ehtiyojini hisobga olgan holda yordam ko`rsatish imkonini bermoqda. Bunda ushbu toifaga mansub hech bir inson e’tibordan chetda qolmasligiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Yurtimizda ijtimoiy muammolarni hal etishning mutlaqo yangi va o`ziga xos tizimi yaratildi.

Birgina “obod qishloq” va “obod mahalla” dasturlari doirasida 2021-yilda barcha shahar va tumanlardagi jami 8 mingga yaqin qishloq va mahallada qurilish, ta`mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirmoqda. Ta`kidlashim joizki, keyingi besh yilda oliy ta’limga qabul kvotasi 3 barobar oshirilib, joriy yilda 186 871 nafar yoshlar uchun talaba bo`lish imkoniyati yaratildi. Bu - umumiy qamrov 28 foizga yetdi. Bizga ma’lumki, bundan 4 yil avval bu raqam atigi 9 foizni tashkil etardi. Bu borada davlat grantlari 21 mingtadan 47 mingtagacha ko’paytirildi ehtiyojmand oilalarga mansub 2 ming nafar qizlarga hamda nogironligi bo`lgan shaxslarning ham 2 ming nafariga bu yil oliygohlarga kirish uchun alohida grantlar ajratildi. Qishloqlarda ishsiz yoshlarni bandligini ta’minlash maqsadida ularga 10 sotixdan 1 gektargacha yer maydonlari ajratish boshlandi. Ota-onasidan ajragan, mehrga muhtoj bolalarni qo`llab-quvvatlash ularning ta’lim-tarbiya olishi, ish joyi va uyiga ega bo`lishi, jamiyatda munosib o`rin topishi uchun “Mehribonlik uylari”, maxsus maktab-internetlar va “Bolalar shaharchasi”ning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyatini mustahkamlashga jiddiy e’tibor berilmoqda. Shuningdek, yetim va ota-ona qaramog`idan mahrum bo`lgan bolalarni uy-joy bilan ta’minlash tartibi belgilandi.

Hozirgi kunda O`zbekistonning ijtimoiy sohani rivojlantirishidagi asosiy yo`nalishlari 2022-2026 yillarga mo`ljallangan PF-60-son 28.01.2022-yilda tasdiqlangan “Taraqqiyot”strategiyasida belgilab qo`yildi. Ushbu strategiyaning to`rtinchi yo`nalishida adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish konsepsiyalari ilgari surilgan. Bunda sifatli ta’lim-tarbiya masalasi

doimiy e'tibor markazida bo`lishi ta'kidlanadi. Shu maqsadda o`qituvchilarning oylik maoshlarini izchil oshirib borish va 2025-yilga borib, 1 ming dollar miqdoriga yetkazish ko`zda tutilgan. Kelgusi 5 yilda oliy toifali shifokorlar maoshini ham 1 ming dollar ekvivalentga yetkazish mo`ljallanmoqda. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sog`lom turmush tarzini qaror toptirish muhim vazifa bo`lib qoladi. Bu sohada professional, oliy ma'lumotli trenerlar ulushini hozirgi 54 foizdan 2026-yil yakuniga qadar 85 foizga oshirish va shu kabi asosiy rejalar "Taraqqiyot"strategiyasidan joy olgan.4. XULOSAM: Tanganing bir tarafi bo`lganidek, albatta, ikkinchi tarafi ham bo`ladi. O`zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishidagi asosiy muammolarga to`xtalib o`tishni o`zimga joiz ko`rdim. Ular bir necha yo`nalishlarda ko`zga tashlanadi: Misol uchun davlat tomonidan ijtimoiy siyosatni amalga oshirish uchun zarur bo`lgan resurslar yetarli emas. Ijtimoiy sohalar jumladan, sog`liqni saqlash, ta'lim va ijtimoiy ta'minot tizimlari yetarli mablag` bilan ta'minlanmaydi. Bu, ayniqsa, qishloq joylarida yaqqol ko`zga tashlanadi. Ishsizlik masalalariga to`xtaladigan bo`lsam ayollar va yoshlar orasida ish topish muammolari ko`p. Bizning eng og`riqli nuqtamiz bu - korrupsiya. U jamiyatimizning turli qatlamlariga salbiy ta'sir ko`rsatadi. Buning natijasida resurslar samarali taqsimlanmaydi va aholining ehtiyojmand qatlamlari yetarli yordam ololmaydi. Hududiy tengsizliklarga to`xtaladigan bo`lsam qishloq va shahar hududlari o`rtasidagi ijtimoiy iqtisodiy farqlar davlatning ijtimoiy siyosatni bir xilda amalga oshirishiga to`sqinlik qiladi. Qishloq joylarida infrastrukturaviy muammolar ijtimoiy xizmatlardan foydalanishni cheklaydi. Bu muammolarni hal qilish uchun tizimli islohotlar, korrupsiyaga qarshi kurash va mahalliy boshqaruv tizimlarini tubdan o`zgartirish kerak. Bu vaziyatlar tez orada hal bo`ladi degan umiddaman!. Zero, yangi O`zbekiston inson qadri ustuvor bo`lgan jamiyat va xalqparvar davlatdir. Yo`lboshchisi esa xalqning muammolarini oilasining muammolaridek ko`radigan xalqi uchun yonib, kuyib yashaydigan mehribon ota!.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. 1.Karimov "Taraqqiyotning o`zbek modeli".
2. Mirziyoyev "Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun".
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- yanvardagi "2022-2026-yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to`g`risida " gi PF-60-sonli farmoni.


# EKSTREMEZIM VA TERRORIZMNING MAZMUN MOHIYATI VA KELIB CHIQISHI SABABLARI


**Kenjayev Burgutali Qovuljon o'g'li**
Namangan Davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

**Yuldasheva Dildora Ilhomjon qizi**
Namangan Davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adaboyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi
dildorayoldasheva06@icloud.com



**Annotatsiya:** Maqola doirasida ekstremizmning kelib chiqish sabablari, uning mazmun mohiyati va asosiy g'oyalari haqida hamda akromiylarning qarashlari fikr yuritilgan.



**Kalit so'zlar:** Ekstremizm, terrorizm, Islom dini, Vahobiylar, al-qoida, ISHID, mafkuriy tahdid, fundamentalizm , akromiylar.



**Annotation:** Within the article, the reasons for the origin of extremism, its essence and main ideas, as well as the views of the Akromites are discussed.



**Keywords:** Extremism, terrorism, Islam, Wahhabis, al-Qaeda, ISIS, ideological threat, fundamentalism, acromites.


**Kirish:**

Insoniyat mamlakatlar va xalqlar hayotida XX asr poyoniga yetmoqda. Ishonchim komilki, bizni –hozirgi O'zbekistonda istiqomat qiluvchilarning ko'pchiligi tirikchilik tashvishlari –chin voqealik muammolari bilan birga. Bu yorug' olamda biz kimmiz va ne bir sir-sinoatimiz, qayoqqa qarab ketyapmiz Insoniyat yangi –XIX asrga qadam qoyganida bizning o'rnimiz qayerda va qanday bo'ladi – degan savollar o'ylantirishi tabiiy.

XX asr ajoyib ilmiy kashfiyotlar asri, inson Koinot sirlari qoyniga kirib borayotgan asr, axborot va g'oyat ulkan texnikaviy imkoniyatlar asri bo'ladi. Shu bilan birga bu asrning oxiri diniy qadriyatlarning uyg'onish davri, vazmin, behuda urinishlardan xoli diniy ma'naviyatga o'ziga xos tarzda qaytish davri bo'lib qoladi.

Jahonda eng yirik dinlardan bo'lgan islom ham shu kabi yalpi intilishlardan chetda qolgani yo'q. Aksincha, musulmon dunyosida va hatto undan tashqarida ham so'nggi o'n yilliklar mobaynida ro'y bergan voqealar jahon hamjamiyatida "Islom ovozi" deb atalgan hodisa haqida gapirish imkonini berdi.

Ko'plab siyosatchilar , olimlar, jurnalistlar, XX asr oxirida yuz bergan , "Islom uyg'onishi" , " qayta islomlashish" , " Islom fenomeni," va boshqa turli –tuman nomlar bilan atalgan hodisaning sabablarini tushuntirib berishga harakat qildilar .Bu tushunchalar haqida munozaraga kirishmagan holda, e'tiborni jahon hamjamiyati hayotida islom qadriyatlarini tiklash bayrog'i ostida ro'y berayotgan hodisalar g'oyat hilma hil ko'p qirrali , ba'zan ziddiyatli va hatto qarama qarshi qutbli ekanligiga qaratmoqchiman.Uning diniy ekstremizm va fundalmentalizm kabi keskin hodisalar munosabati bilan bezovtalanayotgani , ba'zan esa hatto xavfsizlanayotgani ham ko'zga tashlanmoqda .

Diniy ekstremizm va fundamentalism bizning mintaqamiz uchun tug'dirish mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni bevosita tahlil qilishga kirishishdan oldin e'tiborni odamlarning diniy e'tiqodlari bilan bog'liq har qanday muammo g'oyat nozik ekanligiga , ularning dinining ma'naviy qadriyatlari bilan shoirlardan, xususan , islomni qayta tiklash shoirdan foydalanayotgan muayyan kuchlar ko'zlayotgan ,

dinga aloqasi bo'lmagan siyosiy va boshqa tajovuzkorlar maqsadlar o'rtasidagi farqni tushunib olishlariga erishish zarurligiga qaratishni istardim.

Ana shunday bir sharoitda vahobiylik kabi g'oyalarning aldamchi jozibasi o'zini yaqqolo namoyon etmoqda. Turg'unlik, tangilik va jamiyatning parchalanish yillarida ajnabiy vohobiylikning ommaga yoqish yo'lidagi urinishlari adolatni yuzaki tushunib targ'ib qilishda, islomning ma'naviy-axloqiy me'yorlariga qattiq rioya etishni talab qilishda hamda zeb- ziynatdan va manfaatparastlikdan voz kechishni e'lon qilishda namoyon bo'lmoqda.

Ekologik ofatlar yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi Inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi. Chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan "ommaviy madaniyat" yopirilib kirib kelishi mumkinligi "Ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish hisobidan boylik ortirish. Xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar.

Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zi bo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi.

Terrorizm-jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish, aholi keng qatlamlarida vahima va qo'rquv uyg'otishga qaratilgan siyosiy kurashning o'ziga xos usuldir. U yashirin ruhdagi tashkilotlar tomonidan beqarorlik keltirib chiqarish orqali hokimyatni egallash maqsadida amalga oshirildi. Terrorchi guruhlar jamiyatda aholining keng qatlami nomidan harakat qilayotgandek taasurot uyg'otish maqsadida diniy shoirlardan niqob sifatida foydalanadilar.

Unga qarshi kurashda davlatlararo hamkorlikning yo'lga qo'yilishi o'tgan asrning 30- yillarida boshlangan. Masalan, 1934- yilda Madridda bo'lib o'tgan

jinoyatchilikka oid qonunlarni unifikatsiyalashtirish muammolariga bag‘ishlangan konfrensiyada terrorizmning “Aholini dahshatga solish va har qanday ijtimoiy tashkillashuvni yo‘q qilish maqsadida biror bir vositani qo‘llash” degan ma’nodagi ta’rifi qabul qilinishiga erishilgan edi.

1937- yilda 20 dan ortiq davlat terrorizmning oldini olish va bunday harakatlar uchun jazolash haqidagi konvensiyani imzoladi. Unda terrorizm “Davlatga qarshi qaratilgan, muayyan shaxslar yoki aholi o‘rtasida qo‘rquvni keltirib chiqarish maqsadida ko‘zlangan jinoiy faoliyat” deya ta’riflangan edi. Davlat boshliqlari, ularning huquqidan foydalanuvchi, ular tayinlagan yoki merosxo‘r bo‘lgan kishilar, qayd etilgan shaxslarning ayollari hayoti, sog‘ligi, ozodligiga tajavvuz qilish, jamoat mulki yoki boshqa davlatning mulkiga zarar yetkazish, ommaviy xavf tug‘dirish bilan odamlarni halok qilish niyatini ko‘zlash, ko‘zlagan jinoyatlarini sodir etish maqasadida qurol-yarog‘ va portlovchi moddalar sotib olish, saqlash va yetkazib berish ana shunday jinoyat sirasiga kiritilgan edi.

Ayni paytda, terrorchilarni jinoiy javobgarlikka tortish uchun 13 ta davlat suveren tenglikni chegaralovchi “ Halqaro jinoiy sudni tashkil etish” haqidagi konvensiyani imzoladi. Shunday bo‘lsada, bu hujjatlarda halqaro terrorchilarni tutib berish masalasi umuman qo‘yilmagan, davlat amaldagi qonunlariga ko‘ra uni jinoiy javobgarlikka tortish yoki boshqa davlatga shu maqsadda tutib berish uchun zarur choralarni ko‘radi. Ayni paytda, ko‘rilgan choralar haqida manffatdor davlatlar yoki halqaro tashkilotlarga ma’lum qiladi.

- Jinoyat shu davlat hududida yoki shu davlatda ro‘yxatga olingan transport vositasi (kema, samalyot va x.k) bortida amalga oshirilganda,
- Ayni paytda, terrorchilik hurujlarining oldini olish va uni sodir etganlik uchun jazolash to‘g‘risidagi Amerika davlatlari (1971- yil) Yevropa davlatlari (1976- yil) va Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorligi assotsiyasi (1987-yil) tomonidan qabul qilinga uchta mintaqaviy konvensiya ham mavjudligini qayd etish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar**:

1. Karimov.I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida; xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlar va taraqqiyot kafolatlari. –T; O‘zbekiston, 1997
2. Karimov.I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. –T; Ma’naviyat 2008
3. DFiniy ekstramizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari Toshkent. 2005

## KORRUPSIYA OQIBATIDA TA'LIM SOHASIDA YUZAGA KELADIGAN INQIROZLI HOLATLAR

Axmadjanova Muazzam Islomjanovna Namangan davlat pedagogika instituti gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi.

Halilova Muxlisabonu Hamidullo qizi Namangan davlat pedagogika instituti, Maxsus pedagogika (logopediya) yo'nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola korrupsiyaning ta'lim tizimiga ta'siri va uning oqibatida yuzaga keladigan inqirozlarni tahlil qiladi. Ta'lim sohasida korrupsiyaning jiddiy zararli ta'sirlari, o'qituvchilarning malakasiga, resurslarning noto'g'ri taqsimlaninshiga, ijtimoiy tengsizlikka va umumiy talim sifatining pasayishiga olib kelishi ko'rsatilgan. Maqolada korrupsiyaning kelajakdagi ta'lim inqiroziga ta'siri, shuningdek, bu muammoni hal qilish uchun zarur islohotlar haqidagi fikrlar ilgari suriladi.

**Kalit so’zlar:** Korrupsiya va ta’lim sohasidagi inqiroz, o’qituvchilarni tanlashda korrupsiya, ta’lim tizimi islohoti, o’qish joylariga kirishda korrupsiya, ta’limda korrupsiyaning oldini olish, shaffof ta’lim muassasalari, korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyalari.

**Аннотация:** В данной статье анализируется влияние коррупции на систему образования и вызванные ею кризисы. Было доказано, что коррупция в сфере образования оказывает серьезное негативное воздействие на квалификацию учителей, нерациональное распределение ресурсов, социальное неравенство и снижение общего качества образования. В статье рассматривается влияние коррупции на будущий кризис образования, а также необходимые реформы для решения этой проблемы.

**Ключевые слова:** Коррупция и кризис в сфере образования, коррупция при подборе учителей, реформа системы образования, коррупция при приеме в образовательные учреждения, предотвращение коррупции в образовании, прозрачные образовательные учреждения, стратегии борьбы с коррупцией.

**Abstract:** This article analyzes the impact of corruption on the education system and the resulting crises. Corruption in education has been shown to have serious adverse effects on teacher qualifications, misallocation of resources, social inequality and a decline in the overall quality of education. The article discusses the impact of corruption on the future education crisis, as well as the necessary reforms to solve this problem.

**Key words:** Corruption and the crisis in the field of education, corruption in the selection of teachers, reform of the education system, corruption in admission to educational institutions, prevention of corruption in education, transparent educational institutions, strategies to fight corruption.

Barchamizga ma’lumki, korrupsiya deb nomlangan qora o’choq ta’lim tizimidagi eng katta tahdidlardan biri hisoblanib kelinmoqda. Ko’pincha bu holatlarni ta’limga ajratilgan mablag’larning noto’g’ri taqsimlanishi, o’qituvchilarni tanlashda sodir bo’ladigan korrupsiya va o’quv yurtlariga kirishdagi poraxo’rliklar misolida ko’rishimiz mumkin va bu kabi holatlar ta’lim sifatini kun sayin yomonlashtiradi. Korrupsiyaning ta’limga ta’siri, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda ta’lim tizimining samaradorligini pasaytiradi.

Korrupsiyaning ta’lim sohasidagi ko’rinishlari turlicha bo’lishi mumkin ya’ni: 1.O‘qituvchilarni tanlashda korrupsiya, bu holatga dalil sifatida Qozog’istonda o’qituvchilarni ishga qabul qilish jarayonida poraxo’rlik holatlari keng tarqalganini aytishimiz mumkin. 2019-yilda o’tkazilgan tadqiqotlarga ko’ra, Qozog’istonda o’qituvchilarni ishga qabul qilishda korrupsiya darajasi yuqori, chunki o’qituvchilar o’z lavozimini saqlab qolish yoki yangilariga erishish uchun pora berishga majbur bo’lgan. Shuningdek, o’qituvchilar malakasini oshirish uchun to’lanadigan pulni ham ko’p hollarda korrupsiya orqali ajratishadi.[1] Bundan tashqari o’qituvchilarning malakasi past bo’lishi o’quvchi yoshlarning bilim darajasiga salbiy ta’sir qiladi. Poraxo’rlikka asoslangan tanlovlar, malakali va tajribaga ega bo’lgan oqituvchilar o’rniga bilim darajasi kam shaxslarni ta’lim sohasiga olib keladi. 2. Ta’limga ajratilgan mablag’larning noto’g’ri taqsimlanishi, bu juda ko’p kuzatiladigan vaziyat sifatida qaraladi. Bunga misol tariqasida Nigeriyadagi ta’limga ajratilgan davlat mablag’lari poraxo’rlik va raqobatsiz taqsimlanishi tufayli samarali ishlatilmaganini ko’ramiz. 2017-yilgi tahlillarga ko’ra, Nigeriya hukumati ta’lim sohasiga ajratgan mablag’larning 40% qismi korrupsiya tufayli noto’g’ri yo’naltirilgan. Ta’lim muassasalarining infratuzilmasini yaxshilash uchun ajratilgan mablag’lar ko’pincha boshqa maqsadlarga sarflanadi. [2] Bu holatlar oqibatida maktablar va universitetlar zaruriy o’quv resurslaridan mahrum bo’ladi. Bu resurslarning yetishmasligi o’quvchilarning sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini cheklaydi, o’qituvchilar esa zarur o’quv jihozlari va materiallariga ega bo’lmaydi. Bu esa ta’limning samaradorligini yanada pasayishiga olib keladi. 3. Oliy o’quv yurtlariga kirishdagi korrupsiya, barcha mamlakatlarning eng og’riqli nuqtasi hisoblanadi. Buning dalili sifatida Indoneziyadagi oliy o’quv yurtlariga kirish imtixonlarida kuzatiladigan poraxo’rliklarni ayta olamiz. 2020-yilgi so’rovnomada, Indoneziyada oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun pora berish holatlari 40% gacha yetganligi aniqlandi. Korrupsiya orqali oliy ta’limda o’qish joylarini olish, malakali, intiluvchan va ilmga chanqoq talabalar o’rniga pora berish orqali o’qishga kirgan ayrim

shaxslar sababli ta’lim sifati yomonlashadi. [3] Ushbu vaziyat o’quvchilarning teng imkoniyatlar asosida ta’lim olishiga xalaqit beradi. Korrupsiyaga asoslangan kirish tizimi faqat moliyaviy imkoniyatlari yaxshi bo’lganlarni afzal ko’radi va jamiyat orasida ta’lim sohasidagi tengsizliklarni kuchaytiradi. Ya’ni bir so’z bilan aytganda jamiyat va davlat bu kabi adolatsizliklar tufayli botqoqqa cho’ka boshlaydi. Ta’lim tizimida korrupsiya mavjudligi sabab, faqat puldor oilalarning farzandlari yaxshiroq ilm olishadi. Bu tengsizlik jamiyatda ijtimoiy jihatdan zaif guruhlarni og’ir ahvolga soladi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, korrupsiya ta'lim sohasida yirik inqirozli holatlarni keltirib chiqarmoqda. O'qituvchilarni ishga qabul qilish, ta'limga ajratilgan mablag'larni taqsimlash va oliy o'quv yurtlariga kirishdagi korrupsiya ta'limning sifatini pasaytirdi va ijtimoiy tengsizliklarning avj olishiga sababchi bo'ldi. Xulosa chiqarish esa o'zimizdan, ta'lim sohasida korrupsiyani kamaytirish uchun shaffoflikni taminlash va mustaqil monitoring tizimlarini o'rnatish albatta davlatning burchi, biroq barcha mas'uliyatni qonunchilik organlariga yuklab qo'yish ham katta adolatsizlik bo'lishi mumkin. Negaki jamiyatning o'zi ham korrupsiya deb atalguvchi qorong'u darvozaga qarshi kurashmog'i lozim. Agar biz o'zimiz poraxo'rlik zanjirini uzmasak, korrupsiyaga qarshi yo'q deya olmasak, davlat qancha harakat qilgani bilan u davom etib boraveradi va hech qachon tugamaydi. Keling, barchamiz qo'limizni qo'limizga berib, korrupsiyani ildizi bilan qo'porib tashlaylik va millatimiz kelajagini inqirozga yuz tutishidan saqlashga o'z hissamizni qo'shaylik. Zero, millat taqdiri o'z qo'limizdadir.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Transparency International 2019.
2. Word Bank Report, 2020.
3. UNESCO, 2005.

# MA’NAVIY BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA TARIX FANINING O‘RNI

Ataxanov Baxtiyor Turabayevich
NamDPI Gumanitar fanlar kafedrasi katta o’qituvchisi PhD
Hakimova Zilola
NamDPI O'zbek tili va adabiyoti yo’nalishi I-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada manaviy barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida tarix fanining ahamiyati yoritilgan. Tarix fani o‘quvchilarga milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish, hamda o‘tgan avlodlar tajribasidan saboq olish imkonini beradi. Yozuvda tarix fanining yosh avlodga tarbiya jarayonidagi tarbiyaviy, axloqiy va vatanparvarlikni rivojlantiruvchi omil sifatida tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim metodlari yordamida tarix fanini o‘qitishning ahamiyati va uning natijasida barkamol shaxsni shakllantirishga erishish masalalari muhokama qilingan. Maqola yoshlarni intellektual va ma’naviy jihatdan rivojlantirishda tarixning beqiyos roli haqida kengroq tasavvur beradi.

**Kalit so‘zlar:** Manaviy barkamol avlod, tarix fani, milliy o‘zlikni anglash, tarbiya jarayoni, ma’naviy qadriyatlar, vatanparvarlik, ta’lim metodlari, shaxs kamoloti, yoshlar tarbiyasi.

**Abstract.** This article highlights the importance of the science of history in the process of raising a spiritually mature generation. History allows students to understand national identity, form spiritual values, and learn from the experience of past generations. The article analyzes the role of the science of history as an educational, moral and patriotism-developing factor in the process of educating the young generation. Also, the importance of teaching history with the help of modern educational methods and the issues of achieving the formation of a well-

rounded person as a result were discussed. The article gives a broader idea of the incomparable role of history in the intellectual and spiritual development of young people.

**Keywords**: Spiritually mature generation, history, national identity awareness, educational process, spiritual values, patriotism, educational methods, personality development, youth education.

Bugungi kunda yosh avlodni ma'naviy barkamol, intellektual va axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb masalaga aylangan. Globalizatsiya jarayonlari, madaniy va axloqiy qadriyatlarning tezkor o'zgarishi, yoshlar orasida ma'naviy inqiroz va identifikatsiya muammolari mavjudligi tarix fani orqali bartaraf etilishi mumkin. Tarix fani nafaqat o'tmishdagi voqealar haqida bilim beradi, balki yoshlar ongida milliy o'zlikni anglash, Vatanga sadoqat va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, yoshlar orasida tarixni o'rganish va uning ahamiyatini tushunish masalasi bugungi ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Tarix fanining tarbiyaviy ahamiyati, uning yoshlarni intellektual, ma'naviy va axloqiy jihatdan rivojlantirishdagi roli zamonaviy ta'limda qo'llanilayotgan metodlar va pedagogik yondashuvlar bilan yanada oshishi lozim. Shu bois, tarix fani va uning tarbiyaviy imkoniyatlarini kengroq tushunish va undan samarali foydalanish bugungi ta'lim tizimi va yosh avlodni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

Tarix fani bu jarayonda alohida o'rin tutadi, chunki u o'tmishdan saboq olib, kelajakni to'g'ri shakllantirishga imkon beradi. Tarix orqali yoshlar milliy o'zlikni anglaydi, ajdodlarning merosini qadrlaydi va Vatan ravnaqi uchun mas'uliyat hissini shakllantiradi.

Mazkur maqolada tarix fanining ma'naviy barkamol avlod tarbiyasidagi ahamiyati, shuningdek, ta'lim jarayonida tarixni o'qitishning tarbiyaviy imkoniyatlari yoritilgan.

Maqolaning mazmun-mohiyati tarix fanining yosh avlodni ma’naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashdagi beqiyos rolini tushuntirishga qaratilgan. Tarix fani, o‘tmishdagi voqealarni o‘rganish orqali yoshlarni milliy o‘zlikni anglashga, ma’naviy qadriyatlarni qadrlashga va jamiyatga foydali fuqarolar bo‘lib voyaga yetishga yo‘naltiradi. Tarixni o‘rganish, ajdodlar merosini asrab-avaylash va uning ustuvorligini his qilish yoshlarni Vatanparvarlik, mardlik va adolatparvarlik kabi axloqiy fazilatlar bilan ta’minlaydi.

Maqolada tarix fanining o‘quvchilarda axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishdagi ahamiyati, tarixiy tajribadan saboq olish, o‘tmishdagi xatolardan o‘rganish va ularni kelajakda to‘g‘ri yo‘llar bilan bartaraf etish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada tarixni zamonaviy pedagogik usullar yordamida o‘qitishning samaradorligini oshirish, tarixiy voqealarni yangi metodlar orqali o‘rganishning ahamiyati, yoshlarning tarixni tushunish va anglash darajasini oshirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Tarix darslarida mavzuning mohiyatini ochib berish barobarida o’quvchilarni milliy mafkura g’oyasi asosida tarbiyalashning samarali yo’llari ishlab chiqilishi kerak bo’ladi. Shundagina maktab ta’limi yordamida o’quvchini g’oyaviy jihatdan chiniqtirishimiz mumkin. Umumiy qilib aytadigan bo’lsak, insonparvarlik – ijtimoiy harakat doirasida kishilarda, turli millat vakillariga mehr muruvvat hissini tarkib toptirish, adolatsizlik, tengsizlik, tekinxo’rlik, vijdonsizlik, odobsizlik, yot ta’limotlar ta’siriga tushish kabi hatti harakatlarga murosasizlikni shakllantiradi. Insonparvarlik g’oyasining barcha qirralari, milliy an’analarimiz bilan birga turli qoida, tushuncha va fikrlar tizimi sifatida o’z ifodasini topgan. Umumta’lim maktabi tarix darslarida o’qitish, ta’lim berish ishlari ana shu g’oyaviylik asosida bo’ladi. Insonparvarlik tarbiyasi shaxsning sub’ektiv istagi bo’lmay, balki maktab amaliy ishining talabiga aylanadi. Insonparvarlik g’oyasini o’quvchilarda shakllantirish, tarbiyalash tarix fanlarini o’qitish jarayonida amaliy tus olishi muhim sanaladi.. Insonparvarlik tarbiyasini tarix o’qitish jarayonida shakllantirishning o’zi ham bir qancha ruhiy jarayonlar orqali kechishi mumkin.

Bu o’rinda ong markaziy masala bo’lib qoladi va insonparvarlik g’oyasini anglash, tasavvurlar orqali idrok etish bir qancha mexanizmlar bilan bog’liq. Tarix fani o’qituvchisi o’quchi yoshini hisobga olgan xolda darsni rejalashtiradi.

Yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, darslarni shu tarzda tashkil etish pedagogdan kattagina mahorat talab etadi. Zamonaviy dars usullarining barchasi ham biror muammo yoki faoliyatni o’zaro munozara, muloqot orqali tinglovchiga yetkazadi. Tashkil etiladigan tarix darsi muzey ashyosi bilan jihozlansa, bu nafaqat mavzuga qiziqishni orttiradi, balki bilim oluvchi keyingi mavzuga doir manba, yoki ashyo izlashga o’qituvchiga yordam berishi ham mumkin. Bilamizki, o’quvchi eshitish jarayonida 20-30% o’zlashtirsa, ko’rish va eshitish orqali 50-60% o’zlashtirishi mumkin. Demak, ashyoni bevosita ko’rgazmali tarzda namoyon etish imkoni bo’lmagan taqdirda, o’qituvchi ashyo haqida ma’lumot berish bilan birga uning rasmi, yoki mazkur ashyo saqlanadigan joy xususida to’xtalib o’tishi, yoki bo’lmasa, milliy muzeylarimizda shunga o’xshash qanday osori-atiqalar borligi xususida hikoya kiritishi lozimdir.

Biz insoniyatning o’tmish tarixini o’rganganimizda uni sobiq sovetlar davrida hukmron bo’lgan g’oya, ya’ni tarixni sinfiy kurashlar nuqtai nazaridan talqin etishlardan yoki noo’rin bo’rttirib ko’rsatishlardan saqlanishimiz zarur. Chunki, “Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati orqali bilamiz, tarixning tag-tomirigacha nazar tashlaymiz” . Binobarin, haqqoniy tarix dillarga hayot qonini quyuvchi, tillarga so’z baxsh etuvchi, saltanatlarni qayta yaratuvchi, o’tib ketgan asrlar silsilasini butun hayajonlari, egalari bilan ko’z o’ngimizda namoyon etib, hayotimiz sarhadlarini kengaytiruvchi mo’jizadir. Uning ma’naviy qudrati ila biz barcha kechmish zamonlarning odamlariga hamdamu hamnafas bo’lamiz, ular bilan goh suyib, goh kuyib, dilimizni rag’batlantiruvchi, hislarimizga ozuqa beruvchi turli voqealar, ajabtovur fe’l atvorlar dunyosiga oshno bo’lamiz. Yoshlarda mavkuraviy dunyoqarashini mustahkamlashda muzeylar amaliy vosita bo’lib xizmat qiladi. Bugunni ertangi kun bilan chambarchas bog’lab turuvchi ko’prik sanalgan muzeylarimiz faoliyatida ham ayrim muammolar yo’q emas.

Bugungi kunda yosh avlod tarbiyasi mamlakat taraqqiyotining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Yoshlarni intellektual, axloqiy va ma'naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish har qanday jamiyatning uzviy maqsadidir. Bu borada tarix fani beqiyos ahamiyat kasb etadi. Tarix o'z mohiyatiga ko'ra, o'tmishdagi voqea-hodisalarni o'rganib, ulardan saboq olish va kelajakni barpo etish imkoniyatini beradi. Shunday ekan, tarixni o'rganish orqali yoshlar ma'naviy barkamollikka erishadi, milliy o'zlikni anglaydi va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalanadi.

Tarix fani nafaqat o'tmishni bilish, balki undagi muhim tajribalarni yoshlar ongiga singdirish vositasi hamdir. Tarix darslarida o'quvchilar o'z ajdodlarining mardliklari, mehnatsevarliklari, vatanparvarliklari va ma'naviy jasoratlari bilan tanishadilar. Bunday bilimlar yoshlarda ajdodlarga hurmat tuyg'usini uyg'otadi, ular o'z milliy qadriyatlarini asrash va rivojlantirish mas'uliyatini his qiladilar.

Milliy tarixni chuqur o'rganish yoshlar ongida mustahkam asos yaratadi. Masalan, Amir Temur, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino kabi buyuk shaxslarning hayoti va faoliyatini o'rganish yoshlarda ma'naviy idealga ega bo'lish hissini shakllantiradi. Bu esa ularning o'z imkoniyatlariga ishongan, faol va mas'uliyatli shaxs bo'lib yetishishlariga yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida tarix fanini o'qitishda innovatsion usullarni qo'llash muhimdir. Interfaol metodlar, multimedia vositalaridan foydalanish, tarixiy voqealarni sahnalashtirish kabi usullar darslarni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Ayniqsa, tarixiy ekskursiyalar, muzeylarga tashrif va arxeologik tadqiqotlarga ishtirok etish orqali yoshlar tarixni yanada chuqurroq anglaydilar.

Bundan tashqari, milliy tarixni umumbashariy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish yoshlarga tarixni global miqyosda anglash imkonini beradi. Bu ularni tolerantlik, xalqaro hamkorlik va insoniy birdamlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Tarix fani yosh avlodni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. U yoshlarga nafaqat bilim beradi, balki ularning ma'naviy dunyosini boyitadi, ularda milliy va

insoniy qadriyatlarni shakllantiradi. Tarixdan saboq olgan yoshlar o‘z kelajagini ongli ravishda quradilar, jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligi yo‘lida o‘z hissalarini qo‘shadilar.

Shunday ekan, tarix fanini o‘qitishni yanada takomillashtirish, uning tarbiyaviy imkoniyatlarini to‘laqonli amalga oshirish orqali biz ma’naviy barkamol, vatanparvar va intellektual avlodni tarbiyalaymiz. Bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishi va kelajak farovonligining mustahkam kafolatidir.

Xulosa qilib aytganda, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashda tarix fani muhim tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Tarix yoshlarni o‘zlikni anglashga, milliy qadriyatlarni chuqur his qilishga va ularni asrab-avaylashga o‘rgatadi. Shuningdek, o‘tmish voqealarini tahlil qilish orqali yoshlarda tanqidiy fikrlash, vatanparvarlik va ajdodlar merosiga hurmat hissi shakllanadi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida tarix fanining ahamiyatini oshirish uchun innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish, interfaol metodlarni keng joriy etish, va milliy hamda umumbashariy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish zarur. Shunday qilinsa, yoshlar nafaqat bilimli, balki ma’naviy barkamol, o‘z Vatanining fidoyi fuqarosi sifatida shakllanadi. Bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishi va kelajak avlodlar uchun mustahkam poydevor yaratishga xizmat qiladi.

**Foydalangan adabiyotlar:**


1. Navoiy A. Xamsa. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1983.
2. Qayumov A. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent: Sharq, 2001.
3. Umarov O. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
4. Mamatqulov B. Barkamol avlod tarbiyasida tarix fanining o‘rni. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018.
5. Xolmurodov N. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Istiqlol, 2016.

# TALABALARDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA HAMJIHATLIK TO‘G‘RISIDAGI BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI (O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI FANI MISOLIDA)

**Yusupova Sevara Nizamitdinovna**

*Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

**Bahronov Behruz Bo‘ri o‘g‘li**

*Andijon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talabalarni diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash va bilimlarni rivojlantirishning ahamiyati haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, yurtimizda mazkur sohada amalga oshirilayotga islohatlar ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** *demokratik islohotlar, Harakatlar strategiyasi, siyosiy barqarorlik, millatlararo totuvlik, milliy–etnik munosabatlar, qadriyatlarini saqlash, ko‘p millatli xalq.*

**Abstract:** This article provides information about the importance of educating students and developing knowledge in the spirit of religious tolerance and inter-ethnic harmony. Also, reforms to be implemented in this field in our country were considered.

**Key words:** *democratic reforms, Action Strategy, political stability, inter-ethnic harmony, national-ethnic relations, preservation of values, multi-ethnic people.*

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о важности воспитания студентов и развития знаний в духе религиозной толерантности и межэтнического согласия. Также были рассмотрены реформы, которые предстоит реализовать в этой сфере в нашей стране.

**Ключевые слова:** *демократические реформы, Стратегия действий, политическая стабильность, межэтническое согласие, национально-этнические отношения, сохранение ценностей, многонациональный народ.*

**Kirish.**

Mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq O‘zbekistonda mamlakatni modernizatsiya qilish va faol demokratik islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Ushbu ulkan o‘zgarishlar davomida xalqimizning boy tarixi, noyob milliy qadriyatlari, bebaho ilmiy va madaniy merosi tiklandi va butun insoniyatning noyob mulkiga aylandi. Vatanimiz tarixini birlamchi manbalarga asoslangan holda har tomonlama va chuqur o‘rganish yosh avlodni barkamol shaxslar etib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ma’naviyatni yuksaltirish, rivojlantirish borasida yangi imkoniyatlar yaratildi. Bag‘rikenglik o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan chinakam islomiy fazilatdir. U samimiyat, ochiq muloqot hamda vijdon va e’tiqod tufayli vujudga keladi. Shuningdek, u faqat ma’naviy burchgina emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, yon–atrofimizda xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini rivojlantirish, yurtimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, bu bilan millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi[1].

Xalqimizga xos bag‘rikenglik ham o‘zining qadimiy ildizlariga ega. Mamlakatimizda bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini yuksaltirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, fuqarolar totuvligini ta’minlash, xorijiy mamlakatlar bilan do‘stona, teng huquqli munosabatlarni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Shu bois siyosiy barqarorlik va millatlararo totuvlikni ta’minlashda, fuqarolarimizda yagona Vatan tuyg‘usini shakllantirishda, yurt istiqboliga daxldorlik hissini kamol toptirishda xalqimizning bag‘rikenglik xislati asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Ming afsuski, hozirgi vaqtga kelib, ba’zi davlatlarda milliy–etnik munosabatlarda ziddiyatlarning yuzaga kelishi turli ko‘rinishdagi nizo va kelishmovchiliklarga olib kelayotganini barchamiz eshitib, ko‘rib turibmiz. Bunday tahdidlarni bartaraf etish

oldimizdagi muhim vazifalardan biridir. Yurt osoyishta bo'lishi, turli millatlar ahil yashashi uchun eng avvalo, millatlararo munosabatlarda bag'rikenglik, bir millatni boshqasidan ustun qo'ymaslik tamoyillariga amal qilinishi lozim. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek, teng huquqlilik hamda o'zaro hamjihatlik sharoitida yashab kelishmoqda. Ularning huquq va erkinligi, manfaatlarini ta'minlash, ta'lim olishi, kasb–hunar egallashi, an'ana hamda qadriyatlarini saqlash, rivojlantirishlari uchun barcha zarur sharoitlar yaratib berilgan. Bunday e'tibor natijasida ko'p millatli xalqimizning boy tarixiy–madaniy merosi qayta tiklandi va qadr topdi.

Hozirgi vaqtda diyorimizda Respublika baynalmilal madaniyat markazi faoliyat olib bormoqda. Ushbu markazning bugungi kundagi asosiy vazifasi millatlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish, mamlakatimizdagi turli millat vakillarining milliy–ma'naviy urf–odat va an'analarini saqlab qo'lishga ko'maklashish, bag'rikenglik tamoyillarini qaror toptirishga qaratilgan tashabbuslarini qo'llab–quvvatlashdan iborat ekanligini alohida e'tirof etish lozim. Yurtimizning qator shahar va tumanlarida turli xalqlarning milliy–madaniy markazlari tashkil etilgan. Bu markazlar har xil millat farzandlarining o'ziga xos do'stlik koshonasiga aylangan. Respublikamiz ta'lim muassasalarida esa o'quv dasturlari o'zbek, qoraqalpoq, rus, tojik, qozoq, turkman, qirg'iz va boshqa qardosh xalqlarning tillarida olib borilmoqda. Radio va televidenielar o'z eshittirish va ko'rsatuvlarini bir necha tillarda uzatadi. Shuningdek, 10 dan ortiq tillarda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda. Tabiiyki, bu yerda har xil millat vakillari o'zlariga ko'rsatilayotgan beqiyos g'amxo'rliklarga javoban davlat boshqaruvi ishlarida, ijtimoiy–iqtisodiy hamda madaniy hayotda faol va erkin qatnashmoqdalar. Dunyoda milliy–etnik munosabatlar tobora murakkablashib, hatto eng ilg'or davlatlarda ham oz sonli millat vakillarini kamsitish, xo'rlash va siqib chiqarish holatlari kuzatilayotgan bir davrda diniy bag'rikenglik, totuvlik, o'zaro hamkorlik masalasi mamlakatlarning tinchligi va taraqqiyoti uchun eng muhim tamoyillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Turli dinlarga e’tiqod qiluvchilarning bir jamiyatda diniy bag‘rikenglik, dinlararo o‘zaro hamkorlik tamoyillari asosida, tinch–totuv va teng huquqli tarzda hayot kechirishlari avvalo shu jamiyat gultoji bo‘lgan insonlarga bevosita bog‘liqdir. Shunday ekan, har birimiz jamiyatdagi o‘zaro hurmat, mehr–oqibat va bag‘rikenglik kabi oliyjanob fazilatlarni qaror toptirishda, ajdodlardan meros milliy va umumbashariy qadriyatlarimizni davom ettirish va asrash har birimizning burchimizdir. Xususan, “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning beshinchi yo‘nalishi aynan diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlash masalasiga bag‘ishlangani mamlakat Prezidenti va hukumatining xalqaro hujjatlarda belgilangan umuminsoniy vazifalarga qaratayotgani yuksak e’tiborining namunasi hamdir. Qolaversa, Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 19 sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72–sessiyasida “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyusiya qabul qilish tashabbusi bilan chiqqani jahon hamjamiyatining diqqatini tortgan edi[2]. Mazkur hujjat barchaning ta’lim olish huquqini ta’minlash, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko‘maklashish, eng muhimi, bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minlashga qaratilgani bilan e’tiborga molikdir. O‘zbekistonda turli millat va elatlar, diniy konfessiyalar vakillari o‘rtasidagi ahil–inoqlik, hamjihatlikni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar, tinchlik–osoyishtalik, barqarorlikni saqlash yo‘lida olib borilayotgan oqilona islohotlar, amaliy chora–tadbirlar belgilangan.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi ta’lim va fan sohasida olib borilayotgan tub islohotlarning maqsadi talabalarni diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashni ijtimoiy pedagogik muammo sifatida pedagogik ta’lim sohasining asosiy markazida o‘rganishga e’tibor qaratmoqda[3]. Bugungi kunda mamlakatimiz ta’lim-tizimida tadqiq qilinayotgan ta’lim standartlariga asosan oliy ta’limning bakalavriat ta’lim sohasida talabalar bilimi, tafakkuri, ilmiy dunyoqarashi, diniy-ma’rifiy qarashlari,

millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalanishida o‘quv-tarbiya fanlari bo‘yicha beriladigan bilimlarni chuqur va mustahkam egallab olishlarida talaba dunyoqarashining shakllanganlik darajasida bilimga ega bo‘lishi, davlat siyosatining dolzarb masalalarini, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi e’tiborga olingan. Chunki, tabiat va jamiyatda kechayotgan barcha jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishlik, umumkasbiy bilimlarni egallash hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarga asosan jamiyat hayotida hamda talaba kasbiy faoliyatida foydalana bilishi, ilmiy tasavvur va diniy-e’tiqodga ega bo‘lishi alohida o‘rin egallaydi. Demak, talabalarni diniy-bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda ma’naviy-ahloqiy axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullarini egallay olishlari, o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil qarorlar qabul qila olishi, yangi bilimlarni mustaqil holda egallaishi, mustaqil fikr yuritishi, o‘z faoliyatini tashkil eta olishi, Vatan tarixini bilishi, ma’naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi, millatlararo munosabatlarda diniy bag‘rikenglik munosabatlari muhim o‘rin egallaydi[4]. Talabalarni diniy bag‘rikenlik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda pedagoglar oldida turgan asosiy vazifalardan biri, ta’limiy-tarbiyaviy pedagogik jarayonlarni o‘rganishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, shaxsning insoniyat madaniyatini tashkil etadigan moddiy va ma’naviy qadriyatlarni anglab yetishi, e’tirof qilishi hamda faollashtirish va yaratuvchanlikka bo‘lgan harakatga yo‘naltirish bilan belgilanadi. Pedagogik ta’lim va tarbiyada talabalarni diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash masalasi inson hayotidagi milliy va diniy qadriyatlarni, ta’lim-tarbiyani, pedagogik faoliyat va yaxlit ta’limni tushunish hamda qaror toptirish asosida amalga oshiriladi. Ta’lim tizimida milliy va diniy qadriyatlarning inson hayoti uchun xizmat qilishiga intilish pedagogikaning rivojlanishi va shakllanishining barcha bosqichlarida inson va jamiyat munosabatlari asosida paydo bo‘lgan. Ana shu holat ta’limda talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda umumadaniy qadriyatlarga

hurmatni tarbiyalashida amaliy va nazariy bilish o'rtasidagi aloqa mexanizmida asosiy rolini milliy va umuminsoniy qadriyat yoki nazariya bilan amaliyot o'rtasida o'ziga xos «ko'prik» sanalgan diniy va umuminsoniy qadriyatli yondashuv asosida bajaradi. Shu jihatdan adolat, ezgulik, vijdonlilik, insof, hayot, sog'liq, muhabbat, ta'lim, mehnat, oila, tinchlik, go'zallik, axloqiy va jismoniy yetuklik, ijodkorlik kabi qadriyatlar insonlarni barcha zamonlarda o'ziga jalb etib kelgan.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining faol tashqi siyosati bugungi kunda xalqaro hamjamiyatda yangi bosqichiga ko'ratilib bormoqda. O'zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash borasida olib borayorgan siyosati, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar ishlab chiqildi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan intellektual salohiyatga ega, jismonan sog'lom, axloqan pok, ma'naviy yetuk mutaxassislarni tayyorlashni kun tartibiga qo'ymoqda. Pedagog va faylasuf olimlar O.Musurmonova, N.Erkaboeva, E.V.Ilenkov, J.Tulenov, Q.Nazarovlarning tadqiqotlarida ham yosh-avlod tarbiyasida diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash maslalariga to'xtalganida ma'naviyat, ma'rifat, ahloq, tarbiya tushunchalari bir-biridan farqli jihatlariga to'xtalgan. O.Musurmonova o'z tadqiqotlarida milliy va umummilliy tarbiyaning eng muhim jihatlarini yoritar ekan, uning tarixiy taraqqiyot bosqichlarida qiyosiy o'rganilmagani, kishilarning milliy va diniy qadriyatlar haqidagi tushunchalari chegaralanganligi, ta'lim-tarbiya mazmunida qadriyatlarga e'tiborning yetarli emasligi, bu borada tajribalarning kamligiga e'tiborni qaratishni tavsiya etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. 07.02.2017 yildagi PF-4947-son

2. Mirziyoyev Sh.M.Ma’naviyat-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu jarayonda davlat va jamoat tashkilotlarining o‘zaro hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida 19-yanvar kuni ma’ruzasi 2021 yil
3. M. Rasulova, Talabalarni diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy pedagogik zaruriyati. Pedagogy of cooperation in improving the quality of education: international experience and modern approaches International scientific-practical conference, November 13, 2023
4. Erkaboeva N. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda pedagogik fikrlarning rivojlanishi (1992- 2005 y.y.): Dis. ... ped. fan. dok. – T.: O‘zPFITI, 2007... - 323 b

## ABU NASR FAROBIYNING TA’LIM VA TARBIYAGA OID QARASHLARI

Umarov Murodjon Mamatkarim o’g’li
NamDPI Gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Mahmudov Yashnarbek Ulug‘bek o‘g‘li
NamDPI Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya** Ushbu maqolada tarbiya masalasiga to‘xtalib, Abu Nasr Farobiyning tarbiya hamda komillik haqidagi fikrlari bayon etilgan bo‘lib, ajdodlarimizning boy merosi va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

**Tayanch so‘zlar:** Farobiy, Aflotun, Arastu, tarixiy xotira, ma’naviy barkamol, Islom falsafasi, mantiq, falsafa, dialektika, sofistika, grammatika.

**Аннотация.** Данная статья посвящена вопросу образования и описывает мысли Абу Насра Фараби об образовании и совершенствовании, а также

размышляет о богатом наследии наших предков и его значении в жизни общества.

**Ключевые слова:** Фараби, Платон, Аристотель, историческая память, духовная зрелость, исламская философия, логика, философия, диалектика, софистика, грамматика.

**Abstract.** This article focuses on the issue of education and describes the thoughts of Abu Nasr Farabi about education and perfection, and reflects on the rich heritage of our ancestors and its importance in the life of society.

**Key words:** Farabi, Plato, Aristotle, historical memory, spiritual maturity, Islamic philosophy, logic, philosophy, dialectics, sophistry, grammar.

**Kirish.** Bugun O‘zbekiston Respublikasining butun hududida ma’naviy barkamol shaxsni tarbiyalash asosiy maqsad sifatida qaralmoqda. Xususan “tarixiy xotirasiz-kelajak yo‘q” deyilganidek, tarix zarvaraqlarida o‘chmas iz qoldirgan ajdodlarimizning boy merosini o‘rganish orqali chinakam ma’rifatli yoshlarni tarbiyalash chin haqiqatdin. Bunday ajdodlarimiz ichida Abu Nasr Farobiyning o‘rni beqiyosdir. Farobiy asarlarini hamda uning shaxsini o‘rganganimizda tarbiya masalasiga katta e’tibor qaratilganiga guvoh bo‘lamiz. Farobiyning “Taliqot” (sharhlar), “Donolik asoslari”, “Ilmlarning kelib chiqishi haqida”, “Baxt saodatga erishuv haqida”, “Buyuk kishilarning naqllari”, “Hikmat ma’nolari”, “Aql to‘g‘risida”, “Ilmlar va san’atlar fazilati”, “Qonunlar haqida kitob”, “Fazilatli xulqlar”, “Fozil shahar aholisining fikrlari”, kabi asarlarida tarbiya va axloq haqidagi qarashlar o‘z aksini topgan.

Shuningdek, olimning ilm-fan oldidagi xizmatlaridan biri uning yunon tilini bilganligi hamda yunon mutafakkirlari asarlarini sharhlaganligi va ularni yangi g‘oyalar bilan boyitganligidir. Abu Nasr Farobiy Platon, Arestotel, Zepon, Aleksandr Afrodiziy, Yevklid, Ptalomey, Porfiriy asarlariga sharh yozgan[35].

Ushbu alloma mashhur faylasuf, faqih, shuorih va mutafakkir Abu Nasr Muhammad al-Farobiy (872-950) “Birinchi muallim” nomi bilan tanilgan Arastu

[35] Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. - Toshkent.: Yangi asr avlodi. 2022. - B. 5

asarlariga mukammal sharhlari sabab Sharqdagi “Ikkinchi muallim” nomiga sazovor bo‘lgan.

Farobiy Sirdaryo bo‘yidagi Farob (O‘tror, Chimkent, hozirgi Qozog‘iston hududida) tug‘ilgan. 20 yoshidan boshlab Samarqandda, Buxoroda ilm olgan, so‘ngra o‘sha paytning eng katta ilm markazi - Bag‘dodga kelib, qisqa muddat ichida arab tilini mukammal o‘rganadi.

O‘sha davrda yunon faylasuflarining asarlari tarjimoni va sharhlovchisi sifatida katta shuhrat qozongan Abu Bashar Matta ibn Yunusga shogird tushadi va tezda ustozining bilimlarini o‘zlashtiradi. Shundan so‘ng Farobiy tibbiyot va mantiq ilmini o‘rganish uchun Xarron shahriga borib, nasroniy olim Yuhanno ibn Xaylonga shogird tushadi va bu ilmlarni ham egallashga muvaffaq bo‘ladi.

Ratsional qarashlarga ega bo‘lgan Farobiy oxirat saodati haqida yozmagan, shu dunyoning o‘zida baxt-saodat yo‘lini izlashga va erishishga uringan. Shu sababdan Abbosiy xalifalarning jiddiy qarshiligiga uchragan Farobiy Bag‘dodni tark etib, avval Damashqqa, so‘ngra Qohiraga ketadi. Umrining oxirida Damashqqa qaytib, Damashq hokimi - Hamdoniylar sulolasining mashhur hokimi va shoirlarning homiysi bo‘lgan Sayf ad-Davla bin Hamdoniy (Sayf ad-Davla Abu al-Hasan Ali ibn Abdallah al-Hamdoni)ning mehrini qozongan, uning homiyligi ostiga o‘tgan bo‘lsa ham, saroyga ko‘p bormagan, uyi oldidagi bog‘da o‘tirib, kitoblar yozib, shogirdlari bilan vaqt o‘tkazgan[36]. Farobiy umri davomida yangi tillarni o‘rganishdan to‘xtamagan. 70 dan oshiq tilni bilgani haqida ko‘p tarixchilar yozib qoldirgan.

Farobiy mantiq, musiqa, falsafa, alkimyo, fizika, psixologiyaga oid 160 dan oshiq asarlar yozgan.

Inson oliy saodatga erishish uchun yaratilgan. Shu boisdan u baxt nima ekanligini bilishi va uni hayotining maqsadiga aylantirishi lozim. Demak, u baxtga erisha oladigan omillar va yo‘llarini bilishi kerak. Inson baxt-saodatga erishishga imkon beradigan barcha soxalarda mahoratli bo‘lmog‘i kerak. Ammo insonlarning tabiatan bir-biridan farq qilishi ayon ekanligi bois baxtni yoki unga o‘zi erisha

[36] Irisov Abdusodiq. Farobiy adib. - Toshkent.: O‘zSSR FA. Fan.1975. - B. 3

oladigan omillarni bilish har bir insonning tabiatiga xos emas. Shuning uchun unga o'qituvchi, rahbar kerak. Ba'zi odamlar kamroq yo'l-yo'riq va ta'limga muhtoj, ba'zilari esa ko'proq narsani talab qiladi. Demak, ba'zi odamlar o'zlari ma'qul deb bilgan amalni bajarishga undash uchun doimiy ta'lim va yo'l-yo'riqni talab qilishadi.

Abu Nasr Farobiy ilmlarni quyidagicha tasniflaydi: 1) til haqidagi ilm. U yetti bo'limdan iborat (grammatika, orfografiya, she'riyat, to'g'ri yozuv va boshqalarni o'z ichiga oladi); 2) Mantiq. Sakkiz bo'limdan iborat bo'lib (tushuncha, muhokama, xulosa, sillogistika, dialektika, sofistika va boshqalarni o'z ichiga oladi); 3) Matematika, yetti mustaqil ilm (arifmetika, geometriya, astronomiya, mexanika, optika, sayyoralar, musiqa va og'irlik haqidagi ilmdan iborat); 4) Tabiiy ilmlar, ilohiy ilmlar yoki metafizika; 5) Shahar haqidagi ilm (siyosiy ilm, fiqh, axloqshunoslik va kalom kiradi)[37]

"Ta'lim xalqlarda va shaharlarda spekulyativ yuksakliklar yaratish demakdir, tarbiya (tadib) esa xalqlarda axloqiy fazilatlar va ilmiy san'atlarni yaratish va rivojlantirish usulidir. O'rgatish faqat ifodalash orqali mumkin; tadib yoki intizom xalqlar va fuqarolarni ilmiy odatlar orqali qilinadigan ishlarga odatlantirishdir. Ya'ni, ularning qarorlari ularni o'sha amallarni bajarishga undaydi, shuning uchun bu qarorlar ularning qalblarida hukmronlik qiladi va ular o'sha harakatlarga sodiq bo'ladilar.

Spekulyativ fanlarni ishonarli usullar bilan o'rgatish kerak. Erkaklar ko'pincha bu fanlarni fikrlash jarayoni orqali tushunishadi, chunki ular bularni jismoniy bo'lmagan ko'plab ma'lum tamoyillarni amalga oshirgandan keyin anglashadi. Oddiy odamlar ularning tasvirlarini faqat ishontirish usuli bilan tushunishlari mumkin.

Fazilatli ustoz va ustalarni ikki usul bo'yicha quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin - bir guruh itoatkorlarni o'qitadigan va tarbiyalaydigan, ikkinchi guruh itoatsizlarni o'rgatadigan ustozlardir. Har ikki jihatda podshoh o'zi ezguliklarga

[37] Sh.Mirziyoyev. Islom taraqqiyot banki 46-yillik yig'ilishida so'zlagan nutqidan. https://yuz.uz/uz/news/islom-t
a
r
a
q
q

yetishish uchun o‘rgatgan xalqlarning ustozi, xonadon egasi esa xonadon ahlining ustozidir. Bolalar yoki yoshlar uchun mas’ul bo‘lgan kishi bilan ham xuddi shunday”-deyiladi “Islom falsafasi tarixi” asarida.

Farobiyning fikricha o‘zida quyidagi o‘n ikki xislatni birlashtirgan kishigina axloqli, tarbiyali hamda fozil, komil odam bo‘la oladi:

Fozillar shahri hokimi avvalo to‘rt muchasi sog‘ bo‘lib, o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarishida biror a’zosidagi nuqson halal bermasligi lozim, aksincha, u sog‘-salomatligi tufayli bu vazifalarni oson bajarishi lozim.

(Ikkinchidan), bunday shahar hokimi tabiatan nozik farostli bo‘lib, suhbatdoshining so‘zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg‘ab olishi, shu sohada umumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi zarur.

(Uchinchidan), u anglagan, ko‘rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarni xotirasida to‘la-to‘kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarini unutmasligi zarur.

(To‘rtinchidan), u zehni o‘tkir, zukko bo‘lib, har qanday narsaning bilinar-bilinmas alomatlarini va u alomatlari nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi zarur.

(Beshinchidan), u fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida, chiroyli so‘zlar bilan ifodalay olishi zarur.

(Oltinchidan), u (ustozlardan) ta’lim olishga, bilim ma’rifatga havasli bo‘lishi, o‘qish, o‘rganish jarayonida sira charchamaydigan, buning mashaqqatidan qochmaydigan bo‘lishi zarur.

(Yettinchidan), taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat bo‘lmasligi, aksincha, o‘zini tiya oladigan bo‘lishi, (qimor yoki boshqa) o‘yinlardan zavq, huzur olishdan uzoq bo‘lishi zarur.

(Sakkizinchidan), u haq va haqiqatni, odil va haqgo‘y odamlarni sevadigan, yolg‘onni va yolg‘onchilarni yomon ko‘radigan bo‘lishi zarur.

(To‘qqizinchidan), u o‘z qadrini biluvchi va nomus-oriyatli odam bo‘lishi, pastkashliklardan yuqori turuvchi, tug‘ma oliyhimmat bo‘lishi, ulug‘, oliy ishlarga intilishi zarur.

(O‘ninchidan), bu dunyo mollariga, dinor va dirhamlarga qiziqmaydigan (mol-dunyo ketidan quvmaydigan) bo‘lishi zarur.

(O‘n birinchidan) tabiatan adolatparvar bo‘lib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko‘ruvchi, o‘z odamlariga ham, begonalarga ham haqiqat qiluvchi, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o‘zi suygan go‘zalliklarni ravo ko‘ruvchi bo‘lishi zarur. O‘zi haq ish oldida o‘jarlik qilmay, odil ish tutgani holda har qanday haqsizlik va razolatlarga murosasiz bo‘lishi zarur.

(O‘n ikkinchidan), o‘zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat’iyatli, sabotli, jur’atli, jasur bo‘lishi, qo‘rqoqlik va hadiksirashlarga yo‘l qo‘ymasligi zarur[38].

Haqiqiy baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar - fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi - fazilatli jamoadir.

Baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam bergan xalq fazilatli xalqdir. Shu tartibda barcha xalqlar baxtga erishish uchun bir-birlariga yordam bersalar, butun yer yuzi fazilatli bo‘ladi.

**Xulosa:** Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Farobiy o‘z davridagi yoshlarning ta’lim olishlari, bilim egallashlari, hunar egallashlari, faoliyat ko‘rsatishlari, mehnat qilishlari zarurligi xususida fikrlar bildirgan. Bu fikrlar hozirda ham ta’lim-tarbiyaga g‘oyat muhim ta’sir ko‘rsatmoqda.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Irisov Abdusodiq. Farobiy adib. - Toshkent.: O‘zSSR FA. Fan.1975. - B. 3
2. Abu Nasr Farobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida.- Toshkent, Yozuvchi, 2001.
3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. - T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 2004.

[38] Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. - T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 2004.

4. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. - Toshkent.: Yangi asr avlodi. 2022. - B. 5

5. Sh.Mirziyoyev. Islom taraqqiyot banki 46-yillik yig‘ilishida so‘zlagan nutqidan. https://yuz.uz/uz/news/islom-taraqqiyot-banki-boshqaruvchilar-kengashining-46-yillik-anjumani-yakunlari-sarhisob-qilindi

## GLOBALLASHUV JARAYONLARI VA MA’NAVIY TAHDIDLAR

Tillayev Bobomurod Abduvaxobovich
NamDPI Gumanitar fanlar kafedrasi katta o’qituvchisi

Yusupova Yulduzxon Ikromjon qizi
Namangan Davlat Pedagogika instituti Maktabgacha ta`lim yo`nalishi I bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Globallashuv jarayonining chuqurlashib borishi natijasida inson uchun xavfli bo‘lgan turli xil noan’anaviy tahdidlar yuzaga kelmoqda. Maqolada globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bir paytda yoshlarning ma’naviy xavfsizligini ta’minlash masalalari alohida tadqiqot obyekti sifatida tahlil qilingan.

**Kalit so’zlar:** Noan’anaviy taxdid g‘oyaviy qarama-qarshilik, ma’naviy xavfsizlik, milliy qadriyatlar,vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, qonuniylik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, sog‘lom turmush tarzi,ma’naviy immunitet.

**Аннотация:** В результате углубления процесса глобализации возникают различные нетрадиционные угрозы, опасные для человека. В статье анализируются вопросы обеспечения моральной безопасности молодежи как отдельный объект исследования в условиях усиления процессов глобализации.

**Ключевые слова:** Нетрадиционная угроза, идеологический конфликт, моральная безопасность, национальные ценности, патриотизм, гражданское

чувство, законность, национальные и общечеловеческие ценности, здоровый образ жизни, моральный иммунитет.

**Abstract:** As a result of the deepening of the globalization process, various non-traditional threats that are dangerous to humans arise. The article analyzes the issues of ensuring the moral security of young people as a separate object of research in the context of intensifying globalization processes.

**Keywords:** Non-traditional threat, ideological conflict, moral security, national values, patriotism, civic feeling, legality, national and universal values, healthy lifestyle, moral immunity.

Ma’naviy tahdidlar shaxs axloqiy ongida salbiy tushunchalar, tuyg‘ular, xususiyatlar va sifatlarni hosil qiluvchi illatlar majmuidir. Chunki tahdid so‘zi “xavf-xatar, xuruj va buzish” ma’nolarini anglatadi. Shu ma’noda ma’naviy tahdidlarni shaxsni aqliy va axloqiy jihatdan buzishga qaratilgan maqsadli xurujlar deyish mumkin. Bulardan eng xavflilari izdan chiqarishga qaratilgan axloq-odob¸ oila va jamiyat hayotida jiddiy ta’sir ko‘rsatadigan ma’naviy tahdidlar hisoblanadi.

Ma’naviy tahdidlardan maqsad, birinchidan, shaxsning ma’naviy-axloqiy olamini buzish; ikkinchidan, o‘z vatani va jamiyatiga nisbatan yovuzlik fikrini uyg‘otish; uchinchidan, milliy axloqiy qadriyatlarni aynitish; to‘rtinchidan, o‘zgalar jamiyatini ideal deb bilish ko‘nikmasini hosil qilish; beshinchidan, zararli odatlarga xuruj qo‘yishdir. Diqqat qilsak, ma’naviy tahdidlarning barcha turi nosog‘lom turmush tarzi bilan bog‘liqligiga va u mafkuraviy nuqtayi nazardan eng xavfli omil ekanligiga amin bo‘lamiz. Chunki uning negizini shaxs tarbiyasini izdan chiqarishga qaratilgan g‘oya tashkil etadi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda ma’naviy tahdidlar quyidagicha illatlarni targ‘ib qilayotgani namoyon bo‘lmoqda: xudbinlik, nopoklik, nafs qutqusiga uchish, huzur-halovatga berilish, yengil-yelpi umr kechirishga da’vat, giyohvandlik, mutaassiblik, tajovuzkorlik, mol-u dunyoga o‘chlik, axloqiy buzuqlik, zo‘ravonlik, axloqsizlikni madaniyat deb bilish va, aksincha, asl ma’naviy qadriyatlarni eskilik sarqiti deb qarash, loqaydlik, mahalliychilik, irodasizlik va h.z. Globallashuv yaratayotgan

imkoniyatlardan hozirgi kunda ma’naviy bo‘shliqni to‘ldirishga harakat qilayotgan siyosiy va mafkuraviy markazlar foydalanmoqdalar. Buning oqibatida insoniyat tomonidan katta ma’naviy yo‘qotishlar, millatimizning asriy qadriyatlari, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarziga xavf solayotganini alohida qayd etish lozim. Lo‘nda qilib aytadigan bo‘lsak, bunday mafkuraviy xurujlar milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishini, ulardan bizni butunlay uzib tashlashdek yovuz maqsadlarni ko‘zlashini, yurtimizda yashaydigan sog‘lom fikrli har bir odam yaxshi tushunadi.Bunday tajovuzkorona harakatlar bizlar uchun mutlaqo begona mafkura va dunyoqarashni, avvalo, beg‘ubor yoshlarimizning qalbi va ongiga singdirishga qaratilganligi bilan, ayniqsa, xatarlidir.

Yangi tahdidlar, jumladan, “ommaviy madaniyat” xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo‘layotgan, odob-axloq, qadriyatlarni yo‘qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida tarixiy merosimizni asrab-avaylash, o‘rganish va ajdodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida jiddiy e’tiborda ekanligi kishining ko‘ngliga taskin beradi. Har bir narsaning yaxshi va yomon tomoni bo‘lgani kabi globallashuv jarayoni ham salbiy va ijobiy mohiyat kasb etadi. Professor S.Otamurodov globallashuvning ijobiy jihatlariga to‘xtalar ekan, “ko‘pgina mamlakatlarga fan-texnika, texnologiya yutuqlarining jadal kirib kelishi globallashuv tufayli. Bu esa ularning iqtisodiy hayoti rivojiga, xalqlar turmush tarzining ortishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqa. Shu tariqa bashariyatning umumiy intellektual salohiyati yuksalishiga yordam bermoqda”, deb ta’kidlaydi.

Globallashuvning milliy ma’naviyatga ko‘rsatayotgan ijobiy ta’sirlari to‘g‘risida bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, quyidagicha xulosa qilish mumkin:

– madaniy aloqalar va munosabatlarning globallashuvi bir hududda yangi madaniy va ma’naviy qadriyatlarni, san’at turlarining vujudga kelishiga sabab bo‘ladi, bu esa milliy ma’naviyat tarkibini yanada boyib borishiga olib keladi;

– iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi esa mamlakatlar moddiy hayotini yaxshilashga keng yo‘llar ochib beradi hamda fuqarolar farovonligining ta’minlanishiga imkon beradi;

– fan va texnika sohasining globallashuvi milliy ma’naviyatning asosi bo‘lmish

milliy intellektual salohiyatni kuchaytiradi;

– siyosiy-mafkuraviy sohalarning globallashuvi umumjahon ma’naviy muhitning

rivojlanishiga zamin yaratadi, bu esa milliy ma’naviyatning yanada takomillashishiga asos bo‘ladi.

Shu bilan bir qatorda, globallashuv jarayonlarining milliy ma’naviyatga ko‘rsatayotgan salbiy ta’siri xususida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

– demografik ko‘chishlarning ayrim hududlarda haddan ziyod oshib ketishi

ma’naviy ta’sirlar oqimining ham oshishiga olib keladi, bu holat shu hududdagi

milliy ma’naviyatga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi;

– umumjahon miqyosida ma’naviy-madaniy ne’matlarga ehtiyoj rivojlangan davlatlar talabiga ko‘ra shakllanishi milliy ma’naviyatga bir qutbli ta’sirini kuchaytiradi.

Hozirda mamlakatimiz o'ta qaltis, notinch va murakkab dunyo bilan aloqaga kirishib bormoqda. Jamiyatimizda yoshlarni ruhiy-ma'naviy jihatdan xavfsizligini ta'minlash zaruriyatining sabablaridan biri shundan iboratki, bozor iqtisodiyoti chet el sarmoyalari, zamonaviy texnika va texnologiya, bozorni shakllantirish usullari bilan bir qatorda mamlakatimizga o'zining madaniyati, turmush tarzi, dunyoqarashi va tasavvurlarini ham olib kirmoqda. Bu tabiiy jarayon, albatta va uni hech qanday to'siq bilan to'xtatib ham bo'lmaydi. Mafkuraviy muammo va ma'naviy tahdidlarga ham aynan shunday xarakter xos bo'lganligi uchun ham keyingi paytda jamiyatimizga ayrim noxush va zararli mahsulotlar kirib keldi va keng tarqala boshladi.

Mafkuraviy va ma'naviy tahdidlar haqida gapirar ekanmiz, eng avvalo, diqqat va e'tiborimizni XX asr oxiriga kelib kuchaygan umumsayyoraviy muammolarga qaratmog'imiz lozim. Hozirgi kunda ana shunday muammolar qatorida terrorchilik, giyohvandlik, diniy ekstremizm va aqidaparastlik kabi illatlarni alohida ta'kidlash mumkin. Ilmiy muomilaga nisbatan yangi kirib kelgan - Ma'naviy tahdid‖ tushunchasiga turlicha yondoshuvlar mavjud. Falsafa fanlari doktori G.Tulenovaning «O'zbekistonda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash muammolari‖ maqolasida mafkuraviy tahdidlar, jumladan terrorizm, aqidaparastlik va diniy ekstremizm ma'naviy tahdid sifatida qaralgan. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, bugun dunyoda 500 dan ortiq terrorchilik tashkilotlari mavjud. Hozirda ular 60 ta davlat hududida o'z tarmoqlarini yoyishga muvaffaq bo'lgan. Ayni davrda ular tomonidan 84 ta davlat fuqarolariga qarshi terrorchilik harakatlarini amalga oshirmoqdalar.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi paytda globallashuvning o'tkir va keng qamrovli ta'sirini barcha sohalarda namoyon bo'layotganligi, ayniqsa, bu davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik masalalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalarning tez kirib kelishi, kapital va tovarlar, ishchi o'rinlarining yaratilishi unda ishchi kuchining erkin qulayliklarning vujudga kelishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizida uyg'unlashuvi, bu imkoniyatlarning ortishi – tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv ta'siri natijasida erishilmokda. Globallashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihati shundaki, zamonaviy axborot texnologiya va kommunikatsiyaning, ilm-fan yutuqlarining tez tarqalishi ham taraqqiyotga xizmat qilmoqda, shu bilan birgalikda yovuz kuchlar o'z g'arazli maqsadlariga erishishda internetda qulay mafkuraviy ta'sir o'tkazishning o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlar mafaatiga xizmat qilayotganini kuzatish mumkin. Bunday sharoitda yoshlarni ma'naviy xavfsizligini ta'minlashda axborot va kiberxavfsizlik xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi globallashuv sharoitida ma’naviy-axloqiy tahdidlarga qarshi kurashda ta’lim-tarbiya muassasalari faoliyati tizimida bosh harakatdagi shaxs, pedagog, o‘z shaxsiy potensiali va mahoratini ishga solgan holda talabalar bilan

hamkorlikda ijodiy va hayotiy faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etsa, o‘rganuvchilar uning barcha shakl va ko‘rinishlarida real subyektga aylanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 2022–2026 йилларга мўлжалланган “Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ–60-сон. Lex.uz, 29.01.2022.

2. Ш. Мирзиёев. Янги Ўзбекистон Стратегияси.Тошкент, – Ўзбекистон, 2021. Б. 457.

3. Марказий Осиё: кеча, бугун, эртага. Ишонч. 2001 йил 29-декабр.

4. Алимов Р.М. Центральная Азия: общность интересов. – Т.: Шарк, 2005. – 148 бет.

5. Шавкат Мирзиёев БМТнинг 72-сессиясида илгари сурган 5 ташаббусдан 4таси амалга ошди – ТИВ вакили. Интернет манба: Kun.uz. 22:46 / 27.08.2020.

6. Normatovich B.B., Boboyorov S.B.O. Cybersecurity and Information War // 2021 International Conference on Information Science and Communications
Technologies (ICISCT). – IEEE, 2021.

## TARIXIY TARAQQIYOTDA INSON TARBIYASIGA OID MASALALAR

B.A.Tillayev Gumanitar fanlar kafedrasi katta o`qituvchisi

Jamoliddinova Hilola Sodiqjon qizi Namangan Davlat Pedagogika instituti O’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi 1-bosqich talabasi.

*hilolajamoliddinova450@gmail.com*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada Qadimgi Sharq va G’arbda mutafakkirlarning ta’lim-tarbiya, odob-axloq kabi masalalarga qarashlari va tarbiya haqida so’z yuritiladi. Ajdodlarning faoliyatidagi tarbiyaga oid yondashuvlar, g’oyalarni yosh avlodga uqtirishdagi tarbiya usullari va vositalarini bilish va shu kabi masalalar ochib berilgan.

**Kalit so’zlar**: odob-axloq tushunchasi, tarbiya, axloqiy qoida, ma’naviyat, insonparvarlik, barkamol inson, milliy qadriyat.

**Anotatsion:** This article talks about the views of thinkers in the Ancient East and West on issues such as education, manners, and education. Approaches to education in the activities of ancestors, knowledge of methods and means of education in transmitting ideas to the younger generation, and similar issues are revealed.

**Key words**: the concept of ethics, education, moral rule, spirituality, humanitarianism, a perfect person, national value.

O’zbek xalqi qadimdan inson tarbiyasiga kata e’tibor berib kelgan. Chunki tarbiya insonni ziynatlab, poklab turuvchi odoblar xazinasidir.Uzoq va boy tarixga ega bo’lgan Markaziy Osiyo xalqlari o’zining ta’lim-tarbiyaga oid merosini yaratib, takomillashtirib, yoshlarni insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, insonlarga va tabiatga do’stlik, saxiylik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelishgan. Darhaqiqat, ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebaho madaniy meros milliy ma’naviyatimizning o’zagini tashkil etadi. Shu sababli undan bugun yoshlarimizning ta’lim va tarbiyasida keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.Tarbiya deganda bizning xayolimizga buyuk mutafakkir Abdulla Avloniyning quyidagi hikmatli so’zi kelishi tayin, albatta. “**Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir**” degan chuqur ma’noli so’zlari naqadar haqiqat ekanligini bugun,har qachongidan ham yaxshi anglaymiz.Biz bilganimizdek, har bir odam

ikki xil tarbiya oladi: birinchi tarbiyani o'z hayot tajribalarini singdirish yo'li bilan ota-ona beradi, ikkinchisi, yanada muhimrog'i esa unga hayotning o'zi o'rgatadi. Negaki, o'z hayot tajribasini har tomonlama boyitmagan odamning tarbiyasi – behuda. Jonlinus aytganidek: " To'rt narsa to'rt narsaga ya'ni ulug'lik – odob, tarbiyaga, xursandchilik – xotirjamlikka, yaqinlik – do'stlikka, aql – tajribaga muxtojdir". Ya'ni inson buyuk bo'lishi uchun ,albatta, tarbiya muhim ro'l o'ynaydi.

Tarixga qaraydigan bo'lsak, tarbiya haqida bizning ajdodlarimiz juda ko'p hikmatli so'zlarni o'z asarlari orqali bizga qoldirganlar.Misol uchun, **Xo'ja Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Imom Bayoziy, Imom Buxoriy, Jaloliddin Rumiy** kabilarning asarlarida odob - axloqqa doir purhikmat so'zlarni uchratishimiz mumkin. Mutaffakirlardan biri Imom al-Buxoriy 20dan ortiq kattta va kichik kitoblari mavjud bo'lib , ular orasida **„Al-jome' as-saxix''**alohida o'rinda turadi. Bu shoh asar ahamiyati jihatidan Qur'ondan keyingi ikkinchi diniy manba deb e'lon qilingan. Imom al-Buxoriy o'z asarlarida axloq-odob haqida fikr yuritar ekan, odamlarni ota-onani e'zozlashga, ular oldidagi o'z burchlarini mukammal ado etishga da'vat etadi. Oilaviy muhitning barqaror tinch, oila a'zolarining sog'-salomat, to'q bo'lishi, kichiklarga izzatda, kattalarga hurmatda bo'lishi kabi fazilatlar hozirgi kunda ham ta'lim tarbiyaga aloqador bo'lib kelmoqda. O'zbek xalqi jahondagi boshqa xalqlar kabi moddiy boyliklargina emas, ma'naviy boyliklarning ham asoschisi hisoblanadi. Tarbiya birinchi oiladan boshlanar ekan, demak oilada tarbiyalanuvchilarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalashda tarbiyaning barcha turlariga e'tibor berish lozim. Yana bir allomala buyuk mutaffakir Alisher Navoiy axloqning eng muhim mezoni sanalgan odob haqida fikr bildirgan: „Adab kichik yoshdagilarni ulug'vor duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umurbod baxramand bo'ladi. Adab kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muhabbat ko'glida abadiy qoladi''. Demak, yaxshi xulq asosi –odob ekanligini bu so'zlar orqali bilib olishimiz qiyin emas**.** Abu Rayhon Beruniy esa insonning tashqi qiyofasi, uning

axloqiy qiyofasi bilan uzviy bog‘liqligini ,kishidagi oliyjanoblik va orastalik insonlar bilan muomalasida muhim o‘zak ekanligini aytib o‘tgan.

Yosh avlodda yuksak ma’naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, boy madaniy merosimiz, tarixiy an’analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g’oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Insonlar o’zligini chuqur anglashi, mustaqillikning qadrini tobora teran tushunishi, milliy tafakkurning kengayishi va takomillashuvi, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg’onishini ta’minlash ma’naviyat sohasidagi siyosatimizning asosiy maqsadiga ayland Sharq mutafakkirlarning yaratgan shoh asarlardan nafaqat O‘rta Osiyo, balki Yevropa mamlakatlari ham foydalanib kelmoqda. Ularning buyuk asarlari yillar davomida o‘zbek adabiyoti xazinasini boyitib, o‘quvchi- yoshlarni komil inson etib tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Ma’naviyati yuksak, zamonaviy ilm-fanni egallagan, ajdodlarimizning boy merosiga sohib chiqgan avlodni hech qanday tashqi kuch, g‘oya yoki mafkura aslo o‘z ta’siriga tushira olmaydi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, tarixda tarbiya inson taraqqiyotida juda katta ro’l o’ynagan desak mubolag’a  bo’lmaydi. “Tarbiyani tarbiyasizdan o’rgan”,- deganlaridek, har bir millatning yosh avlodlarini chiroyli tarbiya qilinsa, o’sha millat, albatta, eng buyuk millatlardan bo’ladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy.Turkiy guliston yoxud axloq. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.
1. D. Xo‘jayeva .” Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiya xususidagi qarashlari” Til va adabiyot ta’limi, 2003-yil.
2. I. Karimov. “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch”. T.: Ma’naviyat, 2008 y.
3. A.Haydarov .”Inson kamoloti va milliy – ma’naviy qadriyatlar”. T:Muharrir, 2008-yil.

# GLOBALLASHUV JARAYONINING MILLIY MA’NAVIYATIMIZGA TASIRI

B.A.Tillayev NamDPI Gumanitar fanlar kafedrasi katta o`qituvchisi
Abdujabborova Nilufar Rustamjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti 1-bosqich talabasi
abdudzalilovrustam@gmail.com

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada globallashuv jarayonining milliy ma’naviyatimizga ta’siri tahlil qilinadi. Globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlari, shuningdek, bu jarayonning o‘ziga xos milliy qadriyatlarimizga qanday ta’sir ko‘rsatishi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Globalizatsiya, texnologiyalar, axborotlashuv ,iqtisidiy siyosiy, ijtimoiy,integratsiyalashuv ,modernizatsiya

**Anatatsion:** This article analythes the impact of the globalization process on our national spirituality. It examines both the positive and negative aspects of globalization as well as how this process affects our unique national values

Key words: globalization, technologies, informationazation, economic, political, social, integration, modernization.

**Аннотация:** В данной статье будет проанализировано влияние процесса глобализации на нашу продукцию духовность. Рассматриваются как положительные, так и отрицательные стороны глобализации, а также то, как этот процесс влияет на нашу уникальные национальные ценности.

**Ключивые слова:** Глобализация, технологии, информатизация, экономический, политический, социальный, интеграция, модернизация.

Avvalo, globallashuv nima ekani haqida ma’lumotlarga to‘xtalib o‘tsak , globallashuv atamasi ,dastlab, amerikalik olim T.Levittning 1983-yildagi

“Garvard biznesrevyu” jurnalida chop etilgan edi (u yirik transmilliy korporatsuyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorining birlashuv jarayonini globallashuv deb atagan edi).

O‘zbekiston birinchi prezidenti o‘z asarida “Globallashuv – bu, avvalo, hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir”[1]. Islom Abdug‘aniyevich Karimov shu bir og’iz gap bilan globallashuv jarayonining muhim jihatini ochib bera olgan. Chindan ham, so‘nggi yillarda globallashuv ta'sirida sobiq prezidentimiz aytaganlatidek, rivojlanish sur’atlari beqiyos tezlikda o‘smoqda.

Hozirda biz yashab kelayotgan davr haqida turlicha qarashlar mavjud “kimdur uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda. Ammo ko’pchilik ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg’otmoqda”. [2]

Aslida, globallashuv – bu dunyo miqiyosida, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlarning bir-biriga bog’lanishi va intagratsiyalashuvi jarayonidir.

Albatta, globallashuv jarayonining ham salbiy, ham ijobiy tomonlari mavjud. Globallashuv aspektorini o‘rgangan Habibuli Haka Hangira shunday degan: “Globallashuv g’alabaga, yo‘qotishlarga olib keladigan jarayondir. Ba’zilar globallashuvni o’z yo’lidagi barcha narsani yo’q qiladigan poyezd sifatida ko‘rsalar, boshqalar uni iqtisodiy o’sish modernizatsiyaga olib keladigan foyda manbai deb bilishadi" [3]

To’g’ri, globalizatsiya bugungi kunda biz uchun bir qator qulayliklarni yaratib bermoqda, biroq bir qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Shulardan eng ayanchlisi: globalizatsiyaning milliy ma’naviyatimizga ko‘rsatayotgan salbiy ta’siridir. Shu o’rinda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich: "globallashuv va axborot hurujlari, turli tuman buzg’unchi g‘oyalar ta’sirida milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarimizga qarshi tahdid va hatarlar tobora kuchaymoqda. Hudbinlik, ya'ni faqat o'zini o'ylash, hayotga, mehnatga, oilaga, yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati singari illatlar turli yo'llar

bilan aholi, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirilmoqda. Terrorizm, ekstromiz, transmilliy kiberjinoyatchilik, odam savdosi narkotrafik tahdidlar xavfi tobora ortib bormoqda”, [4] -deya ta’kidlaydilar.

Yana shu o’rinda aytish joizki, globalizatsiya ta’sirida kirib kelgan ma’naviy tahdidlarning bir ko’rinishi “ommaviy ma’daniyat” niqobida yoshlar ongiga ta’siri mamlakat hayotiga xavf solmoqda va miliy madaniyatimizga bolta urmoqda. Xususan, o‘smir yoshlarning har xil internet klublarda bo’lishlari va pornografik saytlarga kirishlari, mobil telefondan noto’g’ri maqsadda foydalanishlari yoshlar ma’naviy kamolotiga katta ziyon keltiradi. Fikrlarimga xulosa sifatida shuni ayta olamanki, terrorizm ekstromizm tahdidlar ortib ketmasidan, yosh avlodga kamputer o‘yinlari, telefon kabilar inson ma’naviyatiga naqadar zararli ekani haqida uqdirib bera olishimiz kerak.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ham shu xususda “milliy ma’naviyatimizga mutlaqo begona tushunchalar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta’bir joiz bo’lsa “chaqirilmagan mehmon” bo’lib xonadonimizga, jamiyatimizga eng yomoni bolalarimizning pokiza qalbi va ongiga kirib kelayotganidan ham ko’z yuma olmaymiz”,[5] Bu bilan jamiyatimizdagi mana shunday tahdidlarga qarshi kurasha olish muhimligini anglatadi. Haqiqatan ham, biz birinchi o'rinda yoshlar tarbiyasiga jiddiy ahamiyat bermog'imiz lozim, chunki kelajak yoshlarning qo'lidadir. Buyuk mutakakkiririmiz Abdulla Avloniy ham tarbiya to'g'risida : " Tarbiya biz uchun yo hayot - yo momot, yo najot -yo halokat, yo saodat - falokat masalasidur"[6]- deya o'z asarni juda to'g'ri va asosli fikr keltirib o'tgan.

O'ylashimcha, har bir millat vakili o'zining tarixini, o'zligini, madaniyatini bilmog'i va uni hurmat qilmog'i lozim. Shu bilan birga, ma'naviyatni, qadriyatlarni mustahkamlovchi strategiyalar ishlab chiqish muhim deb hisoblayman. Fiktimcha, faqatgina shunday yondashuv orqali globallashuv jarayonidan manfaatdor bo'lishimiz va o'z milliy ma'naviyatimizni asrab qolishimiz mumkin bo'ladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov.I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” Toshkent .2008-110-b;
2. Karimov.I.A.“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch’’ Toshkent.2008-110-b;
3. Habibuli Hague Khander. ‘’Globalization as globalization evolution of a sociological cocept. Bangladesh e-journal of Singapore . 2004-1-9-b;
4. Mirziyoyev.Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” Toshkent-“O‘zbekiston” nashtiyoti 2021.B.55.,40-b;
5. Mirziyoyev.Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” Toshkent-“O‘zbekiston” nashriyoti 2021.B.55.,40-b.
6. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yohud ahloq"- Toshkent. "O'qituvchi"- 1992 yil

## GLOBALLASHUV JARAYONINING BADIIY ADABIYOTGA TASIRI

Tillayev Bobomurod Abduvoxobovich
Gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Yusufjonova Zilolaxon Madamin qizi Ijtimoiy fanlar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti 1-bosqich talabasi.
Muhamadaliyusufjon69@gmail.com

**Annotatsiya**; Globallashuv jarayoni bugungi dunyo madaniyati va san’atining ko‘pgina jabhalariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, badiiy adabiyot ushbu jarayondan bevosita ta’sirlanib, yangi mavzular, obrazlar, va uslublarni o‘z ichiga olmoqda. Mahalliy milliy qadriyatlar global tendensiyalar bilan uyg‘unlashayotgani sababli, milliy adabiyotlar yangi yondashuvlar orqali rivojlanmoqda. Bu jarayon badiiy asarlardagi mavzu va muammolarni universal nuqtai nazardan o‘rganishga imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, globallashuv mahalliy madaniy xilma-xillikni saqlash va o‘ziga xos adabiy uslublarni davom ettirish zaruriyatini ham paydo qiladi.

**Kalit so’zlar;** ijtimoiy muammolar, ijobiy va salbiy ta’sir,madaniy almashinuv, xalqaro mavzular, modernizm, pastmodernizm, adabiy oqimlar, mahalliy madaniyat, xalqaro madaniyat, uslub, janr, talab va trend.

**Abstract;** Globalization is significantly influencing all aspects of human life today, including the fields of culture and literature. With the world becoming increasingly interconnected, the rapid flow of information and advancements in technology are enriching literature with new themes and genres. Additionally, the issue of preserving the unique identity of national literatures in the globalization process is gaining importance. This article aims to analyze the positive and negative impacts of globalization on artistic literature.

**Key words;** social issues,positive and negative impacts,cultural exchange, international topics, modernism, pastmodernism, literary movements, local culture, global culture, style, genre, demand, tren.

Hozirgi yashab turgan hayotimizning ayrim sohalarining rivojlanishiga globallashuv asosiy omil bo‘lmoqda. Bu sohalar qatoriga milliy madaniyat, ta’lim va albatta badiiy adabiyot ham kiradi. Globallashuv milliy madaniyat va badiiy adabiyotga ijobiy tasir ko‘rsatib, yangi g’oyalar va madaniy almashinuvni rag‘batlantirmoqda.[1] Shuningdek, globallashuv tufayli turli xalqlar va madaniyatlar o’rtasidagi o’zaro aloqalar kuchaymoqda bu esa badiiy adabiyotlarning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko’rsatmoqda. Badiiy adabiyotda bu aloqalar yangi janrlar va mavzularning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda.[2] Har bir millat o‘z an’analari va qadriyatlari asosida ijod qilib, ularni boshqa madaniyatlarga taqdim etmoqda. Misol uchun, Osiyo adabiyotida fantastika, xalq ertaklari va tarixiy hikoyalar G’arb adabiyotida o’z ifodasini topmoqda, shu bilan birga, globallashuv tufayli adabiy tarjimalar ko‘paymoqda, xorijiy asarlarning tarjimasi tufayli boshqa mamlakatlarning adabiyoti bilan tanishish imkoniyati kengaymoqda. Tarjimalar orqali yangi madaniy qatlamlar va obrazlar kirib keladi,bu esa o’quvchilarni dunyoqarashini kengaytirishga olib keladi. Xuddi shuningdek, o’zbek adabiyotining tarjima qilinishi mahalliy yozuvchilarimizning

xalqaro tanilishini ta’minlashi mumkin. Globallashuv sababli zamonaviy o’zbek adabiyotida ijtimoiy muammolar, kosmopolitizm, immigratsiya kabi universal mavzular yoritilmoqda. Yozuvchilar xalqaro mavzularni milliy rang-baranglik bilan uyg’unlashtirmoqda.[3] Shu bilan birga, Globallashuv o’zbek adabiyotida modernizm, pastmodernizm va kosmopolitizm kabi adabiy oqimlarning shakllanishiga olib keldi. Bu oqimlar orqali yozuvchilar yangi uslub va yo’nalishlarni izlashmoqda.[4]. Globallashuv yurtimiz adabiyotida realistik va fantastik janrlar bilan birga yangi ijtimoiy, ekologik va axloqiy masalalarni qamrab oluvchi zamonaviy asarlar paydo bo‘lishiga sabab bo’lmoqda.Buning natijasida o’zbek yozuvchilari dunyo muammomariga milliy nigoh bilan yondashishmoqda.[5]

Globallashuv jarayoni o’zbek milliy adabiyoti va madaniy o’zlikka salbiy ta’sirlar ko’rsatishi ham mumkin. Masalan, milliy qadriyatlarning o’ziga xosligini yo’qotish xavfi mavjud, chunki xalqaro madaniyatlar bilan uyg’unlashishda mahalliy mafaniyat o’z original xususiyatlarini yo’qotishi mumkin, o’zbek adabiyotidagi milliy qadriyatlar va an’anaviy mavzular globallashuv sabab, xorijiy madaniyatlarning ta’siri ostida bo’lib, o‘z-o’ziga xosligini yo’qotishi mumkin. Yosh avlod o’zbek adabiyotidan uzoqlashib, ko’proq G’arb adabiyotiga murojaat qila boshladi.[6] Yana bir xavf shundaki, yozuvchilar xalqaro talablar va trendlarga moslashib qolishi mumkin. Ya’ni, globallashuv tufayli ayrim o’zbek yozuvchilari audotoriyaga moslashishga intilib, milliy o’zlik va an’analarni hisobga olmasdan, xalqaro mavzularni yoritishga o‘tmoqda. Bu esa milliy adabiyotning mazmuniy jihatdan_sayozlashishiga olib kelishi mumkin. Yana shunday xavflardan biri, globallashuv jarayonida o’zbek tili va uslubiga xorijiy elementlarning kirib kelishi,bugungi kunda bu hodisa jadal suratda o’sib boryapti. Bu esa, adabiyotda o’zbek tilining milliy ifoda vositalarini zaiflashtirish xavfini tug’diradi. Xorijiy shevalar va uslublarning qo’llanishi milliy o’zlik va ifoda kuchiga ta’sir qilishi mumkin[7].

Globallashuv jarayoni o‘zbek adabiyotini yangi imkoniyatlar va cheksiz mavzular bilan tanishtirmoqda. Bu jarayon xalqaro madaniyat va adabiyotlarning o‘zbek yozuvchilari ijodiga kirib kelishiga, milliy asarlarning jahon sahnasiga chiqishiga sharoit yaratmoqda. Shu bilan birga, globallashuvning kuchayishi milliy qadriyatlar va an’analarni saqlab qolish masalasida xavotirlarni ham tug‘diradi. Milliylikni yo‘qotish, xorijiy madaniyatga ortiqcha taqlid qilish va an’anaviy mazmunlarni chetga surib qo‘yish xavfi mavjud. Buyuk o‘zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy adabiyotning millat ruhiyatiga ta’siri haqida shunday degan edi: “Millatning ongi va ruhiyati adabiyotsiz rivojlana olmaydi. Adabiyot – xalqning yuragi, u orqali milliy o‘zlik ham, madaniyat ham saqlanadi.” Ushbu fikr globallashuv davrida adabiyotning qanday vazifa va mas’uliyatga ega ekanini yanada chuqur anglashga yordam beradi. O‘ziga xoslik va milliy ruhni saqlab qolish orqali globallashuvning salbiy tomonlarini kamaytirish, aksincha, bu jarayonni madaniyat va milliy o‘zlikni dunyo bo‘ylab kengaytirish uchun imkoniyat sifatida qabul qilish mumkin. Milliy yozuvchilar uchun bu davrda muhim bo‘lgan narsa – milliy qadriyatlar va xalqning ma’naviy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ijod qilish, milliy ruhni yo‘qotmasdan, zamon bilan hamqadam bo‘lishdir. Globallashuv mahalliy yozuvchilarni xalqaro madaniy muloqotga olib chiqsa-da, milliy o‘zlikni himoya qilishga ham undaydi. Adabiyotning o‘zi milliy va global o‘rtasidagi bu muvozanatni saqlab qolishda eng muhim ko‘prik vazifasini bajaradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati;**

1.Nurillayev.A. „O’zbekiston Milliy adabiyoti va globallashuv jarayonlari" Toshkent (2019)

2.Shodmonov.A. „Adabiyot va zamonaviy texnologiyalar" Toshkent (2020).

3.Omonullo.M. „Zamonaviy o’zbek adabiyoti va globallashuv"Toshkent (2019)

4.To’raqulov.Z. „O’zbek adabiyotidagi zamonaviy oqimlar" Toshkent (2016)

5.Abdug‘afurov.M. „Globallashuv va o’zbek adabiyoti" Toshkent (2018)

# GLOBALLASHUV JARAYONINING BADIIY ADABIYOTGA TA’SIRI

B.A.Tillayev NamDPI Gumanitar fanlar kafedrasi katta o`qituvchisi

Boymirzayeva Guljahon Bahromjon qizi Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada globallashuv jarayoni va uning badiiy adabiyotga ta’siri, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikning kamayishi, madaniy chegaralarning kengayishi,yangi janr va mavzularning paydo bo‘lishi,tillararo tarjima, adabiy aloqalarning kengayishi haqida batafsil bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** globallashuv, modernizatsiya, tillararo muloqot, insoniylik, janr, xalqaro xarakter.

**Аннотация:** В статье подробно описан процесс глобализации и его влияние на художественную литературу, снижение чтения среди молодежи, расширение культурных границ, появление новых жанров и тем, межъязыковой перевод, расширение литературных связей.

**Ключевые слова:** глобализация, модернизация, межъязыковое общение, человечность, жанр, интернациональный характер.

**Abstract:** This article describes in detail the process of globalization and its impact on fiction, the decline of reading among young people, the expansion of cultural boundaries, the emergence of new genres and themes, interlanguage translation, and the expansion of literary relations.

**Key words:** globalization, modernization, interlanguage communication, humanity, genre, international character

Mamlakatimiz jahon Arenasida o‘z o‘rnini jadal ravishda topyabdiki, "Globallashuv" degan atama tilimizga kirib kela boshladi. Xo‘sh, Globallashuv

nima degani o‘zi, adabiyotga globallashuv qanday ta’sir ko‘rsatyapti. Buni birgalikda maqola tahlil qilamiz.

Globallashuv jarayoni hozirgi zamon madaniyati va adabiyotiga keng qamrovli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu jarayonning adabiyotdagi aks sadosi turli madaniyatlar, tillar, va qadriyatlarning aralashishi, yangi tendensiyalarning paydo bo‘lishi va yozuvchi hamda o‘quvchi o‘rtasidagi aloqalarning ko‘p qirrali rivojlanishi orqali namoyon bo‘lmoqda. Badiiy adabiyot globallashuv tufayli kengayib, xalqaro miqyosda yangicha shakl va mavzular bilan boyimoqda. [1]

Mazkur maqola uchun metodologik asos sifatida Appadurai, Arjun. Modernity at Largening "Cultural Dimensions of Globalization" asari ’, Bauman, Zygmuntlarning "Globalization: The Human Consequences" asarlari, Steger, Manfred B.ning "Globalization: A Very Short Introduct" asarlari metodologik asos qilib olindi. Mazkur asarlarda globallashuv jarayoni va badiiy adabiyotning umumiy xususiyatlari tahlil qilingan.

Quyida globallashuvning badiiy adabiyotga ta’sirini bir necha asosiy yo‘nalishlarda ko‘rib chiqamiz.[2]

1. Madaniy chegaralarning kengayishi:

Globallashuv natijasida turli xalqlar madaniyati va adabiyoti bir-biriga yaqinlashmoqda. Yozuvchilar va ijodkorlar boshqa madaniyatlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda, bu esa ularning ijodiga boylik kiritmoqda. Turli xalqlar mifologiyasi, an’analari, urf-odatlari va qadriyatlari badiiy adabiyotda aks etib, kitobxonlar uchun yangi g‘oya va tasavvurlar manbaiga aylanmoqda. Natijada, asarlar yanada xalqaro xarakter kasb etmoqda va global miqyosda o‘quvchilar orasida keng tarqalmoqda.[3]

2. Yangi janr va mavzularning paydo bo‘lishi:

Globallashuv nafaqat mazmun, balki shakl va uslubiyatga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda bir nechta janrlar aralashgan, o‘ziga xos janrlar rivojlanmoqda. Masalan, postmodernizm va fantastika janrlarining o‘zaro ta’sirida paydo bo‘layotgan yangi badiiy uslublar, zamonaviy adabiyotda keng o‘rin

olmoqda. Bunday asarlar xalqaro maydonda keng tarqalgan zamonaviy muammolar, shaxsiy va ijtimoiy o‘zgarishlarni aks ettirib, o‘quvchilarni yangicha qarashlarga undaydi.[4]

3. Tillararo tarjima va adabiy aloqalarning kengayishi:

Globallashuv asarlarining xalqaro maydonga chiqishida tarjima san’ati muhim o‘rin tutadi. Tarjima orqali turli xalqlarning ijodiy merosi, badiiy asarlari global miqyosda o‘quvchilar tomonidan o‘rganiladi va qadrlanadi. Tarjimonlar nafaqat matnni tarjima qilishadi, balki uning madaniy kontekstini ham saqlab qolishga harakat qilishadi, bu esa asarning boshqa madaniyatga moslashishini osonlashtiradi. Shu tariqa, dunyo adabiyoti yanada boyib, turli millat va xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalar mustahkamlanadi.[5]

4. Yozuvchilarning yangi platformalarda faoliyati:

Globallashuv zamonaviy yozuvchilarga yangi imkoniyatlar yaratdi. Internet va raqamli texnologiyalar tufayli yozuvchilar o‘z asarlarini nafaqat mahalliy, balki xalqaro o‘quvchilarga ham taqdim eta oladi. Onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali yozuvchilar o‘z ijodlarini tanitish, muxlislar bilan aloqa o‘rnatish va ijodiy tajribalarni o‘rtoqlashish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda. Bu adabiyotning yanada ommalashishiga va o‘quvchilarning keng qamrovli auditoriyaga yetib borishiga imkon yaratadi.[6]

5. G‘arb va Sharq madaniyatining sintezi:

Globallashuv jarayoni davomida G‘arb va Sharq adabiyoti o‘zaro ta’sirga kirishmoqda. Sharq adabiyoti o‘zining falsafiy mazmuni va qadriyatlari bilan G‘arb o‘quvchilarini qiziqtirib, yangi tushunchalarni kashf qilmoqda. Ayni paytda, G‘arb adabiyotining zamonaviy uslublari Sharq ijodkorlariga yangicha yondashuvlarni taqdim etmoqda. Bu ikki madaniyatning sintezi orqali yangi asarlar yaratilmoqda, ular esa o‘z navbatida, kitobxonlarni turli xil madaniyatlar va urf-odatlar bilan tanishtiradi.[7]

Globallashuv badiiy adabiyotga salmoqli ta’sir ko‘rsatib, uni o‘zgartirgan va boyitgan. Ushbu jarayon orqali adabiyot yangi mavzular va shakllarga boyidi,

madaniy chegaralar kengaydi, va yozuvchilar bilan o'quvchilar o'rtasidagi aloqalar kuchaydi. Adabiyotda globallashuv jarayoni, shuningdek, insoniyatning umumiy qadriyatlarini ilgari surishga va turli madaniyatlar o'rtasida ko'priklar qurishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Appadurai, Arjun. Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization. University of Minnesota Press, 1996.
2. Bauman, Zygmunt. Globalization: The Human Consequences. Columbia University Press, 1998.
3. Steger, Manfred B. Globalization: A Very Short Introduction. Oxford University Press, 2013.
4. Tomlinson, John. Globalization and Culture. University of Chicago Press, 1999.
5. Friedman, Thomas L. The World Is Flat: A Brief History of the Twenty-First Century. Farrar, Straus and Giroux, 2005.
6. Ahmad, Aijaz. "Literature and Globalization: The Politics of Postcoloniality." Social Text, vol. 31, no. 1, 1992, pp. 1–25.
7. Moretti, Franco. "Conjectures on World Literature." New Left Review, vol. 1, 2000, pp. 54–68.

## TARIXIY TARAQQIYOTDA INSON TARBIYASIGA OID MASALALAR

B.A.Tillayev NamDPI Gumanitar fanlar kafedrasi katta o`qituvchisi
Xudoyorova Mahliyo
Namangan davlat instituti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi MTM-EU-24 guruh 1bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Inson ta'limi evolyutsiyasi jamiyatlar, madaniyatlar va iqtisodiyotlarning rivojlanishi bilan chuqur bog'liqdir. Zamonaviy davrda, ta'limni hamma uchun ochiq qilish bo'yicha sezilarli yutuqlarga qaramay, tengsizlik, raqamli tafovut va ta'lim tizimlarining tijorat yo'nalishi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Ushbu maqola inson ta'limining tarixiy muammolarini o'rganadi, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar ta'lim tizimlarining rivojlanishiga qanday ta'sir qilganini va hozirgi ta'lim munozaralarini shakllantiradi.

**Kalit so'zlar**: ta'limning tarixiy rivojlanishi, ta'limdagi tengsizlik, qadimgi ta'lim tizimlari, o'rta asr ta'limi, uyg'onish davri gumanizmi, ma'rifatparvarlik ta'lim islohotlari, sanoat inqilobi va ta'lim, zamonaviy ta'lim muammolari, global ta'lim tengsizligi, ta'lim va ijtimoiy o'zgarishlar.

**Abstract:** The evolution of human learning is deeply related to the development of societies, cultures, and economies. In modern times, despite significant progress in making education accessible to all, problems such as inequality, the digital divide and the commercialization of education systems remain. This article explores the historical challenges of human education, how social, economic, and political factors have influenced the development of educational systems and shaped current educational debates.

**Keywords:** historical development of education, educational inequality, ancient educational systems, medieval education, Renaissance humanism, Enlightenment educational reforms, industrial revolution and education , contemporary educational challenges, global educational inequality, educational and social change.

**Аннотация:** Эволюция человеческого обучения глубоко связана с развитием общества, культуры и экономики. В наше время, несмотря на значительный прогресс в обеспечении доступности образования для всех, сохраняются такие проблемы, как неравенство, цифровой разрыв и коммерциализация систем образования. В этой статье исследуются исторические проблемы человеческого образования, а также то, как

социальные, экономические и политические факторы повлияли на развитие образовательных систем и сформировали текущие образовательные дебаты.

**Ключевые слова:** историческое развитие образования, образовательное неравенство, древние образовательные системы, средневековое образование, гуманизм эпохи Возрождения, образовательные реформы эпохи Просвещения, промышленная революция и образование, современные образовательные проблемы, глобальное образовательное неравенство, образовательные и социальные изменения.

Inson tarbiyasi ham jamiyatdagi o‘zgarishlarni, ham inson tushunchasining rivojlanishini aks ettiruvchi tarix davomida sezilarli darajada rivojlangan. Qadimgi tsivilizatsiyalardan tortib zamonaviy global ta'lim tizimlarigacha ta'lim shaxslar, madaniyatlar va jamiyatlarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Biroq, o'z tarixi davomida inson ta'limi ko'plab muammolarga duch keldi, bu esa uning mavjudligi, sifati va qamroviga to'sqinlik qildi. Siyosiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik omillar ta'sirida bo'lgan bu muammolar ta'lim tizimini murakkab shaklda shakllantirdi. Qadimgi ta'lim tizimlari: cheklangan kirish va eksklyuzivlik: Insoniyat tsivilizatsiyasining dastlabki bosqichlarida ta'lim ko'pincha ruhoniylar, zodagonlar yoki hukmron sinf kabi kichik elitaga berilgan eksklyuziv imtiyoz edi. Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Gretsiya va Rimda ta'lim, birinchi navbatda, diniy va falsafiy ta'limotlarni, shuningdek, boshqaruv, urush yoki ruhoniylik uchun zarur bo'lgan texnik ko'nikmalarni etkazishga qaratilgan. Bu juda tabaqalashgan jamiyatni yaratdi, unda ta'lim olish imkoniyati ko'pincha badavlat yoki kuchli oilalardagi erkaklar uchun cheklangan, ayni paytda aholining aksariyati - ko'pincha ayollar va quyi tabaqa vakillari - bundan mustasno edi.

Masalan, Qadimgi Yunonistonda aristokratik oilalardan bo'lgan o'g'il bolalarga ritorika, matematika va falsafa kabi fanlarga urg'u berilgan rasmiy ta'lim taklif qilingan. Ayollar, qullar va quyi tabaqali erkaklar ta'lim olish imkoniyatiga ega emas edilar. Xuddi shunday, Rimda ta'lim erkak fuqarolarni jamoat hayotiga

va rahbarlikka tayyorlash vositasi sifatida qaralgan va ayollarning ta'limi ko'pincha uy-ro'zg'or mahorati bilan chegaralangan.

O'rta asr ta'limi: cherkov nazorati va diniy dog'ma: O'rta asrlarda Evropada ta'limga G'arbiy Evropada hukmron institutga aylangan katolik cherkovi katta ta'sir ko'rsatdi. Monastirlar va keyingi universitetlar asosiy bilim markazlari bo'lib, o'quv dasturi diniy ta'limot asosida shakllantirildi. Ta'lim ko'pincha teologik tadqiqotlar, lotin tili va Aristotel va Tsitseron kabi antik mualliflarning klassiklari bilan chegaralangan. Cherkov bilimlarni nazorat qildi va ko'plab ilmiy yutuqlar, ayniqsa diniy ta'limotlarga zid bo'lgan yutuqlar bostirildi.

Ta'lim muassasalaridan ruhoniy bo'lmagan a'zolarning chiqarilishi ijtimoiy ierarxiyani kuchaytirdi, dehqonlar, ayollar va marginal guruhlar asosan savodsiz bo'lib qoldi. Bundan tashqari, diniy matnlarning o'zgarmasligiga keng tarqalgan e'tiqod, o'rnatilgan bilimlarni shubha ostiga qo'yish yoki ilmiy izlanishlar ko'pincha tushkunlikka tushishini anglatardi. Tanqidiy fikrlash va empirik tadqiqotning rivojlanishi diniy pravoslavlikning hukmronligi tufayli jiddiy to'siqlarga duch keldi.

Uyg'onish va ma'rifat: gumanizm va intellektual kengayish: 14-asrdan boshlangan Uyg'onish davri ma'rifiy tafakkurda o'zgarishlarni ko'rsatdi. Inson aqlining imkoniyatlarini va klassik matnlarni o'rganishni ta'kidlagan gumanizm yangi tarbiyaviy ideallarning rivojlanishiga olib keldi. Asosiy e'tibor san'at, fan, falsafa va adabiyotni o'z ichiga olgan har tomonlama rivojlangan ta'limga qaratildi. Biroq, bu davrda ham ta'lim asosan jamiyatning yuqori bo'g'inlari bilan chegaralanib qoldi.

Ma'rifatparvarlik davrida (XVII - XVIII asrlar) umuminsoniy ta'lim g'oyasi katta ahamiyat kasb etdi. Jon Lokk va Jan-Jak Russo kabi mutafakkirlar aql, shaxsiy huquqlar va shaxsiy rivojlanishga urg'u berib, barcha shaxslarning ta'lim olish huquqini ta'kidladilar. Ijtimoiy taraqqiyot va siyosiy islohotlar vositasi sifatida ta'lim tushunchasi o'z kuchini yo'qota boshladi. Biroq, falsafiy yutuqlarga

qaramay, ko'pchilik, ayniqsa ayollar va quyi tabaqalar uchun ta'limga keng kirish qiyin bo'lib qoldi.

Sanoat inqilobi: ta'lim va kapitalizmning yuksalishi: 18-asrda boshlangan sanoat inqilobi mehnat va jamiyat tabiatida chuqur o‘zgarishlarga olib keldi. Sanoat iqtisodlari kengaygani sari malakali ishchi kuchiga talab ortib bordi, bu hukumatlarni rasmiy ta'lim tizimini yaratishga undadi. Bu davr ko‘plab mamlakatlarda mehnatkashlar sinfi o‘sib borayotgan aholiga asosiy savodxonlik va hisoblash ko‘nikmalarini ta’minlash maqsadida xalq ta’limi davlat mas’uliyati sifatida boshlandi.

Biroq, bu yutuqlarga qaramay, ko'plab bolalar, ayniqsa, shaharlarda, hali ham fabrikalarda og'ir mehnat sharoitlariga duchor bo'lishdi va ta'lim mehnatdan keyin ikkinchi darajali bo'lib qoldi. Bolalar mehnati to'g'risidagi qonunlar va majburiy ta'lim to'g'risidagi qonunlar asta-sekin shakllana boshladi, lekin ular tez-tez sanoat o'zgarishlaridan orqada qolib ketishdi. Bundan tashqari, bu davrda ta'lim hali ham kapitalizm ehtiyojlaridan qattiq ta'sirlanib, tanqidiy fikrlash yoki ijodkorlikni rivojlantirishga emas, balki intizomli va samarali ishchilarni ishlab chiqarishga e'tibor qaratdi.

Zamonaviy ta'lim: tengsizlik va global muammolar: 20-21-asrlarda ta’lim tizimlari keskin kengaydi, ko‘pgina mamlakatlarda ma’lum bir yoshga qadar bolalar uchun ta’lim majburiy bo‘lib qoldi. Biroq, yangi muammolar paydo bo'ldi. Ayniqsa, qashshoqlik, gender kamsitish va siyosiy beqarorlik bolalarning maktabga borishiga to'sqinlik qiladigan rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'lim olishning davom etayotgan tengsizligi muhim muammo bo'lib qolmoqda. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi global ta'limdagi tafovut dolzarb muammo bo'lib qolmoqda, millionlab bolalar hali ham maktabga bormaydi.

Bundan tashqari, standartlashtirilgan testlarning kuchayishi va talabalarni ishchi kuchiga tayyorlash bosimi ijodkorlik, hissiy aql va tanqidiy fikrlash kabi kengroq ta'lim qadriyatlari hisobiga akademik yutuqlarga tor e'tibor qaratishga olib

keldi. Ushbu tendentsiya ta'limning maqsadi haqida bahs-munozaralarni keltirib chiqardi: bu talabalarni iqtisodiy muvaffaqiyatga tayyorlashmi yoki barkamol, o'ychan va faol fuqarolarni tarbiyalashmi?

Qolaversa, texnologik o‘zgarishlarning jadal sur’atlari ham imkoniyatlar, ham muammolarni keltirib chiqardi. Raqamli vositalar ta'limni yanada qulay va inklyuziv qilish potentsialiga ega bo'lsa-da, raqamli tafovut kam ta'minlangan yoki qishloq joylaridagi ko'plab talabalar zarur resurslarga ega emasligini anglatadi. Ta’lim tizimlarini zamonaviy dunyo talablariga, jumladan, texnologiyalar integratsiyasi va uzluksiz ta’limga bo‘lgan ehtiyojga moslashtirish muammosi butun dunyo bo‘ylab ta’lim siyosatini shakllantirishda davom etmoqda.

Xulosa qilib aytganda ta'lim ijtimoiy masala sifatida: Inson ta'limining tarixiy rivojlanishi muhim taraqqiyotni ham, doimiy muammolarni ham ochib beradi. Vaqt o'tishi bilan ta'lim yanada qulayroq bo'lib qolgan bo'lsa-da, tengsizlik, chetlatish va ta'lim tizimini ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarga moslashtirish masalalari asosiy to'siq bo'lib qolmoqda. Umumjahon ta'limga intilish hayotiy maqsad bo'lib qolmoqda, ammo unga erishish vositalari murakkab va ko'p qirrali. Jamiyatlar rivojlanishda davom etar ekan, ta'limning kelajagi ana shu tarixiy muammolarni hal qilishga va ta'lim imkoniyatlarni kengaytirish, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy tenglikni ta'minlash vositasi bo'lib qolishini ta'minlashga bog'liq bo'ladi.

Oxir oqibat, inson tarbiyasi tarixi nafaqat faktlarni o'rganish yoki bilimlarni uzatishdan iborat emas - bu odamlar va jamoalarning tajribasini shakllantiradigan qadriyatlar, imkoniyatlar va ijtimoiy tuzilmalar haqida. Kelajakka nazar tashlar ekanmiz, o'tmish saboqlari haqida fikr yuritish va inklyuziv, moslashuvchi va chinakam o'zgartiruvchi ta'lim tizimiga intilish juda muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Aristotel. Nikomachean etikasi (V.D. Ross tomonidan tarjima qilingan). (VII kitob, miloddan avvalgi 350 yil).
2. Russo, Jan-Jak. Emil yoki Ta'lim haqida. (1762).

3. Lokk, Jon. Ta'lim haqida ba'zi fikrlar. (1693).
4. Dyurkgeym, Emil. Ta'lim va sotsiologiya. (1922).
5. Boulz, Samuel va Gintis, Gerbert. Kapitalistik Amerikada maktab ta'limi: ta'lim islohotlari va iqtisodiy hayotning ziddiyatlari. (1976).
6. Boli, Jon, Ramirez, Fransisko O. va Meyer, Jon V. "Ommaviy ta'limning jahon kengayishi, 1870-1980". Ta’lim sotsiologiyasi (1985).
7. Green, A. Ta'lim va davlat shakllanishi: Angliya, Frantsiya va AQShda ta'lim tizimining yuksalishi. (1990).
8. Gutek, Gerald L.. Ta'limning tarixiy va falsafiy asoslari: Biografik kirish. (2004).
9. Olson, D.R. Qog'ozdagi dunyo: yozish va o'qishning kontseptual va kognitiv oqibatlari. (1994).

## YOSH AVLOD TA’LIM VA TARBIYASIDA BADIY ASARLARNING MAFKURAVIY AHAMIYATI

Botirova Sevara Mamurovna
NamDPI Gumanitar fanlar kafedrasi mudiri
E-mail: sevarabotirova783@gmail.com

Olimjonova Matluba Baxtiyor qizi
NamDPI Ijtimoiy fanlar fakultiteti 1-bosqich talabasi
E-mail: yosumanolimjnova@gmail.com

**Annotatsiya:** ushbu maqolada yoshlarning, jumladan, o‘quvchi va talabalarning dunyoqarashini kengaytirishda va mafkuraviy immunitetini mustaxkamlashda badiy adabiyotning ahamiyati to‘g‘risida muloxaza yuritiladi. Badiy asarlarning vazifalari yuzasidan yuzaga kelgan bir qator muammolar tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Adabiy tanqid, adabiy yondashuv, mafkura, dunyoqarash, bozor iqtisodiyoti, badiy adabiyot, globallashuv.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается значение художественной литературы в расширении мировоззрения молодежи, в том

числе школьников и студентов, и укреплении ее идеологического иммунитета. Анализируется ряд проблем, вытекающих из задач произведений искусства.

**Ключевые слова:** Литературная критика, литературный подход, идеология, мировоззрение, рыночная экономика, художественная литература, глобализация.

**Abstract:** This article discusses the importance of fiction in expanding the worldview of young people, including pupils and students, and strengthening their ideological immunity. A number of problems arising from the tasks of works of art are analyzed.

**Key words:** Literary criticism, literary approach, ideology, worldview, market economy, fiction, globalization.

**Kirish:** Har bir jamiyat o‘z taraqqiyot yo‘li, mafkurasi, millat qadriyatlariga aylangan yuksak g‘oyalarini turli vositalar bilan avloddan-avlodga o‘tkazib keladi. Bunday ta’sir vositalaridan biri bo‘lgan badiy asarlar orqali bo‘ladigan ta’sirlashuv nafaqat bir jamiyat uchun, boshqa jamiyatlar uchun ham amal qilib umuminsoniy g‘oyalarga aylanib boradi. Badiy asarni o‘rganish orqali yoshlar vatanparvarlikni o‘zida namoyish qilishga urinadi, asardagi qaysidir bir qahramonga xos vatanparvarlik hissini o‘zlashitirib oladi. [1] Shuning uchun ham badiy asarlarning adabiy saviyasi va o‘z oldiga qo‘ygan muxim vazifalarni qay darajada bajara olishi mafkuraviy jarayonlarga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

**Tahlillar va natijalar:** Kitob mutolaasi va ilm olishga intilish insonlar dunyoqarashini yuksaltirib, jamiyat hayotiga yangiliklar va ijobiy samaralar keltirishi bugungi globallashayotgan davr nuqtayi nazaridan o‘zini namoyon qilmoqda. Adabiy asarlar borasida muvafaqqiyat qozonish ma’lum bir jamiyatga mafkuraviy jihatdan ustunlik va o‘z maslagi yo‘lida barqaror taraqqiyotga zamin tayyorlaydi. Ziyoli qatlamni shakllantirib, qadriyatlar saqlanishiga ham xizmat qiladi. Har bir yozuvchi yoki shoir o‘z asarini yaratar ekan, milliy, siyosiy, diniy,

hududiy, g'oyaviy mansubligi jihatdan yondashishga harakat qilib badiy asarlar bitadi va o'z qarashlarini boshqalarga ham targ'ib qiladi.

O'z vaqtida respublikamizning Birinchi Prezidenti: "Chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashashi, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurasha olishi mumkin", [2] – deb ta'kidlagan edi. Kitoblar axborot tarqatuvchi qurol sifatida insonlarga ma'lum g'oya va qarashlarni singdiradi. Falsafiy, diniy va badiy kitoblardan mafkuraviy kurashlarda ko'proq foydalaniladi. Barcha kitoblar ham insonlarga yaxshilikni o'rgatadi va ma'naviy ozuqa beradi deb ayta olmaymiz.

Badiy asarlarning inson dunyoqarashiga ta'sir darajasi adabiy tanqidchilar va soxa mutaxassisslari tomonidan keng o'rganilgan va asoslab berilgan. Ushbu maqolada G'arb va Sharq madaniyatiga mansub adabiy tanqidchilar va adabiyotshunoslarning adabiy nazariyalari o'rganilgan. Jumladan, rus adabiyotida V. G. Belinskiy, N. A. Dobrolyubov, N. G. Chernishevskiy o'zbek adabiyotida Naim Karimov, Izzat Sulton, Matyoqub Qo'shjonov, Ozod Sharafiddinov kabi adabiy tanqidchilar tomonidan yozilgan bir qator maqola va kitoblarda adabiy asarlar mavzusi va ahamiyati yuzasidan muxim fikrlar beriladi.

Bunday jarayonlarda ikki asosiy mafkuraviy yo'nalishni tutgan ramziy hududlar bo'limish G'arb va Sharq o'rtasida kechayotgan madaniy kurashda muhim vositalardan biri ham so'z san'ati bo'lgan badiy adabiyotdir. Ular bu maqsadlari yo'lidagi kurashda axborot makonidan foydalanib amalga oshirishga urinmoqdalar. Adabiyot orqali axborot kurashi olib borishninmg ham, bir qator ijobiy xususiyatlari bo'lganidek, salbiy xususiyatlari ham uchrab turadi. Bunda bir tarafning mutlaqlashtirish bilan o'z mafkurasini gegemon qilib olishi yaxshilik keltirib chiqarmaydi.

Oz sonli millatlar ko'p sonli millatlarga qaram bo'lishining va yoki aksi bo'lishining insoniyat ravnaqiga hissasi bo'lmaydi va farovon jamiyatlarning qurilishiga to'sqinlik qiladi. Bizning jamiyatimizdagi ma'naviy qadriyatlar boshqa

jamiyatlardagidan tubdan farq qilishi mumkin. Millatchilik muammosining kurtak yozib, butun bir mamlakatning muammosiga aylanishi va separatizm, diskriminatsiya kabi buzg‘unchi g‘oyalarga sabab bo‘lishining oldini olish maqsadida kitob mutolaasi orqali yuzga keladigan axborot hurujlarining oldini olishimiz lozim.

Biroq bir qator omillar ularning mafkuraviy kurashlarda kutilmagan natijalarini keltirib chiqarishiga sabab bo‘ladi. Avvalambor, Bozor iqtisodiyoti qonunlarining kitob nashriyoti bilan bog‘liq masalalarga aralashishi natijasida, kitob nashriyotlari yengil-yelpi hayotni targ‘ib etuvchi, badiy saviyasi past bo‘lgan va sayoz fikrlar natijasi bo‘lgan kitoblarni nashr etmoqdalar. Ahamiyatiga ko‘ra bunday kitoblardan ustun mavqedagi kitoblar sotuvi nisbatan qiyinchilik bilan kechadi.

Chunki bozor iqtisodi sharoiti taqozosi bilan bitilgan kitoblarda shaxvoniy lavhalar, nafsoniy istaklarga ruju qo‘yish, erkinlikning haddan oshgani holda ana shu nafsoniy istaklarga qul bo‘lib qolgani kabi vaziyatlar o‘quvchini o‘ziga tortmay qolmaydi. Odatda bunday asarlar ma’lum bir davr uchun jozibador ko‘rinishda namoyon bo‘lsa, jamiyat mafkurasi o‘zgarishi bilan vaqt sinovidan o‘ta olmaydi. Sobiq SSSR tuzumi davrida ijod qilingan ana shunday asarlar bunga misol bo‘la oladi.

Ikkinchidan, badiy asarlarga ko‘r-ko‘rona yondashuv bilan munosabatda bo‘linishi va buning natijasida yuksak saviyali bo‘lmagan asatrlarning domiga tushib qolinishi ham kuzatiladi. Bunday muammolarning oldini olish maqsadida har bir jamiyat adabiy maydonda sog‘lom adabiy tanqidchilik tizimini yo‘lga qo‘yishi lozim. Adabiy tanqid eng qadimgi akademik fanlardan biri bo‘lib, muayyan matnlarning adabiy ahamiyati yoki intellektual ahamiyati bilan bog‘liq. [3] Taniqli amerikalik yozuvchi Ernest Heminguey tomonidan yozilgan kitoblarda juda ko‘plab baxsli xarakterga ega fikrlar o‘rtaga tashlanadi va taxlil etilishi bilan birga bizning mentalitetimizga to‘g‘ri kelmaydigan tomonlari ham mavjud.

Ernest Xeminguey ateist bo‘lgan va hudoga ishonmagan bo‘lgani uchun yozgan asarlarida bu aks etgan. Uning “Alvido qurol” nomli kitobi qahramoni urush natijasida eng yaqin insoni deb hisoblaydigan kishilaridan ajralishni xohlamaydi va hudoga iltijo qiladi. Biroq uning bu intilishlari bekor ketadi. “Chol va dengiz” asari qahramoni esa hudoga ishonadigan inson bo‘lib, uning qilgan ibodatlari va duolari besamar ketgani tasvirlanadi. Santyago endi butunlay omadsiz bo‘lib qolganini tushundi va mag‘lubiyatini tan olib, akulalarga ular haqiqatan ham odamni va uning orzularini o‘ldirganliklarini aytadi. [4] G‘arb mafkurasi bunday qarashlarni qabul qilsa, Sharq madaniyatida bunday g‘oyalar milliy mentalitetga tahdid bo‘lishi ham mumkin.

**Xulosalar:** Inson kamolotida kitob mutolaasining o‘rni to‘g‘risida so‘z borar ekan, adabiy asarlar ilmiy kitoblardan ko‘ra jalb etuvchi kuchi bilan ustunlik qiladi. Kitob mutolaa qilish o‘quvchilarning ma’naviy olamini boyitadi, o‘z oldiga ulkan maqsadlar qo‘yishga undaydi. Jamiyatda hukm suradigan adabiy muxit mafkuraviy muxitni shakllantira olganidan beqiyos ahamiyati sababli jiddiy tartibga solinishi lozim. Jamiyat uchun yot unsurlarning singdirilishi natijasida yoshlar ongi zaharlanib, mafkuraviy mutelik darajasiga tushib qolishi mavjud ekan, adabiy an’analar shakllantirilishida sog‘lom muxitni shakllantirishga e’tibor berish lozim. Milliy adabiy me’rosimizni anglab borish barobarida horijiy adabiy an’analarining ijobiy yutuqlaridan ham o‘rganish orqali ham yuksak adabiy me’rosga ega bo‘lishimiz bunda dogmatik mafkuraning shakllanishining oldini oladi.

## Foydalanilgan adaboiyotlar ro‘yxati


1. Ma’naviyat asoslari: O‘rta umumta’lim maktablarining 10-11-sinfari va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun darslik / V. Qo‘chqorov, O. Mahmudov, Z. Zamonov. – Ikkinchi nashr. - Toshkent: Yangiyo‘l Poligraf Servis, 2018. – B. 116
2. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 6
3. A Beginner's Guide to Literary Fiction" | NY Book Editors.

# Tarbiya darslarida tafakkurni rivojlantiruvchi o`yinlardan foydalanish

Ziyomiddinova Nilufar Avazbekovna
Namangan Davlat pedagogika instituti
Ta`lim va tarbiya nazariyasi metodikasi
(Boshlang`ich ta`lim) mustaqil izlanuvchi

**Annotatsiya:** Boshlang`ich sinf tarbiya fani dars jarayonlarida o`quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda interfaol o`yinlardan foydalanish orqali boshlang`ich sinf tarbiya darslarini samaradorligini oshirish, o`quvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o`rgatish. Didaktik vositalardan foydalanishda o`quvchilarning psixologik, yosh xususiyatlarini inobatga olish zarurligi misollar asosida isbotlangan.

**Annotation:** To improve the effectiveness of primary education classes by using interactive games in the development of students' thinking in the course of primary education, to teach students logical and critical thinking. The need to take into account the psychological and age characteristics of students in the use of didactic tools is proven on the basis of examples.

**Kalit so`zlar:** pedagogika texnologiya, innovatsion texnologiya, ta`lim va tarbiya, didaktika vositalari, ta`lim samaradorligi.

**Key words:** pedagogical technology, innovative technology, education and training, didactic tools, educational efficiency.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrdagi murojaatnomasida “Biz o`z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug` maqsadni qo`ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab bergan muhit va sharoitlarni yaratishimiz lozim. Bunda avvalo ta`lim va tarbiyani rivojlantirish, sog`lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g`oyamizning asosiy ustunlari bo`lib xizmat qilishi lozim”.

Shu bois ham kelgusi yillarda boshlang`ich ta`lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz - boshlang`ich sinf o`quvchilarini har tomonlama yetuk va barkamol rivojlanishlari uchun sharoitlar yaratib berilmoqda.

Kishilik tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida ham o`yin sub`ekt ijtimoiylashuvi, rivojlanish va faoliyatning eng birinchi shu bilan birga muhim turi sifatida tan olingan. Binobarin, shaxs faoliyatining muhim turlari – mehnat, o`qish bilan birga o`yin ham uning shakillanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O`yinlar vositasida katta avlod tomonidan to`plangan hayotiy tajribalar, o`zlashtirilgan bilim, turmush tarsi va ijtimoiy munosabat asoslari, madaniy qadriyatlar yosh avlodga izchil uzatib kelingan va kelinmoqda.

O`yin shaxsni tarbiyalash, rivojlantirish, unga ta`lim berish, uni ijtimoiy hayotga tayyorlash xususiyatlariga ega. Mavjud xususiyatlari tufayli o`yinlar qadim–qadimdan xalq pedagogikasining muhim vositalaridan biri bo`lib kelmoqda. Bevosita o`yinlar o`quvchilarda sezgi, diqqat, idrok, xotira, tafakkur, nutqni rivojlanishiga yordam berish orqali ularni ma`naviy – axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashda xizmat qiladi.

O`quv – tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to`g`ri joriy etilishi o`qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o`qituvchidan ko`proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Pedagogik texnologiya asosida o`tkazilgan mashg`ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o`z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o`z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Hozirgi davrda sodir bo`layotgan innovatsion jarayonlarda ta`lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o`zlashtirish va o`zlashtirgan bilimlarini o`zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fiklaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham, ta`lim muassasalarining o`quv – tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o`qitish usullari, interfaol usullar, innovatsion texnologiyalarning o`rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta`limda qo`llanishiga oid bilimlar, tajriba o`quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo`lishlarini ta`minlaydi.

"Dumaloq stol" metodi: Topshiriq yozib qo`yilgan qog`oz varog`i davra bo`ylab aylantiriladi. Har bir o`quvchi o`zining javob variantini yozib qo`ygach, varaqni boshqa o`quvchiga uzatadi. Keyin muhokama bo`ladi: noto`g`ri javoblar o`chiriladi, to`g`ri javoblarning soniga qarab o`quvchilarning bilimlariga baho beriladi. Bu metodni faqat yozma topshiriq qilib berish mumkin.

- tarbiya fanining ahamiyati ?
- aqliy tarbiyaning vazifalari qaysilar?
- tarbiyani qanday shakllantirish mumkin?
- estetik tarbiyaning vazifalari?

Shuni esda tutish kerakki, yaxshi tanlab olingan savollar bu – javoblarning yarmisini o`zida jo etgan savoldir.

"Ruchka stol o`rtasida" metodi: Butun sinfga topshiriq beriladi (masalan, o`quvchi shaxsining rivojlanishi va shakllanishiga ta`sir etuvchi, shaxs rivojlanishi va shakllanishining asosiy omillarini birma-bir ko`rsatib o`tiladi). Har bir o`quvchi darsda faol ishtirok etishi kerak. Hozirgi kunda ta`lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o`quv jarayonida qo`llashga bo`lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo`lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an`anaviy ta`limda o`quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o`rgatilgan bo`lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o`zlari qidirib topish, mustaqil o`rganish va tafakkur qilish, hatto xulosalarni ham o`zlari keltirib chiqarishga o`rgatadi. O`qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Bugungi kunda ta`limda "Aqliy hujum", " Sinkveyn", "BBB", " Beshinchisi ortiqcha", "Zinama – zina" kabi texnologiyalar qo`llanilmoqda.

**Xulosa:**Boshlang`ich siflarda interfaol metodlar va ta`limiy o`yinlardan zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish o`quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy va tanqidiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birgalikda ularni darslarda olgan bilimlarini kundalik hayot bilan bog`lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O`qituvchilarning bunday

zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg`or pedagogika hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida darslarni tashkil etish, olib borilayotgan tarbiya darslarini yanada samaradorligini oshirishiga yordam beradi. Kelajakda o`quvchilar o`z fikr va mulohazalarini erkin bayon eta olish imkoniyatiga ega bo`ladilar.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turdieva M. PRESCHOOL AGE IS AN IMPORTANT TIME TO FOCUS ON CREATIVITY //Матеріали конференцій МЦНД. – 2021.

2. Turdiyeva M. J., Islomova M. I. Q. A MODEL FOR DEVELOPING THE CREATIVE ABILITIES OF PRESCHOOL CHILDREN BASED ON A PERSONCENTERED APPROACH //Builders Of The Future. – 2021. – С. 10-14.

3. Juraqulovna T. M. et al. TYPES OF PERSON-CENTERED TECHNOLOGY IN THE EDUCATIONAL PROCESS //E-Conference Globe. – 2021. – С. 105-107.

4. Juraqulova T. M. et al. TYPES OF PERSON-CENTERED TECHNOLOGY IN THE EDUCATIONAL PROCESS //E-Conference Globe. – 2021. – С. 105-107.

5. Ахмеджанов М. М., Турдиева М. Ж. Пути развития инновационных технологий //Молодой ученый. – 2017. – №. 8. – С. 321-323.

6. Гафурова Д. Х. Роль детской литературы в развитии детей дошкольного возраста //Academy. – 2020. – №. 12 (63).

## M U N D A R I J A


| | | |
|---|---|---|
| | So’z boshi | 3 |
| **I-SHO’BA: MILLIY TARBIYA TARAQQIYOTINING MA’NAVIY TAMOYILLARI** | | |
| *Botirova Sevara Mamurovna* | Milliy tarbiya va inson qadri integratsiyasi | 5 |
| *Ismoilov Muhammadixon Isroilovich* | Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tarbiya klasteri maqomi: muammo va yechimlar | 10 |
| *Isokov Ravshanbek Ulug’bek O’g’li* | Tarix darslari orqali o'quvchi yoshlarda milliy qadryatlar va ananalarga hurmat ruhida tarbiyalash metodikasi bo'yicha eksperiment ishlarini tashkil etish. | 13 |
| *Aliyeva Mexrigul Murodilla qizi* | Tarixiy taraqqiyotda tarbiya inson rivojlanishining asosiy omili | 17 |
| *Botirjonov Muhammadzoxid Muxammadmansur o‘g‘li* | Tarixiy tarqqiyotda inson tarbiyasiga oid masalalar | 22 |
| *Botirova Sevara Mamurovana* <br> *Ma'rufova Jasmina Xabibillo qizi* | “Temur tuzuklari"da axloq va tarbiya masalasi” | 27 |
| *Muxammadova Sevaraxon Nazirjon qizi* | O`zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida tarbiya klasterini yaratish istiqbollari: muammo va yechimlari | 31 |
| *Valiyeva Nafisa Abdumajitovna* <br> *Muxtorova Muqaddas Olimxon qizi* | “Avesto” da tabiatning ulug‘lan ishi, yer, tuproq, suv, havoning muqaddaslashtirilishi | 38 |
| *Ataxonov Baxtiyor Turaboyevich* <br> *Raximjonova Adolat Botirjon qizi* | Tarixiy obidalarning yoshlar tarbiya sidagi o‘rni | 42 |
| *Sadirova Mehrigiyo Dilshod qizi* | Jadidlarning inson tarbiyasiga oid qarashlari | 48 |
| *Umida Zaripboyeva* | O’zbegim nikoh marosimlari: xorazm va farg’ona vodiysi misolida qiyosiy tahlil | 54 |
| *Tillayev Bobomurod Abduvoxobovich* <br> *Yo‘ldosheva Umida Xusniddin qizi* | Tarixiy taraqqiyotda ta’lim va tarbiyaga oid masalalar | 63 |
| *Qambarov Abdujabbor* | Tarixiy taraqqiyotda inson tarbiyasiga oid masalalar | 67 |

| | | |
|---|---|---|
| *Yuldashaliyeva Sarvinoz Ismoiljon qizi* | | |
| *Zuhraxon Akramjonova Shavkatjon qizi* | Amir Temur – buyuk davlat arbobi | 70 |
| **II-SHO'BA MILLIY TARBIYA KLASTERLARIDA ESTETIK TA'LIMNING O'RNI** | | |
| *Valiyeva Nafisa Abdumajitovna*<br><br>*Abdulazizova Farida Azamjon qizi* | Turkiston Muxtoriyati uchun kurash:muammo va ziddiyatlar | 75 |
| *Valiyeva Nafisa Abdumajitovna*<br><br>*Abdumannonova Mohlaroyim Elmurod qizi* | Turkiston jadidlarining milliy istiqlolchilik g'oyasi va mafkurasi | 78 |
| *Orifbayeva Dilafruz Dadamirzayeva*<br><br>*Abdurazzoqova Mushtariy Sherzod qizi* | Aqli zaif bolalarni o'rganish va ularga yordamni tashkil etish | 82 |
| *Axmadjanova Muazzam Islomjan ovna*<br><br>*Ahmadjonova Dilafruz Zokirjon qizi* | Ta'limning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati | 90 |
| *G'aybullayeva Zuhra Xayrullo qizi* | O'zbek milliy cholg'ularini bolalarga o'rgatish orqali ma'naviy-ahloqiy ongini rivojlantirish *(dutor cholg'usi misolida)* | 94 |
| *Abdullayev Akmal Nasriddinovich*<br><br>*Islomjonova Ma'rifat Shuxratjon qizi* | Konfutsiylik va milliy mafkura | 99 |
| *Yoldoshev Javohir*<br><br>*Islomova Mehribon Ikromjon qizi* | Ilmiy maktab, metod va metodiologik yondashuvlar | 103 |
| *Ataxonov Baxtiyor Turabayevich*<br><br>*Mahammadjonova Munavvarxon Avazjon qizi* | O'zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi | 107 |
| *Yo'ldoshev Jovohir* | Ilmiy tadqiqotda muammo va muammoli vaziyatning o'zaro | 111 |

| | | |
|---|---|---|
| *Meliboyeva Yodgora Elmurod qizi* | aloqasi | |
| *Jafarov Ibroxim*<br><br>*Muhammadiyeva Marjona G’ayratjon qizi* | Turkuston Muxtoryati; tarixiy tahlil | 115 |
| *Qosimova Yulduzxon Javlonbek* | Tarixiy taraqqiyot davrida ta’lim- tarbiyaning o’rni va bugungi kundagi ahamiyati qizi | 118 |
| *Sotiboldiyeva Manzura Nosirjon qizi* | Aristotelning falsafaga qo‘shgan xissa va ijodiy merosi | 123 |
| *Kenjayev Burgutali Qovuljon o’g’li*<br><br>*Tursunaliyeva Mukarram Ulug’bek qizi* | O’zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida tarbiya klasterlarini yaratish istiqbollari: muammo va yechimlar | 125 |
| *Tursunova Roziya Nodirbek qizi*<br><br>*Ro‘ziqova Malika Olimjon qizi* | Ixtisoslashtirilgan maktab yuqori sinf o‘quvchilarini oilaga tayyorlash. | 131 |
| *Xolmirzayeva Fazilatxon Obidjon qizi* | Umumta’lim maktablarida yoshlarning estetik ongini shakllantirishda tasviriy san’at fani hamda ta’lim texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati | 134 |
| *Tillayev Bobomurod Abduvoxobovich*<br><br>*Zoxidjonova Moxinur Botirjon qizi* | Yoshlarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishga ta’sir etuvchi ma’rifiy qadriyatlar | 142 |
| *Kenjayev Burgutali Qovuljon o‘g‘li*<br><br>*Abdusobirova Mohiyatxon Mirzohidjon qizi* | Globallashuv sharoitida tarbiya tizimida innovatsion yondashuv | 144 |
| *N. Shaydullayev* | Ta’lim jarayonlarida yoshlar ongida milliy o‘zlikni anglash va asrash tuyg‘usini shakllantirishning dolzarb masalalar | 147 |
| *Orziyev Iqbol Jumanazarovich* | Jamiyatda tarbiyaviy jarayonlarning barqarorligiga erishishda diniy bag‘rikenglikning o‘rni | 151 |
| **III-SHO’BA: TA’LIM JARAYONIDA ESTETIK TARBIYA** | | |

| KLASTERLARINING INTEGRATIV OMILLARI | | |
|---|---|---|
| *Abduvaliyeva Gulchexra Mamadjon qizi* | Boshlang’ich sinf o’quvchilari o’qish samaradorligini oshirish uchun maxsus yondashuvlar | 156 |
| *Asqarov Behzod Baxtiyor o‘g‘li* | Dizayn fikrlashning kelib chiqish tarixi | 162 |
| *G‘aybullayeva Fotima Xayrullo qizi* | Alisher Navoiy g‘azallari yoshlarning estetikasi va etikasini rivojlantirish omili sifatida | 166 |
| *Zarnigor Omonova*<br><br>*Boqijonova Ruxshona* | Yangi O‘zbekistonda gender tenglik tushunchasi | 170 |
| *G’oyipova Nodira*<br><br>*Hoshimboyeva Ruxshona* | Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan logoritmik mashg'ulotlar ahamiyati | 176 |
| *G'oyipova Nodira Baxtiyor qizi*<br><br>*Mamadaliyeva Maftunabonu Muzaffar qizi* | Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda nafas mashqlarining ahamiyati | 181 |
| *Nuriddinova Diyora Isaqali qizi* | Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida | 184 |
| *Tillayev Bobomurod Abduvoxobovich*<br><br>*Sobirjanova Ruxshona Shavkat qizi* | Milliy o’zlikni anglash - mafkuraviy immunitetni shakllantirishning asosiy omili sifatida | 190 |
| *Sotiboldiyeva Manzura Nosirjon qizi* | Falsafa fani ahamiyati va afzalliklari | 196 |
| *З.Ф.Азизова* | Педагогико-психологические характеристики социальной компетентности в условиях интенсивного познавательного развития в дошкольном возрасте | 200 |
| *Зиявиддинова Зухрахон* | Проблемы воспитания человека в историческом развитии Академический лицей Международного Вестминстерского университета в Ташкенте | 210 |
| *Kenjayev Burgutali Qovuljon* | Inson tarbiyasining axloqiy asoslari: | 216 |

| | | |
|---|---|---|
| *o‘g‘li*<br><br>*Ahmadjonova Dilafruz Zokirjon qizi* | konfutsiy va sharq falsafasi | |
| **IV-SHO’BA: TARBIYA KLASTERLARINI SHAKLLANTIRISHDA AXLOQIY VA ESTETIK BILIMLARNING ZARURIYATI VA VOSITALARI** | | |
| *Madraximov Azamat Adilovich* | Sun’iy intellektning axloqiy masalalari | 221 |
| *Oribboyeva Dilafruz Dadamirzayevna*<br><br>*Abdulmoniyeva Gulhayo Odiljon qizi* | Autizm spektri buzilishlarida ijtimoiy-emotsional soha va o‘zaro muloqot qilishdagi muammolar | 229 |
| *Xaydarov Zahiriddinbobur Umarovich*<br><br>*Abdumajidova Sayyora Baxodir qizi* | Tarixiy taraqqiyot jarayonida inson tarbiyasiga oid masalalar | 233 |
| *Abduraximova Muxtaramxon Mirjalol qizi* | Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda o‘yin ta’lim texnologiyasidan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari | 238 |
| *Akbarova Umida Abduholiq qizi* | Turiston Muxtoriyati uchun kurash muammo va ziddiyatlar | 243 |
| *Axmadjanova Muazzam Islamjanovna*<br><br>*Azamjonova Odina Isroiljon qizi* | Axloqiy tarbiya jarayonida badiiy asarlarning o‘quvchilarga ta’siri | 247 |
| *Boymurodov Zohid Shokirovich* | Ma’naviy yuksalish omillari orasida irodaning tutgan o‘rni | 250 |
| *Zaynobidinova Naima Inomidinovna*<br><br>*Davronboyeva Oygul Saydakbar qizi* | Turkiston jadidlarining milliy istiqlolchilik g’oyasi va mafkurasi | 260 |
| *Ergashaliyeva Ma’sumaxon Ulug‘bek qizi* | Bolalar adabiyotida zafar diyor she’rlarining tutgan o‘rni . | 268 |
| *Erkinova Muslima Mirzaolim Qizi* | Nutq nuqsoniga ega bo’lgan bolalarning reablitatsiyasi | 274 |
| *Kenjayev Burgutali Qovuljon o‘g‘li* | Globallashuv jarayonida milliy tarbiyaning saqlanishi va rivojlanishi | 277 |

| | | |
|---|---|---|
| *Halilova Muxlisabonu Hamidullo qizi* | | |
| *Kaxxorova Odina Nazirjonovna* | Boshlang‘ich sinflarda musiqa fanining bola shaxsini hamda estetikasini rivojlantirishdagi o‘rni | 282 |
| *Roziqova Malika Olimjon qizi*<br><br>*Nasirova Nilufar Nazirjon qizi* | Intellektual kamchiligi bo’lgan shaxslarda mehnat ta’limi va ularni kasb-hunarga yo’naltirish | 285 |
| *Nurmatova Shaxnoza Shavkatbek qizi*<br><br>*Rustamova Mohina Akbarali qizi* | Tarbiyadagi muammo va kamchiliklar: jamiyatning taraqqiyotiga tahdid | 291 |
| O‘g‘iloy Axmadaliyeva | Milliy tarbiyada Navoiy aforizmlaring o‘rni | 297 |
| *Shodmonova Sevara Muxtor qizi* | Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash tamoyillari | 302 |
| *Kenjayev Burgutali Qovuljon o‘g‘li*<br><br>*To‘xtaboyeva Nafisa G‘ulomqodir qizi* | Axloqiy va estetik qadriyatlarni shakllantirishda milliy merosning o‘rni | 307 |
| **V-SHO’BA: IJTIMOIY DAVLAT VA INSON QADRI INTEGRATSIYASIDA ESTETIK TARBIYA KLASTERINING ASOSIY TAMOYILLARI** | | |
| *Dadaxanov Shavkat Shakirovich* | O‘zbekistonda ichki ishlar idoralari xodimlarida “ijtimoiy davlat” va “inson qadri” tamoyillarinining ijtimoiy-estetik hamda falsafiy mohiyati | 312 |
| *Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich* | Yangilanayotgan o‘zbekistonda ijtimoiy davlat va insonparvar tamoyilining tarbiya klasteridagi o‘rni | 320 |
| *G‘anyieva Malikaxon Sodiqjonovna* | Yoshlar, ayniqsa xotin-qizlarda tadbirkorlikka oid kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning Ijtimoiy-estetik xususiyatlari | 326 |
| *Kenjayev Burgutali Qovuljon o'g'li*<br><br>*Hakimjonova Nilufar Salimjon qizi* | O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining shakllanishi va rivojanishi | 333 |
| *Ataxonov Baxtiyor Turabayevich* | O‘zbekistonda kuchli ijtimoiy | 338 |

| | | |
|---|---|---|
| *Mahammadjonova Munavvarxon Avazjon qizi* | siyosat konsepsiyasining shakllanishi | |
| *Valiyeva Nafisa Abdumajitovna*<br><br>*Maxamadinova Marjona Xolmurod qizi* | 1917–yil fevral–oktyabr oralig’ida Turkiston | 342 |
| Tillayev Bobomurod Abduvoxobovich<br><br>*Muhammadaliyeva Zilola Sherzod qizi* | Milliy o‘zlikni anglash – mafkuraviy immunitetni shakllantirishning asosiy omili sifatida | 347 |
| *Risliqov Rasuljon* | O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglikning tarixiy ildizlari | 351 |
| *Самадов Турсунбой Адхамжонович* | Мутолаа–инсон капиталини ривожлантиришнинг муҳим омили сифатида | 355 |
| *Botirova Sevara Mamurovna*<br><br>*Turg‘unboyeva Nozima Raxmatilla qizi* | Ijtimoiy davlat va inson qadri integratsiyasida estetik tarbiya | 367 |
| *Tursunboyeva Shirin Farhodjon qizi* | O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida tarbiya klasterlarini yaratish istiqbollari muammo va yechimlar | 370 |
| *Kenjayev Burgutali Qovuljon o‘g‘li*<br><br>*Uraimjonova Zilola Ikromjon qizi* | Ijtimoiy muammolar va inson tarbiyasi: zamonaviy dunyoda bolalarning tarbiyasi | 374 |
| *Sevara Botirova*<br><br>*Valijonova Dilbarxon Muhiddin qizi* | Muxtor turkiston dastlabki davlatchilik timsoli | 380 |
| Valiyev Elyorbek Saidaxror o’g’li | Inson huquqlarining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati | 384 |
| *Zokirjanov Nematjon Ziyoviddin o'g'li* | Ma’naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining o'rni | 388 |
| *Курганова Р.Н.* | Формирование патриотических ценностей в воспитании молодежи | 395 |

| VI-SHO’BA: ESTETIK TARBIYANING GLOBAL MUAMMOLARINI KLASTER TIZIMI ASOSIDA O‘RGANISH OMILLARI | | |
|---|---|---|
| *Tillayev Bobomurod Abduvaxobovich*<br><br>*Abdukarimova Robiya Raxmatullo qizi* | Globallashuv va ma’naviy tahdidlar | 402 |
| *Abdujabborov Mirzohid Abdug‘affor o‘g‘li* | Qatag‘on olovida toblangan namanganlik vatandoshlarimiz qissasi | 404 |
| *Zaynobidinova Naima Inomidinovna* | Tarbiyaning madaniy va milliy xususiyatlari: sharq va g‘arb | 412 |
| *Sharobiddinov Sherzodbek* | Madaniyatda an’ana vorisligi muammosining falsafiy aks etishi | 418 |
| *Qambarov Abdujabbor Boxrolievich* | Yangi O’zbekiston yoshlarining tarixiy tafakkurini shakllantirishda tarbiyaning o’rni | 424 |
| *Abdujabbarov Mirzohid Abdug‘affor o‘g‘li* | O‘zbekistonda sovetlar davridagi qatag’onlik siyosati va uning oqibatlari | 431 |
| *Valiyeva Dilnoza Bahromjon qizi* | Maxsus pedogogika va logopediya soxasidagi xalqaro tajribalar | 437 |
| *Tillayev Bobomurod Abduvoxobovich*<br><br>*Soataliyeva Layloxon Sobitali qizi* | Globallashuv jarayonida ta'lim-tarbiyaning o‘rni va ahamiyati | 442 |
| *Tillayev Bobomurod Abduvaxobovich*<br><br>*Abduqahhorova Mohlaroy Mirzaolim qizi* | Globallashuv davrida ta'lim - tarbiyaning o'rni va axamiyati | 444 |
| *Boyjonov Furqat Baxromovich* | Gender madaniyat shaxsning asosiy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida | 448 |
| *Shuhrat Haydaraliyev* | Mintaqaviy hamkorlik va mintaqaviy integratsiya | 453 |
| *Tillayev Bobomurod Abduvaxobovich*<br><br>*Komiljonova Zarifa Ahmadali* | Globallashuv davrining badiiy adabiyotga ta’siri | 458 |
| *Tillayev Bobomurod* | Globallashuv jarayoni va ma’naviy | 461 |

| | | |
|---|---|---|
| *Abduvaxobovich*<br><br>*Parpiyeva Laylo Shuhrat qizi* | tahdidlar | |
| *Tillayev Bobomurod Abduvaxobovich*<br><br>*Mirzabdullayeva Gavharoy Mirzohid qizi* | Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhid tarbiyalashda ta`lim muassasalarining roli | 465 |
| *Tillayev Bobomurod Abduvaxobovich*<br><br>*Naimjonova Gulshoda Rustamjon qizi* | Globallashuv sharoitida milliy madaniyatlar to‘qnashuvi | 470 |
| *Tillayev Bobomurod Abduvaxobovich*<br><br>*Ortiqova Maftuna Xomidjon qizi* | Insoniyat hayotida ilk bosma nashrlar | 475 |
| *Tillayev Bobomurod Abduvaxobovich*<br><br>*Tojimirzayeva Zulayho Nusratillo qizi* | Globallashuv davrida ta;lim-tarbiyaning o’rni va ahamiyati | 479 |
| *Tillayev Bobomurod Abduvaxobovich*<br><br>*Umarova Muhayyo Tolibjon qizi* | Yoshlarning ma’naviy madaniyatini shakllantirishga ta’sir etuvchi ma’rifiy qadryatlar | 488 |
| *Ataxanov Baxtiyor Turabayevich*<br><br>*Yo’ldosheva Munavvarxon* | O‘zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanish | 496 |
| *Kenjayev Burgutali Qovuljon*<br><br>*Yuldasheva Dildora Ilhomjon qizi* | Ekstremizm va terrorizmning mazmun-mohiyati va kelib chiqiqsh sabablari | 499 |
| *Axmadjanova Muazzam Islomjan ovna*<br><br>*Halilova Muxlisabonu Hamidullo qizi* | Korrupsiya oqibatida ta;lim sohasiida yuzaga keladigan inqirozli holatlar | 503 |
| *Ataxanov Baxtiyor Turabayevich*<br><br>*Hakimova Zilola* | Ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashda tarix fanining o’rni | 507 |
| *Yusupova Sevara Nizamitdinovna*<br><br>*Bahronov Behruz Bo‘ri o‘g‘li* | Talabalarda millatlararo totuvlik va hamjihatlik to‘g‘risidagi bilimlarini rivojlantirish metodikasi | 513 |

| | | |
|---|---|---|
| | (O‘zbekistonning eng yangi tarixi fani misolida) | |
| *Umarov Murodjon Mamatkarim o’g’li*<br><br>*Mahmudov Yashnarbek Ulug‘bek o‘g‘li* | Abu Nasr Farobiyning ta’lim va tarbiyaga oid qarashlari | 519 |
| *Tillayev Bobomurod Abduvaxobovich*<br><br>*Yusupova Yulduzxon Ikromjon qizi* | Globallashuv jarayonlari va ma’naviy tahdidlar | 526 |
| *Tillayev Bobomurod Abduvaxobovich*<br><br>*Jamoliddinova Hilola Sodiqjon qizi* | Tarixiy taraqqiyotda inson tarbiyasiga oid masalalar | 531 |
| *Tillayev Bobomurod Abduvaxobovich*<br><br>*Abdujabborova Nilufar Rustamjon qizi* | Globallashuv jarayonining milliy ma’naviyatimizga tasiri | 535 |
| *Tillayev Bobomurod Abduvaxobovich*<br><br>*Yusufjonova Zilolaxon Madamin qizi* | Globallashuv jarayonining badiiy adabiyotga tasiri | 538 |
| *Tillayev Bobomurod Abduvaxobovich*<br><br>*Boymirzayeva Guljahon Bahromjon qizi* | Globallashuv jarayonining badiiy adabiyotga ta’siri | 541 |
| *Tillayev Bobomurod Abduvaxobovich*<br><br>*Xudoyorova Mahliyo Anvarjon qizi* | Tarixiy taraqqiyotda inson tarbiyasiga oid masalalar | 545 |
| *Botirova Sevara Mamurovna*<br><br>*Olimjonova Matluba Baxtiyor* | Yosh avlod ta’lim va tarbiyasida badiy asarlarning mafkuraviy ahamiyati | 551 |
| *Ziyomiddinova Nilufar Avazbekovna* | Tarbiya darslarida tafakkurni rivojlantiruvchi o`yinlardan foydalanish | 556 |